



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

NOSIRUDDIN
BURHONUDDIN
RABG'UZIY

5

NOSIRUDDIN
BURHONUDDIN RABG'UZIY

5

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

NOSIRUDDIN
BURHONUDDIN
RABG'UZIY



NOSIRUDDIN BURHONUDDIN RABG'UZIY



“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton - hay'at raisi,

Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Melliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Hamidulla Dadaboyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'laml, zalvorti badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tili davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

NOSIRUDDIN RABG'UZIY VA UNING "QISASI RABG'UZIY" ASARI

Turkiy adabiy tillar, turkiy tilda bunyod etilgan yozma manbalar shakllanish va rivojlanishning murakkab bosqichlarini bosib o'tgan.

Ma'lumki, ilk turkiy yozma yodgorliklar run, sug'd, moniy, braxma, uyg'ur yozuvlarida bitilgan bo'lib (V-VIII), ular toshga (O'rxun-Enasoy bitiklari), teriga, yog'ochga, maxsus qog'ozga (Turfon matnlari) va boshqa ashyolarga yozilgan. Bular tarixning ma'lum bir bosqichlarida O'rta Osiyoda hukm surgan turk, uyg'ur xoqonliklari va qirg'iz davlati davrida dunyoga kelgan tarixiy yodnomalardir.

Mazkur bebaho milliy merosning katta qismi V.V. Radlov, V.Tomsen, P.M. Melioranskiy, S.E. Malov, V.L. Kotvich, A. fon Gaben, G.Ramstedt, A.N. Kononov, P.Sime, B.Atalay, E.N. Najib, R.Arat, D.Vasilev singari atoqli rus va xorijiy turkiyshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. VII-VIII asrlar mobaynida O'rta Osiyoning arablar tomonidan zabt etilishi va islom dinining qabul qilinishi yerli xalqlar ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, diniy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Bu davrda Movarounnahrda ilohiyot, aniq fanlar va falsafada arab tili hukmronlik qilgan.

XI-XII asrlarda Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Shosh, Farg'ona, Afg'oniston, Shimoliy Eron, Xorazm yerlarini o'z tasarrufiga olgan juda katta maydonda turkiy qabilalar birikuvidan tashkil topgan Qoraxoniylar saltanati hukmronlik qildi.

Qoraxoniylar davrida ilm-ma'rifat, madaniyat rivojlandi, qator ilmiy, falsafiy asarlar yaratildi. Bu asarlar asosan arab, fors va turkiy tilda bitildi. Diniy maktablarda talabalar ilm olgan. Oliy madrasalarda riyoziyot (matematika), handasa, (geometriya), jabr-u muqobil (algebra), jug'rofiya, ilmi nujum (astronomiya) kabi fanlar o'qitilgan.

XI-XIII asrlar mobaynida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad

Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", muallifi noma'lum "Tafsir" kabi asarlar yaratildi. Bu obidalar til xususiyatlariga ko'ra eski o'zbek adabiy tiliga juda yaqin turadi.

XIII-XIV asrlar turkiy xalqlar va turkiy tillar tarixida alohida va murakkab davrni tashkil etadi. Bu davrda O'rta Osiyo va Oltin O'rda muzofotlarida til xususiyatlari jihatidan bir-biriga yaqin, ayni chog'da, ayrim jihatlar bilan farq qiluvchi ko'pgina asarlar yuzaga keldi.

Ushbu asarlar til xususiyatlarining bir-biridan farq qilishiga ularning juda katta maydonda va turli joylarda bunyod etilganligi sabab bo'lgan.

Mazkur obidalar til nuqtayi nazaridan farq qilishidan tashqari, ularning barchasida turkiy tillarning o'g'uz-qipchoq, qorluq-uyg'ur guruhlariga xos bo'lgan leksik, fonetik va morfologik xususiyatlar o'z aksini topgan. Bu hol XIII-XIV asrlardagi murakkab tarixiy sharoit, ma'lum bir joyda turli turkiy xalqlar vakillarining birga yashaganligi, manba muallifi yoki nusxa ko'chiruvchi shaxsning qaysi turkiy millat vakili ekanligi singari obyektiv va subyektiv jihatlar bilan izohlanadi. Yuqorida nomlari zikr etilgan manbalarning ko'pchiligi eski o'zbek adabiy tilining shakllanishida muhim poydevor vazifasini o'tadi.

Til jihatidan "Tafsir", "Xustav va Shirin", "Nahj ul-farodis", "Siroj ul-qulub" singari obidalarga yaqin turuvchi "Qisasi Rabg'uziy" O'rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida "Qisasi ul-anbiyo" nomi bilan mashhur bo'lib, kitobxonlar tomonidan e'zozlab o'qiluvchi, baxshi va oqinlar tomonidan sevib kuylanuvchi asarlardan biri sanaladi.

Asar muqaddimasida aytilishicha, obida Xorazmda Raboto'g'uz degan joyning qozisi Burhonuddin o'g'li Nosiruddin tomonidan musulmon dinini qabul qilgan, e'tiborli mo'g'ul beklaridan hisoblangan Nosiruddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra, hijriy 709-(milodiy 1309—1310) yilda yozilgan. Asarning yozilish sababi to'g'risida muqaddimada quyidagicha qisqacha ma'lumot berilgan: ...payg'ambarlar qissalarining a'g'oyat rag'batimiz bor. Tekma yerda ul kitobat topilur ammo ba'zisi mustaqim va ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi muqarrar va bir onchasi mu'tebar, biravlarining so'zlari kesuk, birlarining maqsudlari o'ksuk. Emdi senung dahaningdin

chiq'an, qalamungdin oqg'an, kitobama sening, iboratma sening bo'lib, bizga "Qisas ul-anbiyo" bo'lsa, o'qug'luqqa keraklik, o'qumoqqa yarog'lig' bo'lg'ay erdi, teb iltimosma yanglig' ishorat bo'ldi ersa agarchi o'zumni ul ishga loyiq, ul amalga muvofiq ermasin bilimish erkan o'zumni og'irlab, nafs saqlamish bo'lib o'g'ur bo'lsun, teb bu og'ir ishga yuz evurdik. Izi azza va jalladin tamom bo'lg'ug'a tavfiq' tilab kitob boshladimiz.

Muallif asardan ko'zda tutilgan maqsadni ta'riflab shunday deydi: Munda maqsud payg'ambarlar qissasi erdi. Valekin Odamdin burunroq yaratilg'anlar bor uchun andin boshlasaq foydasi ortuqroq bo'lg'ay, ul foydadin foyda ko'rsalar yaxshiroq bo'lg'ay, teb tartib uza yaratilg'anlardan og'oz qildi. Izlagan bot topqay, eshitgan bot bilgay, teb "Qisasi ar-Rabg'uziy" ot berduk. Nosiruddin Rabg'uziy asarni deyarli bir yillik tinimsiz mehnatdan so'ng hijriy 710-yilning hut (melodiy 1310-yil, 21-fevral - 21-mart) oyida nihoyasiga yetkazadi.

Rabg'uziyning hayoti va ijodi haqida ma'lumot juda kam bo'lishiga qaramay, uning zamonasining taniqli tarixchisi, yetuk shoiri va iste'dodli tarjimoni ekanligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Buning dalili sifatida Rabg'uziy qalamiga mansub qator turkiy she'rlar, arabchadan o'girilgan she'riy tarjimalarga asarda katta o'rin berilganligini e'tirof etish kifoya.

Asar hamd, na't, muqaddima, qissalar, lirik kechinmalar va xotimalardan iborat.

Qissalar, asosan, nasrda, madhiyalar, ba'zi bir qissalarning xulosalari, lirik kechinmalar va kitob xotimasi nazmda yozilgan.

Payg'ambarlar haqidagi afsonaviy qissalarning asosiy qismi diniy xarakterda bo'lib, Rabg'uziy ularning aksariyatini Qur'oni Karim va o'zga diniy manbalardagi sujetlar asosida yaratgan.

Yodgorlikdan o'rin olgan va insonlarni o'zaro to'g'ri munosabatda bo'lishga, bir-birlariga nisbatan jabr-zulm qilmaslikka, nohaq qon to'kmaslikka, harom-harish ishlarga berilmaslikka, sharm-hayoni yo'qotmaslikka undovchi o'g'itlari bugungi kunda ham o'z mohiyatini yo'qotgani yo'q.

Tarixiy muhit, diniy tafovutlar xalqlar va millatlar orasida nizo solgan, bema'ni urush va ixtiloflarni vujudga keltirgan bir sharoitda

¹ Tavfiq — ko'mak, yordam, madad.

Nosiruddin Rabg'uziy turli el-yurt vakillarini inoq va hamjihat bo'lib yashashga, ijod qilishga chorlaydi.

"Qisasi Rabg'uziy"ning turli davrlarda ko'chirilgan bir necha qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, ular dunyoning turfa kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda. Asarning eng qadimiy qo'lyozma nusxasi XV asrda ko'chirilgan bo'lib, u Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Ushbu nusxaning faksimilesi mashhur matnshunos K. Gronbek tomonidan 1948-yili Kopengagenda nashr qilingan. Ana shu faksimile qo'lingizdagi kitobni tayyorlovchilar tomonidan asos qilib olindi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yodgorlik Toshkent, Qozon shaharlarida litografiya asosida bir necha marta nashr qilingan. Asarning to'la matni ilk marta N. I. Ilminskiy tomonidan 1859-yili Qozon shahrida e'lon qilingan. Bu nashr nisbatan keyinroq ko'chirilgan nusxaga asoslangan bo'lib, til jihatdan asl nusxadan ancha farq qiladi.

"Qisasi Rabg'uziy"ning tiliga kelganda shuni ta'kidlash lozimki, uning til xususiyatlari O'rta Osiyodagi turkiy tillarning barchasi uchun bab-barobar ilmiy qiymatga ega.

Asar tilining hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati to'g'risida gap ketganda shuni aytish kerakki, qissa tili bilan bugungi o'zbek adabiy tili orasidagi salkam yetti asrlik vaqt o'tganiga qaramasdan, bu asar hozirgi o'zbek adabiy tili ilk taraqqiyot davrining yodgorliklaridan biri sifatida qaralmog'i maqsadga muvofiq.

Tabiiy, asar tilida qo'llangan rang-barang so'zlarning ayrimlari bugungi kitobxon uchun tushunarsiz bo'lib qolgan. Vaqt o'tishi, turli ijtimoiy-siyosiy voqealarning sodir bo'lishi natijasida ba'zi so'zlar o'z umrini yashab bo'lgan va iste'moldan chiqib ketgan yoxud arxaizmlar qatoridan o'rin olgan. Shu bilan bir qatorda, tarix sinovlariga bardosh bergan va bugungi kunda ham tilimizda faol qo'llanayotgan juda ko'p so'zlar Rabg'uziy yozib qoldirgan bebaho durdonaning har bir satrida uchraydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Rabg'uziyning payg'ambarlar haqidagi qissalari ham badiiylilik, ham til nuqtayi nazaridan ulkan e'tiborga loyiq yozma yodgorlikdir.

Ergash Fozilov,
filologiya fanlari doktori, professor

QISASI RABG'UZIY

MUQADDIMA

(1V) Bismillohir Rahmonir Rahim

Sonsiz hamd-u sanolar, saqishsiz ko'p shukrlar ul Tengrig'akim jalla jalolahu karim qudrati birla bizlarni odamiy yaratti, yilqi qora yaratmadi Qavluhu taolo. *Va laqad karramna bani Aadama.*

Yaratmishda kezin fazli karami birla er yaratti, xotun yaratmadi. Qavluhu taolo. *Alayhinna darajatun va taqi bizlarni arig' yo'lg'a ko'ndurub, hidoyat birla og'irlab yomon yo'ldin kutardi.* Qavluhu taolo. *Va inna xaza siroti mustahiman fattabi'uhu.* Anda kezin qadim ehsoni birla biz za'iflarga Muhammad Mustafo sallalohu alayhi va sallamni payg'ambar izti. Qavluhu taolo. *Laqad jaakum rasulun min anfusikum, ya'ni biz munglug'larni Muhammad Mustafog'a ummat qildi, azin ummatlardin bizni ortuq qildi.* Qavluhu taolo. *Kuntum xayra ummatin uxrijat linnas.* Bu muncha karomatlarda bizni kezin qamug' tanglig'lardin bizni ko'rklu yaratti. Qavluhu taolo. *Va savavarakum fa ahsana suvarakum va al-hamdulillah* *ala ma avla fa nima ar-rabbu va ni'ma al-mavla.* Durud va tahriyyot, salavot va salat ul ko'ni so'zluk, qutlug' yuzluk, *laamruka tojlug', lav loka lama xalaqtu al-aftak havojlug', subhana allazi asra me'rojlig'.* Ul o'zi muti', zikri rafi', ummatig'a shafi' va-llohu ya'simuka minan-nas yizig'lig', va innaka la'ata xulukin azimin qiliqlig', va la tamshi fial-arzi marahan yo'rig'lig', va iza sa'alaka ibadi anni fa inni qarib xitoblig', va ammaas-saila fa la tanhar itoblig', ma zagaal-basaru va ma tag'o himmatlig', fa kana qoba qavsayni av adna rif'atlig', va lasavfa yo'tika rabbuka fatarzo shafot'atlig', at-ta'ibuna val-abaduna val-hamiduna ummatlig', va min al-layli fatahajjad bihi naflatan namozlig', fa avha ila abdihi ma avha rozlig', lo uhsi sana'an alayka (2r) niyozlig', qumalayla illa halilan qabushlig', li'ilafi qurayshin qadashlig', va ji'na bika ala ha'ula'i shahidan shahodatlig', asa an yab'asaka rab-buka saodatlig', alaysa-allohu bikafin abduhu inoyatlig', va innaka

¹ Qavs ichida berilgan raqamlar qo'lyozma sahifalarini anglatadi.

*Ilahidi ila siratin mustaqim*in hidoyatlig', *shahru ramazon alla-*
*zi unzila fi-xial-Qur'an*u oyatlig', *ihtarabatas-sa'atu va-nshahha*
al-qamaru ishoratlig', *innaa arsalnaka shahidan va mubashshiran*
bashoratlig'. Anbiyolar qiblası, asfiyolar qidvası Muhammad
Mustafo sallalohu alayhi va sallam.

Din shariat royatini olty qilg'an Mustafo,
Kufr-u zulmat tug'larin yerga cholg'an Mustafo.
Ul otasi birla onasi o'zurub ummat uchun,
Yolborib Haqqin shafolat sotqun olg'an Mustafo.
Qavmi orin ko'turmadin ko'kka og'g'an Iso ul,
Ummatig'a bo'lushubon yerda qolg'an Mustafo.
Ul qiyomat kun shafolatning qurini qurshabon,
Yohaytu turg'an tilindin osiy yulg'an Mustafo.
Ul yigirmi uch yil emgab, ko'rmadi tun uyqusin,
Osiy ummat yozuqin Haqqin qo'lg'an Mustafo,
Sovchilar me'roj tuninda Bayt ul-muqaddasqa kelib,
Har shafolat o'tayurda boshchi bo'lg'an Mustafo.
Inar erkan Mustafoni indab eltgan Jabroil,
Yo'qlayurda Jabroilni yo'lda solg'an Mustafo.

Ukush itig' salomlar to'rt eshinga, to'quz xotung'a, iki ammig'a,
sayyidi sodot ahl ul-jannat tashrifluq o'g'lonarig'a va sallimu
tasliman kasiran.

Munassif so'zi, ba'd az, bu kitobni tuzgan, toat yo'linda tizgan,
ma'siyat yobonin kezman, oz ozug'lug', ko'p yozuqlug' Rabot
o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin urug'i, *satarallohu*
alayhi assalomata va rahima shiyabahu andog' aytur. *Ajall ut-toj-*
ul-umaro va muhibbul-ulamo beklar urug'i, yigitlar arig'i, ulug'
otlug', qutlug' zodlig', yaxshi (2v) qiliqlig', islom yorig'liq, mo'g'ul
sinlig', musulmon dinlig', odamiylar inonchi, mo'minlar quvonchi,
himmati ismi bek, aqli yitig' begimiz Nosiruddin To'qbug'a
sabbatallohu alo dimil-islom va salomuhu.

Fi madhi Nosiruddin To'qbug'abek
Ilhoq amul tuzun qilig'

Siliq arig' haddi safo
Ko'k'din adizrak himmati
Mavrusi bekklik dunyoda
Surar ani bulnub beko
Qizg'anchi dunyo mulkini
Asli mo'g'ul erkan ko'runq
Islom uchun tutti beko
Bo'ldi Rasulning ummati
Toat qilur tun-kunduzun
Olnur saboq Mushafqa baqo
"Qur'on" o'qumoq odati
Tasbih ayturda xushlanib
Injulanan yoshi aqo
Eshitilsa "Qur'on" oyati
Erardi yavloq telim
Tuz so'zlayur so'zni uqo
Ortuq yaroqlig' siyrati
Rabdin ato bo'lub anga
Haq bermishi qutlug'liqo
Ko'rk'luk sifatlig' surati
Ezgu qiliq birla yurub

Do'st qizg'atur dushman baqo

Ortar qamug'din hurmati

Kunduz o'qur, tunda qo'par

Toat qilur kirub suqo

Arslon mengizlik savlati

Yoshi kichik yo'ni ulug'

Zoti arig'bek To'qbo'g'a

Ul Nosiruddin kunyati

El oshasun, yuz yashasun

Bo'lub muti' Mavlosing'a

Mundin ziyoda qurbati.

Tarix yeti yuz to'quzda it yilining avvalida qosid yetildikim,
payg'ambarlar qissalaring'a g'oyat rag'batimiz bor. Tekma yerda
ul kitobat topilur ammo ba'zisi mustaqim va ba'zisi nomustaqim.

Bir onchasi muqarrar va bir onchasi mu'tabar, biravlarining so'zlari kesuk, birlarining maqsudlari o'ksuk. Emdî senung dahaningdin chiqq'an, qalamungdin ogg'an, kitobama sening, iboratma sening bo'lub bizga "Qisas ul-anbiyo" bo'lsa, o'qug'luqqa keraklik, o'qumoqqa yarog'lig' bo'lg'ay erdi, teb iltimosma yanglig' ishorat bo'ldi ersa agarchi o'zumni ul ishga loyiq, ul amalga muvofiq ermasin bilmish erkan o'zumni og'irlab, nafs saqlamish bo'lub o'g'ur bo'lsun teb bu og'ir ishga yuz evurdik. Tengri azza va jalladan tamom bo'lg'uncha tavfiq tilab, kitob boshladuk. Munda maqsud payg'ambarlar qissasi erdi. (3r) Va lekin Odamdin burunroq yaratilg'anlar bor uchun andin boshlasaq foydasi ortuqroq bo'lg'ay, ul foydadin foyda ko'rsalar yaxshiroq bo'lg'ay, teb tartib uza yaratilg'anlardin og'oz qildi. Izlagan bot topqay, eshitgan bot bilgay teb "Qisasi ar-Rabg'uziy" ot berduk. Vallahu olam. *Qola Rasulullohi salla-llohu alayhi va sallam... kuntu kanzan xafyyan fa xalaqtul xalqa.* Muhammad Mustafo aytur: Haq subhonahu va ta'olo andog' yorliqadikim bir yashurun ganj erdim, mening Tengriliqimni hech kim bilmaz erdi. Xaloyiq yarattim mendin asig' olsunlar teb, men alardin asig' olayin teb yaratmadim, tedi.

VAL-QAVLU FIS-SAMOVATI VAL-ARZI

Xabarda kelur, Haq taolo barchadin burun bir gavhar yaratti, ul gavharga haybat bilan nazar qildi, ul gavhar suv bo'ldi. Anda so'ng yelni yaratti, suv uza esti ersa to'lquni urdi, ko'puklandi. Ul ko'pukdin tutun chiqdi, ul tutundin ko'kni yaratti. Qavluhu taolo. *Yavma ta'ri as-sama' u biduxanin mubinin.* Ul suv Mavlo taoloning haybatindin qaynab kuyuklandi. Ul ko'pukdin Ka'ba o'muncha yer yaratti. Anda kezin ko'kni yaratg'ali tegdi. Qavluhu taolo. *Summa istava ila as-sama'i fa savaxunna sab'a samavatîn.* Ko'kni yaratmishdin so'ng ul yaratilg'an yerni mashriqdin mag'ribg'a tegi yozib kengsu yorliqadi. Qavluhu taolo. *Va al-arza ba'da zalika dahaha.* Bu yerlar va ko'klar bir qat erdi, qudrati birla ko'kni yerdin ayirdi, tekma birlari yeti qat bo'ldi. Qavluhu taolo. *Allohu allazi xalaha sab'a samavatîn va min al-arzi mistahuma.*

Bu yeti yer suv uza yaratildi ersa to'qtamadi, tebranu boshladi. Ani to'qtamoq uchun tog'larni yaratti, aning bosilduruqi bo'ldi. Qavluhu taolo. *Alam naj'al al-arza mihadan.* Haq taolo barcha olamni olti kunda yaratdi. Qavluhu taolo. *Va laqqad xalagna as-samavati va al-arza va ma baynahuma fi sittati ayyamin.* Xabarda andog' kelur: Yakshanba kun ko'klarni yaratti, dushanba kun (3v) oyni va kunni va yulduzlarni yaratti, falak ichinda yo'ritti, seshanba kuni jami olam xalqin yaratti va qush-qurtlarni va farishtalarni yaratti, chahorshanba kun suvlarni yulaqlarni yaratti, yig'ochlar va o'tlar-yemlarni undurub, ro'zi ulashtirdi. Panjshanba kun behisht, do'zaxni, rahmat va azob farishtalarini yaratti, hurlarni yaratti. Odina kun Odam alayhis-salomni yaratti. Shanba kun nimersa yaratmadi. Muncha nimersalarni ko'z yumub ochg'uncha yaratur erdi.

Ammo hikmat bu erdikim, qullarimg'a ta'lim bo'lsun, teb men bu qodirliqim birlan oshuq ish qilmadim. Siz bu o'jizliqingiz birlan, miskinlik birlan ish qiling teb aydi. *Qola Rasulullohi (s): Al-ajalatu min ash-shayton va atta'ani min ar-Rohman.*

SIFATI AS-SAMOVOT

Avvalqi qat ko'k yashil zumuraddin turur, oti Ruqiya turur, farishtalar ari suratlig' turur, ulug'larining oti Ismoil otlig'. Ikinchi qat ko'k kumushdin turur, oti Felun turur, farishtalari burgut suratlig', ulug'larining oti Riqboil turur. Uchunchi qat ko'k yoqutdin turur, oti Qidam turur, farishtalari bo'ri suratlig', ulug'larining oti Ko'kboil turur. To'rtinchi qat oq yinjudin turur, oti Vohun turur, farishtalari ot suratlig' turur. Ulug'larining oti Navboyil turur. Beshinchi qat ko'k oltundin turur, oti Ratqo, farishtalari hur suratlig', ulug'larining oti Siftboil turur. Oltinchi qat ko'k, sarig' yoqutdin turur, oti Vafto turur, farishtalari vildon suratlig'. Ulug'larining oti Ruboil turur. Yettinchi qat ko'k nurdin turur, oti G'aribo, farishtalari odam suratlig'. (4r) Yetinchi qatni yaratti, ajibo turur, Iblis anda turur, tegmasinda bir chiqar, yana kirur. Tekma bir ko'kning qalinliqi besh yuz yilliq yer turur, orasima andog'-o'q. Bilgil kim Izi azza va jalla

farishtalarni o'tnug yoruqindin yaratdi, parilarni o'tning yolinindin yaratti, asllari bir o'q tuturlar. Ammo uch narsadin tafovutlari bor, biri ulkim farishtalardin turur taqi parilar millatidin. Ikinchi farishta Nozilak atandi parilardin, uchunchi farishtalar o'rni adiz ko'kda bo'ldi, parilar yerda qoldi.

Xabarda andog' kelur. Mavlo jalla jaloluhu tamug' ichinda iki xalq yaratti, biri erkak arslon suratlig', oti Tiblit, yana biri tishi bo'ri suratlig', oti Jiblit, quzuruqi yilon suratlig', Tiblit quzuruqi chayon suratlig'. Mavlo qudrati birla ul ikaguning quzruqi qavushti, tamug'g'a tushti. Tamug' ichinda ne yilon bor ersa Jiblit quzuruqindin turur va ne chayon bor ersa Tiblit quzuruqindin turur. Jabroilg'a yorlig' bo'ldi, Jiblitni nikoh qilib, Tiblitka bergil, teb. Qamug' maxluqot ichinda eng ilk nikoh ul erdi, andin burun nikoh yo'q erdi. Jiblit, Tiblit ikagu qavushtilar ersa ekiz o'g'lonlar tug'urdi, bir o'g'ul, biri qiz. Jiblit ul qizni birga tug'g'an o'g'long'a berur erdi. Yetinchi qorin o'g'ul tug'di ersa ul o'g'ulg'a Horis ot berdi. Bu Horis g'oyat makkor qo'bt. Jiblit ul qizni Horisg'a berayin, tesa Izi azza va jalladin yorlig' bo'ldi: emdidin so'ng qizni birga tug'g'an o'g'ulg'a bermagil. O'ngdin taqi so'ngdin tug'g'ang'a bergil. Ul hukm uza Jiblit Horis birla tug'g'an qizni azin o'g'ulg'a berdi, Horis o'fkalab azin qizni unamadi. Tamug' ichinda bir mungushda o'lturub toatqa mashg'ul bo'ldi. Telim yillar (4v) toat qildi ersa Izi azza va jalla tamug'din beshinchi qat yerga chiqardi. Andama ukush toat qildi ersa oltinchi qat yerga chiqardi. Mundag'in tekma bir yerda toat qilmishincha og'durub, bu dunyoga chiqardi. Bu dunyoda ancha tenglik toat qildikim, mashriqdin mag'ribg'a tegi Horis sajda qilmag'an bir qarish yer qolmadi. Anda kezin Mavlo azza va jalla Horisni ko'kka og'durdi. Anda yama ukush toat qildi ersa, ikinchi qat ko'kka og'durdi. Mundag'in yetinch qat ko'kka og'di. Yana ujmohg'a kivurdi ersa ujmohg'a erklik bo'ldi, farishtalarga ustod bo'ldi. Horis otin ketardilar, Azozil ot berdilar. Tilasa ujmohg'a kirar erdi, tilasa ko'kka og'ar erdi. Onadin tug'mish kundan beru uch ming yil kechurdi. Amoriy olimlari aymishlar: Azozil farishtalardin erdi. Qavluhu taolo. *Va iz qola rabbuka ilmala ikati usjuduli Aadama fa sajadu illa iblis*. Bu xitobda Azozil doxil erdi. Yana amoriy olimlari aymishlar: Azozil

Jonm urug'indin erdi. Qavluhu taolo. *Al-ibilisu kaana min al-jinni*. Anda kezin yer yuzinda xalqe yaratdi o'tdin, Jonm otlig'. Qavluhu taolo. *Va al jaanna xalaqnahu min qablu min nari as-samumi*.

Kalbiy rivoyatincha, dunyoni yetmish ming yil ular tutdilar. Abdullloh ibn Abbos rivoyatincha, o'n sekiz ming yil ular tutdilar. Qachon Mavlog'a yozdilar ersa ularni ketardi. Jon ibn al-Jon otlig' haloyiqg'a berdi, o'n sekiz ming umr tutdilar. Yama osiyliq qildilar ersa ularni kivurdi, farishtalarga berdi. Yetmish ming yil farishta indi. Azozil ular birla erdi. Yeti ming yil mulk tutdilar. Dunyog'a ko'ngul bog'ladilar ersa Mavlo ularni tilamadi, mendin azinga ko'ngul bog'ladingiz, sizlarni ma'zul qilurman, azin xalq yaraturman, bu mulkni anlarg'a berurman, teb xitob keldi: Qavluhu taolo. *Inni ja ilun fal-arzi xalifatun*.

Taqi xabarda andog' kelur, qachon Mavlo taolo (5r) dunyoni yaratdi ersa yer mulkini qushlarga'a berdi. Yeti ming yil qushlar tutdilar. Anda kezin Jin ibn al-Jong'a berdi, yeti ming yil taqi ular tutdilar. Yozuq, ma'siyat ukush qildilar, qon to'ktilar ersa anlardin olib, farishtalarga berdi. Yeti ming yil tamom bo'ldi ersa anlardinma olg'u vaqt bo'lub men yer yuzinga xalifa yaraturman, teb xitob qildi. Qavluhu taolo. *Inni ja ilun fal-arzi xalifatun*.

Farishtalar bu xitobni eshitdilar ersa qazg'ulg' bo'lub aytdilar: Ilohiy, yer yuzinda o'rtoq, eshliklar, qon to'kkuchilar yaratursen, biz tasbih va tahlil va taqaddus qilg'anlardin olib, yer mulkini anlarg'amu berursan? Xitob keldi: Men bilurman, sizlar bilmazsiz. Qavluhu taolo. *Inni a'lamu ma la ta lamun*.

Savol: Farishtalar Odamni taqi o'g'lonlarini ko'rmishlari yo'q erdi, fasod qilg'anlarin, qon to'kkanlarin nedin bildilar? Javob: Odamni ko'rmishlari yo'q erdi, ammo Jin ibn al-Jonni ko'rmish erdilar, ma'siyatlarin bilur erdilar. Anlarg'a qiyos qilib so'zladilar. Savol: Mavlo taolo ne ma'ni uchun aydikim, *Inni a'lamu ma la ta lamun*.

Javob ul tururkim, men bilurmankim Muhammad Mustafo alay-his-salom Odam o'g'lonlarindin bo'lg'usi, bu jahonni, ul jahonni, oyni, kunni, qamug' narsalarni aning sevuklugi uchun yaratdim. Do'st kim turur men bilurman, siz muni bilmazsiz. Javobi digar ul tururkim, Izi azza va jalla yorliqlar *Inni a'lamu anna ibadataqum*

mashubun bial-ujbi iz kultum nahnu va fasaduhum mashubun bial-uzri vaal-fasadu bial-uzri axabbu ilayya min al-ibadati ma'al-ujbi.

Ma'nisi ul tururkim, sizing ibodatingiz ujbga qatig'liq turur. *Nahnu* teb o'zunguzni o'gdunguz, ammo *Odam* o'g'lonlarining fasodi uzrga qatig'liq turur, uzrg'a qatig'liq fasod mening qatimda ujbga qatig'liq ibodatdin sevukrak turur.

QISSAYI ODAMI SAFIY ALAYHIS-SALOM

Ul tuproqdin yaratg'an, qudrat birla to'ritgan, adiz ko'kka og'g'an, ujmoh ichra kirgan, (5v) Havvotek juft berilgan, Iblis vasvasasiga ilingan, yoruq ujmohdin azrilg'an, qorong'u dunyoga ingan, uch yuz yil *rabbana zalamna anfusana* teb yig'lag'an, va *la takraba hazixiash-shajarata* xitobin eshitgan, *summai j tepahu rabbuhu* tojim boshing'a urgan, *inna-lloha istafa Aadama* xil'atin qizgan, *usjudu li Aadama* karomati birla mukarram bo'lg'an va *allama Aada-ma al-asma'a kullaha* tashrifin bo'lgan *Odam* safiy, ul xalifai vafiy.

Haq yaratdi tangsuq Odamni tafiz yer ko'rkidin,

O'zga surat tuzdi andog' ajun ichra ilkidin.

Textini ko'turub farishta ujmoh ichra kivurub,

Tezginurda chiqmadilar hargiz aning erkidin.

Chiqdi Havvo birla bo'lub xush tana'um qildilar,

Ichtilar ujmoh sharobin, yedilar et erkidin.

Bildi asmo ilmuni ul aytu berdi belguluk,

Barcha tillar birla so'zlar tozi forsiy turkidin,

O'rkadi besh yuz yil anda jufti birla ovunub,

Ichdi sharbat sig'raqinda yedi ne'mat tarkidin.

Mundi ujmohning buroqin kezdi aning tegrasin,

Hulla kizdi egniga ham boshg'a urdi bo'rkidin.

Ozdi Iblis makri birla biro'k erdi yolg'uzin,

Iki bug'doy yedi chiqti sekkiz ujmoh mulkidin.

Qola Rasulullohi sallalohu alayhi va sallam: Man arada an yanzura aja'iba addunya falyanzur ila qissati Aadama alayhis as-salam.

Qachon Izi azza va jalla *Odamni* yaratmak tiladi ersa *Jabroilg'a* xitob keldi: *Borg'il*, yer yuzindin bir avuch tuproq keturgil. *Jabroil* kelib olg'alu o'g'radi ersa yer *Jabroilg'a* ont berdi mendin tuproq olmag'il, teb. *Jabroil* ont og'ur'lab tuproq olmadi. *Isrofilni* izdi, angama ont berdi, ulma tuproq olmadi. *Kezin Mekoilni* izdi, angama ont berdi, ulma tuproq olmadi. *Kezin Azroilni* izdi, angama ont berdi. *Azroil* aydi: sening ontindingin manga *Mavlo taolo yorlig'i* azizrak turur, teb har qamrug' yer yuzindin bir avuch tuproq oldi. *Mashriqdin* mag'ribg'a tegi qirq qari yer qur erdi. *Hazratdin* xitob keldi: *Ey Azroil*, g'oyat qatig' ko'ngulluk ermishsen. Taqdir andoq qildim, qamug' tanlig'larning jonin senga oldurg'ayman. (6r)

Ul tuproqda suvi tebiz, urung, qora, suchuk, achig', sarig', yashil, qizil, ko'k, qatig', yumshoq va arig', arig'siz, totlig'siz-qamug' bor erdi. Ul sababdin *Odam* o'g'lonlari bir-biringa mengzamazlar, kimi arig', kimi arig'siz, kimi iglik, kimi igsiz, kimi urung, kimi qora, kimi sarig', kimi qizil, kimi ezgu, kimi essiz, kimi suchuk so'zluk, kimi achig' so'zluk, kimi qatig' ko'ngulluk, kimi yumshoq ko'ngulluk. *Azroil* ul tuproqni *Makkili*, *Toifli* orasinda *Daxno* otlig' erda qo'zdi. Qirq yil ul tuproq uza yog'mur yog'di, o'tuz to'quz yil qazg'u yog'muri yog'di, bir yil sevunch yog'muri yog'di. Ul yo'ldin *Odamg'a* sevunchdin qazg'u ortuqroq bo'ldi. Qirq yilda *kezin* tuproqni qudrati birla suvrat qildi, boshi *Toif* singar, azoqi *Makka* singar. Savol: *Makka* *Toifdin* fozilroq turur. *Odam* boshi *Toif* tapa, azoqi *Makka* singar bo'imoqing'a hikmat ne erdi?

Javob: Izi azza va jalla tiladi, qachon *Odam* alayhis-salom qo'psa yuzi *Makka* singar bo'lsun teb. *Mas'ala*: *Shari'* atda mungar mengizlik bir mas'ala bor. Ul mas'ala bu turur: *Bizning* mazhablig' qachon yotib namoz qiltur bo'lsa azoqimi qibla singar uzatib yotg'ay. *Aning* uchunkim, agar namoz ichinda sihhat bo'lsa o'lturub namoz qilg'ay, qo'psa yuzi qibla singar bo'lsun.

Savol: *Odamni* tuproqdin yaratmoqg'a hikmat ne erdi? *Javob*: *Qachon* *Mavlo* azza va jalla *Odamni* yaraturmen, teb xitob qildi ersa barcha narsalar bosh ko'turub *Odamni* bizdin yaratg'il, teb tama' qildilar. *Tog'* aydi: *Men* qutlug'men, tengiz aydi: *Men* haybatlikmen, oltun aydi: *Men* azizmen, ko'k aydi: *Men* adizmen. *Qamug'* narsalar bosh ko'turub o'zlarini o'ga quvondilar. Ul holda

yer tavozu' qilib aydi: Men qamug'din za' ifmen, azoq oltindamen, menda quvongu narsa yo'q, teb tavozu' liq qildi ersa xitob keldi: Men Odamni tuproqdin yaratarmen, teb. Odamni tuproqdin yaratdi. Xabarda andoq kelur: bir kun Iblis yetmish ming farishta birla ko'k'din Odam tuproqing'a keldi, (6v) ilki birla Odammung qormini qoqdi, ichini kavak ko'rdi, farishtalarg'a aydi: Muni yo'ldin chiqarmoq o'ngay bo'lg'ay, tedi. Yana aydi: Agar Mavlo azza va jalla sizlarga erklik qilsa ne qilg'aysiz? Qamug' i aydilar: Bo'yun sung'aymiz. Iblis aydi: *Vallohi lain sallatahu laasaytuhu va in sallatani alayhi lahtaktuhu.*

Ma'nisi ul bo'lur: Mavlo azza va jalla ani manga musallat qilsa bo'yun sunmagaymen, meni aning uza musallat qilsa o'lturgaymen. Ul zamon-o'q kofir bo'ldi, temishlar. Qavluhu taolo. *Va kaana min al-kafirin.* Yana qirq yilda kezin Odammung jonig'a yorlig' bo'ldikim, Odammung taninga kirgil, teb. Jon Odammung boshi uza to'ruqti, kirgali unamadi, men ulviyman, sifliyg'a netak kirayin, tedi. Jabroil alayhis-salom keldi, aydi: Ey aziz jon, Izi azza va jalla oti birla kirgil. Jon Izi otin eshitti ersa kirdi. Yana bir rivoyatda kelmish: Jon Odammung boshing'a kirib iki yuz yil tezgindi, anda kezin ko'zinga kirdi ersa ko'zlari tirildi, o'z yuzini ko'rdi qora tuproqdin yaratilmish. Mavlo qudratin ko'rmaklik uchun uza ko'zin yaratdi. Burnig'a keldi ersa bir axsurdi, Jabroilg'a xitob keldi: Odammung burnindin chiqg'an mahorini amonat saqlag'il, teb. Andin forimas erkan og'zing'a keldi, ilhom yetildi, aydi: *Al-hamdu li-llahi rabbial-alamina.* Izi azza va jalla yorliqadi: *Yarhamuka rabbuka va lizalika xalaqtuka.*

Ma'nisi ul bo'lur: Izi sanga rahmat qilsun, men seni muning uchun yaratdim. Anda kezin jon ko'kuzinga keldi. Oshuqti, ko'pg'ali o'g'radi, qo'pa bilmadi. Ul yo'ldin Mavlo ta'olo qavluhu: *Va xulika al-insanu ajulan.* Anda kezin qorning'a keldi ersa, qorni ta'om tiladi. Jon ichinda yoyildi, so'nguk, et, teri, tomur, singirlar bilgurdi, tebranu boshladi. Odammung terisi bag'oyat ko'rkluk erdi, kun-kun yoruqluqi orta boshladi. (7r) Qachon illat bilgurdi ersa ul terisi suyuldi va teri bilgurdi. Ul terining belgusi ernaklar uchunda qoldi, bu tirnoqlar ul turur. Savol: Jon kirurda bir soatda kirdi, chiqarda emgak birla chiqar, hikmat ne turur? Javob: Kirurda Izi

azza va jalladin *yarhamka rabbi* xitobin eshitti ersa o'ngay kirdi, chiqarda yana rahmat sevinchin eshitmaguncha chiqmasman teyur, ko'rmasmussen kimning baxti bor ersa va *abshiru bial-jannat* lati *kuntum tu'aduna*, bashoratin eshitib o'ngay chiqar, kim badbaxt ersa joni qatig'lig' birla chiqar. *Nauzu billohi min zolika.*

Odam Safiy alayhis-salom yeti kun anda o'lturdi, anda kezin Mavlo azza va jalla qizil oltundin yaratilmish bir taxt izdi, gavhar birla murassa' qilmish. Andag'-o'q xil'atlar anga kizdurd, oltun toj boshing'a urdi, ul taxt uza o'lturdi. Ul yeti yuz ming farishtalar Izi azza va jalla yorlig'i birla kelib Odammung tegrasinda turub tapug'inda to'ruqtilar. Ul taxt Masjid ul-Harom tengincha erdi. Taxt uza bir kursi izdi, Ka'ba tengincha erdi. O'n yig'ochliq yer Harom atandi, Mavlo azza va jalla Odamni qamug' ko'rkluklar birla bezadi, tishlarindin nur balqinur erdi, ko'z nuri mengizlik Muhammad al-Mustafoning nuri Odammung alinda qo'miyur erdi to'lun oy mengizlik. Odam ul nurning yoruqluqin ko'rub, bu nurni man bir ko'rsam, teb ko'sadi ersa Izi azza va jalla yorliqi birla ul nur Odammung almidin o'ng yangoqing'a indi. Yana egniga indi. Andin Odam qo'ling'a ilkini ul nurg'a ko'turu berdi, nur andin inib shahodat ernakining uchinda to'ruqdi. Odam ernakin yuqoru ko'turub, aning ko'rkin ko'rub tonglab: *Lo iloha illollohu Muhammadun rasulullohi*, tedi. Avval ernakni ko'turub shahodat kalimasin aymoq Odam o'g'lonlarig'a sunnat qoldi. Anda kezin yorlig' bo'ldi, farishtalar Odamni ko'kka og'durdilar. Jabroil bir ot kelturdi Maymun otlig', yipordin yaratilmish erdi, Odam mundi, Jabroil tizgin tutub, Mekoil sog'indin, Isrofil so'lindin bo'lub ko'klarni kezurdilar. Farishtalar yo'lug'mishda Odam: *Assalomu alayka (7v) yo maloikatallohi*, teb salom qilur erdilar. Farishtalar: *Alay-kumus-salomu va rahmatullohi va barakotuhu*, teb alik olur erdilar. Izi azza va jalla xitob qildi: Yo odam, bu sening tahiyating turur, taqi sening mo'min o'g'lonlaring tahiyati turur qiyomatg'a tegi. Qachon Odamni ujmohg'a kivurdilar ersa ne'matlarin, hurlarin, qusurlarin ko'rdi, ammo o'zinga mengzayur kim ersa yo'q uchun ko'ngli to'lonmadin kayktek bo'lub, ujmoh ichinda yuriyur erdi. Mavlo taolo Odamg'a uyqu kemishti, uzog'lik uyquli orasinda Odammung biqini ayagusidin so'l yonindin Havvoni yaratdi. Savol:

Havvoni Odamdin uzog'li uyquli orasidan yaratmoqg'a ne hikmat erdi? Javob: Odam uzog' bo'lsa ayagusi og'rig'ay erdi, ul sababdin Havvoni dushman tutg'ay erdi. Agar uziyur bo'lsa, o'zindin yaratilganin bilmasa, ani sevmagay erdi. Har oyina ul sevukrak bo'lg'ay. Mavlo azza va jalla Havvoni egri so'ngukdin yaratdi. Aning uchun tishilar ko'nulmas egri so'nguk turur, teb xalq orasinda yumoq bo'ldi. Odam Havvoni o'zindin yaratilg'anin ko'rtdi ersa sevukluki Odam ko'nglunga tushdi. Havvo g'oyat ko'rkluk erdi.

Xabarda andog' kelur: Izi azza va jalla ko'rkni yuz ulush qildi, to'qson to'quzni Havvog'a berdi, bir ulushni qamug' olamlig'larg'a berdi. Ul bir ulushni yana o'n ulush qildi, to'quzin Yusufg'a, bir ulushni olamlig'larg'a berdi. Odam Havvoni o'zitek suratlig' ko'rtdi ersa rag'batli bo'lib, manga yovuqroq kelgil, teb undadi. Havvo aydi: Meni tilar ersang san kelgil, tedi. Odam qo'bti, Havvog'a keldi. Agar Odam bir soat sabr qilsa erdi Havvo Odamga kelur erdi. Ul yo'ldin er xotinlarga bormoq sunnat qoldi, ammo qachon ujmohg'a kirsalar xotunlar erlaring'a kelurlar. Qachon Odam Havvog'a o'g'radi ersa Jabroil alayhis-salom aydi: Ey Odam, Havvo sening turur, nikoh qilmag'uncha ravo bo'lmas. Mavlo jalla jaloluhu o'z arig'zoti birla Odam va Havvo nikohing'a xutba qildi. Ul xutba bu turur:

Al-hamdu sana'iy Allohu ismiy ar-rahmanu miftahu xazainiy ar-rahim miftahu tajavuziy anil usati val-muznibin al-azamatu izariy val-kibriyou ridaiy al-izzu val-judu bahaiy val-jamalu val-jalalu sana'iy val-xalqu kulluhum abidiy va ima'iy val-anbiyou var-rasulu anbiyoyi va asfiyay va Muhammadun habibiy va nabiiyyiy va ummatuhu hayrul-umami va ahibbaiy inni had zavvajtu al-ashyaa liyastadillu biha ala vahdaniyatiy ashhidu malaikatiy va hamalatu arshiy va sukkanu samavatiy inni had zavvajtu Havvaa amati Aadama badia firatiy va sun'a qudrati bi sadaqi tasbithiy va tahlithiy va bila salla bani (Aadama) yo Aadamu udxul jannatiy va kul min samarati va la taqraba hazhish-shajarata. Assalamu alaykuma va rahmatiy val-hamdu lillahi rabbil alamin.

Xabarda andog' kelur, Odamg'a so'rdilar: Neluk Odam atanding? Javob aydilar: *Lianni xuliqtu min adimial-arzi aning uchunkim, men yer sirindim yaratildim, tedi.* Arab tilincha anga

adim teyurlar. Savol qildilar Havvoga: Ne uchun Havvo atadilar? Javob aydi: *Liannaha xuliqtu min al-hayyn.* Arab tilincha tirikka hay atayurlar.

Ba'zilar aymishlar: Odam tufroqdin yaratildi, tufroq turmushincha ko'rkluk bo'lur. Yana Havvo etdin yaratildi, et turmushincha sasir. Aning uchun xotun qarisa ko'rksiz bo'lur. Qachon Odam va Havvo nikohlig' bo'ldilar ersa xitob keldi. *Ya Adama uskun anta va zavjukal-jannata va kula minha rag'adan haysu shi'tuma vala taqraba hazihi ash-shajarata fa takuna min az-zolimina.*

Ma'nisi ul bo'lur: Ey Odam, juftung birla ujmohga kirgil, ne'matlarin yeng, bu bir yig'ochg'a yovumang, zolim bo'lg'aysiz.

Durustrak qavlda ul yig'och bug'doy yig'ochi turur. Ammo Havvo yer yuzindamu yaratildi yo ujmohdamu, ulamolalar orasinda ixtilof bor. Ul holda Azozil ujmohda erklik erdi, qamug' farishtalarga ilm o'gratur erdi. Bir kun Lavhul-mahruzda ko'rtdi, farishtalar birisi mal'un bo'lg'ay, teb. Farishtalar ani bilib, qamug' qo'rdilar. Azozilg'a kelib aydilar: Sen ustodimizsen, (8v) biz g'oyat qo'rqarbiz, duo qilg'il, Tengri azza va jalla bizni la'natdin kuzarsin. Azozil duo qildi, farishtalar omin, tedilar. Izi azza va jalla aning duosi birla qamug' farishtalarni la'natdin kuzardi, o'zi la'natga kirdi. Yorlig' keldi: Odamni bir nurdin taxt uza urub farishtalar eginlariga ko'turub ujmohni kezayur tedilar. Sabab ul erdikim, Odam yaratilmazda ashnu Odam o'g'lonlari fasod qilg'aylar, qon to'kkaylar, teb g'iybat qildilar. Biz tasbih va taqdis qilurmiz, teb o'zlarin arig'ladilar. Mavlo ulardin ul so'zni tilamadi, hukm qildi: Odamni siz g'iybat qildingiz, savoblaringiz habta bo'ldi, ul savoblar Odam o'g'lonlarig'a berildi, ul g'iybatning jazosi ul turur, bu kun qamug' farishtalar boring, Odam taxtini bo'yunigizga ko'turub tapug' tariqin kezdurung, teb yorlig' bo'ldi. Anda kezin Mavlo azza va jalla Asmo ilmini Odamg'a o'gratu berdi. Qamug' narsalarni farishtalarga ko'rguzdi. Agar ko'ni so'zluk ersangiz bu narsalaring oti ne turur, manga aytu bering. Qavluhu taolo. *Va allama Aadama al-asma'a kullaha summa arazahum ala al-mala'ikati fa qola anbi'uni bi'asma'i ha'ula' i in kuntum sodiqina.*

Farishtalar o'jiz bo'lub aydilar: Sen o'gratu bergandin o'zga bilmazmiz, tedilar. Qavluhu taolo. *Qolu subhanaka la ilma lana illa ma allamitana.*

Yana Odamg'a yorlig' bo'ldi: Ey Odam, bularg'a aytu bergil bu narsalar otini. Qavluhu taolo. *Ya Aadamu anbi'hum bi'asmahim.* Odam otlarin aytu berdi: bu yig'och, bu tosh, bu suv, qamug' narsaning otini bu idish bu ayoqg'a tegru qamug' tillar birla bayon qildi. Xitob keldi: Ey farishtalar, sizlarga aymadimmu men bilganni sizlar bilmazsiz, teb. Qavluhu taolo. *Alam aqul lakum inni a'lamu ma la ta'lamuna.* Emdi sizga ma'lum bo'ldikim, Odam olim turur, siz obidsiz. Mening hazratimda ming obiddin bir olim fozilroq turur, qayda obid ersa olimg'a xizmat qilmoq kerak, ul maxdum bo'lsun, (9r) sizlar xodim bo'lung, ul masjid bo'lsun, sizlar sojid bo'lung, Odamg'a sajda qiling. Qavluhu taolo. *Usjudu li Aadama.* Jumla farishtalar sajda qildilar. Qavluhu taolo. *Fa sajada al-mala' ikatu kulluhum ajma'una.* Savol: *Fasajdal-maloikatu* tedi, *kulluhum* teyur, yana *ajma'in* teyur. Bular da ne foyda bor? Javob: Foyda ul tururkim, *maloika* teb *kulluhum* temasa erdi, bir anchasi farishtalar sajda qildi, bir anchasi qilmadilar, temak bo'lur erdi. *Fa sajda al-maloikatu kulluhum*, ya'ni farishtalar qamug'i sajda qildilar, foydasi ul turur, *ajma'in* temasa farishtalar o'ngli-so'ngli sajda qilmish ehtimoli bo'lg'ay erdi. Farishtalar qamug'i bir yo'li-o'q sajda qildilar, yolg'uz Azozil sajda qilmadi. Qavluhu taolo. *Illo iblisa aba va istakbara va ka ana min al-kafirin.* Bo'yun sunmadi, ulug'sindi, kofirilar jumlasindin bo'ldi. *Ay sora minal-kofirin.* Qachon farishtalar sajda qildilar ersa Iblisni ko'rdilar sajda qilmasdin turub turur, shukr, teb sevinmishda yana bir sajda kelturdilar. Bu kun namozda yema ruku bir, sajda iki bo'lduqi aning uchun turur.

Xabarda andog' kelur, ujmoh ichinda yarim kun qoldi, ul jahonning bir kuni birla bu jahonning yili birla besh yuz yil bo'lur. Tuproqdin yaratilmishdin beru ming iki yuz qirq yil erdi ujmohg'a borg'incha, Azozil qachon sajda qilmadi ersa xitob keldi: Ne uchun sajda qilmading? teb. Qavluhu taolo. *Ma mana'aka.* Iblis aydi: Men andin ortuqroqmen, tedi. Qavluhu taolo. *Xalqaqtani min narin va halakta'u min tin.* Meni o'tdin yaratding, ani qaro tuproqdin.

Qachon Azozil bu hujjatni qildi ersa Azozil otini ko'tardilar, Iblis ot berdilar. Ma'nisi navmid temak bo'lur. Iblisi la'in o'tni tuproqdin ortuq tedi, bilmadikim, tuproq o'tdin ortiq turur, ul dalil uzakim o't o'g'ri turur, qayu narsani o'tga bersa yo'q qilur, yana bermaz. (9v) Ammo tuproqg'a bir ovuch solsang o'nni yuz qilib sanga berur. Ne foyda: Iblis alayihil-la'na o'tg'a quvandi. Qavluhu taolo. *Xalqaqtani min narin*, teb. Lojaram yonishi o'tg'a bo'ldi. Odam Mavlog'a kuvandi, lojaram yonishi Mavlog'a yovuq bo'ldi. Qavluhu alayhis salom. *Man iftaxara bishayin uqiba bihi.* Kim nedin kuvanur ersa aning birla kuvanur, tedi. Iblis aydi: Ilohiy, yuz ming yil toat qildim, aning yanutin manga bergil. Xitob keldi: Ne tilayursen? Iblis uzun yosh tiladi, qiyomat kunga tegi. Qavluhu taolo. *Rabbi fanzirni ila yavmi yub'asuna.*

Mufassirlar ayturlar, ul badbaxt Mavlo hazrating'a talbis qildi, qiyomat kelgu kunga tegi umr tiladi. Maqsud ul erdi, o'luklar tirilgu kunga tegi umr bulsam manga azin o'lum bo'lmag'ay teb. Mavlo taolo aning sirrin bilib javob aydi: Qavluhu taolo. *Fainnaka min al-munzarina ila vaymial-vahtial-ma'lumi.* Biz sanga umr berduk ma'lum kuniga tegi, sen tilamish kunga tegi bermadim. Taqi bir mo'tabar tafsirda kelturmish *ilo yovmi yub'asuna* tedugi murodi ul erdi: bu kun Tengri farishtalari qaviy turur, ularning birla chiqishg'u qudratim yo'q durur. O'luklar tirilgu kunga tegi umrum bo'lsa, anchada Jabroil, Mikroil, Isrofil, Azroil taqi azin farishtalar qamug' o'lmish bo'lsalar Tengri yolg'iz qolmishda aning birla to'qushg'aymen, teb niyati ul erdi. Savol: Iblis mal'un bo'lmishda kezin ujmohg'a kirguga na yo'l bor erdi? Javob: Mavlo yorliqadi: Sanga Odam o'g'lonlari uza nusrat berdim, ko'rmasmussen? Rasul-alayihis-salom yorliqar: *Innaash-shaytona tajri fi bani Aadama kama tajri ad-damu.* Bu qon odamiyning taninda netak yurusa, shayton andog' yuriyur. Savol: Odam va Havvoni bug'doy yig'ochidin yig'moqda ne hikmat erdi? Javob: Mavlo azza va jalla Odam yaratmazda ashnu yer yuzinga xalifa yaraturmen *inni ja'ilun fi al-arzi xalifatan.* Bug'doydin yedi tesalar chiqmoqg'a sabab bo'lg'usi uchun. Taqi javob: Izi azza va jalla taqdir qilmish erdi. Dunyoda odamiyning yemi bug'doy bo'lg'usini. Xitob qildi: Qamug' ne matlardin yegil, bug'doy yemagil. Ulug'lar

(10r) tirkisida o'z yemakini yemak ayb bo'lur. Savol: Odamni ujmohg'a kiyurmakka hikmat ne erdi? Javob: Ujmohg'a kiyurdi, ul kun Odam o'g'lonlari Odamning o'ngurqasida erdi. Savol: Agar mo'minlar o'z o'rularini ko'rgali ujmohg'a kirdilar ersa kofirlar Odamning o'ngurqasida erdilar, ularning kirmaki ne hikmat erdi? Javob: Mo'minlar o'rularin ko'rsunlar, dunyoga kelmishda yanaying'u yarog'ing'a toat ortursunlar, kofirlar tamug'g'a bormishda ujmohdaq ko'rgan ne'matlar uchun hasratlari ortsun teb.

Hikmat digar: Ujmohg'a kiyurmakda hikmat ul erdi: tengri azza va jalla azalda hukm qilmish erdikim, mo'minlarning tanini, molini sotg'in olib ujmoh bergusini bay' qilmoq shari'atda ravo bo'lmaz teb ujmohg'a kiyurdilar. Yana dallolni kelturdilar, ujmohni ko'rguzdi bay' va ittifoq durust bo'lsun teb. Qavlulu taolo. *Inna-lloha ishtara min al-muminina anfasahum va amvalahum bianna lahum al-jannata. Kama hola ash-sha'iru:*

Nafsut tuqa al-mushtara

Val mushtari rabbul vara

Va jinanuhu asmanuhu

Val mustafa dilaluhu

Lakin sakkahu Tavratu, Injilu, Zaburu, Furkanuhu.

Sotg'an Mavlo azza va jalla, olg'an Mavlo azza va jalla, bay' mo'minning tani taqi moli bahosi, dalloli Muhammad al-Mustafo. Ulamolar ixtilof qilmishlar: Odam zurriyati o'ngurqasindin chiqarg'ani qayda erdi? Ba'zilar aymishlar: Ujmohqa kirmakta ashnu erdi. Ba'zilar aymishlar: ujmohda erdi, ba'zilar aymishlar: ujmohdin chiqmishda erdi. Izi azza va jalla Odamning o'g'lonlarin odamiy suratincha o'ngurqasindin chiqardi, qarinja mengizlik ushoq, qamug'i oqilma ermaz, mo'minma ermaz, kofirma ermaz. Mavlodin xitob keldi: Men sizning tengiringiz ermasmumen? Qavlulu taolo. *Alastu birabbikum.* Qamug'lari javob aydilar: Erursen. Qavlulu taolo. *Qolu bala.* Qachon Odam ani ko'rdi ersa aydi: Ilohiy, bular kimlar turur? Xitob qildi: Bular qamug' sening o'g'lonlaring, urug'laring turur, qiyomatg'a tegi. Odam ularni

andog' telim ko'rdi ersa **(10v)** aydi: Ilohiy, bular yer yuzinda netak sig'g'aylar? Xitob keldi: Ey Odam, bularni to'rt ulush qilg'um turur, bir ulushi otalar o'ngurqasida, bir ulushi onalar qominda, bir ulushi yer yuzinda, bir ulushi yer qo'ynunda. Odam ularg'a boqti kimni og'riq ko'rdi, kimni axsoq ko'rdi, kimni o'lturum ko'rdi. Aydi: Ilohiy, bularni ne uchun birtak yaratmading? Yorlig' keldi: Ey Odam, ujmoq yaratdim, anga kirguvchilarima yaratdim, tamug' yaratdim, anga kirguvchilarima yaratdim, manga shukr qilsunlar teb. Qarag'u yaratmasa erdim, ko'zluqlar shukr qilmag'ay erdi, axsoq yaratmasa erdim, azog'liqlar shukr qilmag'ay erdi. Bir anchani ushmoqning o'ng qo'linda turg'uzdi, bir anchani tamug'ning so'l qo'linda turg'uzdi. Xitob qildi: *Ha'ula'i filal-jannati va la uba-li va ha'ula'i fian-nari va la ubali.*

Va yana bir rivoyatda kelmish: Qamug'in dunyog'a izdi, dunyoni ko'rub keling, tedi. Keldilar, dunyoni ko'rdilar, anda qoldilar, azroqi yonib keldilar. Xitob keldi: O'zgalaringiz qani, teb. Aydilar: Dunyoni ko'rdilar, ko'ngullari dunyoni tiladi, anda qoldilar. Yorlig' keldi: Ujmohg'a boring, ujmohnima ko'ring. Bordilar, ujmohni ko'rdilar, ularningma ukushraki ujmohda qoldilar. Yorlig' keldi: Azinlaringiz qani? Aydilar: Ilohiy, ularma ujmohni tiladilar, anda qoldilar.

Aymishlar, dunyoda qolg'anlar kofirlar erdilar, ujmohda qolg'anlar mo'minlarning omlari erdilar. Ujmohni unamadin hazratg'a kelganlari xos qullar erdi. Yorlig' keldi: Dunyoga ko'ngil bermadingiz, ujmohni unamadingiz, emdi ne tilayursiz? Aydilar: Ilohiy, bizga dunyo kerakmaz, uqbo kerakmaz, bizga sen keraksen. Yorlig' keldi: Kim meni tiladi ersa mening xazinam ichinda qayu balo ulug'roq ersa ul baloni anga berurman. Aydilar: Ul balo bermishda sen bizing birla bo'lg'aymisen? Aydi: Bo'lurmen. Aydilar: Ilohiy, balo tegmishda sen bizning birla bo'lsang, ul oncha baloni bizga havola qilsang, qabul qilg'aymiz, tedilar. Qavlulu alayhis-salom **(11r)** *inna ashaddaal-bala'i ala'al-anbiya'i summa ala'al-avliya'i summa ala'al-amsal...*

Xabarda andog' kelur, qachon Shayx Shibliy dunyodin bordi ersa tush ko'rub savol qildilar holing netak, teb. Javob aydi: Qachon men ni dafn qildilar ersa Munkar-Nakir alayhimas-salom keldilar, teng-

ring kim, teb so'rdilar. Javob aydim, mening tengrim ul turur: otamiz Odamni ujmoh ichra nurdin taxt uza og'durub, ko'k farishtalarin otamizning o'nginda sajda qildurdi. Jabroil, Mekoil, Isrofil, Azroil birga erdi. Sizma sajda qildingiz men qamug' qarindoshim birla sizlarga nazzora qilib turur erdim. Ular biri biringa boqib aydilar: Bu qamug' nung so'zun so'zlayur, yolg'iz o'z so'zin so'zlamaz, ketaling, tedilar. *Lav ra'aytahuma kayfa yaxrabani minni*. Agar bir zamon tavaqquf qilsalar erdi anlarni tutub, sizning tengringiz kim turur, teb so'rar erdim. Necha javob aysalar hujjat birla ularni tindurmas erdim. Yana maqsudg'a keldimiz: Qachon Iblis mal'un bo'ldi ersa ujmohdin suruldi, ujmohg'a kiru bilmas bo'ldi. Odam va Havvoning adovati ko'nglunda barqidi. Vasvasa birla ujmohdin chiqarmoqg'a o'g'radi. Ul o'g'urda yilon ko'rkluk suratlig' tevag'a mengzayur erdi, qizil, yashil, turluk bezaklik qamitlari bor erdi. Havvo raziyallohu anho yilonning ko'rkluk suratig'a (hayron) bo'lub, aning birla so'zlashur erdi. Iblis ani bilib yilondin tiladi: Meni ujmohg'a kivurgil, Havvo birlar so'zla-shayin, teb. Yilon qo'rqdi, unamadi. Iblis aydi: Og'zingni ochg'il, men kirayin, tedi. Yilon og'zini ochdi, Iblis yilonni tili oltinda yashundi, ujmohg'a kivurdi. Yilon Odam va Havvoning taxtinda o'tru kelib to'ruqdi, og'zining tili oltinda Iblis so'zladı. Odam yilon so'zin tinglamadi ersa Havvog'a yuzin uvurdi, tishi ko'ngli yumshoq bo'lur, teb Havvog'a so'zladı: Hech bilurmisen, bu bug'doy yig'ochindin (11v) sizni tengri ne uchun yig'di? Havvo aydi: Bilmazman. Iblis aydi: Aning uchun yig'di kim ul yig'ochdin yesa ujmohda mangu qolur, o'lum ko'rmaz taqi ujmoh mulkindin arzilmas teb. Qavluhu taolo. *Hal adullukaj ala shajaratal-xuldi va mulkin la yabla*. Havvoning ul so'zga ko'ngli mayli bo'ldi, qo'bdi. O'n mankim yig'oching'a tegdi, bir butoq sidi, Odamg'a kelturdi, aydi: Bu butog' totlig' ermish, men edim bosh qilmadi, senma egil, tedi. Odam ul soatda ahdni unutdi. *Fa nasiya va lam najid lahu azman*. Ul uvunni og'zing'a soldi, chaynadi, bo'g'zing'a tiqilmishda ul ahdni angdi. Ichkaru kirgali izmadi, tashqaruma chiqaru bilmadi. Kirmasun, teb ilki birla bo'g'uzin tutti. Ul uvun bo'g'zinda yumg'oq qoldi. Ul sababdin eranlar bo'g'uzinda ul yumg'oq bor, tishilarda yo'q. Qachon bu zillat bilgurdi ersa toj boshlarindin suchuldi.

Hikmat. Yahyo ibn Mazof al-Rozi aydur: Hajg'a o'g'radim, yolg'uzun bodiya ichinda tun qorongusinda injiqg'a o'g'radim, ovoz eshitdim. Ovozni izardim ersa tikan arosinda bir abushqa ko'rdum yavloq yig'layur. Ne bo'ldung, neluk yig'larsen? teb so'rdum. Aytur: Netak yig'lamayin, farishtalarga mu'allim erdim, ujmohg'a erklik erdim. Yerda, ko'kda toatlar telim qildim. Oxiri la'natga shoyista bo'ldum, tedi. Bildimkim, Iblis ermish. Aydim: Bir sajda neluk keturmading? Aydi: Manga sajda qil tedi, qilmadim. Odamg'a bug'doy yema tedi, yedi. Uqubat bo'lsa ikimizga kerak, kechursa ikimizdin kechursa kerak erdi. Odamdin kechurdi, uzrin qabul qildi. Qavluhu taolo. *Fa nasiya va lam najid lahu azman*. Mendin kechurmadi, nasihat qildi. Qavluhu taolo. *Vastakbara va kaana min al-kafrin*. Savol qildim: Odamdin kechurdi, sendin kechurmadi, hikmat ne erdi? Javob aydi: Azalda Odam haqqinda inoyat bor erdi, ani uzurdi. Maning haqimda inoyati yo'q erdi, meni izurdi. Netakkim aymishlar: (12r) *Inayatural-azali kifayatural-abadi*. Hikmat: Qachon Havvo bug'doy yig'ochin yedi ersa ul yig'och yig'ladi. Qon mengizlik narsa oqdi ersa ul illat Havvoda zohir bo'ldi. Qiyomatg'a tegi hayz tishilarda meros qoldi. Savol: Hayzning muddati o'n kun bo'ldi, hikmat na ermish? Javob: Bug'doy'olg'ali borib kelgincha o'n mankim mangdi, aning uchun o'n kun bo'ldi. Savol: Ukushi o'n kun, ozi uch kun bo'ldi, hikmat ne ermish? Javob: Ul bug'doy uch narsa birla hosil bo'ldi: azoq birla bordi, ilik birla tutdi, og'iz birla yedi. Aning uchun ozi uch kun bo'ldi. Savol: Istihoza na ermish? Javob: Odam Havvoning tavbalari qabul bo'lmishda ashnuqi yig'lag'anlari hayz bo'ldi. Tavbadin so'ng yig'ladi, yig'lag'ani istihoza bo'ldi-arig'liq berdi. Savol: Nifos ne ermish? Javob: Havvo bug'doy yig'ochin olib kelguncha qirq dam urdi, tekma bir dam sayu bir kun niflos bo'ldi.

Yana keldimiz maqsudg'a. Qachon Odam va Havvo zillat bilgurdi ersa tojdin, hulladin yaling qoldilar. Iliklari birla avratlarin o'rtub, yig'ochdin yig'ochg'a yaburg'oq tilayu yuguru boshladilar. Qayu yig'ochg'a borsa yaburg'oq bermadi. Qavluhu taolo. *Va tafiqo yaxsifani alayha min varaqial-jannati*.

Odam yugurib borurda yigdaning yig'ochi sunub, Odamning sochin tutdi, qanda borursen? tedi. Qo'zmazmen, tedi. Qo'zmas

Mavlog'a osiy bo'lgan, tedi. Ul sababdin Odam o'g'lonlari yig'ochlari tikkanda yigda yig'ochini suvdin iroq tikkilar, suvsuz qolsun, teb. Hikmat. Qamug' yig'ochlarda o't bor. *Fikulli shajaratin narun. Vais tajmarahu... val g'affar.* Yig'och suv ichmasa o't ani quritir. Izi azza va jalla yigdaning o'tini ketardi, qurimasun teb. Aning uchun kozirlar to'n tikmakka to'qmoq andin qiturlar, to'n kuymasun teb. **Hukm keldi: Yo Odam (12v)** mendinmu qocharsen? Aydi: Ilohiy uftanmishda sendin sanga qocharmen. Jabroil Odamning ilkin tutub hazratg'a kelturdi, yorlig' bo'ldi: Ey Odam, seni tuproqdin yaratmadimmu, ma'rifat birla og'irlamadimmu, ko'rklik suvrat birla bezamadimmu, farishtalarga ko'turtmadimmu, ujmohg'a kivurmadimmu, ne'matlarin kekdaymadimmu, Havvoni senga juft qilmadimmu, bug'doy yig'ochin yemang temadimmu, shaytonni sizga dushman teb aymadimmu? Qavlulu taolo. *Innaash-shaytona lakuma adavvun mubinun.* Neluk bug'doy yeding? Aydi: Ilohiy, ul hukmni kim qildi, ul qazoni kim yuritdi? Yorlig' keldi: Men yuritdim, men qazo qildim. Ammo mening qazom, hukmum, taqdirim g'ayb turur, buyruqum, farmonim ochuq turur. Zohirni qo'yub, g'oyibg'a neluk qotilding? Aydi: Ilohiy, andog' hukm qilding, qazo yuritding, mendin andag'-o'q kechirgil, meni yorliqag'il. Yorlig' keldi: Seni yorliqadim, sendin kezin kelikli o'g'lonlaringma mundog' iqror qilsalar ularnima yorliqag'ayman, tedi. Emdi ujmohdin chiqq'il, tedi.

Xabarda andog' kelur, anjir yig'ochi Odam va Havvog'a besh yaburg'oq berdi, andomlarin o'rtub chiqtilar. Tong otmishdan kezin ul besh yaburg'oqdan birin kiyik yedi, yipor bo'ldi, birin sig'ir yedi, anbar bo'ldi, birin aru yedi, asal bo'ldi, birin qurt yedi, ipak bo'ldi, birin Odam yerga tikdi, yung bo'ldi. Qiyomatg'a tegi o'g'lonlarina kafan bo'ldi.

Nukta. Anjir yig'ochi Odamga yaburg'oq bermishi uchun Tengri azza va jalla bazirladi. Qamug' yemish uch turluk turur, kimining tishi yenur olma, amurd mengizlik, kimining ichi yenur tishi yenmaz yangoq, bodom mengizlik, kimining toshima enmaz, ichima enmaz qag'un, xarbut mengizlik. Ammo anjirning tashi ham yenur, ichi ham yenur. Yorlig' keldi Odamg'a, Havvog'a, Iblisga, tovusg'a, yilong'a ujmohdin chiqing, teb. Odam va Havvo zorliq

birla yalvoru yig'layu chiqdilar. Qavlulu taolo. *Qulnah bitu minha jami'an. Rabbana zolamna anfusana (13r)* va in lam tag'fir lana va tarhamna lanakunanna min al-xosirina. Odam Hindustonda. Anjalus otlig' yerda Sarandib tog'ing'a tushdi. Havvo Jidda tog'ing'a tushdi. Iblis Basrag'a tushti, aning shumluqindin juhudlar anda ukush bo'ldi, yilon Isfahon yeringa tushdi, aning uchun isfahoniy baxil bo'lur, tovus Mishonga tushdi, qamug'larining hollari aynadi. Odam, Havvo yoling qoldilar, Iblis mal'un bo'ldi, yilonning ko'rklik suvratini aynadi, bu yanglig' bag'rin yuriyur bo'ldi, achig' tubroq yeguchi bo'ldi. Odam tushgan yerida ukush yig'ladi. Yuz yig'ochliq yerda ko'zi yoshidin yig'ochlar undi, yullar, buloqlar bilgurdi. Odamning yoshi tomg'an yerda o't-yem, achig'-suchuk dorular bo'ldi. Havvoning ko'zi yoshi tomg'an yerda ud, qaranful, sunbul, hino, o'sma undi. Qiyomatg'a tegi Odam o'g'lonlaring'a meros qoldi. Anchada Iblis yer yuzindagi qush-qurtlarni yig'ib aydi: Yer yuzing kimersa keldi sizlarga mengazmaz. Sizlarni urug'inguz birla o'lturgusi turur, tarkin yig'ilib ani o'lturung, o'lturmasangiz tinmagaysiz, tedi. Qamug' yig'ilib keldilar. Ilk burun sicha kelib Odamning boshing'a qo'nub, sochin yula boshladi. Aning uchun Odam o'g'lonlari sichani tutub, yungini yulub, so'kturlar. Odam qush-qurtlarni ko'rub qo'rqdi, Yorlig' bo'ldi: Ey Odam, bularda birin uzurgil, ilkingni boshing'a siqag'il. Odam itni uzurdi. It Odamg'a isindi, azin qush-qurtlarga tepundi, qamug'ni qavdi. Ul kundin beru it Odam o'g'lonlari birla qoldi, azin ozig'lilar birla yog'i bo'ldi. Yana yorlig' bo'ldi: Ey Odam, sanga yorliqanmoq kerak ersa Makkaga borg'il, mening uchun bir ev qo'borg'il. Aydi: Ilohiy, ul yerni men bilimazman, qayda turur? Mavlo azza va jalla bir qushni qulovuz iza berdi. Oti arab tilincha axyol erdi, turk tilicha ko'k qarg'a. Ul uchar erdi, Odam so'nguncha borur erdi. Xabarda kelur, Rasul alayhis salom aydi: Olti qushni o'lturmang, biri ko'k qarg'a, **(13v)** Odam qulovuz uchun, ikinch qarinch Sulaymong'a o'gut bermish uchun, uchunch qarlug'och Suratul-hashr oxirini o'qur uchun, ba'zilar aymishlar Bayt ul-Muqaddas xarob bo'lmishda bo'lmishig'a yig'lamish uchun, aning uchun qorni urung bo'ldi. To'rtunch hudhud Sulaymong'a elchi bo'lmish uchun, beshinch suv baqasi Namrud o'ting'a su kelturmush uchun. Oltinch Asal arisi,

andin odamiy'ga shifo bo'lgan uchun. Odam Makka yeringa kelib bir ev qo' bordi, adizligi Surox otlig', ma'rufroqi Bayt ul-Ma'mur otlig'. Ul evning tegrasiga tavof qildi, Mavlo Odamdin qabul qildi, zillatin kechurdi. Qachon Nuh to'foni bo'ldi ersa Mavlo taolo yorliqi birla Jabroil ul evni ko'turdi, to'rtunch qat ko'kka oshurdi. Yana Odam Hindustong'a yonib bordi, ne'matlar ukush uchun. Havvoning ilkin tutub ikagu bordilar. Mavlo taolo sekiz qo'y izdi, etisi sog'liq, biri qo'chqor. Havvo ul qo'ylar yungin igirdi, Odam to'qidi. Ikagu to'n qilib kizdilar. Yer yuzida qo'ydin qutlug'roq azin tanlig' yo'q temishlar.

Rasul alayhis-salom aytur: *Ash-shatu barakatun vaash-shatani barakatani va salasu shiyahin kanzun*, ya'ni bir qo'y barakat, iki qo'y iki barakat, uch qo'y-ganj. Odanning qorni yavloq ochdi. Jabroil Mavlo yorliqi birla iki uy kelturdi ujmohdin, biri qizil, biri qora. Jabroil ujmohdin uch uvun bug'doy kelturdi, uch hissa qildi. Ikisi sanga, biri Havvog'a, tedi. Tekma bir uvun yuz ming sayar erdi. Ul uylar ujmohdin chiqmishing'a yig'lashtilar, ko'zlari yoshindin qo'noq bo'ldi. Ilgarudin sidilar naxud undi, keynindin solg'an yosmuq undi. Jabroil uch uvun bug'doyni ushoq sindurdi ersa telim Odam Havvo taridilar. Odam tarig'an bug'doy undi, Havvo tarig'an arpa undi. Ul soatda-o'q undi. Odam aydi: Yeyinmu? Jabroil aydi: Yo'q, tikkun, tikdi. Yeyinmu? Aydi: O'rg'il, o'rdi. (14r) Aydi: Yeyinmu? Aydi: Yanchg'il, yanchdi. Aydi: Yeyinmu? Aydi: Sovurg'il, sovurdi. Aydi: Yeyinmu? Aydi: O'gutgil, o'g'utdi. Aydi: Yeyinmu? Aydi: Yo'g'urg'il, yo'g'urdi. Aydi: Yeyinmu? Aydi: Pishurg'il, pishurdi. Aydi: Yeyinmu? Yorlig' keldi: Ey Odam, kunnung iki ulushi bordi, bir ulushi qoldi. Sabr qilg'il, kun botsun, bu kun ro'za tutg'il. Ul kun oshur kuni erdi. Men sening birla uch ish qilayin, sendin xushnud bo'layin, yozuqingni yorliqayin, ujmohg'a kivurayin. Qachon Odam ul ko'mochni yegalu o'g'radi ersa Jabroil keldi, ul ko'mochni uch ulush qildilar, iki ulushni Odamg'a berdi, bir ulushni Havvog'a berdi. Aning uchun erga iki ulush, xotung'a bir ulush tegdi. Odam o'z ulushin tugal edi, Havvo yarmini yedi, yarmini qo'ydi. Jabroil keldi, aydi: Ey Odam, sen yemishtak Havvo tugal esa yerdi, qiyomatg'a tegi o'g'lonlaring qahatliq ko'rmagay erdilar. Odam ul ko'mochni yeyurdi qorni

og'ridi. Jabroil Odam ilkin tutdi, yozig'a eltdi. Odam yoziladi? qizig' el bilgurdi. Aydi: Ey Jabroil, bu ne ul? Jabroil aydi: Ul stning zillating shumluqi turur. Anda kezin Jabroil ikini Odam boshing'a urdi. Odanning boshi yetmish qari kamaldi, andin burun boshi ko'kka tegar erdi. Havvo Jidda tog'inda qorni ochsa tengiz qirog'inda kelib baliq tutub qatig' uza qo'yub so'klub yer erdi. Odam iki yuz yil yig'ladi, iki yuz yilda kezin Arafot erinda ikagu qovushilar. Odamdin yukluk bo'ldi, yuki yungul. Qavluhu taolo. *Hamalat hamlan hafifan*. Qachon og'ir bo'ldi ersa Qavluhu taolo. *Fa lamma ashalat da'ava-lloha* Iblis Havvog'a keldi, aydi: Qorningda ne bor? Aydi: Bilmazman. Iblis aydi: Qorningdaqi uy, yilqi bo'lg'aymu? Havvo bu so'zg'a qazg'ulug' bo'ldi. Iblis aydi: Men arig', muslih kishiman, Mavlo hazratinda azza va jalla izzatim va hurmatim bor, duo qilayin qorningdaqi o'g'lon sentek arig' odamiy tug'sa mening otimni atag'aymuse? Havvo aydi: Sening oting ne turur? Aydi: Mening otim Horis turur. Ul o'g'lon tug'di ersa otin Horis atadi. Havvo ul soat-o'q o'ldi.

Rivoyat qilur, Sha'biy raziyallohu anhu, Iblis singar ko'zluk turur, singar azoqinda na'lini bor. Qachon payg'ambar alayhis-salom vafoti bo'ldi ersa Ali karramallohu vajhahu taxt uza qo'yub yuvg'ali o'g'radi ersa havodin ovoz keldi *ya Ali la tag'situ Muhammadan fainnahu tohirun mutaxarrun*. Ya'ni Muhammadni yuvmang, Muhammad arig' turur. Ali aytur: Mening xotirim azin bo'ldi, mundog' kerak erkan teb. So'rdum: Sen kimsenkim, Muhammadni yuvmoqni man' qilursen, yuvmoq sunnani Muhammad qo'yub turur. Yana xotafdin ovoz keldi: Yo Ali, ul so'zlagan Iblis turur. Muhammadg'a hasad qilur, sen yuvg'il. Ali anga ezgu du'o qildi. *Jazaka-llohu hayran kasiran*, ya'ni lzi azza va jalla senga ezgu jazo bersun, menga Iblisdin xabar qilding. So'rdi: Sen kimsen? Aydi: Men Xizrmen, Muhammadning janozasing'a namoz qilg'ali keldim, tedi. Xabarda kelur: Havvo yetmish qorin o'g'lon tug'urdi, ikishar-ikishar bir o'g'ul, bir qiz. Ammo Qobil urug'i yeti ming er-xotun bo'ldilar, Hobil urug'i qirq yeti ming bo'ldilar. Odam yil sayu qurbon qilur yerdi. Qayu qurbon qabul bo'lsa ko'k'din o't kelib ul qurbonni kuydurur erdi, qabul bo'lmasa o't kelmaz erdi. Odam etmak yeyur erdi, et orzuladi.

Yorlig' keldi: borg'il, qush ovlag'il. Ovladi bir qirqovul tutdi, bir burgut tutdi. Ularni bo'g'uzladi, o'tga so'kuldi. Qirg'ovul pishiti, burgut pishmadi. Odamning o'fkasi keldi. Burgutni o'tga ko'mdi, tamom kuydi. Odam qazg'ulug' bo'ldi qirg'ovul manga tab kelmas, tedi. Qirg'ovul Havvo oting'a erdi, burgut Odam oting'a erdi. Qirg'ovulni Havvog'a berdi, qazg'ulug' bo'ldi. Jabroil keldi, aydi: Ey Odam, qazg'urmag'il, **(15r)** bu qush o'mig'a azin qush bergay. Bu qush senga taqi o'g'lonlarigga qiyomatg'a tegi harom bo'ldi. Odam andag'-o'q qurbon qilur erdi, o't kelib kuydurur erdi. Qamug' payg'ambarlar shari'atinda o'tg'a kuyurmak qurbonlari erdi, bizing payg'ambar Muhammad al-Mustafog'a tegdi, bu shari'atda qurbonni kuyurmak harom bo'ldi, yemak halol bo'ldi.

Savol: Qurbonni kuyurmak bu shari'atda nedin harom bo'ldi? Javob: O'zaqi ummatlarning qurboni qabul bo'lsa kuyar erdi, qabul bo'lmasa kuymas erdi. Xalq arosinda fasihah bo'lur erdi.

Ey Muhammad, sening shari'atinda qurbonni kuyurmak harom qildim, ummatlarning fasihah bo'lmasun teb. Foyda. Bu kun bu dunyoda Muhammad ummatini fasihah qilmoqni ravo ko'rmadam, yorin qiyomat kun Arafot yerinda xalq avvalin oxirin arosinda mo'minni fasihah qilmasa ne ajab bo'lg'ay!

Foydali digar. Bu kun bu dunyoda mo'minning qurbonini kuyurmakni harom qildi. Yo rab, uqboda mo'minning tanini tamug' o'tig'a harom qilsa hech ajib va g'arib bo'lmag'ay. Aymishlar, Odam qo'sh surub bug'doy teriyurda uyni bir urdi. Uy yuzin Odamg'a o'vurdi, aydi: Ey Odam, meni neluk urarsen? Kim yozuq qilsa ani urg'u, tedi. Odam bildikim, uy qaydin so'zlayur. Aydi: Ey ajabo, tong birla farishtalar manga sajda qilur erdilar. Kechalik bu uy mening birla so'zlashur, tedi. Odam telim yig'ladi.

QISSAYI QOBIL VA HOBIL

Qavlulu taolo. *Vatlu alayhim nabaa ibnay Aadama iz qarraba qurbanan fa tuqubbila min ahadihima, ya'ni Izi yorliqar: Ey Muhammad ularning uza Odamning iki o'g'lonlarining so'zini ul o'g'urdakim qurbon qildilar, birining qurboni qabul bo'ldi, birining*

qabul bo'lmadi. Emdi men seni o'lturarman tedi. Ul aydi: Kim saqinuq, qo'r qar ersa aning qurbonini qabul qilur, tedi. Ul qissa bu turur. Odamning so'ng tug'g'an o'g'lonlarinda bir o'g'lig'a Abdulmug'is atadi, qizg'a Amat ul-Mug'isa atadi. Bu ikagu anchada tug'dilarkim Odamning urug'i qirq ming band bo'lmish erdi *vaal-bandu fial-lug'ati... asharatu alfa rajulin*. Qachon Qobil tug'di ersa aning birla bir qiz tug'di, g'oyat ko'rkluk, Iqlimo otlig'. Iki yilda kezin Hobil tug'di, aning birla tug'g'an qiz g'oyat ko'rsuz erdi, Abudo otlig'. Odam o'z shari'atincha Qobil birla tug'g'an qizni Hobilg'a berur bo'ldi. Hobil birla tug'g'an qizni Qobilg'a berur bo'ldi ersa Qobil unamadi. Mening bila tug'g'an qizni olurman, tedi. Odam aydi: Shari'at andog' ermaz. Qobil aydi: Bu manga qarindosh bo'lur ersa ul ham qarindosh bo'lur, teb so'z taloshdi ersa Odam aydi: Andog' ersa ikagu qurbon qiling, qayunguzning qurboni qabul bo'lsa Iqlimoni ul olsun, tedi. Hobil qo'y kuzatur erdi, ulug' semiz qo'y kelturub azoqlarini bog'ladi, qurbon qilur yerda qo'zdi. Ko'kdin o't indi, Hobilning qurbonini kuyurdi, Qobilning tegrasinga yovumadi. Iblis kelib Qobilg'a aydi: Hobilning qurboni aning uchun qabul qilindiki, Mavlo azza va jalla hazratinda aning izzati va qurbi bor. Otang Odam yema ani sevar taqi Odamning tilagi ul turur, bu er xalifaligi Hobilg'a bersa, teb. Qobilning o'fkasi keldi, aydi: Men Hobilni o'lturayin. Qiz yema, xalifaliq yema manga qolsun, teb. Qobil Xobilni o'lturmakka o'g'radi. Netak o'lturguni bilmas erdi. Bir kun yobonda Iblisni ko'r di, odam surati uza bir qush tutub borur. Bir tosh qo'zdi, qushni tosh tepasinga qo'zdi, taqi yana bir tosh birla yanchdi. Qobil ani ko'rub o'lturmak o'grandi. Qobil Hobilg'a: Men seni o'lturarman, tedi. Hobil aydi: Men sanga qatilmazman Izi azza va jalladin qo'r qarmen. **(16r)** Qavlulu taolo.

Lain basatta ilayya yadaka litaqtulani ma ana bibasitin yadiya ilayka liaqtulaka inni axofu-Iloha rabbaal-alamina. Hobil qum tepasinda yotib uziyur erdi, bir tosh birla urub o'lturdi. Qiyomatg'a tegi kishi o'lturmak, qon to'kmak Qobil ta'limidin qoldi. Xabarda andog' kelur, payg'ambarlarimiz Muhammad al-Mustafog'a alayhis-salom man sanna sunnatan hasanatan fa lahu ajruha va ajru man amila biha ila yavmial-qiyamati va man sanna sunnatan sayyiatan falahu vizruha va vizru man amila biha ila yavmial-qiyamati. Qobil

Hobilni o'lturmishda yigirmi yashar erdi, qush qurtlar Hobilni o'g'radi. Qobil Hobilni bir qopg'a suqub, orqasing'a ko'turub yurur erdilar. Anchada Tengri farmoni birla iki qarg'a keldi, bir biri birla urushdilar, biri birini o'lturdi. Tirik qolg'an qarg'a tumshuqi birla yerni qazdi, ul o'luk qarg'ani ko'mdi. Qobil ani ko'rди, aydur: Mening qarg'a choqlig' aqlim yo'q ermish, teb o'kundi. Tengri azza va jalla uch holdan Muhammad Mustafo alayhis-salomg'a xabar berdi. *Fa ba'asa-llohu g'uroban yabhasu fial-arzi liyuriyahu kayfa yuvari sav'ata axihi qola ya vaylata a'ajaztu an akuna misla hazal g'urobi fa uvariya sav'ata axi fa asbaha min an-nadimina.*

Ulamolar aymishlar: Qobilning o'kunchi Hobilni o'lturmush uchun ermaz erdi. Ulturmishinga o'kunsa tavba qilg'ay erdi, kofir bo'lmag'ay erdi. O'kunchi ul erdi, o'lukni yerga ko'mgusin bilmas erdi. Orqasing'a ko'turgan uchun o'kundi. Qachon Odam haig'a borur bo'ldi ersa Hobilni ko'kka tobshurdi, men kelgincha saqlag'il teb, qabul qilmadi, yerga arza qildi, qabul qilmadi, tog'lar qabul qilmadi. Qobil qabul qildi, amonatg'a xiyonat qildi, o'lturdi Qavluhu taolo. *Qiyala zolika, Inna araz-naal-amanata allas-samavati vaal-arzi vaal-jibali...* Qobil Hobilni o'lturdi ersa tun, kun yer tebrandi. Hobilning qoni (16v) yerga suv singartek singdi. Yana Odam hajdin yonib keldi ersa o'g'lonlari qamug' qarshu keldilar, Hobilni ko'rmadi, so'rди Hobil qayda, teb. Qobil aydi: Hobilning qo'yilari mening oshliqimg'a kirmish erdi andin o'tru uftanib kelmas. Odam aydi: Sen mundog'teyursan, ammo Hobilning qoni yerda ingranu turur. Qobil aydi: *Ana qataltuhu.* Odam aydi: Tengri la'nati ul yergakim, Hobilning qoni to'kuldi. Bu kun tashqaru chiqarmasa Hobil qoni yer yuzinga qaynayu chiqdi. Ul kundin beru qon yerga singmaz bo'ldi. Ul yerda oq tikan birla yulg'un undi, tabiz bo'ldi. Yobon qush qurtlar qochib, tog'larg'a kirdilar, qarindosh qarindosh uza shafqat qolmadi, teb. Odam birla Havvo telim yig'ladilar. Odam ta'ziyat tutub bu she'rni aydi. Yer yuzinda avval she'r ayg'an Odam erdi, ul she'r bu turur:

Tag'ayyarat ul biladu va man alayha

Va vajhul arzi mug'ayyirun Masihu

Faajibahu iblis la'natullohi alayha

Tag'ayyara kullu zi-lavnin va ta'min

Va qad bashashtil vajhil malihu
Bi qatli Qobilin Hobilin axahu
Fa yo asafa alal-vajhis-sabihi
Va badalatil-arzu aslan va-hamtan
Va fil-firdavsi anharun sabihun
Fa hal ana min hayotiy mustarihun
Va yo asafa ala Hobilin innani
Qatilan qad tazamannahu az-zarihu
Tanha alal-biladi va sakiniha
Fa fil-firdavsi zaqa bika al-fasihu
Va qalbuka min azad-dunyo murihun
Va ajabaku Havvou raziyallohu anha
Tunnaji fa-innaka shaytanun lainun
Yafizu al-vajhu mal'unun qabihun
Tavallu dahri kunta lana aduvvan
Lainan la yamutu fa tasmarihu.

Rivoyatda andog' kelur: Qobil Hobilni o'lturdi ersa, Iblis kelib Qobilg'a so'zladi: Mavlo taolo ne uchun sening qurboningni qabul qilmadi? Aning uchunkim, sen o'tg'a topunmazsen, butg'a topunmazsen, xamr ichmazsen, un o'tkurmazsen. Qobil bu qamug'ni eshitib (17r) erdi. Anda kezin Qobil xamr ichdi, butg'a topundi, o'tg'a topundi, unlar o'tkuru boshladi. Odam bildi ersa Qobilni ul ishlardin yig' moq uchun qirq ming er izdi. Kelib Qobilni ko'rdilar, ul unlar eshittilar qamug'i murtad bo'ldi. Qobil birla andag'-o'q qoldilar. Bu kun qamug' ma'siyatlar qiyomatg'a tegi Qobildin qoldi. Qachon qiyomat kuni bo'lsa Izi tamug'luqlarni tamug'g'a kivursa, o'z hollarin ko'rub Mavlo azza va jallag'a yolvorib ayg'aylar: Qavluhu taolo. (*Xabaran anhun*) *Rabbana arina allazayni azallana min aljinni vaal-insi naj'alhuma tahta aqdimina liyakuna min al-asfalin:* Murod ul ikagudin Iblis taqi Qobil turur. Ul holda xitob kelgay: Ey Iblis, tamug'luqlar seni istayurlar. Iblis ayg'ay: Menma ularni tilayurman. Mavlo azza va jalla tamug' ichinda o'tdin bir minbar urdurg'ay. Iblis ul minbarg'a og'g'ay, taqi ayg'ay inni kafartu bima ashraktumuni min qabul... tamug'luqlar azin javob aytu bilmagaylar, qamug'

Hobilda kez in yuz o' tuz yil kechdi, Shis tug' urdi. Shis sarboniy tilincha *hibatulloh* temak bo' lur, ya' ni Tengri atosi. Hobilni oldim ersa aning o' rning' a Shisni berdim, tedi. Mustafoning nuri Odam olindin Havvo rahminga botdi. Shis tug' di ersa ul nur Shis olinga keldi. Odam Shisni g' oyat sevar erdi. Xitob keldi: Ey Shis, bu nur habibim Muhammad Mustafoning nuri turur. Vasiyat qilg' il (18r) o' g' lonlaringga juftlarini nikoh qilsunlar, sevmak birla qovishmasunlar. Izi azza va jalla Odamg' a ming hirfa o' r gatmish erdi. Shisg' a bo' zchilik o' gratu berdi, qamug' hirfalarda o' ngay teb. Ev ichinda ko' lkada o' l turub ishlagil, tedi. O' nging qarindoshlari aydilar: Shis evda o' l turub ish ishlar, biz yobonda qish, yoy emganurmiz. Biz yema bo' zchilik o' granaling, tedilar. Odam ani eshitib duo qildi, aydi: Ilohiy, bo' zchilikni bular ko' nginga dushman qilu bergil, teb. Mavlo azza va jalla qamug' nung ko' nginga dushman qildi. Yana aymishlar: Bo' zchilik barakoti bo' lmas, aning uchun bo' zchilar Zamzam quzug' ing' a bavl qildilar. Yana aymishlar: Amallari yulg' un uchun barakotsiz turur.

Andog' hikoyat qilurlar. Biragu Rasul alayhis-salomg' a keldi, aydi: Yo Rasullullah, mening molim telim bo' ldi, yavloq emganurman, jahd qiturman kam bo' lsun teb. Kim ersaga berurga ko' nglum bo' lmas natak qilayin? Rasul alayhis-salom aydi: Borg' il yulg' un yig' ochidin tayoq tutg' il. Andog' qildi, moli tugandi. Yana aymishlar: Maryam ona raziyallohu anho juhudlardin qochmishda bo' zchilardin yo' l so' rdi. Yovuz yo' lg' a yo' lchiladilar. Tikonlik yerga tushdi, anlarga qarq' adi. Yana aymishlar: Tering suvg' a yo' l boshladilar. Kechara tanimi ko' raling, tedi. Maryam duo qildi: Ilohiy, sino' atlarindin barakotni keturgil. Yana aymishlar: Solih yalavoch inganini bo' zchilar o' l turdilar. Qavluhu taolo. *Va kaana fi al-madinati tis' atu raxtin*. Yana aymishlar: Bo' zchilik ezgu sino' at turur. Qamug' o' lukka va tirikka yarar. Xabarda kelmish: Rasul alayhis-salom yorliqadi: *Ni' ma al-amalu al-g' azlu linisa' i ummati* va *ni' ma al-amalu al-xiyatatu liri' jali ummati lav la al-kizbu fihim*. Yana aymishlar: Bo' zchida olti xislat bor: ilki ul turur qamug' i sun' iy bo' lurlur, ikkinchi juvonmard, uchunchi g' arib do' st bo' lurlar,

navmid bo' lg' aylar. Aymishlar: Qachon Qobil Hobilni o' l turdi ersa Iqlimoning ilkin tutub, Yaman viloyating' a bordi-o' tg' a topunu boshladilar. Odam o' g' lonlarindin kim anda kechar bo' lsa bir tosh otar erdi. Bir o' g' li bo' ldi ko' zsus. Aning yema bir o' g' li bo' ldi Qobil qatig' a keldilar. Ul o' g' lon ko' zsus otasinga aydi: Sening qarindoshing(ni) bu o' l turdi, teb. Ko' zsus bir tosh olib Qobilni urub o' l turdi. O' g' lon aydi: Otangni neluk o' l turdung? tedi ersa ani yema bir yangoqladi, ul o' g' lon yema o' ldi, ani ko' rub yig' layu boshladi.

Qobilning urug' i ukushraki bu tama' qatida halok bo' ldilar. Qamug' fasod qilg' anlar, xamr ichganlar, un o' tkurganlar, o' tga topung' anlar. Taqi xabarda andog' kelur: Odam Mavlodind tiladikim, yer mening erkimda bo' lsa. Yorlig' bo' ldi yerga, Odam natak tesa andog' qilg' il, teb. Odam aydi: (17v) *Ya arzu hazihi*. Ey yer, tutg' il Qobilni ashuqing' a tegi, tutdi. Qobil qo' r qdi, aydi: Ey ota, rahm qilg' il. Aydi: Sen qarindoshingg' a rahm qilmading, men sanga natak rahm qilayin, tedi. Yana aydi: *Ya arzu hazihi*. Yer Qobilni tizinga tegi tutdi. Yolvordi, aydi: Ey ota, sen ujimohda yozding ersa yolvording, Izi sendin kechurdi. Tilagil mendinma kechursun. Odam aydi: Men uvun bug' doy yedim, sen qon qilding, natak kechurur? Yana aydi: *Ya arzu hazihi*. Yer Qobilni belinga tegi yutdi. Aydi: Ey, ota, sen aytur erding Mavloning yuz ming ulug' rahmati bor, to' qson to' quzni qamug' olamdaqi mo' minlarga bergusi, bir ulush qamug' tanlig' larg' a bergusi, tilagil menga ul bir ulushdin bersun. Odam aydi: Sen qarinda-shingg' a rahm qilmading, ul rahmatdin sanga ulush yo' q, tedi. Yana aydi: *Ya arzu hazihi*. Yer Qobilni bo' g' zing' a tegi yutdi. Qobil Odamdin umid kesdi. Qobil aydi: Ilohiy, otamdin eshitdim sening Rahmon, Rahim iki oting bor. Ul rahmonliqing birla meni bu azobdin qutqarg' il, qutqarmaz ersang Rahmon otingni o' zungdin ketargil, tedi. Ovoz eshitildi: Ey Qobil, men telimlarni azobdin qutqarg' ayman, Rahmon otimni ketarmagayma". Yerga xitob keldi: Qobilni qo' zg' il. Mavlo yorlig' i birla qo' zdi. Bir farishta keldi, Tengri farmoni birla Qobilning azoqin tutub yetti yo' li mashriqdin mag' ribg' a tegi o' vurdi, chaldi, halok bo' ldi. *Tammat, tammat*.

to'rtunchi ko'ngullari kichik bo'lurlar, beshinchi o'luk-tirik anlarga muhtoj bo'lurlar, (18v) oltinchi qamug' yo'llug' bo'lur. Yana aymishlar: Balh mulkida bir arig' zohid olim bor erdi. Shayx Shaqiq rahmatullohi alayh ul bo'zchini eshitti ersa, ko'rgali bordi, shayxqa o'tru chiqdi. Olim aydi: Ey shayx kelmaging bizga sevinch bo'ldi. Shayx so'rdi: Netak? teb. Bo'zchi olim aydi: Sening kelmaging Izi qazosi erdi. Izi qazosi sevuk bo'lur. Qachon Shayx Shaqiq bo'zchi evinga kirdi ersa qozuq ko'rdi. Bu ne? teb so'rdi. Bo'zchi aydi: Vatad ul istiqomat teyurlar. Qavluhu taolo. *Ima allazina qolu rabbuna-llahu summa istaqamu*. Yana so'rdi: Bu ne iz turur? Aydi: Bu *hablullohi* turur. Qavluhu taolo. *Va i'tasimu bi habli-llahi jami'an*. Yana so'rdi: Bu bo'z ne bo'z turur, yerga yozib turursen? Aydi: Bu tirikligim turur. Yana so'rdi: Bu ne qamish turur? Aydi: Bu yaqin turur, aning birla o'zumni dunyodan uzaturman. Yana so'rdi: Bu ne qush turur? Aydi: Bu mening toatim turur va hayrotim turur. Yana so'rdi: Bu ne tirq'oq turur? Aydi: Bu ixlos turur, amalimni berkiturman. Yana so'rdi: Bu beshik to'shunda ingan oshg'an ne turur? Aydi: Bu tun-kun turur. Yana so'rdi: Bu azoqingdaqi yassi ne yig'och turur? Bu xavf-u rajo turur. Bir ancha xavfg'a tulanurman, bir ancha rajog'a inonurman. Yana so'rdi: Necha yil bo'ldi bu ishni qilursan? Aydi: O'tuz yil bo'ldi. Shayx Shaqiq rahmatullohi alayh aydi: Qatlang'il, bu ishni qo'zmag'il, seni ujmoHg'ayo 'lchilayur, tedi. Hikoyat. Umar Xattob raziyallohu anhu bir masjidda kirdi, ko'rar, bir qaba saqolig' bog'dosh qilib o'lturur. Umar raziyallohu anhu aydi: Qaydin kelding? teb. Aydi: Irak elindin, ya'ni Iroqdin keldim. So'rdi: Ne sino'at bilursan? Aydi: Hobikman. Arab tilincha bo'zchi bo'lur. Yana so'rdi: Ne ishlarga kelding? Aydi: Ilm o'granu keldim, ya'ni ilm o'rgangali keldim. Umar raziyallohu anhu qo'ldoshlariga yuz evurdi, aydi: Rasul alayhis-salomdin eshitmadimnu, qachon bo'zchi o'ltursa qoching teb. Qamug'lari qaba saqoldin qochdilar.

Hikoyat. (19r) Imom Shayx Jo'ybori rahmatullohi alayh bir kun shogirdlari birla o'lturur erdi, bir kim ersa qapug' qoqdi, haybatlik erdi. Bu kimerasa to'rt kimersadin xoli ermas: yo qaba saqol, yo bo'zchi, yo muallim, yo bir yarog'siz xabarg'a kelgan turur. Haqiqat ko'rdilar andag'-o'q ermish. Anda kezin savol qildi, aydi: Evlugum uza ont ichtim sening otang mening zakarimni tutib, sening farjingga

qo'zmag'uncha sening birla yotmag'aymen tedim, muna ne hiyla qilayin, evlugum taloq bo'lmasun? Aydi: Borg'il, zakaringga bir kesak bo'z yo'rgagil, ilki birla tutub, aning farjingga qo'zsun tedi.

Xabarda andog' kelur: Odam Safiyning umri ming yil va'dalik erdi. Misoq kuninda bir bo'lak qavmini ko'rdi, boshlarinda nur kumiyur erdi. Aydi: Yo rab, bular kim? U aydi: Bular sening o'g'lonlaring arosindaqi yalavochlar tururlar. Ularning arosinda birini ko'rdi, qamug'idin nuri ortuq erdi. Aydi: Ilohiy, bu kim? Ul aydi: Dovud yalavoch alayhis-salom turur. Aydi: Ilohiy, munung yoshi necha turur? Yorlig' keldi: Oltmish yil, teb. Duo qildi: Iziyo, munung umrini ortug'il. Yorlig' keldi: Taqdira andog' qalam oncha bitildi. Odam aydi: Ilohiy, mening umrum ming yil turur. Qirq yilni Dovudg'a berdim. Yorlig' keldi: Taqdira andog' qalam tanuq birla. Qachon Azroil jon olg'ali keldi ersa Odam aydi: Oshuqmag'il, taqi qirq yil umrumdin boqiy turur. Azroil aydi: Ul qirq yilni Dovudg'a bag'ishladim. Odam ani unutmish erdi, tondi. Mavlo taolo ul bitikni farishtalar tanuqluqi birla izu yorliqadi. Dovudning yuz yil umri tamom bo'ldi. Odam dunyodan rixlat qildi. Yeti yilda kezin Havvoning vafoti bo'ldi. Bukarchak bitiklar qiyomatg'a tegi meros qoldi. Jabroil Odang'a ujmoHdin kafan kelturdi, Shisg'a aydi: Otangni yuvg'il, tedi. Shis yuvdi, (19v) kafanga yo'rg'adi, Jabroilga aydi: Namoz qilg'il. Jabroil aydi: Sen namoz qilg'il, xalifa sensan. Uch takbir birla savob ortuq bo'lsun teb, to'rt takbir birla namoz qildi. Anda kezin bu sunnat qiyomatg'a tegi kafan sarmaq, namoz qilmoq, go'rga ko'mmak sunnat qoldi. Odamda kezin qirq besh yilda kezin Shisg'a yalavochliq tegdi. Iki yuz yetmish yil xalqni da'vat qildi. Anda kezin vafoti bo'ldi, andin so'ng xaloyiq barcha butg'a topung'uchi bo'ldilar.

Xabarda andog' kelur: Shis o'lmishda kezin kimerasa shari'at so'zin ayg'uchi bo'lmadi. Jumla shari'atni qo'zdilar, qamug' johil bo'ldilar. Iziga netak ibodat qilg'uni bilmadilar. Bir kun bir masjidda Odam suratini buldilar, anga topinu boshladilar. Tegma bir kim-ersa to'sh-to'shg'a but qildilar. Kim yig'ochdin, kim toshdin, kim oltundin, kim kumushdin. Uch yuz yil mundog' kun kechurdilar. Anda kezin Mavlo azza va jalla anlarg'a Idris yalavoch alayhis-salomni izurdi. Ul qissa bu turur.

QISSAYI IDRIS ALAYHIS-SALOM BU TURUR

Idris payg'ambar alayhis-salom ul umri ukush, diydori ko'shish, Azroilg'a qotishg'an, Rizvon birla yanashg'an, dunyodan qushtek uchg'an, tamug'g'a kirib chiqq'an, Sirotin yashintek kechgan, ujmoh qapug'in ochg'an, o'zi aziz, *innahu kona siddiqan nabiyyan va rafa'nohu makonan aliyan*, o'mi adiz, arig' zotlig' Axnuh otlig' Idris yalavoch alayhis-salom.

Aytayin Idris yalavoch so'zlarin,

Oqil eran aql u hush birla ani kim tinglayur.

Ilm(i) ortuq olim erdi ibodatda soniy,

Fazli birla ulvi olam ilmni kez anglayur,

Ilm-u fazl-u zuhd-u judi-yu dars u amali,

Toating'a barcha olam bil muni-yu kez tonglayur.

O'zi bilgan ilmni hech kim ersa bilmadi,

Ko'p ibodat qilg'anini teb xaloyiq tonglayur.

O'ldi, tirildi, tamug'g'a kirdi, chiqdi ul yana,

Ushmoqqa kirdi, qoldi bir kun anda, monglayur.

Oti Axnuh erdi, ukush dars (20r) qilmish uchun atandi. O'zi hayot erdi, eng ilk ko'nglak kizgan ul erdi, tekma igna sanchmishda tasbih aytur erdi. Aning ahinda qamug'nung toati necha ersa aning toati oncha erdi. Qamug' farishtalar aning toatini tonglar erdilar. Farishtalardan biri Idrisni ko'rarga kusar erdi. Ammoriy olimlari aymishlar: Malak ul-mavt erdi. Ba'zilar aymishlar: Azin farishta erdi. Izi azza va jalladin dastur tiladi Idrisni ko'rarga. Idrisni kelib ko'rdi, Idris ro'za erdi. Og'iz ochg'u vaqt bo'ldi ersa ujmohdin ro'zi keldi. Idris aydi: Kelgil, taom yegaling. Aydi: Yemasmen. Farishta erdukin bilmadi. To'rt kun Idris birla turdi, narsa yemadi. Idris aydi: Yozig'a chiqaling, ko'nglung ochilsun, teb, Ikagu chiqdilar, bir ekin tikdilar. Farishta aydi: Bu ekindin yegaling. Idris aydi: Subhonallohi halolg'a kel tedim kelmading. Haromg'a meni neluk o'qirsan. Andin kechtilar. Bir bo'rloq ko'rdilar. Farishta aydi: Uzum olib yesamiz bo'lg'aymu? Idris uzoqi javobni aydi. Andin kechti bir suruk qo'yg'a keldilar. Farishta boyaqi so'zni

so'zladi. Idris andag'-o'q javob aydi. Idris bildi odam ermas, aydi: Odammusen, yo farishtamu? Aydi: Farishtaman, seni kusar erdim, Izi azza va jalladin seni ko'rgali dastur qo'ldum, tedi. Idris aydi: Bu karomating hurmati meni o'zung birla ko'kka og'durg'il, andoqi ajoyiblarni ko'rayin, taqi toatim ortsun, tedi. Farishta aydi: Bu ishga erkim yo'q, Izzidin dastur qo'layin, tedi. Dastur qo'ldi. To'rtunchi qat ko'kka og'di. Azroilni anda ko'rdi, aydi: Ey malakul-mavt, jon bermak achig'in eshitibman, mening jonimni olg'il, jon bermak achig'in ko'rayin, aning yarog'ing'a toat orturayin, tedi. Azroil aydi: Bu ish (20v) mening ilkimda ermas. Izzidin dastur tilayin, tedi. Dastur bo'ldi, Idris jonin qabz qildi. Kezin Izi azza va jallag'a tazarru' birla yalvorddi: Menim muhabbatim uchun Idrisni tiruzgil. Mavlo azza va jalla Idrisni tirgizdi. Yana Azroilg'a aydi: Meni tamug'g'a kivurgil, ul qatig' qo'rqunch azoblarni ko'rayin, tedi. Azroil aydi: Ul mening ilkimda ermas. Mavlodin dastur qildi, tamug'g'a kirdi. Tamug'nung uqubatlarin ko'rdi. Yana aydi: Meni ujmohg'a kivursang, ne'matlarin ko'rsam. Azroil aydi: Ul ish mening ilkimda ermas. Mavlodin dastur qildi, ujmoh eshiginga tegdilar. Azroil aydi: Kirgil, ul shart uzakim tark chiqq'il. Idris qabul qildi, ne'matlarin ko'rdi ersa chiqarg'a unamadi. Shart(g'a) muxolif bo'Imoqini muvofiq ko'rmadi, hiyla qildi, azoqinda na'linni bir yig'och tubinda qo'zdi. Anda kezin chiqdi. Ba'dahu oh urdi, na'lin unutmishman, teb. Faryod qilib qayra yondi. Azroil bir soat, iki soat kuydi, chiqmadi. Azroil aydi: Neluk chiqmazsen? Idris aydi: Chiqdim, so'zumga tegdim, ikinch chiqmazman, tedi. Bir yig'ochni tutdi, Azroil birla so'z talashdi. Yana bir farishta keldi, aydi: Ey Idris kirgu vaqt bo'lmayin turur. Idris aydi: Menga vaqt bo'lub turur, aning uchunkim Qavluhu taolo. *Kullu nafs in zoiqatu al-mavti*. Men o'lum topdim va in *minkum illa variduha* menma kirdim. Yana yorliqlar. Taqi azin yerda yorliqar: *Va ma hum minha bimux-rajin*. Aydi: Kirdim, chiqmazmen. Ujmoh havosindin un eshitildi: *Sadaqa abdi xallu bayni va baynahu fi al-jannati*, ya'ni mening qulim ko'ni so'zladi. Qotilmang, ujmohda qolsun, mening yorliqim birla kirdi. Bu kun Idris ujmohda turur. Ammoriy olimlari aymishlar: To'rtunch qat ko'kka turur. Xabarda andog' kelur: To'rt payg'ambar tirik turur, ikisi ko'kda — Iso va Idris, ikisi

yerda — Xizir va Ilyos alayhimus-salom. Ammo bu to'rtida uchi (21r) o'lgay, Idris o'lmagay. Aning uchunkim bir o'ldi, ujmohta qoldi. *Liman al-mulku al-yavma li-Ilahi al-vahidi al-qahhari* tegu kunga tegi. Taqi aymishlar: Ujmoh xalqig'a o'lum yo'q, mundag' o'q tamug' xalqig'a o'lum yo'q. Onchasi borkim, tag'ayyur va dahshatlari bo'lg'ay. Ul vaqtda aning uchun ujmoht xalqinga savob yo'q. Tamug' xalqinga azob yo'q. Hurlarga taqi Idris tag'ayyur va dahshat bo'lmag'ay. Vallohu a'lamu.

QISSAYI HORUT VA MORUT

Qobilning bir ko'zsuz o'g'li bor erdi, ul o'g'ulning bir yosh o'g'li bor erdi, ul yema ko'zsuz erdi. Otasi ilkin tutub yururda Qobil o'tru keldi. O'g'lon otasing'a so'zladi: Bu kishi mening ammuimni o'lturgan turur. Ko'zsuz tosh ko'turdi, Qobilni urdi, Qobil o'ldi. O'g'lon yana aydi: Otangni neluk o'lturdung? tedi ersa bir tosh ko'turdi, tosh birla urub o'g'lonni o'lturdi. Ul holda farishtalar aydilar: Ilohiy, biz Odamni yaratmazdan ashnu aymadimuzmukim, Odam o'g'lonlari Jin ibn al-Jon(n) mengizlik qon to'kkaylar, teb. Farmon keldi: Odam o'g'lonlarin ayb qilmang. Siz yer yuzinda bo'lsangiz erdi ularda yaratilgan sizlarda bo'lsa sizma andog' qilg'ay erdingiz. Aydilar: Maozalloh, biz andog' qilmag'aymiz, tedilar. Farmon keldi: Ey farishtalar, sizlarda qayungiz olimroq, zohidroq ersa ani kelturung. Uch farishtani ixtiyor qildilar. Bir Uzzo otlig', ikkinchi Uzoyo otlig', uchunchi Azosil otlig'. Mavlo jalla jaloluhu shahvatni anlarda murakkab qildi ersa yemak, ichmak birla muftalo bo'ldilar. Azosil o'zinda bu narasalarni ko'rdi ersa qo'rqdi, uftandi, tavba qildi ersa Izi azza va jalla shahvatni andin ko'tardi, avvalqi holing'a yondi. Bu ikagu yerda qoldilar. Farmon bo'ldi: Dunyoga boring, menga toat qiling, ma'siyatdin yig'iling, xalq orasinda ko'ni hukm qiling, (21v) kuch qilmang, zino qilmang, qon to'kmang, xamr ichmang, xiyonat qilmang. Kunduz bu ishlar birla turung, kecha bo'lsa ko'kka oshing. Tong otg'incha menga toat qiling, teb aydi. Iliklarinda yuzuk bor erdi. Bir kun bir xotun eri birla tortishu Uzzog'a keldilar. Uzzo ul xotunni ko'rdi ersa

ko'rkti. Ul xotung'a mayl qildi, aydi: Ey xotun, sen yo'lsuzsan, mening birla bo'g'il. Men saning ko'nglungcha hukm qilayin, tedi. Xotun yema bo'lsun, tedi. Eri andog' qilurin bildi ersa Uzoyog'a bordilar. Uzoyo andog'-o'q tedi. Xotun yema va'da qildi. Qo'shg'u yerga keldilar ersa va'da qilg'anlar yashurmadilar, biri biringa aytu berdilar. Qachon xotung'a o'g'radilar ersa xotun aydi: Uch ishda birin qilmag'incha sizga bo'yunsunmazmen, tedi. Yo xasnum o'lturmagingincha, yo xamr ichmagingincha, yo butg'a sajda qilmag'uncha, yo elingizdagi yuzukni menga bermaguncha. Ular kengashdilar, yuzuk bersamiz, ko'kka osha bilmag'aymiz, kishi o'lturmakdin ulug' yozuq yo'q, xamr ichmak sahrak, teb xamr ichtilar, esurdilar. Ermima o'lturdilar, zinoma qildilar, xotun yuzuk oldi, ko'kka oshdi. Farmon bo'ldi farishtalarga, ul xotunni urdilar, masx bo'ldi. Arab tilincha oti Zuhra erdi, forsiy tilincha oti Nohid erdi, ibriy tilincha oti Biduxt, turk tilincha oti Saqit. Farmon bo'ldi farishtalarg'a ko'k qapug'in ochtilar, aydi: Olim va zohidraklaringizga boqing, teb. Qamug' tavba qildilar. Aydilar: Ilohiy, sen bizdin bilganraksen, tedilar. Uzzo va Uzoyo xamrdin ayildi ersa iliklarinda qon ko'rdilar, zino qilmishlar, xamr ichmishlar. Yuzuk iliklaridin ucmish. O'kunub yig'lashtilar, xazratda yuzimiz suvi qolmaydi, teb. Mavlo azza va jalla bizni besh narsadin yig'mish erdi: qon to'kmakdin, rishvat olmoqdin, (22r) zino qilmoqdin, kuch tegurmakdin, xamr ichmakdin, bu qamug'ni qildimiz, teb, Odam o'g'lonlaring'a istig'for qilu boshladi. Qavluhu taolo. *Allazina yahmiluna al-arsha va man havlahu yusabbihuna bihamdi rabbihim va yu'minuna bihi va yastag'firuna lillazina omanu*. Ashnu istig'for qilmas erdilar, aydilar: Biz ko'kda erkan, yer yuzindin bir qulnung toatin ko'kka og'durur erdilar. Qamug' yer xalqi toatlari birla tong kelur erdi. Ul kim bo'lg'ay? teb so'rdilar. Ul Idris payg'ambar alayhis-salomni buldilar. Anga bordilar, aydilar: Bizni shafloat qilg'il, bizni Izi azza va jalla yorliqasun, tedilar. Idris duo qildi, farmon keldi: Ey Idris, ularga ayg'il dunyoning azobinmu ixtiyor qilursiz yo uqbo azobinmu? Idris bu so'zni aydi ersa aydilar: Ey Idris, qamug' azobni ixtiyor qilaling, aytu bergil. Idris aydi: Uqbo jovidona turur, dunyo azobin ixtiyor qilaling. Jabroil ularni kelib Bobil quzug'inga eltdi, qil birla tabon osdi.

Ikinduk namozindin so'ng shafaq g'oyib bo'lg'uncha qiynayurlar. Ba'zilar aymishlar, tong otguncha mujohada ko'rar. Ul yerda alarni ko'rdum, quzug' ichinda tabon osilmishlar. Yer yuzindagi qamug' arig'siz, sasig' yizlig'lar tutun bo'lub burunlariga kirur.

Yana rivoyatda Ibrohim an-Najafiy ikinduk namozin kechrak o'tayur erdi, so'rdilar ersa, ularg'a azob yengulrak bo'lmoq uchun, tedi. Taqi aymishlar: bir yil ichinda ularning zino qilmishi vaqt bo'lsa, joduluq o'granur. Anvar ko'ngulluk kishi bir qorong'u tunla anda turar, ularning tillarincha so'zlar kechar, ular ayturlar: Muni o'granmak yozuq turur, ishlatmak kufr turur. Qabul qilmasa ayturlar: Borg'il yozig'a ko'rmishingni aytu bergil. Borib yozig'a o'lturub yirlanur. Bir urung ko'garchkun og'izlarindin chiqar kelib ularga so'zlayu berur, (22v) ayturlar: Urung ko'garchkun sening imoning erdi, sendin azrildi, emdi o'granursen, tedi. Teyurlar: Ma'lum bo'ldikim, joduluq o'gransa, taqi aning birla amal qilsa, Mavlo azza va jallaga kofir bo'lur ermish. Anda kezin farishtalik otin andin ketardilar, Horut va Morut ot berdilar.

QISSAYI NUH NABIY ALAYHIS-SALOM

Ul: *Inni lakum nazirun mubinun*, teb qavminga pand bergan, *Fa qultu istag'firu rabbikum innahu kaana g'af-faran*, teb munojot qilg'an, kofirlar ilkinda arig' sunguklar sababindin *Rabbi la tazar ala al-arzi min al-kafrina dayyoran*, teb duo qilg'an, *fa anjaynahu va man ma'ahu fi al-fulki* tashrifi bo'lg'an, *Ya Nuhu ihbit bisa-lamin minna xil'atini olg'an, salamun alo Nuhin fi al-atamina* yorliqni eshitgan Nuh nabiy alayhis-salom. She'r:

Kun tug'ardin kun botarg'a Nuh yalavoch da'vati,

Ellik o'ksuk ming yil erdi ul risolat muddati.

Kecha-kunduz o'zi yolg'uz qazg'u, emgak yuklanib,

So'z eshitmaz kofir aro kunda ortdi zahmati.

Haqqa rabbi latazar, teb yalborib qildi duo,

Bu ijobatda duodin qirq yil erdi muhlati.

Din uchun ko'p qin tortib, yuritu Haq yorliqin,

Bizga so'kunch emgak ichra qolmadi hech toqati.

Vasna' al-fulka amri birla yo'ndi uch qat bir kemi,

Ani mudi yetdi ersa xalqaq to'fon haybati.

Yag'di yag'mur, esdi yellar, ostun-ustun olti oy,

Ko'rsa mundog' mundin ortuq Mavlomizning qudrati,

O'zi qoldi uch o'g'ul ham uch kelinlar yetagu,

Barcha o'ldi yub tugandi kufr-u zulmat bid'ati.

Nuh ibn Malik Manusax ibn Idris, onasi oti Shamxo binti Anuresh erdi, Nuhdin Odamg'a tegi o'n ota erdilar, qamug'lari musulmon erdilar. Oti Yashkir erdi, telim navha birla yig'lamish uchun Nuh atandi. Aymishlar navhasinga sabab ul erdikim, kunnardan bir kun Iblisga aydi: Yo Nuh, mening haqimda esh qilding, agar eshlarim, qo'ldoshlarim, cherigim, yog'ilar kelsa bu yerda bilmaz erdilar. Nuh aydi: Ul qayu erdi? Iblis aydi: Sen duo qilding qavmung halok bo'ldi, qamug'lari tamug' ichinda manga qo'ldosh bo'ldilar, sabr qilsang biragu (23r) imon kelturub sanga ul fozilroq erdi. Nuh alayhis-salom tun-kun navha qildi, aydi: Ey koshki, sabr qilsa erdim biragu mo'min bo'lg'ay erdi, manga bu qatig'liq tegmagay erdi. Nuh mashriqdin mag'ribg'a tegi qamug' xaloyig'g'a payg'ambar erdi, bir qarish yer xaloyiqdin xoli yo'q erdi, bir kesak yerdin uch yuz yuk bug'doy chiqar erdi, yuz botmon bug'doy bir yilliq ozuq bo'lur erdi.

Hikoyat qilurlar: Mashriqdin mag'ribg'a tegi tutush tomdin evlar erdi, tomdin tomg'a mashriqdin mag'ribg'a tegi yurisa bo'lur erdi. Yer yuzinda oshliq, tarig'u yer qolmadi, yilqi qorag'a tufroq yuklab adiz tog'lar boshing'a sochib oshliq teriyur erdilar.

Hikoyatda andog' kelur: Mashriqdin mag'ribg'a tegi qayu yerda tayoq tashlasi kishi boshig'a tushar erdi. Taqi aymishlar: Mushuk tomdin tomg'a oshib yurisa yuz yig'och yer yurir erdi. Mundog' obdon erkan biragu Tengrini birlaguchi bo'lmadi. Nuh vaqtindaki obdonliq qiyomatg'a tegi bo'Imag'ay, temishlar. Anchada Jabroil payg'ambarliq kelturdi. Nuh aydi: Olam g'oyat keng turar, kofirlar telim, men qayu yerga borib sening yorliqin tegurayin, tedi. Xitob keldi: Ey Nuh, sendin aymoq, mendin eshitdurmak. Nuh imong'a da'vat qildi, el Nuhning so'zin mashriqdin mag'ribg'a tegi eltur

erdi: Kunda chiqib imon kelturing, Mavloni birlang, mening payg'ambarliqim'ga iqrar qiling, teyur erdi. Kofirlar Nuhni uru boshladilar, oncha yanglig' urdilar, so'nguklari sindi, jivol ichinda buz netek qaxxhasa so'nguklari terisi ichinda andog' qaqshayur erdi. Takya qilsa tunla Mavlo azza va jalla shifo berur erdi, kun sayu Jabroil kelib yorliq tegurur erdi: Ey Nuh, borg'il, kofirlarga ayg'il, *La iloha illallahu Nuhun rasulullahi* tesunlar. Borib aytur erdi, andag'-o'q urar erdilar. Nuh aydi: Ilohiy, tun-kun senung farmoning tegurdim, tinglamadilar, ochuq aydim, eshitmadilar, sir ichinda pand berdum, qabul qilmadilar. Qavluhu taolo. *Rabbi inni da'avtu qavmi laylan va naharan fa lam yazidhum du'aiy illa firaran*. Elik eksuk ming yil da'vat qildi, sekson kishi musulmon bo'ldilar, imon kelturdilar, yarimi er, yarimi xotunlardin o'zga hech kishi musulmon bo'lmadi. Kun sayu emgaki ortuqroq bo'ldi. Nuhning evluki kofir erdi. Bir kun bir qari abushqa bir o'g'lonni boshlab Nuhg'a keldi. Nuhning yuzunga tufkurdi, tili birla so'kdi, ul o'g'long'a aydi: Bu Nuh telva turur. Otalarimiz munung so'zin eshitmadilar, bugun men netak qildim ersa sen ema mendin so'ng mundog' qilg'aysan, teb ul o'g'long'a vasiyat qildi. Nuh ani ko'rdi, aning so'zin eshitdi, o'zindin umid kesdi, umasg'a tegdi, duo qildi, aydi: Iziyo, evluk kofirmi yer yuzinda tirik qo'zmag'il. Qavluhu taolo. *Rabbi la tazar ala al-arzi al-kafirina dayyaran*. Mavlo jalla jaloluhu qirq yil yag'mur bermadi, yerdin nabot undurmadi, xotun o'g'ul-qiz tug'urmadi, yilqi qora qamug' halok bo'ldi, yullari qurudi.

Xabarda andog' kelur: Avj ibn Unuq to'fonda halok bo'lmadi, aning uchunkim dayyor jumlasindin ermas erdi. Dayyor-evluk-barqilig' temak bo'lur. Avjning evi barqi yo'q erdi, tengizlar atog'inda turur erdi, to'fon suyi tizinga oshmadi. Anchada Nuhg'a xitob keldi: Duongni ijobat qildim, borg'il chinor yig'ochi tikgil, terak yig'ochima. Aymishlar: Nuh yig'och tikdi, qirq yilda uch yig'och ulg'ardi, yig'ochni kesdi, kimersa keturu bilmadi. Avjni undadilar, ul yig'ochni sudrayu kelturdilar. Jabroil Nuhg'a ta'lim berdi, yig'ochni yorg'u birla (24 r) yordilar. Suv uza o'rdak yurganin ko'rguzu berdi, anga o'xshayu kemi yo'na boshladilar. Kofirlar ani ko'rub kular erdilar. *Sirta najjaran ba'da ma kunta*

nabiyyan. Emdiga tegi payg'ambar erding, emdi yig'ochchimu bo'ldung, muni ne qilursen, teb so'rsalar, kemi qilurmen, tepasinga minib suv uza yururmen. Kofirlar aydilar: Ingirchoqmu yo'narsen, burun eshkak olg'il, teb kular erdilar. Mavlo azza va jalla yorliqar. Qavluhu taolo. *Va kullama marra alayhi mala'un min qavmihi saxiru min-hu*. Nuh javob aytur erdi: Siz bizni fusus qilursiz, yorin azob kelmishda biz seni fusus qilg'aymiz, teb. Qavluhu taolo. *Qola in tasxaru minna fa inna nasxaru minkum kamo tasxaruna fa savfa ta'lamuna*. Nuh aydi: To'fon va'dasi qachon bo'lur? Farmon keldi: Qachon sening tanuring ichinda suv bilgursa ul azob izg'um turur. Kemi uch qat erdi, oldida yilqi qoralar erdi, o'rtasida Nuh qavmi birla, ustunda qush-qurtlar erdi. Nuh o'g'li Som va Xom va Yofas va Kan'on o'g'li to'rt erdi. Kemi yo'ndilar, uzuni ming uch yuz qari, eni iki yuz qari erdi. Ba'zilar aymishlar: uzuni ming iki yuz qari, eni olti yuz qari, adizlig'i olti yuz qari erdi. Yuz ming yigirmi to'rt ming temur bog'lar qildilar, tekma bog' uza bir payg'ambar oti bitiklik erdi. Muhammadun rasulullahi oti bitilgan temur bog'ni Iblis o'g'uradi, Nuh necha istadi, topmadi. Jabroil kelib xabar berdi: Nuhg'a bergil tesa, olmadim teb ont ichdi. Jabroilning o'fkasi keldi, bir kemi yig'ochin olib boshing'a urdi, boshi, ko'zi qong'a bulg'andi, qo'rqmishda berdi. Kemi tamom bo'ldi ersa Nuhning kofir evlugi tanurda etmak pishururda tanur ichinda suv chiqdi, kelib Nuhg'a xabar berdi. Nuh ul seksan kishi mo'min birla kemiga kirdi, to'rt o'g'li bor erdi, Som va Xom va Yofas musulmon erdilar, Kan'on kofir erdi. Farmon keldi: Tekma bir tanlig'din biror juft olib kemiga kivurgil, urug'lari (24v) kesilmasun, bir erkak, bir tishi. Qavluhu taolo. *Fa usluk fih min kulli zaviayni isnavni va ahlaka*. Taqi o'g'lonlaring kivurgil. Nuh aydi: Ilohiy, uchar, yugurur tanlig'larni netak tutayin, tedi. Suv yuzinda qamug' tanlig'lar yig'ildilar. Tekma birindin bir erkak, bir tishi tutub kemiga kivurdilar. O'g'li Kan'onni kivurayin tesa yorlig' keldi: Kivurmagil kofir turur. Aydi: Ilohiy, ahlingni kivur, teb sen ayding. Yorlig' keldi: Ul sening ahling ermas. Nuh aydi: Ey Kan'on, musulmon bo'l, kemiga kirgil, to'fon suvi halok qilmasun, tedi. Kan'on aydi: Men adiz tog'larg'a sig'ing'aymen, tog' meni suvdin kuzazgay, tedi. Qavluhu taolo. *Qola sa'avi ila jabalin ya'si-muni min al-ma'i*.

Nuh aydi: Bu kun kimersani azobdin saqlag'uchi yo'q Izidin o'zga. Qavluhu taolo. *Qola la asima al-yayma min amri-Ilohi illa man rahima*. Bu so'zda erdilar suv keldi, Kan'onni halok qilg'utek bo'ldi ersa qochdi, tog' tepasiga oshdi. Suv keldi, oshuqing'a tegdi, o'g'li bor erdi, ani ayoqi ostinga olib tepasiga oshdi, o'g'lon o'ldi, o'zi yema g'arq bo'ldi, imonsiz bordi. Ba'zilar aymishlar: eng ilik kemiga kirgan qarıncha erdi, so'ng kirgan eshkak erdi, eshkakni sudradilar, kemaga kirmadi, aning uchun kim Iblis eshkak quzruqin tutub tortar erdi, bo'lmasa Nuh aydi. Kirgil, nechama shayton sening birla ersa. Ba'zilar aymishlar: Nuh ko'ngli turuqmishda eshkakka aydi: Kirgil, ey ma'lun, tedi ersa, Iblis ma'lun eshkak quzruqi birla tutub kemiga kirdi. Nuh Iblisni kemi ichinda ko'rdi ersa aydi: Ey mal'un, kimung farmoni birla kirding? Iblis aydi: Sening so'zung, farmoning birla kirdim. Nuh: Qachon aydim sanga kirgil teb, Iblis aydi: Kirgil, ey mal'un, teb ayding. Mal'un man erurmen, eshkak ermas, tedi. Molik ibn Sulaymon al-Xiraviy rahmatullohi alayhi aytur: Nuh payg'ambar yilonni, chizonni kemaga izmadi, odamg'a (25r) sizdin zarar tegar teb. Aydlar: Kim sening otिंगni o'qisa, ul kim ersaga zarar tegurmagaybiz. Aymishlar, yilon chizondin qo'rqsa *Salamun ala Nuhin fi al-alamina inna kazalika al-muhsinina innahu min ibadina al-mu'mi-ninani* o'qib yotsun. Nuh aydi: Ilohiy, arslon uy birla, bo'ri qo'y birla, mushukni ko'garchkun birla dushman tururlar, netak qilayin? tedi. Farmon keldi: Ul dushmanliqni ular orasinda kim bilgurtidi? Aydi: Sendin yorlig' keldi, yog'iliq, dushmanliq bilgurtgan muvofiqliqma bergay. Qamug' narsalarni kivrudi. Yana yorlig' bo'ldi: Odamnung so'ngukin keturgil, kemiga kivrugil, azob suvi tegmasun, tedi. Odamnung kolbatin kelturdi, kemiga qo'zdi, bir singarinda eranlar erdi, bir singarinda xotunlar erdi. Odam kolbati orada hijob bo'ldi. Yana bir rivoyatda Jadi tog'ında qo'zdi teyurlar. Ammo eti, terisi Sarandibda turur, so'nguklari Jadida turur. Qachon suv kemi qiroqing'a keldi ersa Nuh, necha qatig'landi kemi yurimadi. Jabroil aydi: Ey Nuh, to'rt bo'luninda to'rt aynni oti birla qo'zg'il, qo'zdi ersa kemi yuridi. Aymishlar: Bir aynni Otiq erdi, ikkinchi aynni Umar erdi, uchunchi aynni Usmon erdi, to'rtunchi aynni Ali erdi. Qavluhu taolo. *Tajri bia'yunina*

jaza'an li man qona kufira. Iroqdin munda, Makkaga bordi, yeti yo'li tavof qildi. Andin Mag'ribg'a bordi, andin Mashriqg'a bordi. Rajab oyining o'nunchi kuni kemiga kirdi, olti oy kemida erdi, qirq tun-kun yog'in yog'di, yerdin suv chiqdi. Qavluhu taolo. *Fa fatahna abvaba as-sama'i bi maa'in munhamirin va fajjarno al-arza'yunan*. Xabarda kelur: Nuhqa risolat kelmishda yuz yoshar erdi, to'quz yuz ellik yil da'vat qildi. Yana bir rivoyatda to'rt yuz yoshar erdi, to'fonda kezin uch yuz ellik yil tirildi, qamug'i ming yeti yuz yil bo'lur. Aymishlar: qirq tun-kun yog'in yog'di, tekma bir qatrası tegirmon toshi choqlig' erdi, dunyoda qayu tog' adiz ersa aning ustunda qirq qari suv erdi. Kemidagi (25v) seksan kishidan azin olam ichinda hech kimersa qolmadi, qamug' o'ldilar. Xabarda andog' kelturmishlar: uch narsa yo'q erdi, kemada, daryo ichinda bo'ldi. Biri mushuk, ikkinchi sichqan, uchunchi to'ng'uz. Sichqan paydo bo'ldi, kemini talashladi, yorlig' bo'ldi, Nuh ilkin arslon boshing'a sig'adi, burmindin iki mushuk chiqdi. Ul sichqanni edilar. Yana aymishlar: sichqan kemini tilmishda odamilarg'a g'arq bo'lg'u qo'rqunchi bo'ldi ersa, suv ichindagi teshukni tilab bulmadilar. Nuh aydi: Kim bu teshukni berkitisa, ne tilagi bo'lsa bergaymen, tedi. Yilon aydi: Men bularin berkitayin, suv kirmasun, kirgan suylarni chiqarsunlar. Yana yilon aydi: Manga ne bergaysan? Nuh aydi: Ne tilaysen? Yilon aydi: Qayu et totlig' bo'lsa, ani bergil. Nuh qabul qildi, yilon suvg'a kirib teshukni buldi, anda qivulub yotdi, suv kirmas bo'ldi. Ichindagi suvni tashqaru soldilar, suv qo'rqunchi qolmadi, kemidin chiqmishda kezin yilon kelib Nuhdin ul etni qo'ldi. Nuh aydi: Qamug' tanlig'lar chiqdi, yoyildilar, etni qayda bulaling. Yilon ko'p saqindi ersa Nuh alayhis-salom singakni izti: Borg'il, yer yuzindagi etlarni totg'il, yilonga beraling, tedi. Singak bordi, kech qoldi, yilon qahhorliq qildi. Nuh uyotliq bo'lub singakni tilayu qarlug'ochni izdi. Qarlug'och kelib singakni buldi. Neluk kech qolding? tedi ersa singak aydi: Yer yuzi keng ermish, tezginu kech qoldim, tedi. Qarlug'och aydi: Etlarni totdingmu, Qayu et totlig' turur? Singak aydi: Qamug' etlardin odamiy eti totlig' turur. Qarlug'och aydi: Ul etning totig'i og'zingda bor bo'lg'ay, og'zingni ochg'il yizlayin, tedi. Singak og'zini ochdi, qarlug'och singak og'zin yizlayur bo'lub tumshuqi birla singak

tilin kesib soldi. Ul kundan beru singak tilsiz qoldi. Ikagu Nuh payg'ambarg'a (26r) keldilar, Singakka necha so'rsalar so'zlayumas yarog'siz un qilur. Qarlug'ochg'a so'rdi: Neluk so'zlamas teb. Qarlug'och aydi: Mening birla so'zlashdin qamug' etlarda suv baqasining eti totlig' teb aydi. Kech qolmish uchun qo'rqub so'zlayumas, tedi. Nuh alayhis-salom baqa etini yilong'a berdi. Agar qarlug'och ul kun oncha ezgulik qilmasa erdi, biz qamug' bir kun odamiylar yilong'a yem bo'lg'ay erdilar.

Yana maqsudg'a keldimiz. Nuh alayhis-salom kemidagilarga aymish erdi: Juftlaringizga yovumang, o'g'lon-ushoq bo'lsa kemiga sig'mag' aylar, teb. Kim ersa juftiga yovumas erdi, bir mushuk itni ko'rdi, juftiga qovushmish. Kelib Nuh(g'a) aydi. Itga so'rdi ersa tondi, qovushmadim, teb. Mushuk tanuq bulmadi, uftandi. Yana bir anchada itni ko'rdi, yana qovushmish, mushuk Iziga yalvorddi: Ilohiy, bu it sening yalavochoingg'a yalg'on so'zlayur, yana tonar, qudrating bila muni bir hol uza tutgil, men borib Nuhg'a xabar qilayin, o'zi kelib ko'rsun, tedi. Mavlo aning du'osini ijobat qildi, it ul hol uza qoldi, Nuh kelib ko'rgincha, Nuh kelib ko'rdi, it g'oyat uyotlig' bo'ldi. Bu kunga tegi itga ul ish meros qoldi. It ema duo qildi: Meni Nuhg'a fazihat qildi, Iziyo, anima rasvo qilg'il, tedi. Mavlo azza va jalla itning tilakin rad qilmadi, qachon mushuklar juftig'a hojatlig' bo'lsa oncha yanglig' un cho'g'i qilur, qamug'i xalqlar bilurlar. Ma'lum bo'ldikim, kimmung aybin ochsa ul yana ul aybg'a muftalo bo'lur ermishlar. Odamiylarning, yilqi qoralarning najosatlari kemida telim bo'lindi. G'oyat emgatdi ersa yorlig' bo'ldi: Nuh alayhis-salom inganning orqasig'a ilik sifasun. Sifadi ersa ingan quyruqin tebratdi, so'ngundin to'nguz chiqdi. Najosatlari qamug' edi, bu kun to'nguznung eti harom bo'lgan sabab ul turur, temishlar. Qachon olti oy tamom bo'ldi ersa Avjqa aydi: Kemini suzragil. Kemining quyruqin tortg'ug'a (26v) kim ersaning quvvati yetmas erdi. Avjni ani tutmoq uchun kivurdi. Mavlo taolo halok qilmadi. Anda kezin yorlig' bo'ldi: *Va qila ya arzu ibla'i ma'aki va ya sama'u aqli'i*. Suvlaringiz yutg'il. Ko'kka yorlig' bo'ldi: *Va istavat ala al-judiy*. Azin yog'mag'il yer uza. Suvlarin oldi, ko'k yog'madi. Suvlar yer yuzinda qurudi. Yerning hay'ati quri turur, ya'ni yumg'oq turur, tegrasinda tog'i turur. Suv ko'truldi ersa tog'

tepasinda quzi o'g'radi. To'rt singardin Qof tog'inga to'qidi ersa turuqdi, yerning tegrasi muhit daryosi bo'ldi. Muhitdin muhitga ulang'an suvlar tengizlar bo'ldi. Olam ichinda, yerinda, tog'lar, chuqurlar, ko'llar qamug' to'fon suvi birla inib yo'l qilg'an tururkim, tengizlarning achig'ma, sasig'ma ul to'fonda o'lganlardin turur. Xitob keldi tog'larg'a: Men Nuh kemisin tog'larda tulandururman, teb. Qamug' tog'lar bosh ko'turdilar, kemi bizga tulangay, teb. Jadi tog'i qamug' tog'lardin ashoq turur, tavozu'lig' qildi: Manga bu karomat qaydin bo'lg'ay, teb. Mavlo ani uzurdi, kemi anga tulannmak birla og'irladi. Nuh alayhis-salom aydi: Kim borib xabar ketursa suv yer yuzinda ne miqdor qolmish, yer ochilmushmu?! Qora qarg'a aydi: Men borayin. Nuh aydi: Kimersani kafil bergil. Erkak tovuq kafil bo'ldi. Qarg'a bordi, o'luklar telim buldi, ani yeguga bo'lub kech qoldi. Erkak tovuq o'g'g'a kirmish uchun kemiga kirib, kemi toming'a oshib qanit to'qib chorlayu boshladi. Qarg'a andin yonmadi. Nuh alayhis-salom tovuqni olib qoldi. Ul sababdin tovuq uchmas bo'lub odamiylar birla qoldi, temishlar, *Al-kafalatu avvaluha malamatum va avsatuha nadamatun va axiruha g'aramattun fa man lam yo'saddiq fal yujarrib*, kafolatning boshi malomat turur, o'rtasi o'kunch turur, oxiri tavvon turur. Kim ersa inonmasha sinayu ko'rsun. Nuh alayhis-salom qarg'ag'a duo qildi: Mavlo azza va jalla sanga qatig'liq emgakda, (27r) qo'rqinchda umri oxir bo'ldi. Ul yo'ldin qo'nmishda o'ngunda, so'ngunda boqar temishlar. Anda kezin Nuh alayhis-salom ko'garchkunni izdi, terk xabar kelturgil, teb. Bordi soy yer buldi, suvi singmish, ul yerda qo'ndi-azoqi balchiq bo'ldi. Ul soat-o'q yonib keldi. Azoqindaqi balchiqni ko'rguzdi. Ul balchiq ayoqi uza tuyluk bo'ldi. Bu kun azoqi tuyluklar aning urug'i tururlar. Taqi bir rivoyatda: Ko'garchkun kelib suv qurmish yerda qo'ndi, azob suvi sasig' uchun azoqi qizil bo'ldi, teyurlar. Zaytun yig'ochining yaburg'oqini tumshuqinda olib keldi, Nuhg'a ko'rguzdi. Nuh anga ezgu duo qildi: Odamiylar senga bag'irsoq bo'lub evlardin o'run bersunlar, tedi. Ko'garchkun aydi: Taqi tama'im bor. Nuh duo qildi. Mavlo taolo bag'ring'a bir tavq karomat qildi. Qachon Nuhg'a kemidin chiqg'il teb yorlig' bo'ldi. *Qavlulu taolo. Ya Nuhu iqbit bi salamin minnaa*, Nuh kemidin chiqdi. Ul kun sekson besh odamiy-

qirq er, qirq xotun Shom viloyatida tengiz qirog'ida bir kend qo' bordilar. Anga Qaryat us-samonina atadilar. Olti oy suv ichinda turub yel to'qimadi, ongsizin chiqib yel to'qidi ersa yarashmadi, zaif bo'ldilar. Qamug' o'ldilar, magar yeti kishi qoldilar. Taqi Nuh o'g'ullari, uch kelin. O'lam ichinda bu yeti kishi qoldi, azin kimsa qolmadi. Bu kun muncha xaloyiq yovuz, yaxshi, mo'min, kofir Nuh o'g'lonlarindin tug'dilar. Ulug' o'g'li Som, o'rtanchasi Hom, uchunchisi Yofas. Bir kun Nuh alayhis-salom uziyur erdi, yel esandi, Nuh etagin ko'turdi, uvut andomi ochildi. Hom ani ko'rub kuldi. Som Homg'a malomat qildi. Yofas ani ko'rub to'ni birla o'rtidi. Mavlo taolo aning shumluquindin Homning o'ngurqasindaqi nutfani qora qildi. O'g'lonlari qora bo'ldi. Uyalmişda evluki ilkin oldi. Tengiz qirog'ida o'tog'g'a kirdi, qamish birla ev qildi. Andag'-o'q urug'lari hindular, habashiyalar, zangilar (27v) qamug'ining urug'i tururlar. Ammo arab va ajamning otasi Som turur, Homni Hindustong'a izdi, Somni arab va ajam viloyating'a izdi, Yofasni Turkiston viloyatig'a izdi. Qamug' turklar Yofas urug'i turur. Ul yo'ldin turklar aziz va mukarram bo'ldilar. Bu so'zlar Abu Is'hoq Nishopuriy jam' qilg'an "Qissasi al-anbiyo" ichinda bitiklik turur. Amoriy olimlari aymishlar: Ya'juj va Ma'juj Yofas urug'idin turur. Ka'b rivoyat qilur: Odam uziyur erdi tush ko'rdi. Nutfasi yerga tomidi, tufroqg'a yo'g'ruildi. Mavlo taolo ul suvdin Ya'juj va Ma'jujni yaratdi. Bizga ota singardin qotilurlar, qarindosh bo'lurlar. Havvo singardin qotilmaz, o'gay bo'lurlar. Abdulloh ibn Abbos aytur raziyallohu anhu, Odam o'g'lonlari o'n ulush turur, to'quzi Ya'juj va Ma'juj turur, bir ulushi qamug' odamiylar temishlar. Hikoyat. Nuhning bir qizi bor erdi, biragu qo'lg'alu keldi, berayin tedi. Yana biragu qo'lg'alu keldi, angama berayin tedi. Yana biragu qo'ldi, angama berayin tedi. To'rtunchi keldi, qo'ldi, angama berayin tedi. Qamug'lari qiz olg'alu keldilar, Nuh alayhis-salom qazg'ulug' bo'ldilar. Evinga kirdi, evinda bir qanjig'iti bor erdi, bir xarj eshkaki bar erdi. Mavlo taolo qudrati birla ikalasi qiz bo'ldi. Ujmohtdin bir hur Izi berdi. Bu to'rt qizni to'rttaguga berdi. Qamug'i bir suratlig' erdi. O'z qizini taniyu bilmadi. Qach kun kelmishda kezin narsa olib qizlar ko'rgalu keldi. Bir kuzagusinga aydi: Juftung birla netaksen? Aydi: Yaxshi

turur, anchasi bor, narsa emas, ichmas. Nuh bildikim, ul hur turur. Ikkinchi kuzagusinga aydi: Juftung birla netaksen? Aydi: Qanjig' turur. Nuh bildikim it turur. Uchunchiga bordi, aydi: Juftung birla netaksen? Aydi: Yer, ichar, eshkakdek yotur, tedi. Nuh bildikim ul xarji turur. To'rtunchiga aydi: Juftung bilan netaksen? tedi: Men andin xushnudmen, payg'ambarlar urug'i turur. Nuh alayhis-salom bildikim, o'z qizi turur. Olib turg'an hadyasin anga berdi. (28r)

Xabarda kelur, bir kun Jabroil keldi. Nuh umri oxir bo'lmishda aydi: Ey Nuh, payg'ambarlardin sening umrung uzunroq bo'ldi. Dunyoni netak buldung! Nuh aydi: Dunyoni bir, iki qapug'lug' saroytek buldum. Bir qapug'din kirdim, bir qapug'din chiqa tururman, tedi. Aymishlar, Nuh yuz yosharda yalavochliq keldi. Ellik o'ksuk ming yil da'vat qildi. To'fonda kezin uch yuz ellik yashadi. Taqi aymishlar, Odamdin to'fong'a tegi iki ming iki yuz yil erdi. Anda kezin Nuhning vafoti bo'ldi. Uch yuz yil xaloyiq Nuh shari'atiga turdilar, ukushraki kofir bo'ldilar. Shariat bayon qilg'uchi qolmadi. Uch yuz yilda kezin Hud yalavochni xaloyiqg'a izdi.

QISSAYI AVJ IBN UNUQ

Unuq Odam qizi erdi, Avj ibn Unuqning o'g'li erdi, uzun bo'ylug' erdi. To'fonda suvg'a g'arq bo'lmadi, aning uchunkim to'fon suvi tizinga yetmadi. Tog'lar uza o'lturub, tengizga ilkin sunuyu baliqni olib, kunga qarshu tutub so'klub yeyur erdi. Hamiyatlik erdi, yavloq ko'nichi erdi. Ulug' yoshlig' xotun oldi, bir kichik yoshlig' qiz oldi, bir adiz ulug' tosh uza odamiy ko'rmas, qush-qurt tegmas yerda qo'zdi. Qachon ulg'ardi ersa Avj andin g'oyib bo'ldi. Tog'ning bir qiroqig'a keldi. Qizning ko'zi bir yigitga tushdi, angar oshiq bo'ldi, yigitma anga oshiq bo'ldi. Qovushmoqg'a hiyla bulmadilar. Yigit bir qurtg'ag'a borib mungin aydi. Qurtg'a aydi: Bir yig'ochchig'a sen kirgucha sanduq yo'ndirg'il, og'zini qufl birla berkitsun, san anga kirgil. Kimersa ul sanduqni ko'turub ul tog'ning tubinda qo'zdi. Qurtg'a sanduq yoninda o'lturdi. Avj keldi ersa qurtg'a yig'lavu qo'pti. Aytur: Ey o'g'lum, sanduq ichinda kishi amonati bor, senda qo'zayin azinlarga e'timod qilmasman, tedi. Avj ani olib evlugi qatinda qo'zdi, g'oyib

bo'ldi. Xotun sanduqning quflin ochdi, (28v) yigitni chiqardi. Necha kun birga bo'ldilar. Anchada Avj yonib keldi, ko'rdi kimersa yerga tufkurmish. So'rdi: Muni kim soldi? teb. Evlugi aydi: Men soldim, tedi. Avj aydi: Emdi yana solg'il, tedi. Soldi ersa anga mengamaz. Avj aydi: Bugun ko'nilikdin azin narsa seni qurtqarmas. Xotun qurqumishda ko'nisin aydi. Avj ani sanduqdin chiqardi, evluki birla qo'zdi. Qurtqani tilayu bordi, buldi, keturdi, yerga chaldi, o'lturdi. Aymishlar: Tepasinga yoziladi ersa najosat oltinda qolib o'ldi.

Rivoyat qilmishlar: Qayu eldin o'fkalasa bir azoqin kenchning bir kirasiga qo'zar erdi, yana bir azoqin ul singar qo'zar erdi. Kend tepasinga yozilab, qamug' xalqni najosati birla halok qilar erdi.

Hikoyat. Avj Muso Kalim vaqting'a tegi tirik erdi. Musoning cherkini ko'rdikim, to'rt yig'och yer tutub turular. Anchada cherkikka tenglayu bir tog'ni boshi uza ko'turub cherik tepasinga urg'ali o'g'radi ersa Mavlo taolo hudhud qushg'a ilhom berdi, kelib Avjning boshi to'shinda ul tog'ni tildi. Boshi tog'g'a kirdi, bo'yning'a xalqa bo'ldi. Anda kezin Musog'a yorlig' bo'ldi urgil, teb. Muso birla to'qushu bilmadi. Musoning bo'yi o'n iki qari erdi, tayoqi yema oncha erdi. Ul olib o'n iki qari yana sekridi, urdi oshuqing'a tegdi. Avj erga tushdi. Muso qavmi yancha-yancha o'lturdilar. Bir ayagusini oldilar, uzuni to'rt yig'ochliq yer erdi, tengizga ko'pruk qildilar, teb aymishlar.

QISSAYI HUD ALAYHIS-SALOM

Hud ibn Abdulloh ibn Riyoh ibn al-Julud ibn Od ibn Avaz ibn Iram ibn Som ibn Nuh alayhis-salom. Aymishlar: Besh payg'ambar arabdin turur: Hud va Solih va Shis va Ismoil va Muhammad alayhimis-salom. Ul va *ila aadin ahahum Hudan* xil'atin kiyyan, *Ya qavmi u'budu allaha*, teb farmon tegurgan, *Ya Hudu ma ji'tana bibayyinatini* hujjatini (29r) eshitgan, *Fa i'tina bima ta'iduna* so'zin tinglagan, *Va uballig'ukum ma ursiltu bihi*, teb so'zlagan, *Va lakinni arokom qavman tajhaluna* javobin bergan Hud alayhis-salom.

Nuhda kezin Hud yalavoch bo'ldi uch yuz yil kechib,
Yurir erdi ko'p xaloyiqdin, shari'atdin qochib,

Tunla-kunduz Hud tegurdi Tengrimizning yorlig'in,

Sekkiz ujmoHg'a kelimg, Haqni botildin sechib.

Rabqa yozib, yo'ldin ozib, sunnadin ding'a bo'yun,

Haqg'a tonib, xalqg'a yonib, butg'a sig'nib, xamr ichib,

Olmadilar Hud so'zin butimadilar Mavlog'a,

Hech kimersa aymagan so'z aydilar yavloq ajib.

Aydi: Yo qavmi u'badulloha andin o'zga Tengri yo'q,

Sig'ing'an Haq hazrating'a yig'ladi yoshin sochib.

Umasg'a tegdi ersa un keturdi yolvorib,

Aydi ingrab: Anta rabbi qodirun hayyun mujib.

Yetti tun, sekkiz kun ichra yo'q bo'zun qildi ug'on,

Yigna yurtugincha yeldin odiyilarg'a yo'l ochib.

Hud payg'ambar alayhis-salom to'quz yashayurda odiy bo'zuni keldi. Qavluhu taolo. *Va ila Aadin axahum Hudan*. Od maliklarining oti, temishlar, ham ul qavmning oti, temishlar, ham ul elning oti, temishlar, ularning otasining oti, temishlar. Od ibn Ivaz ibn Eram ibn Som ibn Nuh alayhis-salom turg'u yerlari Ahnoq qumdin tepalar bo'lur. Hud ul tepalarg'a og'ib ularni imong'a, islomg'a da'vat qilur erdi. Ular Hudni tepadin quzi solib: Sen bizni tengrilarimizdin ayirg'alimu kelding? tedilar. Qavluhu taolo. *A ji'tana lita'fikana an olihatana*. Qamug'uzun bo'yulg'erdilar. To'rt yuz qari bo'zlari bosh uza sekrib azoqlarin tepsalar tizlariga tegi ko'mulur erdi. Kuchlariga, bo'zlariga yarashu butlar qildilar, kuchlariga kuvandilar. Biztak kuchluk bormu? tedilar. Qavluhu taolo. *Man ashaddu minna quvvatan*. Butlar qildilar, uch yuz qari, qamug'oltundin, kumushdin. Hud ularg'a aydi: Qavluhu taolo. *Ya qavmi-u'budu ilaha ma lakum min ilohin g'ayruhu*, qabul qilmadilar. Aydilar, ko'ni so'zluq ersa azob kelturgil, ko'raling. Hud aydi: Azob kelgusin Mavlo bilur. Qavluhu taolo. *Innama al-imu indallahi*. (29v) Izturg'ayman, so'zumni sizlarga tegururman. Qavluhu taolo. *Uballig'ukum ma ursiltu bihi* anchasi bor, sizlarni anglamas bo'zun ko'rarman. *Va lakinni arakum qauman tajhaluna*. Qamug' xaloyiqdin buynag'roq bular erdi. Ulug' hisorlar

qo'pordilar, tamoshu uchun adiz yerlarda saroylar qildilar. Zaif ushoq bo'zunlug'larni kulimak uchun to'landilar. Ularg'a aningchun Odiylar atadilar, arab tilincha o'ta kechguchi temak bo'lur. Bular yana besh narsa birla qamug' xaloyiqdin ortuq erdilar: quvvat, qomat, ne'mat, muhlat, ma'siyat. Hud aydi: Qo'rqung, tavba qiling, yo'q ersa sizlarni halok qilg'ay. Aydlilar: Seni Tengring bizni ne birla halok qilg'ay? Hud alayhis-salom tilinda yuritdi: Sizga el teb kelgay, qamug'ingizni yel birla halok qilg'ay. Hudning ul nafasi zoyi' bo'lmadi. O'g'lonlari yoshg'a tegdilar ersa sog'ulari bo'ldi, qirq yeti yil davlat qildi, tinglamadilar. Biz sening so'zung birla tengrilarimizni qo'zmazmiz, tedilar. Yig'ildilar, kengashtilar. Bizga yel kelur ermish yarog'in qilaling, teb yoriqlarin kizdilar, yashiq boshing'a urindilar, o'g'ul qizlarin, yilqi qoralarin tog'larg'a kivurdilar. Ularning odati ul erdi, qachon muningtek qazg'ug'a muhtalo bo'lsalar Makkaga kishi izib qurbon qilar erdilar, tilaklarin tilar erdilar. Uchaguni otlig' kishilardin chiqardilar, biri Mozid ibn Sa'd, ikkinchi Luqmon ibn Od, ul hakim Luqmon ermas, uchunchi Qayl ibn Umar. Azin qo'ldoshlar birla Makkaga yetdilar. Bu Mazid, Luqmon ikagu ichinda musulmon erdilar, Makkada ularning qardoshlari bor erdi, Muoviya atlig', mollig', juvonmard erdi, anga qo'nuq bo'ldilar. Bir oy yegu, ichkuga bo'lub, xamr ichib tamoshu birla, mutriblar birla mashg'ul bo'ldilar. Hud payg'ambar duosi birla Mavlo azza va jalla ularg'a uch yil yog'in izmadi, ojiz bo'ldilar. Uchagu qurbonlar qilib yog'in tilayu bormish erdilar. Kech qoldilar ersa Muoviyama bu qo'nuqlardin yalqib iki mutriba qoraboshlaringa aydi: Sizlar ichku arosinda qo'bsab, simo' qilurda yog'in tilayu kelganlarin, kech qolganlarindin aytu bering. Ani anglab evlaringa yong'aylar, tedi. Qoraboshlar qo'bsayu bu she'rni aydilar. She'r bu turur.

Ular muni eshitib kelgan eshlarin soqindilar. Ka'baga kelib qurbon qildi(lar). Qayl aydi: *Allahumma in kona Hudun sadihan fa ishina*. Izi azza va jalla uch turluk bulut izdi urung, qizil, qora. Un eshitildi: Ey Qayl, bu bulutlardin birini ixtiyor qilg'il. Qayl bulutlarga boqdi, urung bulutda narsa yo'q, qizil bulutda ne borin bilmazmen, tedi. Qora bulut yog'inliq bo'lur, teb ani qo'ldi. Ul kendu azob buluti ermish. Un eshitildi. *Ixtartu ramadan*. Ma'nisi

ul bo'lur: Qora kulni uzurdung Odda biraguni tirik qo'ymag'ay, ota o'g'ul qolmag'ay. Banu Ludiya teb, magar urug'i qolsa ularg'a qolg'ay. Bular Od avvalidin ermazlar, Od oxiridin temishlar. Mazid ibn Sa'd aydi: Ilohiy, men ularning dini uza ermazman, o'z dining uza tutg'il. Luqmon ibn Od aydi: Ilohiy, menga uzun yosh bergil. Un eshitildi: Necha yosh tilayursen? Aydi: Karkas umri kerak. Tekma karkas uch yuz yashayurlar. Luqmon bir karkas bolasin olib ektuladi qarib o'lg'incha, yana birni andag'-o'q etini ektuladi. Lubid otlig' qarinchg'a ulashti. Luqmon aytur erdi: Qachon o'lumi yovushti ersa tog' tepasiga eltti, azin karkaslar arosinda qo'zdi, ularning orasinda (30v) birla uchg'ay, teb. Azinlar uchtilar, Labud qoldi, ul yerda-o'q o'ldi. Luqmong'a jon berdi. Ul qora bulutg'a yetmish ming burundug urmush erdilar. Tekma bir burundug yetmish iki farishta ilkinda erdi. Xizr mavt yeringa kelturdi. Eng ilk bir qurtg'a ko'rdi Miz otlig'. Aning uchun ul yeti tun, sekiz kunlari Ayyomi ajuz atayurlar. Jabroil Izi yorlig'i birla yelga erklik bo'lg'an farishtaga aydi: Yel qabug'in ochg'il. Aydi: Necha ochayin? Jabroil aydi: Sigir burnundin chiqq'uncha. Farishta aydi: Ul miqdor ochsam yer yuzinda tufroq taqi tog'lar, yig'ochlar, tengizlar qolmag'ay. Bir kichik yuzukcha ochg'il. Farishta andag'-o'q javob aydi: Yigna yurtuguncha ochg'il. Ochdi ersa yel ortuqroq chiqdi. Qavluhu taolo. *Va amma Odun fa uhliku bi rihin sarsarin atiyatin*. Arab tilincha odiy o'ta kechgan bo'lur, ya'ni farishtalar so'zindin o'ta kechdi. Amoliqa o'ti zahmat tegurmadi, andin kechib qatig'roq bo'ldi, Hud tegrasida bir xat tortdi, Hudg'a zahmat bermadi. Onchada yel yetib keldi, aydlilar: *Harrakatna rihu Hud*, ya'ni Hudning yeli bizni tebratu boshladi. Anda kezin ul qarim ichinga kirdilar. Azoqlarin tizlaringa tegi yerga, toshg'a berkitdilar. Yel keldi, azoqlari oltinga kirdi, tuproqlarni o'ngdi. Avval yoriqlarin so'ydi, etlarin aritu oldi. Qurug' so'nguklari qoldi. Anda kezin to'nlarin suchuldi. Bir anchalari tog' unguurlaringa kirib yashundilar. Yel anda kirib tortib chiqaru, ev tomlariga to'qiyu halok qildi. Anda kezin so'nguklarin qarim tubinga ko'mishdi. Ul tuproqlarni uzalaringa bosurdi. Tuproq oltinda qoldilar. Anda Xalachon otlig' kuchluk kimersa bor erdi, ul aydi: Men borayin yelni berkitayin, qamug'ni qutqarayin, teb keldi. Yel chiqg'an yo'lni iki birla tutdi. Ilkin tirsakiga tegi toshg'a

berkitdi. Ko'ksini yelga berdi. Qattig' un birla chorlab aydi: *Lam yabqa illo Xalxan. (31r)* Yel ani ul tosh birla ko'turdi, havog'a oshurdi, toshg'a to'qiyu halok qildi. Ularning orasida kemishdi. Anda kezin qum, tubroqlarni uzalariga tiqdi. Ul yel chahorshanba kun yetildi, yeti tun, sekiz kun esdi. Yana chahorshanba kun oxshom tindi. Ul yeti tun, sekiz kunga Ayyomi ajuz atadilar. Qavluhu taolo. *Va amma Adun fa uhliku bi rihin sarsarin atiyatin saxxaraho alayhim sab'a layolin va samoniyata ayyomin husuman.* Hud alayhis-salom ungurdin chiqib ularg'a keldi. Tuproq oltinda qamug'lari tirik yig'layu, ingrayu tegma birning unin eshitib bu fulon, bu fulon turur, teyur erdilar. Ul holdin Izi azza va jalla xabar berur. Qavluhu taolo. *Ka'an-naxum a'jazu naxlin haviyatin*, qirq tun-kun tufroq oltinda ingranu qiynandilar. Anda kezin Od xabarin ularg'a kimersa aytu berdi. Mazid, Luqmon ikagu Mavlog'a shukr qildilar. Qayl ani eshitib qazg'ulug' bo'ldi, aydi: Ey ko'k tengrisi, agar bu so'z rost ersa menima halok qilg'il, tedi. Yel keldi, Qayl ni ko'turdi, havog'a oshurdi, qayta yerga chalib halok qildi. Anda kezin ellik yil tirildi.

QISSAYI SOLIH YALAVOCH ALAYHIS-SALOM

Va ila Samuda axohum Solihan, xil'atin kiyan, *Fastag'firuhu summa tubu ilayhi*, teb qavminga o'gut bergan, *A tanhana an na'buda ma ya'budu obo'una javobini eshitgan, fa qola lahum rasulu-llohi naqotallohi va suqyoha* tashrifin bulg'an, toshdin duo qilib ingan chiqargan, *Rabbi qaribun mujibun*, teb haq ding'a undagan Solih payg'ambar alayhis-salom.

Aql anub kelgil, eshit, Solih yalavocho qissasin,

Belguluk boshdin oyoqg'a aytayin men jumlasin.

Haq risolat berdi ersa to'z tegurdi qavmig'a,

Yuridi tun, kunduzin oldi Samudning zumrasin.

Qildi imon da'vatini, qo'ldilar bir mu'jiza,

Qo'ldi Haqqin, chiqdi ingan yordi tog'ning sahrosin.

Bo'ta tug'di barcha tuzun ani tingla ko'rdilar,

Kun keziklab suv ulashdi ichti kendu hissasin.

Tondilar Haqqin qamug'i, qildilar ko'p ma'siyat,

Uqmadin Solih so'zin ham ushbu ingan qissasin.

Keldi yugurub iki bo'zchi bir azoqin kestilar,

(31v) Bo'tasi ingrab qayitti ostilar uch sahasin,

Uch kun ichra bo'ldilar sarig', qizil ham qap-qaro,

Qudrati birla Ug'on qodir yemurdi barchasin.

Solih ibn Asad ibn Asaf ibn Fosih ibn Xoz ibn Samud ibn Od ibn Eram ibn Som ibn Nuh alayhis-salom. Od, Samud iki maliklar erdilar. Som ibn Nuh o'g'lonlardin bu ikagudin telim o'g'lonlar bo'ldi. Od qabilasi, Samud qabilasi atadilar. Hud qavmi Od avvali turur, Samud qavmi Od oxiri turur. Od bo'zuni Samud bo'zunidin ukushrak erdilar. Jahd yerinda o'lturur erdilar. Somli, Hijozli orasinda. Samud bo'zuni Od bo'zunitek uzun bo'yug'lar erdilar. Tog'lar ichinda toshlar ungub evlar qo'pordilar. Qavluhu taolo. *Va konu yattaxizuna min al-jibali buyutan ominin.* Bir buyuk tog' tubinda ularning suvi bor erdi, ularg'a tab bo'lg'ucha qamug' butlarga a topinur erdilar. Mavlo taolo Solihni ularg'a izdi. Qavluhu taolo. *Va ila samuda ahduhum Salihan.* Solih ularning urug'indin uchun *axohum* teyu yorliqadi. Solih ularni musulmonliqg'a undadi. Solihg'a payg'ambarliq kelmasdin burun bizing birga butg'a topungil, teyur erdilar. Solih unamasa, kichik turur bilmas, ulug'roq bo'lsa yo'lg'a kirgay, teyur erdilar. Nubuvvat kelmishda kezin musulmon bo'lung, butg'a topunmang, tedi. Aydilar: Ey Solih, biz seni dinimizga kirgay teb umid tutar erduk. Qavluhu taolo. *Ya Salihu qad kunta fino marjuvvan qabla hozo.* Endi bizga otalarimiz dinini qo'zub azin ding'amu undayursan? Qavluhu taolo. *A tanhono an na'buda mo'ya'budu aoba'una.* Biz bu so'zga bitmazmiz, tedilar. Qavluhu taolo. *(Va innano) lafi shakkim mimmo tad'unana ilayhi muribin.* Yana ba'zi qissalarda Vahab ibn al-Yamaniy rivoyat qilurlar: Nuh bo'zuni to'fonda halok bo'lmishda kezin Nuhning uch o'g'li qoldi. Nuh alayhis-salom o'larinda o'g'lonlaringa vasiyat qildi. Jahonning o'rta sin Somg'a berdi, Homni Mag'ribg'a izdi, Yofasni Mashriqg'a izdi. **(32r)** Aymishlar, turklar Yofas urug'indin tururlar, azinlar Som urug'indin tururlar. Som Muqaddasa yerinda

erdi, Samud Hijoz yerinda erdi. Tekma qabilaning maliklari bor erdi. Bu Samud bo'zuni makkalik birla mutaassib erdilar. Makkada Muoviya ibn Bakr otlig' uch yuz ming er cheriki birla erdi. Hijoz yerindagi ulug'lar yig'ilib kengashtilar. Bizga bir malik kerak bu dushman birla to'qushsa. Handa' ibn Umar otlig' erni o'zlaringa malik tutundilar. Malik anga musallam bo'ldi ersa, o'zinga bir but qildi: qizil oltundin, iki ko'zlari yoqutdin. Bu butga to'rt yuz qildurdi. Biri odamiy suratlig', biri arslon suratlig', biri qush suratlig', biri ot suratlig'. Bu butg'a bir ev qo'bordi, iki yuz qari adizlig'i, yuz qari eni. Tomlari jaza'din, aqiqdin. Bu evga yuz qapug' urdi. Ud yig'ochindin bir taxt qildurdi, qizil oltun, gavhar birla murassa'. Bir taxtg'a to'rt azoq qildurdi: biri zumraddin, biri jaza'din, biri aqiqdin, biri billurdin. Turluk-turluk to'nlar kizurdi. Ul taxt uza o'lturdi, anga sajda qildi. Qamug' qabilag'a kishi izdi. Qamug' maliklarni cheriki birla yig'durdi. Aydi: Bu mening tengrim turur, munga sajda qiling, tedi. Maliklar ul to'rt yuz qapug'din kirdilar, ul butg'a sajda qildilar. Biri ul butning og'zing'a kirib, Men sizdin xushnudmen, teb un qildi. Qamug'lari sevinub bosh ko'turdilar. Xanda' ibn Umar aydi: Tekma yilda bir yo'li kelib munga sajda qilding, tedi. Ul Samud bo'zuni ul evdin chiqib so'zlashtilar. Bir anchasi aydi: Bizing tegrimizning yuzi bizning singar erdi, tedilar. So'z talashtilar, sanchishtilar, yetmish ming er o'ldi. Bu xabar Xanda' ibn Umarga tegdi. O'tlanib keldi, ularg'a aydi: Qayu yog'i bu ishni qilg'aykim o'zunguzga qildingiz? Ular aydi: Ey Malik, bizga bu tengri kerakmaz. Bizni to'qushg'a kemishti. Azin tengri tutunurmiz bizni to'qushurmag'ay, teb. (32v)

Qarra' otlig' tog'g'a kishi izdilar, but tutunmog'a tosh tiladilar. Iblis alayhil-la'na burunroq bu Qarra' tog'ing'a keldi. Ko'rklug, ariq oq toshni kesib qo'zdi. Ular kelib ani ko'rdilar eltib bir but qildilar. Qirq qari uzunluqi, sekiz qari eni. Boshi oltundin, ko'zlari yoqutdin, tishlari yinjudin. Turluk to'nlar kizurub, ul taxt uza o'lturtdi. Anga Abhar yetadilar. Aydilar: Ey malik, bir er bu butg'a xodimlik qilisa. Xanda' boqdi ersa Kosur ibn Ubaydo otlig' erni ko'rdi, bu yarag'aymu? tedilar, rozi bo'ldilar. Kosurni ul butg'a xodim qildilar. Qirq yil xidmat qildi. Bir kun Iblis farishtalardin eshitdikim, bu Kosur urug'indin bir payg'ambar bo'lg'ay Solih otlig'. Bu kofirlar

aning ilkinda. Ul qavmning qamug'lari ul butg'a yig'ildilar. Iblis alayhil-la'na kelib ul butning og'zing'a kirdi, qatig' un birla aydi: Ey mening qullarim, bu Kosur mening tapug'img'a yaramaz, ani zindong'a soling, zindong'a kemishtilar ersa yana biraguni butg'a xodim qildilar. Kosur qirq yil zindonda qoldi. Qirq yilda kezin Jabroilg'a yorlig' bo'ldi. Kosurni zindondin chiqarg'il, teb. Jabroil bir qanit birla urdi, zindonni iki pora qildi. Aydi: Ey Kosur, chiqg'il. Kosur zindondin chiqdi. Ko'nglinda saqindi: Qirq yil Abharqa xizmat qildim, qirq yil zindonda qoldim. Endi qurtuldum. Bu yerdin ketayin, teb qo'pti. Tog'g'a o'g'radi. Tog' ichinda bir ungur yo'luqdi. Ormish erdi, uzudi. Qirq yil uzuquda qoldi. Mavlo taolo bir farishtaga ani saqlatdi. Kosurning evinda Zaum otlig' evluga bor erdi. Aymishlar, Soxur otlig' erdi. Bir ancha ro'zgor kechmishda bu xotun telva bo'ldi. Yugrub chorlayur erdi. O'zi yavloq ko'rkluk erdi. Xalq anga rahm qildi. Bir kecha saroyinda bir qush keldi, qarqa suratlig'. Aydi: Ey Zaum, Kosurni ko'rgu ko'nglung bor ersa, meni izargil. Zaum-izaru bordi, ul ungurga keldilar. Qush (33r) aydi: Eringni undagil. Zaum qatig' un birla Kosurni undadi. Ul ungur yorildi. Kosur un berdi: Kirgil, tedi. Soxur kirdi, Kosurni ko'rdi, aydi: Ey Kosur, munda ermishsen muncha yil bo'ldi. Menga neluk kelmadig' Kosur aydi: Abhar zindonidin qurtuldum, bir kecha munda yoturman. Zaum aydi: Bir yuz yigirma yil bo'ldi sen mendin g'oyibsen. Bu so'zlarni so'zlashurda Kosurning evlukungag' rag'bat bo'ldi, ikagu qovushtilar. Zaum Solih payg'ambarg'a yukluk bo'ldi. Ul soatda Kosur o'ldi. Keldi Zaum qazg'ulug'. Ul qush aydi: Bu ungurdin chiqg'il, tedi. Zaum chiqdi. Ul ungur belgusiz bo'ldi. Yana bu qush aydi: Ey Zaum, so'ngukingdag'i o'g'lonni qandin olding, teb so'rsalar, tanuq tilasalar ularni bu ungurga kelturil. Tengri taolo ularning sharrindin kuzazgay. Zaum aydi: Sen ne qush turusan? Zaum aydi: Men quzg'unman. So'rdi: Boshing neluk oqardi? Aydi: Qobil Hobil o'lturmakiga men sabab erdim. Mavlo taolo menga ne jazo bergusi, andin qo'rqub boshim oqardi. Aydi: Tumshuqing neluk sarig' turur? Aydi: Ujmohdagi za'farondin edim, tedi. Yana aydi: Ayoqlaring neluk yashil turur? Aydi: Ming yil Tubo yig'ochinda qo'ndum. Yana aydi: Qorning neluk qora turur? Aydi: Bir kun tamug' uzasindin kechar erdim, o't

isig'i mundog' qildi. Taqi ko'runmas bo'ldi. Soxur evinga keldi. To'quz oyda kezin muharram oyida dushanba kun kechasi Solih payg'ambar onadin tug'di. Onasi Solihni qo'ndaqlab o'z elinga olib bordi. Malik so'rdi: Bu o'g'lonni qayding olding? Soxur majaroni aytdi. Malik tongladi. Aydi: Ey malik, manga inonmas ersang kelgil senga ko'rguzayin, tedi. (33v) Malik ul ungurga bordi, Zaum qattig' un birla Kosurni undadi, ungur ochildi. Ikagu kirdilar. Mavlo taolo Kosurni turguzdi. Aydi: Ey Xanda, bu o'g'il mening turur, tedi. Taqi o'ldi, kul bo'ldi. Malik tongladi, aydi: Men o'z ko'zun ko'rdum, ammo azinlar inonmag'aylar. Sen bu o'g'lonni mening qapug'imda qo'yg'ul, kishilar kelib asramoqqa qo'lg'aylar. Onchada sen asramoqqa o'lg'il, tedi. Zaum andog' qildi. Kishilar yig'ilib keldilar, asramoqqa olur bo'ldilar. Soxur aydi: O'g'lon qabug'imda turur, menga haqroq turur, men olurman, tedi. Solihni oldi, asradi. O'n iki yoshadi, ko'rklandi. Kim ersa aning ko'rkiga yetmas bo'ldi. Aymishlar, kim ersa Solih payg'ambarini, Muhammad rasulullohni ko'rsa tanumag'ay erdilar. Solih onasining qo'ylarini saqlar erdi. Makkadan Muoviya ibn Bakr uch ming er birla keldi, Hijozni egirdi. Yorindasima Solih Muoviyani ko'rgani chiqdi. Izmas bo'ldilar. Solih tekma birining ilkin tutub bir singar tashlar erdilar. Ulardan bir qach otlig'lar kelib bularni tutg'utek bo'ldilar ersa, Solih bir qatig' un qildi, Jabroil va Azroil va Mekoil bir un qildilar, qamug'lari tushub o'ldilar. Malikka xabar qildiar. Otlanib keldi, ajoyibni ko'rdi ersa bir ot mindurdi, bir to'n kizdurdi. Boshindaqi oltun tojin Solihg'a berdi. Olam ichinda eng ilk o'z to'nin qizdurgan Janda' ibn Umar erdi. Cherikinga farmon tegurdi ersa, kunda Solihg'a salomg'a kelganlar qachon malik borg'u yeringa o'tturur bo'lsa, Solihni birga olib o'tturur erdi. Bir kun Solih ev qabug'inda o'tturur erdi. Malikka salomg'a borg'ali Jabroil alayhis-salom bir ko'rkluk yigit suratincha Solihg'a keldi. Salom qildi, Solih ne erdukin bilmadi. Jabroil aydi: Ey Solih, evga kirgil. Solih evga kirdi. Jabroil alayhis-salom payg'ambarliq tegurdi. Aydi: Borg'il, malikka ayg'il, aysun Alloh bir turur, Solih aning yalavocho turur. (34r)

Solihg'a aydi: Bu xatolar to'nin qo'zg'il, qo'zdi. Bir kelim to'n kizdi. O'lg'incha Solih payg'ambar ul kelim to'n ichinda erdi.

Malikka kelib aydi: Ey kofir, ayg'il: *La ilaha illallohu va inni Solihun rasulu-illohi*. Malik aydi: Ey Solih men sanga qilgan ezgulukung yanuti bumo turur? Solih javob aytayin tesa Jabroil unamadi. Qo'p, eldin chiqg'il, tedi. Solih ul eldin chiqdi, Qar tog'inga bordi. Yeti yig'ochliq yer erdi. Solih anda farishtalarni ko'rdi. Aydilar: Ey Solih, bu kecha munda bir ev qo'porg'il. Jabroil taqi azin farishtalar Solihg'a yori berdilar. Bir ev qo'pordilar, uzuni uch yuz qari, eni qirq qari. Ev o'nginda ochuq yerlarni oshturdi. Sog'inda, so'linda yig'ochlar tikdilar, ko'ki kumushdin, bo'zi oltundin, budoqlari kumushdin bir qandil qildi. Aning yoruqluqi o'ying yoruqliqindin g'alaba qilur erdi

Yorindasi kun ul qavm kelib ul evni ko'rdilar, tonglashtilar. Kunduz ul qavmni imong'a undayur erdi, tunla bu evga kelur erdi. Ul elda uch yuz kishidin ortuq musulmon bo'imadilar. Solih aydi: Iziyo, men bulardin umid kesdim. Jabroil keldi, aydi: Ey Solih, bular uch yuz yil bo'ldi kofirlikda tururlar, bu bir qach kunda ko'nmagaylar. Solih aydi: Ey qavm, mening kishiga borg'u ishim bor, teb chiqdi. Qarra tog'ing'a bordi, anda mehrob qildi, ibodatg'a mashg'ul bo'ldi, boshin sajdaga urdi. Mavlo taolo Solihg'a uzqu kemishdi, qirq yil uzidi. Ul musulmonlarda uch yuz kishi o'ldilar. Qayu biri o'lsa aning otin bu eshikka bitur erdilar, bir kun Solih payg'ambar kelmishda musulmonliq uza borg'akimiz bilsun, teb. Yer yuzinda *Loitoha illalloh* teguchi qolmadi. Biragu Solih uzqudin uyg'ondi ersa qamug'ini o'lmish ko'rdi. Qirq yil uzquda erdi. To'rt yil Samud bo'zuni orasinda erdi. Solih ul qabiladin Mavlo taolo bu qavmg'a payg'ambar izsa ulardin-o'q Izirur erdi, illo Lut payg'ambar g'arib erdi. Qavmi orasinda Solih ularni imong'a undadi, azobdin qo'rqutdi. (34v) Ujmohg'a umid berdi, ezgulik birla o'gut berdi, erklik birla so'zladi, qabul qilmadilar. Solihni unamas bo'ldilar. Qamug'lari kengashtilar. Solihni o'zumizdan umidsiz qilaling, tedilar. Bu bizdin ulug'roq tururlar hasab va nasab ichinda. Muni o'ltursa bo'lmaz. Aydilar: Bir narsa qilaling, ul ishni qilumasa uftang'ay, bizdin ketgay, tedilar. Aydilar: Ey Solih, sen bizga ne teyursan? Solih aydi: Izi azza va jalla birliginga butung. Yaratqan, ne'mat bergan ul turur. Od bo'zuni butmadi, ne balolar tegdi. Hud qavmi imon kelturmadi, ne balolar berdi. Aydilar: Ey

Solih, bizni otalarimiz topung'an tengrilarimizdin yig'ib azin tengridimmu qo'rqutursan? So'zuing ko'ni ersa bizga bir burhon ko'rguzgil. Solih aydi: Ne tilayursiz? Aydlar: Biz iydimizga chiqaling, sen ul tengringdin qo'lg'il, biz o'z tengrimizdin qo'laling, qayusi terkrak berur ermish ko'raling, tedilar. Yorinda-si qamug' chiqdlar, Solihma bordi. Ularning qatinda bir o't qurug' tog' bor erdi. Aydlar: Bu tog'din bizga bir qizil tuluk ingan chiqarg'il, bizing ilakimizda bo'talasan, bizga sut bersun, biz ichaling. Ul tog'da bir ko'l bor erdi, Kayna otlig', suvlari andin kelur erdi. Bularning otalari Samud bir kun qo'lda bir toshdin un eshitdi: Samud bo'zuni bu toshdin halok bo'lg'usi. Aydlar: Ushbu toshdin bir ingan chiqarg'il, qizil tuluk, tili qora, bo'yni yo'g'un, alimi tuluk, yelini yetilmish. Solih duo qildi: Iziyo, sen bilursan, mendin na qo'larlar. Yorlig' keldi: Ey Solih, bilur erduk sening qavming bu mo'jizani qo'lg'aylar. Biz ani bu tosh ichinda anuqlab turur biz. Sen duo qilg'il, biz beraling. Solih duo qildi, ul tosh igranu boshladi. Bir ingan chiqdi, ular tilamishtek. Bir onchada ingan bo'taladi. Ingan bo'tasi birla qo'bdi, o'tlayu boshladi. Aydlar: Ma *asharaka* yo Solih, yavloq jodu ermishsan, teb imon kelturmadilar. Aytmishlar, **(35r)** bir anchasi imon kelturdilar, bir anchasi imon kelturmadilar. Ularning bir quzug'lari bor erdi, ularg'a yetgucha ingan bo'ta birla kelib ularning qamug' suvlarin ichdi. Ul kun ular suvsiz qoldilar. Solihg'a aydlar: Bu teva bizga kerakmaz. Yorlig' keldi: Ey Solih bular orasinda kezik qilg'il, bu suv bir kun tevaga bo'lsun, bir kun bularg'a. Qavluhu taolo. *Va nabbi'hum anna alma'ala qismatun baynahum*. Ani qabul qildilar. Solih aydi: Yorlig' ul turur, bu tevaga qotilmang, emgatmang, urmang, o'lturmang. Bu ishlarda birin qilsangiz, sizlarga azob kelgay. Ular qabul qildilar. Ingan ularning orasinda o'ttuz yil turdi. Ularning keziki bo'lmish kun teva bo'tasi birla tog'larda o'tlar erdi. Tevaning keziki bo'lmish kun suv quzug' tebasinda og'ar erdi. Teva bo'tasi birla ichar erdilar. Suv yana o'rmung'a inar erdi. Ular tevani sog'ib, kublar to'ldurub ming yeti yuz evluk kishisi ichib qamug'ing'a yetar erdi. Ammo qo'ylari, yilqi qoralari teva din qo'rqub urkar erdilar, o'tlamas erdilar. Bular bu tevani tilamas bo'ldilar. Aydlar: Biz bu tevani o'lturmagingincha mundin qutulmasbiz.

Rivoyatda kelur, Solih payg'ambar alayhis-salom aymish erdi: Sizlarda bir qizil yuzluk, sorig' sochlig', chaqir ko'zluk kimersa bu tevani o'lturgay, teb. Ul kishilar bu sifatlig' o'g'lon tug'sa otasi, onasig'a bildurmadin ul o'g'lonni o'lturur erdilar, to'quz o'g'lon tug'di, qamug'in o'lturdilar. Ul o'g'lonlari Solih payg'ambarni o'lturgali o'g'radilar. Qavluhu taolo. *Va kaana fi al-madinati tis'atu rahin yufsiduna fi al-arzi va la yuslihuna*. Yana bir o'g'lon tug'di, Solih ayg'an sifatlig', ammo ulug'larining o'g'li erdi, qamug'lari yig'ilib ani o'lturgani keldilar. Otasi aydi: Bu so'z yolg'on turur, Solih sizni fusus tutar, tedi. So'zlari o'tmadi, anda kezin o'g'lon o'lturmak qoldi, ul o'g'ulg'a Qazor atadilar, otasining oti Solif erdi, **(35v)** yigirmi yashadi ersa Solih aydi: Odam o'g'lonlarinda mundin shumroq kim ersa yo'q, tedi. Qavluhu taolo. *Iz inba'asa ashqoha*. Rivoyatda kelmish: ul to'quz kishi bo'zchi erdilar, ulug'lari Qazor ibn Solif va Mastah ibn Dahr erdi. Aymishlar: ular birla iki arig'siz tishilar bor erdi, biri Abira otlig', biri Suduq otlig'. Abira qurtg'a erdi, ammo iki ko'rkluk qizlari bor erdi. Yana iki er bor erdi, yovuz, biri Musdi' otlig', biri Qazar ibn Solif. Ul iki xotunni bular sevar erdilar, kecha ularg'a keldilar, taom tiladilar. Suduq aydi: Bu kun keziki tevaning turur, suvumiz yo'q osh etmakka, tedi. Abira aydi: Bizing kuchumiz yetsa bu tevani o'lturg'ay erduk, bizning oramizda'er yo'q, er bo'lsa bu tevani o'lturgaylar erdi. Qazor ibn Solif aydi: Men ul tevani o'ltursam ne bergaysen? Suduq aydi: Men o'zumni sanga bergayman, teb yuzini ocha berdi, yavloq ko'rkluk erdi, Qazor oshiq bo'ldi. Yana Abira Musdi'g'a aydi: Men bu qizlarimda birin sanga bergayman, tedi. Xamr kelturdilar, bu ikaguga berdilar, esrutdilar. Qo'ldoshlar silohlar oldilar, tevaning kelur yo'linda busub o'lturdilar. Teva keldi ersa Qazor o'tru chiqdi, qilich birla yanchukin chopdi. Teva yumalanu tushdi. Musdi' boshini o'q birla o'tkuro' otdi, teva yiqildi. Qazor ibn Solif tevani o'lturdi, to'rt singardin xaloyiq yig'ildilar, etuni pora qilib ulashtilar. Qavluhu taolo. *Fa kazzabuhu fa aqaruha*. Yana Qazor ibn Solif bo'tasini o'lturgali o'g'radi ersa, bo'ta tog' singar o'g'radi, uch yo'li qatig' un qildi. Ul onasi chiqg'an tog'g'a yana kirdi. Solih payg'ambar alayhis-salom tutun ko'rub keldi, ul kishilarni ko'rub Bo'ta qani? tevu so'rdi ersa, uch yo'li un qilib bordi, tedilar. Solih

aydi: Uch yo'li un qilg'ani uch alomat belgisi turur, uch kunda azob kelur. Aydlilar: Ul azob nishoni ne turur? Aydi: Avvalqi kun yuzlaringiz sarg'ay, ikinci (36r) kunda qizarg'ay, uchunchi kun qorarg'ay-azob etilgay. Qachon Solih andog' tedi ersa teva o'lturganlar aydlilar: Tevani kendu o'lturdumiz Solih nima o'lturaling, bizga azob tegmasdin burun, so'zi ko'ni bo'lsa bizdan burun o'lmish bo'lg'ay, yolg'on bo'lsa ul o'lgay, biz qolg'aymiz, teb ul kecha Solihni pisib o'lturmakka o'g'radilar. Qavluhu taolo. *Taqasamu billahi lanubayyitannahu va ahtahu.* Bordilar, tosh tubinda yotdilar, Mavlo yorlig'i birla ul tosh yemruildi, qamug'in halok qildi. Qavluhu taolo. *Va makaru makran va makarna makran va hum la yash'urun. Fanzur kayfa kona aqibatu makrihim anna dammarnahum va qavmahum ajma'ina.* Yana bir rivoyatda tunla kelib Solih qabug'indin kecha bo'lub Solihni o'lturg'ali o'g'radilar ersa, Izi azza va jalla farishtalarni izdi, tosh birla qamug'ini ura halok qildi. Qavluhu taolo. *Va hum la yash'urun.* Yorindasi ular kelmadi ersa Samud bo'zuni kelib Solihg'a aydlilar: Bularni sen o'lturub turusen, teb Solihg'a tepundilar. Solih kishilarima siloh olib ularg'a tepundilar, Aydlilar: Solih sizni emgatmadi, sizga azob va'dasi berdi, uch kunda ul azob sizga kelmasa ne qilsangiz sezik, tedilar. Bu so'z birla ular yondilar. Qavluhu taolo. *Va kona fi al-madinati tis'atu rahim yufsidiuna fi al-arzi va la yushihuna.* Yorindasi qo'pdilar, qamug'larining yuzlari sarg'armish, bildilarkim azob yetilmish. Solihini o'lturaling, teb tilayu boshladilar. Solih ulardin qochdi, bir Saqil otlig' Abul Vahhob kunyatlik kim ersaning evinga keldi. Ul kofir erkan, Solihni yashurdi, necha tiladilar aymadi. Solih kishilarin uru boshladilar. Solihni bizga ko'rguzu bering, tedilar. Misra' ibn Xaram otlig' kishi aytu berdi, Abul-Vahhob evinda turur, tedi. Abul-Vahhobga borib so'rdilar: Solih sening evingda bormu, tedilar. Bor, tedi. Valekin sizga bermasman, tedi. (36v)

Ular yondilar, o'z ishlariga mashg'ul bo'ldilar, yorindasi yuzlari qizardi, uchunch kun qarardi. Yakshanba kun Solihg'a imon kelturganlar evinga keldi, ularning birla chiqdilar, Falasting'a bardilar. Ularning yuzlari yema qorarmish, ko'rdilar ersa, bir anchasi qo'ptilar, o'zlariga go'r qazidilar, kafanlarin kizdilar, go'rlariga kirdilar, o'lturdilar. Mavlo taolo Jabroilg'a yorlig' tegurdi, teva

o'lturg'an yerga kelib bir qatig' un qildi, qamug'larining yuraklari yorilib o'ldilar, tamug'g'a ulandilar. Yolg'uz Zurayta otlig' qorabosh qoldi, qochib chiqdi, toshdaqilarga xabar qildi, suv qo'ldi, berdlilar, suv ichdi ul yerda — o'q toshub o'ldi. Solih ulardin ko'ngul kesdi, aydi: Iziyo, manga dastur bergil, borayin, olam ichinda bir ezgu qul tilayin, ko'ksumdagi munglarimni anga ayayin. Borg'il, teb yorlig' bo'ldi, Solih kim ersa tilayu bu jahonni kezdi, ro'zgorda kezin biraguni buldi, namoz qilib turur. Anga kelub salom qildi, Aydi: Ne bo'ldi yolg'uzun tengrig'a topinursen. Aydi: Bu yerda bir ulug' shahar bor erdi, aning xalqi qamug' xalqdin arig'sizroq, qatig' ko'ngulluk erdi, Mavlo taolo bu shaharni xaloyiqi birla yer quzi izdi, mendin azin Tengrini birlagan kimersa yo'q erdi, menga najot berdi, munda Mavlog'a shukr qilib toat qilurmen, tedi. Solih andin kechdi, bir ulug' tog'g'a tegdi, biraguni ko'rdi namoz qilur. Solih salom qildi, xabar so'rdi. Aydi: Bir ancha xalq birla kemiga kirduk, bir tengiz qirog'inda xaloyiq bor erdi, yavloq yo'lsuz, kofir, Mavlo taolo qamug'ini g'arq qildi, men yolg'uz qoldim, emdi Haq taolog'a shukr qilurmen, tedi. Andin kechdi, yana bir tengiz qirog'inda shaharga tegdi. Xalqi qamug' kofir, magar iki qarindoshlar erdlilar, musulmon, xurma yapurg'og'indin salalar o'rub, ani sotib bir anchani o'z yarog'larig'g'a xarj qilib qolg'anini darvishlarga berur erdlilar. Solih ularg'a tegdi, bir qatig' un eshitdi, bu na turur? teyu so'rdi. Aydlilar: Bu yerda bir sazan yilon bor, tengizdin chiqar, oxshom o'g'urinda kimni bo'lsa yeyur. Solih aydi: Men ani o'ltursam bu xaloyiq manga ne bergaylar? Bu iki qarindosh ul shahar xalqiga aydlilar: Biragu kelib mundog' so'zlayurlar. Aydlilar: Ani o'ltursa yarim molimizni anga bergaymiz, tedilar. Solih ko'pdi, iki rak'at namoz qildi taqi duo qildi, ul yilon yorilib o'ldi. Ular yarim mollarin berdlilar, kelturub Solihg'a berdi, Solih olmadi, ul iki qarindoshlarga berdi, ular unamadilar. Solih ul molni ezalariga berdlilar, boshin sajdaga urub Mavlog'a shukr qildi. Sanga topung'a(n) uch kishini buldum, tedi. Mavlo taolo xitob qildi: Yo Solih, yer yuzinda mening qullarim borkim, jahon ularning birla azoqin turur. Maqotil aytur: Solih bo'zunda yetmish kishi imonlig' bo'ldilar, Hud bo'zundama andag'o'q. Qachon Hud va Solih dunyodin rihlat qildilar ersa, ular yer yuzinda

tarildilar, bir anchasi Jobilqa tushdilar, bir anchasi Jobilisa tushdilar. Bu Jobilqa va Jobilisa iki shahar biri mashriqda, biri mag'ribda. Qamug' kofirlar bu mo'minlar anda bo'lmasa Mavlo taolo ul kofirlarni halok qilg'ay erdi. Ular Bars ibn Yofas ibn Nuh alayhis-salom urug'indin tururlar, Ukushrag'i Ya'juj va Ma'juj tururlar, Qamug' tamug'lug'lar turur. Bu iki shaharning ming darvozasi bor, tekma darvozadin yana bir darvozag'a bir yig'ochliq yer erdi. Tekma bir qapug'da tegma kecha yetmish ming er soqchi yotur erdi. Tirik borincha ularg'a azin kezik tegmas. Aymishlar: Hud va Solihda kezin bari mulk talashdi. Arabda eng ilki tugal olamni tutg'an Namrud ibn Kan'on erdi.

Aymishlar, qachon Jabroil Solih qavminga un qildi ersa, qamug' o'ldilar, azoqlarin ostindin o't chiqdi, qamug'ini kuyurdi. Qavluhu taolo. *Inno arsal no alayhim sayhatan vohidatan fa konu kahashimi al-muhtaziri*. Aymishlar, arabning odati bor yozida tevaga, qo'yg'a qo'ton etarlar, cho'pni qurug' o't-yemni qo'ton ichida to'shayurlar, yilqi qora aning uza yoturlar, azoq oltinda ushanur bo'zun bo'lur. Tengri azza va jallo Samud bo'zunini (37v) anga o'xshatib *Fa konu kahashimi al-muhtaziri* teb yorliqar. Taqi bir rivoyatda qilur Abdulloh ibn Abbos raziyallohu anhu: Haq taolo iki bo'zunni bir azob birla halok qilmadi, illo Solih qavmini, taqi Shuayb qavmini o't birla halok qildi, anchasi bor, Solih bo'zuniga o't azoqlari oltinda chiqdi. Shuayb bo'zuniga ko'kdin indi, anda kezin Solih Shom viloyatinga bordi, anda o'madi, o'n sakiz yil tirildi, yana bir rivoyatda, qirq yil. Solihda kezin Ibrohim payg'ambarg'a tegi hech payg'ambar yo'q erdi.

QISSAYI IBROHIM ALAYHIS-SALOM

MAA NAMRUD ALAYHIL-LA'NA

Ul Namrudi mardud balosiga ilingan, *harriquhu vansuru olixatakum* og'usini totg'an, *Hasbi an su'ali ilmuhu biha-li munojotini qilg'an*, moldin, o'g'uldin-qizdin kechib, *aslami-tu li rabbi al-olamina* tegan, va *ittaxaza-llahu Ibrohima xalilan* tarifluk, *Ya naru kuni bardan va salaman ala Ibrohima* tashrifluk.

Ibrohim payg'ambar alayhis-salom.

Evda tug'gan, ernak engan, tog'da turg'an Ibrohim,

Yulduz anglab, oyni tonglab, ko'kka oshg'an Ibrohim.

Aydi bir kun: Ey ona, ayy'il mening tengrim kim ul,

Aydi: Menmen kel sening kim teyu so'rg'an Ibrohim.

O'sh otang ul, tedi. Aytur: Kim otamning tengrisi,

Aydi: Namrud tengrisi kim, teyu so'rg'an Ibrohim.

Yeti yer-ko'kning hijobin ochdi Mavlomiz anga,

Ostin-ustun Arshi sarog'a teggan Ibrohim.

Uy, teva, qo'ylar bo'g'uzlab to'qiyomatg'a tegi,

Bu qo'nuq tutmoq to'rasin xalqqa qo'zg'an Ibrohim.

O'g'ini qurbon qilurda ko'kda o'tlab semirgan,

Qo'ch fidosin Jabroildin yerda bulg'an Ibrohim.

Bolta ko'trub tilku siygan butni so'yg'an ochturub,

Et yedurgan, ot chiqarg'an, o't o'churg'an Ibrohim.

Ibrohim ibn Torix ibn Soruh ibn Arg'us ibn Folih ibn Obir ibn Solih ibn Artus ibn Som ibn Nuh alayhis-salom. Ibrohim va Abraham va Ibrohom bu qamug' lug'atlar durust turur, ya'ni Abun rahimun-bag'irsoq ota temak bo'lur. Ibrohim Namrud ibn Kavs ibn Kan'on ibn Nuh vaqtinda erdi. Namrud qamug' dunyoga erklik erdi. Aymishlar, qamug' dunyoni to'rt kim ersa tutdilar iki musulmon, iki kofir. Musulmon Sulaymon yalavoch taqi Zulqarnayn, kofir Namrud, (38r) taqi Buxtnasr. Namrud tush ko'rdi, bir qo'chqor kelib taxtini susub axtaru solur, tongdasi ko'rumchi munajjimlarni, kohlarni yig'ib so'rdi. Aydlilar: Bu yil ichinda bir o'g'ul tug'ar, sening mulkung aning ilkinda halok bo'lur, teb aydilar. Ani eshitti ersa yukluk xotunlarni saqlab qayu xotun o'g'lon tug'ursa o'lturdi, qiz tug'sa qo'zdi. Namrudning bir but yo'ng'uchi inog'i bor erdi, Ozar otlig', oti Torix erdi, butg'a qatig' topinur uchun Ozar atadilar. Ozarning xotuni Ibrohimg'a yukluk bo'ldi ersa kishilardin yashurub yurdi, oyi, kuni yetilmish ag'loq yerga kirib yoshurun o'g'ul tug'urdi, Ibrohim atadi. Namruddin qo'rqmishda eltib tog' ungurinda kizladi, tuyoq sut berdi, mening ko'zumda o'ldurgincha men ko'rmadin qushqurt yesun, tedi. Mavlo taolo Jabroilni izdi, kelib Ibrohimning ernakini og'zinga suqti, ernaki ichinda sut

yaratdi, ani emar erdi. Azin o'g'lonlar necha bir oyda ulg'arsa Ibrohim kunda oncha ulg'arur erdi. Onasi qach kunda kelib sut berib borur erdi, qachon yeti yashadi ersa onasi borib evinga kelturdi. Bir kun onasiga so'rdi: Men yo'q erdim bor bo'ldum, mening tengrim kim ul? Onasi aydi: Menmen. Yana so'rdi: Sening tengring kim ul? Aydi: Otang. Netak? tesa aning uchunkim, ul mendin biyikrak, tedi. Yana so'rdi: Otarning tengrasi kim ul? Aydi: Namrud. Netak? tesa aning uchunkim otangdin ul biyikrak, tedi. Yana so'rdi: Namrud tengrasi kim ul? Onasi qatig' un birla aydi: Tek turg'il, andog' temagil, Namrud qamug'nung tengrasi turur, tedi. Bu so'zni onasi otasing'a aytu berdi, Otasi aydi: Ani mundin ketargil, boyaqi tog'da-o'q qo'zg'il, bizga bir balo kelturmasun, tedi. Onasi boyaqi ungurga yana eltib qo'zdi, Ibrohim soqinur erdi: (38v) Meni yaratg'an Tengri mundog' iyasiz, topug'siz teb yaratmadi bo'lg'ay, kimga topug' qilg'u, netak topug' qilg'u bilmasmen, teb soqinch birla kun kechurda, oxshom bo'ldi, ungurdan chiqdi. Zuhra yulduzini ko'rdi g'oyat yoruq, mening Tengrim mundog'mu erkan, bumu erkan, teb. Qavlulu taolo. *Fa lamma janna atayhi al-laylu ra'a kavkaban qola haza rabbi. Ya'ni amislu haza rabbi ala vajhi al-is-tihzai.* Qachon ul Zuhra yulduzi botdi ersa, tug'g'an, botg'an, iznag'an tengriliqg'a yaramaz, mundog'lami sevmazmen, tedi. Qavlulu taolo. *La uhibbu alafiina.* Bir onchada oy tug'di ul yulduzdin ulug'roq. Aydi: Mening tengrim bumu erkan? Qachon oy botdi ersa, bu ema tug'ar, botar ermish, agar tengrim mani ko'ni yo'lg'a ko'ndurmasa yo'lsuzlardin bo'lg'ay erdim tedi. Qavlulu taolo. *Lain lam yahdini rabbi laakunanna min al-qavmi az-zollina.* Ul kechani bu soqinch birla kechurdi, tong otdi ersa aydi: Qorong'qu ketdi, olam yorudi, kezin tun tug'di yulduzdin, oydin yoruqroq. Tengrim mundog'mu erkan, bu ulug'roq turur. Qavlulu taolo. *Fa lamma ra'a ash-shamsa bozig'atan qola hozo rabbi haza akbaru.* Kun o'rtag'a tegi ul soqinch birla turdi, qachon kun evruldi ersa, ashoqqa tushdi. Aymishlar, kunga topug'anlarni ko'rdi, men mundog'lardin iroqmen. Qavlulu taolo. *Inni bartun mimma tushrikuna.* Aydilar: Bularg'a topunmazsen, kimga topunursen? Aydi: Yuz evurdim ul kim ersalargakim yeti qat yer, yeti qat ko'kni ul yaratdi, ko'ni yo'llug' musulmonmen, o'rtoq teganlardin

ermasmen. Qavlulu taolo. *Inni vajjahtu vajhiya lillazi fatara as-samovoti va al-arza hanifan.* Qachon yashadi ersa onasiga keldi, otasi evinga kirdi, otasi but tutar erdi. Ibrohimga aydi: Bu butni (39r) bozorg'a eltib sotg'il. Ibrohim butni otasi qatindin chiqarib bo'ynig'a yib bog'lab suvg'a solib tubroqg'a bulg'ab bozorg'a kivrurdi. Aydi: Kim olur munikim, ko'rmaz, eshitmaz, kim ersaga asig' qilmas, teb aydi. Aymishlar: kunlarda bir kun bir butni olib borurda yozilanmoqg'a hojatlig' bo'ldi, butni yerda qo'zub bordi, kelgincha tilku kelib ul butning tepasiga ko'p siymish, bulg'atmish. Ibrohim ani ko'rub sevinmishda qatig' un birla aydi:

A rabbun yabulu as-a'labani a aynun bira'sihi

Laqqad zalla man balat alayhi sa'alibu

Bari'tu min az-zolli va ash-shirki kullihi

Va omantu billohi allazi huva g'olibu

Tengrimu bo'tur boshing'a tilku siysa bir sog'in,

Ko'zlari ko'rmas qorong'u ham tili aning og'in.

Men bularadin kull yirohmen, qulman Alloh Mavlog'a,

Qurshanib qulluq qurini berk tutarmen yorlig'in.

Ibrohim alayhis-salomni yeti yil otasi butg'a soqchi qo'zdi, Ibrohim ul topug'anlarg'a aydi: Siz bularg'a ne uchun topunursiz? Otasing'a aytu berdilar, otasi Ibrohimga a malomat qildi. Ibrohim otasing'a aydi: Bu ko'rmas, eshitmas narsaga neluk topinursen? Yana aydi: Ey, ota, manga ilme berildi, senga berilmadi, sen mening so'zumni eshitgil, men seni ko'ni yo'lg'a yo'lchilayin, tedi. Qavlulu taolo. *Ya abati inni qad jo'ani al-ilmi mo lam ya'rika fattabi'ni.* Aydi: Ey ota, shaytong'a qul bo'lmag'il, bu shayton rahmong'a yozgan yozuqulug' turur, teb. Qavlulu taolo. *Ya abati la ta'budash-shaytona inna ash-shaytona kona lirrahmoni asiyyan.* Otasi aydi: Ey Ibrohim, sen mening tengrilarimg'a butmasmusen? Bu ishdin yig'ilmadig ersa seni tashlag'aymen, bir oncha mendin yiroq ketgil, tedi. Qavlulu taolo. *Lain lam tantahi laarjumannaka vahjurni maliyyan.* Ibrohim aydi: Salom senga ey ota, men ketdim ersa terk ro'zgarda seni Izidin yorliqatu qo'lg'aymen. Aning uchun kim Izi azza va jalla' mening holimni bilikli turur. Qavlulu taolo. *Qola*

salamun alayka saastag'firu laka rabbi innahu kona bi hafyyan. Ibrohim kengdin chiqti, yobong'a yetdi. Mavlo taolog'a qulluq qildi, otasi o'ldi. Butlar otasi qarindoshi Hozarg'a qoldi. Hozar Lut payg'ambar otasi erdi, Ibrohim ulash aytur erdi: Har oyina men bu butlarg'a bir qayd qilg'um turur. Qavluhu taolo. *Laakidanna asnomakum ba'da an tuvalli.* Ul o'g'urg'a tegikim, ularning iydleri bo'ldi, ular osh, bo'g'uzlar qilib butlaring'a kelturub o'nginda qo'zar erdilar. Iydgohga chiqub kun o'rtaga tegi turub yonib kelsalar ul oshlarni ko'turub butlarimiz barkoti bu oshlarg'a tegdi teb, eltib o'g'ul-qizlari birla yeyur erdilar. Iydlari bo'ldi ersa Ibrohimg'a aydilar: Birga chiqaling, teb. Ibrohim aydi: Men nujum iliminda boqdim, manga og'rig' kelurtak turur, chiqa bilmazmen tedi. Ul ro'zgorda nujum ilmi yavloq g'olib erdi, ani tutar erdilar. Ibrohimni qo'zub bordilar, Ibrohim bir bolta oldi, butxonag'a kirdi, butlarning boshin, qo'llarin kesib pora-pora qildi, ushatdi. Bir ulug' but bor erdi, boltani ko'turub egniga ortaro'soldi, fusus tutub butg'a aydi: O'ngunguzdagi oshni neluk yemasiz? Yana so'rdi: Neluk so'zlamassiz? Qavluhu taolo. *Qola alo ta'kuluna, mo lakum la tan-tiquna.* Kun o'rta bo'ldi, kofirlar yonib keldilar, ko'rdilar butlarning qo'li, buti sinuq, boshlari kesuk. Namrud bo'zuni birla butxonag'a kirib aydilar: Bizning tengrilarimiz birla bu ishni kim qildi? Qavluhu taolo. *Qolu man fa'ala hozo biolihatina innahu lamin az-zolimina.* Aydlar: Bir yigit bor Ibrohim otlig', ul qildi bo'lg'ay. Qavluhu taolo. *Fa'tu bihi ala a'yuni an-nasi la'allahum yashhaduna.* Foyida. Namrud kofir erkan, ulam so'z birla Ibrohim uza hukm qilmadi, aning mulkiga zavol bo'lmadi. Arablar aymishlar: Adl qilg'an kofir birla mulk boqiy qolur, zulm qilg'an mo'min birla mulk boqiy qolmas. *Qamo qila: Al-mulku yabho bi al-adi ma'a al-kuffri va lo yabqo bial-juri ma'a al-imani.* (40r) Namrud kofirliqi birla ulam so'z eshitmadi, el yig'ilsun, tanuqluq bersalar tutaling, tedi. Bu kun kimersa yolg'on so'z birla kimersa uza hukm qilsa Namruddin batar bo'lur. Ibrohimni kelturdilar, Bizning tengrilarimiz birla bu ishni senmu qilding? tedilar. Qavluhu taolo. *A anta fa'alta hozo biolihatino ya Ibrohimu.* Aydi: Bu-o'q qildi, ulug'lari bu turur, so'ring, kim qilg'anin aytu bersun, agar so'zlayu bilsa. Ulamolar bal faalahu bu erda vaqf qaydihim xozo teyu so'z

boshlag'u, Ibrohim vaqf qilmadi. So'z ma'nisi ularga o'rtidi, ular ma'nini anglamadilar, ulug'lari qildi teyu sandilar. Anga-o'q so'ring so'zlayur ersa, aytu bergay, tedi. Qavluhu taolo. *Fas' alhum in konu yantiquna.* Aydlar: Bu butlar so'zlamas, biz anga netak so'raling? Ibrohim aydi: Bular so'zlamas ermish ne teyu topunursiz asig'siz narsaga. Qavluhu taolo. *A fa ta'buduna min duni-llahi mo lo yanfa'ukum shay'an va la yazurrukum.* Bildilarkim Ibrohimdin o'zga kim ersa qilmadi, Ibrohimni qiynamoqg'a kengashtilar. Ibrohimma payg'ambarliq oshkora qildi, aydi: Bir tengriga butung, butg'a topunmang, meni tengrining rasuli teng. Aydlar: Bizni otalarimiz dimindin chiqarib azin dingamu kivurusen? Ibrohim aydi: Otalarimiz qamug' botil din uza erdilar, men sizni ko'ni yo'lg'a undayurmen. Aymishlar: ul ro'zgorda qamug' ellarda ochlig' bo'ldi, oshliq topulmadi. Namrud qamug' xalqlarg'a oshliq sotar erdi. Bir kun Ibrohim oshliq olg'ali Namrudg'a keldi, Namrud aydi: Manga sajda qilg'il, oshlig' berayin, tedi. Ibrohim aydi: Men ul tengrig'a sajda qilurmenkim, o'lukni turguzur, tirikni o'lturur, tedi. Qavluhu taolo. *Iz qola Ibrohimu rabbiya allazi yuhyi va yum-itu.* Namrud aydi: Menme o'lukni turguzurmen, tirikni o'ltururmen, tedi. Qavluhu taolo. *Qola ana uhyi va umitu.* Ibrohim aydi: Netak turguzursen? Namrud zindondin iki yozuqluqni chiqardi, birini o'lturdi, birini qo'zdi. (40v) Aydi: O'sh o'lukni turguzdum, tirikni o'lturdum, tedi. Ibrohim bildikim kofir ahmoq turur. Aydi: Yozuqlug'ni izmoq, turguzmak bo'lma. Kerak erdikim, bu o'lturganingni turguzgil tesa, ahmoq kofir birla hujjatlashmakni xush ko'rmadi. Bir so'z birla tindurmayin, teb aydi: Mening tengrim ul tururkim, kun sayu ko'kdagi kunni mashriqdin tug'urur, sen bir kun mag'ribdin tug'urg'il tedi. Qavluhu taolo. *Fa'inna-illoha ya'ti bi ash-shamsi min al-mashrihi fa'ti biha min al-mag'ribi.* Bu so'zni Namrud eshitti ersa mutahayyir bo'ldi. Qavluhu taolo. *Fa' buhita allazi kafara.* Ibrohimning mo'jizasi ul turur: Tengrig'a azza va jalla oxir zamonda kunni mag'ribdin tug'urmag'incha qiyomat bo'lmag'ay. Ibrohimdin bu so'zlar eshitdilar telim kofirlar ko'ngluga kirdi, bu butlar botil tururlar, asig'lari yo'q, Ibrohim ko'ni so'zlayur biz yo'lsizlarbiz, teb. Qavluhu taolo. *Fa' raja'u ila anfusihim fa' holu innakum antumu az-zolimuna.* Namrud alay-

hil-la'na ul bo'zunning soqinchini bildi ersa qo'rqdikim, mendin tonib Ibrohim tapa evrulsalar teb. Muni tutung, o'tg'a kemishing, tengrilaringga nusrat qiling. Qavlulu taolo. *Qolu harriqutu vansuru alihatakum*. Ibrohimni o'tg'a o'tg'ug'a kengashtilar. Namrud aydi: Ibrohim, mening tengriming tamug'i bor, o't birla qiynatur ter, menme bukun o't birla qiynatayin, kim qutg'arur ermish ko'rayin, tedi. Qamug' cherigingga to'rt oy o'tin yig'durdi, qayu ko'lukka yuklasalar ko'turmadi, tevaga yukladilar yotti, qo'pmadi. Bulardin eshkak, ot qabul qilmadilar, qachirg'a yukladilar qabul qildi. Ibrohim ani ko'rub turur erdi qachirg'a la'nat qildi, ul yo'ldin urug'lamas tedilar. Bukun qachirg'a yuk yuklasalar urmag'incha, so'kmagincha turmas. Tul qurtg'alarg'a chiqir igitib, tunlar uzutmadiz kunduz bozorda sotib o'tun solur edilar, Namrud bizdin xushnud bo'lsun, teb. Aymishlar: bir yig'ochliq yer o'tun yig'dilar, tegrasinga adimdin tom yoptilar, neft birla gugurd birla suvadilar. Anda kezin o't yoqdilar, iki yildin burun Ibrohimni og'ir kishan (41r) birla bog'lab ev ichinda tutar edilar. O'n tun-kun o't kuydi, kuchlandi. Aydlar: Bor Ibrohimni emdi o'tqa oting. O'tning adizligi ularning qarisi birla yigirmi qari erdi. O't kelturub yoqg'an Ibrohimning otasi qarindoshi Hozar erdi. Lut payg'ambar aning o'g'li erdi. Qarlug'och tumshug'i birla suv kelturub ul o'tg'a qayar erdi. Ibrohim aydi: Ey qarlug'och, sening tumshuquгдаqi suv bu o'tg'a netak bilgugay, Ibrohim anga ezgu duo qildi. Kalaz kelib o'tni urar erdi, Ibrohim anga la'nat qildi, qirq tun-kun kuydi. To'rt yig'och yerdan kishi yovumas bo'ldi. Qayu qush havoda uchsa qanitlari kuyub tushar erdi. Namrud bir manora qo'pordi temurdin, baqirdin, anga og'di. Aydlar: Ibrohimni netak qilib o'tg'a otaling, teb, ojiz bo'ldilar. Shayton kelib manjaniq etmakni o'gratdi, andin burun olam ichinda manjaniq yo'q erdi. Ibrohimning ilkin, azoqin yetmish botmon temur birla bog'lab manjaniqg'a urdilar. Aydlar: Ey Ibrohim, qo'rqasmusen? Ibrohim aydi: *Man ana fi qalbihi naru al hahhi fa kayfa yaxofu min nari al-xalqi*: Kimung ichinda haq o'ti bo'lsa, xalq o'tindin netak qo'rqar. Aydlar, ulug' o't yoqub naft taqi gugurd birla tomlarin suvadilar. Ibrohim aydi: *An-naru fi qalbi ashaddu min narikum lianna fi qalbi naru al-mavla va naru-kum naru ad-dunya*. Aydi: Mening ichimdagi o't sizing o'tunguz-

din isig'roq turur. Aning uchunkim mening o'tum Mavlo o'ti turur, sening o'tung dunyo o'ti turur. Yana aydlar: Tengringdin qo'lg'il, seni qutg'arsun. Aydi: Mening nemni qutg'arsun? Aydlar: Nafsungni. Aydi: Nafs yovuz ishliq, ma'yub turur. Ma'yub o'tg'a o'q yarayur. Aydlar: Joningni qo'lg'il. Aydi: Jon oriyat turur. Oriyat ezasinga niyoz bo'lur. Aydlar: Ko'nglungni qo'lg'il. Aydi: Ko'ngul tengring turur. Tengri netak tilasa andog' qilg'ay, tedi. (41v) Anda kezin manjaniqg'a urdilar. Necha telim xalq yig'ilib manjaniqni torta bilmadilar. Aning uchunkim, farishtalar kelib manjaniqni bosib turur edilar. Kofirlar fusus tariqin aydlar: Ey Ibrohim, qancha borusan? Aydi: Yaratg'an Izimg'a borurman, manga yo'l bergay. Qavlulu taolo. *Imni zahibun ila rabbi sayah-dini*. Shayton bildikim farishtalar manjaniq bosib tururlar, bir arig', pok kishi bo'lub keldi. Kofirlarg'a aydi: Siz muni tuta bilmassiz, ammo munung bir hiylasida bor. Yovuz bo'lg'an xotunlarni keltur-gu. Eranlar ularning birla fohisha qilsalar ancha manjaniq qo'par, tedi. Ul ishni qildir ersa farishtalar tarildi. Anda kezin manjaniqni tortib Ibrohimni havog'a otdilar. Savol: Shayton manjaniq qilmoqni qaydin bildi? Javob: Shayton manjaniqni tamug'da ko'rmish erdi. Yo'zuqlug'larni tamug'da chuqur o'tg'a otarlar. Ul chuqurning azo-bi yetmish yo'li tamug' azobindin qatig'roq turur. Xabarda kelur, Rasul alayhis-salom aydi: Mening ummatlarimdin olti turluk kishilarni qiyomat kun tamug' ichinda ul chuqurg'a solg'aylar. Birisi, sultonlar ilakinda bu kishi mundog' yo'llug' turur teganni, ikkinchi, o'gsuz bo'lub o'gsus molin erklik bo'lub yeganni, uchunchi, zolimlar ishin bitirganlarni, to'rtunchi, otalar onalaring'a yomon tilin so'zlaganlarni, beshinchi, muxannaslarkim, arig'siz ishlar qilurlar, oltinchi, tengriliq yo'ldin mol qazg'anib, azin yo'lda xarij qilurlar. *Na'uzu billahi min zalika*.

Qachon Ibrohimni havodin kemishtilar ersa aydi: *Hasbuna-Ilohu va ni'maal-vakilu. Fa ni'ma al-mavla va ni'ma an-nasiru*. Yetti qat ko'k farishtalari qamug' un qo'pordilar. Aydlar: Ilohiy, bu kun yer yuzinda seni birlagan, borlag'an yolg'uz Ibrohim turur. Ani taqimu o'tg'a otarsan? Iziyo, do'stlaring birla mu'omalatung mundog'mu turur? Xitob keldi: Ey farishtalar, siz nazzora qilib turung. Bu ishda mening sirrim bor, siz bilmassiz.

Ul holda Jabroil yetib keldi. Havoda o't to'shinda turub aydi: Yo Ibrohim *alaka hajatun*: Hech hojating bormu? Foyda. Hojatim yo'q tesa hojatsizman temak bo'lur erdi. Qul hojatsiz bo'imas. Hojatim bor tesa Jabroilga bor demak bo'lg'ay erdi. Javob aydi: *Va amma ilayka fa la*; senga bori yo'q. Jabroil aydi: Menga hojating bo'imas Mavlog'a bo'lg'ay, qo'lg'il, tedi. Ibrohim aydi: *Xasbi an su'ali ilmuhu bihali*: Ey Jabroil, mening tilagimga aning bilmakligi yetar, tilamak ne hojat turur? Ibrohim alayhis-salom Izi azza va jallag'a ko'ngul bog'ladi ersa xitob keldi: Ey o't sovug'il, salomat turg'il Ibrohim uza. Qavluhu taolo. *Ya naru kuni bardan va salaman ala Ibrohima*. Ulamolalar aymishlar, rahimahumulloh *bardan* teb *saloman* temasa erdi o't Ibrohimni sovuqi birla halok qilg'ay erdi. Qiyomatg'a tegi hech kim ersa o'tda pishg'an oshni ko'rmagay erdi. Ma'nisi ul bo'lur: Sovuq bo'lg'il, Ibrohim uza o'q turg'il. Azinlarg'a foyda. Muhaqqiqlar aymishlar, Ibrohim ko'ksinda Izi muhabbatining o'ti bor erdi. Ul holda muhabbat o'ti tebrashdi, Namrud o'tini kuyurgali o'g'radi. Xitob keldi, Muhabbat o'ting'a sovug'il, Ibrohim uza salomat turg'il temasa ne Namrudni qo'yar erdi, ne Namrudning o'tini. Qamug'ni kuyurur erdi. Yana yorlig' keldi. *Ya Ibrilitu adrik abdi*. Jabroil bordi, ujmohtdin bir musalloy kelturdi, o'tning o'rtasinda to'shadi. Ibrohim ul musalloy uza o'turdi. O't Ibrohimning bog'larin kuyurdi. Ibrohim musalloy uza namozg'a to'ruqdi. Aymishlar, Namrud Lamkang'a aydi: Bu manora og'g'il, Ibrohimni ko'rgil, netak kuyumish, kul bo'lmish. Aydi: Ey malik, bu o't ichinda qamug' dunyo tog'lari bo'lsa kuygay erdi, Ibrohimnimo qo'yar, tedi. Anda kezin manorag'a og'ib yana aydi: Ey malik, uchagu o'ngunda o'tururlar tegrasinda yigirmi shar tikim yoz chechaklari ochilmish, chashmalar oqa turur, xurmo yig'ochi unmesh. (42r) Lamkan manoradin inib, bu holni Namrudg'a aytu berdi. Namrud tongladi, o'zi manorag'a og'di, andag'o'q ko'rdi, aydi: Ey Ibrohim, sen yolg'uz erding, bular kimlar turur. Mavlo azzi va jalla yorlig'i birla o't tilga kirdi. Aydi: Ey Namrud, biri menman, suratimni evurdum, Ibrohimg'a sening ahmaqlig'ing uzrin qo'larman. Aytur: Ey Ibrohim, ul kim ersani kim izdi? Izi azza va jalla ko'ndurdi. Namrud anga ne qilg'u yarog'i bor. Ani eshitib qatig' qo'rqdi, qazg'ulug' bo'lub yeti

tun-kun yer titradi, zilzila bo'ldi. Namrud bilgalarni, hakimlarni yig'durdi. Bu ne zilzila? teb so'rdi. Aydilar: Bu o'tning qizig'indin yer tebranur, tedilar, Namrud aydi: O'tni so'ndurdung. Suv tashiyu boshladilar, o'tg'a quyidilar. Telim xaloyiq Ibrohimni ko'raling, teb keldilar. Mavlo yorlig'i birla yel ul kullarni yuzlaringa urdi. Ul xaloyiq qamug' yondilar. Kecha bo'ldi ersa Ibrohim o'tdin chiqdi. Evga bordi. Aymishlar, Namrudning o'n iki ming anbori bor erdi. To'rt mingi qamug' un erdi, qizliq bo'lsa sotmoq uchun. Ibrohim duo qildi, ul viloyatlarda qo'llar, ungurlar un to'ldi. Ibrohim munodiy qildurdi, keling, un oling teb. Qamug' viloyatlarda to'qluq bo'ldi. Namrud oshliqig'a boqq'uchi bo'lmadi. Bir kun Ibrohim Namrudg'a keldi. Aydi: Ey Namrud, kelgil, musulmon bo'lg'il. *La ilaha illallohu va innaka Ibrohimu rasulullohi (tegi)*, Namrud aydi: Zamon bergil, kengashayin. Zamon berdi, Namrud kengashdi. Men Ibrohim birla yarashurman, siz ne teyursiz? Inog'lari, beklari soqindilar. Agar Ibrohim birla yarashsa, Ibrohim aning uza erklik bo'lg'ay, bizning izzatimiz, hurmatimiz qolmag'ay, Ibrohimg'a qul bo'lg'aymiz, tedilar. Namrudg'a so'zladilar: Muncha yildin beru tengriman teding, emdi qulmanmu, teyursan. Ibrohimg'a qulmu bo'lursan, bizlarni anga qulmu qilursan, tedilar. Namrud aydi: Ul narsakim men andin ko'rdum, ulug' ishlar turur, aning tengrasi birla yarashmoq kerak, tedi. Aydi: Ani o't neluk kuyurmadi bilmasmusan? Aning uchunkim bizning otalarimiz o'tqa topinur erdilar, (43r) ulma bizning urug'umiz turur. O't bizni taqi bizing urug'imizni kuyurmas, tedi. Bu qissa ichinda foydalar bor. Ul foyda bu turur: qachir o'tun keturdi urug'i kesildi, sichak cho'p tashidi-qamug' o'g'lonlar ani tutub yungin yulub o'tg'a so'klub yeyurlar, kalaz o'tni urdi, bulg'an yerda o'ttururlar, qarlug'och suv tashidi, omon bo'ldi. Ularning o'ti birla Namrud o'ti o'tmadi, ammo dushmanliq bilgurdilar. Qarlug'och suvi birla o't o'chmadi, ammo do'stliq bilgurdidi. Qiyomatg'a tegi ezgu oti qoldi. Ezguluk yanut bo'ldi. Yana Namrud Hozarg'a kelib aydi: Biz netak qilib Ibrohimdin qurtulaling? Hozar xalqni yig'ib aydi: Bu tun qotlang'il, bir chuqur qazaling. Ul chuqur ichinda tutun qilaling? Tutung odiyini halok qilur, tedi. Namrud: O'sh mol necha kerak ersa olg'il, bu ishni sen bitkargil. Hozar xalqni yig'ib ul o't yoqq'an yerda

chuqur qazidi, tering, tubi tor, og'zi keng. Ani somon birla, arig'siz narsa birla to'lturdi. Qamug' xalq nazzorag'a turdilar. Hozar o't kelturdi, ul somong'a kemishdi. Mavlo yorlig'i birla yel keldi. Ul o'tdin bir kesakni keturdi Hozarning boshing'a soldi. Hozar yiqildi, kuya boshladi. Xalq aydi: Ey Hozar, o't bizni kuydurmas, temasmu erding? Hozar hech so'zlayu bilmadi, ul soatda-o'q kuydi, kul bo'ldi. Yana yel bordi, Namrud yoqq'an o'tdin kul kelturdi.

Ul xaloyiqning taqi o'tun tashig'anlarning ko'zinga tiqti. Qamug' qarag'u bo'ldilar. Ibrohim salomat qoldi. Boqiy qolg'anlar qochdilar. Anchada Sora raziyallohu anho Ibrohim qotig'a keldi. Sora Hozar qizi erdi. Ba'zilar aymishlar, Namrud qotinda bir ulug' bekning qizi erdi. Sora aydi: Ey Ibrohim, sening tengring yavloq kuchluk turur, manima bezorlagaymu. Aydi: Senima ezgu yo'lg'a ko'ndurgay, o'mungni ujmohda qilg'ay. Sora yavloq ko'rkluk erdi, aydi: Ey Ibrohim, men ul shart birla musulmon bo'lurmankim, meni olsang. Ibrohim aydi: (43v) Mening molim yo'qkim, senga qaling bersam. Sora aydi: Mening qalinim ul turur. Men shari'atda bor jumla ishlarda ne tesam sen ani qilg'il. Ibrohim qabul qildi, Sorani qo'ldi. Taqi bir rivoyatda kelmish, Namrud manoradin Ibrohimni ko'rdi, o't ichinda chechaklar ochilmish, o't qizil chechak bo'lmish. yashil, sarig' o't o'rtasinda yul chiqmish, xurmo yig'ochi unmish. Namrud aydi: Ey Ibrohim, o't seni kuyurmasmu? Aydi: Yo'q. Yana aydi: Bu o'tni sening uza kim sovutdi? Aydi: Ul kimersakim o'tg'a kivurdi. Namrud aydi: Yema yaxshi tengri turur sanning tengring, teb musulmon bo'lg'ug'a ko'ngulsindi, qatindaqilar unamadilar. Anda kezin tutun birla halok qilaling, teyushtilar. Lut alayhis-salom kelib, Ibrohiming'a xabar qildi, kengdin tunda qarong'uda qochib chiqdilar. Namrud yo'lda soqchilar qo'zub turur erdi, ibroniy tillik kimersa yo'luqsa tutung, teb. Ul tunla qamug' tillar Mavlo qudrati birla bulg'ashdi, tillar aynadi. Aymishlar, yetmish iki turluk til bo'ldi, o'n sekiz til Hom urug'i hindular oldilar, o'n sekiz Som urug'i arab va ajam oldilar, o'tuz olti til Yofas urug'i turklar oldilar. Ibrohim birla Lut yo'l soqchilarindin o'ttilar. Kechara so'rdilar: Kimlarsiz, teb. Aydlar: Biz Ibrohim taqi Lut ikagumiz. Anlar o'fkaladilar. Ularni saqlab tururmiz, siz bizni fusus tutib Ibrohim, Lut teyursiz, tedilar. Mavlo taolo ulardin saqladi. Azin viloyatg'a

borib o'rnatdilar. Qachon Namrudning o'fkasi o'chdi ersa Mavlodini yorlig' bo'ldi: Ey Ibrohim, borg'il Namrudni imong'a undagil. Ibrohim Namrudg'a keldi, aydi: Ey Namrud, butg'a topunmag'il, imon kelturgil. Mavlioni bir tegil, meni aning yalavochochi bilgil. Namrud andin aydi: Mendin azin tengrimu bor? Aydi: Bor. Ul kim? Seni yaratdi, sanga mulk berdi, yer, ko'k tengrиси ul turur. Aydi: Emdiga tegi teng erdim, sanchishg'ay erdim. Tengri (44r) birla sanchishayin, teb yarog' qilu boshladi.

NAMRUDNING KO'KKA OG'G'AN SO'ZLARI

Qora qushlar bolalarin ektuladilar. Ulg'ardi ersa kezin bir sanduq yo'ndurdi, iki qapug'luq-biri ustun, biri ostin. Sekiz azoqlig' to'rti ustun, to'rti ostin. Ustungi azoqlaring'a qora qushlarni bog'latdi. O'zi yoriqi, yashiqi birla o'q olib bir inog'i birla sanduqqa kirdi. Qushlar ustun etni ko'rdilar ersa ani olg'ali uchtilar, sanduqni havog'a ko'tardilar. Bir tun-kun bordilar. Namrud aydi: Ustun qapug'ni ochg'il ne ko'rarsan. Ochti, aydi: Boyaqidek ko'rarman. Aydi: Ostin qapug'ini ochg'il ne ko'rarsan? Ochti, aydi: Yer yuzini qamug' kesak ko'rarman. Yana bir tun-kun bordilar. Aydi: Ustun qapug'ni ochg'il ne ko'rarsan? Ochti, aydi: Yer ko'k netak ko'rinsa andag'-o'q ko'runur, tedi. Taqi kerak, teb yana bir tun-kun bordilar. Ustun qapug'ni ochturdy. Ne ko'runur? tesa, Qamug' bus ko'runur, tedi. Azin borsa ko'runmas, tedi. Ostun qapug'ni ochturdy. Ne ko'runur? tesa, Yema bus ko'runur, tedi. Namrud aydi: Emdi tegdimiz. O'qin olib otti. Yorlig' bo'ldi Jabroilga, o'qin olib baliqg'a sanchib, qong'a bulg'ab sanduqg'a sola bergil. Aning uchun baliq bo'g'uzlanmas temishlar. Taqi havoda bir qush bor erdi. Anda-o'q o'qni aning qoning'a bulg'ab soldi. Ba'zilar aymishlar, o'q indi, Namrud tepasinga tegdi, qong'a bulg'andi. Ani qo'ldoshindin yashurdi. Ko'k tengrisini o'lturdim, teb ustun etlarni ostin bog'ladi. Inarda sanduq ichinga yel kirdi qatig'un qildi. Qamug' xaloyiq ul undin qo'rqdilar, netakkim, Mavlo yorliqadi. Qavluhu taolo. Qad makaru makrahum va inda-

*Ilohi makruh*um. Yondilar: Ko'k tengrisini o'lturdumiz, tedilar. Aymishlar, Namrudning qavmida yuz ming er evrulub Ibrohim yalavochg'a ko'ngulluk erdilar. Namrud kelib ko'k tengrisin o'lturdum, teb qonlig' o'qni ko'rguzsa ul so'zni ko'niga tutub yana kofir bo'ldilar. (44v) Qavluhu taolo. *Yuzillu man yasha'u va yahdi man yash'u*. Ibrohimg'a yorlig' bo'ldi: Borg'il, Namrudg'a ayg'il, sanchishur ko'ngulluk bor ersa cherik anutg'il, teb. Ibrohim kelib yorlig' tegurdi, Namrud ellaringa kishi izdi, cherik yig'ildi soni-saqishi yo'q. Qamug'i boshdin azoqg'a tegi temur qotog'lig'. Mavlo azza va jalladin chibin cherikinga yorlig' bo'ldi, qamug' chibinlar chiqib keldilar, oncha tenglikim, kunning yuzuni tutdilar. Namrud cherikinga yobushdilar, ul silohlarin, to'nlarin, otlarin so'nguklarin tamom tugatu yedilar, kes-kes qildilar. Namrudi la'in qochdi, saroyg'a kirdi, saroyning adizlig'i besh yuz qari edi, tomining tegrasi uch ming besh yuz qari erdi, anga kirdi, qapug'larin berkitdi, tungluklarin tiqdi, o'zi tani chiqg'ug'a bir tishuk qo'zdi. Mavlo taolo bir zaif singar azoqli, singar qanitlig', singar ko'ziuk axsoq chibinga ilhom berdi. Ul teshukdin kirib keldi, Namrudning yang'oqing'a qo'ndi. Yang'oqindin so'rdi, og'zi tegrasidin uchar bo'lub burnunga kirdi, minisinga tegdi, minisin yeyu boshladi, qirq tun-kun yedi. Ka'bul Ahbor rivoyatincha, Mavlo taolo Namrudi la'ing'a to'rt yuz yil mulk berdi. Anda kezin burning'a kirdi, yana to'rt yuz yil anda turdikim qoting'a kirsas to'q qilib ani urdurur erur. Aning birla tinmasa yumruq bila urdurur erdi. Tinnadi, engsalayu boshladilar.

Hikmat. Namrud ul qinlar aning uchun erdikim to'rt yuz yil tengriliq da'vo qildi, xalqlarg'a sajda qildurdi. Qamug' xaloyiqg'a ma'lum bo'lsinkim, muncha tenglik, yumruqlar engsalaringa yegan kim ersa tengriliqg'a netak yarayur, teb aning birla og'rig'i tinnadi, to'puzlar uru boshladilar. Zaif bo'ldi, og'rig'i taqi ortdi, eli kuni emgakka tushdilar. Bir ulug' inog'ig'a to'puz urug'i keziki keldi. Aydi: Men yorin borayin, qamug'ni qutqarayin, tedi. Tonglasi (45r) kun borib to'puz birla ururda ilkin ustunrak ko'turdi, qatig' urdi. Namrudning boshi yorildi. Ul chibin ko'garchkun choqlig' bo'lmish erdi, uchub chiqdi. Jabroil alayhis-salom qanit birla ul saroyni ko'turub yerga chaldi, ostini ustun bo'ldi. Qavluhu taolo.

Fa ata-Ilohu bunyanahum min al-qava'idi fa xarra alayhim as-sahfu. Namrud o'ldi, tamug'g'a ulandi. Yana bir Zul-arsh otlig' malik aning o'runda o'lturdi.

QISSAYI IBROHIM ALAYHIS-SALOM MAA ZUL-ARSH AL-MALIK

Ibrohim alayhis-salom Namrudning qamug' anborlarin oltun-kumushlarin, mol-tovartlarin darvishlarga'asadq berdi. Ul viloyatdin ketdilar, Ibrohim erdi taqi Lut erdi, Sora taqi iki musulmon birga erdilar. Ibrohim alayhis-salom munojot qildi, aydi: Ilohiy qancha borayin? Yorlig' bo'ldi: Qayu singar ko'nglung tilasa borg'il. Bu Zul-arsh malik yigit erdi, xotunlarga' yavloq rag'batlig'. Qayda bir jamollig' xotun bo'lsa o'zunga kelturur erdi. Bu Zul-arsh ibn Saduq al-Hamiriyo'lda soqchilar qo'zub o'nda birisin olur erdi. O'n besh kishi Ibrohimg'a yo'luqdilar, ushr qo'ldilar. Ibrohim aydi: Bizda ushru qo'lg'uteg mol yo'q. O'g'lonlarimiz bor, necha tilasang olg'il. O'g'lonlarin sanadilar to'quz chiqdi, aydilar: O'n bo'lsa birin olg'ay erdimiz. Bu to'quzdin bizg'a narsa tegmas ammo bu sanduq ichinda ne bor ko'raling, tedilar. Sanduqda Sora bor erdi. Xabarda kelmish Rasuldin, alayhis-salom. *Ar'rasad sharru xalifatin (fi al-arzi) ma'nisi ul bo'lur*: Tengri azza va jalla yaratmish narsalarda yo'l saqlab narsa olg'anlardin yovuzroq yo'q. Necha jahd qildilar bo'lmadilar, sanduqni ochdilar, Sorani ko'rdilar, yavloq ko'rkluk. Aydilar: Bizning malikimiz mundog'lami tilayur, sen muni qancha qochurub borursan, teb Ibrohimni kendga kivurub tushurdilar. Malikka borib so'zin aydilar. Malik Sorani ko'rmasin eshitmak birla ko'ngulluk bo'ldi. Hojibqa aydi: Terk ul erni menga keturgil, teb aydi. Hojib bordi, Ibrohimni malikka olib keldi. Malik Ibrohimni ko'rdi, (45v) ko'rkluk, jamollug'. Og'irladi, yoninda o'run berdi, Oting ne? teb so'rdi. Aydi: Otim Abdulloh, tedi. Malik aydi: Sanduq ichinda ne bor? Ibrohim qo'rtqi, mening evlugum tesam anga tama'lig' bo'lur, meni o'lturgaylar teb, mening qarindoshim turur, tedi. Ul ma'ni uza aydikim, mo'min mo'minning qarindoshi bo'lur. Qavluhu taolo. *Immama al-nu'minuna ixvatum*. Malik aydi: Ey Abdulloh, bu kun men Misr malikiman, molim, tovarim telim.

Qarindoshingni menga bersang, tedi. Seni mulk ichinda o'rtog qilurman, tedi. Ibrohim qazg'ulug' bo'ldi, boshin quzi kemishdi. Malik aydi: Ey Abdulloh, neluk so'zlamassan? Aydi: Mening qarindoshim bolig'a turur, dastur andin qo'lmoq kerak. Malik aydi: Sen borg'il dastur qo'lg'il. Ibrohim qo'bt, qazg'ulug' bo'lub Sorag'a keldi. Sora aydi: Ne bo'ldi sanga, qazg'ulug'san, tesa bu so'zlarni qamug' aytu berdi. Sora yig'layu boshladi, aydi: Ey Ibrohim, neluk ko'ni so'zlamading, o'zungni, menima balog'a solding. Ancha so'zlashgincha malik oshuqub iki yuzer birla hojibni izdi. Borg'il ul ermi singli birla manga kelturgil, teb. Ibrohimni Sora birla kelturdi. Sora boshing'a katon chodir o'rtunub kirdi. Malik Ibrohiming'a taxt uza o'run berdi. Sora yema Ibrohim qatinda o'lturdi. Malik aydi: Ey Abdulloh, mening molim, mulkumning nihoyati yo'q, yordisini sanga berayin, tedi. Qarindoshingni manga bergil, tedi. Ibrohim aydi: Mening qarindoshim o'lturub turur, so'zlasun, tedi. Malik Soraga aydi: Mening ming qaraboshim bor, sulton urug'i tururlar. Qamug'in sanga berayin taqi akang'a topug' qilsunlar, sen manga bo'lg'il, tedi. Sora yig'ladi, hech so'zlamadi, malikning o'fkasi keldi, aydi: Ey Abdulloh, sandin uyalib so'zlamas, teb Ibrohimning ilkin tutub chiqardi, bir tom tubinda o'lturdilar. Ibrohim yavloq ko'nichi erdi ko'nchilik ko'ngli Sorag'a mashg'ul bo'ldi ersa, Jabroil keldi qaniti birla Ibrohimni Sorani aroqilarin ketardi. Ibrohim Sorani ko'r'di, ko'ngli to'landi. Malik Sorag'a necha so'zlasa javob bermadi, ilkini yuziga o'rtub yig'lar erdi. Malikning sabri qolmadi, qo'bt, Sora qating'a (46r) keldi, yuzin tilab ilik sundi. Ibrohim aydi: Ilohiy qudratingni bu kofirg'a ko'rguzgil, teb. Malikning iki ilki bo'yunug'a tegi qurudi. Malik aydi: Ey Sora, duo qilg'il iliklarim o'ngalsun, men sanga dastur berayin, tedi. Sora duo qildi, iki ilki o'ngaldi. Yana qasd qildi, iki ilki qurudi. Yana duo qildi ersa yana o'ngaldi. Uch yo'li qurudi. Yer tebradi, zilzila qo'pdi. Malik aydi: Bu ne balo tururkim, sendin manga tegdi. Sora aydi: Mendin ermaz, sani kofirliqindin, taqi kuch tegurganingdin turur. Malik aydi: Men sanga kuch tegurmadim. Sora aydi: Manga kuch qilmading, vale Tengri yalavochoig'a kuch qilding. Malik aydi: Qayu yalavochoig'a kuch tegurdum? Sora aydi: Ibrohim yalavochoig'a kuch tegurdungkim, Namrud aning ilkinda

halok bo'ldi. Malik aydi: Man Ibrohimni hargiz ko'rmishim yo'q, netak kuch tegurdum, tedi. Sora aydi: Bu Ibrohim mening erim turur, meni andin azirding, sanga bu balo, emgak ul sababdin tegdi. Malik aydi: Bu emgak sanga, taqi manga andin tegdikim, seni qarindoshim tedi, xotunum tesa qatilmaz erdim, tedi, Sora aydi: Sening zulmum, kuchung, kofirliqing sababidin aytu bilmadi. Evlugum tesa ani o'lturgay erdung. Malik aydi: Men hech kim ersadin kuch birla narsa olmishim yo'q. Hojibg'a aydi: Borg'il, ul ermi kelturgil. Ibrohimni kelturdi ersa malik qo'pdi, Ibrohimning azoqing'a tushdi, aydi: sen ul Ibrohimmusankim, Namrud aning ilkinda halok bo'ldi? Ibrohim aydi: Menman. Malik aydi: Tengringni sifat qilg'il. Ibrohim aydi: Mening tengrim yeti qat ko'kni, yeti qat yerni yaratg'an, muntahiydin ustun azamati, sarodin ostin qudrati bor. Ulash bor erdi, ulash bo'lg'usi eshi, qo'ldoshi, tengi-to'shi, o'rtog'i yo'q. Kim ersadin tug'madi, kim ersa andin tug'madi. Maxluqg'a mengzamaz. Ne tilasa qildi, taqi ne tilasa qilur. Tirikni o'lturur, o'lukni tirguzur, o'zi o'lmaz. Qamug' aning qudratinda turur, qamug' narsaga Mavlo turur. *Yuhyi va yumitu va huva hayyun lo yamutu bi yadihi alxayru va huva ala kulli shay'in qodirin*. Zul-arsh aydi: Yetmish yil bo'ldi man Zuhra yulduzg'a topunurman (46v) ulashi bu soqinchdaman. Bu adiz ko'kni tirguksiz kim tutar, yag'iz yerni suv uza saqlab, yulduzlarni kim tushurur, kim boturur, kunduzni kim ilatur, tunni kim kelturur. Bu ishlarini qamug' sening tengring qilur ermish. Mening ilkim, bo'yunum quridi, netak qilayin, tedi. Jabroil keldi, yorlig' tegurdi: Zul-arsh qayg'il qamug' molin, tovarin, oltunin, kumushin sanga bersun, men ilkin o'ngaltayin, tedi. Ibrohim alayhis-salom Mavlo yorlug'in tegurdi ersa Zul-arshning Hojar otlig' qaraboshi bor erdi, Mag'rib malikining qizi erdi, Solih yalavochning urug'indin erdi. Aning otasin o'lturub ani bulun keltirmish erdi, qamug' qaraboshiarg'a ani erklik qilmish erdi, molin, tovarin, xazina kalidlarin Ibrohiming'a bergil. Qamug'in berdi, Ibrohim duo qildi, Malikning ilki taqi bo'yni o'zaqitak salomat bo'ldi. Zul-arsh darhol imon kelturdi.

Ashhadu an la ilaha illa-llohu va ashhadu annaka Ibrohimu rasulullohi, teb musulmon bo'ldi. Ibrohim aydi: Ey malik, bu molkim manga berding, men qabul qildim yana sanga bag'ish-

ladim, teb. Hojar qamug'in olib berdi. Ibrohim yeti kun malik Xazzon elinda turdi. Imon va islom o'gratdi. Sakizinch kun Jabroil keldi, yorlig' tegurdi: Ey Ibrohim, Mavlo yorliqar, bu yer saning ermaz, mundin ketgil teb. Manga farmon keldi, teb malikka xabar aydi. Malik aydi: Mening birla turg'il. Misr podshohliqini sanga berayin, taqi sanga qul bo'layin. Ibrohim aydi: Manga dunyo mulki kerakmaz. Malik Hojarg'a aydi: Xazinadin bir toj birla bir oltun qur taqi yuz ming oltun kelturgil. Kelturdilar. Ibrohim o'nginda qo'zdi. Aydi: Qabul qilg'il. Jabroil keldi aydi: Qabul qilg'il. Yana yuz ming teva, yuz ming ot, yuz ming uy, yuz ming inak, yuz ming qo'y, to'rt yuz qarabosh, qamug'i oltun birla qoplog'lig' berdi. Malilik aydi: Ey Sora, bu toj Misrning yeti yilliq xiroji turur. Bu sanga loyiq turur. Jabroil keldi. Ibrohimg'a aydi: Sorag'a ayg'il qabul qilsin. Malik aydi: Bu to'rt yuz qarabosh qamug' maliklar qizi turur, sanga berdim qabul qilg'il. Sora aydi: (47r) Kendu Mavlo azza va jallaning bir zaif kungji tururman. Yana qarabosh manga nega kerak, ammo yolg'uz Hojarni manga bergil. Malik buyurdi, o'n ming oltun taqi ming qo'y, iki yuz teva, iki yuz uy kelturdi, Hojar birla qamug'ini Sorag'a berdilar. Jabroil keldi, aydi: Ey Ibrohim, Sorag'a ayg'il qabul qilsun. Sora qabul qildi. Anda kezin Ibrohim alayhis-salom mol, tovarlarni olib, Sora birla Axzon viloyating'a bordilar. Qayu yerda tushsalar bir yig'ochliq yilqi qora tutar erdi. Ibrohim Urdun yeringa keldi. Olti ming qora evlar ko'rdi, qamug'i yilqi qoralig'lar. Ibrohim Lutg'a aydi: Munda tushgil. Tushdi. Qora ev tikdi. Ibrohim bir quzug' qazdurd. Totlig' suv chiqdi. Ul kishilar aydilar: Bu er telim yilqi qora birla bizning o'tlog'imizni quvartur, muni chiqaraling, bu quzug' bizga qolsun. Mundog' so'zlashurda Zul-arsh malik cheriki birla Misrg'a borur bo'lub ul yerga tushdi ersa uch kishi borib Ibrohimni malikka kelturdilar. Malik Ibrohimni ko'rdi ersa ura qo'pdi. Taxtdin inib o'tru borg'ali o'g'radi ersa Ibrohim aydi: O'lturg'il, teb iliki birla ishorat qildi. Malik o'lturdi. Ul kishilar yukunub malikka aydilar: Tun-kun yilqi qorasi birla kelib o'tlog'imizni, suvlog'imizni quvartur, mundin chiqsun, tedilar. Malik aydi: Sen ne teyursan? Ibrohim aydi: Mun g'aribni ketgil tesa ketayin, tedi. Malik aydi: Men Sizning aro bir hukm qilsam bo'lg'aymu? Bo'lg'ay, tedilar. Malik aydi: Siz o'n

qo'y kelturung, pishurung biz yegalin. Ibrohimma o'n qo'y keltur-sun, pishursun, anima yegaling, qayunguznung oshi birla to'yarmiz, ko'raling, o'lgan qo'ylarni tirguzung. Kim turguzsa bu yer suv anga bo'lsun. Ul kishilar bu so'zga qazg'ulug' bo'ldilar. O'ni oruq qo'y kelturub bo'g'uzladilar, osh qilib evga kivurdilar. Malik cheriki birla ani yedilar. Tekma biringa bir kesak et tegdi. Anda kezin Ibrohim o'z oshin kelturdi. Uch ming yer ani edilar, qamug' to'ydlilar. Ul qo'y oshi andag'-o'q qoldi. Ibrohim (47v) qo'pdi, qo'ylarning terisini ularg'a-o'q kemishti, duo qildi, qamug' qo'ylar tirildi. Malik yer, suvni Ibrohimqa hukm qildi, o'zi uzr qo'lub otlandi. Ibrohim anda qoldi. Ul kishilar Ibrohimg'a hasad qilib, bir tunda o'luk itni kelturub quzug'g'a soldilar. Ibrohim Lutqa aydi: Ketaling. Ibrohimning o'n iki suruk qo'yi bor erdi, tekma bir surukda bir oltun tavqlug' iti bor erdi. Muqaddasa yeringa to'rt yig'ochlig' yer bor erdi, anda borib o'madilar. Bir kun Ibrohimg'a Sora aydi: Men qaridim, sanga xizmat qilg'u kuchum qolmadi. Mening uchun telim emgaklar ko'rdung, bu Hojarni sanga bag'ishladim, sanga bo'lsun, tedi. Aymishlar, Hojar oti aning uchun berildikim, Sora aydi: Mening uchun ko'p emganding muni olg'il, sanga yanub bo'lsin, teb. Arab tilincha *Ho ujraka* tedi, Hojar atandi. Sora Hojarni Ibrohimg'a berdi, Hojar Solih yalavoch urug'indin erdi.

QISSAYI ISMOIL ALAYHIS-SALOM

Ul ya abati if'al ma tu maru satajiduni in sha'a-llohu min assobirina, teb yorlig'g'a bo'yunsung'an, Va fadaynahu biz bihin azimin xil'atin kiygan, Innahu kaana sodiqa al-va'di va kaana rasulan nabiyan zikri birla ma'ruf bo'lg'an, Mavlo yorliqing'a inqiyod qilib, aziz jondin kechib, o'zini qurbon qilg'an Ismoil alayhis-salom.

Sofy Ismoil yalavoch ko'ngli to'lug' qad safo.

Sodiq ul-va'd atanibon va'dasin qildi vafo,

Tepti yerga iki azoqin, topti yerda bir quzug',

Buldi zamzarning suvini, bo'ldi illatg'a shifo.

Ka'baning toshin tashib qurbon qilg'an ul Zabih,
Tegrasinda tog' tanuqlar Marva erdi ham Safo.
Xalq aro ortuq bag'irsoq erdi Mavlog'a muti',
O'zgalarga vofiy erkan, o'ziga tegdi jafso.
Tug'maduuq erdi onadin tug'di yolg'uz bir o'g'ul.
Tug'madi andin yalavoch yolg'uz erdi Mustafo.

Sora raziyallohu anho to'qson yashamish erdi, o'g'ul-qizi bo'lmadi. Ibrohim alinda Muhammad Mustafoning nuri bor erdi, Sorag'a va'da qilmish erdi: Bu nur sendin bo'lg'an o'g'long'a teggay, teb. Qachon Ibrohim Hojarg'a qovushti ersa ul nur Hojar rahming'a (48r) bordi. Sora ko'rdi ul nur Ibrohimdin ketmish, o'fkasi keldi. Ul nurdin umidsiz qolmishiga qatig' kunilab, Ibrohimning yaqosin tutdi. Erming yaqosin eng ilk Sora tutdi. Odamdin to'g'oyat hech zillat tutmish yo'q erdi. Jabroil keldi, aydi: Ey Ibrohim, Sorag'a ayyg'il sabr qilsun. Sora aydi: Netak sabr qilayin, sekson yil bo'ldi meni bu umid uza tutar erding. Bu kun ul va'dang mening qoraboshing'a tegdi. Ibrohimning Sora birla tirikligi aynadi. Sora ont ichti, Hojarning uch andomini ma'yub qilg'ayman, teb. Bir kun, Hojar inak sog'arda kelib Hojarning burnin, quloqin keskali o'g'radi ersa Hojar faryod qildi. Jabroil keldi Ibrohimqa aydi: Ayyg'il Sora Hojarg'a kuch qilmasun. Tengri azza va jalla kuch qilg'anlarini sevmaz. Sora aydi: Netak qilayin men uch narsasin kesgayman, teb ont ichibman. Jabroil aydi: Ayyg'il Sorag'a iki quloqin tilsun taqi uyat andomini xatna qilsun, taqi ondin chiqsun. Sora iki quloqin tilmadi, ma'yub bo'lg'ay teb, xatna qildi, erga yaramag'ay, teb. Jabroilg'a yorlig' bo'ldi. Uchmog'din iki oltun isirg'a kelturdi. Hojarning qulog'ing'a suqdi, ko'rki ortuqroq bo'ldi. Xatna qildi ersa erga taqi sevukrak bo'ldi. Avratlarga xatna qilmoq Hojardin qoldi.

Ba'zi rivoyatlarda kelmish, Ismoil Hojardin mundag'-o'q tug'di. Yana azin rivoyatda andog' kelurkim, qachon Hojarning oyi-kuni yovushdi ersa Sora azin sabr qilumadi, Ibrohimqa aydi: Hojarni mundin ketargil, men ko'rmayin, tedi. Jabroil keldi. Ketargil, tedi. Ibrohim iki teva kelturdi, biringa Hojarni mundurdi, birina o'zi mundi. Tebradilar. Sora Ibrohimqa andog' aydi: Mening

kabinim ul turur, uch ish qilg'il. Bir ulkim Hojarni el yo'q, kishi yo'q yerda qo'zg'il, ikinch, tevadin immagil, (48v) uchunchi, kecha qo'nmag'il. Bu uch ishga ont berdi. Ibrohim ont ichti. Muqaddasa yerindin chiqdi. Muqaddasadin Makkaga tegi bir oyliy' yer turur. Mavlo taolo yerning tamurin torturdi. Bir kunda yetdilar. Kishisiz o't, suvsiz yerda qo'zdi. Netakkim Mavlo taolo yorliqar. Qavluhu taolo. *Rabbana inni askantu min zurriyyati bivadin g'ayri zi zar'in inda baytika al-muharram.* Onchada Makka yo'q erdi, Bayt ul-ma'mur bor erdi. Ibrohim Hojarni qo'zub yondi, bir ancha ozuq, ichku suv qo'zub ketdi. Qach kunda kezin Hojar o'g'ul topdi, oy, kundin ko'rklukrak, Mustafoning nuri alinda. Hojarning suvi tugandi, o'g'ulni qo'ndaqlab tikib qo'zdi. Safo tog'indin un eshitdi. Ush suv, teb, Marva tog'indin un eshitdi, ush suv, teb. Anda bordi suv ko'rmadi, munda keldi suv ko'rmadi. Yeti yo'li mundog' un keldi. Safodin Marvag'a, Marvadin Safog'a yugurdi, suv bulmadi, ojiz bo'ldi. Ul yugurmak bu kun hojilarga sunnat qoldi. Ul holda Hojar Tengrig'a *Isma'ya ilu* teyu munojot qildi. Il suryoniy tilincha tengrining oti turur. Iziyo eshitgil, temak bo'lur, ul yo'ldin Ismoil ot berildi. Ismoil yig'layur turur erdi, unin eshitdi, yetib keldi. Ko'rar, Ismoil evrulub yuzin tushmish. Iki azoqin yerga tepar, tepgan yerda Jabroil qaniti birla urub yerni o'ngdi, suv chiqardi. Bu kun Zamzam quzug'ul turur. Ul suv oqib chiqar erdi, Hojar kelib suv oqarin ko'rub sevunmishda suv tuganmasun, teb tosh, qumni tegrasing'a yig'di. Ul kun Hojar suv yig'masa erdi bu kun Makkada bir ariq suv bo'lg'ay erdi. Ismoil barakotinda bir kun Mu'tafikot yerindin Banu Jarham otlig' arqish Shom viloyatinga Makka yerindin kechar bo'ldilar. Uchar, yugurur qurt, qushlar ko'rdilar ersa iz izaru bordilar. Ismoilni ko'rdilar, yavloq ko'rkluk onasi birla o'lturur. Taqi suv ko'rdilar. Hojarg'a so'rdilar: Bu quzug' kimung turur? Bu o'g'lonning turur. Ug'lon kimung turur? Aydi: Ibrohimning. Aydilar: Ibrohim kim bo'lur? Aydi: Ulkim Namrud aning ilkinda halok bo'ldi. Bular biri biringa aydilar: Bizning yer, yurtimiz yarog'siz, kishilarimiz arig'siz turur, ko'chub bu yerga kelaling, temishlar. Hojarg'a aydilar: Sen munda yolg'uzsan, Ismoilma yolg'uz turur, tilasang biz munda kelaling. Yil sayu yilqi qoradin, mol, tovardin o'nda biri bu o'g'long'a beraling, tedilar. Hojarna

qabul qildi. Bu soʻzga chakki bitik qildilar. Anda kezin evlarin, ellarin koʻchurub keldilar. Maliklarining oti Hanifa ibn Sumanda al-Xurhumiy erdi. Uch ming besh yuz evluk kishi kelib Makkada oʻrnadilar. Ev bino qildilar, bozor qoʻpordilar. Yil tugandi ersa mol, tovarning oʻnda birin chiqardilar. Iki ming qoʻy, uch ming teva, yetti ming uy boʻldi. Qamugʻin Ismoilgʻa berdilar. Yil sayu mundogʻ qilur erdilar. Ismoilning yilqi qorasi ukush boʻldi. Yigirma bir yashadi ersa Ammora otligʻ qiz berdilar.

Bir kun Ismoil ovgʻa bormish erdi, Ibrohim Ismoilni koʻra keldi. Sora Ibrohimgʻa ont berdi tevadin inmagil, teb. Ibrohim kelib Ismoilning evin soʻrdi, aytu berdilar. Qapugʻingʻa keldi undadi, kelin oʻlturur. Ismoil qayda tesa Ovgʻa bordi, tedi. Qachon kelur, tesa Nima koʻb soʻzluk kishi ermasmu, tedi. Ibrohim aydi: Ismoil kelsa mundogʻ sifatligʻ kishi kelmish erdi sanga salom aydi tegil. Taqi qapugʻung eshigi yarogʻsiz turur, azin eshik ursun tedi tegaysan, teb bordi. Ismoil kelmishda bu soʻzlarni aytu berdi. Ismoil aydi: Ul otam turur, san ani ogʻirlamamishsan. Evung eshigin ketargil tedigi seni aymish. Emdi sen manga hojat ermazsan, teb taloq berdi. Bir yilda kezin Banu Xurhum ulugʻining qizi Sayyida binti Massos al-Xurhumiy qizini qoʻldi. Ismoil gʻoyat ovgʻa oʻch erdi. Yana ovga chiqmishda Ibrohim keldi yana Sayyidagʻa soʻrdi. Ovgʻa borur, tedi. Kelgincha tushung osh boʻgʻuz qilayin, tedi. Ibrohim aydi: Mening ondim bor, tusha bilmazman, tedi. Pishigʻ osh bormu, tesa (49v) oq teva aryoni chiqaru berdi. Ibrohim ichdi, taqi aydi: Tengri yilqi qoralaringizgʻa barakot bersun, teb duo qildi. Ul viloyatda teva telim boʻlur. Rasul yorliqadi: ul kun Ismoil evluki etmak bermish boʻlsa erdi, Ibrohim duosi barakotinda bu kun Makkada oshliq uchuz boʻlgʻay erdi. Yana aydi: Tevadin tushung, soch saqolingizni yuvu berayin, tedi. Ibrohim aydi: Tevadin inib boʻlmas ont ichibman, tedi. Ul yerda bir ulugʻ tosh bor erdi. Aydi: Singar azoqingizni bu tosh uza qoʻzung, soch saqolingizni yuvayin tedi. Ibrohim sogʻ azoqin tosh uza qoʻzdi, soʻl azoqin teva uzasinda toshgʻa oshib, bir singar soch saqolin yuvdi. Yana bir azoqin qoʻydi ani ham yuvdi. Anda kezin Ibrohim aydi: Ismoil kelsa aygʻil Ibrohim sanga koʻp salom aydi, taqi bu eshikni berk tutgʻil teb aydi tegil. Ismoil kelmishda Sayyida salom tegurdi. Taqi qamugʻ

soʻzlarni aytu berdi. Ismoil aydi: Ul maning otam turur. Ul eshik teyu seni aymish.

QISSAYI ZABIH ISMOIL ALAYHIS-SALOM

Ulamolar arosinda ixtilof bor. Zabih Ismoilu yo Isʻhoqmu? Arab qamugʻi aytur zabih Ismoil turur. Arab qamugʻi Ismoil urugʻi turur. Juhudlar Tavrotida xabar berurlarkim, zabih Isʻhoq turur. Aning uchunkim juhudlar, tarsolar Isʻhoq urugʻindin tururlar. Baʼzilar aymishlar ikisi zabih tururlar. Bir yoʻli Ismoil erdi, bir yoʻli Isʻhoq tamassuk qilurlar. Bu hadisga Rasul yorliqadi: *Ana ibnu zabihayni*. Maʼnisi ul boʻlur, iki boʻgʻuzlanmishning oʻgʻliman. Mundin murod Ismoil, taqi Isʻhoq turur temishlar: Savol: Mustafo alayhis-salom Ismoilin turur, Isʻhoqdin ermaz. Iki boʻgʻuzlanmishning oʻgʻliman temak netak boʻlur? Javob: Arabning odati bor, ammani ota teyurlar. Ulamolarda birisi aytur: agar Ismoil zabih erdi teb uch taloq ont ichsa evlugi taloq boʻlmagʻay, aning uchunkim Alloh talo Qurʻon ichinda Ismoil qurbon qilinmish qissasin tamom qilinmishda xabar berur, yorliqar: Qavlulu taolo. *Va bashsharnahu bi Isʻhaqa nabiyyan min as-solihina*. Ammo durustrak qavl ul tururkim *ana ibnu zabihayni* (50r) din murod biri Ismoil turur, yana biri otasi Abdulloh turur. Xabarda kelur, Mustafo alayhis-salomning ulugʻ otasi Abdul Mutallib vaqtinda Zamzam quzugʻi qurudi. Tengri azza va jalla birla nazr qildi: Tengri azza va, jalla suv bersa bir oʻgʻlumni qurbon qilgʻayman, tedi. Ammo ulamolar aymishlar, Abdul Mutallib nazr qildi. Izi azza va jalla menga oʻn oʻgʻul bersa qamugʻ soz, silah olib toʻqush kuni maning oʻngumda tursalar. Ani koʻrsam birin qurbon qilgʻayman, tedi. Ul kun Abdul Mutallibning toʻqquz oʻgʻli bor erdi: Xoris, Abu Lahab, Abbos, Hazzor, Hamza, Muqaddam, Jahl, Zubayr, Abu Tolib. Qamugʻlari bir onadin. Oʻnunchi Abdulloh tugʻdi azin onadin. Qamugʻdin Abdullohni ortugʻroq sevar erdi. Qurʻa soldurdi, qayungiz otingʻa chiqsa ani qurbon qilayin teb. Qurʻa Abdulloh otingʻa chiqdi, Abdul Mutallib pichoq eldi, qurbon qilgʻali Abdullohgʻa oʻgʻradi. Abdullohning onasi qarindoshi bor erdi Yotur Mahzum otligʻ. Ularning soʻzlari

Makkada yurir erdi. Shom viloyatida bir fol ochquchi bor erdi. Anga kishi iza bering, ulma hukm bersa aning so'zicha qiling, tedilar. Borib so'rdilar ersa Abdullohni turg'uzung, taqi o'n teva turg'uzung qur'a soling. Teva oting'a chiqsa tevani qurbon qiling, Abdulloh qolsun. Abdulloh oting'a chiqsa yana o'n teva orturung, qur'a soling. Bu tariq birla o'nar o'nar orturung, qur'a soling. Teva otinga chiqg'uncha andoq qildilar. Teva yuzga tegdi ersa onchada teva oting'a chiqdi, yuz tevani qurbon qildilar. Abdulloh qoldi. Bu kun shari'atda er bahosi yuz teva andin qoldi. Rasul alayhis-salomning *inni ibnu zabihayni* temishi bu turur.

Rivoyat qilurlar: Ibrohim tush ko'rmishda aydilar: Ko'pqil, qurbon qilg'il. Ibrohim tong birla qo'pdi yuz qo'y kelturdi, qurbon qildi. Ikinchi kecha yana tush ko'rdi. *Ya Ibrohimu qum va qarrib al-qurbana* Ibrohim (50v) tong birla qo'pdi yuz teva qurbon qildi. Uchunchi kecha yana tush ko'rdi. *Kum va qarrib al-qurbana*. Ibrohim aydi: Mening qurbonim ne turur? Neni qurbon qilayin? Aydilar: Bizdin azin kimni sevdung ersa ani qurbon qilg'il. *Izbah valadaka*. Bildikim Ismoilni qurbon qilg'u. Yorindasi Hojarg'a aydi: "Bir aziz do'stum bor, bu o'g'ulni tillayu turur kelturgil ko'rayin, teb, Emdi Ismoilni boshini, sochini yuvg'il, anda eltayin, tedi. Hojar Ismoilni yuvdi, sochini taradi. Arig'to'nlar kizdurdi ersa Ismoil g'oyat ko'rkluklandi. Onasi Ismoilning yuzinga boqdi, aydi: Oytek yuzin, kuntek ko'rkin, qalamtek ko'zin, o'qtek kirpukin, aqiqtek erinlarin, yinjutek tishlarin, pistatek og'zin, qizil mengizin, silig' yuzin, bo'ynin quchub, o'pub aydi: Bayt:

*Ey ko'nglum ovunchasi, o'g'rab yiroqg'a bormag'il,
Yarliqqa yolg'uz onangni bag'rini o'rtamag'il.
Ushbu ketmakdin o'lmakinni tilar ersang sano,
Men o'ngungda o'layin sen ichimni yondurmag'il.*

Ibrohim yip oldi, pichoq birla yenginga suqdi, tog'g'a boru boshladi. Hojar aydi: Qo'yg'a borurman teyursan yipni taqi pichoqni ne qilursan? Ibrohim aydi: Qo'y olib kelurman yo kelmazman, tedi. Tengri taolo tilinda qo'y yurutdi ersa uimohdin qo'y keldi, Ismoil qurtuldi. Ibrohim yuridi, Ismoilg'a aydi: So'ngumcha kelgil,

tedi. Ismoil Ibrohimning so'ngidin boru boshladi. Iblisning sabri qolmadi, o'zini odamiytek qilib Ismoilg'a keldi, aydi: Otang seni qancha eltur bilurmusen? Aydi: Do'stunga elta turur. Iblis aydi. Seni qurbon qilmoqg'a elta turur. Ismoil aydi: Qayu ota o'g'lini qurbon qilmishi bor? Aydi: Tengri yorlig'i birla qurbon qilurman, teyur. Ismoil aydi: Tengri yorlig'i bo'lmish bo'lsa ming jonim bo'lsa fido qildim, teb rizo berdi. Iblis aydi: Bu o'g'lonni ega bilmadim, Hojarg'a borayin, teb bordi. Bayt:

*Suvda turg'an ot bolasi necha bo'lsa ul kichik,
Keng tengizning suvi ani eltumas. (51r)*

Avratlar zaifroq bo'lur, teb Hojarg'a keldi. Ibrohim Ismoilni qancha eltur bilurmusan? Aydi: Do'stunga eltur. Iblis aydi: Qurbon qilg'ali eltur. Hojar aydi: Qayu ota o'g'ulni qurbon qilmishi bor? Iblis aydi: Tengri farmonladi. Hojar aydi: Ey ahmoq, Tengri yorlig'i bo'lsa hazor jon fido bo'lsun, tedi, Iblis navmid bo'lub yana Ismoil tepa keldi, vasvasa qilu boshladi. Ismoil otasini undadi aydi: Bir pir kelib meni fusus tutur. Ibrohim aydi: Ul shayton turur, tosh tashlagil ketsun, tedi. Ismoil yeti tosh olib otdi. Ul yerda tosh otmoq hojilarg'a sunnat qoldi. Ibrohim yeti tosh olib otdi, boshiga oshdi. Pichoqni toshg'a chaldi, yig'layu og'oz qildi! Ismoil aydi: Neluk yig'layursen? Ibrohim aydi: Ey o'g'lum seni tushumda bo'g'uzlayur ko'raman. Qavluhu taolo. *Ya unayya inni aro fi al-manami anni azbahuka fanzur maza taro*. Ismoil aydi: Ey ota, Mavlo do'stluqin da'vo qilursan. Mavlo do'stluqin da'voli qilur kishi uzirnu bo'lur! Uzimasang bu tushni ko'rmagay erding. Yana aydi: *A ma sami'ta ma avha-lloh ta'ala ila ba'zi anbiya'ih* kayfa man ilda'a mahabbati iza jannahu al-laylu tanamu aynahu.

*Sevuk sevdung ersa uzog'tur mudom,
Sevuk sevgan erga uzimoq harom.
Er ersang uzun tun tilagil tamom,
Telimlar tilak tunla topdi tamom.*

Ismoil aydi: Izi yorlig'i netak ersa andog' qilg'il. Sen o'g'lindin kechding ersa, menma jonimdin kechdim, ishga buyurg'il, tedi. Qavluhu taolo, *Ya abati if'al ma tu'mar*.

Ibrohim aydi: Ey o'g'lum, netak sabr qilg'aysan? Izi azza va jalla tilasa meni sobirlardim qilg'ay, tedi. Qavluhu taolo. *Satajiduni insha'llohu min as-sobirina*. Yana aydi: Ey ota, evda neluk manga xabar qilmading, onamning azoqing'a tushub, uzr qilib, sevuk diydorin ko'rub qolg'ay erdim. Ammo uch vasiyatim turur, biri ulkim, mening (51v) ilkim, azoqimni berk bog'lag'il, pichoq og'rig'inda talpunub to'nunguzg'a qon tegmasun. Ikinchi, yuzumni quzi qilg'aysiz. Yuzumni ko'rub otaliq shafqati tebrashib pichoq tutmoqda taqsir bo'lmasun. Uchunchi ko'nglakim birla sochimni onamg'a qumartg'u ola bering. Anda kezin Ibrohim Ismoilning ilkin, azoqin bog'ladi, yuzin tuproqg'a kemishti. Qavluhu taolo. *Fa lamma aslama va tallahu liljabini*. Pichoqni bo'g'uzing'a urdi, kuchi borincha tortdi, kesmadi. Necha hiyla qildi, kesmadi. Ba'zilar aymishlar, Ismoilni Ibrohim bog'layur erdi pichoqni tortarda Ismoil kuldi, Ibrohim aydi: Ne uchun kularsen, tesa pichoq uza *Bismillohir rahmonir rahim* bitiklik ko'tarman. Ey ota, sevunch sanga pichoq uza Tengri oti bitiklik bo'lsa bo'g'uzum netak kesar, tedi. Ba'zilar aymishlar: Pichoqni Ismoil bo'g'uzing'a urmasdin burun Jabroilg'a farmon bo'ldi: *Adrik abdi*. Tark yetgil, pichoqning yuzin evurg'il. Sidradin qanit to'qib inib evurdi. Yeti yo'li pichoqni tortdi, o'tmadi. Qahr qilib pichoqni yerga chaldi, pichoqdin un keldi: Ey Xalil, sen kesgil teyursan, Jalil kesma teyur. Mundag'o'q qachon qiyomat kuni bo'lsa *Omanno bihi va saddaqqo* Muhammad ummatini tamug'g'a kiyurmazlar. Tamug' o'ti ularni kuyurmagay. Molik ayg'ay: Neluk kuyurmassan? O't ayg'ay: Ey Molik sen kuyur teyursan, ammo Malik ul-muluk aytur: kuyurmagil. Ul holda yeti qat ko'k qapug'lari ochildi. Farishtalar nazzorag'a to'ruqtillar taqi yig'lashtilar, arsh birla ko'k irg'andi. Taqi bir rivoyatda andog' kelur: Farishtalar munojot qildilar, aydilar: Ilohiy lavhul mahfuzda ko'ramiz oxiruz-zamon payg'ambari Ismoil urug'indin bo'lg'ay teb. Ul Muhammadning haqqi hurmati bu ota o'g'ulg'a farah bergil. Havodin un eshitildi: Ey Ibrohim, tushungni kuniga chiqarding. Qavluhu taolo. *Va nadaynahu an ya Ibrohimu qad saddaqa ar-ru'ya*. Sen so'zunga yetting, bizma yanutin berdimiz. Qavluhu taolo. *Inna kazalika najzi al-muhsinina*. Ul jazo bu turur. (52r) Bu qo'chni olg'il, qurbon qilg'il. O'g'lung salomat

qolsun! Qavluhu taolo. *Va fadaynahu bizibhin azimin*. Jabroildin un eshitildi: Allohu akbar, *Allohu akbaru*. Ibrohim yuqoru boqdi, Jabroil ko'rdi, bir qo'ch olib kelur. Sevinmishda aydi: *La ilaha illollohu Allohu akbaru*. Ismoilqa aytdi: Ko'rgil, Mavlo azza va jalla meni va seni bu emgakdin qutqardi. Ismoil boqdi, qo'chni ko'rdi, aydi: *Allohu akbaru va li-llahi al-hamdu*. Xabarda kelur, kim iyd kuni bu takbimi aysa Jabroil Aminning, Ibrohim Xalilning, Ismoil Zabihning shafotatin ro'zi qilg'ay. Aymishlar: Ul qo'chqor Hobil qurboni erdi, ujmohda semuz turur erdi, Ismoil uchun. Savol, Otamu juvonmard, o'g'ulmu? Ba'zilar aymishlar, Ota juvonmard, aning uchunkim, o'g'ul achig'i qatig' turur. Ba'zilar aymishlar: O'g'ul juvonmard, aning uchunki, ota o'g'uldin kechdi, o'g'ul iondin kechdi. Jon iyoldin azizroq turur. Taqi aymishlar: Ismoil qurbon qilinsa Mavlog'a ulanur erdi, ammo Ibrohim o'lg'incha aning firoqinda bo'lur erdi. Taqi aymishlar, Ibrohim juvonmard aning uchunkim, qurbon xitobi Ibrohimg'a keldi, Ismoilg'a kelmadi. Taqi aymishlar, Ismoil qurbon qilinsa qiyomatqa tegi bu sunnat mo'minlarga vojib bo'lg'ay erdi. Ismoil bo'g'uzlamadi ersa mo'minlarga rahmat bo'ldi. Savol: Pichoq Ismoilg'a erdi Ibrohim neluk yig'ladi? Javob: Ibrohim foniy do'stdin azrilur erdi. Ismoil foniy do'stdin azrilib, boqiy do'stg'a ulanur erdi. Javobi digar: Ismoilni qurbon qilturda Mavlo taolo nurlarda bir nurmi Ismoilqa ko'rguzdi. Ul nuri xushluqinda pichoq og'rig'in bilmadi. Netakkim, Misr xotunlari Yusuf jamolining nuri xushluqinda iliklarin kesdi, tuymadilar. Mo'minlar yema andag'o'q. Ular ul holda ma'rifat nurini ko'rguzub, o'z salomin izg'ay. Aning xushluqinda mo'minlar o'ng'aylik birla jon bergaylar. (52v) *In shallohu taolo, Allohmma havvin aylayno-sakratali-mavti*.

QISSAYI BINOYI KA'BA

Ul Ka'ba yerinda Odami Safiy Bayt ul-ma'mumi bino qildi, Nuh payg'ambar ro'zgoringa tegi turdi. Anga ziyorat qitur erdilar. Qachon to'fon vaqti bo'ldi ersa, azob suvi tegmasun, teb Mavlo yorlig'i birla Jabroil Bayt ul-ma'mumi ko'turdi, to'rtunch qat ko'kda o'rnatdi. Ul

ev andozasicha tog' Shom viloyatindin kelturub, Bayt ul-ma'mur o'rinda ko'zdi. Ibrohim asring'a tegi turur erdi. Yorlig' bo'ldi Ibrohimga, Bayt ul-ma'mur o'rinda Ka'ba bino qilg'il, teb. Aydi: Ilohiy ul yer qayu turur bilmassen. Aymishlar: Ul tog' o'rindin qo'pdi. Jabroil aydi: O'sh bino qilg'il. Taqi aymishlar, Tengri taolo Ka'ba o'rmincha bir kesak bulut izdi. Ul yerga ko'lka qildi, ul ko'lkaga tenglayu Ka'ba qildi. Nuh payg'ambar kemisining taxtasi birla saqfni o'rti. Ba'zilar aymishlar: Bir yilon kelib ul yerda quvrulub yotdi, al andoza birla Ka'bani bino qildi. Taqi aymishlar: Un eshitildi: Ey Ibrohim, besh tog'din tosh kelturub, aning birla bino qilg'il: Turi Sino, Turi Zino, Xiro, Libnon, Jady. Savol: Makkada tosh telim erdi, besh tog'din tosh kelturmakda ne hikmat bor erdi? Javob: Mavlo taolo yorliqar, kim bu evga yuz evrub besh namoz qilsa yoxud munga tavof qilsa bu besh ulug'tog'lar og'irilig'incha yozuqi bo'lsa qamug'in yorliqag'ayman, qamug'ayblarini kechurgayman. Jabroil tosh kesdi, farishtalar yori berdi, yo'nushdilar. Ismoil teshti. Toshni kesgach, Jabroil Ismoilni farmon birla tosh uza qo'zar erdi. Tosh yo'rg'a otdak elib Ibrohimqa kelur erdi. Qayu tosh irik bo'lub yarog'siz bo'lsa Ibrohim ilki yetgach ruxomtek bo'lur erdi. To'rt bulungda to'rt kalima aytib toshni qo'zdi. Avvalida: *Subhanallohi*, tedi, ikkinchi mungushinda:

Valhamdu lillahi, tedi. Uchunchida: *La iloha illallahu*, tedi. To'rtunchi: *Allohu akbar*, tedi. Rasul alayhissalom yorliqadi. *Kalimatani xaffatani ala al-lisoni saqilatani fi al-mizani* inda *al-maliki ar-rahmani va tilka al-kalimatu subhana-llohi va bihamdih* (53r) *subhana-llohi al-azim. Ziyadatu ad-dunya nuqsanu al-axirati va nuqsanu ad-dunya ziyadatu al-axirati.*

Ma'nisi ul bo'lur: Iki so'z bor til uza yungul, qiyomat kuninda tarozug'a og'ir, Mavlo hazratinda sevukluk. Ul ikisi bu turur. Savol: Tilg'a yungullukni netak turur? Tarozug'a og'irliqi netak turur? Javob: Dunyo holi oxirat holig'a mengzamaz. Dunyo ortuqluqi oxirat o'ksuklugi turur. Mundag'o'q dunyo og'irliqi oxirat yungulluki, dunyo yungulluki oxirat og'irliqi. Bu kun tilga yungulluk berdi, zamonda tasbih va tahil etsang ko'z yumub ochg'uncha Arshg'a og'ar. Ush til yungulluki yana dunyo og'irliqini qadamg'a berdi. Uzun kun yursang iki yig'ochdin ortuq yurmassen, ush qadam og'irliqi.

Ammo yorin ishlar tetru bo'lur. Qadam og'irliqini tilg'a berurlar, til yungullukni qadamg'a berurlar. Ko'z yumub ochg'uncha uch ming yillik Sirotindin kechar. Yo qadam og'irliqin tilga berurlar. Mo'minning toatini tarozuning bir pallasina urulg'ay, yozuqlari ortuq kelgay. Yeti qat ko'kni, yeti qat yerni toat pallasing'a urg'aylar, yozuqlari ortuq kelgay. Ul holda havodind bir kesak kog'az ucha kelgay. Toat pallasiga qo'ng'ay. Ul qamug' toatlardind yeti qat ko'kdin yeti qat yerdind bu kog'az ortuq kelgay. Ul kog'azni ochib ko'rsalar bu kalima bitiklik bo'lg'ay *Subhana-llohi va bihamdih, subhana-llohi al-azi.* O'sh qadam og'irliqi tilga berilgani bu turur. Qachon Ka'ba tamom bo'ldi ersa Ibrohim aydi: Iziyo, bizdin qabul qilg'il, eshitikli sensan, bilikli sensan. *Rabbana taqabbal minna innaka anta assami ual-alim.* Yana duo qildi: Bizning o'g'lonlarimizdin bir yalavoch chiqarg'il. Sening kalomungni ularg'a o'qisun, kitobungni, hikmatungni ularga o'gratsun, yozuqlarind aritu bersun, azizens, hakimsen. Qavluhu taolo. (53v) *Rabbana vab'as fihim rasulan minhum yatlu alayhim ayatika va yuallimuhum al-kitaba va al-hikmata va yuzakkihim innaka anta al-azizu al-hakimu.* Xabarda kelur, Muhammad Mustafo alayhis-salom. *Ana da'vatu abi Ibrohima va basharatu Bisa va ru'ya ummi Amina.* Jabroil keldi yorliq tegurdi: Ey Ibrohim, xalqni haiqa o'qig'il. Qavluhu taolo. *Va azzin fi an-nasi bilhajji.* Ibrohim aydi: Ilohiy qayu birisin o'qayin, xaloyiq ko'p, men zaif. Yorlig' keldi: Sendin o'qimoq, mendin eshitturmak. Ibrohim Bu Qubays tog'ing'a og'di, un qildi. *Va ayyuhannas inna-lloha ta'ala bana lakum baytan va amaraqum an tahujuhu fa hajjuhu.* Xaloiqlar ota o'ngurqasindin, ona rahmindin. Mo'minina mo'minot javob aydilar. *Labbayka-llohumma labbayka la sharika laka labbayka inna al-hamda va an-ni'mata va al-mulka laka la sharika laka:*

Kim ul kun javob aydi ersa, nechama chig'oy ersa haj o'tag'ay, taqi kim javob aymadi ersa nechama kuchluk bo'lsun haj o'tamagay.

QISSAYI VALODATI IS'HOQ ALAYHIS-SALOM

Sora yuz o'tuz yashamishda kezin Jabroil bashorat kelturdi. Qavluhu taolo. *Va bashsharnahu bi Is'hoqa nabiyyan tashrifin*

bulg'an, va bashsharnaha bi-Is'haqa va min varai Is'haqa Ya'quba xil'atin kizgan, va vahabna lahu Is'haqa va Ya'quba nafilatan va kullan ja'lana solihina xitobi birla musharraf bo'lg'an Is'hoq yalavoch alayhis-salom

Ibrohimning o'g'li erdi Is'hoq yalavoch Mavlo sovchisi,

Ming yalavoch tug'di andin barchaning ul boshchisi.

Haqqa doiy, xalqqa roiy ham bashiru ham nazir,

Din shariat o'granikli ujmohting ham yo'ichisi.

Ul umanch keshmishda so'ng bo'lub mubashshir Jabroil,

Haq bashorat birla bergan Soraning o'g'lonchasi.

Ul Zabihulloh inisi egiz o'g'long'a ota,

Sekiz o'g'lon orasinda sanasang ikilanchisi.

Din shariat tutsununi otlanib ko'ndurguga,

Mavlo bermish erdi ilkinda risolat tamg'asi.

Sora yuz yashab o'g'uldin uminchsiz ko'ngul keshmish erdi. Jabroil Lut (54r) bo'zunini halok qilg'alu kelmishda Ibrohim yalavochqa qo'nuq bo'lub, Soradin Is'hoq otlig' o'g'lung bo'lur, teb bashorat berdi. Qavluhu taolo. *Fa bashsharnahu big'ulamin halimin.* Ul so'zlar so'ngra Lut qissasinda kelgay. Jabroil bashorat bermishdin yeti kundan so'ng Sora so'ngukinda Is'hoq bilgurdi. To'quz oyda kezin Is'hoq tug'di. Ul kecha ming yulduz ko'kdin inib, Ibrohimning evi tegrasinda yig'ildi. Ibrohim munojot qildi: Iziyo bu ne alomat turur? Yorlig' keldi: Ey Ibrohim, bu Is'hoq otlig' o'g'lungdin ming yalavoch bo'lg'usi.

Sevinmishda Iziqa shukr qildi, yana aydi: Is'hoqg'a bu karomat berding, Ismoilg'a ne berursan? Yorlig' keldi: Ey Ibrohim, Ismoilni menga topshurg'il. Orqasindin bir yalavoch izg'ayman Muhammad rasululloh otlig'. Agar ul yalavoch bo'lmasa yuz ming yigirmi to'rt ming yalavochlar, sanma bo'lmag'ay erding. Qamug'ini aning sevuklugi uchun yaratdim. Ibrohim sevundi, Hojarg'a xabar berdi, Sora shod bo'ldi, Iziqa shukr qildilar. Telim mollar berdilar, sadaqa qildilar. Ibrohim ming qo'y, yuz uy, yuz teva qurbon qildi. Is'hoq ulg'ardi ersa Ilyos o'g'li Batvilning Ruq'a otlig' qizini qo'ldi. Bu Ruq'adin iki o'g'ul bo'ldi, egiz.

Ulug'i Ayaz otlig', kichigi Ya'qub otlig'. Bu Ya'qub Ayazning azoqi o'kchasin tuta tug'di, aning uchun Ya'qub atadilar. Is'hoq yalavochning ko'zlari ko'rmas erdi. Ayaz ulg'ardi ersa ovchiliq qilur erdi. Otasi Ayazni ortuq sevar erdi. Kunlarda bir kun otasi Ayazg'a aydi: Kizikning so'klunjin ko'nglum tilar. Qachon keltursang yemishda kezin sanga yalavochliq duosin qilayin, tedi. Ayaz ovq'a bordi. Aymishlar: Jumlaning duosi mustajob erdi, ul duoni xos o'g'lonlari haqinda qilur erdi. Ya'qubning onasi ortuqroq sevar erdi. Ul so'zni eshitdi, bir qo'y bo'g'uzladi, terisin Ya'qubg'a kizdurdi. Aning uchunkim Ayaz yavloq tukluk erdi. Seni otang (54v) anglamasun, borg'il, so'klunji elatgil, yesun. Taqi ayg'il ul duoni qo'la keldim, tegil. Ya'qub qo'y terisin o'rtunub kirdi, aydi: Ey ota, kizik eti o'sh kelturdum, tedi, Is'hoq ul etni yedi. Ya'qub aydi: Ul duoni qo'la keldim, tedi. Is'hoq Ya'qubning ilkin tutdi, teriga tikdi ersa aydi: *Al-jildu jildu Bis va as-savtu Yaquba:* Et Ayazning turur, ammo un Ya'qubning. Duosin qildi: urug'ung yalavochlar bo'lsunlar, ezgu solih ko'psunlar. Mavlo taolo Is'hoq duosin Ya'qub haqinda ijobat qildi. Anda kezin Ayaz ovdin keldi, et kelturdi. Ul duoni qo'ldi. Is'hoq aydi: Sen kelding, sanga duo qildim. Ayaz aydi: Men kelmadim. Is'hoq aydi: Ey Ayaz, senga bu makrni Ya'qub qildi. Onasi birla anda kezin Ayazg'a ezgu duo qildi, yalavochlik duosin qilmadi. Bu yo'ldin Ayazli Ya'qubli aro adovat bo'ldi. Is'hoq ularning adovatindin qo'rqub, Ayazni Rum viloyating'a izdi. Rum xalqi qamug' Ayazning urug'indin tururlar. Ya'qub yalavoch urug'i Is'hoq yalavoch duosi barakotinda qamug' yalavoch qo'pdilar.

IBROHIM ILKINDA TIRILGAN QUSHLAR SO'ZI

Kunlarda bir kun Ibrohim alayhis-salom yo'ldin kecharda o'luk teva ko'rди, eti, so'ngluklari torilmish. Namrudning: *Ana uhyi va umitu*, tegan so'zi ko'nglinga kirdi. Aydi: Mundog'narsalarni ul mal'un netak yaratur, teb. Aydi: Iziyo, ko'rguzgil o'lukni netak tirguzursan, tedi. Qavluhu taolo. *Rabbi arini kayfa tuhyi al-mavta.* Xitob keldi: Kertunmasmusan? Qavluhu taolo. A

va lam tu'min. Aydi: Ilohiy, kertonurman, anchasi bor ko'nglum amrulsun. Qavluhu taolo. *Bala va lakin liyatmma'inka qalbi*. Aymishlar, Izi azza va jalla Ibrohimg'a xullat bergay, teb va'da qilmish erdi. Ibrohim aydi: Iziyo, ul va'da qachon vafo bo'lg'ay? Yorlig' keldi: Qachon sening ilkingda o'luk tirilsa sanga xullat tashrif onchada bo'lg'ay, teb. Ul kechikdi ersa sabri qolmadi. *Rabbi arini kayfa tuhyi al-mavta*. Xitob keldi: *A va lam tu'min*. Aydi: Kertonurman, anchasi bor meni do'stluqqa qabul qilmishing (bormu) (55r) ham bilayin, ko'nglum tinsun, tedi. Qavluhu taolo. *Va lakin liyat-ma'inna qalbi*. Ba'zilar aymishlar, Ibrohimning bir do'sti bor erdi, Qalb otlig', aydi: Men kendu kertonub tururman anchasi bor, bu Qalb ko'rsun ko'ngli tinsun, tedi. Xitob keldi: To'rt qushni tutg'il, bo'g'uzlag'il, tusin yulg'il, etin to'g'rag'il, tuslarin yelga sovurg'il, so'nguklarin to'g'g'il, qamug'ini biribiriga qotg'il. Yana to'rt ulush qilg'il, to'rt tog' tepasing'a qo'zg'il. Qavluhu taolo. *Summa ij'al ala kulli jabalin minhunna juz'an*. Aymishlar, to'rt qushlarda biri tovuq, biri qarg'a, biri o'rdak, biri tovuq. Saddy Mufassir aydi: Rahmatullohi alaayh bu to'rt qushni bo'g'uzlag'ug'a yorlig' bo'ldi. Ko'ni yurigan qush o'lmasun, jinoyat qilg'an qushlar o'lsun. Aning uchun bu to'rt qush o'ldilar. Savol: Tovusning jinoyati ne erdi? Javob: Tovus ujmoichinda Odam va Havvog'a jinoyat qildi, Iblisga taqi yilong'a Havvo singlar dalolat qildi, azoqi boru kulu qarardi. Savol: Qarg'a ne jinoyat qildi? Javob: Qarg'a Nuh alayhis-salom to'foninda kezin yer ko'rgali izdi. Murdor, telim ko'rdi yegali qoldi, kelmadi. Qiyomatg'a tegi murdorxo'r bo'ldi. Savol: Tovuq ne jinoyat qildi? Javob: Tovuq azin tovuq birla Ilyos yalavocho to'nin oldilar, biri-biringa adovatlig' bo'ldilar. Savol: O'rdak ne jinoyat qildi? Javob: Qachon Yunus baliqdin chiqdi ersa eti, tani zaif bo'lmish erdi. Singak qo'nub emgatmasun teb qaboq yig'ochin undurdi, ko'lika bo'ldi. O'rdak suv olg'ali kelib borg'incha qaboq yig'ochining yuldurin kesdi, quvord. Yorlig' bo'ldi: bu to'rt yozuq qushlarni o'lturung, yozuqsizlar o'lmasun. Yana aymishlar, bu to'rt qush o'lmakinga hikmat ne erdi? Tovus jumla qushlardin ko'rkluk turur, odamiyg'a o'xshar. Qavluhu taolo. *Lahad xalaqna al-insana fi ahsani taqvimin*. Tovuq farishtalarga mengzar ulashu,

zikr va tasbih birla bo'lar. Taqi qamug' qushlardin tovuq zokirroq turur. Qarg'a shaytong'a mengzar (55v) ko'rmakka xo'r taqi yoshi uzun. O'rdak parilarga mengzar, arig'siz turur taqi sovuq turur, birorda ko'runub, birorda ko'runmas. Foyda, ey Xalil, tovusni o'lturdung ersa odaymiylaring o'lurin soqing'il. Tovuqni o'lturdung ersa farishtalar o'lganin soqing'il. O'rdakni o'lturdung ersa parilarning o'lmakin soqing'il. Qarg'ani o'lturdung ersa shaytonni o'lmakin soqing'il. Bu to'rt qushni tirguzdum ersa, bu to'rt xaloyiqni o'lturub yana tirguzgumni soqing'il. Bilgaysan, tirguzmakka qudratim bor. Muhaqqiqlar aymishlar bu to'rt qushni o'lturmakka.

Hikoyat. Tovusning bezagi bor, dunyoga mengzar, tovuqning shahvati bor, o'rdakning suqluki bor, qarg'aning uzun soqinchi bor. Ishorat ul tururkim, mujohada qilichi birla tabiat andominda shariat hukmi birla bu to'rt sifatni bo'g'uzlasa mangu tiriklik bo'lg'ay. Qavluhu taolo. *Va la tahsabanna allazina qutilu fi sabili-llahi amvatan bal ahyau*. Yorlig' bo'ldi: Bu to'rt qushlar o'lturgil, boshlarin ilkingga olg'il, qolganin bir idishga solib to'g'rag'il, yanchgil biri biringa qotilsun. To'rt ulush qilg'il, to'rt tog' boshinda qo'zg'il. Anda kezin undagil, sanga kelgay. Qavluhu taolo. *Summa ud'uhunna ya'tinaka sa'yan*. Ibrohim qamug' dukdi, yanchdi, to'rt ulushni to'rt tog' boshing'a qo'zdi. Boshlarin ilkiga olib berk tutub undadi, Tengri yorlig'i birla u tog' boshindin uhdilar. Havoda tegma birining so'nguki so'ngukindin, eti etindin, tuki tukindin azrildi, o'z o'runlaring'a keldi. Boshlaringa ulashdilar, kelib Ibrohim alayhis-salomning to'shinda, *lo iloha illalohu Muhammad ar-rasulullohi*, teb ucha boshladilar. Yorlig' keldi: Ey Ibrohim, bilgil, Mavlo aziz turur, hakim turur. Qavluhu taolo. *Va lam anna-lloha azizun hakimun*. Ibrohimg'a o'luk tirguzmakni qushlarda ko'rguzdi. Yana Uzayrg'a o'z taninda ko'rguzdi, hikmat na erdi? Javob: Ibrohim tazarru' birla yaqin birla savol qildi: Iziyo, menga ko'rguzgil, o'lukni netak tirguzursen, teb. Qavluhu taolo. *Qola rabbi arini kayfa tuhyi al-mavta*. Uzayr taajjub taqi shak birla so'rdi, (56r) aydi: Mundog' narsani, o'lmish, tirilmishda kezin qaydin tirguzur! teb.

Sora yuz o'tuz yashadi, anda kezin vafoti bo'ldi. Ibrohim ani Kan'on haddinda Falastin yerinda dafn qildilar. Sora tirik erkincha aning haqqin saqladi. Azin kishi olmadi. Sora o'lmishda kezin Yufturoning Futura otlig' qizin oldi. Andin olti o'g'ul buldi: Yavshan, Voshiq, Zamz, Madin, Mudun, Shux. Ulug'lari Ismoil va Is'hoq alayhima-salom azin onalig'lar erdilar.

Bu sekiz o'g'uldin urug' yozildi, olam to'ldi, kimi musulmon, kimi kofir. Netakkim Mavlo taolo yorliqar: *Va barakna alayhi va ala Is'haka va min zurriyyatihima muhsinin va zolimun linafsihi mubinun*. Ba'zi ulamolalar aymishlar: Sorada kezin Ibrohimning iki yarim yilda vafot qildi. Is'hoq tug'mishda kezin yigirmi uch yil tirildi, yigirmi besh kun og'ridi. Muharram oyinda panjshanba kun ikinduk namozi vaqtinda vafot qildi, yuz yigirmi to'quz yoshab. Aymishlar: Ibrohim Mavlo azza va jalladin qo'lmish erdi: Mening ajalimdin bir yil burun manga xabar bergil, men o'lum yarog'in qilayin, teb. Mavlo taolo ijobat qilmish erdi. Qachon Azroil jon olg'alu keldi ersa Ibrohim aydi: Taqi vaqt bo'lmishi yo'q. Azroil aydi: Vaqt bo'Imasa erdi, manga yorlig' kelmagay erdi. Xitob keldi: Ey Ibrohim, saqolimg'a urung qachon kirdi? Aydi: Ilohiy, bir yil bo'ldi. Ey Ibrohim, ul saqol urungluga o'lum elchisi turur. Ibrohimdin burun kim ersaning saqolimga urung kirmish yo'q erdi. Ibrohim ani bildi ersa aydi: Ey Azroil, *Xal ra'ayta xalilan yaqbazu ruha xalilahi: ma'nisi ul bo'lur, do'st do'sting jonin olurmu bo'lur*. Ul holda Jabroil keldi, aydi: Mavlo taolo xitob qilur, do'st do'stg'a ulanmoqni unamazmu bo'lur? Ibrohim aydi: Andog' ersa jonim olg'il. Jonin oldi, ko'kka og'durdi, qamug' yalavochnlar joni o'tru yurudilar. Savol qildilar: Jon bermak qatig'liqi netak turur? Ibrohim joni aydi: Kimersani ming yo'li unoq birla (56v) o'rtara yorsalar, taqi ming yo'li qaynar suvni tepasinga quysalar, taqi ming yo'li qilich birla chop-salar, necha tenglik emgansa, manga andog' erdi. Aydilar, jon bermak o'ng'ayliqi bu ersa qatig'liqi netak bo'lg'ay? Is'hoqni Shom viloyatinda xalifa qildi, Ismoilni Hijoz yerinda xalifa qo'zdi. Ismoil Ibrohimda kezin qirq yashadi, Is'hoq ellik iki yashadi. Ibrohimni Is'hoq yuvdi, namoz qildilar, Sora birla qo'sha qo'ydilar. Tammam.

Iz qola lahum ahuhum Lutun tashrifin bulg'an, *uli'tina bi azabi-llahi in kunta min as-sodiqina*, teb kofirlardin javob eshitgan, *va al-mu'tafikati atathum rusuluhum bil-bayyinati xil'atin kizgan, a innakum lata't na ar-rijala va taqta'i na as-sabil*, teyu kofirlar birla mujodala qilgan, *va mo as'alukum alayhi min ajrin in (ajriya illa ala rabbi al-olamina)* tegan teb, qo'nuq og'irlag'an, *ittaqu va la tuhzo ni ha'ul'ai fi banati hinna atharu lakum*, teyu o'gut bergan, *av avi ila ruknin shadidin hisoring'a sig'ing'an, A laysa as-subhu bi-qaribin va dasin eshitgan Lut ibn Hozar alayhis-salom*.

Ibrohimning haq qardoshi Hozar o'g'li erdi Lut,

Ko'p telim yillar kuvonib o'zi birla turdi Lut.

Jabroil keldi yalavochnliq tegurdi Mavlodini,

Yorlig' eshitib kuch keturdi eva tarkrak bordi Lut.

Tab qiling, butg'a topunmang, bot keling imong'a teb,

Qirq yil emgab to'ng, arig'siz kofir aro turdi Lut.

Ancha tenglig bo'ynag'uning biri yo'lg'a kirmadi,

Qazg'uluq bo'lub umid kesdi ulardin irdi Lut.

Bir yaratg'an Haqq'a yondi yolborib, qildi duo,

Jabroil qanit to'qidi, qirdi Alloh, ko'rdi Lut.

Lut ibn Hozar ibn Borih ibn Horon. Bu Lut yalavochn Ibrohim otasi qarindoshi, o'g'li erdi. Ibrohim yalavochn vaqtinda erdi, O'rdun erinda, Ibrohim Falastin yerinda. Mu'tafiqot orasi bir tun-kunlik yer erdi. Lut evluki kofira erdi, Vohila otlig'. Bu O'rdun yerinda besh ulug' shahar bor erdi: Dorumo, Ommuro, Sayvam, Sadum, Su'ar. O'n (57r) besh yig'ochliq yer erdi. Bu viloyatda bog', bo'rloq, ne'mat vofir erdi, dunyo ne'mati jumla anda erdi. Ularda bir turluk bo'zun bor erdi. Mavlo azza va jalla ularni Qur'on ichinda mu'tafiqot teyu yorliqadi. Mu'tafiqot ma'nisi *makriyon* temak bo'lur. Maliklarning oti Sadum ibn Mushdam erdi, vazirining oti Kurmuz. Qamug' butg'a topunur erdilar. To'rt butlari bor erdi: Yabad, Mashur, Qavb, Qart. Idris yalavochn vaqtindin ul kunga tegi ul to'rt buttin siligroq but yo'q erdi. Qamug' olamda oncha ne'mat

bor ersa yolg'uz. Mu tafikotda oncha ne' mat erdi. Yil sayu ne' matlar yetilisa Sahradin, Chin-u Mochindin, Batxo, Qalnoxar, Darbandi Xirzon viloyatindin qamug' xaloyiq o'z bog'laring'a borurtek anda kelur erdilar.

Turluk ne' matlar yig'ib, qish bo'lsa evlaringa yonar erdilar. Bir yil Mavlo taolo sovuq izdi, ne' mat bo'lmadi. Yoz bo'ldi ersa xaloiq andag'-o'q keli boshladilar. Ular aydilar: Bu yil ne' mat bo'lmadi, sizlar yoning esanda yana yil sizga ortuq bergaymiz, teb aydilar. Ular yonmadilar, ularma bularni yondura bilmadilar. Sadum malikka kelib aydilar. Ularning Zifol otlig' ulug' butlari bor erdi. Malik aydi: Zifolg'a boring, yukunung, yolboring, bo'lg'aykim sizni qutqarg'ay yo kendu bir yo'l ko'rguzgay. Iblis bir Xasxos otlig' devni izdi. Kelub ul Zifol otlig' butning og'zing'a kirdi, aydi: Ey mening qullarim, ancha yildin beri mening so'zum tutsa erdingiz sizlarga emgak, balo yetmagay erdi. Aydi: Yarog' ul tururkim, mundin chiqing, ul kishilarni tutung, eranlarini evga soling, ularning birlasiz ish qiling. Ular o'zlari qochg' aylar, teb. Ul bo'zun Zifol qatindin chiqdilar, ul kishilarni istayu boshladilar. Bir Bohil otlig' er chiqdi. Iblis odamiy suratlig' qilib ko'rguzdi, ko'rkluk yuzluk yigit sochini bezadi, ko'rklanmish. Bohil ani ko'rub Iblis ilkin tutub evga kivrudi. Bir ev ichinda (57v) yotmishlar, Iblis birla fohisha ish qildilar. Hikoyat. Ma'mun xalifa rahmatullohi alayh aytur: Odam alayhis-salomkim qamug' maxluqotning yegraki erdi, anga sajda qilmading yana Lut yalavoch bo'zuninga muxannas bo'ldung. Rivoyatda kelmish: Iblis biraguning bog'ing'a o'g'ri bo'lub kirdi, o'g'lon mengizlik. Bog' ezasi tutub urdi, ikinci kirdi, urdi, uchunchida ko'rdi ersa qo'rqitur bo'lub fohisha ish qildi. Iblis mundog'in ularni bu fohisha ishga kivrudi. Ul ish qamug'laring'a xush keldi. Qamug' butni ko'rsalar biri-biringa keling undashur erdilar. Azin erlarda manzarlar qo'pordilar g'ariblarni saqlayu boshladilar. Aymishlar, ularda o'n yarog'siz ish bor erdi: yoy birla tosh otmoq, sabkina otlig' o'yun, ich to'n bog'larin keng qilmoq, to'nnung o'ngin, ortin yormoq, saqiz chaynamoq, ernak birla tosh tuzga solmoq, chang, sapinch urmoq, qo'chqor urushturmoq, livotat qilmoq. Bu o'n turluk yovuz ishlar ulardin bilgurdi ersa xotunlaringa boqmas bo'ldilar. Iblis o'zini bir arig' qurtg'atek

bo'lub ularning xotunlaringa keldi. Qach kun ular birla turdi. Ul xotunlar Iblisga munglanu boshladilar: Bu bizning eranlarimiz arig' yigitlar birla qovushurlar, bizga boqmazlar netak qilaling, tedilar. Iblis aydi: Men sizlarga o'gratu berayin, tedi. Erning o't andomitak bir yig'och yo'ndi anga yorig' birla sarladi, o'z belinga bog'ladi. Ul tishilar birla erantek yotur bo'ldi. Tishilarga ul ish xush keldi ersa biri-biringa qovushu boshladilar. Er er birla, tishi tishi birla yotur bo'ldilar. Telim yillar kechdi. Ul o'g'urda Lut alayhis-salom Muqaddasa yerinda qo'sh uy olib oshliq teriyur erdi. Bir kun Jabroil yigirmi yashar yigittak bo'lub Lutg'a keldi, salom qildi. Lut alayha as-salom zan anta. Sen kimsan? teyu so'rdi. Aydi: Ana Jabro'ilu al-aminu. Lut qo'sh surmakni qo'zdi. Aydi: Ey Jabroil ne kelturdung, (58r) tedi. Aydi: *Allohu yakra'uka as-salama*. Mavlo sanga salom yorliqadi, mu'takifot bo'zuning'a bog'il, ayg'il livotat qilmasunlar, soch-saqol yulitmasunlar, ich to'n bog'in keng qilmasunlar, tishilarma biri-biringa qovushmasunlar, aysunlar *La ila-ha illa-Ilohu va innaka Lutun rasulu-Ilohi*, butg'a topunmasunlar. Lut aydi: *Ni'ma al-mavla va ni'ma an-nasir*. Anda kezin yuzi sarg'arib Ibrohim yalavochg'a yeldi. Aydi: Ey ammu, Jabroil keldi, yalavochlig' tegurdi, qamug'din yovuzroq xalq uza. Ibrohim aydi: Ular qayu bo'zun tururlar? aydi; Mu'tafikot bo'zuni. Ibrohim aydi: Tengri yorliqinga bo'yunsung'il, yorlig' tutg'il. Lut teve kelturdi. Lutning evluki bor erdi Voila, Rohila otlig'. Uch qizi bor erdi: Zu'ula, Irsama, Buqno. Bir tevasi bor erdi, Ra'da otlig', bir iti bor erdi, Dina otlig'. Lut ko'ch yukladi, tebradi. Ibrohim besh yig'och yer ko'nduru bordi. Aydi: Ilohiy, sen bilursan manga avuncha qo'ldosh erdi, g'oyat sevar erdim, sanga esbarladim, eson salomat manga qovushturg'il, teb yondi. Lut bordi Omuro yering'a yetdi. Besh yig'ochliq yerda tushdi. Mu'tafikot bo'zuni otlanib yigitlarni tilayu yurur yerda Lutni ko'rdilar, silig'er iki tishi birla. Lut keldi, teb xabar berdilar. Jabroil yorlig' tegurdi. Omuroning qirog'inda iglangil, teb. Lut anda borib tushdi, chodir tikdi, kirib o'lturdi. Omuro xalqi Lutg'a taqi iki qo'ldoshlariga tama' qildilar. Kelib Lutni ko'rdilar, tutg'alu o'g'radilar. Lut tevaga taqi itga aydi: Bularni mandin ketargil. Teva, it ularg'a tepundilar, ilik birla urdilar, tish birla tishladilar, ko'turub yerga to'qiyu o'lturdilar. Yuz

ming er bor erdi qamug'ini yondurub elga kivurdilar. Yana yonib Lutg'a keldilar, ul bo'zunlar malikka xabar qildilar. Bir ko'rkuk yuzluq er keldi, bir teva, bir it birla yuz ming ermi kimini o'lturdi, kimini qochurdi. Ey malik, eling kunung o'rtag'utek turur. Malik Karmuz otlig' vazirga aydi: Borg'il, ul ermi ko'rgil, so'zlashgil yana manga xabar bergil. (58v) Vazir besh yuz er birla keldi, Lutni ko'rdi, Oting ne, teb so'rdi. Otim, Abdulloh, tedi. Aydi: Ne ishga kelding. Aydi: Yalavochliqg'a keldim. Karmuz yondi, malikka aydi: Yalavochman, teb aytur, tedi. Onchada Jabroil yorlig' tegurdi: Borg'il, qulum Sadumg'a ayg'il, imon keltursun, mani birlasun, seni mening yalavochim bilsun. Lut tebradi, it ilgari teva so'ngdin. Kim yo'luqsa it, teva tepinur erdi. Lut malik saroying'a keldi teva o'ng qo'linda, it so'l qo'linda, malik o'trusinda turdi. Otin ne? teb so'rdi. Otim Abdulloh, teb aydi. Abdulloh ne temak bo'lur? Aydi: Tengri quliman, temak bo'lur. Aydi: Sen kimsen? Aydi: Tengrining rasuliman. Yana so'rdi: Rasul ne temak bo'lur? Aydi: Rasul ul bo'lurkim, senga kelib ayturman: Alloh bir turur, man aning yalavochiman. Malik aydi: Bu so'zga tanuquq bormu? Lut aydi: Tanuquq ushbu teva turur. Malik aydi: Teva netak tanuquq berar? Lut aydi: Teva tanuqug'i Mavlo qudrati birla bo'lur. Malik aydi: Ayg'il tanuquq bersun. Lut aydi: Ey Ra'da, tanuququq bormu? Mavlo azza va jalla tevaga til berdi. Aydi: *Lo ilaha illallohu va innaka Lutun rasulullohi*. Malik aydi: Yana bir tanuquq qanikim tanuquq bersun. Lut aydi: Ey Dina ayt. Aydi: *Labbayka yo rasulallohi*. Lut aydi: Ne tanuququq bor? It aydi: *Ashhadu an lo iloha illallohu va ashhadu anna Lutun rasulullohi*. Malik aydi: Men hech mundog' eshitib ko'rmishim yo'q. Beklaringa aydi: Siz ne teyursiz? Aydlilar: Ey Malik, bu er jodu turur. Malik aydi: Ey Abdulloh, sen bu so'zni mol uchun aytur ersang anga tenglik mol berayinkim, qamug' ulug'unga yetsun. Lut aydi: Men sizdin narsa qo'lmazman, manga savob berikli tengri turur. Eran birla qovushursiz qamug' yo'lsuzlarsiz. Qavluhu taolo. *Va ma as'alukum alayi min ajrin in ajriy illa ala rabbi al-olamina. A ta'ona az-zukrana min alolamina va tazaruna ma xalaqa lakum labbukum min azvajikum bal antum qavmun odun*. Ular aydlilar: Ey Lut, bu so'zdin yonsang yonding, yo'q ersa seni bu eldin chiqarg'aymiz.

Qavluhu taolo. *Lain lam tantahi ya Lutu latakunanna min al-muxrajin*. Lut bo'zunig'a aydi: (59r).

Bu fohishakim, siz qilursiz, sizdin burunqilar olam ichinda qilmishi yo'q. Qavluhu taolo. *Va Lutun iz qola liqavmihi innakum lata'tuna al-fahishata ma sabaqakum biha min ahadin min al-olamina*. Yana aydi: Siz eranlarni olursiz, yo'l kesarsiz, arqishni urub mollarin olursiz, anjumanda o'lturub xalqni qo'sh qilursiz. Qavluhu taolo. *Qola a innakum lata'tuna ar-rijala va tahta'una as-sabil*.

Javob aydlilar: Tengri azobi teyursan, kelturg'il ul azobni bir ko'raling agar so'zung ko'ni ersa. Qavluhu taolo. *Fa ma kana javaba qavmihi illo an qolu i'tina bi azabi-llahi in kunta min as-sodiqina*. Lut duo qildi, Iziyo, ko'rguzgil ul qudratingni bu o'rtoq, eshlik bo'zun uza. Qavluhu taolo. *Rabbi unurni ala al-qavmi al-mufsidina*. Yana aydi: Ilohiy, bular kirmazlar necha undayin. Jabroil keldi: Taqi (qirq) yil undagil. Qirq yil undadi biragu imon kelturmadi, azob vaqti bo'ldi yovushdi ersa Lut malikka keldi, aydi: Qo'rqg'il tengridin, musulmon bo'lg'il. Ayg'il: *La ilaha illa-llohu Lutun rasulu-llohi*. Aydlilar: Ey Lut, bu so'zdin dag'i irmadingmu? Lut aydi: Men o'z ko'nglumcha kelmadim, tengri yorlig'i birla keldim, yorlig' bo'lmasa man kelmagay erdim. Duo qildi: Iziyo, qutqarg'il meni bu zolim bo'zunlardin. Qavluhu taolo. *Rabbi najjini min al-qavmi az-zolimina*. Qamug'i yig'ilib aydlilar: Lutni evi barqi birla eldin chiqaring, bular arig'sizliq qilur uchun bizni malomat qilurlar, bizga so'zlaguchi qolmasun, teb. Qavluhu taolo. *Axriju Aala Lutin min qarayitikum innahum unasun yatatahharuna*. Lut evluki kofir erdi, Ibrohim alayhis-salom bir kecha tush ko'rdi, Lutnung bir kim ersa birla so'zi savi bo'ldi teb. Yorindasi yo'l boshinda o'lturub xabar so'rdi, bilmadi, ko'ngli mashg'ul bo'ldi. Ul kun qo'nuq tilayu bilmadi. Ibrohimqa qo'nuq istamak fariza erdi, qo'nuqsuz ro'za ochmas erdi, qo'nuq tiladi, bulmadi, yorindasi ema bulmadi. O'n kun qo'nuq tilayu kelmadi, g'oyat qazg'urdi, ul o'n kun ichinda Lut xabarin bulmadi, qo'nuqma kelmadi. O'n birinchi kun munojot qildi: Iziyo, qayu yozuq birla meni qiynayursen, qo'nuq izmassen. (59v) Jabroil keldi, aydi: Ey Ibrohim, Mavlo yorliqar, Lutni saqlag'an men ermasmu erdim, sen Lut uchun

qo'nuq izlamakni qo'zdung. Ibrohim aydi: Iziyo, tavba qildim. O'n birichni kun o'n iki kishi ko'rkluk yuzluk, kichik yoshlig' yigitlar chodirg'a kirib keldilar. Netakkim Mavlo yorliqar, Qavlulu taolo. *Har ataka hadisu zayfi Ibrohima almuk-ramina iz daxalu atayhi fa qolu salaman qola salaman qavmun munkarun.* Ibrohimg'a aydilar: Netaksen qo'nuq birla? Ibrohim aydi: O'n kun bo'ldi ro'za ochmishim yo'q. Qo'nuq kelmishiga sevundi. Iki yarim yoshlig' qizil qashg'a, to't azoqi so'gul buzag'usi bor erdi, ani yavloq sevar erdi, ani kelturdi, bo'g' uzladi, so'kulma qilib qo'nuqlarg'a kelturdi, o'nglarinda qo'ydi. Qavlulu taolo. *Farog'a ila ah-lihi fa ja'a bi ijlin samiyain fa qarrabahu ilayhim qola ala ta'kuluna.* O'zi tashg'a chiqdi. Ibrohimning odati ul erdi, qo'nuq hijobsiz taom yesin teb chiqar erdi. Sora eshikdin qo'nuqlar taom yemasin ko'rub Ibrohimga xabar qildi. Ibrohim kirdi: Neluk yemassis? tedi. Aydilar: Bahosin bilmadin, yemasiz, tedilar. Ibrohim aydi: Bahosi ul turur, yemazda ashnu *Bismillahir-rahmonir-rahim* tengiz, taom qilishda *Al-hamdu lilloh* tengiz. Aydilar: Biz taomga muhtoj ermazmiz. Ibrohim aydi: Qo'nuq osh oshamasa ev egazining ko'ngli mashg'ul bo'lur, teb. Qavlulu taolo. *Fa avjasa minhum xifatan qolu la taxaf.* Aydilar: Qo'rqmag'il, biz farishtalarbiz, sanga sevunch kelturduk, Soradin o'g'lung bo'lur, teb. Qavlulu taolo. *Va bashsharuhu bi g'ulamin alimin.* Ul o'g'lonning oting Is'hoq bo'lsun, Is'hoq o'g'lining oti Ya'qub bo'lsun. Qavlulu taolo. *Fa bashsharnaha bi Is'haqa.* Sora ani eshitib uftandi, ilgi birla yangoqin urdi. Aydi: Men yoshg'a yetmish qariman manga o'g'ul-qiz qaydin kelur. Qavlulu taolo. *A alidu va ana 'ajuzun va haza ba'li shayyan.* Emdiga tegi o'g'ul tug'urmadim, Ibrohimma ulg'ardi o'g'ul netak bo'lur? Jabroil aydi (60r) Mavlo qudratidin tongmu ko'arsen. Qavlulu taolo. *A ta'jabina min amrillah.*

Ul holda Jabroil bir qurug' yig'och Sora ilkinga berdi, quruq yig'och Sora ilkinga yoshardi, yaburg'og'ladi. Jabroil aydi: Ey Sora, ul Tengrikim qurug' yig'ochni sening ilkingda yoshardi, sanga qarilig'da o'g'ul bersa ne ajab bo'lg'ay? Ibrohim aydi: Sizlar kimlarsiz? Aydi: Men Jabroilmen, bu Mekoil turur taqi o'n farishtalar turur. Ibrohim aydi: Ne ishga keldingiz? Qavlulu taolo. *Fa ma xatbukum ayyuha al-mursaluna.* Aydilar: Lut qavm

arig'sizlarni halok qilg'alu keldimiz. Qavlulu taolo. *Inno ursilno ilo qavmin mujrimina.* Yolg'uz Lutning evindagilar qurtulurlar, xotunidin o'zga. Qavlulu taolo. *Illo balo Lutin inna lamunajjuhun ajma'ina illo imra'ataqu.* Ibrohim aydi: Ularda yuz kishi musulmon yo'qmu? Jabroil aydi: Ularda yuz kishi musulmon bo'lsa erdi Mavlo taolo bu baloni izmag'ay erdi. Ibrohim aydi: Taqi o'n kishi musulmon yo'qmu? Jabroil aydi: O'n kishi musulmon bo'lsa bu balo kelmagay erdi. Ibrohim aydi: Bir kishi taqi musulmon yo'qmu erdi? Jabroil aydi: Bir musulmon bo'lsa erdi halok bo'lmag'ay erdilar. Ibrohim yig'layu boshladi, farishtalar aydilar: Ul viloyat ichinda bir evlukdin azin musulmon bulmadimiz. Ul ev Lut yalavoch evi turur. Qavlulu taolo. *Fa ma vajadna fiha g'ayra baytin min al-muslimina.* Ibrohim aydi: Ey Jabroil, sizlar anda tegmishda men Lutni ko'rmazmen, tedi. Jabroil Mekoil taqi o'n farishtalar chodirdin chiqdilar, bir mangim birla Lut bo'zunig'a tegdilar. Ibrohimdin Lutg'a tegi ne hijob bor ersa qamug'i ochildi, Ibrohim qamug'ini ko'rdi. Tunning uchda biri kechmish erdi, Jabroil, Mekoil taqi o'n farishtalar yigitlar suraticha Lutning qabug'ing'a keldilar. Qavlulu taolo. *Va lamma ja'at rusuluna Lutun si'a bihim va zaqa bihim zar'an.* Jabroil qapug' qoqdi, Lut chiqdi, ko'rkluk, silig', aqig' yigitlar ko'rdi, qo'rqdi. Kerakmazkim bu bo'zunlar qo'nuqlarg'a zahmat tegursalar, teb. Bilmadikim farishtalar turur. Jabroil aydi: Ey Lut, qo'nuqlar birla netaksan? Lut ularni evga kivurdi, qizlaringa: Taom anuqlang, tedi. Qo'nuqlar (60v) yesunlar, tong otmazdin burun eldin chiqsunlar bu yovuzlar tuymasunlar, tedi. Qizlar osh qilg'incha Lut evluki Voila alayhilla'na qo'nuq kelsa tunla ev ilakinda oshib o'lturur erdi. Kofirlar qo'nuq kelmishin bilsunlar, teb o't yoqti. Ba'zilar aymishlar: Evdin evga yuridi, kofirlarga xabar qildi, ko'rkluk yigitlar, qo'nuq kelib turur, teb. Bir zamonda Lut saroyi kofirlar birla to'ldi. Qavlulu taolo. *Va ja'a qavmuhu yuhra'una ilayhi.* Lut o'tru yuridi aydi: Sizlarga mening qizlarim arig'toq turur, qizlarimni oling, qo'nuqlaring'a qotilmang, tedi, Qavlulu taolo. *Ha'ula'i binati humma atharu lakum. Ha'ulau banati in kuntum fa'iina.*

Ul kelgan kofirlarda iki ulug'i bor erdi, Lut ul ikaguga aydi: Bu iki qizlarimni juftluq berayin, tedi, bularni daf' qiling. Ul shariatda

mo'mina nikohi kofir birla ravo erdi. Aydilar: Sen bilursan, sening qizlaringda bizning haqqimiz yo'q, bizga ne kerakin bilursen. Qavluhu taolo. *Qolu lahad alimta ma lana fi banatika min haqqin va innaka lata lamu ma nuridu.* Lut aydi: Qo'rqung Tengridin, meni qo'nuqlar orasinda rasvo qilmang, sizing orangizda bir musulmon yo'qmu? Qavluhu taolo. *Fattaqu-lloha va la tuxzuni fi zayfi alaysa minkum rajulun rashidun.* Aydilar: Ey Lut so'z uzatmag'il, qo'nuqlaringni bizga bergil, agar bermasang biz kirib tortib chiqarurmiz, tedilar. Lut yig'layu evga kirdi, Jabroil aydi: Neluk yig'layursen? Lut ul so'zni aymoqg'a uftandi, qo'rqdi. Jabroil aydi: Qo'rqmag'il, biz tengri azza va jalla farishtalari tururmiz, seni bu arig'sizlarin qutg'arg'ali keldimiz. Qavluhu taolo. *Ya Lutu inna rusulu rabbika lan yasilu ilayka.* Jabroil qo'pti, qapug'ni sidilar, evga kirdilar, farishtalarni ko'rdilar, tutgali o'g'radilar ersa Jabroil bir ovuch tuproq oldi, yuzlariga sochdi. To'rt yuz er qamug'i qarag'u bo'ldilar. Ey Lut, sen jodularni kelturmishsen, bizni munda qarag'u qildilar, oshuqmag'il, qo'nuqlaring ketsun biz sanga ne ish qilurmiz, ko'rgaysen, teb, onchada elga xabar yozildi. Lut jodular keltirmish, teb. G'avg'o taqi ortuqroq bo'ldi. Lut qo'rqdi. Jabroilg'a aydi: Bu ishning so'ngi ne bo'lur? Jabroil aydi: Biz keldimiz bularni halok qilib seni qutqarmoq uchun. Lut aydi: Qachon halok qilursen? Jabroil aydi: Tong otarda. Qavluhu taolo. *Imna mav'idahum as-subhu.* Lut tong otarg'a evdi, tong qachon otar, tedi. Jabroil: Tong yovuq turur, tedi. Qavluhu taolo. *A laysa al-subhu bi qaribin.* Jabroil aydi: Ey Lut, sen bu eldin chiqq'il. Lut ul musulmon evluki birla tevaga mundurdi, iki qizini, tevasini, itini. Mekoil qaniti birla ko'turub, ko'z yumub ochg'uncha o'n yig'ochliq yerga eltib qo'zdi. Yorlig' bo'ldi Jabroilg'a, bir kichik qanitin yozdi, Lutni qanitlarining ustiga so'qdi, yerni suvga tegi o'ydi havog'a tegi og'durdi. Jabroil ko'kka tegi og'durdi, tovuqlar unin farishtalar eshitilar. Yorlig' bo'ldi: Ey Jabroil, ul yerni evurgil, sen ostindin chiqq'il. Yerni evurdi, o'zi ostindin chiqdi, er tishi birla yoturda uzqudin uyg'onmadilar, o'g'lonlar beshikdin azrilmadilar. Suv idishlari tepan bo'ldilar, bir qatra suv to'kulmadi. Xitob keldi: Ey Jabroil, bularni ko'targan senmusen yo menmumen? Jabroil sajdag'a bordi, aydi: Ilohiy, tavba qildim. Ko'k ko'rartek bir qatiq

un qildi, ularning ostindaqi tovuqlari, yilqi qoralari Mavlo yorliq birla ostindin chiqdilar. Onchada tong o'rkadi, yorliq keldi: Ey Jabroil, ul tunda ingan yerni bir tepgil. Jabroil tepdi ersa qayra suvg'a tegi indi, tosh tashladi. Eng ilki otgan tosh Voila boshing'a tegdi, tepasi yorildi, o'ldi, tamug'g'a ulandi. Ul ellarning tekma birinda yuz ming sanchishur kishilar bor erdi, to'kuldilar, ostinlari ustun bo'ldi. Qavluhu taolo. *Ja'alna oliyaha safilaha va amtarna alayha hijaratan min sijjilin manzudin musovvamatan inda rabbika vamaxiya min az-zolimina bi ba'id.* Tekma birining oting'a bir tosh erdi tepasing'a urur erdi. Mavlo yorlig'i birla borib aning tepasinga o'tkura urar erdi. Qamug'i kun yorug'incha (61v) halok bo'ldi, yo'q bo'ldilar Izi qudrati birla.

QISSAYI YA'QUB AN-NABIY ALAYHIS-SALOM

Ul Vabyazzat aynahu min al-huzni fa huva kazimun surmasin ko'ziga tortib, Qola innama ashku bassi va huzni ilallohi munojotini qilg'an, Ya baniyya izhabu fa tahassasu min Yusuf va axihi va tayasu min ravhi-llahi, teb o'g'lonlarin izg'an, Izhabu bi qamisi haza fa alquhu ala vajhi abi ya ti bashoratini bulg'an Ya'qub an-nabiyy alayhis-salom.

Sovchi Is'hoq o'g'li teb bu otni olg'an Ya'qub ul,

Olti xotundin o'n iki o'g'lon bulg'an Ya'qub ul.

Muncha o'g'lon orasinda ongsizin ul o'niqa,

O'n birinch o'g'lin o'lturub uylu turg'an Ya'qub ul.

Kech ayoling kech o'g'urda yig'ilu kirib yig'lashu,

Bo'ri edi, tesa o'zin yerga chalg'an Ya'qub ul.

Bayt ul-ahzon ichra kirib tunla kunduz ingrayu,

Yuzi ko'rkuluk Yusufni haqqan qo'lg'an Ya'qub ul.

Toshg'a chiqq'an, kuni tug'gan, ko'rk uchun ko'z oldarub,

Ko'ksi kuygan o'tda yong'an, bag'ri o'lg'an Ya'qub ul.

O'zi munglug', kez yurakli Mavloning mursal quli,

Ul chechaktek engg'i kusab, mengzi so'lg'an Ya'qub ul.

Yeti yashab yosh o'g'ulni yirtubon yoshi oqib,

Ani sekson yilda kezin qayra bulg'an Ya'qub ul.

Ya'qub Isroilulloh ibn Is'hoq Safiyulloh ibn Ibrohim Xalilulloh, Ya'qub yalavoch yavloq qaviy ko'ngulluk, alp yuraklik kuchunga kuvanur erdi. Mavlo azza va jalla ul ujbni andin ketardi. Rivoyatda kelmish: bir kecha yilqi qorasin, qo'y qo'zisin yozig'a chiqardi, o'z hojatig'a mashg'ul bo'ldi, yilqi qarodin so'ng qoldi. Mavlo taolo bir farishtani iza berdi, odam suratincha, o'g'ritek bo'lub keldi, Ya'qub aning birla tutushdi, farishta Ya'qubni ko'turub yerga chaldi. Ya'qubning uyloq tomuri og'ridi, uzun tun ingrandi, nazr qildi, agar Mavlo taolo bu og'rig'din shifo bersa qayu yem ichim manga sevuq turur ani o'zumga harom qildim. Mavlo taolo shifo berdi. Ya'qubg'a yemlarda teva eti sevuq erdi, ichimlarda teva suti, bu ikini o'zunga harom qildi. Ya'qubda (anda) kezin ya'qubiyarg'a ul sunnat birla yemas bo'ldilar. Aytilar: Bu narsalar qamug' yalavochlarga Odamdin bu kunga tegi harom erdi. Tavrotda mundog' erdi, tedilar. Mavlo taolo ularning so'zini furqong'a chiqaru yorliqadi. Qamug' taomlar Ya'qub yalavoch o'g'lonlaringa halol erdi, ammo Ya'qub o'zinga o'zi harom qildi. Qavluhu taolo. *Kullu at-ta'ami kana hillan libani Isroila illa va harrama Israilu ala nafsihi min qabli an tunaz-zala at-tavrotu.* Savol: Ya'qub yalavoch nedin Isroil atandi? Javob ul turur: *Isr ma'nisi bulun bo'lur*, shaytonni bir vaqtda bulnamish erdi, aning uchun Isroil atandi. Hikoyatda kelmish: Ya'qub Bayt ul-muqaddasda xizmat qilur erdi, chirog'larin yoqar erdi. Shayton alayhil-la'na tekma kecha kelib chirog'larni o'churur erdi. Aymishlar: olti yuz chirog' yoqilur erdi, Ya'qub bir tunla saqladi, shayton kelib chirog'in o'chururda Ya'qub sekridi shaytonni tutub, bo'ynini zanjirladi, bir tirkukka berk tikdi. Aning uchun Isroil atandi. Yana bir javob ul turur: *Isr* bulun, el tengrining oti turur, Ismoil tengrining quli temak bo'lur. Ya'qubning o'n iki o'g'li bor erdi, qizlari yema. Maliklarda bir kofir Ya'qubning qizini qo'lg'alu kishi izdi. Ya'qub unamadi, ul malik aydi: Qizingni manga ber mading ersa qatig' sanchishurmen, tedi. Malikning cheriki telim erdi, yorlig' keldi: Ey Yoqub, ul kofirlami halok qilmoqni tilasang halok qilayin, seni ularg'a musallat qilayin, yo'q ersa o'z eling birla halok qilg'il. Ya'qub o'g'lonlaring'a aydi: Qayusun tilayursiz, teb, kengashdi. O'g'lonlari aydi: Bizni musallat qilsun, tedilar.

Ya'qub ani unamadi duo qildi, Mavlo taolo qamug'ini yer quzi izdi, halok bo'ldilar. Yana bir malik qiz qo'lg'alu o'g'radi, Ya'qub aydi: Mening shariatimda bir sunnatim bor, ul sunnatimni sen cheriking birla biturding ersa qizimni bergaymen, tedi. Malik aydi: Ul sunnat qayu turur? Ya'qub aydi: Ul sunnat xatna qilmoq turur. Malik o'zuni xatna qildi, qamug' cheriknima xatna qildurdi. Ya'qub o'g'lonlari birla qilich tortib keldilar, Malik (62v) cheriki birla xatna qildurub og'rig' yoturda o'g'lonlari birla kelib qamug'ini qirdilar. Yana ba'zi ulamolar aymishlar: Odnning Shaddod otlig' o'g'li bor erdi, ul kim dunyoda ujmoh qildurdi kirmakka tegmadi. Ul Shaddodning Imloq otlig' o'g'li bor erdi, Ya'qub ro'zgorinda ming bek bor erdi. Bu ming bekni undadi, aydi: Manga bir keng tuz yozi, sog' tuproqliq yer hosil qiling. Ul ming beklar andog' yer hosil qildilar, Imloq kelib ul yerni o'lhadi ersa o'n iki yig'ochlik erning tegrasin qazdurdi, suvg'a tegurdilar, suv yuzindin yer yuzingaga tegi tosh birla og'durdilar. Anda kezin ul tosh tepasinda ruxom toshdin tom qo'pordilar, ularning qarisi birla qirq qari, tom adizligi, tomning enincha. O'n (ming) otlig' er qurshab yurigutek o'n ming vaziri bor erdi. Tekma vazirining o'n ming sanchishur er (i) bor erdi. Bu tomqa Qutrumi sharistoni atadilar. O'rtasinda bir saroy qo'pordilar, iki yig'ochliq bir kirpich oltundin, bir kirpich kumushdin, tom adizlig'i qirq qari, bo'stonlar, bozorlar qildilar. Bu saroy o'rtasinda o'zinga tamasha qilurtek yer qildurdi, adizligi iki yuz arshun. Ul sharistong'a to'rt qapug' qild(urdi), bulardin adizligi yigirmi to'rt arshun. Qachon tamom bo'ldi ersa ko'ch ko'turub anga bordi, taxtg'a oshib o'rning'a o'lturdi. Yillarda bir yil Kan'onda qahatliq bo'ldi. Qutrum sharistonida oshliq sotarlar teb xabar keldi. Kan'ondin Qutrumg'a o'n ko'nluk yo'l erdi, Ya'qub o'g'lonlari oshliq olg'ali o'g'radilar, Qutrumg'a keldilar. Imloq lain erdi, adiz manzarg'a og'ib boqarda yiroqdin Ya'qub o'g'lonlarin teva birla kelurin ko'rdi. Boshlarinda urung bulut qalqontek bo'lub ko'lika qilur. Imloq ul bulut (ni) ko'rub boqdi: *La ilaha illa-Ilohu Muhammadun rasulullohi* bitiklik ko'rdi. Vazirlarin izdi: boring manga yigitlarni kelturung. Vazir kelib aydi: Malik sizlarni undayur, tesa Yahudo aydi: Biz Tengri (63r) yalavochining ishin tamom qilmag'incha kelmazmiz, tedilar.

Vazir bordi, bu so'zni malikka tegurdi, tamom bo'lmishda kezin keldilar. Imloq o'n yigitni ko'rdi, bo'ylari, ko'rikleri birtek, tonglab og'irladi: Sizlar kimlarsiz? teb so'rdi. Yahudo aydi: Biz o'nag'u bir qarindoshimiz, Ya'qub yalavoch o'g'lonlarimiz, otamiz Is'hoq taqi ulug' otamiz Ibrohim, biz Kan'ondin oshliq olg'alu keldimiz. Malik so'rdi: Azin qarindoshingiz bormu? Aydilar: Yana iki qarindoshimiz bor, biri Yusuf otlig' biri, Ibn Yamin otlig'. Malik aydi: Men er qarindosh so'rmasmen, qiz qarindosh so'rarmen. Aydilar: Bir qiz qarindoshimiz bor. Malik aydi: Qiz qarindoshingizni manga bering, otangizni taqi sizlarni man mol birla aziz qilayin, qamug'din ortuq bo'lg'aysiz. Yahudo qarindoshlaringa boqti: Siz ne teyursiz? Sham'un, Rubil achig'landilar. Ya'qub o'g'lonlari achig'lansalar bir viloyatni xarob qilmag'uncha achig'lari o'chmas erdi, magar Ibrohim yalavoch urug'indin kim ersa ilkin orqasig'a silasa achig'i o'char erdi. Yahudo ko'rdikim ikagu achig'landilar, Aydi: Kerakmazkim Qutrum sharistonini xarob qilsalar bizga emgak teksta, teb Rubil orqasig'a ilik siladi, achig'lari o'chti. Aydi: Ey malik, sening o'g'lung sendin kengashsiz qizingni kim ersaga bergaymu? Aydi: Yo'q, Yahudo aydi: Bizningma otamiz bor, biz borib sening so'zuing teguraling, otamizma bergay, tedilar. Malik ul so'zga sevundi, o'n teva yuki bug'doy, o'n teva un, ming kumush, o'n botmon yipor, o'n botmon anbar, o'n botmon kofur kelturub bularg'a berdilar. Yana taqi bir munchani otalaring'a iza berdi, taqi aydi: Bu narsalarni otangizg'a bering, taqi mening so'zumni tegurung: Menseni otaliqg'a qabul qildim, sanma meni o'g'ulluqg'a qabul qilg'il. Mening so'zum yetgach Ya'qub yalavoch xari ko'rub manga kelsun, qizin manga bersun teb so'zumni tegurung, tedi. Ya'qub o'g'lonlari yondilar, bu so'zni otalaring'a aydilar: Malik bizga muncha mol berdi taqi bir munchani sanga yibordi, teb o'trusinda qo'zdilar. Ya'qub ul so'zga yig'ladi, aydi: Mendin burun hech yalavoch qizini kofirg'a bermadi. O'g'lonlari aydi: Sen bilgil, tedilar. Bu so'zga bir oy kechmishda kezin Imloq (63v) Ya'qubg'a bitik izdi, ul bitikda bu erdi: Bu bitik imloq imloqindin, maliklar malikidindin, hiborlar hibori ulug' mulkluk, ulug' cherikliik Imloqdin ul zalil, haqir, faqir Ya'qubg'a tegsun. Bu bitik tegsa qizini manga

yarog'lab qo'ysun. Agar qizini bermaz ersa men borib el kunin buzarmen, seni o'g'lonlaring birla o'lturumen, qizingni tortib olurmen, sangama yalavochliq asig' qilmas, yer tengrisi menman, tedi, og'zing'a tufroq, Ko'k tengrisi sening, mening birla ne ishi bor. Noma Ya'qubg'a tegdi, o'n o'g'lonlarin yig'ib o'qitdi, o'g'lonlari turuqdilar, aydilar: Ey ota, o'zungga, bizga kuch qilmag'il, Kan'on shahrin buzmag'il, qizingni bu malikka berg'il, tedilar. Ya'qub o'g'lonlaring'a bushuqdi, Yahudog'a aydi: Noma javobin bitigil: *Bismillohir-rahmonir rahim* men Ya'qub Isroilulloh ibn Is'hoq Safiyulloh o'g'li Ibrohim Xaliullohdin Imloqi lain shaqiyud dunyo val oxiratqa, bilgilkin, hech yalavoch qizini kofirg'a bermadi, menma bermasmen. *Lo iloha ill-Allohu va inni Ya'qubu rasulullohi* tesang *vas-salomu alo man ittaba'al-hudo*. Nomani bitildi, muhr qildi Imloqg'a izdi. Imloq nomani o'qidi, mengizi sarg'ardi, o'n iki ming beklaringa boqdi. Ular aydilar: Ey malik, cheriking, kuchung bor, yorlig' bo'lsa biz borib qizni tortib kelturaling. Malik cherik yig'di o'n iki ming, beklari o'n iki er otlandilar. Imloq yavloq semuz erdi, tekma ot, qachir ko'turmas erdi. Yag'ang'a mundurdilar. Cherik boshlab Kan'ong'a keldi. Jabroilg'a yorlig' bo'ldi qaniti birla yag'anning tepasiga urdi, Yag'an bir ko'kradi, Ya'qub eli birla eshitdilar. Ya'qub o'g'lonlari yozidini keldilar, ko'p cherik kelmish ko'rdilar, otalari mengizi sarg'armish. Aydilar: Netak qilaling? Ya'qub yig'ladi, tengri azza va jallag'a yolvordi. Jabroil yetildi, aydi: Ey Ya'qub, tengri taolo salom izdi, salom birla tahiyvat izdi, aydi: O'g'lonlaringa ayg'il qo'rqmasunlar, men sizlarga nosirmen. Ey Ya'qub, ul qizing mening hazratimda aziz turur, dushmang'a bermagaymen, kofirni yalavoch uza erklik qilmag'ayman. Ul o'g'lonlaringa ayg'il, yorin kofirg'a o'tru chiqsunlar, turushsunlar, men qudratimni (64r) ko'rguzayin.

Ya'qub shod bo'ldi, o'g'lonlaringa chiqing, tedi. O'g'lonlari aydilar: Ey ota, biz o'nag'umiz kofirilar telim turur, netak turushaling? Ya'qub aydi: Men sizga siloh berayin, kim ul siloh birla to'qush qilsa Tengri dushmanlari uza zafar topg'ay. O'g'lonlari aydilar: Sen erkliksen chiqaling, tedilar. Ya'qub sanduq ochdi, Odami Safiy to'nin Sham'ung'a berdi, Shis to'nin Rubilg'a

berdi, Ibrohim qo'chining munguzin Yag'sarg'a berdi, Muso asosin Yahudog'a berdi. To'quz o'g'long'a Yahudoni ulug' qildi, oy kuntak bo'lub o'g'lonlari chiqdilar. Malik taxt uza turarda yiroqdin Ya'qub o'g'lonlarin ko'rdi, beklarining aydi: Ya'qub o'g'lonlari ne ishga kelmish, ko'runq, tedi. Ular keldi ersa qatilmang, sanchishg'a keldilar ersa boring o'nulasining boshin kesib manga kelturung. O'n ming er birla bordilar, aydilar: Ne ishga keldingiz? teb so'rdilar. Yahudo aydi: Sanchishqa kelduk. Vaziri qatqura keldi, Yahudo qarindoshlariga aydi: O'tru turung. O'zi ilgaru kirdi, tayoqin boshi uza chevurdi, havoqa soldi, yana tutdi. Olam ichinda yig'ochni havog'a tashlab yana to'tmak Yahudodin qoldi. Anda kezin bir un qildi, ul to'quzi ham un qildilar, farishtalarma ko'kdin un qildilar. Ul unlar qo'rqunchidin o'n iki ming erning yuraklari yoritib o'ldilar. Malik aydi: Ne bo'ldi cherik uni kelmas bo'ldilar. Aydilar: Ey malik, ul o'nag'u un qildilar, ul undin o'n iki ming er qamug'i o'ldilar. Malik yana beklarining boqdi, yigirmi to'rt ming er birla o'tlanib keldilar. Yahudo aydi: Ey Sham'un, kezik sanga keldi. Sham'un o'tru chiqdi, aydi: Aytinq: *La ilaha illa-lou Ya'qub rasulu-llohi*. Cherik Sham'ung'a tepundilar, Sham'un un qildi kofirlar jumla halok bo'ldilar, sanadilar. O't kelib yigirmi to'rt ming erni kuyurdi, malikka xabar bo'ldi, malik yag'ang'a munda, o'n iki ming beklar o'tlanub keldilar. Yahudo qarindoshlariga aydi: Keling, bir yo'li takbir qilaling. Izi azza va jalla to'rt saf farishta izdi, tekma saf qirq ming farishta erdi. (64v) Yahudo qarindoshlari birla takbir qildilar, farishtalarma takbir qildilar. Ya'qub o'g'lonlari tepinib kirdilar, bular erda, farishtalar ko'kda. Kofirlar qo'rqub qochdilar, Qutrumg'a bordilar. Imloqdin azin hech kim ersa qolmadi, qamug' o'ldilar. Imloq taxtg'a og'ib o'lturdi, men biri qurtuldum, tedi. Anchada keyin Ya'qub o'g'lonlari yetib keldilar, Sharistonni qapug'larini berklik ko'rdilar. Sham'un aydi: Qamug' yig'ilib orqa bir qilib tomni yiqaling. Bu o'nag'u egin birla tomni tebratdilar, Sham'un un qildi, ul un yetgan yerga tegi tomlar qamug' yemurldi, kirdilar, malikni saroyda buldilar, taxt uza o'lturur. Yahudo aydi: Ey mal'un, tengri azza va jalla qudratin ko'rdung, ayg'il *La ilaha illa-llohu Ya'qubu rasulullohi*. Imloq un qildi, Sham'un ilik sundi, saqolin tutdi taxtdin quzi tortdi, Ya'qubg'a kelturdi. Ya'qub Imloqni

ko'rdi, ayg'il: *La ilaha illa-llohu Ya'qubu rasulu-llohi*. Imloq aydi: Ey Ya'qub, men bu kuni sening ilkingda bulunmen. Ne tilasang qilg'il, manga sendin taqi seni tengringdin dushmanroq kim ersa yo'q. Ya'qub aydi: Ey Imloq, imon keltursang Alloh taolo iki oncha mulk bergay, taqi yorin ujmohda o'run bergay. Imloq aydi: Manga zamon bergil evumga borayin, sening Tengring mangga mulk berurmu ko'rayin. Agar bersa imon kelturayin, tedi. Jabroil keldi aydi: Ey Ya'qub (Tengri) yorliqar necha tilasa zamon bergil. Ya'qub aydi: Necha zamon kerak? Aydi: O'n yil. Ya'qub Imloqni qo'zdi. Imloq o'z o'rninga keldi, o'lturdi. Mavlo taolo bu o'n yil ichinda anga ancha tenglik mulk berdikim yigirma to'rt ming sarhanglari bo'ldi, tekma sarhang birla yigirmi, to'rt ming er bo'ldi. O'n yil tamom bo'ldi ersa Jabroil keldi aydi: Ey Ya'qub, Tengri taolo senga salom yorliqadi, salom birla durud izdi, taqi aydi: Yahudoni Imloqg'a izg'il imon keltursun. Yahudo keldi, Qutrum sharistoniga kirdi, aydi: Ey mal'un, otam bergan va'da o'n yil tamom bo'ldi, Izi qudratin ko'rdung taqi mulk ham berdi. Emdi ayg'il *La ilaha illa-llohu Ya'qubu rasulu-llohi*. Malik aydi: Ey Yahudo, sen elchisan, elchini o'lturmak maliklarga or bo'lur, (65v) yo'q ersa boshingni kesib so'ngukingni yag'anlar azoqi oltinda solg'ay erdim. Taqi otangg'a ayg'il: Kechmish bormishni qo'zsun, qizini yarashtrub manga izsun, yo'q ersa anuq bo'lub tursun, og'ir cherik birla kelurmen, tengring manga ne qilg'ay. Bu yerga kelding ersa joduluqung ne asig' qilg'ay, o'g'lonlaringni o'lturgaymen, eling kunung ot azoqi oltinda halok bo'lg'ay, taqi qizingni tortib kelturgaymen. Ko'rayin qayu tengring sanga ilik tutar ermish. Yahudo keldi, otasinga xabar berdi. Ya'qub yalavoch Izi azza va jallaqa yolvordi. Jabroil keldi aydi: Ey Ya'qub, Izi azza va jalla sanga salom izdi, salom birla durud izdi. Aydi: Man halimmen, oshuqmazmen, Yahudog'a ayg'il yana borsun, Imloqg'a aysun: Men birmen sen mening yalavochimsen. Yahudo yana keldi, aydi: Ey mal'un, Alloh bir turur, otam Ya'qub yalavoch turur.

Imloq achig'landi, cherik yig'di, yigirmi to'rt yo'li yigirmi to'rt ming er o'tlandi, o'zi yag'ang'a munda, Kan'ong'a iki yig'ochliq yerda kelib tushdi. Ya'qub yalavochg'a xabar bo'ldi, Mavlo azza va jallaqa yolvordi, Jabroil keldi, aydi: Ey Ya'qub, Tengri sanga

salom izdi, salom birla durud izdi taqi aydi: Bu kecha sanga ul mal'undin najot berayin. Kecha bo'ldi ersa yelga yorlig' bo'ldi: esgil, teb. Tongdasi kun malikma qolmadi, xaylu hashami yer quzi bordilar. Jabroil Mavlo yorlig'i birla kelib Qutrum sharistonini yeri birla yo'g'urub ostinni ustun qildi. Jabroil keldi: Ey Ya'qub, Mavlo yorliqar, Imloqning molin tovarin, oltun, kumushin olg'il. Azinlarin o'tqa yoqg'il, kuysun. Ya'qub o'g'lonlari birla bordilar. Imloqning molin tovarin, oltun kumushin oldilar. Azinlarin o'tqa yoqtular, kuydurdilar. Kan'ong'a kelib o'turdilar.

QISSAYI YUSUFI SIDDIQ ALAYHIS-SALOM

Ul Ya abati inni ra'aytu ahada ailara kavkaban va ash-shamsa va al-qamara ra'aytuhum li sajidin tushin ayg'an, ul otasindin Ya bunayya la taqsus ru'yaka ala ixvaxika fa yakidu laka kaydan nasihatini eshitgan, ul qarindosh jafosing'a ilinib quzug'qa tushgan, ul quzug'din chiqib, o'n sekiz badal yarmoqg'a sotilg'an, ul Va j'alni ala xazaini al-arzi inni hafizun alimum teb o'zini o'ggan, ul Misr tishilari balosing'a muftalo bo'lub, Rabbi as-sjnu ahabbu ilayya mimma yad'unani ilayhi zindonini ixtiyor qilg'an, oxir vaqtinda Tavaffani musliman va al-hiqni bi as-salihina teb Mavlog'a yolvorg'an Yusuf yalavoch alayhis-salom.

Chin o'n iki erdi Ya'qub sovhining bolalari,

Ko'rsa aning birtak erdi bo'ylari bololari.

O'n birinchi Yusuf erdi suvrati yavloq bediz,

La'l ichinda gulchirar ko'p lu'lu'i lolalari.

Ko'rk qiliq ziynat malohat ham nubuvvat, ham karam,

Bosh azoqg'a tegru jumla Mavloning ololari.

Ota sevgan, otasing'a tush ko'rub yo'rdurg'uchi,

Ne hasad qildi, ko'r, anga ul o'gay og'alari.

Ul Misr mulki ichinda maliklar xotunlarin,

Qul qilg'an ul qamug'ni zulfning lolalari.

Qul sotildi el ichinda qayra oldi qul qilib,

Voliy bo'ldi Misr ichinda buldilar Mavlolari.

Ug'on Izimiz kitobi qadim, Qur'oni azim munavvari karim ichinda xabar berur, yorliqar. Qavluhu taolo. *Nahnu naqussu alayka ahsanaal-qasasi*, ma'nisi ul bo'lur: Ey Muhammad, xabar beraling sanga. Xabar bermakka egragi bu uzun ahsani qissa qach qisqa bo'lmasun, teb qach harf foydalar bu qissa avvalinda yod qilindi. Savol: (66r) *ahsan* temakda hikmat ne erdi? Javob: Ul tururkim, Qur'on ichindagi qamug' qissalaridin telimrak, foydasi ukushrak Yusuf qissasi turur. Ul yo'ldin *Ahsan ul-qasas*, tedi. Ikkinchi javob: Bu qissa avvalindin oxiring'a tegi ba'zi qavlincha qirq yil, ba'zi qavlincha sekson yil kechdi, aning uchun *Ahsan ul-qasas* temak bo'lur. Uchunchi javob: Azin qissalarda, azin oyotlarda kelmish, ammo Yusuf qissasi tugangincha bu surada keldi. Aning uchun *Ahsan ul-qasas* tedi. To'rtunchi javob: Azin qissalarda yot kishilar orasinda erdi, ammo Yusuf qissasi ona taqi o'g'lonlari orasinda erdi, aning uchun *Ahsan ul-qasas*, dedi. Beshinchi javob: Bu qissada uch hol bor rohatda, emgakda, Mavlo toatinda, xaloyiqlar orasinda ezgu muomalat qilmoq, kenglikda, torlikda ilik ochuq tutmoq. Oltinchi javob: Yusuf qarindoshlari birla ezgu muomalat qilduqi taqi ularning jafosinga sabr qilduqi uchun. Yettinchi javob: Bu qissaning avvali tush, o'rtasi tush, oxiri tush erdi, aning uchun *Ahsan ul-qasas*, tedi. Sekizinchi javob: Bu qissa ishq birla tamom bo'ldi, aning uchun *Ahsan ul-qasas*, tedi. To'qquzunchi javob: Rasul alayhis-salom yorliqadi, kimersa o'n turluk balog'a ilinsa o'n surani o'qusun, kim ersa navsiposliq mendin ketsun tesa *Alhamdu surasin o'qusun*, kimersa o'g'rilardin qurtulayin tesa *Surat ul-baqarani o'qusun*, kimersa chig'oyliqdin qurtulayin tesa *Ol imronni o'qusun*, kimersa qazg'u ko'nglumdin chiqsin tesa *Surat ul-an'omni o'qusun*, kimersa nifoq ko'nglumdin chiqsun tesa *Surat ul-anfolni o'qusun*, kimersa o'fkam o'chsun tesa *Surat ul-asrni o'qusun*, kim ersa qazg'u menga harom bo'lsun tesa *Alam nashrahni o'qusun*, kimersa kufr va shirk mendin ketsun tesa *Surat ul-ixlosni o'qusun*, kimersa jodluqdin omon tilasa *Surat ul-mu'avvizatayinni o'qusun*, kimersa bu o'n turluk qazg'u mendin ketsun tesa *Yusuf* surasin o'qusun. Aning uchun qamug' balolar Yusuf qissasinda bor.

(66v) Aymishlar, Ya'qub yalavochning olti xotuni bor erdi. Tekma xotundin iki o'g'ul bo'ldi-o'n iki o'g'ul bo'lur. Latifa. Ulviy olam ichinda o'n iki burjlar bor. Qavluhu taolo. *Teparaka allazi ja'ala fi as-sama'i burujan*. Qavluhu taolo. *Va as-sama'i zati al-buruji*. Ul burjlar bu turur: qo'zi (hamal), uy (savr) erandand (javzo), quchiq (saraton), kur arslon (asad), bug'doy boshi (sunbula), ulgu (mezon), chizan (aqrab), yoy (qavs), o'g'loq (jady), ko'nak (dalv), baliq (hut). Bu o'n iki burjda yeti yulduz yuriyur. Qavluhu taolo. *Fa la uqsimu bi al-xumnasi al-javari al-kunnasi*. Ul yulduzlar qayu turur tesa ayy'il: sekandiz, o'ngay, kurud, yashiq, sevit, orzu, yalchiq. Bu yulduzlar doim qaror qilmayin yuriyurlar.

Bayt

O'n iki ukak yetti aqron qiliq,
Eng ilki qo'zi, uy, erandand, quchiq.
Kur arslonma bug'doy boshi ulgu ul,
Chiyon ham yoy, o'g'loq, ko'nak ham baliq.
Yana yetti yulduz bularda yuriyur,
Sekandiz, o'ngay ul kurud ham yashiq.
Semit, orzu, yalchiq yog'itek bo'lur,
To'qushdin o'sanna kizibon yoriq.

Bu o'n iki burjlarda bu yeti yulduzlar tug'ar. Yana bir olami sifliyda eti burjdin o'n iki yulduz tug'di. Yeti burj qayu tesang: Ya'qub yalavoch, Shavsha, Za'ura, Sunbula, Qamar, Habiba, Rahil. Ya'qub olti xotunlari birla yetagu. O'n iki yulduzlar qayu tesang o'n iki o'g'lonlari turur: Rubil, Loviy, Sham'un, Yahudo, Iod, Don, Yafsar, Yastoxir, Zabotug, Qozur, Yusuf, Ibn Yamin.

Yusuf o'n birinchi o'g'ul erdi. Mavlo taolo anga o'n narsa karo mat qildi: ko'rk, qiliq, kechurmak, yalavochlik, tush ta'biri, ko'ni so'z, uz, avoqibat, umur, ta'vili suhuf, manjaniqi Ibrohim. Bu Yusuf tek ko'rkuk olamda naziri yo'q erdi. Rivoyat qilmishlar, Misr xalqi yeti yil qahatliq birla mubtalo bo'ldilar. Molin, tovarin, mulkin, asbobin, qulin, kungin Yusufga sotib oshliq oldilar. Anborda oshlig' qolmadi. Yangi oshlig' bolurg'a **(67r)** to'rt oy qoldi. Yusuf alayhis-

salom Misr xalqiga niqob ko'turdi, yuzin ko'rguzdi. Yusufning jamoli mushohadasi birla to'rt oy taom yemadilar, Yusufning ko'rki birla kun kechurdilar. Xabarda kelmish, Rasul alayhis-salom yorliqar: Me'roj tuninda Izidin menga yorlig' bo'ldi: Ey Muhammad, ujimohdag'i hurlarning ko'rkini dunyoda ikaguga berdim, bir onang Havvog'a, ikkinchi Yusufi Siddiqig'a. Taqi aymishlar: Mavlo ko'rkni ming ulush qildi, to'quz yuz to'qson to'quzni Yusufga berdi, bir ulushni tugal olamlarg'a berdi. Qachon Yusuf evdin chiqsa oy, kun nuri qolmas erdi, olam xalqi bilur erdi Yusuf chiqmish, teb. Kimersa Yusufga boqsa ko'zguda ko'rtatek o'zin yuzin ko'rar erdi. Qachon taomni hall qilib yutsa bo'g'zindin kechkincha ko'runur erdi. Qorong'u tun kuntek bo'lur erdi. Yang'og'lari nurindin *shaqoiq an-nu'mon* otlig' chechak uftanur erdi. Yusuf taqi Ibn Yamin Rohildin erdilar. Yusuf kichik erkan Rohil vafot qildi. Yusuf, Ibn Yamin kichik qoldilar, teb Ya'qub bularni shafqat qilur erdi onasiz teb. Ammo Yusufni qatig' sevar erdi, Yusufsiz yurumaz erdi. Yeti yoshadi ersa bir tunda tush ko'rdi inichilari birla tayog'larin yozida tikdilar, qamug'lari ko'kardi, ammo uzamadi. Yusuf tayoqi chechaklandi, ilk qat ko'kka tegi uzadi. Taqi azin tayoqlar uza ko'lika qildi. Ba'zilar aymishlar, inichilarining tayoqlari Yusuf tayoqing'a sajda qildilar. Yusuf kelib ul tushni inichilaringa aytu berdi, inichilari biri biringa aydilar: Ko'rmasmuse bu Rohil o'g'li otamizg'a sevuklukrak bo'layin teb saqinur. Tush ko'ngullaringa yoqmadi. Ikkinchi kecha yana tush ko'rdi, o'n bir yulduz, kun oy birla inib, Yusufga sajda qilurlar. Yusuf bu so'zlarni otasi Ya'qubga aytu berdi. Aymishlar: Bo'ston otlig' juhud yalavochimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi va sallamga savol qildi: Yusufga sajda qilgan o'n bir yulduzning oti ne turur? Rasul aydi: Ul yulduzlarning otini aytu bersam imon kelturgaymusan? Juhud aydi... Anda kezin Rasul yorliqadi ul yulduzlar oti chizon, toriq, qoyis, xanduh, faylaq, musabbah, vassob, rayyol, bir rivoyatda zayyol, zulamudon, zulfara', zulkittfon. Bu o'n bir yulduzlar oy kun birla ko'k etaginda Yusuf sajda qildilar. Yana bir rivoyatda, ko'kdan inib sajda qildilar. Juhud aydi: Voolohi kim Tavrot ichinda mundag'-o'qo'qdim, teb imon kelturdi. Yana aydi: Ey Yusuf, tushlaring yavloq ko'rkuk turur, qarindoshlaringa aymag'il sanga yovuz sanag'aylar. Shayton odamzot uchun ochuq dushman

turur. Qavlulu taolo. *An bunayya la taqsus ru'yaka ala ixvatika fa yakidu laka kaydan inna ash-shaytona li al-insani aduvvun mubinun.* Bu so'zni Rubil onasi Qamar eshitti, borib Rubilg'a so'zladi, Rubil qarindoshlarig'a so'zladi. Qachon Ya'qub o'g'lonlari bu so'zni eshittilar ersa *Intafaxat avdajuhum va iqsha'arrat juluduhum va izbarratshu'uruhum* qamug'lari o'fkaladilar, bo'yuntomirlari kerildi, tuyllari iriklandi, ura qo'pdi. Qamug'lari aydilar: Bu Rohil o'g'linga tab ermasmumizkim otamiz ani ortuq sevub, ortuq tutar. Taqi o'zin ortuq sevdurayin teb tush ko'rdum teyu yolg'on aytur. Biz tun-kun yozida yilqi qora, qo'y-qo'zi birla emganib yuriyurmiz. Qavlulu taolo. *Iz qolu layusufu va ahuhu ahabbu ila abina minna va nahnu usbatun inna abana lafi zolalin mubinin.* Qamug'i kengashdilar, Yusufni o'lturaling yo kendu yiroq yerga solaling. Otamiz sevuklugi xos bizga bo'lgay, teb. Qavlulu taolo. *Uqtulu Yusufu av itrahuhu arzan degan kim erdi?* Javob: Aymishlar, qarindoshlari biri biringa so'zlashur erdi. Taqi bir javob ul tururkim, shayton erdi, bir abushg'a odamiytek bo'lub keldi, ularg'a aydi: Yusuf sizlarni qullang'utek turur. (68r) So'rdilar: Netak qilaling? Shayton aydi: O'lturung, yo kendu yiroq yerga kemishing. Andag'-o'q qush qurt yegay, otangiz sevuki sizga qolg'ay. Ular aydilar: Yusufni o'ltursamiz otamizg'a yozib, lzi azza va jallaga osiy bo'lg'aymiz. Shayton aydi: Ul ish qilmishda kezin tavba qilg'aysizlar, solihlar jumlasindin bo'lg'aysiz. Qavlulu taolo. *Va takunu min ba'dihi qavman solihina.* Bu so'zni shayton so'zlab g'oyib bo'ldi, ularni bu tadbir uza qo'zdi. Yana birisi aydi: Bu ishni qilar bo'lsangiz Yusufni o'lturmang, eltib bir terang quzug'ga kemishing, yo'ldin kechganlar olib ketgaylar. Qavlulu taolo. *Qola qo'ilun minhum la taqtulu Yusufu va atquhu fi g'oyibati al-jubbi yallataqithu ba'zu as-sayyarati in kuntum fa'ilina.* Savol: Bu tadbiri o'gratgan kim erdi? Javob: Ba'zilar aymishlar, Rubil erdi, qamug'din ulug'roq ham xolasi o'g'li erdi. Ba'zilar aymishlar, Yahudo erdi. Ba'zilar aymishlar, Sham'un erdi. Yana aydi, o'lturmak qon qilmoq uluq yozuq turur, quzug'ga ko'mishaling teb, kengashdilar, Aydilar: Ey ota, yoz kuni bo'ldi. Bu kun Kun otlig' sulton Xut otlig' qishloqdin Hamal otlig' yozg'a o'g'radi. Adiz ko'k yig'lar, yag'iz yer kular, bulutlar yosh oqitsa yosh o'g'lon onadin tug'artek yosh yashab o'lgan qora yerdin ko'k yosh o'ltlar unar.

Bayt. Bahoriyoti Mavlono Nosiruddin Rabg'uziy

Qad ja'at al-azharu ba'da favtiha
Va g'annat at-tayru bi a'lo savtiha
Fa unzur ila aassari rahmati-llahi
Kayfa yuhyi al-arza ba'da mavtiha
Kun hamalga kirdi ersa keldi olam navro'zi,
Kechdi bahman zamharir qish qolmadi qori buzi,
Kun keltu ming ko'rki ortib tirilur o'lmish jahon,
Tong bedizlab naqsh birla bezanur bu yer yuzi.
Tong otardi esnayur to'rt bulungdin shamol, ziyo,
Kin tuzar kindik yipor yizlanur yobon yozi.
Yerliki maygun bag'irdin abug'i yashil, qizil,
Orasi butoq, yapurg'oq, tol chechaklar tub tuzi.
(68v) O'rlassa bulutlari gulchirar bog'-u bo'ston,
Tol yig'ochlar yeng solishur o'ynayurtek qo'y qo'zi.
Kirshani qor qani englik boqsa tog'lar surati,
To'nlug'i tangsuq yipordin Rum Xitoy atlas, chuzi.
Lola sag'roqin icharda sayrar usrub sanduvoch,
Turna un tortib o'tarda sakrashur baqlan qo'zi.
Ko'kda o'ynar qo'l solishur qug'u qoz qil qarlug'och,
Yerda yugrub juft olishur os, tiying, kish, qunduzi.
Tol yig'ochlar minbarinda to'ti qush majlis tutar,
Qumri, bulbul muqri bo'lub un tuzar tun kunduzi.
Yag'iz yer, ko'k mengizlik yashmayur maydon bulub,
Og'rushim oytek chechaklar tegrasinda yulduzi.
Huri ayn ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur.
Yoz uza mundog'g'azallar aymishda Nosir Rabg'uziy.

Aydilar: Ey ota, mundog' safoli kunda sabo nuri suvlug' vofiy Yusufni bizning birla izg'il, yobon yozini ko'rsun, baqlan qo'zilarni ko'rub qazg'ulari sochilsun, irikmish ko'ngli ochilsun, teb yolg'on til birla otalarin yalg'ab, tinch ko'ngullarni bulg'ab *Arsilhu ma'ana g'adan yartat va yal'ab* teyu qo'la keldilar. Ya'qub yalavocho aydi: Ey o'g'lonlarim, siz bilursiz men Yusufsiz suvsiz baliqdek choliqman.

Bir soat so'rumasman, sizing birla izdim ersa netak turayin! Aydilar: Ey ota, sen bizga inonmasmusen? Yusufg'a sen ota ersang bizma qarindoshimiz. Senma sevar ersang biz o'n qarindoshimiz, oramizda Yusufni ne teb qushtek uchurg'aymiz, neluk izmassan, tedilar. Qavlulu taolo. *Ma laka la ta'manna ala Yusufu va inna lahu lanasihuna.* Ya'qub aydi: Ko'nglum yavloq qo'rqar, sizlar ovig'a borib Yusufni yurtida ko'zg'aysiz, bo'ri yegay sizlar ko'rmagaysiz. Qavlulu taolo. *Qola inni layahzumuni an tazhabu bihi va axofu an ya kulahu iz-zi'bu va antum anhu g'ofiluna.* Savol: Ya'qub yalavocho ne dalil birla sizlar ovig'a borg'aysiz Yusufni bo'ri yegay teb aydi? Javob: Yalavochoimiz Muhammad Mustafo alayhis-salom yorliqar, qachon Mavlo azza va jalla Ya'qubni Yusuf firoqi birla yig'latmoq tiladi ersa Ya'qubning ko'nglinga xavf dahshat soldi, qirq tun-kun yotmadi, to'n chiqarmadi, **(69r)** toatdin tiyanmadi, yavloq emgandi. Qirq tun-kun tamom bo'ldi ersa Ya'qubg'a uyqu g'alaba qildi, takya qildi, uzidi. Yusuf Ya'qub qo'ynida erdi tushinda ko'r'di, o'zi tog' boshinda, Yusufni qo'l ichinda. O'n bo'ri kelib Yusufni qabsamish, halok qilg'utek hamla qilurlar. Ya'qub tog' tepasindin boqar. Yana bir bo'ri ul bo'rilarini qovar, Yusufdin daf' qiltur. Yusuf bo'ridin xalos bo'lmishda yer yorilur, Yusuf yerga botar, uch kunda kezin yana chiqar. Ya'qub qo'rqunchda uyg'ondi. *Inni axofu an ya kulahu al-zi'bu* teduki ul bo'ldi. Ya'qub Yusufni izmazin bildilar ersa Yusufg'a kelib so'z berdilar, tazvir va hiyla birla Yusufning ko'nglun qo'pordilar. Yusuf otasi tepa bordi, otasindin zoriliq birla iltimos qildi. Meni inichilarim birla yabong'a izg'il, yozi yabonni, qo'y qo'zilarni ko'rayin, ko'nglum ochilsun, tedi. Ya'qub aydi: Ey ko'zim yoruqi, ko'nglim to'qi, bag'rim kesagi, o'zum yuksaki, teb yig'lab aydi: Men ulug' bo'ldum sensiz netak qaror qilayin, seni yavloq sevarman, tedi. Yusuf aydi: Men bilurmen meni sevarsen. Sevmakning alomati ul tururkim, sevmishing tilagincha yurisa. Mening tilagim ul tururkim, inichilarim birla borsam. Ya'qub ani eshitib, Yusufning azoqi oltinda ig'nayu boshladi. Aydi: Ey ko'rkuk yuzluk Yusufum, sening so'zungni netak sindurayin! Ug'on hukminga rizo berdim. Yorin qarindoshlaring birla izayin, tedi. Bu kecha qo'ynumg'a suqub bag'ring'a qisayin. Ul ko'rkuk yuzungni to'q ko'rayin, tedi. Yorindasi qarindoshlari keldilar,

Yusufni otalarindin qo'ldilar. Ya'qub yig'layu boshladi, aydi: Ey o'g'lonlarim, meni Yusufuz qo'zmang, Yusufg'a yaxshi boqing. Ochsa osh bering, suvsasa suv bering, orisa egningizga oling. Bular borcha aydilar: Ey ota, bu nasihatlarni yot kishiga qilg'u, biz qarindoshlaringiz neluk ocharurbiz, neluk suvsiz qo'yarmiz, tedilar. Ya'qub yig'layu Yusufning boshin yuvdi, sochin taradi. Anda kezin quchub elmindin o'p'di, ilkin yuqori ko'turdi. **(69v)** Aydi: Iziyo, Yusufumni senga topshurdim, manga tirik yondurg'il. Firoqing o'ti birla meni yondurmagil. Anda kezin Yusufni ularga berdi. Ya'qub yuzinda Yusufni Rubil egninga oldi, ko'turdi, andin Yahudo oldi, yana Sham'un oldi, andin Loviy oldi, eldin elga oldilar. Ya'qub Yusufni ko'nduru chiqdi, bir adiz tepaga og'di. Yusufning qorasi ko'runmas bo'lg'uncha bo'tasi qolmish ingantek ingrayu qoldi, ko'runmas bo'ldi ersa qatig'un birla yig'layu evinga yondi. Qachon otalari ko'zindin ayrildilar ersa Yusufni yerga chaldilar, aydilar: Ey Rohil o'g'li, yolg'on tush etmishing yetmasmu? Taqi bo'ynumizg'a minarmusan yazog'yurugil, teb isig' qumda yoling azoq qovdilar. Yusuf ordi, tekma bir qarindoshining yuzingda telmura boqa boshladi birisi rahm qilg'ay, teb, rahm qilmadilar. Qatig'suvsadi, yugurgu yarog'i qolmadi yolvorddi, aydi: Ey inichilarim, yavloq ochdim taom bering, suvsadim suv bering, tedi ersa tekma bir qarindoshi biror yangoqladilar. Borg'il ul yalg'on tushunga ayg'il osh suv berun, tedilar. Yusuf ochin, suvsiz yig'layu yuriyu boshladi. Bular burnaroq borib bir tepaga og'dilar. Muni netak o'turaling teyu kengashdilar. Biri aydi: Tosh birla yanchaling, biri aydi: Pichoq birla sanchaling, biri aydi: Tering chuqur qazib ko'maling, andag'o'q o'lg'ay, tedilar. Taom suv tiladi bermadilar. Uch yig'ochliq yerga tegi qovdilar. Qachon Yusuf qarindoshlariga yaqinroq kelsa aning so'zin qo'zub, azin so'z boshlayur erdilar. Yusuf ularning yavuz kengashlarin angladi, bildikim, o'ltururlar. Ulardin qochdi, ulug' qarindoshi Rubilni izaru bordi. Yusufni tutdilar, Rubilning azoqing'a tushdi. Yig'layu boshladi, aydi: Ey qarindoshim, ko'rmasusen meni o'lturgali o'g'radilar! Ey ulug'inichim, menga rahm qilmading ersa ul abushg'a otamg'a rahm qiling aning bag'rini kuyurmang, otam o'rning'a bu kun sen otasan menga rahm qilg'il, tedi. Meni bulardin qutqarg'il.

Yolvorddi ersa Rubil taqi Yusufni yang'oghladi. Borg'il ul yolg'on tushunga ayg'il, seni bulardin qutqarsun, tedi. Yusuf Rubildin ezgu so'z bulmadi, evruldi. Mam'ung'a bordi angama yolvorddi. Ul taqi bir yangoqladi, Yusuf yuzin tushdi, yang'oqinda besh ernak qum bilgurdidi. Yuqoru boqdi-ko'k yiroq, quyi boqdi-yer qattig'. Bir oh qilib, un ko'turdi. Yahudog'a keldi azaqing'a tushub yig'lab aydi: Ey Yahudo, qamug'din sen bag'irsoq erding bulardin faryod tekki, menga rahm qilg'il, teb nortek yang'oqi uza anhortek yoshi bo'ldi. Yolvorddi ersa Yahudoning mehri tebrandi, aydi: Ey qarindosh manga yovuq kelmagil, so'zlashur ko'rsalar menima o'lturgaylar. Qamug' yig'ilib, Yahudog'a keldilar Yahudo aydi: Ey qarindoshlarim, keling, otamiz haqqini kuzaring, ulug' kunda ne javob ayg'aysiz, o'g'long'a yovuz sanmang. Yahudog'a qatig' so'zladilar, ani Yusuf eshitib yolvorddi, aydi: Ey inichilarim, meni qayu yozuqum birla o'lturursiz? Yahudo aydi: Muni o'lturub sizga necha yer keng qolg'ay, o'lturgincha ilkin, azoqin bog'lab, quzug'ga kemushaling andag'-o'q o'lg'ay, tedilar. Savol: O'lturmaklari ikidin xoli ermas yo ls'hoq, yo qonin halol ko'rmak birla bo'lg'ay. Ular ikidin iroq tururlar. Aning uchunkim, anbiyo urug'i erdilar, qon to'kmakka neluk o'g'radilar? Javob: Anlar e'tiqod birla qon to'kmakni halol ko'rmadilar. Agar halol ko'rdi, tesamiz kufr bo'lur. Yalavochlar kufrdin ma'sum bo'lurlar. Taqi bir javob: Imom Abulhasan Shofi'iy rahmatullohi alayhi "Usmat ul-anbiyo" ichinda kelturmish, Yusufning qarindoshlari Yusufga o'g'ramishda yalavoch ermas erdilar, sag'ira, kabira netak ma'sum bo'lg'aylar. *Fanqata'a al-kalamu va sakata as-su'alu.*

Anda kezin tuz kengash qilib quzug'ga kemushur bo'lub, Yusufni tutub, sudrayu quzug' boshing'a kelturdilar. Yusuf tekmasi yuzina telmura boqib aydi: Ey qarindoshlarim, manga rahm qiling! (70v) Agar manga rahm qilmasangiz ul zaif abushg'a otamg'a rahm qiling. Tengri azza va jalladin qo'rqung, teb telim yolvorddi ersa tekma biri bir yangoqladilar. Bu so'zni so'zlaguncha butroq to'nung chiqarg'il, tedilar. Yusuf taqi yolvoru boshladi, aydi: Ey qarindoshlarim, otam haqqi uchun ko'nglakimni manga bag'ishlang, tirik qoldim ersa avratim o'rtsun, agar o'lsam kafan bo'lsun. Taqi ilkim bog'lab meni solmang yoza bering, quzug'dag'i

qush, qurt, yilonlarni qo'rig'ayman, tedi. Aydlilar: Oy kunga taqi o'n bir yulduzg'a ayg'il to'n bersun, yoza bersun, teb unamadilar. Ko'nglakini suchulub belinga yip bog'lab quzug'ga izittilar. Quzug'ning yorimig'a tegdi ersa yipni kesdilar. Qavluhu taolo. *Fa lamma zahabu bihi va ajma'un an yaj'aluhu fi g'oyabati al-jubbi.* Yusuf quzug' tubinga tegmasdan burun sidrat ul muntahoda Jabroilga yorlig' bo'ldi. *Adrik abdi.* Tark qulum Yusufni tutg'il, teb. Jabroil bir qanit to'qidi, quzug' tubinda bir ulug' urung tosh bor erdi ani suv yuzing chiqardi. Jabroil qanit birla siqadiyu to'rqatek yumshoq bo'ldi. Yana ujmohtin bir musallo, bir ko'nglak kelturdi, Yusufga kizdurdidi. Yusufni tutub ul tosh uza o'lturtdi. Taqi musallo to'shayu berdi, aydi: Ey Yusuf, Mavlo taolo salom izdi, salom birla durud izdi, teb yalavochliq tegurdi. Ul kun Yusuf o'n iki yoshlig' erdi. Aydi: Ey Yusuf, Tengri azza va jalla yorliqar, mening hukmunga sabr qilg'il, najot berib, Misr elinga malik qilayin. Otang Ya'qubg'a salomat qovushturayin. Anda kezin Jabroil bu duoni o'gratu berdi: *Allohumma ya kashifa kulli kurbatin, va ya mujiba kulli da'vatin, va ya sani'a kulli masnu'in, va ya jabira kulli kasirin, va ya sohiba kulli g'aribin, va ya munisa kulli vahidin, va ya shahida kulli najva, va ya hazira kulli balva, va ya la ilaha illa anta subhanaka as'aluka an taj'alani farajan va maxrajan va an taqzifa xubbaka fi qalbi hatta la yakuna li hammun va zikrun g'ayruka va taxfazani (71r) va tarhamani ya arhami ar-rohimina.* Aymishlar, kim berk yerga kirsu yo balog'a ilinsa bu duoni o'qusa Mavlo taolo najot bergay. Yana ujmohtin ne'matlarin keltura berdi. Jabroil qaniti birla quzug' ichini siqadi ersa bo'stontek haram bo'ldi. Ul quzug' Urdun yerinda Madinali Misrli orasinda Kan'ong'a uch yig'ochliq yerda Nuh yalavoch o'g'li Som qazmish erdi. Ul quzug' oti *Hubb ul-axyor* ma'nisi ul bo'lur *ezgu quzug'i*, temak bo'lur. Ul quzug' suvi achig' erdi, totlig' bo'ldi, qorong'u erdi, yorong' bo'ldi. Jabroil Yusufning iliklarin yoza berdi. Bir ayva kelturdi, Yusuf ani yedi, to'ydi. Aymishlar, ul quzug'da tuproqda yotg'an bir qarag'u yilon bor erdi, Yusufning unin eshitib Yusufni yegalu o'g'radi. Jabroil bir qatig' un qildi, ul undin quloqi sag'ir bo'ldi. Ko'zlug' ilon ko'zsiz bo'lmasa Yusuf jamolin ko'rub yegali o'g'ramag'ay erdi.

Rivoyat. Shayx Basriy rahmatulloh, Yusuf quzug'g'a kirmishda yeti yoshlig' erdi. Malikka sekson yil kechdi. Vafot bo'lmishda yuz yigirmi yashayur erdi. Taqi xabarda kelmish, yalavoachimiz Muhammad Mustafo alayhis-salom Jabroilg'a so'rdi: Ko'kdin yerga inarda emganurmusan? Aydi: Yo rasulalloh, to'rt yo'li yavloq emgandim. Bir Ibrohim Xalilni manjiniqg'a urub, o'tg'a otmishda sidrat ul-muntahodin qanit to'qib, o'tg'a tushmasdin ashnu tutdum. Ikinch, Ibrohim Ismoilni qurbon qilurda pichoqni tortmazdin buruk tutg'il teb yorlig' bo'ldi. Sidrat ul-muntahodin inib, pichoq yuzin orqasing'a evurdum. Uchunch, Yusufni qarindoshlari belin bog'lab quzug'g'a izdilar. Quzug' yarimig'a tegdi ersa yipni kesdilar, sidrat ul-muntahodin inib tutdum. To'rtunch, Uhud to'qushinda saning muborak tishingga tosh tegib qon oqmishda yorlig' bo'ldi, qon yerga tushmasdin burun tutg'il, teb. Yerga tushmasun to qiyomatg'a tegi o't, yem unmagay, teb sidrat ul-muntahodin inib, ul qonni qanitim birla tutdum. (71v) Bu to'rt yo'li emgandim, tedi. Savol: Yusufni quzug'g'a soldurub yana chiqarmoqg'a hikmat ne erdi? Mavlo taoloning tilagi azalda ulkim, iki habashiy o'g'lonlar imon kelturganlari mening hazratimda yaqin bo'lg'aylar. Ul iki habashiyning biri Bashir otlig', yana biri Bushro otlig'. Ul ikaguni Molik Za'rga qirq yil qul qildi. Qulluq qildilar, qachon qirq yil tamom bo'ldi ersa Yusufg'a quzug' ichinda to'rt kun tamom bo'ldi, Molik Za'r ko'nglinga kemishdi: Misrdin Shomg'a safar qildi. Mavlo qudrati birla yo'l ozib Kan'on viloyating'a tushdi. Yusuf quzug'i boshing'a kelib tushdilar. Bashir, Bushro otlig' qul o'g'lonlarni quzug'g'a suv olg'alu izdilar. Bular borib quzug'g'a qova soldilar. Mavlo yorlig'i birla Yusuf iki azoqin qovag'a urdi. Bashir tortdi, oshurdi, qovada Yusufni ko'rdi, oydin, kundan ko'rkluk. Bashir un qildi: Bushro quzug'din bir o'g'lon chiqardi! teb. Qavluhu taolo. *Qolaya bushro haza g'ulam va asarruhu bi-maqsudg'a*. Ya'qub yalavocho o'g'lonlari Yusufni quzug'g'a solib bormishda bir o'g'loq bo'g'uzladilar, qonini Yusuf ko'nglakinga bulg'adilar. Kech vaqtda kenj o'g'londek yig'lashu otalarig'a keldilar. Qavluhu taolo. *Va ja'u abahum isha'an yabkuna*. Aydlilar: Ey ota, biz yilqi qora kuzarur bo'lub Yusufni o'tog'da qo'yduimiz.

Biz kelgincha Yusufni bo'ri yemish. Nechama biz ko'ni so'zluk ersamiz sen bizga inonmagaysan. Qavluhu taolo. *Qolu ya abana inna zahabna nastabihu va tarakna Yusufu in da mata'ina va akalahu azzi'bu va maanta bim'u mi nin lana va lav kunna sodiqina*. Onchada qarindosh, teyu yig'lashimda qonlig' ko'nglakni otalari o'ngunda qo'ydlilar. Qavluhu taolo. *Va ja'u ata qamisih'i bidamin kazibi*, yolg'on qon kelturdilar. Qon yolg'on ermas erdi, ammo so'zlari yolg'on erdi. Oyshaning raziyallohu anho qiroati bu turur: *bidamin kazibin dolun g'ayru mu'jamatini birla ma'nisi toza qon*, temak bo'lur. Ya'qub yalavocho (72r) bu so'zni eshitdi ersa Yusuf qildi ersa o'gsuz bo'lub tushdi. Qachon o'nginga keldi ersa Yusuf yuzin yizlayin, teb ko'nglakni butun ko'rdi, aydi: Ne bag'irsoq va mehribon bo'ri ermish, kundan ko'rkluk Yusufumni yeb ko'nglakini yirtmamish. Ul bo'ri Yusufning ko'nglaki uchun o'ltirmish ersa ko'nglakini neluk olib ketmadi.

Bo'ri yedi, teb quloq birla eshitdi, amma qonlig' ko'nglakni ko'z birla ko'rdi. Yeti tun kun Kan'on yobonin kezib, iki ilki birla belin tutub aydi: *Ya habibi va ya qurrata ayni va ya samarata fu'adi fi ayyi jubbin tarahuka va fi ayyi bahrin ag'raquka va biayyi sayfin qataluka va biayyi arzin dafanuka*. *Ma'nisi ul bo'lur*: Ey sevarim va ey ko'zum yoruqi va ey bag'rim kesaki va ey ko'nglum mevasi, qayu quzug'g'a kemishdilar seni, qayu daryog'a boturdilar seni, qayu qilich birla o'lturdilar seni, qayu yerda ko'mdilar seni. Ey Yusufum, qayu bo'ri qorninda yotursan. Ul og'ulag'u yumshoq etingni yeyurda netak qiynanub sabr qildung. Ul arig' so'nguklaring qayu yobonda yotur erkan. Ey koshki, sening birla chiqsa erdim, ne bo'lduqungni o'z ko'zum birla ko'rgay erdim. Ey koshki, seni yegan bo'rini ko'rsam erdim, azoqi tuproqini ko'zumga to'tyo qilg'ay erdim. Ul bo'rini o'ngumdin ketarmagay erdim, teb yig'ladi. Ul kun uch yuz oltmish yo'li behush-o'gsuz bo'ldi. O'ngunga keldi ersa yana yig'ladi o'g'lonlari otalarin andog' ko'rub *Zayya'na axana Yusufu va qatalna abana Ya'quba*: Birodarimiz Yusufni zo'yi qildik va otamiz Ya'qubni o'ldurdik, teyu otalari birla yig'lashdilar. Anda kezin aydi: Bu ish siz aymishdek ermas, anchasi bor sizning nafsingiz sizni bu ishga yo'ichiladi, sizdin chiqarin qildingiz. Manga sabrdin azin chora yo'q turur. Qavluhu taolo. *Qola bal*

savvalat lakum anfusukum amron fa sabrun jAMILUN va-*Allohu al-musta'anu ala ma tasifuna*. Ya'qub yig'ladi, o'g'lonlari aydilar: Ey ota, Yusuf uchun o'zungni o'lturmusen? Tilayur ersang Yusufni yegan bo'rini sanga kelturaling, ani ko'rsang ko'nglung emrulg'ay. Aydi: Boring, kelturung. Qamug'i chiqdilar, yobonda bir bo'ri qarshu keldi, tutdilar, qo'lini, bo'ynini bog'lab, og'zing'a qon surtub, Ya'qub yalavochga kelturdilar. Yusufni yegan bo'ri bu turur, tedilar. Ya'qub bo'rining og'zi qonlig' ko'rdi ersa oh qildi, o'g'suz bo'ldi. O'nginga keldi ersa duo qildi aydi: Ilohiy, bu bo'riga til bergil so'zlashayin, tedi. Yorlig' keldi: Ey Ya'qub, so'rmoq sendin, so'zlamoq mendin. Ya'qub yalavoch so'rdi: Ey bo'ri, Tengri haqqi, rost ayg'il Yusufumni netak eding? Bo'ri tilga keldi, aydi: Yo rasulalloh, bilmasusan, qamug' yalavochlar eti harom turur. Men Yusufni ko'rmishim yo'q. Uch kun bo'ldi ochman, ko'zum yoruqi o'g'lonimni yitirub tururman. Ul achig'din uch kun bo'ldi osh yemishim yo'q. O'g'lonimni tilayurda bu yolg'onchilar meni tutub, og'zimg'a qon surtub, sanga kelturdilar. Ey Ya'qub, duo qilg'il, bo'lg'aykim sening duo barakatinda o'g'lumni manga ro'zi qilg'ay. Ya'qub duo qildi, bo'ri dastur tiladi chiqdi. Ul-o'q kun bo'ri o'g'lini buldi. Anda kezin Ya'qub alayhis-salom o'g'lonlari tashg'a chiqdilar. Emdi boraling, Yusufni o'lturaling, boshin azoqin kesib kelturaling, otamiz ko'ngli emrulsun, tedilar. Yahudo unamadi. Qachon Yusufni quzug'din chiqardilar ersa ul iki habashiy qullarni ko'rub, iki ilkini ularning yuzinga siqadi ersa yuzlari, tanlari urung bo'ldi. Ikagu imon kelturdilar, sevunmishda Yusufg'a sajda qildilar ersa, aydi: Ey yigitlar, maxluqg'a sajda qilmanglar ravo emas, sizlarni, bizlarni yaratg'an Tengrig'a sajda qiling. Bushro aydi: Bizni taqi sizni yaratg'an kim turur? Yusuf aydi: Qamug'ni yaratg'an bir Alloh turur. Mulkin ichinda sherik yo'q, mulkinga zavol yo'q. Aydilar: Imon arza qilg'il. Yusuf imon arza qildi, musulmon bo'ldilar. Yusufni quzug'in chiqarmoqg'a hikmat bu erdi. Savol: Yalavoch o'g'lonlari sotilmoq ravo emas. Yusufni qul mengizlik sotdilar, hikmat na erdi? Javob: Kunlarda bir kun Yusuf quzug'g'a boqdi, o'z yuzini ko'rdi, tongladi, (73r) ko'nglida kechdi, bu ko'rk birla qul bo'lsa erdim bahomni kim bera olg'ay erdi. O'z ko'rkkinga kuvandi ersa qul, teb o'n sakiz badal yarmoqg'a

sotdilar. Ko'rkka kuvanganning bahosin ko'rguzdilar. Sotilmoqda hikmat bu erdi. Qachon Yusufni quzug'din chiqardilar ersa qarindoshlariga xabar bo'ldi, keldilar. Molik Za'rg'a aydilar: Bu bizning qochg'unchi qulumiz turur. Uch kun bo'ldi bizdin qochib turur. Olur ersang sanga sotarmiz, tedilar. Malik Za'r olayin, tedi. Ul holda Rubil kelib ibriy tilincha Yusufg'a so'zladı: Biz ne tilasamiz sen andag'o'q turur teb ayg'il. Yo'q ersa seni o'lturumiz, tedi. Molik Za'r: Qulmusen? teb Yusufg'a so'rdi. Yusuf aydi: Qulman, ya'ni Mavloning quliman, tedi. Aydilar: Bu qul kichikdin borda bizning birla turur, sotg'alu ko'nglimiz bo'lmas, o'zi unasa sotaling, tedilar. Ammo munung uch aybi bor. Ul avvalkim o'g'ri turur, ikinch aybi qochg'oq turur, uchunch aybi yig'loq turur. Molik Za'r bu uch aybni qabul qildi. Aydi: Menda yarmoq yo'q, yilqi qora bor, tovar berayin. Ular kengashtilar tovar yilqi olsamiz otamiz bilgay, yilqi qorag'a unamadilar, yarmoq kerak, tedilar. Molik Za'r qo'pdi, arqish aro kirdi. O'n sekiz misr yarmog'i buldi, tarozug'a tortdilar, o'n sekiz og'ri keldi. Kan'onda ul yarmoqning ikisin bir yarmoqg'a olur erdilar. Kan'on yarmoqning to'quzig'a Yusufni sotdilar. *Va sharavhu bisamanin baxsin darohima ma'dudatin va kanu fih min az-zahidina*. Malik Za'r, aydi: O'z elingiz birla bitik bitib manga bering, tedi. Aydilar: Xat bitik berurmiz, ul shart birlakim, azoqing'a kishan urg'il, qatig' ingirchaqg'a mundurg'il taqi yiroq yerga eltib sotg'il. Molik Za'r bu uch shartni qabul qildi, Yahudo xat bitidi: Bismillohir rahmonir rahim, biz Ya'qub o'g'lonlari avval Rubil, ikinch Sham'un, uchunch Yahudo, to'rtunch Lovi, beshinch Jod, oltinch Don, yetinch Ya'shar, (73v) sakizinch Yastoxir, to'quzunch Zabodun, ba'zi rivoyatda Riyuyolun, temishlar, o'nunch Qazur. Biz o'nag'u(miz) Ya'qub yalavoch o'g'lonlarimiz. Yusuf oglig' qulumuzni molik Za'rg'a o'n yeti og'ri yarmoqg'a sotdimiz, uch aybini aydimiz. Molik Za'r uch aybni qabul qildi, avval aybi o'g'rilik, ikinch aybi qochg'oqliq, uchunch aybi yig'loqliq. Azin uch shart qildimiz, molik Za'rma ani qabul qildi. Avval ayoqing'a kishan urmoq, ikinch qatig' ingirchoqg'a mundurmak, uchunch yiroq yerga eltib sotmoq. O'z ilkin bu xat oldimiz. Malik Za'rdin tamom baho oldimiz. Bu bitik fulan kunda, fulan oyda, fulan yilda bitildi, teb xat berdilar. Yusufni anga

topshurdilar, o'tog'laringa yondilar. Kecha bo'ldi ersa Yusuf molikdin dastur tiladi: Kichikdin ular birla turur erdim borib ularga vido' qilayin, tedi. Molik Za'r dastur berdi taqi azoqing'a kishan urdi, taqi bir o'g'lin muakkil qildi. Yusufning og'ir kishan birla yurug'u yarog'i yo'q erdi, iki singar bir yuzin tushar erdi, ul ko'rkluk yuzi tuproqg'a bulg'andi, yang'oqlariga tikan sanchildi, yuzi, ko'zi qong'a bulg'andi, qarindoshlariga keldi. Yusufni andog' ko'rdilar ersa ularma yig'lashtilar. Yusuf tekma birin boshg'a-boshg'a quchub, salomat qoling, teb vido' qildi. Qamug'lari Yusufni uftanib yuzing boqumadin orqan evrulldilar. Yusuf aydi: Ey qarindoshlarim, bu ishni mening haqqing'a qildingiz azinlarga qilmang, ulug' bo'lmishda otamdin meni azirdingiz. Ey qarindoshim Yahudo, salomat qolg'il, otamg'a mendin salom ayg'il, mening uchun ta'ziya tutg'il. Ey Yahudo, qamug'din bag'irsoq sen erding, zinhor borarda meni angg'il, qayda quzug' ko'rsang meni saqing'il. Ey Yahudo, qachon otam birla o'turmishda Yusuf qayda erkan, kimung birla yurir erkan, kimung yuzunga telmura boqib turur erkan, teb yod qilg'il. Ey Yahudo, bu kun to'rt kun bo'ldi sizlardin azrilg'ali, sizlarsiz umadim, g'aribliqda sizsiz netak qilg'ayman. Ey qarindoshlarim, (74r) kezin o'kungaysiz, asig' qilmag'ay. Keling mening kichikligimga boqib rahm qiling, meni ul arqish begindin qayra oling, teb necha yolvordi ersa so'zin tinglamadilar. Yusuf yig'layu ul muakkil birla orqasing'a termula Molik Za'rga keldilar, arqishg'a qotildilar, arqish tebradi. Yusufni bir qatig' ingirchoqg'a mundurdilar, yo'lg'a kirdilar. Ul yo'l uza Yusufning onasining qabri bor erdi, anga tegdi o'zini tevadin quzi soldi, onasi qabrin quchti, yig'ladi, aydi: Ey onam, sendin azrilmish erdim, emdi otamdin taqi azrildim, taqi ortuqroq qul teb sotildim, azoqing'a kishan urdilar, yanchuklarim yo'g'un kishanda shishdi, nozuk etim, tanim qatig' ingirchoqda yanchildi. Ey onam, koshki sendin burunroq o'lmish kerak erdim, teyu yig'ladi. Bu holda arqishdin so'ng qolmish biragu yetib keldi, Yusufni tuproq quchib yotur ko'rdi, bir necha yang'oqladi, aydi: Beklaring ko'ni aymishlar yavloq qochg'oq, teb. Yusuf ko'ngli emgandi, ilohiy, ko'rgan, bilgansen, teb duo qildi. Mavlo taolo yorlig'i birla yel qo'pdi, karvon yo'l yeturdi. Molik Za'r arqishni yig'di, arqish tushdi, Molik

aydi: Kim ersa tengrig'a yozg'an bor ersa tavba qiling, kim ersani ozor qilmish bo'lsangiz uzr qiling, xushnud qiling tengri azza va jalla bu baloni bizdin ketarsun, tedi. Yusufni yangoqlag'an er keldi Molik Za'rga aydi: Bu o'g'lonni men bir yang'oqladim, bu o'g'lon bir duo qildi, jahon mundog' tunardi. Molik Za'r ul er birla kelib, Yusufning azoqing'a tushdi, uzrlar qo'ldi. Yusuf ko'ngli ancha birla xush bo'ldi, to'g'to'z emruldi, jahon yorudi. Arqish xalqi qamug' sevindilar. Anda kezin Yusufni og'ir layur bo'ldilar, azoqingdin kishanni ketardilar, arig' to'nlar kizdurdilar, amoriyg'a o'lturub yo'lg'a kirdilar. Savol: Yalavochnlar xalqg'a esiz duo qilmaslar, yovuz sanmaslar. (74v) Yusuf arqish xalqig'a duo qildi, jahon tunarda hikmat ne erdi? Javob: Yusuf duosi esiz duo ermas erdi. Bu er meni yang'oqladi, yozuq bo'ldi qiyomatda qin ko'rgusi, Mavlo qudrati mundag'o'q ko'rguzsun, ulma tavba qilsun, yozuqdin orinsun, tamug' azobing'a giriftor bo'lmasun, teb ezgu duo qildi, esiz duo qilmadi. Anda kezin Yusufni og'irliq birla Misrg'a eltdilar, Ushvon otlig' elda tengiz qirog'inda tushtilar, Molik Za'r kishilariga aydi: Yusufni suvg'a elting, boshliqin yuvsun, yo'l to'g'i to'zidin arinsun. Yusuf tengiz qirog'ing'a bordi, aydi: Ilohiy, bir parda karomat qilg'il, mening etim tanimni kishi ko'rmasun. Mavlo taolo Aynul-hiton otlig' baliqni izdi, suv ichinda qavrilib quzruqin boshing'a kelturub yotdi. Yusuf aning uzasinga kirdi, boshliqin yuvdi. Ul baliq holiq Izig'a yolbordi aydi: Ilohiy, bu Yusuf barakatinda manga karomat bergilkim, azin baliq arosinda mang'a ezgu ot bo'lsun. Izi azza va jalla ul baliq duosini ijobat qildi, anga iki iyol berdi. Birisi ul erdikim, Yunus alayhis-salom aning qorninda qirq kun qoldi. *Faltaqamahu al-hutu va huva mulim.* Yana biri ul erdikim, Sulaymon alayhis-salomning yuzuki aning qorninda qirq kun qoldi. Yusuf boshliqin yuvdi, yondi ersa Jabroil ujmohdin ko'nglak qelturdi, nurdin yaratilmish. Yusufg'a kizdurdi, molik Za'rma Yusufg'a atlas to'n kizdurdi, oltun toj boshing'a urdi, gavhar birla murassa' qilmish, oltun qur belinga qurshadi, Amoriyg'a o'lturtub Misrg'a kivurdilar. Savol: Ul arqish ichinda anlardin azin yerdin kelganlar bor erdi, Yusufni ularning ilkinga tushurmadi, Molik Za'r ilkinga tushurdi, hikmat ne erdi? Javob: Misr shahrinda bir zaifa bor erdi, Zulayxo otlig' azalda Mavlo azza

va jalla ul zaiifag'a Yusuf ilkinda imon (75r) taqdir qilmish erdi. Yusufni molik Za'rg'a sotdurub yana molik Za'r Misrg'a kelturub, Yusufni sotg'ug'a sabab qildi. Ul Zulayxo Yusuf ilkinda imon kelturdi, hikmat bu erdi. Qachon Yusufni Misrg'a kiviturdilar ersa Yusufning ko'rkindin kun nuri xiyra bo'ldi, Misr xalqi aro xabar tushdikim, molik Za'r bir qul o'g'lon kelturmish, kim ersa andog' ko'rk ko'rmishi yo'q. Misr urug'lari qamug' Yusufni ko'rgali keldilar, kim Yusufni ko'rdi ersa qamug' oshiq bo'ldilar. Yusufni sotg'un olmoqg'a orzuladilar. Tekma viloyatning beglari kelib oltun, kumush, yilqi qora, mol tovar yig'dilar, Yusufni olg'uchi bo'ldilar, dallol aro kirib ortuqg'a tegar tedi. Kun kelgucha bahosin orturdilar, yorikdasi kun molik taxt urdi, Yusufni atlas to'nlar birla, oltun tojlar birla, murassa' qur birla bezab taxt uza o'lturtdi. Misr elining shahriy, rustosi, boyi, chig'oyi, erkagi, tishisi kim sotg'in olg'ug'a, kim nazzorag'a yig'ildilar. Munodiy qo'pdi, qatig' unun qizqirdi: *Man yashitari g'ulaman latifan nazifan zarifan ajiban laysa fi ad-dunya mistuhu*, ya'ni: Ey Misr xaloyiqlari, kim sotg'in olur bu o'g'lonni, sifat qildim, sizma ko'rarsiz, hech odamiy ko'rk ichinda anga mengazamaz. Mundin burun tug'mishi turamishi yo'q, yuzi tegirmi, boshi yung'oq, sochi qora, sog'din, so'ldin qirg'go'jaklik, birini tortsa oshuqing'a tegar, qo'zsa tulonglarinda yig'rilur, olni kumushtek urung, qoshi qalam birla egmishtek, kirpuklari o'qtek, yuzi kuntek, yoruq, yang'ochlari qizil nortek, engi qumiyyur, qaroqlari qaynayur, aqiq erinlik, tishlari gavhartek, tor og'izlig', so'zi suchuk, o'zi silig', qilig'i tuzun, beli inichka. Surati bu, sifati bu, teyu un qildi. Ul holda Yusuf alahis-salom boshin quzi kemishib, ko'zlarindin qon yosh oqitu aydi: Ey munodiy, mundog' sifatkim sen qilursen, kim sotg'in olu bilgay. Sifat qilur ersang ko'ni so'zlagil. (75v) Munodiy aydi: Netak aytayin? Yusuf aydi: *Ayg'il: Man yashitari g'ulaman ka'iban za'ifan nahifan miskinan laysa fi ad-dunya mistuhu*. Sen aymishing urf va odat ichinda yo'q. Munodiy aydi, ko'nin ayturmen, tedi. Yusuf aydi: Ko'ni so'zlar ko'nglung bor ersa ayg'il: *Man yashitari g'ulaman Yusufu Siddiqa-llohi ibna Ya'quba Isro'ila-llohi ibni Is'haha zabihil-lahi ibni Ibrohima Xalili-llohi*. Munodiy aydi: Andog' tesam qamug' xalqning yuragi yoritlg'ay, tedi. Aymishlar, Misr elining dallollari

yig'ilib Yusufni qiymat qildilar, o'z bo'yunin og'irincha kumush, og'irincha oltun, og'irincha yipor, og'irincha shakar, og'irincha harir, og'irincha anbar, og'irincha kofur, og'irincha adim toyfiy. Yana ba'zi rivoyatda bu ayg'an mollarning tekma biri Yusufning o'n og'irincha muqarrar bo'ldi. Qachon munodiy Yusuf otalarining otin aytu berdi ersa Molik Za'ming ko'zi yosh birla bo'ldi, ko'ngli o't birla yoqildi, aydi: Ey Yusuf, ul kun quzug' boshinda erkan neluk aymading. Men seni sotg'in olmag'ay erdim. Yusuf aydi: Qo'rqdum, qarindoshlarim meni o'lturgaylar teb. Molik Za'r aydi: *La'allaka ibnu zalika ash-shayxi al-hazini ala hazbatin min hazabati Kan'ana aybki va yaqulu rabbi ruda aylayya valadi va qurata ayni va samarata fu'adi*, ya'ni Kan'on yerlari uza o'lturub aydi: Iziyo, ko'zim yoruqi, ko'nglim to'qi, iyolimni manga qovushtur tegan qazg'ulug' abushg'a bo'lg'aymussen? Yusuf aydi: Ul ko'zi yoshlig', bag'ri boshlig', firoq o'tinda o'rtanmish, hasrat tengizinda g'arqa bo'lmish, o'qtek bo'yi yotek egilmish, oytek ochuq ko'ngli tugmatek to'kulmish Isroilulloh o'g'li, Zabihulloh nabirasi Xalilulloh nofilasi Yusuf menmen, tedi. Molik Za'r ko'pub Yusufning azoqing'a tushdi, telim uzr qo'ldi. Aymishlar, ul kun Misr elinga malik Rayyon ibn Navzod ibn al-Valid ibn Arosht ibn Moron ibn Umar ibn Amloq ibn Lovad ibn Som ibn Nuh alayhis-salom erdi. Yusufning chovi bu Rayyon malikka tegdi. Rayyon malikning qudratin tonglab, Yusuf xabarini tinglab, hayron qoldi, yonindag'i yonog' (76r) mulkida inog', o'zinga mushir, o'zinga vazir, Misr Azizi Qatg'ir, aymishlar: Atg'ir otlig' vazirin Yusufni sotg'in olg'alu izdi. Ellik-ellik er birla ilik olishib, otlar yoritishib arqish tushgan erga keldilar. Azizi Misr taxt uza oy ko'rdi oh teyu otdin tushdi, qayu aql bo'lg'aykim Yusufning yuzindagi mengin ko'rub mengi yuzi birla yuzun tushub yazog'lamasa.

Foyda: Ko'rmasmen Kun otlig' malik bir tun yariminda adiz ko'kdin yag'iz yerga ko'rkluk yuzni ko'rgalu yuzun tushsa! Yusufg'a sajda qilu keldi. *Va ash-shamsa va al-qamara ra'aytuhum li sajidina*. Agar Rayyon malik izg'an Aziz Dayyon Malik yaratqan badizni ko'rub, otdin tushub, yazog' bo'ldi ersa ne ajab bo'lg'ay. Aziz aqli angib, zalil bo'lub, anga egib, qiblag'a o'tru bizni qibla qilayin, teb sajda qilg'alu o'g'radi. Yusuf aydi: *Mah mah fainni*

lastu lizalika ahlan, qilmag'il, men ma'bud ermasmen, manga sujud ravo bo'lmis. "Osor" da kelmish: *Lav azhara-llohu ar-ruha sajada laha man ra'aha*. Ya'ni Izi azza va jalla hikmati bolig'i birla jonni ko'zlardin kizladi, ani ko'rmasunlar, mandin azinga sajda qilmasunlar, teb. Haqiqat yuzinga surat niqobin kemishdi, qullarim fitnag'a tushmasunlar, teb. Ko'rmasusen Iso alayhis-salom holindin beshariyat hijoblarinda bizni keturdilar, ul otaliq hijobi erdi, qiyomatg'a tegi xalq fitnada qoldilar. Mariyamni Mavlo jufti tedilar. Iso alayhis-salomni ug'onning o'g'li, tedilar. Qavlulu taolo. *Va qolat an-nasoro al-masih ibnu-llohi*. Ammo Yusufning yuzinga niqob o'rtnadilar, suratini hijob ichinda kizlamadilar, aning uchun bir tun ichinda oy, kun olnin ko'rub, ko'kdin inib, yuzun tushub sajda qildilar. *Ashshamsa va al-qamara ra'aytujum li sajadina*. (76v) Aziz Rayyonma oy yuzluk o'g'lon ko'rub azoqing'a tushgali o'g'radi.

Bayt:

Bu ko'nglum murodg'a tekinmak tilar,

Telim xalqlar aro o'kunmak tilar.

Kun, oy sajda qilg'ay arig' yuzga men,

Bu kun otdin inib yukunmak tilar.

Hosil ul-amr. Azizi Misr Yusufni sotg'in tiladi, Molik Za'r aydi: Taqi shaharg'a kirmadimiz, bozorni ko'rmadimiz, qulni sotig'g'a kivurmadimiz, erin kun kirmishda siz netak tilasangiz andog' qilaling, teb Azizi Mismi yondurdi, yorindasi Molik Za'r Yusufg'a maliklar to'nin kizdirdi, boshing'a toj urdi, bir murassa' qur birla belin qurshadi, qosh yosin qurub, kirpuk o'qin kizlab, sabohab qilichin tortib, malomat sungusin ko'trub, jonlar bulg'ag'alu, ellar talag'alu, ko'ngullar olqalu, bulun qilg'alu tozi to'nlar kizib, tozi otlar minib Misrg'a kirdilar. Qavlulu taolo. *Inna al-muluka iza daxalu qaryatan afsaduha*. Mundayin Yusufni malikka kivrurdi, Malik Yusufni kursi uza o'lturtdi, Munodiy aydi: *Man yashtari haza al-g'ulam, al-labiba*. Yusuf aydi: *Ayg'il, Man yashtari haza al-g'ulama al-g'ariba*. Munodiy aydi: *Man yashtari haza al-g'ulama*

al-farida. Yusuf aydi: *Man yashtari haza al-g'ulama attarida*. Munodiy aydi: *Man yashtari haza al-g'ulama al-latifa*. Yusuf aydi: *Man yashtari haza al-g'ulama az-za'ifa*. Munodiyma orturayin, teb o'linur Yusufnung yoshi yinjutek to'klunur. Ul holda Jabroil etildi, yorlig' tegurdi, aydi: Ey Yusuf, qayg'urmag'il, mening izzu jalolim haqqi hurmati seni manga qul bo'lsun teyu nazzora qilg'anlarni sanga qul qilmag'incha seni bu eldin chiqarmag'aymen. Qavlulu taolo: *Va kazalika makkanna li Yusuf fi al-arzi*.

Rivoyatda kelmish, Vahob ibn Munabbah raziyallohu anhu ayur: Yusufning bahosi to'rt yuz ratl oltun, to'rt yuz ratl kumush, to'rt yuz ratl yinju, gavhar muqarrar bo'ldi. Zulayxo eri Azizi Misrg'a xabar qildi, ul o'g'lonni (77r) sen sotg'in olg'il, bizga qul bo'lsun, teb. Bilmadikim o'zi anga qul bo'lg'usi. Yana bir rivoyatda Zulayxo amoriyg'a o'lturub, tamoshadin kelurda Yusufga yo'luqdi, ko'ngul isiqdi, Azizi Misrg'a aydi: Bu o'g'lonni sotg'in olg'il. Aziz aydi: Bizing molimiz yo'q, baho tegurmagaymiz. Zulayxo aydi: Bor molimizni beraling, kizlanchilarni beraling, yetmasa bo'yumdaqi, quloqimdaqilarni chiqarib berayin. Qulluq bog' bog'lang'an bo'yung'a bo'g'moq ne kerak, ishq oyini birla inongan quloqqa oltun isirg'a ne yarashur. Aziz aydi: Ey Zulayxo, men molikdin vakil bo'lub Yusufni malik uchun sotg'in olg'alu keldim, sening uchun netak so'zlayin? Zulayxo aydi: Men borayin, malikni ko'rayin, dastur bersa Yusufni sotg'in olayin. Yorlig', Zulayxo kolobokdek o'zin o'tig'a otdi, qul olur bo'lub qulluqg'a o'zin sotdi, yo'li Yusufg'a tushdi, ko'zi ko'rklukka tushdi, ol qildi, olg'a ilindi. Ko'z birla ko'rayin tedi, ko'ngul oldurdi, uzoqg'a yugurur bo'lub tuzoqg'a yo'rkashdi, yo'l kecharda to'lun oy ko'rdi, bulun bo'ldi, o'gsuz bo'lub otdin tushdi, chechaktek mengizi so'ldi, ag'loq yerga sovuldi, qiz qirqinlari birla qarshu o'lturub, un tuzub aytu boshladi.

She'r

Yo subh al-vajhi yo zu' an-nahor-mushtahar,
Anta ruhi vajhuk al-maymunu shams av al-qamar.
Alningiz chin to'lun oYTEK qaynayur qarg'u qarog,

Yuzung kundin yoruqroq ko 'rkunguz kun yo qamar.
 Talat al-axzon va dahran fa-l-habibu qad jafu,
 Abduhu lam yaat bil-kufran yavman bal shakar.
 La 'lin ochsa yinjular'din to 'klunur turluk latif,
 Ul erinning totig 'inda qayda yetsun bol shakar.
 Ruhuk ar-rayhon nashran qad ya 'uju bi-r-rajo,
 Lafzuk al-mamzuj shahdan sora al-ahl va-l-amr.
 Ko 'rkunguzni kusayurmen erta goh bir kun bo 'lur,
 Engakim yavloq telim bor emgagan oxir emaz.
 Kuntu fi-d-da 'va muhiqqan lo bal ant al-hokim,
 Yo habibi hokazo abd al-hazini qad aqtar.
 Ko 'rkunga munglug' bo 'lubon ko 'rkini men kusayur,
 O 'rtanur bag 'rim yoqildi yoshginam yultek oqar.
 Zoka zabyun mustatilun fa-l-asvadu sinvuhu
 Qad ag'ora al-qalbu minni summa aynohu asarr
 Qo 'sh bulunglarni tararda tekma birar zulfadin,
 Kin burar kindik yipor rihus-sabo bo 'lub esar.
 Layluno sorat nahoran vajhahi an yankashif,
 Va-n-nahoru mustaniru sora laylan an basar.
 Ki yuraklik bek er erdim meni eltib bulnadi,
 Ko 'p cherikni bosti xonlar ishq cherikin kim bosar.
 Kullamo tolabtu minhi bi-intiholin qublattan,
 Lam yuhub illo sabab soqa qalbi va-n-kasar.
 Rabg'uziy Nosir qo 'rqa yuz evurnas ishqadin,
 Bek necha bushub so 'karsa qul qachon ko 'nglin kesar.

Azin yarog' bo 'lmadi ersa Yusufni olmoq uchun Azizga targ'ib qildi, bo 'lmadi ersa otlanib malikka bordi, iltimos qildi, ijobat bo 'ldi, mol tizdi, baho berdi, Yusufni oldi. Aymishlar: qachon Yusufning otalari otin Molik Za'r eshitdi ersa, bildikim bu bay Xalil urug'idin ermiş, bu bay Isroil far'idin ermiş, ul yigirma ming qatrasi ermiş, ul kunning zarrasi ermiş, ul ravza chechagi, ul bayza chujagi ermiş. Sotig'din pushaymon bo 'ldi, sotig' buzg'alu tegdi, iqolat tiladi, ijobat bo 'lmadi. Yusufni olib Kan'onga eltur bo 'ldi, bermadilar, olg'anin yondurur bo 'ldi, qo 'ymadilar,

netak qilsun azalda bitulgan aqdni Molik Za'r yozumadi, taqdira yozilg'an aqdni Za'r o'g'li buzumadi. Zulayxonning ko'nglinda Qad shag'afaha xubban munglima molik Za'rga shafo'ati asig' qilmadi. Va kazalika makkama li Yusufu fi al-arzi olmoqg'a Abu Zuloma oli aro kirmadi. Yorlig': Abu Zuloma Zulayxonning ko'nindagi ishqni netak olsun, Yusufni mulkindin netak ma'zul qilsun. Ul sotig' uzulmadi, ul bay buzulmadi ersa yolvoru Yusufg'a keldi, aydi: Ey bayt ar-risola sulolasi, nubuvvat riyozining lolasi, ey siyodot kimyosi, ey saodat tamg'asi, ey arig' urug'i, ey odamiylar uzrug'i! Koshki ul kun o'ng aymish ersang sotg'in olmag'ay erdim, oldim ersa Kan'ong'a eltib tegurgay erdim. Ne qilayin, erkim qolmadi yana olmoqg'a ilik bermas yarog'im yo'q, yondurmoqg'a yo'lum qirmas, holim qolmadi, (78r) ne hiyla qilayin imkonim yo'q, kengash kimdin qo'layin. Yusuf aydi: Azin yarog' bilmas ersang bori bahom olmag'il, ozodlar bahosin yeguchi bo 'lmag'il. Molik Za'r Yusuf so'zin qabul qildi, baho olmish erdi yana borin yonduru berdi. Latifa. Oqillarg'a oytak, kuntek yoruq turur, kofirlar dunyo Yusufin telim mol berib oldilar, og'iritmadi ham mol oldilar, ham jamol eltdilar. (Ey) musulmon menman teguchilar sizma oxirat Yusufin toat otlig' baho berib sotg'in-olurda o'sal qilmang, og'ritmang, yo'q ersa ikisindin qurug' qolursiz. Inna-lloha ta'ala yu'ti ad-dunya ala al-aaxirati an yu'tiya al-aaxirata ala annahu ad-dunya. Molik Za'r yana Yusufg'a keldi, aydi: Sening so'zungni eshitdim, olg'an mollarni Azizi Misrg'a topshurdum. Emdi sanga bir hojatim bor ijobatg'a umachim bor, sotig'chi erman, molim telim, ammo amolim yo'q, qurug' yig'ochmen, budoqim yo'q, sendin duo, haqdin umanchim bor tedi. Aymishlar, Al-valadu fi ad-dunya sururun va fi al-aaxirati nurun: o'g'ul qiz go'rga nur turur, ko'zga surur turur. Rasul yorliqadi: Avladuna akbaduna tamshi ala al-arzi. Yusuf ani eshitib ilkin ko'turdi, ko'zin ko'kka tikdi, mutoun makin. Jabroil amin yetildi, yorlig' tekurdi, aydi: Ud'u-lloha ta'ala lishshahir fainnahu qaribun mujibun: Ey Yusuf, duo qilg'il ul qulumizning hojatin qo'lg'il, qapug' ochuq, ijobat anuq. Yusuf aydi: Kayfa ad'u-lloha. Ey Jabroil, ishoratni ul iboratni o'gratu bergil. Jabroil aydi: Ayy'il: ya man yu'izzu va yuzillu va ya man yaza'u va yarfa'u va

ya man yu'ti va yamna'u va ya man huva ala kulli shay'in qadirun
 urzuq, ash-shayxa avladan zukuran. Ey o'g'il qizi bo'lmag'anlar,
 bo'ldi ersa murodicha bo'lmag'anlar! Ichlaringiz ariting,
 e'tiqodlaringiz yoriting, Bu kalimotni tilda yuriting. Bo'lg'aykim
 Yusufning duosi barakatinda qamug' tilaklariga Izi azza va jalla
 tegurgay. Inshoallohu taolo. Duoning ma'nisi bu turur: Ey davlat
 tojin boshinga urug'li, ey mazallat javonin egniga kizukli, quzi
 tushganlarni yuqoru ko'turgan, ura qo'pg'anlarni yumurg'an,
 bergansen, olg'ansen. (78v) Bu abushqag'a o'g'ullar karomat
 qilg'il. Siddiqning duosi ijobatg'a ulandi. Abdulloh ibn Abbas
 raziyallohu anhumo rivoyat qilur: Yusuf duosi Molik Za'r haqinda
 ijobat bo'ldi. Molik Za'rning o'n iki arig' qoraboshlari bor erdi, ul
 tunla tugalga tegdi, ul kecha qamug' (Za'rg'a) qovushdi, tekma biri
 ikishar o'g'ulg'a yukluk bo'ldilar. Qachon to'quz oy tamom bo'ldi
 ersa yigirmi to'rt o'g'ulg'a tug'urdilar. Yusuf muncha qurbat birla
 mundog' mehnat neluk tortdi, mundog' duo birla muncha tenglik
 ano nedin ko'turdi? Javob: Yalavochimiz Muhammad Mustafo
 alayhis-salom yorliqadi: *Inna ashadda al-bala'i ala al-anbiya'i*
summa ala al-avliya'i summa ala al-amsal fa al-amsal. Mavlo azza
 va jalla hazratinda avliyo qullar andag'-o'q bulur, igna mengizlik.
 Qamug' to'nlar yigna birla tikilur azinlarni o'rtar, ammo o'zi
 yolang qolur yo kendu chirog' mengizlik o'zi yonar, o'zgalarga
 yoruqluq berur.

Bayt

Qamug' yignalar to'n tikar kizdurur,
 Yana o'zi ko'rsang yalang'och qolur.
 Chirog'ma ulasho' kuyar o'rtanur,
 Azinlarga ko'rsang yoruqluq berur.
 Sirtu ka'anni... tuzi'u limnasi va hiya tahtariqu.

Amoriy qissalarda kelmish: Yusufni bay qilib sotar holda
 a'robini ko'rdilar, inganga munmish, teva burunduqi yetmadin
 tortmadi, el buluttek keldi, bu oy yuzlukni ko'rub to'ruqdi. Qodir
 taqdirinda Izi azza va jalla qazosinda ne (qudrat) bor bilimsmen,

tedi. Qamug' xaloyiqlar tonglashdilar. Aymishlar, ul teva uch
 kunluk yerdin Yusuf yizin bildi, ko'rguga munglug' bo'ldi, uch kun
 o't yemadi, suv ichmadi, maqsudg'a tegdi ersa emruildi. Ishorat:
 Munglug' tilsiz tevaning holi Yusuf birla mundog' bo'lsa yorlig'
 Zulayxo netak sabr qilsun.

Bayt

Ko'z ko'rgani jamol ul,
 Sevmak ani halol ul.
 Andog' jamol ko'rubon,
 Kim sevmasa vabol ul.

Aymishlar, Zulayxo Azizi Misrning evluga erdi, Aziz qibtiy
 erdi, Rayyon malikning bitikchisi erdi, mo'min erdi, imonin
 Rayyon malik bilur erdi. Sening ishlaringni biturayin meni imonidin
 tiyumag'il, temish erdi. Tengri azza va jalla ko'rkni Yusufdin olib,
 (79r) Zulayxog'a bermish erdi. Aymishlar: ul kun Yusuf o'n uch
 yoshliq erdi. Aymishlar, o'n sekiz yoshlig' erdi. Aziz Yusufni
 sotg'in oldi, evinga kelturdi, Zulayxog'a aydi: Muni ezgu tutg'il,
 mung'a ezgulik qilg'il, azinlardin ortuqroq ag'irlag'il, totlig'
 yemlar, yumshoq kizimlar bergil. Qavlulu taolo. *Akrimi masvahu*.
 Bo'lg'aykim bizga asig'i teggay, sotsamiz bizga andin ortuq baho
 olg'aymiz, sotmasamiz evda kuch bergay. Qavlulu taolo. *Asa*
an yanfa'ana, yo kendu ozod qilib o'g'ul tutung'aymiz. Qavlulu
 taolo. *Av nattaxizahu valadan*. *Qola ibnu Mas'udin raziya-llohu*
anhu asdaku an-nasi farasatan salasun: Al-azizu haysa qola asa an
yanfa'ana av nattaxizahu valadan, va ibnatu *Shu'ayb haysu qolat*
ya abati istajirhu inna xayra man ista'jarta al-qaviyyu al-aminu,
 va *Abu Bakrin haysu istaxlafa Umara raziya-llohu anhu*.

Anda kezin Yusufni Zulayxog'a topshurdi, Yusufni Zulayxo
 qatig' sevar erdi, boshin yub, sochin tarayur erdi. Kun kelu
 sevuklukli ziyoda bo'ldi, totlig' oshlar yedurdi, arig' to'nlar
 kizdurdi. Yusuf ko'z ochib Zulayxog'a boqmadi. Ul yem, ichimga
 nazar qilmadi, boshin kuzi solib otasin soqinib yig'lar erdi. Boyaqi
 a'robii yana keldi, aydi: Ey yigit, neluk yig'layursen? Aydi: Netak

yig'lamasmen, otadin, onadin azrildim, qul bo'lub sotildim. Ey a'robiiy, sen qayu eldin kelding? Aydi: Kan'on din keldim. Yusuf aydi: Ya'qubni bilurmusen? A'robiiy aydi: Netak bilmasman yalavochemiz Ya'qub turur. Yusuf aydi: Ya'qub evinda ne xabar bor? Aydi: Ya'qubning Yusuf otlig' o'g'li bor erdi, qarindoshlari ani ovg'a olu bordilar, yobonda bo'ri yemish, otalariga aytu keldilar. Ya'qub yig'layu ko'zlari ko'rmas bo'ldi, yo'l boshinda Bayt ul-ahzon otlig' ev qo'pordi, anda toat qilib yig'layur, tedi. Yusuf ani eshitib oh qildi, o'gsuz bo'ldi, o'ginga keldi ersa aydi: Ey a'robiiy, Ya'qub yalavochning Yusuf otlig' o'g'li menmen. Qarindoshlarim qul teb sotdilar. Endi Kan'onga borsang Ya'qubg'a mendin salom ayg'il (79v) va taqi ayg'il: ey otam, mening uchun yig'layu ko'zung ko'rmas bo'lmish, meningma oz tilag'u tanimga taom singmas bo'ldi! Yoruq jahon mening uza qorardi. Anda kezin Yusuf duo qildi. A'robiiyning tevasi qo'pti, yo'lg'a kirdi. Yusuf yig'layu evga kirdi. Qachon a'robiiy Kan'ong'a yetdi ersa Ya'qub yalavocho qapug'ing'a keldi, un qildi. Yusufning Zayna otlig' qiz qarindoshi bor erdi, ul chiqdi, ne buldung, ne kishisen? tedi. A'robiiy aydi: Ya'qub yalavocho'g'a so'zum bor, o'nginlarga aymasmen, tedi. Zayna aydi: Ya'qub sanga bu kun chiqg'udek ermas, bu kun Yusufning qonlig' ko'nglakin elinga oldi, o'dam ridosin kizdi, Shis tojin boshing'a urdi, Nuh asosin ilkinga oldi, Ibrohim ko'nglakin eginga kizdi, Is'hoq qurin qurshandi, Niyozin beniyoz malikka arza qildi, aydi: Ilohiy, Yusufning o'lukin-tirikin manga bildurgil. A'robiiy aydi: duosi mustajob bo'ldi, o'sh men Yusufdin keldim, tedi. Zayna kirib Ya'qubg'a aytu berdi. Ya'qub yalavocho a'robiiyni undadi, a'robiiy Yusuf salomin tegurdi. Yusuf otin eshigdi ersa bir chaqirdi o'gsuz bo'ldi, o'ginga keldi ersa aydi: Ey a'robiiy, tushmusen, o'zda o'gmusen? A'robiiy aydi: Tush ermasmen, Yusufdin keldim, tedi. Ya'qub qo'pdi, a'robiiyni quchdi, iki ko'zi orasinda o'pti. Aydi: Ey a'robiiy, Yusufumni ushu ko'zung birlamu ko'rdung? A'robiiy: Ko'rdum tedi. Ya'qub aydi: Ey a'robiiy, sen meni sevunchlik qilding ne hojating bor ayg'il, Mavlodin qo'larmen, tedi. Senma sevunchluk bo'lg'il, tedi. A'robiiy aydi: E rasulalloh manga mol tovar kerakmaz, yegucha, kiygucha molim bor, o'tuz qizim bor, o'g'lum yo'q. Duo qilg'il Izi azza va jalla manga o'g'ul

bersun. Ya'qub duo qildi, Mavlo ijobat qildi. A'robiiyga oltmish o'g'ul berdi, badali baroat qildi. Qachon Yusuf er hadding'a tegdi ersa Mavlo azza va jalla anga ilmi hikmat, tush ta'birini yanut beru yorliqadi. Qavluhu taolo. *Va lamma balag'a ashuddahu aataynahu hukman va ilman va kazalika najzi al-muhisina.* Aymishlar: erlik haddi o'n sekiz turur, (80r) ayishlar: yigirmi, aymishlar, yigirmi besh, aymishlar, o'tuz, o'tuz uch, aymishlar, qirq, aymishlar, oltmish. Qachon Zulayxo Yusufning sochin tarag'ali kelsa Yusufga o'xshayur erdi. Zulayxonning sabri qolmadi, bir kun Yusufni bo'stong'a kiyurub aydi: Ey Yusuf, mening ko'nglumda so'z bor kim ersaga aymasmen sen bilurmusen? Yusuf aydi: Ey Zulayxo, sening ko'nglumda ne borin ne bilayin, Zulayxo aydi: Ey Yusuf, mening ko'nglumda sening sevuklukung bor, seni qatig' suvormen. Yusuf aydi: Meni suvguncha o'z eringni suvgil. Zulayxo aydi: Men bori sabr qilu bilmazmen, netak qilayin? Yusuf aydi: Aning iloji sabr turur, sabr qilg'il, mening yuzumga boqmag'il. Zulayxo aydi: Mening tirikligim sanga sabr qilmoq turur. Taqi jonim xushluqi sening totlig' yizing turur, taqi ko'zum yoruqluqi sening diydoring turur. Yusuf Zulayxodin bu so'zni eshitti ersa Zulayxo qotidin ketdi, ul kun kelmadi. Tonglasi Zulayxo Yusufg'a keldi va aydi: Yusuf, bo'ston yavloq ko'rklanmish, turluk chechak ochilmish, ne matlar yegu vaqt bo'lmish, turg'il bo'stong'a borg'il ne matlar yegil, chechaklarin yizlagil, bir soat tamosho qilg'il.

She'r

*Sabo esnayur, yig'och yeng solur,
Bulut yig'layur, chechaklar kular.*

*Bu mundog' chechaklikda ko'nglum bu kun
Sening birla bo'lub ovunmoq tilar.*

Yusuf aydi: Ey Zulayxo, mening bo'stonim Kan'onda qoldi, o'zga bo'ston manga kerakmaz. Zulayxo aydi: Ul yana bir bo'stonda chechaklar suvsiz qolmish, so'lmish, anga suv bergil. Yusuf aydi: So'lmish chechakka suv bermak bo'ston iyasiga sazoroq turur.

Zulayxo aydi: Ey Yusuf, sening sevuklugingdin ko'zum yig'layu og'riqlig' bo'ldi, koshki seni ko'rmagay erdim. Zulayxo aydi: Sen mening qulumsen, manga ne uchun bo'yunsummasen? Yusuf aydi: Men Tengri quliman. Zulayxo aydi: Ey Yusuf, yaqinroq kelgil, kimdin qo'rqarsen. Yusuf aydi: Iki haqni saqlayurmen, biri yaratqan Alloh haqqin, ikinch meni sotqun olg'an Azizdan qo'rqarmen. Zulayxo aydi: Ko'k tengrisidin qo'rqar ersang xazinamdag'i molim, oltunum, kumushumni, yoqutum, gavharimni chig'oylarg'a bergaymen, sendin kechurgaymen. Agar erimdin qo'rqur bo'lsang bu zamonda og'u berib o'lturayin yana tavba qilayin. Yusuf aydi: Yezuq qilmag'il, tavbag'a munglug' bo'lmag'il. Zulayxonning achchig'i keldi qo'pdi, o'qutur enagasiga bordi, holini anga aytu berdi. Enagasi anga ko'p o'gutlar berdi, Zulayxo qabul qilmadi va za'iflandi, qazg'u eb o'lar holg'a tegdi ersa qurtqa enagasi yig'layu aydi: Ey Zulayxo, manga telim mol bergil, ul molni xarj qilayin bo'lg'aykim, tilakingga teggaysen. Zulayxo enagasiga ming oltun berdi, ming misqol yipor berdi va ming og'ir kofur berdi va og'ir baholig' iki to'n berdi. Qurtqa bu mollarni sarf qilib bir ev qo'pordi sirchadin, ba'zi aymishlar: marmar toshdin. Ul evni ko'zgudek yoruq qildi va turlug naqshlar birla bezadi. Zulayxo suratini ta'biya qildi, Yusuf surati birla ikisin yonosh a yashil, ko'k, qizil, sarig' chechaklar birla to'rt tominda va idishlarga kofur va gulob to'ldurub mundog' tilsimlar qildi. Aymishlar, yot qurtqani evga kirguzmak kerakmas. Agar qayu evga kirs a buzmay chiqmas.

G'azal

Erning balosi iki olam balosi-qurtqa,

Qurtqa qarib o'lursa solg'il etini qurtg'a.

Yot qurtqani evingda ko'rsang boshini keshgil,

Kuydur boshini o'tqa, sovr kulini qortqa.

Qurtqa necha qarisun toat qilib arisun,

Ev buzg'ali tepunsa boqmas o'ngiga ortqa.

Qurtqa buz ar ming ishini qayra tuzar tilasa,

Aning tegar balosi barcha mo'g'ulg'a, sartqa.

Qachon bu ev tamom bo'ldi ersa Zulayxo kirib anda o'lturdi, yinchka yufqa to'nlar kiyib, tani o'ta ko'rur erdi. Yusufni undatib evga kiyurdilar. Ul evning yeti qapug'i bor erdi, tekma qapug'da temur zanjirlar berkitti. Yusuf tekma qapug'din kirmishda ul qapug'ni berkitur erdilar. Qachon Yusuf Zulayxo o'lturg'an evga kirdi ersa Zulayxonni ko'rdi: bezanmish, turluk to'nlar kiymish, o'zini Yusufg'a arza qildi. Yusuf ani mundog' ko'rdi ersa tekma bir qapug' sonincha tiz to'nining bog'iga tugun sola boshladi. Zulayxo ani ko'rub xayol qildikim tiz to'nini bog'in cheshar umanchlig' bo'ldi, taqi aydi: *Ya Yusufu ma ahsana vajhaka; Ma'nisi: ne ko'rkluk yuzing bor.* Yusuf aydi: *Hakaza savvarani rabbi, ya'ni Izim mundog' yaratdi.* Zulayxo aydi: *Ma ahsana sha'raka, ya'ni ne ko'rklukdir soching.* Yusuf aydi: *Huva avvalu ma yantashiru fi qabri, ya'ni go'rum ichinda burun ketgan bu bo'lg'usi.* Zulayxo aydi: *Ma ahsana basaraka, ya'ni ne ko'rklukdur bu ko'zung.* Yusuf aydi: *Huva avvalu ma ta'kulu ad-didan, ya'ni go'rum ichinda ilk qush-qurtlar muni yegusi.* Zulayxo aydi: *Ya Yusufu unzur ilayya, ya'ni manga bir boqg'il.* Yusuf aydi: *Axafu az-zulumati fi axiri umri, ya'ni oxir umrumda ko'rmaslikdin qo'rqarmen.* Zulayxo aydi: *Za'yadaka fi sadri, ya'ni qo'lingni ko'ksunga qo'yg'il, Yusuf aydi: Axafu al-g'ulla fi al-laza, ya'ni tamug' buqovlaridin qo'rqarmen.* Zulayxo aydi: *Ya Yusufu ama tashtahi bimisli, ya'ni mentak ko'rklukka ko'nglung bo'Imasmu? Yusuf aydi: Bala va lakin axafu rabbi, ya'ni ko'nglum bor, vale Izimdin qo'rqarmen.* Yana aydi: *Ey Yusuf, Inni uhibbuka, ya'ni men seni suvarmen.* Yusuf aydi: *Inni uhibbu-lloha, ya'ni men Tengrini suvarmen.* Yana aydi: *Ey Yusuf, Udxul fi al-qaytuni, ya'ni mening birla qo'noqg'a kirgil.* Yusuf aydi: *Axafu an yazhaba fi al-jannati nasibi, ya'ni ujmohtag'i o'rnumni oldurg'aymen, teb qo'rqarmen.* Yana aydi: *Anta abdi ishtaraytuka bilami summa tatovalta alayya, ya'ni sen meni qulumsan, mol berib sotqun oldim yana manga bo'yunmu egmassen? Yusuf aydi: Kana al-lazina ixvami hina ba'uni, ya'ni yozuq qarindoshlarimda tururkim, meni sottilar.* Yana Zulayxo aydi: *Summa tatba'adu minni, ya'ni ne uchun mendin yiroq turusan? Yusuf aydi: Lihaqqi isnayni lihaqqi allazi huva ilahun fi as-sama-vati va al-arzi va lihaqqi allazi qola akrimi masvahu, ya'ni iki haq uchun, biri er,*

ko'k tengrisidin qo'rqarmen, ikkinchi meni sotqun olib muni ezgu tutg'il tegandin qo'rqarmen. Zulayxo aydi: Molin tovarim telim turur, sadaqa qilayin yer, ko'k tengrisi kechurgay, erimdin qo'rqar ersang og'u berib o'lturayin. Zulayxo necha qotlandi, maqsudi hosil bo'lmadi, (81v) umasig'a tegdi. Qavluhu taolo. *Va ravadathu allati huva fi baytiha an nafsihi va g'allaqat al-abvaba va qolat haytalak.* Munda olti qiroat bor: hayta laka, hayti laka, haytu laka, ha'tu laki, ha'ta laki, ha'ti laki. Bularning uch ma'nisi bor: biri *ho ana laki* o'sh men seningmen, ikkinchi *halumma ilayya mo huva laka*, ya ni manga kelgil nim bor ersa borisi sanga, uchunchi *Taxayya tu laka*, ya ni o'sh anuq bo'ldum, men qamug'ni anutdum sanga. *Haytu laka* o'qisang Ey tulak, men seningman, *hayti laka* hoy tulak, qachong'a tegi tulaklik qilursan. Tulak bo'lmassen, tulalgu yerim qalmadi, tilagimni tugal bergil.

Yusuf aydi: Tengri azza va jallaga sig'inurmen, Azizi Misriy meni sotqun oldi, manga ezgulik qildi, anga yovuzluk sonmag'aymen. Agar sonsam o'zumba kuch qilg'an bo'lg'aymen. Kuch qilg'uvchilar Izi azza va jalla azobidin qutulmaslar. Qavluhu taolo. *Qola ma'aza-llohi innahu rabbi ahsana masvaya innahu la yufsihu az-zolimuna.* Savol: Yusuf haqinda Zulayxonning ezguligi ko'p erdi *ahsanti masvoya* temadi, Azizni yaxshiladi *ahsana masvoya* tedi, hikmat ne erdi? Javob: Zulayxonning ehsoni havo birla bulg'anmish erdi, aning uchun ani aymadi, ammo Azizi Misriyning ehsoni havodin xoli erdi ani yod qildi. Zulayxo Yusufga qasd qildi ersa o'g'radi, Yusuf yuz evurdi, Zulayxonni ko'rmayin, teb ortqaru boqdi, o'z suratini ko'rdi, Zulayxo birla yonoshib tomida turur. Sog'g'a, so'lg'a, ustunga, osting'a qaradi andag'o'q ko'rdi. Anda kezin Zulayxog'a boqti, suratini ko'rdi, yavloq ko'rkluk. Aymishlar: Havvodin beri tishida Zulayxodin ko'rkluk yo'q erdi, ko'ngli mayl qildi. Qavluhu taolo. *Va laqad hammat bihi va hamma biha* ma'nisi ul bo'lur. Chin-o'q Zulayxo Yusufga o'g'radi. Savol: Zulayxo Yusufga o'g'radi, Yusuf Zulayxog'a nega o'g'ramadi? Javob: Zulayxo kofira erdi, zinog'a o'g'radi va Yusuf yalavochoilar urug'i erdi, zinog'a netek o'g'rasun! Aymishlar: *Hamma Zulayxo hammu al-qarori va hammu Yusuf hammu al-firor.* Zulayxo o'g'ramoqi qochmoqg'a erdi va Yusuf o'g'ramoqi qochmoqg'a erdi. Taqi

aymishlar, *Hammu Zulayxo hammu as-sifah va hammu Yusuf hammu an-nikah.* Zulayxo o'g'ramoqi haromg'a erdi va Yusuf (82r) o'g'ramoqi halolg'a erdi. Taqi aymishlar, *Hammu Zulayxo hammu at-talab va hammu Yusuf hammu alharab.* Zulayxo o'g'ramoqi tutmoq erdi va Yusuf o'g'ramoqi ketmak erdi. Taqi aymishlar, *Hammu Zulayxo hamma as-salbi va hamma Yusuf hammu az-zarbi.* Zulayxo o'g'ramoqi ozmoq erdi va Yusuf o'g'ramoqi urmoq. Andog' bo'lsa o'g'roqdin o'g'roqg'a tafovut bo'ldi. Taqi aymishlar: Yusuf o'g'roqi ul erdikim, Aziz o'lmish bo'lsa Zulayxonni nikoh birla olg'ay. Aning uchun Yusuf yigit, Zulayxo yigit ikisida ham ko'rk bor, Zulayxoda rag'bat bor va Yusufda quvvat bor va rajuliyvat bor. Ul holda rag'bat qilmasa er bo'lmas, bu ta'vil birla munda vaqf qilmoq kerak. Ba'zi aymishlar, agar munda vaqf qilsaq Yusufni fohishag'a o'g'radi temak bo'lur, bu ravo ermas. Ba'zi aymishlar: andog' holda rag'bat qilmoq erlik nishoni emas. Aning uchunkim tugal yalavochoilar qamug' ayblardin arig' erdilar, er ermaslik aybi qamug' ayblardin ulug'roq turur. O'zga kichik ayblar yalavochoilarda bo'lmas. Bu ulug' ayb Yusufga netek ravo bo'lur. Lojaram vaqf munda turur.

"Ehson al-bayon" otlig' tafsirda kelturmish: Madina shahrinda Sulaymon ibn Yasar otlig' ko'rkluk, jamollig' er bor erdi. Madina xofunlari aning birla havo qildilar, maftun bo'ldilar, eranlariga unamas bo'ldilar. Sulaymon ibn Yasar ani bilib balog'a tushmag'ayin, teb Madinadin qochti va Shomg'a bordi, anda o'ramadi. Yeti yildan so'ng Yusufni tushda ko'rdi, aydi: E Yusuf senmussen, *antallazi hammat* senmussenkim tishiga o'g'rating? Yusuf yalavocho aydi: *A'anta allazi lam tahumma*, ya'ni senmussenkim tishilarga o'g'ramading va alardin qochding? Bu dalil birla ma'lum bo'ldikim Yusuf Zulayxog'a o'g'radi, obro'yi borkim burhon ko'rdi o'zin saqladi. Qavluhu taolo. *Lav la ra'a burhana rabbihi.* Yalavochoimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi va sallam yorliqarkim, dunyodan manga uch nimarsa sevukluk bo'ldi: biri totlig' yizlar, taqi musulmon tishilar, uchunchi ko'zum yoruqi namoz (82v) ichinda, tedi. Ishorat: Yusuf Zulayxog'a o'g'ramadug' bo'lsa. *Va kazalika linasrifa anhu as-su'a va al-fahsha'a*, ma'nisi bermagay erdi. Yusuf o'g'radi, ammo Izi azza va jalladin qo'rqti,

shariat haqqin saqladi. Mavlo taolo yorliqar: kim bizga andog' sig'insakim, Yusuf sig'indi, ani andog' qutqarg'aymizkim Yusufni qutqardiq. Qavlulu taolo. *Va kazarika linasrifa anhu as-su va al-fahshaa*. Bu Yusuf bizing muxlis qullarimizdin erdi. Qavlulu taolo. *Innahu min ibadina al-muxlasina*. Qamug' yalavochochlar ham muxlis erdilar ham muxlas. O'zga mo'minlar muxlis erdilar, ammo muxlas ermazlar. Hikoyat. Bir tishi imom Muhammad ibn Hasan Shayboniyg'a oshig' bo'ldi, yo'li boshin saqlab o'ttirdi. Imom Muhammad keldi ersa aydi: Ey mo'minlar imomi, sendin bir mas'ala so'rg'um bor, bu evga kirgil so'rayin, tedi. Imom Muhammad evga kirdi, tishi so'ngincha kirdi qabug' berkitdi va imom Muhammadg'a yopushdi. Necha o'git berdi, qabul qilmadi, aydi: Mening bushug'um bor. Jon achig'idin bushug' achig'i qatig' temishlar. Meni qo'zg'il hojatimni ravo qilayin. Anda kezin sening murodingni ko'rayin. Angacha rizo berdi.

Imom Muhammad tashqaru chiqti, vujudindin chiqq'an hadasni yuziga, bo'ynig'a surtdi. Tishi ani ko'rdi ersa ko'ngli sovudi va yigrandi. Aydi: Er bu turluk ermish, tark ketgil, teb qoshidin turg'uzdi. Imom Muhammad evinga bordi va ming oltun sadaqa berdi, Izi azza va jallag'a shukr qildi. Aymishlar, odamiydin iki narsa qolur ezguluk va esizlik.

Ko'rmasmusekim, Zulayxo o'ldi va yillar kechdi. Aning yarog'siz ishini qamug' imomlar mehrobda va qamug' olimlar minbarda, qamug' muqriklar mahfilda, qamug' o'g'lonlar maktabda muni o'qiyurlar. Qavlulu taolo. *Va ravadathu allati huva fi baytha an nafs'hi va g'allakat al-abvaba*. Mundog'-o'q Yusufma dunyodin o'tti, telim yillar kechdi, ezgu oti qoldi. Izi azza va jalla kalomi ichinda o'qiyurlar. Qavlulu taolo. *Innahu min ibadina al-muxlasin*. Qachon Zulayxo Yusufni evga kiyurdi ersa, qapug'larni temur zanjirilar birla berkitti ersa, Yusuf ani sezib tiz to'ni bog'iga tugunlar urdi. (83r) Zulayxo ani ko'rub, tiz to'n bog'in yozar, teb suvunmishdin ev to'rinda but bor erdi, chodir birla yopti.

Yusuf aydi: Ul yopqoning ne erdi? Zulayxo aydi: Mening topunaturg'an butum turur, andin uftanurman. Yusuf aydi: Sen sanamdin uftanursen, men Samaddin netak uftanmagayman? Ba'zi aymishlar: Yusuf o'g'roqi ul erdikim, bu ishni qilayinmu, qilmag'a-

yinmu. Qulning o'z murodi uza erki bo'imas, ammo burhon ko'rdi, ul burhon ne erdi? Munda ukush qavillar bor. Biri ul turukim, un eshittikim, Ey Yusuf qaniti yulunmish qushtek bo'lurmusen, o'zga qushlar uchsa sen yerda qolursen. Taqi aymishlar, tomda Ya'qub yalavochoch suratini ko'rdi, aydur: Ey Yusuf, yalavochochlar erkan aymoqlar ishin qilurmusen? Qamug' shahvatlari ernaklari uchindin chiqdi. Taqi aymishlar, evning tominda bitik ko'rdikim, ey Yusuf, zino qilmag'il. Yana aymishlar, Azizi Misriyni ko'rdi. Yana aymishlar, ko'nglingdagi yalavochoqliq erdi. Yana aymishlar, Zulayxonning yuziga boqti ersa ko'ziga ko'rksiz ko'rundi. Andog'kim yuzi qavarmish yag'roqtek, iki erinlari habashiy erinlaridek, ko'zlari chaqir, burmining tushuklari keng. Yusuf andog' ko'rub, yuz evurdi. Zulayxo aydi: Ey Yusuf, bir so'zginam qoldi, sabr qilg'il ayayin, tedi. Yusuf yana yondi. Zulayxonning ichi o'rtanmishdin bu g'azalni un tortib, inchiqlayu og'ardi.

G'azal

Jilva birla solnu chiqq'an ol yangoqliq' yoni qor,

Ko'zlari yulduz, yuzi kun, olini ko'kning oyidin.

Ko'rsayurman ko'rkungizni ko'rgu bo'imas ko'zginam,

Ko'rk zakotin berki vojib qilsa ko'rkning boyidin.

Qosh otib ko'nglumni olg'an jon qo'larsiz berayin,

Ul netak oshiq bo'lurkim qaytsa ma'shuq ra'yidin.

Nogahon bir qubla qo'lsam o'fka birla hoyqirar,

Jon berib o'lgay telim ul jumla qilg'an hoyidin.

(83v) Rabg'uziy qul Nosiruddin tab'i turluk so'z tuzar,

Gulchirab esruk o'lay ko'z boqsa quymoch qoshidin.

Yusuf Zulayxodin qochg'ug'a yuz evurdi, Zulayxo Yusufni tutmoqg'a ura qo'pdi. Yusuf qochdi, Zulayxo qovdi. Qayu qapug'g'a Yusuf etsa Izi azza va jalla qudrati birla temur zanjirilar ochilar erdi. Yusuf ilgari, Zulayxo so'ngincha. Yetinchi qapug'da Yusufg'a yetdi, ort etagin tutub tortdi. Etagi yirtilib bir parchasi qo'lig'a kel-di. Ikisining boshi yalang Yusufni qova mengizi qavarib tash qapug'g'a iyara chiqti. Azizni ko'rdilar tash qapug'da turur. Qavlulu

taolo. *Vastepaqa al-baba va qaddat qamisahu min duburin va alfaya sayyidah lada al-babi*. Zulayxo qapug'da erini ko'rdi, tapug'da elini tebratdi, magar soqindi. Yozuqni o'zundin ko'tardi va Yusufg'a yukladi. Aydi: Sening evingda evlukungga yovuzliq song'an, ilik sung'anning jazosi ne turur? Ul Aziz aydi: Mening evlukimga kim yovuzliq sondi va kim ilik sundi? Zulayxo aydi: Men bu soat evda yotur erdim. Yusuf kirdi, meni ko'rdi, yolg'uz. Ev avloq, menga ilik sung'ali o'g'radi. Achig'landim, tutayin teb quva chiqdim, seni munda ko'rdum, tedi. Netek kim Xudoyi taolo ul ikisindin xabar berur. Qavluhu taolo. *Qolat ma jaza u man aroda biahlika su'an*. Latifa. Zulayxo majoziy erdi, o'z yozuqin Yusufg'a yukladi. Aydi: *Majaz a u man aroda bi ahlika suan?* Qachon sevukluki bo'ldi ersa do'stini og'irladi va arig'ladi. Ne kelsa menga kelsun, teb yozuqni o'ziga yukladi, aydi: *Ana ravadtu hu an nafsini va innahu lamin as-sodihina*. Aymishlar, tishisiz tiriklik yo'q, tishi birla tinchliq ham yo'q. Belguluk balo turur, balosiz kim ersaga bo'lmoq yo'q. Yusufni balog'a kiyurdi. Yana tuzmadi, o'lturgay deb qatig' qo'rqdi va ol qilib zindong'a yo'l ko'rguzdi. Netakkim, Izi taolo xabar berur. Qavluhu taolo. *Ilia an yusjana*. Yana soqindi, zindong'a solsa yuzun ko'rmagayman va onsiz (84r) sabr qilu bilmagayman, teb o'zga makr chiqardi. Qatig' qin ko'rdi *av azabun alimun*. Yusuf Zulayxonning balog'a solg'anin eshitti va ko'rdi ersa, tek tursak yozuq menga yuklangay teb aydi: Men anchag'a tegi qotilmadim, ul mani o'ziga o'qidi. Qavluhu taolo. *Hiya ravadatni an nafs*. Aymishlar Zulayxo bir soat ichinda uch makr tuzdi, avval o'zundin yozuqni ketardi va Yusufg'a yukladi. *Ma jaza u man aroda biahlika su'an*. Yana qo'rqti, o'lturgay deb zindong'a soqindurdi. *Ilia an yo'sjana*. Yana soqindi, zindong'a yo'l ko'rguzdum, bag'ri tutar mayli bor tedurgam, teb qatig' qing'a ishorat qildi, aydi: *Av azabun alimun*. Qachon Zulayxo bu talbislar qildi ersa Aziz Yusufg'a boqib aydi: Men seni sotqun oldim, amin va mu'tamad qildim, o'g'ul tutundum. Manga yanut munimu qilding? Yusuf aydi: Men arig'man, yozuqim yo'q. Zulayxo manga o'g'radi, men andin qochdim, ul meni quva chiqti. Aziz ojiz bo'ldi, mutahayyir qoldi. Zulayxog'a aydi: Sen andog' teyursan, bu mundog' teyur. Qayungiz so'zi yolg'on erkanni bilayin, tedi. Yusuf

aydi: Bu ishda o'tarak soqing'il, taammul qilg'il. Aziz aydi: Arig'liqinga tanuq bormu? Aymishlar, Zulayxonning Talxom otlig' qoraboshi bor erdi va aning to'rt oyliq o'g'long'a. Aziz aydi: Yusuf anga ishorat qildi beshik ichindagi o'g'long'a. Aziz aydi: Ey Yusuf, yozuq sen qilding va yolg'on sen so'zladang. Yana mangamu kularsen? To'rt oyliq o'g'lon netak so'zlar, tedi. Beshikdin un keldi: *Udhu minni fainna laka fi kalami farahun*, ma'nisi ul bo'lurkim, manga yaqin kelgil, mening so'zumda sanga farah bor va rohat bor. Aziz o'g'lon so'zin tingladi va yaqin keldi. O'g'lon aydi: Ey Aziz, Yusufning ko'nglakning o'ngi yirtuq bo'lsa Zulayxo ko'ni, Yusuf yolg'on, agar ko'nglakning orti yirtuq bo'lsa Zulayxo yolg'on va Yusuf ko'ni. Andin xabar berur. Qavluhu taolo. *Va in kana qamisuhu qudda min duburin fakazabat va huva min as-sodiqina*. Savol: O'g'lon ko'ni tanuq-o'q bermadi. Zulayxo yolg'on, Yusuf ko'ni, temadi, ishorat birla aydi. Hikmat ne erdi? Javob: Maxluqning tanuqlari ikidin biriga ko'ni tanuqliq berur, biriga asig' qilur, biri rasvo bo'lur, yolg'on tanuqluq (84v) berur. Ammo bu o'g'lon Mavlo azza va jalla hazratindin erdi. Yolg'on so'zlamog' ravo yo'q ko'ni so'zlasa rasvo bo'lur. Bizni rasvo qilmoq Mavlodin ravo io'q, Zulayxonning pardasin ochmadi, iborat birla⁶ aymadi, ishorat birla aydi: Ey Aziz, o'zung boqg'il, ko'nglakning o'ngi yirtuq bo'lsa Zulayxo ko'ni, Yusuf yolg'on. Foyda. Ey mo'min, o'z yozuqingni o'zga yuklamagil, yuklading ersa Mavlo o'g'londek aning arig'liqin bilgurtgay, seni rasvo qilgay. Ayzan. O'ngingda kim ersaning aybin ochmag'il. Yusufga zarurat bo'lmaguncha "Hiya ravadatni an nafs", temadi. Yana o'g'lon tanuqluq berdi ersa ravshan aymadi, o'rtuglug aydi. Azizi Misr o'zi angladi. Foyda. Zinhor kim ersani yovuzlamag'il, ul ham seni yovuzlamasin. Anchada Azizi Misr Yusufning etagiga boqti ersa ortini yirtuq ko'rdi. Zulayxog'a boqib aydi: Bu siz tishilarning kaydii turur. O'zungizni arig'lab, og'irlab o'zgaga yuklayursiz. Tishilar kaydii-makri ulug' turur. Qavluhu taolo. *Falamma ra'a qamisahu qudda min duburin qola innahu min kaydikunna inna kaydakunna azimun*. Aymishlar, tishilarning makri kaydii shahvat birla ulug' turur, ammo shayton makri Alloh zikri bila zaif turur. Izi azza va jalla Qur'on ichinda Azizdin xabar berur va yorliqar,

tishilar kaydi ulug' turur-inna kaydakunna azimun. Yana shayton kaydi zaif turur-inna kayda ash-shaytoni kaana za'ifan Tishilar kaydi nedin ulug' bo'ldi, shayton kaydi nedin zaif bo'ldi? Javob: Shayton kaydi o'rtuglug turur, zaif bo'lur. Tishilar kaydi ochuq turur, ulug' bo'lur. Taqi javob: Shayton Izi azza va jalla otin eshit-sa qochar, ketar, ammo tishilar makr qilurda ming oyat o'qusang ketmas. Taqi javob: Shayton kayd qilurda yolg'uz turur. Yolg'uz kaydi zaif, ammo tishi makr boshlasa shayton anga qo'ldosh bo'lur, qaviylanur. Qachon Yusuf arig'lig'i zohir bo'ldi ersa taqi orturayin teb ko'rganin, eshitganin so'zlagalu o'g'radi. Azizi Misr aydi: Yo Yusuf, bas qilg'il. So'zni va Zulayxonni ortuq rasvo qilmag'il. El tilin bizning uza uzatmag'il. Yana Zulayxog'a aydi: Men xud sandin kechurdim, tavba qilg'il, Tengri azza va jalladin yorliqayu tilagil. (85r) Mundin so'ng mundog' ishlar qilmag'il, yuzing suvin to'kmagil. Izi azza va jalla xabar berur andin. Qav-luhu taolo. *Yusufu a'riz an haza vastag'firi lizanbiki innaki qunti min al-xoti'ina*. Yusufg'a adab o'gratti, va aydi: Ey Yusuf, balog'a ilinding ersa sabr qilg'il, ezgu oting chiqsun! Ey Zulayxo, erksiz bo'lub ko'ngul oldurding ersa tavba qilg'il, Tengri kechursun. Ey Yusuf, bu so'zni qo'yg'il azin o'vurmagil, yovuz chiqmasun. *Yusufu a'riz an haza!* Ey Zulayxo, yozuq sanda, o'zgaga yuk-lamagil, andog' qilmag'il, mening haqqimni saqlag'il. *Vastag'firi lizanbiki. Innaki kunti min al-xoti'ina*. Bu so'z Misr elinda ul-ug'larining xotunlari eshitti ersa Zulayxog'a ayb qildilar, o'z qulig'a oshiq bo'lmish va qul anga bo'yunsunmaymish, teb malomat qildilar. Qavlulu taolo. *Va qola nisvatun fi al-madinati imra'atu al-Azizi turavidu fataha an nafsih*. Aymishlar, ul xotun-lar olti erdi: vazir xotuni, hojib xotuni, xozin xotuni, ayoqchi xotuni, aqtachi xotuni, bovruchi xotuni. Azizi Misrda kezin bu oltidin ulug'roq yo'q erdi. Ul olti xotun Zulayxo qotig'a kirar, chiqar erdilar. Zulayxo Yusufg'a oshiq bo'ldi ersa alarni qotig'a bormas bo'ldi, rozim ochilmasun, teb. Zulayxonning sevuklugi qatig' bo'ldi ersa ul xotunlar eshittilar, ayb qildilar. Zulayxo ani bildi, alarni mehmondorliqq'a undadi. Ko'rkuluk taomlar pishurtti, tekmasiga o'lturg'u o'run anuqladi. Qavlulu taolo. *Falamma sami'at bi makrihinna arsalat ilayhinna va a'tadat lahunna mut-*

taka'an. Uch qiroat bor *muttakaan* o'lturg'u, tayang'u o'run, *mut-takaan bittashdidi valmaddi* pichoq birla yanchib yegu taom yo kendu etmak birla yo'rkanmish et, ya'ni turmak, *muttakaan bi g'ayri maddin val hamza bittahqiqi va huval-lavha*, ya'ni qag'un. Bularni anutti. Qirq xotunni undadi, bu olti xotunni alarning orasida o'lturg'uzdi. Osh berdi, yedilar. Olti tepaq kelturdi, bu olti xotun-ning o'ngunda qo'yurdi. Bu olti tepaqda turmaklar, qag'unlar erdi, tekma bir tepaqda bir yitik pichoq qo'ydi. Aydi: Ey mening esh-larim, qo'ldoshlarim muncha yil bo'ldi menga topug' qildingiz, mening oshim, ne' matimni yedingiz. (85v) Bu kun sizlardin bir tilakim bor, berurmusiz? Qamug'i ura qo'pub, yukunub, yer o'ptilar. Ey Zulayxo, ne tilasang andog' qilaling, tedilar. Zulayxo aydi: Siz oltingiz chodirlaringizni king, yuzungizni o'rtung, pichoq elingizga oling. Do'stum Yusuf kelmishda mening ko'nglum uchun bu tur-maklardin, qag'unlardin yanchib, Yusuf og'ziga qota bering. Kim tezroq tebransa, ulug'roq yanchib Yusuf og'zig'a qota bersa anga ulug'roq xil'at bergayman, tedi. Qamug'lari qabul qildilar. Qavlu-hu taolo. *Va atat kulla vahidatin minhunna sikanan*. Anda kezin Yusufni chiqib kelsun, teyu kishi izdi. Zulayxo so'zini sindurmayin chiqib keldi. Qavlulu taolo. *Va qolat uxruj alayhinna*. Aymishlar: *Uxruj til-birla edi*, ammo *alayhinna* ko'nglinda erdi, agar til birla *alayhinna*, tesa Yusuf tishilarga chiqmag'ay erdi. Mavlo taolo til birla ayg'anindin ko'ngul birla soqing'anindin xabar berur. Qavlu-hu taolo. *Va qolat uxruj alayhinna*. Yusuf chiqdi ersa ko'rdilar, og'irladilar. Qavlulu taolo. *Falamma ra'aynahu akbarnahu fa ra'ayna nuran kazav'i an-nahari inda nuri ash-shamsi*. Rasul alay-hi-salom yorliqadikim, Me'roj tuninda Yusufni ko'rdum, to'lun oytok. Kim Yusuf yuzinga boqsa o'z yuzin yuzinda ko'rar erdi, ko'zguda ko'rartek. Yuzi ko'rkuluk, sochlari chug'd, uzdang bo'zlug', urung yuzluk, keng ko'zruk, yinchka bellik, to'ng bilak-lik, to'lug' yinchukluk, tegirtma boshlig'. Kulsal tishlaridin nur bil-gurur erdi, erinlarindin tash chiqar erdi. Yusuf evdin chiqg'ach tishilar oshuqub pichoq birla turmak kesib Yusuf og'zig'a tikka beraling, teb kesa boshladilar. Ko'zlari Yusufg'a mashg'ul bo'ldi. Bir ko'z birla iki ishni bitursa bo'lmas. Ko'zlari Yusufni ko'rar, tillari Yusufni o'gar. Tekma biri bir she'r boshladi.

Eng ilk tishi aydi:

*Ya man ra'a qamaran fi ursati ad-dari
Yo'la'ibu huran tavrān ba'da al-atvari*

Ikinci tishi aydi:

*Ma an ra'aytahu hilalan ko'iman abadan
Fi al-arzi yamshi ala rijilhi fi ad-dari*

Uchunchi tishi aydi:

*Inna al-hilala allazi jala lahu xolikuna
Ala as-sama'i yarahu al-yavma fi al-jari*

To'rtunchi tishi aydi:

*Yasidu nisvata misra hakaza arzuna
Bi al-vajhi va al-yadayni va al-aynu sahharu*

Beshinchi tishi aydi:

(86r) *Huva al-g'ulamu allazi ba'uhu ixvatuhu
Zulman va javran kafa bi az-zulmi min al-'ari*

Oltinchi tishi aydi:

*Min aali Ya'quba inna-lloha fazzalahu
Turran ala an-nasi ma'rufan bi atvari
Turkiy tili birla tarjimasi bu turur*

Avvalg'i bayt tarjimasi:

*To'fun oyni ko'rsang tug'ar qo'miyur,
Arig'hurni ko'rди ulash o'ynayur.*

Ikinci bayt tarjimasi:

*Hamul oyni ko'rgan yag'iz yer uza,
Azoqin yurirda ko'ngul bulg'ayur.*

Uchunchi bayt tarjimasi:

*Adiz ko'kda oyni yaratti Izi,
Bu kun ko'rsa oyga kelib tunayur.*

To'rtinchi bayt tarjimasi:

*Tishilarni ovlar Misr elinda,
Tutub qinayurda ko'zi qaynayur.*

Beshinchi bayt tarjimasi:

*Bu o'g'lomni sotmish qarindoshlari,
Bu kuchni muhosib qachon sanayur.*

Oltinchi bayt tarjimasi:

*Yalavoch urug'i uchun bu arig',
Aning muncha tenglik Izi sinayur.*

Tishilarning ko'zlari Yusufni ko'rar, tillari o'garlar, iliklarin, ernaklarin kesarlar erdi. Ayturlar, *Halumma ilayy fainni ahsanu vajhan min sohibati*, ya'ni qamug'din arig'roq menman, manga kelgil. Yusuf ko'rkinga hayron bo'ldilar, iliklarin kesdilar, tuymadilar, to'nlar qong'a bo'lg'andi. Qavluhu taolo. *Va qatta'na aydiyahun-na*. Aymishlar, iliklarin qonattilar. Qatoda aytur: Ernaklarin kestilar. Mujohid rahmatullohi alayhi aytur: Iliklarin bilaklaringa tegi kestilar. Ko'zlari, ko'ngullari birla Yusuf jamolin ko'rub, og'ri-qin bilmadilar. Vahab ibn Munabbah aytur: Alar qirq tishi erdilar, alardin to'quz tishi o'ldilar. Qavluhu taolo. *Va qatta'na aydiyahun-na*. Aymishlar, tashdidisiz o'qisang iliklarin kesdilar, temak bo'lur, ammo tashdid mubolag'atma bo'lur, ya'ni iliklarin qiyqim-qiyqim qildilar. Aydilar: Subhonallohi! Bu bori odamiy emas, oyina bu og'irilig' farishga turur. *Ma haza basharan in haza illa malakun karimun*. Aymishlar, Yusuf ul ko'rk birla chiqib keldi. Bu tishilarga boqmadi, birla so'zlashmadi. Aydilar: Bu odamiy zumrasindin ermaz, bu farishta turur. *Ma haza basharan in haza illa malakun karimun*. *Shin va lomni ostin e'rob birla o'qimishlar*, ya'ni bu ko'rk, **(86v)** bu qiliq birla sotilg'u qul ermas. Bu og'irilig' podshoh turur. Zulayxo ularning iliklarin kesmishlarin ko'rди, taqi kuldi va Yusufg'a aydi: Evga kirgil. Yusuf evga kirdi. Zulayxo ul xotunga aydi: Iliklaringizga boqing. Boqtilar, qamug'ernaklari kesilmish, bilaklari bog'ishlaridin ayrilmish, to'nlar qong'a bulg'annish. Zulayxo aydi: Sizlar bir ko'rub iliklaringizni kestringiz. Men erta-

kecha ko'rar ekach netak sabr qilayin, netak oshiq bo'lmayin, malomat qilg'aningiz bumu erdi? Qavluhu taolo. Qolat *fa zalikunna allazi lumtunnani fhi*. Aymishlar, kolobok chirog' ko'rub o'zin o'tg'a otib kuyar, o'zgalari anga malomat qilurlar, ikkinchi, kecha Zulayxoga malomat qilg'an xotunar koloboktek ular kelib chirog'g'a kuydilar. Netakkim shoir aytur:

Inna al-farrasha ta'ti iza ra'at lahaban

Havla as-siroji fa tulqi nafsaha fhi

Aqulu qavla Zulayxo fi avaziliha

Qolat fa zalikunna al-lazi lumtunnani fhi

O'z qilinga oshiq bo'ldi, teb manga malomat qildingiz, avval qavlim bu turur tonmasman. Yusufni undattim, qapug'larni berkitdim, etagin men yirttim. Netakkim, Tengri azza va jalla andin xabar berur. Qavluhu taolo. Qad *ravaduhu an nafsih*. Yusuf o'zin saqladi, manga bo'yunsunmadi. Qavluhu taolo. *Fasta'sama*.

Bu Yusuf ham ko'rkluk turur, ham arig' turur, ham zohid turur, ham olim turur. Man ani ko'nglincha ko'zmag'ayman, rasvo bo'ldum, el eshitti. Yuzum suvi to'kuldi. Qavluhu taolo. *Lain lam yaf'al ma amuruhu*. Men ayg'aninni qilmasa zindong'a kemishgayman. Alardin xabar berur. Qavluhu taolo. *Layusjananna va layakunanna min as-sog'irina*. Ul tishilar Zulayxog'a aydilar. Sen bu ishni bizga qo'yg'il, biz zindon birla qo'rqutaling. Yusuf ko'rdikim, Zulayxo zindong'a solurman, teyur. Ul olti xotun ham zindondin qo'rquturlar. Aydi: Ilohiy, emdigacha birag'u erdi yana oltag'u anga esh bo'ldilar. Ular yeti man bir netak qilayin! Bularning tilagini qilg'uncha zindonna sevuklukrak turur. Qavluhu taolo. *As-sijnu ahabbu ilayya mimma yad'unani ilayhi*.

Rasul alayhis-salom aydi: Izi azza va jalla ul qarindoshimg'a rahm qilsun. Ul kun Yusuf o'mig'a man bo'lsam erdi zindong'a unumag'ay erdim, ayg'ay erdim, Ey Tengrim, (87r) meni zindondin, bu tishilar balosidin saqlagil. Aymishlar mani bu zindondin, bu tishilar balosidin saqlag'il. Aymishlar, ul olti tishining zindong'a soldurmoqda maqsudlari ul erdikim, Yusufni zindong'a solsalar Zulayxodin iroq bo'lg'ay. Biz tekma vaqtda borib Yusufni topqaymiz, ko'rkluk yuzin to'ya ko'rgaymiz. Yusuf munojatg'a

qo'l ko'tardikim: Ilohiy, bu tishilar makrindin saqlamasang ular tapa mayl qilsam anda kezim man osiylardin bo'lg'aymen.

Savol: Yusufg'a qinlar telim erdi. Zulayxo birla Aziz ko'nglinga o'zga qin kirguzmadi, hikmat na erdi? Javob ul turukim, Mavlo azza va jalla zindong'a bir valiy qulni kiyurmish erdi. Ul qul ko'nglida Yusuf sevuklugi bor erdi. Ul duo qildikim, Xudoyo, manga Yusuf jamolin ko'rguzgil. Tengri taolo aning duosin ijobat qildi. Zulayxo va Azizning ko'ngliga soldikim, Yusufni alar zindong'a soldilar. Ul valiy Yusufni ko'rdi. Aymishlar, Yusufni zindong'a solmoqda Zulayxonning maqsudi ul erdikim, mening so'zum el arosinda yoyildi. Burung'itak Yusufni o'zga ko'rgum yo'q. Men ko'rmadim, o'zgalar ko'rmasun, teb zindong'a soldurdi.

Aymishlar, Aziz ham Zulayxo Yusufdin narsalar ko'rdilarkim o'zgalardin ko'rmadilar, etak yirtlmoqi, yosh o'g'lon tanaqluqi, iliklari kesilmagi, tishilar *mo hozo basharan* temaki, Yusufning arig'liqi. Aning uchun zindong'a solmoqni ixtiyor qildilar. Aymishlar, Yusufni zindong'a kelturdilar ersa zindonchi: Yusuf to'nin chiqaraling, qurini yozaling, tedi, Zulayxo unamadi. Amomai Misr boshinda, oltun qur belinda, qiymatlig' to'n egninda. Zulayxo aydi: Bu zindong'a kirgutek yozug'lug' ermas. Biz muni xaloyiqdin kizlayurmiz. Zindonni arittilar, achcha birla sifadilar, arig'yizlar kuyurdilar, bisotlar to'shadilar, taxt qurdilar. Yusuf zindong'a kirdi ersa zindon yorudi. Zindon xalqi suvundilar. Yusuf bir mungushta namozg'a turdi. Namoz o'qug'andin so'ng yig'ladi, tamom zindon xalqi ham yig'lashtilar. Kunduz ro'za tutar (87v) erdi va kunduz namoz qilur erdi. Igliglarni emlayur erdi. Qachon sahar vaqti bo'lsa o'lmish onasig'a duo qilur erdi, otasi uchun yig'lar erdi, kim tush ko'rsa ta'bir qilur erdi. Savol: Tush ta'birin zindonda netak bildi? Javob: Mavlo, azza va jalla Jabroil alayhis-salomni izu berdi. Yusuf namoz qilib o'ltururda uzumga mengzar meva kelturdi, Yusufning erni uza qo'ydi. Ul meva eridi, qamug'tomurlarig'a yoyildi. Tushlar ta'birin aning birla bildi. Zindon xalqi Yusuf birla o'grandiar.

Misr eli turluk-turluk taomlar olib Yusufni ko'rgali kelur erdilar. Yusuf ul taomlarni zindondag'ilarg'a berur erdi. Zindon xalqi aydilar: Ey Yusuf, bizlar seni suvarmiz. Yusuf aydi: Nauzu

billohi! Otam meni suvdi ersa quzuqg'a tushdum, ozod erdim qul bo'ldum. Zulayxo suvdi ersa zindong'a tushdim. Emdi sizlar suvar ersangiz nelar ko'arman erkan, teb qatig' yig'ladi. Ertasi namoz qilib o'tlurda mehrobg'a orqa berib, zindon xalqiga ilm o'gratur erdikim, (iki) yigitni zindong'a kelturdilar. Qavluhu taolo. *Va daxala ma'ahu as-sijna fatayani.*

Ul ikaguning biri Rayyon malikning oshchisi erdi, yana biri ayoqchisi erdi. Oshchi oti Maxlaso erdi, aymishlar, Shubhoqum erdi. Ayoqchining oti Sunnur erdi. Savol: Ul ikaguning zindong'a kirmakinga sabab ne erdi? Javob: Abdulloh ibn Abbos aytur, Rum maliki Misr malikiga elchi yibordikim, bizga xiroj bergil va otimizga sikka urg'il. Yana elchiga aydi: Rayyon malikka og'u berib o'tlurardak kim ersa topsang anga mol qabul qilg'il, malikka og'u berib o'tlursun, el bizga qolg'ay, tedi. Elchi Misrg'a keldi. Kun kech bo'lub erdi, qo'narg'a ev tiladi. Ko'rarkim, bir qurtqa evi eshikida o'tlurur, aydi: Qo'noq kerakmu? Qurtqa aydi: Mentek qurtqani tilasang tushg'i'. Qo'noq tushub, osh yedi, otlarin bog'larg'a yeri yo'q ersa qurtqa anga qazg'urub aydi: Bizning podshohimizg'a Tengri o'lum bersun. Qo'noq aydi: Podshohini qarg'amoq yarog'siz bo'lur. Qurtqa aydi: Ev ilayinda ochuq yerim bor erdi, otamdin meros (88r) teggan, ani mendin erksiz oldi. Bu kun qo'noq oting'a yer topmasman. Qo'noq bildikim, podshohidin rozi ermaz. Qurtqag'a aydi: Biz ikagu bo'lub, podshohg'a og'u bersak bo'lurmu? Qurtqa aydi: Podshohning bir ayoqchisi bor, yana bir oshchisi bor. Ul ikisi mani ona o'qunub tururlar. Ular manga kelurlar, sen alarga mol qabul qilg'il bu ishni bitursunla". Ul ikagu qurtqag'a keldilar ersa bu so'zni alarg'a aydi. Elchi mol qabul qildi. Oshchi unadi, ayoqchi unamadi. Anchada qo'noqdin mol olg'ali borur bo'ldilar ersa qurtqa aydi: Bu ish butsa Rayyon podshoh o'lgandin so'ng Rumdin cherik kelgay, xalqni emgatgay. Kishilar o'lg'aylar, qiyomatg'a tegru manga yozuq bo'lg'ay, teb. Qurtqa bu so'zni qo'rqub Rayyon podshohg'a borib aydi. Rayyon oqrinliq birla so'rg'aymiz, teb oshchi, ayoqchini ikilarin ham zindong'a soldurdi. Qavluhu taolo. *Va daxala ma'axu as-sijna fatayani.* Bu sababdin zindong'a kirdilar. Yusufni ko'rdilarkim, tushga ta'bir aytur. Ikagu kengashtilar bizma bir tush ko'rduk,

teb yolg'on etaling, Yusuf netak yo'rar ermish, ko'raling tedilar. Keldilar, Yusufg'a salom qildilar, aydilar: Tush ko'rubmiz. Ayoqchi aydi: Tushum bu tururkim, uzum yeyur erdim uch donasi chiqti. Ul donalarni yerga tikdim, ko'kardi, uzum qildi. Ul uzumni siqib suyin ayoqg'a solib falakka ayoq tutardim. Qavluhu taolo. *Qola ahaduhuma inni aroni a siru xamran.* Yana oshchi aydi: Tushumda uch tanur ko'rdum, biri oq, biri qora, biri qizil. Uch qurla etmak pishurdim, boshim uza ko'turdum. Qushlar havodin kelib pora-pora qilib tortishurlar. Tush so'zin tugatti ersa ta'birini tiladilar. Qavluhu taolo. *Nabbi'na bi ta'vilihi inna naroka min al-muhsinina.* Yusuf ko'rdikim, ani muhsin teyu o'garlar. Birining tushi ezgu, birining tushi yarog'siz. Ko'ngliga keldikim, burun imong'a undagaymen, musulmon bo'lsunlar. Yovuz yomon yo'rug'g'a to'sh bo'lub o'lsalar mo'min o'lsunar. Burun yalavoqliq zohir qildi, aydi: Sizga aytu betayin yovuz ish kelmasdin burun ul uzum oqmu erdi, qizilmu erdi, achig'mu erdi, suchukmu erdi? (88v) Etmaki netak erdi? Idishi netak erdi? Qamug'in aytu bering. Aydilar: Idish bizing, osh bizing. Biz bilmas sen qandin bilursen? Qavluhu taolo. *Qola la ya'tikuma ta'amun turzaqonihii illa nabba'tukuma bi ta'vilihi qabla an ya'tiyakuma zalikuma mimma allamani rabbi.* Yusuf aydi: Mening Tengrim manga o'gratti. Aydilar: Qandin bu karomatni topding? Aydi: Kofirliqni qo'ydu. Qavluhu taolo. *Inni taraqtu millata qavmin la yu'minuna bi-llahi.* Aydilar: Bu yo'lni qo'ydung ersa, qayu yo'l birla yurursen? Aydi: Otam yo'lincha yururman. Qavluhu taolo. *Vattepa'tu millata, aaba'iy Ibrohima va Is'haha va Ya'quba.* Aydilar: Otalaring bu yo'lni nedin toptilar? Aydi: Mavlo taolag'a kimersani o'rtoq qilmadilar. Qavluhu taolo. *Ma kaana lana an nushrika bi-llahi min shay'in.* Taqi aydi: Bu Mavloning fazli va karami turur blzin uza. Taqi odamiylar onchasi bor ukushrak odamiy anga shukr qilmaslar. Andin so'ng aydi: Ey mening zindondag'i iki qo'ldoshim, ay sohibayi as-siji, yaratilmish tengrilarmu yigrak, yo yaratqan Allohmu yigrak? Siz o'zungiz butlar yo'narsiz, ani tengri atayursiz, yaratqandin hech hujjati yo'q. Qavluhu taolo. *Ma anzala-llohu biha min sultonin.* Hukmi qazo, tablig' buyruq qamug' Allohning turur. Qavluhu taolo. *In al-*

hukmu illa li-llahi. Anda keyin ayoqchig'a aydi: Sening tushung yo'ruqi ul turukim, uch kundan so'ng seni zindondin chiqarurlar, suyurg'ol qilib boyoqitek ayoqchi bo'lursen. Ayoqchi suvundi. Oshchi tushun yo'rg'ali tili bormadi, tek turdi. Oshchi aydi: Mening tushum yo'rug'i netak turur? Yusuf aydi: Seni taqi uch kundan so'ng chiqarurlar, dorg'a osurlar, qurt-qushlar kelib seni tortishub yerlar. Qavluhu taolo. *Va amma al-aaxaru fa yuslabu fa ta'kulu at-tayru min ra'sihi*. Qazg'ulug' bo'ldilar, taqi aydilar: Bu tushlarni yolg'on aytib erduk. Yusuf aydi: Ayt dingiz, men yo'rdum, hukm yuridi, qazo etildi-ul so'z o'zga bo'lmas. Qavluhu taolo. *Quziya ol-amru allazi fihhi tastaftiyani*. Uch kundan so'ng keldilar, ayoqchini chiqardilar, suyurg'adilar, oshchini osib o'lturdilar. Ayoqchi zindondin (89r) chiqarurda Yusuf aydi: Sen malikka yovuq bo'lmishda mani soqing'il. Aymishlar, ul holda Iblis kelib, Yusuf ko'ngliga muni soldi. Aymishlar: Jabroil keldi, aydi: Ey Yusuf, seni otangg'a kim qovushturdi? Yusuf aydi: Alloh taolo. Yana aydi: Qarindoshlaring ilkindin kim qutqardi? Aydi: Alloh taolo. Yana aydi: Ul tishi makrindin kim saqladi? Aydi: Alloh taolo. Jabroil aydi: Mavlo taolo muncha ezgulik qilmish erkan, meni qo'yub mandin o'zginin xaloslik tilarsen. *Uzqurni inda rabbika* teyursen. Mening izzu jalolim haqqi-hurmati seni ayoqchig'a unutturg'ayman. Yillar zindon ichinda qolg'aysen. Qavluhu taolo. *Fa ansahu ash-shaytonu zikra rabbih* va *labisa fi as-sijni biz'a sinina*. Shayton unutturdi, yeti yil zindonda qoldi. Savol: Mavlo taolo ayoqchig'a shayton tashvili birla unuttirmoqda hikmat ne erdi? Javob ul turukim, ayoqchi unutmayin malikka aytsa Yusufni chiqarsalar, ayoqchi, men aytdim, chiqardilar, teb minnat qilg'ay erdi. Malik men chiqardim, teb minnat qilg'ay erdi. Mavo taolo ularning minnatin Yusuf uza ravvo ko'rmadi. O'z fazli va karami birla chiqardi, minnat Mavlodin bo'ldi. Onchada Jabroil keldi bu duoni ta'lim berdi: *Ya akbara kulli kabirin va ya man la sharika lahu va la nazira lahu va ya man huva ala kulli shay'in qadirun va ya xoliha ish-shamsi va al-qamari al-muniri va ay roziha at-tifi as-sag'iri va ya arhama ash-shayxi al-kabiri va ya muhiya al-mavti va huva alayhi yasirun va ya muyassira kulli asirig ij'alni min amri farajan va maxrajan*.

Qachon Yusuf bu duoni o'qudi ersa bir farishta keldi, xabar qildikim, Rayyon malik tush ko'rgay, hech kim ersa ta'birin bilmagay, sanga so'rg'ali kishi izg'aylar. Zindondin chiqg'aysen Mavlo fazli birla, o'zgarlar minnati birla yo'q. Anchada Rayyon malik tush ko'rdi. Rayyon ma'nisi *suv qonmish* temak bo'lur. Erta qo'pti, qohinlarni undatdi, aydi: Tushum bo'lur: tengiz qirog'in-da o'ltururman, tengizdin yetti sig'ir chiqar, tushlari sarig', yuzlari oq, emuklaridin sut oqar, qamug'i ko'rkluk, semiz. Yana yetti sig'ir ko'rdum oruq, orqalarinda to'g'o'lturmish, oruqliqdin so'ngaklari ko'runur. Ko'rmak yomon, emuklarinda sut yo'q, (89v) erinlari yorilg'an, tishlari to'nguz tishitek, burni yag'an burnitek. Bu yeti oruq sig'ir ul yeti semiz sig'irg'a hamla qilurlar. Ular qochar, oruq sig'irlar yetar, semiz sig'irlarni yeyurlar. Alarning qursoqinda hech nimarsa ko'runmas. Ani tonglab tururda yetti bosh bug'doy ko'rdum tengizdin unar, bo'ylari teng. Ul oruq sig'irlar ani egali borurlar, alar yemas erkan yetti bosh qurug' bug'doy chiqar, tekma bir qurug' bug'doy yosh bug'doyg'a chulg'ashib ularni qururlar. Ani tonglab tururda bir yel qo'bar. Ul yetti bosh qurug' bug'doylarni, ul yetti sig'irni yo'q qilur. Ani ko'rub qo'raqtum, uyg'ondim, teyu muabbirlarga tushum yo'rug'in yo'rug' tedi. Qavluhu taolo. *Ya ayyuha al-mala'u aftuni fi ru'yaya in kuntum li ar-ru, ya ta'buruna*. Muabbirlar Yusuf ta'birin bilmadilar, uch kun muhlat tiladilar, tush yo'rig'in tilab topmadilar. Uch kundan so'ng yana so'rdi, qo'rqunchdin aydilar, muning yo'rig'in bilaolmasmiz. *Qolu azg'osu ahlamin va ma nahnu bi ta'vili al-ahlami bi'alimina*. O'shul kecha Yusuf tush ko'rdi, bir kim ersa ko'kdin inar. Misr xalqini mollari birla yig'ar, keltirib Yusuf qo'ynig'a suqar. Yusuf aytur: Qamug'ini ularg'a-o'q bering. Qachon Yusuf uyg'ondi ersa zindon xalqig'a aydi: Suvunch sizlarg'a, qamug'ingiz zindondin qutulursiz. Misr xalqi sizga qul bo'lurlar. Ular och bo'lur, sizlar to'q bo'lursiz. Zulayxo ul kecha tush ko'rarkim, Yusuf taxt uza o'lturur, boshing'a toj kiyib. Zulayxo kelib Yusufning azoqing'a tushar. Yusuf azoqi birla Zulayxonni ita solur, Zulayxo emganur, ingranur. Onchada Rayyon malikning tushin yo'rg'uchilar bilmadilar ersa, aydi: Muncha yildin beri mening ne'matimni yeb, maning tushum-ni azg'osi ahlom teyursiz. Bir nechani o'lturdi, bir nechani eldin

chiqarib qavdi. Ul holda zindondin chiqq'an ayoqchi unutmish Yusufni ongdi. Aymishlar, Yusufni Zulayxo taqi Misr xalqi yetti yil unuttilar. Yetti yildin so'ng ayoqchi Yusufni ongib Rayyong'a aydi: Sening tushungni yo'rg'uchig'a men (90r) yo'l boshlag'ayin, meni anga yiborgil, tedi. Qavluhu taolo. *Ana unabbi'ukum bita'vilihi fa arsilimi*. Rayyon malik so'rdi: Kimdur? Aydi: Bir yigit bor, yavloq biliklik, ko'ni so'zluq, g'arib, mazlum turur. Biz ikagu tush ko'rduq, anga ayduk, ul yo'ridi aning so'zincha bo'ldi. Rayyon aydi: Ul yigit qayda turur? Aydi: Zindonda. Rayyon ayoqchini Yusufga yibordi, qachon zindong'a keldi ersa Yusufning burunqi aytqan so'zinkim Rayyong'a yavuuq bo'lmishda Meni saqing'il, teganini unuqtani uchun uftanib aydi: *Yusufu ayyuha as-siddiqi afina*. Ey ko'ni so'zluq, ko'ni ishlik. Aymishlar, ular kofir erkan Yusufni o'ga so'zladi. Ul aydi: Qavluhu taolo. *Inna naroka min al-muhsinina*. Olim. Munglug' bo'ldilar ersa *siddiq* teyu o'gdilar. Kofirlar kofirliqlari birla *olim* teb og'irladilar. Kim olimni og'irlasa farishtalardin bo'lur, kim olimni xo'rlasa Iblis jumlasindin bo'lur. So'rdi: Ey Siddiq, savolimiz javobin ayg'il. Rayyon malik tush ko'rmishki, yetti oriqliq yetti semiz sig'irni yeyur. Yetti bosh yosh bug'doyg'a yetti bosh qurug' bug'doy chulg'ashib quruti. Bu tushumizni yo'rsin teb Rayyon meni sanga yibordi. Yusuf aydi: Semiz sig'irlar, yetti bosh yosh bug'doylar kenglik, uchuzliq turur. Yetti oruqliq yetti yosh quruqliq yetti yosh quruqliq, ochliqlik turur. Uchuzliqlik, qizliqlik tekma biri yetti yil bo'lg'usi turur. Telim xaloqlik yetti qizliqlik yilda halok bo'lg'usi turur. Ayoqchi aydi: Ul ishning yarog'i ne turur? Yusuf aydi: Ul yetti yili oshliqlik ko'p bo'lg'anda yegu choqliq, ekar choqliq' olib qolsunlar qolganini anborlasunlar. Qavluhu taolo. *Qolla tazra'una sab'a sinina da'aban fa ma hasadum fa zaruhu fi sunbulihi illa qalilan mimma ta'kuluna*. Bu yetti yildin so'ng yana yetti yil kelgaykim ko'kdan yog'mur yog'mag'ay, yerdin ko'k yosh unmagay. Ul yetti yilda yig'g'anini bu yetti yilda egaylar. Qavluhu taolo. *Ya kulna ma qaddamtum lahumna illa qalilan mimma tuhsinuna*. Bu yetti yildin so'ng yana to'qluq bo'lg'ay. Ayoqchi kelib Rayyon malikka bu so'zni aydi ersa tinglab yana ayoqchini yibordikim, borg'il ul yigitni kelturgil, bu ishning yarog'in aytu bersun, mening ko'nglum tinsun. Ayoqchi

Yusufga keldi, Rayyon malik so'zin etkurdikim, seni undayur. Yusuf aydi: Zindondin chiqmasman. Ayoqchi aydi: Ne uchun? Yusuf aydi: Malikka ayg'il, iliklari kesilgan tishlardin so'rsunkim, iliklarin ne uchun kestilar, to'nlarin ne uchun qong'a bulg'adilar, murodi ularning ne erdi? Ulug'roqi Zulayxo erdi, mening yozug'lig'liqim, yozuqsizliqim belgulik bo'lmag'uncha chiqmasman. Aymishlar, maqsudi ul erdikim, tishilar so'zi belgulik bo'lmayin chiqsam Rayyon malik manga so'rsakim, ne bo'ldikim zindong'a tushdung? Men tishilar so'zin aytu bersam Rayyon ko'ngliga yozmag'ay, mani dushman tutqay. Avval arig'liqimni bilsun, andin so'ng chiqayin, tedi. Rasul alayhis-salom yorliqar, ul kun Yusuf o'rmig'a men bo'lsam erdi zindondin tark chiqq'ay erdim, ammo qarindoshim Yusuf ul ishni yaxshi qilibdur. Rayyon Malik ko'ngli tamom arusin teb chiqmaydur. Ayoqchi kelib Malikka so'zin aytti ersa malik ul tishilarni yig'durdi. So'rdikim, Yusuf birla holingiz netak erdi. Qavluhu taolo. *Qola fa ma xatbukunna*. Ul xotunlar malikdin bu so'zni yeshittilar ersa malik bu ishni bilmish, teb qamug'lari ko'ndilar, aydilar: Ey malik, Yusuf arig' erdi, biz anga tuhmat qilduq. O'zumizni anga arza qilib, o'zimizga ani indaduq, ul bizga boqmadi va mayl qilmadi. Biz andin hech ayb ko'rmaduk. Zulayxo ul holda pardada o'lturur erdi. Parada ichindin ayoqchig'a ishorat qildi va aydi: Meni Yusuf ftech yamonladimu? Ayoqchi aydi: Seni hech og'izlanmadi. Zulayxo aydi: *Ahsanta, zihir er, zihir olim, zihir arig'kim, o'n iki yil zindonda mening uchun yotdi va sirrimni ochmadi va aybimni aytmadi*, teyu pardadin chiqqa keldi va chodirdin boshin solib aydi: Ey malik, emdiga tegru sevuklugum majoziy erdi aydim: *Ma jaza'uman aroda bihlikka su'an*. Emdi sevuklugim haqiqat bo'ldi, haq ayg'u vaqt keldi. Qavluhu taolo. *Qolat imra'atu al-Azizi al-ana hashasa al-haqqu*. Qamug' menda turur, *ana rovadtuhu an nafsihi*. Oshiq bo'lg'an menman, Yusufni undagan menman, o'zumni Yusufga (91r) arza qilg'an menman, evni men bezadim, evga men kiyardim, etagin men yirtidim, anga yozuq men yukladim, yolg'on men so'zladim, yozuq men qildim, ul arig' turur. Qavluhu taolo. *Va innahu lamin as-sodiqina*. Yigitligim bordi, qaridim, o'lum yovuq bo'ldi. *Al ana hashasa al-haqqu*. Aymishlar: Zulayxo uch ko'ni so'zladi biri, *Al ana hashasa al-haqqu*. Ikinchi aydi: *Ana rovadtu-*

hu an nafsih. Uchinchi aydi: *Va innahu lamin as-sodiqina*. Bu uch soʻz din uch karomat topti, yot erdi yovuq boʻldi, xoʻr erdi aziz boʻldi, qurtqa erdi yigit boʻldi. Munda taqi ortuqroq ulkim, Yusufgʻa juft boʻldi. Zulayxo aydi: Ey malik, bu kunga tegru Yusufning zindonda erdukin unutmishmen, yoʻq ersa ishqinda oʻzumni oʻlturgay erdim, bu kun avvalqiddin oshiqroqman.

Hikoyat. Zulayxo Yusufni zindongʻa solgʻandin soʻng zindon eshikiga borur erdi, zindonchigʻa aytur erdi, borgʻil Yusufni bogʻlagʻil, taqi qatigʻ tayoqlagʻil, aning faryodin men eshitayin. Faqir zindonchi Zulayxo soʻzin sevmayin kirib Yusufgʻa aydi. Yusuf aydi: Zulayxo koʻnglincha mani urgʻil. Zindonchi unamas erdi valekin Zulayxodin qoʻrqub bir tayoqni yerga soldi. Taqi Yusufgʻa aydi: Sen bir un qil. Yusuf zindonchi koʻngli uchun bir un qildi. Zulayxo ul unni eshitib saroygʻa yonar erdi. Savol: Zulayxo Yusufni suvar erkan tayoqlatmoqda ne hikmat erdi? Javob: Zulayxo oshiq erdi yovuqdin yuzin koʻrmasman, yiroqtin unin eshitayin, koʻnglum ovunsun. Sevuklukning uni ham sevukluk boʻlur, temishlar. Mundagʻ-oʻq qiyomat kuni moʻmin qulgʻa tamugʻni koʻrguzgaylar, moʻmin qullar Mavloning doʻsti tururlar. Alar ham oʻt ichinda nola qilgʻ aylar tamugʻ qoʻrqunchidin oʻt ichinda ayturlar. Qavlulu taolo. *Yuhibbuhum va yuhib-bunahu*. Mavlo taolo ul moʻminlarni suvar. Xabar. *Aninu al-muznibina ahabbu ilayya min surohi as-siddiqina*. Kofirlarga koʻrguzur, dunyoda meni yod qilgʻan qullarim bor erdi bu kun tamugʻgʻa kiyurdum ersa meni oʻt ichinda yod qilurlar. Kelduk boyaqi soʻzga. Ayoqchi zindongʻa bordi, ul tishilar soʻzin taqi Zulayxo soʻzin Yusufgʻa aydi. Yusuf sevundi. (91v) Qavlulu taolo. *Zalika liya lama anni lam ahunhu bilgʻoybi*. Aydi: Soʻrduqum aning uchun erdiki, Aziz bilsunkim, men anga xiyonat saqinmadim, Mavlo taolo xiyonat qilgʻuchi eshinni hargiz salohgʻa kelturmas. *Va anna-lloha la yahdi kaydi al-xoʻinina*. Abdulloh ibn Abbos raziyallohu anhumo aytur, Yusuf bu soʻz birla oʻzini oʻgdi ersa Jabroil qanoti birla Yusufni bir urdi, aydi: Zulayxonni urgʻali oʻg ramadingmu, tabiat yungullikindin Zulayxogʻa mayl qilmadingmu? Yusuf aydi: Men oʻzumni arigʻlamasman va nafsinni aritmasan. Bu nafs yovuz ishga boshlagʻan turur. *Va ma ubarriʻu nafs* *inna an-nasa laammaratun bissuʻi*.

ODAMIYNING NAFSI QILGAN ISHNI YETMISH SHAYTON QILMASLAR. QOLA ASH-SHOIRU

Tavvaka nafsuka la ta manu gʻava ilaha

Fa an-nafsu axbasu min sab'ina shaytonan

Aymishlar, Yusuf yetti yil zindonda erdi ayoqchigʻa eʼtimod qildi. *Uzkurni inda rabbika* tedi. Olti yil qoldi zindonda uch ish birla mashgʻul boʻldi, duo qildi, xalqdin umid kesti, taqi sabr qildi. Lojaram Mavlo taolo farah berdi, Rayyon malik kishi izdi Yusufni manga kelturung, teb. Qavlulu taolo. *Va qola al-maliku i'tuni bihi as-axlishu linafsi*. Yusufgʻa aydi: *Ayyuhas sadiqu* qoʻpgʻil. Malik seni undayur. Arigʻliqing bilgurdi, yozuq, xiyonat oʻzgalardin chiqdi. Yusuf zindon qapugʻingʻa kelib, boshin yuvdi, arigʻ toʻnlar kiydi. Zindon xalqi qamugʻi yigʻlashtilar, aydilar: Ey Yusuf, telim yillar boʻldi bizga esh erding, ezigulik qilding, endi bizlar zindonda sensiz netak turaling? Yusuf qayra yonib, ayoqchigʻa aydi: Borgʻil malikka aygʻil, men telim yillar boʻldi bu zindon xalqi birla oʻgrandim. Men chiqmishimgʻa bular yigʻlashurlar, men bularni koʻzi yoshligʻ, bagʻri boshligʻ qoʻya bilmon. Malikka aygʻil bularni manga bagʻishlasun, ozod qilsun, yoʻq ersa meni bular birla qoʻysun. Ayoqchi kelib malikka aydi ersa qamugʻini ozod qildi. Yaxshi toʻnlar kiyurdurdi!

Bashorat. Bu kun dunyoda Yusuf shafoti birla Rayyon malik zindonligʻlarni ozod qildi, tongla Davyyon malik Muhammad Mustafo sallallohu alayhi va sallam shafoti birla moʻminlarni tamugʻdin ozod qilsa hech ajib va gʻarib ermas. (92r) Yusuf zindondin qamugʻ zindonligʻlar birla chiqdi ersa koʻrdikim, zindon eshikida yetti taxti ravon turur. Qamugʻi qiymatligʻ, parchalar birla oʻrtulgʻan. Ul zamonada rasm andogʻ erdikim, podshoh kimni ogʻirlasa taxti ravongʻa mindurur erdi. Yusufni oltun taxt uza oʻlturdilar ersa Yusuf kogʻaz va qalam tiladi va xat yozdi va zindon eshikiga yopushurdi. Koʻrdilar yozgani bu erdi: *Haza qabru al-axyaʻa va maskanu al-ahibbaʻi va shamatatu al-aʻdaʻi*: yaʻni bu zindon tiriklar goʻri turur, doʻstlargʻa iglanmak yeri turur va dushmanlargʻa sarzanish yeri turur. Mundogʻ ogʻirlab

Yusufni Misrg'a kiyurdilar. Misr xalqi biri biringa ayturlar erdi: Bu o'g'lon ul o'g'lon tururkim, o'n iki yildin burun ayoqing'a zanjir urub, eshakka mindurub zindong'a eltililar. Bu kun muncha e'zoz va ikrom birla oltun taxtg'a mindurub malik saroyig'a elturdilar. Aydlilar: Ilohiy, ul xo'rluq ne erdi, bu og'irlig' na erdi! Yusuf aydi: *Tu'izzu man tasha'u i'azazan va tuzillu man tasha'u izlalan va ana arza bi-hazo'ih*, ya'ni kimni tilasa aziz qilur va kimni tilasa xo'ri qilur. Men bu hukmg'a roziman. Qachon Yusuf saroyig'a kirdi ersa malik ura qo'pti va yonida yer berdi. Aymishlar, malik Yusufg'a yetmish til birla so'z so'z'ladi. Yusuf qamug' til birla javob berdi. So'z tamom bo'ldi ersa Yusuf malikka ibroniy til birla duo qildi, ani bilmadi. Bu ne til turur teyu so'rdi. Yusuf aydi: Bu mening otalarim Ibrohim, Is'hoq va Ya'qub alayhimus-salom tillari turur. Malik qotidin chiqarda ibriy tili birla salom qildi, malik ani bilmadi. Bu na til turur! tedi. Yusuf aydi: Bu otam qarindoshi Ismoil tili turur. Malik yavloq tongladi, aydi: Vazirlikni sanga berayin.

Yusuf aydi: Vazirlik Azizi Misrning turur, mening uza telim haqlari bor. Ul tirik erkan men vazirlikni olmasman. Malik aydi: Qamug' podshohliq sanga musulam turur, qayusa kerak ersa olg'i. Yusuf aydi: Manga (92v) o'zga o'run kerakmas. Bu yetti yil oshliqlar ishin manga topshurg'il, men ul yarog'ni bilurman. Qavluhu taolo. *Qola ij'alni ala haza'ini al-arzi inni hafizun alimun*. Ul ishini Yusufg'a topshurdi, aydi: Ey Yusuf, mening mulkumda ne ish tasarruf qilsang qilg'il, iki ish qilmag'il. Biri ulkim, uyumda xotunlar birla, qaraboshlar birla so'zlashmagil. Yusuf aydi: Ul bizin shariatimizda ravo ermas, mening ul ishga rizom yo'q. Ikinchi ulkim, osh yemak or gurur. Bu so'zga Yusufning o'fkasi keldi aydi: Menga ham sening birla osh yemak or turur. Malik aydi: Ne uchun? Yusuf aydi: Men Ya'qub yalavoch o'g'liman, Is'hoq yalavoch nabirasiman, Ibrohim yalavoch urug'iman, sening birla netak osh yeyurman. Malik Yusufga ko'rkluk saroylar anuqladi. Yusuf tariq'chiliq qildura boshladi, telim ekin ekturdi. Oshliq tariq' bo'lmishda yegu choqlig' to'kdurur erdi. Qolgan oshliqlarni boshi birla anbor qildirur erdi, qush qumursqa yemasun teb.

Aymishlar, ul zamonda sulton raiyatning yarim hosilin olur erdi, raiyat mazlum erdilar. Ammo Yusuf erklk bo'ldi ersa

raiylatg'a dod-u adl qildi. Viloyat obodon bo'ldi. Uch yildin so'ng Azizi Misr o'ldi, aning o'rmin Yusufg'a berdi va malik tamom viloyat ishin Yusufg'a bildurdi va ani erklk qildi. Yusuf yeti yilda bitgan ekinlarni anbor qildi. Ul uchuzliq tamom bo'ldi ersa yeti yil qizliq bo'ldi. Bu yeti yil ichinda yog'in yog'madi, yerdin ko'k yosh unmadi, xaloiq munglug' bo'ldilar. Bir botmon arpa bir oltun bo'ldi. Xalqg'a yarog'i choqliq oshlig' berur erdi va faqirlarg'a kunda yuz teva yuki oshliq berur erdi. Boylarga'a sotar erdi, bahosin malik xazinasig'a solur erdi. Yusufning qirq hojibi bo'ldi, qirq ming sotqun olmish qul qaraboshi bo'ldi. Misr xalqi qamug' Yusuf erkinda bo'ldilar. Aymishlar, avvalg'i yil qahatlig' da oltun, kumushlarin (93r) berib oshliq oldilar, ikkinchi yil idish-ayoqlarin berib oshliq oldilar, uchunchi yil ev yarog'-asbobin berib oldilar, to'rtunchi yil to'shak-o'tunlarin berib oldilar, beshinchi yil yilqi qoralarin berib oshliq oldilar, oltinchi yil yer-suvlarin berib oshliq oldilar, yettinchi yil malik Yusuf birla so'zlashmish erdi. Misr tegrasinda kim ersaning narsasi qolmadi. Besh yilg'i sotilg'an oshliqdin uch yilliqning bahosi mening bo'lsun, iki yilliqning bahosi sening bo'lsun. Yusufg'a teggan iki yil ichinda Yusufning qarindoshlari Kan'ondan oshliq olg'ali keldilar. Yetinchi yil kirdi ersa, xalqda narsa qolmadi. Qamug' Yusufning bo'ldi. Xaloiq ochiqtilar, Yusufg'a kelib o'z bo'yalarin, o'g'ul-qizlarin sotib oshliq olib yedilar. Aymishlar, bir yil tamom bo'lmoqg'a qirq kun qoldi. Aymishlar, to'rt oy qoldi, oshliqg'a yetarg'a xalq chiqib Yusufg'a yolboru keldilar. Anborda oshliq qolmay erdi. Yusuf ul holda mutahayyir bo'ldi. Jabroil kelib Mavlo yorliqin yetkurdi va aydi: Ey Yusuf, yozig'a chiqg'il, bu och xaloiqg'a yuzungni ko'rguzgil. Yusuf yozig'a chiqdi, taxt uza o'lturdi va yuzidin parda ko'tardi. Xaloiq Yusufning jamolin ko'rub osh-taomni unutilar. Bir qavlda qirq kun, bir qavlda uch oy nimarsa yemadilar, Yusuf ko'rki birla kun kechurdilar, oshg'a, suvg'a muhtoj bo'lmadilar. Aymishlar, Mavlo taolo Yusufning sirrig'a xitob qildikim, ey Yusuf, biz seni qulluqg'a solmasaq erdi bu kun qullar qadrin qayda bilgay erding. Qullar qadrin bilmak ul bo'lurkim, bu kun Misr xalqining barin ozod qilg'aysan. Munodiy qildurdi. Misr xalqining barchasin yig'durdi, aydi: Ey Misr xalqi, barchangiz er-u xotun mening

qulum bormusiz? Aydlilar: Bormiz! Yana munodiy qildurdikim, men qamug'ni Mavlo taolo xushnudluqi uchun ozod qildim. Rivoyat qilurlarkim, Yusuf Kan'ondin chiqq'ali yigirmi yeti yil tamom bo'lmish erdi. Qizliq, qahatliq yillarining beshinchi yili erdikim, Ya'qub yalavoch o'g'lonlarig'a aydi: Misrda oshliq bor derlar, sizlar borib (93v) oshliq kelturung. O'g'lonlari qamug' boraling, teb tekma biri iki tevaga yog', qurut, pishloq, yung yuklab Misrg'a o'g'radilar. Yusuf bilur erdikim, o'zga ellarda oshliq yo'q. Qarindoshlarim munda oshliq olg'ali kelur, teb saqlag'uchilar qo'ymish erdikim, qachon bu turluk uzun bo'ylug' qaviy yigitlar kelsa manga olib keling. Ya'qub yalavoch o'g'ullari o'n yigit qamug'i bir suratlig' kiyim kiyib keldilar ersa Yusufga xabar berdilar. Yusuf bildikim, qarindoshlari turur. Aymishlar, bu yigirmi yeti yil ichinda Yusuf ellik yo'li xat yibormish erdi. Ya'qub yalavochg'a ul xatlardin biri, Mavlo taolo hukm va qazo qildi, Ya'qubg'a tegmadi. Qarindoshlari keldi ersa Yusuf alarni tanidi va alar Yusufni tanimadilar. Qavluhu taolo. *Va ja'a ixvatu Yusufu fa daxatu atayhi fa arafahum va hum lahu munkiruna.* Qachon Yusuf qarindoshlarin ko'rdi ersa ul qilg'an yovuzliqlarin saqindi, alarg'a aytayin, tedi. Mavlo taolo ko'ngliga soldikim: Ey Yusuf, ular oshliq olg'ali munglug' bo'lub keldilar, sen ishlarin oshkora qilsang uftang'aylar. Ularg'a oshlig' bergil, sevunub yonsunlar, sening ezguliging zohir bo'lsun. Yusufg'a bu niyat xush keldi. Yusuf alarni ko'rdi, qamug'lari tufroqg'a bulg'anmish, to'nlari arig'siz. So'rdi: Qaydin kelibsiz, kimning o'g'lonlari turursiz? Aydlilar: Biz Kan'ondin kelduk, Ya'qub yalavoch o'g'lonlari tururmiz, Kan'ondin kelurmiz. Aydi: Otangiz tirikmu turur? Aydlilar: Tirik turur. Aydi: Ne ish ishlayur? Aydlilar: Yalavoch turur, Tengri taolog'a qulluq qilur. Yusuf aydi: Kimdin kimga yalavoch turur? Aydlilar: Haqdin xalqg'a yalavoch turur. Yusuf aydi: Yalavoch ermish Misr xalqig'a ne uchun yalavochliq tegurmas? Aydlilar: Kan'onga taqi Kan'on tegrasidagi xalqg'a yalavochliq tegurur. Taqi ko'zlari ko'rmas, tedilar. Yusuf aydi: Ko'zlari nedin ko'rmas bo'ldi? Aydlilar: Yusuf otlig' o'g'li bor erdi ani yavloq suvar erdi. Ul o'g'li g'oyib bo'ldi, aning uchun yig'lamoqdin ko'zlari ko'r bo'ldi, tedilar. Ul holda Yusuf ani eshitib niqob ichidin yig'ladi.

Aymishlar, ul holda (94r) Yusuf taxt uza o'lturur erdi, harir to'nlar kiyib, oltun toj boshinda, sog' yoninda ming saqolsiz qul oltun to'puzlar olib turur erdilar, so'linda ham ming saqolsiz kumush to'puzlar olib tururlar erdi. Yuzi niqob birla o'rtukuluk erdi. O'nginda ming er oltun qurlug', iliklarinda qilich yashnayur. Yusuf aydi: O'zungiz ham bir otaning o'g'lonlarimusiz? Aydlilar: Bale. Aydi: Sizdin o'zga qarindosh ini og'angiz bormu? Aydlilar: O'n bir qarindoshmiz, ul birni kelturmadi. Yusuf o'z beklariga aydi: Nima ko'rkluk ermasmu, bir otadin o'n bir o'g'lon bo'lsa! Qarindoshlari ul so'zni eshitib sevunmishdin aydlilar: Yana bir qarindoshimiz bor erdi ul g'oyib bo'ldi. Yusuf so'rdikim, netak g'oyib bo'ldi? Uchagu bir yo'li javob ayladilar, biri aydi, bo'ri edi, biri aydi, o'g'ri o'lturdi, yana biri aydi, ko'nglakin qonlig' topduq. So'zlari ayri chiqdi, Yusuf aydi: Bular josuslar, yo o'g'rilar mu turur, so'zlari ayri chiqdi, elting, zindong'a soling. Yusufning ilkinda sag'roq bor erdi, sag'roqni bir qoqdi ersa ovoq chiqdi. Yusuf aydi: Qayu so'z bo'lsa bu sag'roq aytur. Bu soat so'rdum ersa ul qarindoshingizni tirik turur, tedi. Ular aydlilar: Bizlar josus ermasmiz, o'g'ri ham ermasmiz. Yusuf ularni uch kun evda saqlatti, yana ko'ngli to'zmadi, yibordi. Tekma biringa bir teva yuki bug'doy berdi. Ibn Yaming'a taqi bir teva yuki bug'doy yibordi. Otalariga bir teva yuki bug'doy yibordi. Taqi kelturgan yog'larin, qurutlarin, yunglarin juvollarig'a soldurdi. Taqi aydi: Bularg'a ul choqliq ozuq beringizkim, bular qoplarin ochmasunlar. Andin so'ng aydi: Yana kelur bo'lsangiz ul qarindoshingizni ola keling. Agar ani kelturmasangiz sizlarga bug'doy bermasman. Qavluhu taolo. *Fain lam ta tuni bihi fala kaylla lkum indi va la taqrabuni.* Aymishlar, Yahudo ularning og'asi erdi, aydi: Ey qarindoshlar, bu malik Yusuf bo'lg'ay. Otamizni so'rdi, yo'lini so'rdi. Uni Yusufg'a mengzar. O'zgalar aydlilar: Bu ne so'z bo'lur! Yusufg'a bu mamlakat, bu podshohlig' kim berdi, bu telim cherikni qandin kelurdi? Tirik bo'lsa erdi oti chovi chiqq'ay erdi, otasini (94v) tilagay erdi, bu kun bizga ezgulik qilmag'ay erdi, bizni qinag'ay erdi. Yahudo aydi: Ibn Yaminni kelturung, tedi ersa manga ma'lum bo'ldikim, bu Yusuf turur. Bu so'zni qo'yg'il, teb chiqtilar. Kan'ong'a keldilar, Ya'qub yalavoch o'g'lonlarin ko'rub sevundi

va hollarin so'rdi. Aytdilar: Misr maliki bizga telim ezguluk qildi, bug'doy berdi seni so'rdi. Senga bir yuk bug'doy yubordi. Ibn Yaminga ham bir yuk bug'doy yubordi. Olib borg'an yog', qurut, yung, yarmoqlarimizni qayra olib kelduk. Taqi Misr maliki aydi. Ibn Yaminni menga olib keling, agar ani kelturmasangiz, kelmang. Sizlarga bug'doy bermasman, tedi. Bizlar ani saqlag'uvchilarmiz. Qavluhu taolo. *Va inna lahu lahofizuna.*

Ya'qub aydi: Yusufni olib bordingiz, kelturmadingiz. Ibn Ya'minni olib borsangiz men sizga netak inonurman. Aytdilar: Bu yo'l qabul qilaling, salomat senga kelturaling. Ya'qub aydi: Manga xat beringkim, Ibn Yaming'a yovuz sanmag'aysiz va bizni Mavlo taolo birla ahd qiling. Qavluhu taolo. *Qola lan ursilahu ma'akum hatta tu'tuni mavsihan min Allohi.* Qamug'i ahd qildilar va xat berdilar. Ya'qub yalavoch o'ziga bergan bug'doyning yarmini Kan'on xalqig'a ulashturdi. O'g'lonlari Ibn Yaminni olib tebradilar. Ulug' arqish yig'ildi. O'g'lonlari Ya'qub yalavochg'a aytdilar: Bizga ne nasihat qilursen, so'zingcha yurugaling. Ya'qub aydi: Avval so'zum ul turukim, bu narsalarkim siz eltib erdingiz, juvollarindin chiqti. Yangilib solmish bo'laylar bizga harom turur yo kendu sizlarni sinamoq uchun qo'yimish bo'lg'aylar, bizga yaramas bo'lg'ay, olib boring, tedi. Taqi bir so'z ul turukim, Misrg'a tegmishda qamug'ingiz bir eshikdin kirmang, tekhangiz bir eshikdin kiring xalq ko'zi tegmasun. Qavluhu taolo. *Ya baniyya la tadxulu min babin vahidin va udxulu min abvabin mutafarrihatin.*

Hadis. Rasul alayhis-salom yorliqar, *al-aynu tudxilu ar-rajula fi al-qabri va tudxilu al-jamala fi al-qidri.* Ma'nisi ul bo'lurkim, ko'z erni go'rga kiyurur, tevani oshchig'a kiyurur. Hikoyatda kelmish, arabda bir qabila bor erdi, qamug'uning ko'zi tegar erdi, mashhur erdilar. Qachon et yegulari (95r) kelsa xotunlarig'a qazon osturub, o'zlari yo'l boshig'a chiqib, o'tgan kishilarga: Nima ko'rkuk oting bor yo sig'iring, yo tevang bor! tegach ul gala o'lar erdi va alar etlarin sotqun olib kelur erdilar.

Hikoyat. Qachon quraysh kofirlari Muhammad Mustafo salallohu alayhi vasallamg'a zarar tegurur bo'ldilar ersa ul qabiladin biraguni derga tutdilar, Muhammadg'a ko'z tegur halok bo'lsun teb. Ul Rasul alayhis-salomg'a ko'z solg'ali o'g'radi ersa Rasulg'a

kelmasdin burun Jabroil keldi va bu oyatni kelturdi Qavluhu taolo. *Va in yakadu allazini kafaru layuz liqunaka biabsorihim tamma sami'u az-zikra va yaquluna innahu lamajnunun va mahuva illa zikrun lil'alamina.* Ul kim ersa kelib Rasulg'a ko'z solg'uncha Rasul bu oyatni o'qub aning o'ziga dam qildi. Filhol aning iki ko'zi sachrab chiqti.

Yana hikoyatda kelur: Bir qurtqa Rasul alayhis-salomg'a kelib aydi: Yo Rasulallohi, biz sahroda yilqi qorag'a iyarib yururmiz, holimiz ziyoda bo'lsun teb ziyoda bo'lmas. Rasul aydi: Yilqi qorani soting, el orasig'a kirib ekin eking, ekinlaringiz orasida quboshlar sanching.

Rasul aymishtek qildilar, hollari azin bo'ldi. Savol: Ekin orasida qubosh sanchmoqda ne foyda bor? Javob: Foyda ul turur, yamon ko'zluk kim ersa oshliqg'a boqsa ul oshliq halok bo'lar. Agar orasida qubosh bo'lsa, sanchg'an ko'z quboshqa tegar, oshliqg'a tegmas. Fikr qilsangkim, yomon ko'z quboshqa tegar bo'lsa, ko'k oshliqg'a ko'z tegmagay. Aymishlar, qubosh oshliqdin azizrak uchun burun ko'z anga tegar, andin so'ng oshliqg'a tushar, ziyon qilmas. Savol: Burun ko'z tushganga zarar qilur, so'ng tushgang'a zarar qilmas, hikmat na erdi? Javob: Ko'zning zarari, ziyoni avval boqmishda bo'lur. Qayu narsa azizrak bo'lsa ko'zning nuqsoni anga tegar. Andin so'ng necha boqsa ziyon qilmas. Savol: Ko'z tegmakda hikmat ne turur? Javob: Hikmat ul tururkim, Mavlo taolo mo'minni suvdi, o'zini mo'minlarga sevung, tedi. *Yuhibbuhum va yuhibbunahu.*

Qachon mo'min sevuk ko'zi bilan narsaga boqsa Mavlo taolo kunanch turur. Ul narsani halok qilur, mendin o'zgaga sevuk ko'zi birla boqmasun teb. Netakkim, Rasul alayhis-salom yorliqar: (95v) *Ana g'ayurun va as-Sa'du g'ayurun va-llohu ag'yaru minna,* ya'ni men kunanch tururman, Sa'dma kunanch turur, Izi azza va jalla bizdin kunanchrak turur. Savol: Quboshning tegar ko'zni yondurung'a ne qudrati bor? Javob: Quboshning qudrati yo'q, lekin arabning odati bor. Birorda sababi fe'lg'a izofat qilu berarda musabbibga izofat qilur. Andog'kim, Ibrohim yalavoch duosindin xabar berur va yorliqar. Qavluhu taolo. *Rabbi inna-hunna azlalna kasiran min an-nasi.*

Butlarning odamiylarni ozdudurda qudrati yo'q, valekin ozdurmogq'a sabab bo'lur. Kelduk maqsudg'a. Ya'qub yalavocho o'g'ullari Misrg'a keldilar. Tekma biri bir darvozadin kirdilar, otalari ayimishtek. Qavluhu taolo. *Va lamma daxalu min haysu amaratum abuhum*. Ibn Yamin Yahudo birla bir darvozadin kirdilar, qamug'din burunroq Yusuf saroyig'a keldilar. Ya'qub yalavocho Yusufg'a bo'lak izmish erdi, Ibrohim yalavochning dastori erdi, Ya'qubg'a meros tegmish erdi. Aning birla salom qilib kirdilar, ani o'trusida qo'yilar. Taqi aydilar: Ya'qub yalavocho aydi, bu dastor manga otam Ibrohimdin meros qoldi, men sanga izdim. Yusuf ul bo'lakka sevundi, aning uchunkim, ul dastor kimga tegsa ul payg'ambar bo'lur erdi. Yana ul yuklari ichinda chiqq'an narsalarni ilayinda qo'zu aydilar: Bu narsalar bizin ul eltgan yuklarimiz ichinda chiqti, yangilib qo'ymish bo'lg'aylar, teb olib kelduk. Yusuf aydi: Yaxshi qildingiz, ammo bu narsalarga muhtoj ermasmiz. Qamug'i sizga bo'lsun, yo'l ozuqi qiling. Yusuf bildikim, bularni otam qayra yiborib turur. Topug'chilarig'a Yusuf parda ichidin aydi: Olti tepaq birla taom kelturing, kelturdilar. Aymishlar, Ya'qub yalavocho o'g'lonlari har ikisi bir onadin tug'mish erdi. Yusuf aydi: Tekmadin tug'ganlar bir tepaqda osh yigiz. Andog' qildilar ersa Ibn Yamin yolg'uz qoldi. Osh ilayida Ibn Yamin yig'lay boshladi. Yusuf ani ko'rub pardadin aydi: Bu qarindoshingiz ne uchun yig'layur? So'rdilar ersa aydi: Mening birla bir tug'gan bu kun bo'lsa erdi (96r) birga osh yemasmu erduk, teb yig'layman. Yusuf aydi: Ul qarindoshingiz(g'a) dastur bering, mening birla taom yesun. Qamug'lari ura qo'pub, xidmat qilib aydilar: Bu bizga ulug'ot turur, teb Ibn Yaminni pardaga ki-yurub taxt uza o'lturg'uzdilar, olninda taom qo'ydilar. Yusuf yuzindin niqob ko'tardi, Ibn Yamin Yusufning yuzun ko'rdi ersa oh urub o'zindin ketdi. Yusuf aning og'zin tutdi. Gulob kelturub yuziga sochdilar ersa o'ziga keldi. Yusuf so'rdikim, ne illating bor tutog'luqmusen? Ibn Yamin aydi: Biz yalavochochlar urug'imiz, bizda tutog'liq illati bo'lmas, ammo malikning yuzun ko'rdum ersa maning g'oyib bo'lg'an og'amg'a o'xshayur. Og'amning soqinib o'zumdin ketdim. Yusuf aydi: Qazg'urmag'il ul g'oyib bo'lg'an og'ang man tururman, tedi ersa Ibn Yamin yana o'zundin ketdi. Yana gulob sochdilar, o'ziga keldi. Qavluhu taolo. *Va lamma daxalu*

ala Yusufu ova ilayhi axohu qola inni ana axuku fa la tabta'is bima kaanu ya'malun. Andin so'ng aydi: Otam holi netak turur, ayg'il. Ibn Yamin aydi: Sening qazg'ungdin "Bayt ul-ahzon" g'a kirib yig'lamoqdin iki ko'zi ko'r bo'lub turur. Yusuf bu so'zni eshitib yig'ladikim, behush bo'ldi. Qachon hushig'a keldi ersa Ibn Yaming'a aydi: Sen osh yegil, sanga qarindoshlarim qilg'anlarin aytayin. Osh yegandin so'ng aydi: Avval mani quzug'g'a soldilar. Quzug'din chiqarib, qul teb sottilar. Andin zindong'a tushdum. Telim yillar zindonda yotdim. Mavlo taolo fazli birla zindondin chiqdim. Mundog' mamlakat va podshohliq berdi. Taqi aydi: Bu so'zni alardin kizlagil bir necha kun alarni emgatayin. Ibn Yamin aydi: Erklksen, ne qilsang o'zung bilursen. Andin so'ng pardadin chiqti, ularni uch kun og'irladi. Tekma biringa bir teva bug'doy berdi taqi yo'l ozuqlarin anuqladi. Aymishlar, qamug'laring'a oshliqni susub berdi, eng so'ngra Ibn Yaming'a bug'doy susturdi. Yusufning bir suv ichar idishi bor erdi ani ulardin yoshurun Ibn Yaminning juvoli ichinda (96v) kizlatdi. Qavluhu taolo. *Fa lamma jahhazahum bijihazhim ja'ala as-siqoyati fi rahli ahlihi*. Aymishlar, ul idish kumushdin erdi, Mavlo taolo ul idishni Qur'on ichinda siqoya tedi. Siqoya arab tilincha suv idishi temak bo'lur. Yana bir yerda savog', tedi. Savog' arab tilincha sog'u bo'lur. Ul sog'u to'rt ozoqliq, tekma bir azoqi azin-azin gavhardin. Ichinda, tashinda uch yuz oltmish mehrob erdi. Tekma bir mehrobda bir sohishariatning suratini yozmish erdilar. Aning to'rt bo'lunginda to'rt qiymatlig' gavhar o'rnatmish erdilar, u sifatlig' sog'u erdi. Bas, qamug'lari Yusufg'a duo qilib yondilar. Yo'lda kelurda Ayn ush-Shams otlig' bir kent bor erdi, anda tushtilar. Osh yeb tebrayurda Yusuf to'rt ming er birla otlanib yetib keldi. Munodiy qildilarkim, ey arqish xalqi, biz sizlarni oshliq olg'ali kelgan sotig'chilar xayol qilduq, sizlar xud o'g'rilar ermishsiz. Qavluhu taolo. Summa *azzana mu'azzinin ayyatuha al-iru innakum lasariquna*. Foyda. Aymishlar, o'g'rilar to'rt turluk bo'lur, mol o'g'risi, namoz o'g'risi, so'z o'g'risi, sog'u o'g'risi. Mol o'g'risining ilkin kesarlar. Qavluhu taolo. *Va as-sariqu va as-sariqatu faqta'u aydiyahuma*. So'z o'g'risini o'tga kuydururlar. Qavluhu taolo. *Illo man istaraqa as-sam'a fa atba'ahu shihabun mubinun*. Namoz o'g'risining yuzi suvin to'kariar. Qola an-nabiyu alay-

hissalom, *Asva' u as-sariqi man saraqqa salotahu*. Sog'u o'g'risini olib qolurlar, xil'atlar berib suyurg'ayurlar. Aymishlar, dunyoda o'g'riliqdin yovuz ot yo'q. O'g'ri qindin qatig' qin ham yo'q, ul qin sog' qo'lin kesmak, ul qo'l birla o'g'urlar, ul qo'l birla taom yeyur, aning birla tahorat qilur, aning birla mash tortar. Sog' ilik barcha yaxshilikni qilur. Mundog' aziz ilik yarim oltun uchun kesulur. Mundog' qatig' qin bo'lmag'ay. Qachon Ya'qub yalavoch o'g'lonlari o'g'ri otin eshittilar ersa kuchlari, quv-vatlari qolmadi, mengizlari sarg'ardi, qo'rqtillar. Aydlilar: Ne yiturdingiz, (97r) kimni o'g'ri teyursiz? Qavlulu taolo. Qolu va aqbalu alayhim maza tafqiduna. Ul munodiy qilg'an aydi: Bizga rahm qiling, malikning sog'usin yiturdik, kim chiqarib bersa bir teva yuki bug'doy beraling. Savol: Sevunchi o'zga mol aytmayin beraling temakda hikmat ne erdi? Javob: Ochliqda hech narsa bug'doydin ortuq yo'q uchun bug'doy beraling, tedilar. Men ul bug'doyni qabul qildim, teyu munodiy qildurdi. Qavlulu taoloyu *Va liman ja'a bihi himlu ba'irin va ana bihi za'imun*. Bermadingiz ersa men qing'a kirurman, siz ham emgakka tusharsiz. O'zingizga kuch qilmang, balog'a tushmang. Teva yuki bug'doyni oling, sog'uni bering. Ush malik so'ngimizdin kelur, teb yolbordilar. Ayn ush-Shams kendinging erkagi, tishisi nazzorag'a chiqib, teva yuki bug'doyni olib sog'uni bersalar bularg'a yigrak erdi, tedilar. Ul holda Yusuf to'rt ming er birla yetib keldi, aydi: *Hal vajadtum as-so'a*. Sog'ungizni topmaduq. Yusuf ulug'larig'a aydi: Ne teyursiz? Ular endikib, aydlilar: Biz elga yovuzlilh'ga kelmaymiz, yalavoch o'g'lonlarimiz, o'g'rilar ermasmiz. Qavlulu taolo. *Va ma kunna sariqina*. Yuklarimiz ichinda chigg'an narsalarni Kan'ondin Misrg'a kelturduk, sog'umu o'g'urlarmiz. Taqi Kan'ondin chiqtuq ersa tevalarimiz og'izlarin bog'ladiq, kishi mulkunda ungan o'tlarni yemasun, kofirlar yig'ochidin yafroq uzmasun, teb. Misrdan chiqg'animizda andag'-o'q qilduq. Mudoq saqlanur kishilar malikka suyurg'anib bug'doy berdurub oshin yeb yana saroyindin sog'umu o'g'urlarmiz! Yusuf aydi: Axtarib boqaling, topmasaq yong'aymiz. O'g'ringin elin kesmak, agar topsak netak bo'lur? Ular aydlilar: Kimning yukidin chiqsa ul tirik borincha malikka qul bo'lur. Ibrohim yalavoch, Is'hoq yalavoch, Ya'qub yalavoch sha'riati birla. Yusuf aydi: Bizning to'ramizda o'g'ringin elin kesmak, berga ur-

moq, mol olmoq turur. Ular aydlilar: Bizning yo'limiz hukm qilsang erkning bor. O'z to'rangcha hukm qilsang ham erkning bor. Qavlulu taolo. *Kazalika najzi az-zolimina*. Yusuf aydi: Yuklaringizni oching. Burun inchilarning (97v) yukin ochdilar. Qayusining yukinda chiqsa biz yalavoch o'g'lon netak bo'lg'aymiz, teb sevunur erdilar. Bu o'n og'a-inining yukin axtardilar, chiqmadi. Yusuf ularga uzr qildi, yonarg'a ko'ngullari bor erdi. Rubil aydi: Bu birimizning ham yukin ko'rung. Ibn Yamin yukin ochtilar ersa sog'u anda chiqdi. Qavlulu taolo. *Summa istaxrajaha min vi'ai axihi*. Qamug'i qazg'ulug' bo'ldilar, aydlilar: Ey Rohil o'g'li, onang iki o'g'ul tug'durdi, ikisi ham o'g'ri. Ibn Yamin aydi: Ey qarindoshlar, men o'g'ri ermasman, vallohki men o'g'urlamadim. Alar qabul qilmadilar. Mavlo taolog'a zoriliq qila boshladi. Qarindoshlari aydi: Duo zoriliq qilg'uncha o'g'riliq qilmasang netak erdi! Savol: Ibn Yamin sog'u o'g'urlamadi. Yusufdin *innakum la soriqun* temak netak ravo bo'lur? Javob: Mavlo taolo yorliqar. *Kazalika kidna li Yusuf*, ya'ni biz Yusuf'a mundog' o'gratu berduk, qarindoshingni bu ado birla olib qolg'il. Mavlo yorliqi birla erdi. Izi azza va jalla ta'lim qilu berdi. Qavlulu taolo. *Va favha kulli zi ilmin alimun*. Qarindoshlari uftanmishdin bu bahona topdilar, Ibn Yaminning sog'u o'g'irlamoqi tong ersa bir tug'g'ani o'g'urluq qilmish erdi. Qavlulu taolo. *Qolu in yasriq fa had saraqqa axun lahu min qablu*. Savol: Yusuf o'g'riliq qilmadi, ne uchun o'g'riliq qildi? tedilar. Javob: ko'p turur, ammo durustrak ul tururkim, Yusufning xolasi Ya'qub yalavochning nikohinda erdi, Yusufni yavloq suvar erdi, aning uchun Is'hoq yalavoch qurini Yusufg'a bildurmayin to'ni ichinda beliga qurshayu berdi. Qur yiturdum, teyu Ya'qub yalavochg'a keldilar, tilayu Yusufda topdilar. Ul shariaticha mening o'g'rim turur, teyu Yusufni olib qoldi. Ul sababdin Yusufni o'g'riliq qildi, tedilar. Yusuf ani eshitti, ammo bilturmadim. Qavlulu taolo. *Fa asarraha Yusufu fi nafsihi va lam yub-diha lahum*. Amr Mavlo taoloning erdi, aymag'il, teb. Qarindoshlari aydlilar: Berga urg'il, mol olg'il, olib qolmag'il, olib qolur ersang bizlarning birimiz (98r) ni olib qolg'il, qart otasi bor. Qavlulu taolo. *Ya ayyuha al-azizu inna lahu aban shayxan kabiran fa xuz ahadana makanahu*. Yusufni Aziz, teyu o'gdilar, andin so'ng hojat qo'ldilar, qart otasin shafi' kelturdilar. Savol: O'talarining yalavochliqin shafi'

men taqi iki o'g'ul qazg'usinda mubtalo bo'ldum. Birisin bo'ri yedi, tedilar, yana birinsin o'g'riliq qildi, teb sen olib qolmishsen. Bizda o'g'riliq qilur kishi yo'q, men bir zaif munglug', qazg'ulug', ko'zsuz qartman. Yoshim ulg'aydi, so'nguklarim kovlandi, soch saqolim oqardi, orqam mungda, qazg'uda bukraydi, manga rahm qilg'il, yorliqag'il ko'zum yaruqi o'g'lumni manga berib yuborg'il. Sanga ezgu du'o qilayin, bu jahonda ezgulik ko'rgil, ul jahonda qutulg'il, bizning ko'nglumizni og'ritmag'il, nafasimizni zoyi' qilmag'il, senga yaxshi kelmas. Agar yibormading ersa bir tunla erta qo'pub sehr o'qin sening tapa izg'aymen, sen va mulkung, eling kuning yo'q bo'zun bo'lg'aysiz. Savol: Yusuf Fir'avn og'ushindin ermas erdi, ne uchun Fir'avn og'ushi, teb xat yozdi? Javob: Misr maliklari qamug' Namrud urug'indin erdilar, Fir'avn atanur erdilar, bu malik ham ularning urug'indin turur, teb bilmay izdi. Qachon (99v) xat Yusuf'a tegdi ersa Yusuf uch tun-kun evga kirib yig'ladi, andin bitikka javob bitidikim, bu Azizi Misrdin Is'hoq yalavoch o'g'li, Ya'qub yalavochg'a tegsun: Ey zaif qart, sen bitikda aymishsen, otam bo'g'uzlandi, ulug' otam o'tg'a otildi, o'g'lumni manga izg'il, izmading ersa saharda qo'pub duo o'qin otqaymen, temishsan. Emndi mening javobim ul tururkim, otalaring netak sabr qildilar ersa, sen ham andag'-o'q sabr qilg'il. Tengri azza va jalla ularg'a netak yo'l berdi ersa, sanga ham andag'-o'q yo'l bergay. Taqi so'zum ul turur, zinhor saharda qo'pub ul o'qni mening tapa otmag'il, o'z ko'zung yoruqi, ko'nglung to'qi o'g'lungni tengri taolo tark kunda senga qovushturg'ay, vassalom. Qachon bitik Ya'qub yalavochg'a tegdi ersa, o'qidi, aydi: Bu bitik kofirlar bitigi ermas, bu so'z kofirlar so'zi ermas, bu bitik yalavochlar bitigi turur, yo kendu siddiqlar so'zi turur. Ul vaqtda Ya'qub yalavoch urug'indin o'zidin o'zga yalavoch yo'q erdi, umidlik bo'ldikim bu bitik o'g'lum Yusufning bo'lg'ay, teb, o'g'lonlaring'a aydi: Sizing nafsingiz sizga bu ishni bezayu berdi, netakkim Yusuf haqinda bezadi. Qavluhu taolo. *Qola bal savvalat lakum anfusukum amran*. Misr maliki ne bildi o'g'rini qullanmoqni sizlar anga o'gratu berdingiz! Ichingizda ne borin Mavlo bilur, o'g'ul-qizni qarq'amoq bizdin ravo ermas, Yusufg'a sabr qilmishtek munda ham sabr qilayin, bo'lg'aykim Izi azza va jalla qamug'ini manga qovushturg'ay. Qavluhu taolo. *Fa sabrun jamilun asa-llohu*

an ya'tiyani bihim jami'an innahu huva al-alimu al-hakimu. Aymishlar: ul holda tengri taolo yorliqi birla Ya'qubni uyqu bosti, tushunda Azroilni ko'rди, so'rdikim: Yo Malak ul-mavt, Yusufning jonin oldingmu? Azroil aydi: Yusuf tirik turur, jonin olmishim yo'q. Mavlo taolo Yusufni sanga qovushturg'ay, sevungaysen. Ya'qub sevinmishdin uyg'ondi, aydi: Ey darig'o, Yusufning holi netak erkan? Ul holda Jabroil yetildi, yorlig' tegurdikim, ey Ya'qub, necha yig'layursen? Mavlo taolo azza va jalla aytur o'g'lung Yusufni sanga (100r) qovushturg'ayman. Ya'qub yalavoch sevunmushdin olinini sajdaga qo'ydi, Izi azza va jallaga shukr qildi, o'g'lonlarin indab aydi: Misr eliga boring, Yusufni tilang. Aydilar: Borg'aymiz, Ibn Yaminni kelturgaymiz, ammo Yusufni topmag'aymiz. Aymishlar: Ya'qub yalavoch Yusuf uchun oncha yig'ladikim, iki ko'zi oqardi, ko'rmas bo'ldi, o'g'lonlarindin yuz o'g'urdi. Ba'zilar aymish: qirq yil yig'ladi, ba'zilar aymish sekson yil yig'ladi. Savol: Odam uch yuz yil yig'ladi ko'zlari oqarmadi, Ya'qub qirq yil yig'ladi ersa ko'zlari oqardi, hikmat ne erdi? Javob: Odam zillat qildi, Mavlo yorliqidin tashin bug'doy edi, taqsiring'a yig'ladi, aning uchun ko'zi oqarmadi. Ammo Ya'qub taqsiring'a yig'lamadi, Yusuf uchun yig'ladi, ko'zlari oqardi. Aymishlar, Dovud yalavoch qirq yil yig'lamadi zillati uchun. Tegrasinda qirq qari suv yig'ildi, o't undi, Dovudning bo'yi ko'runmas bo'ldi. Hikoyatda kelur, bir kun havodin bir qush inib Dovudning ko'zi yoshindin ichdi, uhub borurda qush aydi: Ne totlig' suv ichdim! Dovud ani eshitib taqi ortuqroq yig'layu boshladi. Mavlodin xitob kellpkim: Ey Dovud, netak yig'layursan? Aydi: Ilohiy, mening holim andog'mu bo'ldikim havodag'i qushlar ta'n qilurlar, meni fusus tutarlar. Mening ko'zum yoshin totlig', teyurlar. Xitob keldikim: Ey Dovud, ul qushlar yalg'on aymadi, rost aydikim, dunyoda hech narsa yaratmadim, osiylarning ko'zi yoshindin totliroq. Dovud ani eshitti ersa sevunmishdin yana ortuqroq yig'ladi. Hikoyatda kelmish: Shayx Zunnun Misriy bir tunla evining tomi uza minib toat qilur erdi, oncha yig'ladikim, ko'zi yoshi novdondin suv bo'lub oqti. Ul oqarda bir kishi tom tubidin o'tub borur erdi, aning to'niga suv tomди, aydi: Bu novdondin oqarturg'an suv arig'mu yo arig'sizmu erkan? Zunnun eshitib aydi: Ey mo'min, muvahhid to'nungni yuvg'il arisun, bir osiyning ko'zi yoshi (100v)

turur. Maqsudg'a kelduk: Ul holda Jabroil odam suratida Ya'qubg'a keldi, aydi: *Ya Ya'qubu ma allazi azhaba basaraka*, ya'ni ko'zungni kim oqartti, orqangni kim bukri qildi, yuzingni ne achitdi? Ya'qub aydi: Yusuf uchun yig'lag'anim ko'zumni oqartdi, Ibn Yamin qazg'usi belimni bukri qildi, Yahudo soqinchi yuzumni achitdi. Jabroil aydi: Yo'ya'qub, seni Yusufmu yaratdi? Ya'qub aydi: Yo'q. Jabroil aydi: Ibn Yaminu sanga ro'zi berur? Ya'qub aydi: Yo'q. Jabroil aydi: Yahudomi seni qazg'udin qutg'aru? Ya'qub aydi: Yo'q. Jabroil aydi: Tengridin ne uchun shikoyat qilursen. Ya'qub bildikim, so'zlagan Jabroil turur. O'shul soatda ko'rinmas bo'ldi. Ya'qub aydi: *Lav zarabtani bihaza as-savti avvala marratin ma afnaytu umri fi zikri Yusuf*. Ya'qub aydi: Ilohiy bu qamchi birilan avval-o'q ursang erdi esiz umrumni Yusuf oti birla kechurmagay erdim. Ya'qub yig'isindin evdagi o'g'ul-qizi aytur erdilar: Izi haqqi, Yusuf temakdin taqi ermadingmu? Tinmay Yusuf dersen, qazg'ura sizg'aysen yo kendu o'lgaysan. Qavluhu taolo. *Ta-llohi tafta'u tazkuru Yusuf* hat-ta takuna harazan av takuna min al-halikima. Bu so'zga Ya'qubning qazg'usi qazg'u uza ortdi, aydi: Mening shikoyatim, yig'im ular uchun ermas, Izig'a turur. Izi hazratig'a munglanurmen. Qavluhu taolo. *Immama ashku bassi va huzni ila-llohi*. Qachon toat va ibodatdin forisa bu duoni aytur erdi. *Ya kasira al-xayri va da'ima al-ma'ru-fi massikni ala al-islamiya hatta alqoqa*. Yana bu duoni aytur erdi: *Allohumma rudda alayya rayhamni summa isna' ma shi'ta*, ya'ni Xudoyo ul iki chechaklarimni menga yondura bergil, andin so'ng ne tilasang manga ani qilg'il. Rivoyatda kelur: Abdulloh ibn Abbos raziyallohu anhumodinkim: Ya'qub yalavoch Izisiga yalbordi farah tiladi, bu duoni ukush aydi ersa Azroil bir kun odam suraticha kel-di, salom qildi. Ya'qub (101r) ilki birla ani tutdi va aydi: Kimsen? Aydi: Azroilmen! Ya'qub aydi: Yo Azroil, Izi azza va jalla haqqi hurmati uchun ayg'il, o'g'lum Yusufning jonin oldingmu? Azroil aydi: Yo'q. Tark ro'zgorda Yusufni ko'rub sevungaysen. Ya'qub sevinmishdin yig'layu boshladi. Azroil aydi: Yo Ya'qub, Izi azza va jalla sanga salom yorliqar, aytur mening izza jalolim *ashqu bassi va huzni ila-llohi* teguncha yo *kasiral xayri va yo doimal ma'ruf* tesang Yusuf birla Ibn Yaminni agar o'lmish bo'lsalar turguzgay erdim taqi sanga qovushturg'ay erdim. Bu kun xud ikisi tirik tururlar, netak

qovushturmag'aymen. Ya'qub ani eshitib, o'g'lonlaringa aydi: Men bilurmankim, Yusufni bo'ri yemadi, ibn Yamin o'g'urloq qilmadi. O'g'lonlari aydilar: Tirik erkanin bilmishsen sanga qovushtururin anglamishsen. *Ya asafan ala Yusuf*. Temak yig'loq ne sababdin erdi? Aydi: Bilur erdim manga qovushturg'usini, ammo qachon qovushg'usin bilmashmen, aning uchun yig'layurmen. Odam o'g'lonlari ro'zi kelurin bilurlar, ammo qachon kelurin bilmaslar, qo'rqunchlari andin turur. Aymishlar: Ya'qub yalavoch o'g'lonlaringning ozuqlari tuganmasdin burun kengashgali otalarig'a keldilar. Otalari aydi: Boring Yusuf birla Ibn Yaminni so'rung, istang. Qavluhu taolo. *Ia baniyya izhabu fa tahassasu min Yusuf* va *ahih*. Ay-dilar: Ey ota, yillar kechdi, yig'layursen, necha Yusuf teyursen, bo'ri yegan Yusufni qandin topaling? Ya'qub aydi: Izi rahmatindin navmid bo'lmang, Izi rahmatindin navmid bo'lg'an kofirlar turur! Qavluhu taolo. *Va la tay'asu min ravhi-llohi innahu la yay'asu min ravhi-llohi illa al-qavmu al-kafiruna*. Ya'qub yalavoch o'g'lonlari yo'lg'a kirdilar, otalari uzata chiqdi, vasiyat qildi. Qachon Misrg'a tegdilar ersa yo'lichilar Yusufg'a xabar qildilar. Yusuf o'n ming oltun qurlig'yigitlarni alarg'a qarshi yibordi taqi yuz ming kumush qurlug'yigitni o'zi qotinda turg'uzdi. Aymishlar: Yusufning yeti qat saroyi bor erdi, barcha tomlari (101v) oltun, kumush birla bezaklik, yig'ochlari aqiq birla. Ul yeti qat saroylarni turluk-turluk narsalar birla bezadi. Ilk qat saroyda Misr ulug'larin o'lturtdi, barcha yipak to'nluk, oltun qurlug'lar. Ikinchi evni yashil birla bezadi, beklarni o'lturtdi. Uchunchi evni qizil bezak birla bezadi, bahodirlarni o'lturtdi. To'rtunchi evni nasx birla bezadi, oq saqolliqlarni o'lturtdi. Beshinchi evni lolalar birla bezadi, munajjimlarni anda o'lturtdi. Oltinchi evni yipor birla bezadi, anda donishmandlarni o'lturtdi. Yetinchi evni chechaklar birla bezadi, o'z topug'chilari birla oltun taxt qurub, o'zi taxt uza o'lturtdi. Ming oltun qurlug'yigit sog'inda, qo'llarig'a oltin amudlar olib tururlar. Ming kumush qurlug'yigit so'linda, qo'llarig'a yo o'q olib tururlar erdi. Orqasinda bir tub yig'och erdi, qizil oltundin, butoqlari kumushdin, yaproqlari yinjudin, yemishlari yoqutdin. Qachon qarindoshlari qapug'g'a tegdilar ersa alarni og'irliq birla kivurdi. Bu taqte'ni ko'rdilar ersa qo'ptilar, malik bizga yovuz saqinibmu mundog' burhonlar ko'rguzur. Qachon

kirdilar tekma birin taxt o'za o'lturtdi. O'zi Ibn Yamin birla taxt uza erdi. Ya'qub o'g'lonlarining bu uchunchi kelganlari erdi, qahatliq ul haddi erdikim, bir eshak boshini to'rt oltin mag'ribiyg'a olur erdilar. Bu kelmishda yarmoqlari yo'q erdi, tovar, juvol, kiyiz, arg'amchilar olib keldilar. Orqalarig'a yuklab, yolboru, ingrayu kirdilar. Aydlar: Ey Aziz, bizga, o'g'ul-qizimizg'a qatig'liq tegdi, ochliqdin toqatimiz qolmadi, xazinag'a yarog'lig' nimarsa kelturmadi ozgina yog', arg'amchi, kiyiz, tovar olib kelturduk, bug'doy bahosig'a tegmas. Buni olg'il, bizga sadaqa atab bug'doy bergil, teb yolbordilar. Alar-din xabar berur: Qavluhu taolo. *Ya ayyuha al-azizu massana va ahlana az-zurru va ji'na bibizo'atin muzjatin fa avfi lana al-qayla va tasaddaq alayna.* Yusufning ko'zidin yoshi oqa, Ibn Yaminning yoshi oqa taxtdin tushub evga kirdi, ukush yig'ladi, qotindaqilar aydilar: Ayuhal aziz, to'rt yil bo'ldi, qamug' xaloyiqlar ingranurlar, yalvorurlar, anlarg'a yig'laming, bu kun ne bo'ldi, yig'layursen? Aydi: Tek turung, bular mening qarindoshlarim turur, ul qart otamg'a taqi qarindoshlarimg'a qatig' emgaklar tegmish, muncha xaloyiq qatinda uftanmayin *massano va ahlano az-zurru*, teyu faryod qildilar, netak yig'lamayin, tedi. Andin so'ng alarg'a aydi: Bilmasmusen bir sog'u bug'doy qirg' oltun bo'ldi, bu sizning kelturganlaringiz bizga yaramas, tedi. Tekma kelmishlarinda Yusuf ularni qo'noqlatur erdi, bu yo'l qo'noqlatmadi. Aymishlar: ming turluk balo odam o'g'lonlarig'a ul ish qilmaskim, bir soat ochliq qilur. Yana ming shayton odam o'g'lonlarig'a ani qilmaskim, bir soat to'qluq qilur. Taqi aymishlar: Mavlo azza va jalla odamiyning nafsini yaratdi ersa, yorliq keldikim: men kimmen, sen kimsen? Nafs aydi: Sen sensen, men menmen. Qayu turluk rohatg'a tegdi ersa muni to'q aydi. Qachon ochliq birla qiynadi ersa aydi: Xudoyo, sen Allohsen, men qulmen. Taqi Mavlo taolo yorliqar: yorin ujmohtlig'lar ujmohtdin tamug'lug'larni ko'rurlar, tamug'lug'lar ujmohtlig'larni ko'rurlar. Qamug' qinlarg'a toqat keltururlar, faryod qilmaslar, ammo ochlig', suvsog'liqg'a faryod qilurlar. Qavluhu taolo. *Va nada ashabu an-nari ashaba al-jannati an afizu alayna min al-ma'i av mimma razaqaqum Allohu.* Ul siz ichgan suvdin u eyuturg'an taomdin bizga berib izing. Ujmohtliqlar ayg' aylar, Izi azza va jalla bu yem-ichimni

kofirlarg'a harom qilib tururlar. *Harrama-huma ala al-kafirina.* Bu oyat birla ma'lum bo'ldikim, qamug' qinlardin qorin ochliqi qatig'roq ermish. Kelduq maqsudg'a, Yeti kun Yusuf saroyig'a keli qoldilar, Yusuf bizoatlarin unamadi, aydlar: Ey Aziz, bizing bizoatlarimiz sening xazinangg'a yaramas, sen bizga munglug' ermassen, bizlar senga munglug'miz, bizni noumid qaytarmag'il, sadaqa qilg'il, oshliq bergil, sadaqaning ajrin Mavlo taolo berur. *Va tasaddaq alayna inna-Iloha yajzi al-mutasaddiqina.* Rivoyat qilmish Homid Nasaviykim, Yusufning qushluq oshing'a qirg' ming oltun xarij bo'lur erdi, kechalik oshing'a ham andag'-o'q. Taqi har kunda qirg' ming oltun sadaqa qilur erdi, kechada ham andag'-o'q. Aydlar: Ey malik, sening javonmardliging, yaxshiliqing qamug' olamg'a yoruqluq berur, biz g'ariblar uza ham yoruqluq bersa ne bo'lg'ay. Qart otamiz bor, ibn Yamin uchun yig'layur, otamizg'a, bizga rahm qilg'il, Ibn Yaminni bizga sadaqa qilib bergil, qorusin Mavlo taolo bergay. *Inna-Iloha yajzi al-mutasaddiqina.* Aymishlar: Yusufni burun Aziz teyu o'gdilar *qolu yo ayyuhal azizu o'zlarini xo'rladilar. Massano va ahlano az-zurru.* Uchunchi kelturganlarin sanga yaramas tedilar va *ji'no bi bizo'atin muzjotin.* To'rtunchi tilaklarin adl bilar tiladilar *fa avfi lana alkayla.* Beshinchi fazl umid qildilar va *tasaddaq alayno.* Oltinchi bergan jazog'a va'da qildilar, *innalIloha yajzi al-mutasaddiqin.* Rivoyat qilur, Abdulloh Horis Ibn Navfal raziyallohu anhum: bu qamug' yondilar, Yusufdin ijobat bo'lmadilar, Ibn Yaminni ko'rmadilar aydlar: Ey Aziz, ul o'g'riliq qildi tegan qarindoshimiz qani? Yusuf aydi: Sotdim, bitik oldim, bitik bu turur, ibroniy tilincha biz o'qiyu bilmasmiz, sizning tilingiz turur, o'qungiz, eshitaling. Yahudo bitigni oldi, ko'rdi Yusuf quzug'din chiqmishda Malik ibn Za'rg'a Yusuf qulimiz, teb sotqanda bergan bitik erdi. Yahudo uftanmishdin Rubilg'a berdi, Rubil Sham'ung'a berdi, Sham'un, Lovig'a. Ilikdin ilikga berdilar, o'qumadilar, bu bitikni bilmasmiz tedilar. Yusuf aydi: O'z tilingizni netak bilmassiz, o'qung, tedi ersa ular qo'rdilar, yuzlari sorg'ardi, yolbora boshladilar. Aydlar: Ey Aziz, bu bitikni o'qumoqda sizning maqsudingiz ne turur, har qin bo'lsa biz tortaling, bu bitikni bizga o'qutmag'il, o'z bitigimizni o'zumiz o'qiyu bilmasmiz. Mundayg'-

o'q qiyomat kuni bo'lsa, Omanno bihi va saddoqno tegma bir bandaning qilmishlarin bitik qilib qo'ling'a bergaylar, o'qig'il, teb. Ul bandalar ko'rgaylar qamug'i yozuq va ma'siyat o'quy olmag'aylar, yorlig' kelgaykim: o'qingiz. Faryod qilib ayg'aylar: Ilohiy (103r) bitik bu ersa o'rumiz tamug' turur, bu bitikni bizga o'qutmag'il, o'ftanmishdin o'qiyu bilmasmiz tegaylar. Yana Yusuf aydi: Bo'Imas, o'qung, teb Yahudog'a berdi. Yahudo olib o'qudi, bu ul bitik tururkim, molik Za'r Ya'qub yalavoch o'g'lonlarindin bir o'g'lon oldi Yusuf otlig', mundog' sifatlig'. Qachon molik Za'r otin eshittilar ersa aydilar: Biz anga bir o'g'lon qul sotib erduk. Yusuf aydi: Emdiga tegru bo'ri yedi der erdingiz, emdi qul sotub erduk dersiz, ul sizlarga qarindosh ermish, qarindoshin sotmoq ravo bo'lurmu? Tutung bularni, teb qamug'ini tutdurdi. Misr ulug'larin yig'durdi, bularni netak qilaling, teb. Ba'zisi aydi: Qo'llarin kesing! Ba'zi aydi: Dorg'a osing! Yusuf aydi: Bularni qiynang, tokim qin birla o'lsunlar, tokim o'zgalarga ham pand bo'lg'ay, qarindoshlarin sotmag'aylar. Tutub bozorg'a eltur bo'l-dilar ersa, faryod qilib aydilar: Ey Aziz, bu kun ne qilsang bizning sazomiz turur, sendin bizing tilagimiz ul tururkim, bizni o'lturgan-din so'ng ul yaramaz bizoatlarimiz birla so'ngaklarimizni otamizg'a yuborgil. Yana Yahudo yig'layu aydi: otamiz Ya'qub yalavoch bu kunga tegru bir o'g'ul uchun yig'lamoqdin ko'zlari ko'rmas bo'ldi, endi o'n o'g'ul uchun netak qilg'ay. Qamug'yig'lashib faryod qilib aydilar:

Vo asafu ala firoqi qavmin

Va-lmudnu va-muznu va-rravasi

Kam tag'ayyara lana al-layali

Va kullu hamdin lana qulubu

Humu-lmasobihu va-lhusunu

Va-lxaylu va-l'unsu vas-sukunu

Hatta tavaffahum ulmanunu

Va kullu ma lana uyunu

Turkiy

Bu biztek qatig' qindakim bor bu kun,

Uruldi orig' jong'a turluk tugun.

G'aribliqda erksiz tushub iylanib,

Esiz o'n qarindosh o'larmiz bu kun.

Emdi tegru oshliq qo'lub sadaqa qilg'il, teduk, andin kechduk, Ibn Yamin qarindoshimizni sadaqa qilg'il teduk, andin ham kechduk, ish boshqa keldi, emdi qurug' boshimizni sadqa qilg'il. Qamug' Misr xalqi ul yig'ini ko'rub yig'lashtilar. Ul holda Jabroil kelib aydi: Yo Yusuf, Mavlo taolo (103v) yorliqar: Bularg'a bir yo'li emgak yuklamagil, kelturganlarin olmassen, va'da qilg'an bu bug'doyni bermassen, yana o'ltururman, teb qo'rqutursen. Yusuf ularni kelturub qarindoshlarig'a aydi: Bizoatingizni qabul qildim, oshliq berayin, ortuqroq ham berayin, qolg'an ishlaringizni yorin bitkarayin, teb ularni sevundurdi.

Mundag'-o'q qiyomat kuni Mavlo taolo qamug' bandalarni tamug' o'ti birla qo'rqutg'ay, azobni ko'rgaylar, anda kezin uj-mohg'a kivurgay, o'z fazli birla. Hikoyatda andog' kelurkim: eran-larda birisi vafot qildi, ani tushda ko'rdilar, Mavlo taolo sening birla ne mu'omala qildi, teb so'rdilar. Aydi: *Hasabuni fa dafa'u summa mannu fa a'taqu*, ma'ni ul bo'lurkim, bizni saqishg'a tortib qatig'yinchkaladilar, oxir so'nggi minnat qilib ozod qildilar. Aymishlar, ul bitikni o'qumasmiz tedilar, Yusuf o'z bitikchisiga berdi, o'qig'il, teb. O'qidi, bu xat ul tururkim, Ya'qub yalavoch o'g'lonlari o'n qarindosh ul Yahudo, Sham'un, Rubil, Lovi, Jod, Don, Yag'sho, Yastojir, Ramolun, Qozo'ro. Bu o'n qarindosh ittifoq qilib Yusuf otlig' qulumuzni molik Za'rg'a sotduq. Bitikni o'qib tugatti ersa, Yahudo aydi: Ey malik, bu xat bizing turur. Yusuf otlig' qulimiz bor erdi ani sotduq. Yusuf aydi: Aning hikoyati netak erdi? Yahudo aydi: Inimiz bizing birla ovg'a chiqdi, biz ovg'a mashg'ul bo'lduq, ani bo'ri yedi. Yusuf aydi: Bu so'z ma'qul ermas, mening bir sog'um bor, qayu so'zni so'rsam manga aytur, teb sog'uni kelturdi, ilkinga oldi, yana bir ilki birla sog'uni qoqdi, sog'u sado qildi. Yusuf aydi: Ey yigitlar, sizlarning orangizda bir yigig bor o'fkasi kelsa, azoqin yerga tepsa tiziga tegru ko'mulur ermish. Agar toshni qo'li birla

o'vsa untek bo'lar ermish, urlasa tuklari to'nidin o'tub tash chiqar ermish, un qilsa bir yig'och yerga borur ermish. Ul yig'och yerkim uni borsa (104r) aning to'rtida bir ulushinda eshitgan homila zaifalar o'g'lon tushurur ermish, ul kimdur? Yahudo aydi: Ul menmen. Yusuf aydi: Menmen temakka o'ftanmasusen? Mundog' kuchung quvvating bor ekach Yusufni bo'riga neluk yedurding.

Yana sog'uni qoqdi, ovoz chiqdi, aydi: Bu sog'um aytur: sizlarning orangizda bir er bor, soyasinda ming qo'y yotur, yig'ochni bir qo'li birla yerinda qo'porur. Agar sanchishg'a kirsas yigirmi mingerni qochirur, ul kimdur? Sham'un aydi: Menmen. Yusuf aydi: Muncha quvvating bor ekach Yusufni bo'riga neluk yedurding? Yana sog'uni qoqdi, aydi: Bu sog'um aytur, sizlar orangizda bir er bor, o'q o'tsa olti yig'och yerga borur, otqanin yozmas, ul kimdur? Rubil aydi: Menmen. Yusuf aydi: Muncha kuchung bor ermish Yusufni neluk bo'riga oldurding?

Yana sog'uni qoqdi, aydi: Bu sog'um aytur: Bular da bir er bor, tevani boshindin oshura tashlar, ul kimdur? Lovi aydi: Ul menmen. Yusuf aydi: Bu kuchung bor erkan Yusufni bo'riga neluk oldurding. Mundag'-o'q, o'n yo'li sog'uni qoqti, tekma biringa javob aydi. Yana bir sog'uni qoqti, aydi: Bu sog'um aytur sizlar Yusufni o'lturgani o'g'ramishsiz yana quzug'g'a solmishsiz, quzug'din chiqarib qul, teb sotmishsiz, azoqing'a kishan urg'il temishsiz, qatig'ingirchoqg'a mundurgil, yiroq yerga eltib solg'il, uch turluk aybi bor qochqoq, yig'loq, o'g'ridur temishsiz. Bu kun ul kun tururkim iliklaringizni kesib, Misr elining eshiklarindin osarmen. Ular qo'rqub o'z ichin aro o'z tillari birla so'zlasha boshladilar. Keling mundog' qin birla o'lguncha tegma birimiz erdamlarimizni ko'rguzub o'laling, tedilar.

Ba'zilar aymishlar: Yahudo bu so'zni eshitib ura qo'pti va aydi: Ey qarindoshlar, emdiga tegru bu so'zni kim ersaga aymadingiz, otamiz, o'g'ul qizimiz bilmadi. Taqi otamiz aydi: boring bizga Yusufni, Ibn Yaminni tilang tedi. Ibrohim yalavoch va Is'hoq yalavoch va Ya'qub yalavoch haqqi hurmati bu malik Yusuf turur. Qavlulu taolo. *Qolu a'innaka laanta Yusufu*. Ey malik, Yusuf ersang bizni mundin ortuq emgatmagil, ul qari otamizni mundin ortuq qazg'uda tutmag'il, tedi ersa darhol Yusuf yuzindin pardasin

ko'tardi, boshinda nishonasi bor erdi ko'rsatti, aydi: O'sh men Yusufmen, bu Ibn Yamin mening birla bir tug'g'an qarindoshim turur. Qavlulu taolo. *Qola ana Yusufu va haza axi*.

Savol: Ibn Yamin Yusufning qarindoshi erdi, ularma bilur erdilar, bu erda men Yusufmen, bu mening qarindoshim temakda hikmat ne erdi? Javob: Sog'u ul kun aning yukinda chiqti, o'g'ri-liqi uchun qul, teb olib kolduq, qul ataduq, ul qul otin eshitib, qazg'urdi, bu kun qarindoshim, tedi ko'ngli o'ssun, sevunsun teb. Ma'lum bo'ldikim tekma emgak so'nggi rohat ermish, tekma qazg'u so'nggi sevunch ermish, tekma mehnat so'nggi ne'mat ermish. Ey Yusuf, biz seni qul teb sottuq, g'aribliqg'a solduq, podshohliqg'a qandin tegding? Yusuf aydi: Izi azza va jalla uza minnat qo'zdi, kim yozuqdin saqinsa, Mavlodin qo'rqsa, balog'a sabr qilsa, salimg'a rozi bo'lsa, Mavlo aning emgakin zoyi' qilmas. Qavlulu taolo. *Qad manna-llohu alayna innahu man yattaqi va yasbir fa inna-lloha la yuzi'u ajra al-muhininna*. Men Izi azza va jalla hukminga sabr: qildim, Mist urag'utlari balosindin o'zumni saqladim, aning barakatidin podshohliqg'a tegdim. Andin so'ng qarindoshlari Yusufg'a uzr qo'ldilar, Yusuf ularning uzrlarin qabul qildi, ularni qazg'udin chiqardi, aydi: Ey qarindoshlarim, *ixvani ma avqa tumuni fi al-jubbi va lakin ajlastumuni ala as-sariri*. *Ixvani ma avqa tumuni fi al-g'urbati bal ja'altumuni malikan*. Qamug'lari bu so'zni eshitib sevunub aydilar: Mavlo seni bizing uza uzdurd, seni og'irladi. Qavlulu taolo. *Tallohi laqad asaraka-llohu alayna*. Qamug' yozuqlar bizda turur va *in konna laxoti'na Yusuf uzrlarin qabul qildi va ularni uyotdin chiqardi*, aydi: *La tasriba alaykum al-yavma*. (105r) Aymishlar, qarindoshlari haqinda ham erlik qildi, ham kishilik qildi *la tasriba alaykum al-yavma*, tedi, erlik ul erdi. Mavlo taolodin ulami yorliqayu tiladi: *yag'firu-llohu lakum va huva arhamu ar-rohimina*, tedi. Andin so'ng borcha ura qo'pub Yusufg'a xidmat qildilar, birin-birin quchushtilar, o'g'li Afrotimni qarindoshlarig'a ko'rushturdi. Misr xalqi qamug' tapug' birla uzrlar qildilar. Andin so'ng Yahudo aydi: Ey Yusuf, bizlarning birimizga farmonlag'il otamizg'a sevunchilay borsun. Yusuf buyurdi, amoriylar qildilar, aydi: Boring, Kan'ong'a Ya'qub yalavochni xotuni birla azin qab-qarindoshni ko'churub keling. Yahudog'a aydi: Sen

mening ko'nglakimni otamg'a olib borg'il, ko'nglakimni ko'ziga surtsa ko'zlari ochilg'ay. Rubil qo'pa keldi, Yahudoning azoqing'a tushdi, aydi: Ul kun qonlig' ko'nglakni men eltib erdim, otamizni men qazug'lug' qilib erdim, bu kun ko'nglakni men eltayin, qazg'u mendin bo'ldi ersa, sevunch ham mendin bo'lsun. Qarindoshlari tekma biri men borayin, tedilar. Yusuf aydi: Ul kun ko'nglakni kim eltti ersa bu kun ham ul eltsun, Rubilni yubordi.

Savol: Ya'qub, Yusuf ikilari ham yalavoch erdilar, sekson yil ay-rilmoqda sabab ne erdi? Javob: Ya'qub yalavochning Yusuf o'g'lon erkanda bir Mubashshara otlig' qoraboshi bor erdi, ul qoraboshning Bashir otlig' o'g'li bor erdi. Bir kun o'ynayurda Yusufg'a bir shap-pot urdi, Yusuf yig'layu otasig'a keldi. Ya'qub ont ichtu, Bashirni sotqaymen, teb, oxir onasindin ayirib sotti. Onasi Mubashshara yig'layu qoldi, Tengri taolo taqdir qildi: Ey Ya'qub, sen Bashirni onasindin ayirib sotding ersa, men ham Yusufni sendin ayirib sot-qaymen. Qamug' olam bilsunlarkim, etni tirmoqdin ayirimoq kerak-mas. Aymishlar: Bu Mubashshara o'g'li Bashir qazg'usindin yig'layu ko'zlari ko'rmas bo'lmish erdi, Ya'qubning ham. Ul Mubashshara yig'layu Ya'qub yalavochg'a keldi (105v) Ya'qub munojot qildi-kim: Ilohiy, bu Mubashshara o'g'li munga qovushg'aymu, mening o'g'lum manga qovushg'aymu? Xitob keldikim: Ey Ya'qub, taqdirim Mubashsharag'a o'g'lin qovushturmag'uncha Yusufni sanga qovush-turmag'aymen, teb. Ya'qub yalavoch bu sevunchni Mubashsharag'a aydi, Mubashshara umonchlik bo'ldi, Kan'on yo'li boshinda ko'laka qilib o'lturur erdi. O'g'li Bashir Misrda qul erdi, Yusuf xabarin bil-di ersa, Ya'qubg'a sevunchi xabarin aytayin, teb jamozag'a minib tebradi. Bashir ilgari, Rubil so'ngidin keldi(lar), qachon Kan'ong'a yetti ersa onasi o'lturg'an ko'lakani ko'rub borub andin suv qo'ldi. Onasi suv berdi, qaydin kelursen, qayda borursen? tedi. Bashir aydi: Misrdin kelurmen, Kan'ong'a borurmen. Ya'qub yalavochg'a o'g'li Yusuf sevunchisin aytu borurmen. Onasi aydi: Yolg'on aytursen. Bashir aydi: Ey qurtg'a, meni ne bilib yolg'on teyursen? Onasi aydi: Mening o'g'lim mendin ayrilib turur, Ya'qub yalavoch duosi birla Mavlo taolo xabar berib turur, Mubashshara o'g'lim onasig'a qovush-turmag'uncha Yusufni sanga qovushturmag'aymen, teb. Mening o'g'lum sevunchisi manga kelgani yo'q, Yusuf sevunchisi Ya'qubg'a

netak kelur? Bashir aydi: Oting ne turur? Onasi aydi: Mubashshara. O'g'lung oti ne turur? Aydi: Bashir. Qachon muni eshitti ersa o'zini tevadin tashladi, onasining azoqing'a tushdi o'sh o'g'lung menmen, teb. Mubashshara o'g'lini quchoqlag'ach ko'zlari ochildi.

Aymishlar: qachon Rubil Misrdin chiqti ersa yarim yo'lg'a keldi ersa, Ya'qub yalavochg'a Kan'on ichinda Yusufning ko'nglaki yizi keldi, faryod qilib aydi: bu soat Yusufning yizini buldum. Qavluhu taolo. *Qola abuhum inni laajidu riha Yusufu lav la an tufanniduni.* Evdagi qizlari aydi: Yusuf qazg'usinda qariding, mungading, qaydaqi Yusufni tilayursen, avvalqi sevukluking ketmadi. Qavluhu taolo. *Ta-Ilohi innaka lafi zatalika al-qadimi ay mahabbatika al-qadimi va qila xitobika al-qadimi.* O'shul kun Bashir Mubashshara birla kirib Ya'qubg'a sevunchiladilar. So'ngincha Rubil yetib kirdi, Yusuf ko'nglakini otasi yuzi uza qo'ydi. Ya'qub ko'nglakni (106r) ko'ziga surtgach, ko'zlari ochildi. Qavluhu taolo. *Fa lamma an ja'a al-bairu alqohu ala vajhihi fartadda basiran.* Rubilni quchdi, Yusufning xabarlarin so'rdi, qamug'ni ayta berdi. Ikinchi kunda qolg'an o'g'lonlari keldilar, amoriy kelturdilar. Yusufdin tapug'chilar keldi.

Savol: ul ko'nglakni ko'zga surtmak birla Ya'qubning ko'zlari ochildi, hikmat ne erdi? Javob: aymishlar: Yusuf yalavochning iki mo'jizasi bor erdi. Biri ul sog'u erdi, qayu so'zni andin so'rsa ul javob berur erdi, biri ko'nglak erdi, qachon Ibrohim yalavochni Namrud alayhil-la'na o'tg'a otti ersa, Mavlo yorliqi birla ujmohdin Jabroil bir ko'nglak kelturdi, Ibrohimg'a kiydurti ersa Ibrohimni o't kuydurmasi, ul ko'nglak erdi Yusufg'a meros erdi. Andin so'ng o'g'lonlari Ya'qub yalavochg'a aydilar: Ey ota, sanga ulug' yozuq (qilduq), yozuqimizg'a muqirir kelduk, Bizdin kechurgil, Mavlo taolodin yorliqayu tilak tilagil. Qavluhu taolo. *Ya abana istag'fir lana zukubana inna kumma xoti'ina* Ya'qub yalavoch duoni kiru soldi, vaqti kelsa yorliqayu tilagaymen, tedi. Qavluhu taolo. *Qola savfa astag'firu lakum rabbi.*

Savol: Ya'qub yalavoch o'g'lonlari Yusufdin uzr qo'ldilar, o'shul soatda-o'q Yusuf kechurdi, Mavlodin yorliqayu tiladi, otalaridin yorliqayu tiladilar ersa, o'shul soatda tilamadi, kiru sol-di, hikmat ne erdi?

Javob: Aymishlar: Yusuf yigit erdi, yigitlarning ko'ngli keng bo'lur, tark kechurdi, ammo otasi qart erdi, qartlarning ko'ngli tor bo'lur, aning uchun keyin soldi, yigit birla qari orasida bu choqlig' farq bor. Yana javob ul tururkim: Ya'qub yalavoch ko'ngli torliqiddin duoni keyin solmadi, bilur erdikim, tegma narsaning vaqti bor, duoning ijobati sahar vaqtinda bo'lur Qavluhu taolo. *Konu qalitan min al-layli ma yaxja'una va bilashari hum yastag'firuna*, ya ni mening qullarim tunla oz uyurlar, uyog' turub toat qilurlar, sahar bo'lsa yorliqayu tilayurlar. Ya'qub yalavoch qachon sahar vaqti (106v) kelsa yorliqayu tilayman, teb keyin soldi. Andin so'ng Ya'qub yalavoch Kan'ondin ko'chdi, barcha tobi'lari birla Misrg'a yuz qo'ydilar. Misrg'a uch kunluk yo'l qoldi ersa, Yusufning Afrotim otlig' o'g'li uch ming kishi birla qarshu kelib ulug' otasini ko'rdi. Otdin tushub salom qildi. Ya'qub yalavoch aydi: Bu o'g'lon kimning tururkim, ko'nglum muni suvdi, Yusufmu erkan? Aydlar: Yusufning o'g'li turur. Ani quchdi, Yusuf yalavoch Misrda munodiy qildurdikim, meni tegan otlanib mening birla otamg'a o'tru chiqsun. To'rt yuz ming kishi otlandi, nag'ora, nafir birla otasig'a o'tru chiqdi. Bir qizil alami bor erdi, qizil oltundin, yinju yoqut birla murassa' qilgan, kavkablal o'znatmish. Ul alamni ko'tursalar, yel ani tebratsa, ko'k ko'krar erdi, xaloyiq ani eshitib behush bo'lur erdilar. Yusuf ul alamni olib otlandi, Misr xalqi nazzorag'a bir yig'och o'tru chiqtilar. Yusuf otasini ot ustindin quchdi. Savol: Yusuf otasig'a ne uchun otdin tushub ko'rushmadi?

Javob: Otasini tanimadi, taqi Rayyon malik otdin tushmagil temish erdi. Yusuf saqindi, agar otdin tushsam Rayyon malik ko'ngli og'rig'ay, ammo otam meni yavloq sevar, mendin kechurgay tedi.

Aymishlar: Yusuf iki ko'ngulluk erdi, agar otdin tushsam Rayyon malik so'zi sinmish bo'lg'ay, agar tushmasam otam ko'nglin ozor qilmish bo'lg'aymen teb, namoz qildi taqi uyudi. Sajdada tush ko'rdikim, aydlar: Ey Yusuf, otdin tushmagil, malik maxluq turur sendin kechurmagay, Mavlo taolo karim turur sendin kechurgay. Ul sababdin otdin tushmadi, aning uchun Yusuf yalavoch o'g'lonlarig'a yalavochliq tegmadi.

Ba'zi rivoyatda kelmish: Yusuf otdin tushti, otasi birla ko'rushdi, otasini oltun qang'lig'a mundurdi, o'n ming qo'sh otlig',

barchasi oltun, ko'mish ustamlig', to'rt ming qul o'g'lon qamug'i oltun qurlug', bu azamatlig' birla kirdilar Misrg'a. Ya'qub anda so'rdi: Ey Yusuf, sanga netak emgaklar tegdi? (107r) manga aytu bergil. Yusuf aydi: Ey ota, emgak telim ko'rdum, aytib tugannas, ammo ezguluk ko'rmishim oz turur. Dastur bersang aytu berayin. Andin so'ng emgaklarin aytdi, ammo qarindoshlari qilmishin aytmadi, otam ko'ngli qarindoshlarimdin sovumag'ay, teb. Misrg'a kirdilar ersa Ya'qub yalavochni oltun taxt uza o'lturdi. Yusufning xolasi Ya'qub yalavochning nikohinda erdi, otasi, xolasi birla o'n bir qarindoshi qamug' Yusufg'a sajda qildilar. Qavluhu taolo. *Va rafa'a abavayhi ala al-arshi va xarru lahu sujjadan.*

Ul holda Yusuf aydi: Ey otam, ul kun Kan'onda tush ko'rganimkim o'n bir yulduz, oy, kun manga sajda qildilar, teganimning ta'biri bu kun rost keldi. Qavluhu taolo. *Va qola ya abati haza ta'vilu ru'yaya min qablu.*

Savol: Izi azza va jalladin o'zgaga sajda qilmoq ravo bo'lmas, Ya'qub yalavoch o'g'lonlari Yusufg'a neluk sajda qildilar? Bu so'zga uch turluk javob bor. Birisi ul tururkim, Yusuf ularning qiblasini tapa o'lturur erdi, Ya'qub yalavoch o'g'lonlari birla Mavlo taolog'a shukr sajdasin kelturdilar, ul sajda Iziga erdi. Ikinchi javob ul tururkim, Yusuf boshlarin egib tavozu' qildilar, yuzlarin yerga qo'yadilar. Uchunchi javob ul tururkim, ul sajda Yusufg'a erdi. Avvalig'i shariat podshohlarg'a tahiyvat tariqi birla erdi, bizning yalavochimiz shari'atinda mansux bo'ldi, javoblarda durustraki bu turur Qur'on oyatig'a muvofiq.

Savol: Yusuf tushining ta'biri bilgurguncha necha yil kechdi? Javob: Hasan va Qaloda qavlincha sekson yil kechdi. Sulaymon qavlincha, qirq yil kechdi. Sa'id ibn Jubay qavlincha, o'tuz olti yil kechdi, yana bir qavlcha, yigirmi iki yil kechdi. Muhammad ibn Is'hoq qavlincha, o'n sakiz yil kechdi. Yusuf aydi: Mavlo taolo ul tushumni ko'niga chiqardi. Qavluhu taolo. *Qad ja'alah rabbi haqqan* manga ezguluk qildi, meni zindondin chiqardi. Qavluhu taolo. *Va qad ahsana bi iz axrajani min as-sijni*. Zindonda kech qoldi, aning uchun. Ikinchi javob ul turur, Yusufni quzug'ga qarindoshlari solmish erdi, alardin qola la tasriba alaykum al-yavma, teb kechirmish erdi, uftanmasunlar, teb aymadi, ammo

zindong'a Misr xalqi kiyurmish erdi (107v) ularning ko'nglin saqlamadi, aytu berdi. Uchunchi javob ul turukim, Yusuf bu so'zlarni otasig'a shukr tariqi birla hikoyat qilur erdi. Quzug'din chiqib qulluqg'a tushganin aytmadi, ammo zindondin chiqib maliklikka tegdi, ani shukr qilib aydi. Taqi aydi: Sizlarni Kan'on yobonidin munda kelturdi. *Va ja'a ikum min albadvi va mening qarindoshlarim orosinda shayton hasad qildi. Min ba'di an nazag'a ash-shaytonu bayni va bayna ixvati. Mening Izim tilamishincha ne'mat tekurukli, latif. Inna rabbi latifun lima yasha'u olim turur, hakim turur. Innahu huva al-alimu al-hakimu.* Tonglasi kun Rayyon malik Misr xalqi birla nisor tapug'layu mol kelturdi, Ya'qub yalavocho'g'a salom qildi. Yusuf ul mollarni qarindoshlarig'a berdi, Rayyon malik Ya'qub olninda imon kelturdi. Qissalarda andoq kelimish: Yusuf zindondin chiqib, Rayyon malikka kelmishda Rayyon saroyida yetti tegirmon toshi bor erdi, oltundin tegma biri besh ming botmon. Rayyon malik Yusuf ko'rkin ko'rub, tonglab o'tru yuridi ersa azoqi ul toshg'a tegdi. Yusuf ul toshni ko'trub yiroq tashladi. Rayyon Yusufning kuchin, quvvatin ko'rmish erdi, Yusufma qarindoshlarining erdamin aytmish erdi. Qachon ularni ko'rdi ersa bularning kuch-quvvatlarin ko'rayin, teb undatdi. Sham'un boshlab ul besh ming botmon tegirmon toshin ko'tarib tashladi, qamug'i ham o'shundo'g' tashladilar. Malik alarning kuchin ko'rub tongladi. Aymishlar: Malik bir kun ov'g'a chiqdi alar birla, Sham'un arslonning bo'ynin tutub malikka kelturdi, Rubil ham qoplonni tutib kelturdi. Qamug'lari erdamlarin ko'rguzdilar, otlari, chavlari yozildi. Malik aydi: Ey Yusuf, qarindoshlarig'ga ayg'il manga bir mulk olu bersunlar. Yorlig' qildi, Rum viloyatida to'qush qilib tegma biri yolg'uz bir mulk oldilar, Malikka tortdilar. Rumdin, Shomdin o'n bir shahar oldilar, tegma biri o'n ming cheriklik bo'ldilar. Malik ul mulklarni o'zlarina-o'q berdi, ular ul mulklarni qamug' erlandilar, (108r) yoyildilar, Bani Isroil alarning urug'i bo'ldi. Ya'qub yalavocho'g' andin so'ng yigirmi yeti yil tirildi, telim xaloyiq Ya'qub yalavocho'g'a kelib imon kelturdilar. Rayyon malik sekiz yil uch oyg'a tegru tirik erdi, Muz'ab otlig' o'g'li bor erdi, Fir'avning otasi ul erdi, to'quz yoshda erdikim Rayyon malik ani Yusuf'ga topshurdi. Yigirmi yeti yildin so'ng Ya'qub vafot

bo'ldi, yalavochohlik Yusuf'ga tegdi. Otasindin so'ng yigirmi to'rt yil tirildi, andin so'ng vafot qildi. Aymishlar: Ya'qub yalavocho Misrda vafot qildi, Kan'ong'a eltib qo'ydilar. Yusuf ham Misrda vafot qildi Misrda-o'q qo'ydilar. Muso yalavocho ro'zgoriga tegru anda erdi, Muso kelib torilmish so'nguklarin yig'ib Kan'ong'a eltdi, otasi qotida qo'ydi.

Hadis. Yalavochohimiz Muhammad Mustafo, sallallohu alayhi va sallam yorliqar: *Luhumu al-anbiya'i muharramatun ala al-arzi,* ya'ni yalavochohlar eti, so'nguki yerga harom turur, churimaslar. Ammo ul kun Zulayxo Yusufni evga kiyurub o'zinga tortarda Yusuf anga iltifot qilmadi, so'zlamadi. Zulayxo aydi: Ey Yusuf, nima ko'rklukdur bu ko'zlaring! Yusuf aydi: Yorin bu ko'zlar lahadda so'g'alg'usi, tubroq bo'lg'usi. Yana aydi: Nima ko'rkluk sochlaring bor! Yusuf aydi: Yorin go'r ichinda birin-birin torilig'usi turur. Yana aydi: Nima ko'rkluk tishlaring bor! Yusuf aydi: Yorin lahadda qamug' to'kulgusi turur. Zulayxo Yusufni o'gmushincha Yusuf bu yanglig' javob aytur erdi, Zulayxonning ko'ngli sovusin, teb. Mavlo taolo Yusufiy Siddiq so'zlari rostg'a chiqsun, teb etlarin churitdi, so'nguklarin ushatdi.

Yusuf payg'ambar alayhis-salom Zulayhog'a qovushqan so'zlari

Qachon Zulayxo Rayyon malik birla Aziz qotinda, yozuq men qildim, tuhmat men qildim, Yusufda yozuq yo'q tedi ersa, Aziz Zulayxonni evg'a izdi. Necha oz vaqtdin so'ng Azizi Misr vafot bo'ldi, Zulayxo tul qoldi. O'n sakiz yil umidinda o'lturdi. Misr ulug'lari Zulayxonni tiladilar ersa unamadi. Kundin kun Yusuf muhabbati ko'nglinda ortdi, Yusuf firoqinda zor-zor yig'layur erdi, qamug' molini Yusuf ishqinda fido qildi, har kim Yusuf so'zin aytsa ming oltun berur erdi. Moli tugandi, (103v) qallosh bo'ldi, yig'lamoqdin iki ko'zi ko'rmas bo'ldi, qab qarindoshdin kesildi. Ya'qub yalavocho Yusuf firoqida *Vo asafo alo Yusuf*a temishdek Zulayxo andag'o'q aytur erdi. Qachon och bo'lsa Yusuf teyur erdi. O'n sekiz yil mundog' kun kechurdi, qachon suvsasa Yusuf teyur erdi, suvsag'i

qonar erdi. Kunnlardan bir kun Yusuf ovg'a otlandi, Zulayxo eshitdi ersa bir qoraboshi qolmish erdi, anga aydi: Mening ilkim tutub Yusufning kelur yo'linda o'turtg'il, qoraboshi Zulayxo ilkin tutub chiqardi, yo'l boshinda bir tom tubinda o'turttdi. Qachon Yusuf lashkari birla paydo bo'ldi, qoraboshi Zulayxog'a xabar qildi, Zulayxo tayoqin olib ura qo'pub baland ovoq birla aydi: *Al-hamdu li-llahi allazi sayyara al-abda mulukan bissabri va sayyara al-muluka abdan bashshahvati*. Ma'ni ul bulur: shukr ul tengrigakim, qullarni sabr bila podshoh qilur va podshohlarni evmaklik birla shahvat havosidin qulluqg'a tegurur. Yusuf cherik tovushindin Zulayxo unin eshitmadi, Mavlo taolo elga farmonladikim, Zulayxo unin Yusufning quloqing'a tegurdi ersa jilovin tortib tinglab aydi: Ey Zulayxo! Yusuf unin Zulayxo eshitti ersa sevunmishdin behush bo'ldi. Yusuf ani andog' ko'rub yig'ladi, o'zina keldi ersa aydi: *Ayna shobbuki jamaluki qolat afnayu fi xubbika*, ya'ni ul ko'rkluk yigithiging qani? Aydi: Sening sevuklikingda yiturdum. *Qola ayna moluki qolat iftadaytu liman ja'a bixabarika*, ya'ni ul moling, tovaring qani? Aydi: Sening xabaring kelturganlarga fido qildim. *Summa ma allazi azhaba basaraki qolat shiddatu al-huzni min hijronika*, ya'ni ul ko'rar ko'zung nedin ko'rmas bo'ldi? Aydi: Sening firoqingda ko'rmas bo'ldi, yig'lamoqdin. Yusuf aydi: Emdine tilayursen? Aydi: Yuzungni bir ko'rmaq tilayurmen. Yusuf aydi: Muni evga eltu boring, men tushmishda kelturgaysiz manga Zulayxonini. Yusuf saroyig'a eltdilar, Yusuf kelganda kelturdilar. Anchada Ya'qub yalavoch tirik erdi, Zulayxonning qissasin eshish erdi. **(109r)** Zulayxonni undatib kechmish hollarin so'rdi. Qamug'in ko'nilik uza aytu berdi. Ya'qub aydi: Ey Zulayxo, Yusuf sevuklugi hanuz ko'nglungda bormu? Zulayxo aydi: Avvalqidin holi sevuklugum ziyodaroq turur. Yusuf ilkinda qamchi bor erdi, Zulayxo aydi: Ey Yusuf, ul qamchini menga tuta bergil. Yusuf Zulayxonning og'ziga tuta berdi, Zulayxo oh qildi, og'zindin o't chiqib qamchini kuydurdi. Aymishlar: ul qamchi oltundin erdi. Aymishlar: og'zindin o't chiqdi ersa qamchi eridi, oqdi. Yusuf aydi: Sening kumushdin bir butung bor erdi, ne qilding? Zulayxo aydi: Bir kun qo'ptum, ul butg'a borib aydim: seksan yil bo'ldi senga tapunurman, qaridim, qurtqa bo'ldum, bu kun sendin uch hojatim bor ravo

qilg'il. Uch hojatim ul turukim, yigitligimni manga qayta bergil, ikkinchi, avvalqi ko'rakimni manga qayta bergil, uchunchi, ko'zumni ko'rar qilg'il. Necha aydim ersa javob bermadi, achig'landim, bir oldim, urub ul butni pora-pora qildim, o'tg'a yoqdim. Endi sanga keldim, to'rt hojatim bor, Tengri azza va jalladin tilayu bergil, qabul qilsang aytayin. Yusuf qabul qildi, ne turur hojating? tedi. Zulayxo aydi: Avval hojatim ul turukim, yigitligimni manga qayta bersun, ikkinchi, avvalqi ko'rakim manga qayta bersun, uchunchi, ko'zumni ko'rar qilsun. Bu uch hojatimni ravo qilsa to'rtunchini andin so'ng ayg'aymen. Yusuf Ya'qub yalavochdin duo tiladi, Ya'qub duo qildi ersa Zulayxo yigit bo'ldi, ko'rki qayta keldi, ko'zlari ko'rar bo'ldi. Zulayxo darhol imon kelturdi va musulmon bo'ldi. Yusuf so'rdi: Ul yana bir hojating ne turur? Zulayxo aydi: Hojatim ulkim, meni o'zungga nikoh qilib olg'il. Yusufning o'fkasi keldi, uni tashqari qovdurdi. Ul holda Jabroil keldi, Ya'qub yalavochg'a salom tegurdi, aydi: Ey Ya'qub, Mavlo taolo yorliqar, Yusufg'a ayg'il qabul qilg'an va'daga etsun, ya'ni hojatini bitkazsun, nikoh birla olsun. Ya'qub Yusufg'a Mavlo yorliqin tegurdi **(109v)** ersa Yusuf qabul qildi, to'y asbobin anuqladi, aqd qilg'ali o'g'radi. Mavlo yorliqi birla Jabroil etildi, Yusufg'a Zulayxonni aqd qilmoq uchun. Havvo onamizni-Odam otamizg'a aqd qiluuda Mavlo taolo o'z arig' zoti birla xutba yorliqamish erdi. Ul xutba Odam qissasinda bitildi. Jabroil ul xutbani o'qudi, aqd qildi. Misr xalqi qamug' sevundilar, Ya'qub yalavoch Iziga shukr qildi.

Aymishlar: Mavlo taolo Zulayxonning ko'nglungdagi sevuklukni Yusuf ko'nglunga soldi, Zulayxo ko'nglunga alloh taolo o'z sevuklugin soldi. Zulayxo Mavlog'a tun-kun toat qila boshladi. Yusuf sevuklukin unutdi. Axborda kelmish, qachon Yusuf o'g'rasa Zulayxo qochar erdi, Yusuf aydi: Ey Zulayxo, bu choqg'a tegru men sendin qochar erdim, sen so'ngumdin yugurur erding, emdine bo'ldikim men so'ngingdin yugururmen, sen mendin qocharsen. Zulayxo aydi: Anchag'a tegru latif ko'rduam anga isindim, emdi latif bo'ldum, anga sig'indim. Qavluhu taolo. *Va huva al-latifu al-xabiru*. Ul kun izzat ko'rduam, ko'ngul berdim, bu kun aziz bo'ldum anga ulandim. Qavluhu taolo. *Va huva al-azizu ar-rahim*. Aymishlar: bir kun Yusuf Zulayxog'a o'g'radi, tutqali etdi, Zulayxo

qochdi, Yusuf so'ngidin yugurur erdi, Zulayxonning ort etakindin tutdi, tortdi ersa, yirtildi. Zulayxog'a yuz evurdi, aydi: *Ya Yusufu haza qamisun biqamisin*, ya'ni ko'nglak o'mig'a ko'nglak yirtildi.

Hikoyatda kelmish: Bag'dod xalifasi Horun ar-Rashid bir yil Bag'dod bo'zunig'a oshliq berib jumlasin sotqun oldi, qulluq bitigtin berdi. Bir kun o'tlanib yozig'a chiqdi, taqi munodiy qildurdi-kim, ey Bag'dod bo'zuni, yozig'a chiqing. Taqi xazinada nekim oltun kumush bor erdi barchasin qachirlarg'a yuklatib chiqartdi, qulluq bitiklarin kelturdi, munodiy qildurdikim, ey Bag'dod bo'zuni, qamug'ingizni men Mavlo taolo rizosi uchun ozod qildim, taqi meni tasarrufimdag'ilarni ham ozod qildim. Bitiklarin berdurtdi, ul jumla mollarin ham bag'ishladi. Ul xalq mol-tovarlarin (110r) ulashtilar, ul holda bir qorabosh mol-tovarg'a boqmadi, ozo(d) bitigin olmadi. Horunning etakin tutdi, xaloyiq ani ko'rub tonglab aydilar: Ey za'ifa, jumla ozodliq bitigin oldilar, mol-tovar oldilar, sen ne uchun olmassen? Aydi: Men ko'ramen qamug' xaloyiq mol-tovar mundin olur, men ul molni qo'yub muning etagin tutqanim andin tururkim, qamug' murodlarin mundin hosil bo'lg'ay dermen. Mundag'-o'q Zulayxo aydi: Ey Yusuf, men seni suvdum, ko'ngul berdim, yolbordim, manga boqmading, eshitmading ersa yaratqan Izimg'a yondim, ul qapug'g'a tapug'qilu yobushdim ersa yigitligimni, ko'rkumni, ko'zumni qayta berdi. Mol-u tovar-u hurmatimni burunqidin ziyoda qildi, oxiri sentek suvarimg'a qovushturdi. Ul qapug'ni netak qo'zayin, aning tapug'in netak qilmag'ayen, tedi. Misr xalqi sevunub mollar isor qildilar, hadyalar kelturdilar. Zulayxo barchasin Yusuf qarindoshlarig'a berdi. Yusuf birla Zulayxo o'n sekiz yil tiriklik kechurdi, yeti farzand bo'ldi: besh o'g'ul, iki qiz.

Aymishlar: qachon Zulayxonni Yusufg'a aqd qildilar ersa ikagu xilvat qildilar. Zulayxo aydi: Ey Yusuf, men seni emdiga tegru sevdugum andin erdikim, sening ko'rkung, jamoling bor erdi, ko'rkulukni sevmak ayb ermas. Ikinchi ul erim g'annin erdi, manga yovumas erdi. O'n sekiz yoshda anga tushdum bu kunga tegru er birla qovushmoq lazzatin ko'rmishim yo'q, onadin tug'mishdek arig'men. Qachon erim manga o'g'rasa qatig' chorlab mendin qochar erdi. So'rsam aytur erdi, qachon men sanga o'g'rasam,

orqangdan iki arslon qo'pa kelib, manga hamla qilurlar, ulardin qocharmen teyur erdi. Yusuf aydi: Ey Zulayxo, ul iki arslon er-mas erdi, farishtalar erdi, Mavlo taolo yorliqi birla seni kofirdin mening uchun saqlatdi. Qachon Yusuf Zulayxog'a qo'shildi ersa Zulayxo onadin tug'mishtek qiz erdi, ul holda Zulayxo bu she'rni o'qudi.

She'r

*Iki nangdin seni suvdum, ey ko'ngullar ziynati,
Ermadi o'ynashliqimdin ushbu nafsım rag'batı.
(110v) Senda ko'rk erdi malohat menma yosh o'g'lon kichik,
Ko'rsa ko'rkuluklarni suvmak anbiyolar sunnati,
Ikilanch erim Aziz g'annin erdi belguluk,
Tirik erkancha tugalg'a qohir erdi g'unnati.
Nogahon erim Aziz o'g'rayu kelsa ul manga,
Qochururdi ani mendin iki arslon haybati.
Man onadin tug'mushimtek ham erurmen ushbu kun,
Emdiga tegru tanimga tegmadi er lazzati.
Aytayin shukrin Iziga toat ichra qatlanib,
Qayda bilinur tekmalarga ushbu ne'mat qiymati.
Ko'rkda ismat, ishqda vuslat, mulk, nubuvvat bu qamug'
Qullar uzra gar telim bor Mavlomizning minnati.*

Aymishlar, Mavlo taolo yalavochlarga qayu tishini juftlikka taqdir qildi ersa ul tishini kofirdin saqladi, Zulayxonni Yusuf uchun saqlamishtek. Savol: Yalavochimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi va sallam Xadichani juftlikka yuzi ochiq olmadimu? Javob: Mavlo taolo yalavochlarga tishilarining burunqi eranlarini biror turluk illat birla muhtalo qildi, xotunlarig'a qovushu bilmadilar, Azizi Misr mengizlik.

Yigirmi yildin so'ng Ya'qub yalavoch vafot qildi, Rayyon malik o'g'li otasi o'runda o'turdi, ammo qamug' mulkini Yusuf bilur erdi. Otasidin so'ng yigirmi to'rt yil tirildi, andin so'ng uch oy yeti kun og'ridi, oxir umri bo'ldi ersa munojot qildi: Iziyo, manga mulk berding taqi tush ilmimi, taqi shariat ilmimi o'gratu berding.

Qavlulu taolo. *Rabbi qad aataytaniy minal-mulki va allashtaniy min ta'vimil-ahadis.*

Savol: Yusuf ayg'an mulk qayu erdi? Munga yeti turluk javob aymishlar. Avval javob ul turukim, Yusufg'a hasad qildilar, anga o'q munglug' bo'ldilar. Ikinci javob: ko'rk mulki erdi. Uchunchi javob: ko'ngul mulki erdi, ko'rganlar Yusufni suvdilar, ko'rmaganlar eshitib suvdilar. To'rtunchi javob: javonmardlig' mulki erdi. Aymishlar: ochliq yillar hech kim ersa Yusufdin javonmardrak yo'q erdi. Beshinchi javob: yalavochnig' mulk erdi, o'n sekiz yoshinda yalavochnig' hosil qildi. Oltinchi javob: Mavlo taolo qazosing'a rizo erdi, atosing'a qoni' erdi. Yetinchi (IIIr) javob: Qamug'din ochuqroq Misr mulki erdi.

...Alarg'a aydi: Yo'l bering, Abul Validga kirib aytur so'zim bor. Ular kulushilar, Abul Valid kim bo'lur bilmasmiz bu saroy bizing tengrimizning turur, teb Musoni tilanchi sog'indilar, yo'l bermadilar. Muso aydi: Siz yo'l bermang, men kirarmen, tedi. Musoni urg'ali tegdilar, Muso tayoq ko'turdi, saroy qabug'in urdi, qabug' ochildi, bu qirq eshikchi o'gsus bo'ldilar. Aymishlar: Fir'avn qabug'inda ulug' maydonlar bor erdi, tekma bir maydon boshinda zangilar, habashiylar, daylamiylar soqchi erdi. Ammo xos maydon boshinda arslonlar, barslar, pillar, itlar, tung'uzlar yotmish erdi. Kim ersaga boshchi bo'lmasa kiru bilmas erdilar. Qachon Muso maydon boshig'a keldi ersa ul qurtlar Musoni ko'rub qo'rtular. Qochib Fir'avng'a bordilar. Fir'avn ularni ko'rub qatig' qo'rtqi, qabug'larni bog'latti. Muso qabug'g'a kelib tayoq birla halqani urdi, ul unning qo'rqunchidin Fir'avnning saqoli oqardi. Eshikdin kirib Muso tayoqni yerga soldi, ulug'yilon bo'ldi, boshini ko'tardi, og'zindin o't chiqar erdi, og'zin ochib Fir'avng'a tepundi, ustun yerni Fir'avnning boshindin bir qari ustun erdi, ostin erni taxtning azoqindin ostin erdi. Fir'avnni yutqali tegdi, Fir'avn qo'rqub taxtdin orqan yiqildi, tepasi quyi, azoqi yuqoru bo'ldi. Qullari Musog'a tepundilar, urg'ali Muso ilkin qo'ynidin chiqardi, kundek qumiyur erdi. Ko'zlari xira bo'ldi, qamug' chiqtilar, Fir'avn sekirdi, to'nin sudrayu qochti. Fir'avn oqsoq erdi, ul kunga tegi kim ersa oqsoqliqin bilmas erdi. Fir'avn suv yuzinda taxt urub o'lturur erdi. Ul-o'q yerda yozilamoqg'a yer qilmish erdi, yana taxtg'a o'lturur erdi.

Aymishlar: ul kun qo'rqmishindin yuz yo'li yoziladi, qirq yo'li ich to'ning bulg'adi. Aymishlar: Muso Horun birla Fir'avn eshikinga bordilar, bir yilg'a tegi yo'l bulmadilar. Qachon Fir'avng'a kirdilar ersa Fir'avn Musoni tanidi, so'rdi: Kimsen? Aydi: Ikagu tengrining yalavochnarimiz, sanga (IIIv) kelduk. Qavlulu taolo. *Inna rasulu rabbil olamin.* Aydi: Ne so'z kelturdingiz? Aydilar: Yorlig' ul turur Bani Isroilni bizing birla izg'il. Qavlulu taolo. *An arsil maano bani Isroil.*

Fir'avn Musodin qo'rqmish erdi. Aydi: Bilmazmen seni. Muso aydi: Muncha yil sening birla erdim netak bilmazsen? Fir'avn tanidi, mengzi og'di, aydi: Men seni kichiklikda ektuladim qach yillar menda erding. Qavlulu taolo. *Alam nurabbika fina va validan va libista fina min umurika siniyn qilg'u ishni qilding.* Qavlulu taolo. *Fa'alta fi'latakal-latiy fa'alta, ya'ni qibtinyi o'lturdung.* Muso aydi: Qildim o'lturdum, vale o'lturug'a ko'nglum yo'q erdi, ul mendin xato kechdi taqi sendin qochdim, emdi Izi azza va jalla manga yalavochnig' berdi. Qavlulu taolo. *Fa vahaba liy rabbiy hukman va ja'alantiy minal mursalin.* Fir'avn aydi: Ne yalavochnig' kelturdung? Aydi: Izi azza va jalla yorliqar: Imon kelturgil kofirliqni qo'yg'il. Fir'avn aydi: Bilursen tengri menmen, yer-ko'kni men yaratdim, xaloyiq mening qulim turur. Muso aydi: Sen bir chibin yaratug'a quvvating yo'q, emdiga tegi tengri menmen teding, emdi yong'il, tavba qilg'il, qamug'ini sendin kechurur, yana to'rt yil umr berur, mulkungni orturur, yorin o'rnungni ujmohta qilar. Fir'avn bu so'zni eshitdi, ko'ngliga xush keldi, aydi: Ey Muso, yong'il, evingga borg'il, qo'ldoshlarim birla kengashayin, qamug'imiz imon kelturaling. Muso yondi, Bani Isroil bo'zuni bu so'zga qamug' sevundilar. Fir'avn, Homon azin beklari birla yig'ilib kengashilar, imon kelturgu ko'ngul bo'ldi. Homon aydi: Sen xato qilursen, telim yillar bo'ldi tengrimen, teding, bu kun qulluqg'amu kirursen, kuching bor, cheriking bor, nedin qo'rqarsen? Qochqoqni tuta olasmusen, eldin quva olasmusen, yo kendu o'ltura bilmasmusen? Bu turg'an sarhanglarga ayg'il bir soatda halok qilsunlar, kim ersa anga bo'lushsa sanchishaling. Fir'avn aydikim: andin iki qo'rqunchim bor, biri tayoq yerga solsa yilon bo'lur, biri iligi oy kundek yoruq ko'zlarni xira qilar, hech kim o'tru tura bilmas, ani

netak qilurmiz? Homon aydi: Bu so'znikim, aytursen joduluq turur, ul bizdin borg'ali joduluq o'rganmish, bizda ham (112r) jodular ko'p bor, ular birla talashsunlar. Yana aydilar: Muso ulug' biliklik jodu turur. Qavlulu taolo. *Inna haza lasaahirun alim* Fir'avn aydi: Bu Muso joduluqi birla sizlarni bu elingizdin chiqarmoq tilayur. Sizlar ne teyursiz? Qavlulu taolo. *Yuridu an yuxrijakum min arzikum bisihrihi fa maza ta'murun*. Aydilar: Sen yig'g'in, ular tahi jodularini yig'sunlar. Qavlulu taolo. *Qolu arjiq va ahohu vab'as fil madaini hashirin*. Fir'avn qamug' jodularni yig'durdi. Aymishlar: yigirmi besh ming jodu hozir bo'ldi, yana bir qavlda o'tuz ming. Bu muncha jodularda yetmishni uzduurmish erdilar, yana bulardin to'rtini uzduurdilar, birining oti Sobur, ikinchining oti G'obur, uchunchining oti Hutjata, to'rtunchining oti Bahsafi. Bularg'a aydi: Bir ulug' jodu kelib turur, tayoqini yilon qilor. Aydilar: Bu joduluq oson turur, biz alarni yengsamiz ne bergaysen? Qavlulu taolo. *Ainna lanaa laajran in kunnaa nahnul-g'olibin*. Fir'avn aydi: ne tilasangiz berayin taqi o'zumga yaqin qilayin. Qavlulu taolo. *Qola na'am va innakum laminal muqarrabin*. Anchada Muso yetib keldi, Fir'avn musulmon bo'lg'u umonchida. Fir'avn aydi: neluk kelding? Muso aydi: tunagi so'zga keldim. Fir'avn aydi: biz ham jodularni kelturduk, talashg'il ko'raling. Muso aydi: Biz jodu ermasmiz, tengrining yalavochnlarimiz. Yorlig' ul turur: imon kelturgil. Bani Isroilni bizga bergil.

Aymishlar: ul holda Homon qo'bt'i Fir'avn uchun javob aymoqg'a o'g'radi, Muso Homong'a man' qildi: sanga kelmishimiz yo'q tek turg'il, Fir'avn javob aytun tedi. Homon Fir'avnga so'z o'gratu boshladi, aydi: So'rg'il, kimdin kelmish, kimga kelmish, kimga so'zlayur. Fir'avn so'rdi. Muso aydi: Meni, taqi seni yaratqan tengridin yorliq kelturdum. Fir'avn aydi: Men kendu tengrimen. Muso aydi: Sen tengri ermassen, sening mening tengrimiz bir Alloh turur. Fir'avn aydi: Sizing tengringiz kim turur? Qavlulu taolo. *Faman rabbukuma ya*. Muso aydi: tengrimiz ul turur, qamug' xaloyiqg'a ro'zi bergan, yo'l ko'rguzgan. Qavlulu taolo. *Qola rabbunal lazi a'to kulla shayin xalqahu summa hada*. Hujjatlar aydishtilar, oxiri navro'z kuniga yig'ilmoq bo'ldilar. Qavlulu taolo. *Qola mav'iduhum yovmuz zinati va an yuhsharan*

nasu zuhan. Yozida maydon anuqladilar, minora qo'bordilar, taxt (112v) o'mattilar. Fir'avn, Homon o'turdilar, Fir'avnning boshi uza qo'bba qo'pordilar, adizligi qirq qari.

JODULARNING YOLG'ON SO'ZLARI

Aymishlar, to'rt ming yo'li to'rt ming er yig'ildi. Bani Isroilma qamug' hozir bo'ldilar, oltmish qachir yuki jodu kelturdilar. Aymishlar, ul jodularda to'rt yuzni uzurmishlar, tekma biri birla bir yuk tayoq, bir yuk yiplarni. Tayoqning uchin o'ngdilar, simob to'ldurdilar. Yana yelimpladilar, ichinda simob ta'biya qildilar. Fir'avnning o'nginda qirq ming yarog'lig' otlig'er, yana qirq ming yarog'liq piyoda turdilar. Aymishlar, bu muqobala Skandariyada erdi. Jodular keldilar, Fir'avn oti uza ont ichtilar, biz Muso uza g'olib kelurmiz. Qavlulu taolo. *Qolu bi'izzati Fir'avna innaa lanahnul-g'olibun*. Aydilar: Ey Muso, senmu burun kemishursen yo bizmi burun kemishurmiz. Musoni og'irladilar. Aymishlar, ul holda Jabroil kelib havodin un qildi: Ey jodular, Mavlo taolo yorliqar: Siz mening yalavochnimi burun sen kemushgil, tedingiz. Mening izzatim va jalolim haqqi hurmati sizlarga imon xil'atin kiydurguncha bu kunni ularg'a tug'urmag'ayman. Bir qumlig' qo'lg'a kirdilar, jodularin kemishtilar. Havo isidi, kun isig'i yilonlarga a'tegdi, simob qizidi, yiplar tebranu boshladi, xaloyiq yuriyur sanidi.

Savol: Muso yalavoch erdi, neluk qo'rqti? Javob: Muso ul jodulardin qo'rqmadi, xaloyiq ani ko'rub arsiqmasunlar, teb qo'rqti. Xitob keldikim, ey Muso, qo'rqmag'il, sening ilking ustun turur. Qavlulu taolo. *Qulnaa la taxaf innaha antal-a'la*. Ey Muso, ilkingdakin kemishgil. Qavlulu taolo. *Va alai ma fi yaminika talkaf ma sana'u*. Tayoqni kemishdi. Bu tayoq bir buzurg yilon bo'ldi, quyruqin to'qiyu Fir'avnni qabadi, og'zin ochib ul jodularning qamug'in yutti. Muso yilonni qo'ling'a oldi, bayoqitek tayoq bo'ldi.

Aymishlar, sekiz yuk jodu erdi qamug'ini yo'q bo'zun qildi. Jodular ulug'i Sham'un otlig' ko'zi ko'rmas erdi. Aymishlar, Yaraxxana erdi, qamug'ining ustodi erdi, anga borib aydilar: Yolg'uz tayoq jodularimizni edi. Sham'un aydi: Ul jodu yemishdin

(113r) so'ng uzunroq bo'lub yo'g'unaldimu yo yo'qmu? Aydlar: Yo'q. Sham'un aydi: Bizma andog' joduliq qilurmiz, ammo uzun taqi yo'g'un bo'lur, bu yo'g'nalmamish, ma'lum bo'ldikim, Muso yalavochoq turur. Men imon kelturdum, siz ham kelturung, tedi. Foyda. Qayuma ishni o'gransa tamom o'grangu. Sham'un joduliqni tamom bilur uchun yilon uzamadi, ortmadi ersa haqiqatni bilib imon kelturdi. Qamug' sajda qildilar. Aydlar: Olamlig'lar Izsinga imon kelturduk. Qavluhu taolo. *Fa ulqiyas-saharatu sajjidina qolu aamannaa birabbil olamin.* Fir'avn aydi: Andag'-o'q rabbul-olamin menman. Ular aydlar: Seni aymasmiz, Muso taqi Horun Tengrisig'a imon kelturduk. Qavluhu taolo. *Rabbi Musa va Haruna.* Fir'avn aydi: Manga kengashsiz imon kelturdingiz. Qavluhu taolo. *Qola aamantum lahu qobla an aazana lakum.* Sizing kendu Muso birla tilingiz bir ermish, joduliqda ustodingiz ul turur. Qavluhu taolo. *Innahu lakabirukum allaziy allamakumus sehra.* Aydi: iliklaringizni kesayin. Aydlar, sanga kelib qo'l qovushturub tapug' qilg'andin iliklar kesgan yigrak. Yana aydi: azoqlaringizni kesayin. Aydlar, bu qapug'g'a kelib tapug' qilg'an azoqlarni kesgan yigrak. Yana aydi: qamug'ingizni xurmo yig'ochdin osg'ayman. Qavluhu taolo. *Fa lauqattianna aydiyakum va arjulakum min xilafin va lausalibannakum fi juzu'in-naxli.* Aydlar: Bizni ossang, sening tengrilikning yolg'oni bilgugay. Netak tesa biz ustun, sen ostun bo'lsang tengriman teduking yolg'on bo'lmasmu? Fir'avn aydi: Sizlarni qin birla o'lturayin. Mening qinimmu qatig'roq, aning qinimu qatig'roq bilgaysiz. Ular aydlar: Ul narsakim, biz andin ko'rduk seni aning uza uzurmag'aymiz. Qavluhu taolo. *Qolu lan nu'siraka ala ma ja'annaa minal bayyinaati.* Sen, bu kun dunyoni kim tilasang qilg'il. Qavluhu taolo. *Faqzi ma anta qozin innasha taqziy hazihil hayatad dunya.* Biz Izig'a imon kelturduk, umonchimiz ul turur, ul bizni yorliqag'ay. Sen kuch birla jodulug' qildurg'anlarni kechurg'ay. Qavluhu taolo. *Innaa aamannaa birabbinaa laiyag'fira lana xatoyonaa va ma akrahtanaa alayhi minas-sihri.* Sening hukmug' foniy turur, Mavlo taolo hukmi boqiy turur. Qavluhu taolo. *Vallohu xayrun va abqo.* Qushluq (113v) vaqtinda jodulug' qildilar, kun o'rtada imon kelturdilar, oxshomi shahid bo'ldilar, ujmo'g'a bordilar.

OYISANING QISSASI

Fir'avn Musog'a tahdid qildi, o'lturgayman, tedi. Oyisa aydi: Uftanasmusen, muncha mo'jiza ko'rub musulmon bo'lmading, musulmon bo'lg'anlarni o'lturding. Fir'avn aydi: Senma musulmon bo'lg'anlarga imon... bo'lmag'il. Bu ishlar qamug' sendin ko'rgu, Muso Tengrisig'a topimursan. Oyisa aydi: Mening Tengrim Alloh turur, teb musulmonlig' bilgurtti. Fir'avn Oyisani tutdirdi, qirq kun osh-su bermadi, turluk uqubatlar qildi, yonmadi. To'rt temur qozuq yerga qoqib, Oyisani kerdi.

Aymishlar, Fir'avndin o'zga kim ersa mundog' qilmishi yo'q erdi. Bu qirq kun Oyisaning duosi bu erdi: Qavluhu taolo. *Rabbi ibni liy indaka baytan fil-jannati va najjiniy min Fir'avna va amalihu vi najjiniy minal-qavmiz-zolimin.* Mavlo taolo nurdin bir qubba izdi, kim ersaning ko'zi Oyisaning taniga tushmasun, teb. Ul temur qozuqlarda orqan yoturda susadi. Mavlo taolo ujmo'hdin sharbat izu berdi, yorliqadi. Oltun zanjirga isig'liq havoda kerilgu turur. Ani ichti ujmo'g'a ulandi. Andin so'ng xalq Musog'a yuzlandi, musulmonliqg'a kiru boshladilar. Fir'avn xalq aro o'q uftanu ne qilg'usin bilmadi, ojiz bo'ldi. Aydi: Mening Muso birla ishim yo'q, kendu ko'kka yovuqlanayin, Muso Tengrisin ko'rayin. Homong'a aydi: o't yoqg'il, kirpich pishurg'il, sath qo'borg'il, anga oshib, Musoning Tengrisi bormu, ko'rayin. Bu Muso yolg'on aytur bo'lg'ay ko'rayin. Qavluhu taolo. *Fa avqid liy ya Hamanu alat tini faj'al liy sarhan la'alliy attali'u ila ilahi Musa va inniy laazunnuhu minal kazibin.* Homon kirpich kuydirdi, xumdonladi. Fir'avndin burun kim ersa pishig' kirpich qilmish yo'q erdi, ohak birla pishig' kirpich birla yopturdi.

Aymishlar, ul minorani oncha oshurdikim, aning ko'lakasi kun o'vrulsa yuz yig'ochlig' yerga borur erdi. Taqi aymishlar, yerdin minoraning tepasiga tegru tutush eranlar turub, kirpichni ilikdin ilikka berur erdilar. Ul kirpich minoraga tepasiga oshquncha iki kun, iki tun kechar erdi. Fir'avn ul minorag'a oshib ko'kka boqti, yerdin ko'rgantek ko'k ko'rdi. Azin narsa ko'runmadi. (114r) Yana indi, aydi: Muso yolg'on so'zlayur ermish, ko'kda Tengri yo'q. Yerning, ko'kning Tengrisi menman, og'zing'a tufroq, o'zga Tengri yo'q,

tedi. Qavluhu taolo. Ma *alimtu lakum min ilahin g'ayriy*. Fir'avn bani Isroilg'a o'fkalik bo'ldi, qatig' emgatu boshladi. Aydlar: Ey Muso, emgakimiz ortuq bo'ldi, Mavlo taolodin tilagil, bizga farah bersun. Muso aydi: Sabr qiling, Mavlo taolo dushmanni halok qilg'ay. Muso Fir'avnga keldi, aydi: Imon kelturgil, Bani Isroilni menga bergil, yo'q ersa duo qilg'am azob kelgay. Fir'avn Musog'a qatig' so'zladı, ne qilsang qilg'il, tedi. Muso qirq tun-kun Mavloga duo qildi, yobordı. Jabroil kelib aydi: Ey Muso, ko'nglungni xush tutg'il, azob yetildi. Izi azza va jalla Musog'a yalavochliqda to'quz narsa bermish erdi.

Avval tayoq, ikkinchi bayzo ilik, uchunchi, infijor, to'rtunchi, infloq, beshinchi, to'fon, oltinchi, chugurka, yetinchi kuya, sekizinchi baqa, to'quzinchi qon. Qavluhu taolo. *Fa arsaina alayhim at-tufana val jaroda val qummala vaz zafadi'a vad dama ayaatin mufassalatin*.

Ul to'fon keldi, yeti tun-kun yog'in yog'di, Misr ichi suv to'ldi, xalq yozig'a qochdi. Fir'avng'a kelib aydlar: Tengri ersang suvdin bizni qutqarg'il. Fir'avn aydi: Bu ishni Muso qildi, anga borib yolboring bu azob ketsa imon kelturayin, Bani Isroilni anga berayin. Musog'a kelib yobordilar, Muso duo qildi, to'fon ko'truldi, yer quridi, yosh o'tlar undi, chechaklar ochildi. Aydlar: Yag'in azob-azob teyur erduk, bu kendu bizga rohat ermish, teb imon kelturmadilar. Muso yana qirq tun-kun duo qildi. Bu qirq kun ichinda oshliqlari, ekinlari ko'rklandi. Izi azza va jalla chugurka izdi, oshliqlarin yeyu boshladi. Uchsa kun ko'runmas erdi. Yig'layu Fir'avnga keldilar. El ulug'laring'a aydi: Sizma bular birla boring, Musog'a ayding. Avval yo'li om xalqi keldi, om e'tiqodsiz bo'lur, emdi biz xoslar kelduq. Bu azobni bizdin ketarur bo'lsang bizma imon kelturaling. Bani Isroilni senga beraling, teb yobordilar. Muso ijobat qilib duo qildi, Mavlo taolo isig' yel (114v) izdi, qamug' chugurkani kuydurdi, yegucha oshliq qoldi. Ular ahd sindurdilar, imon kelturmadilar. Muso yana qirq kun duo qildi, yayog' chugurka keldi, qolgan oshliqlarin yedi. Ba'zilar aymishlar, kuya bo'lur. Oshliqlarında kuya qo'pti, biragu o'n sog'u oshliq tegirmonga eltsa kelguncha uch sog'u qolur erdi. Yana Fir'avng'a yolboru keldilar. Fir'avn o'z qatindaqi beklarini izdi. Musog'a ayting taqi bir yo'li

bizing uchun duo qilsun. Bu azob ketsa musulmon bo'lg'aymiz, Bani Isroilni sanga bergaymiz. Musog'a kelib aydlar. Yalavochlar ko'ngli yumshoq bo'lur ijobat qilib duo qildi, kuya hatok bo'ldi.

CHEGURKA QISSASI

Anas ibn Molik raziyallohu anhu aydi: Yalavochimiz Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vas sallam chegurka kelmishda bu duoni o'qur erdilar. *Allohumma axlikil jaroda Allohumma iqta' dairahu Allohumma uqtul kibarahu va ahlik sig'orahu va afsid bayzahu va xuz biefvahihi an ma'ayishinaa min arzakinaa innaka sami'ud du'a*.

Yana Jobir ibn Abdulloh rivoyat qilur: Umar ersa chegurka xabarin xalifa bo'lmishda chegurka tugandi. Kim ersa chegurka xabarin aymadi. Umar raziyallohu anhu qazg'ulug' bo'ldi, Shomg'a, Yamanga kishi yibordi. Yamandin bir ovuch chegurka kelturdilar. Umar ko'rdi ersa uch yo'li *Allohu akbar*, tedi. Taqi aydi: Rasul alayhis-salomdin eshittim, aydi: *Xalafa-llohu ta'ala alfa ummatin minha sittumiatin fil bahri va arba'umiatin fil barri*. Ma'nisi ul bo'lur: Izi azza va jalla yer yuzında ming turluk xalq yaratti. Ularda olti yuz suvda turur, to'rt yuz qurug' yerda turur. Bu muncha tanlig'larda eng ilki chegurka halok bo'lg'ay. Anda kezin azinlari yo'qolu boshlag'ay, tuzulmish munchuq yibi uzulmishtek torilg'ay.

Maqsudg'a kelduk. Qachon chegurka qolmadi ersa aydlar: yegu narsamiz qolmadi ne teb musulmon bo'laling. Muso yana duo qildi qamug' suvlarda na bor ersa chiqtilar, Mavlo taolo yorliqi birla. Aymishlar, Musog'a yorliq' bo'ldi, Nil daryosi qiroqing'a keldi, tayoq birla ishorat qildi, ostin-ustun baqalar biri biringa ishorat un qildilar. *Hatta xarajat minal bahri misil laylid damisi*. Qorong'uluq mengizlik chiqtilar, ul kishining egniga tegdilar, tunla yottilar, tong birla qo'btilar, jumla ariqlarda suv qon bo'lmish. Bani Isroil (115r) ning ariqlari andag'-o'q suv oqti. Qayu qibtıy ul suvdan ichti o'ldilar. Yeti kun qon oqti, Fir'avn o'tlanib suv boshinga bordi. Qamug' ariqlarni qon ko'rdi, yolg'iz Bani Isroil ariqi suv oqar. Biragu aydi: Men yavloq susadim, teb ayoq oldi, ilkin suvg'a qotti. Ilki tekkan yer qon bo'ldi. Tegrası hamon suv

oqar. Qibtiy, Bani Isroil bir yerdan suv olsalar, Bani Isroil olg'an suv, qibtiy olg'an qon bo'lur erdi, o'jiz bo'ldilar. Fir'avn yosh yig'och so'ra boshladi. Mavlo taolo qudratin ko'rguzdi, yig'ochdin so'rgan suv birla qonmadi. Taqi ortuqroq susadi, yarog'i qolmadi, aydi: Musog'a men borayin, azinlar ahd sindurdilar so'zlariga tegmadilar. Men ahd qilayin so'zumga tegayin, teb Musog'a keldi. Aydi: Sen duo qilg'il bu balo ketsun, men musulmon bo'layin. Taqi Bani Isroilni senga berayin. Muso qabul qilib, duo qildi, qon balosi ko'truldi, suvlari oqa boshladi. Muso Fir'avnga keldi, so'zungga yetgil, tedi. Fir'avn aydi: Bani Isroilni berayin, munda turmag'il, bu viloyatdin chiqarg'il, otalaring viloyatig'a borg'il, teb Bani Isroilni sochdi, Musog'a tobshurdi. Mollarin bermasman, tedi. Muso Bani Isroil ulug'larin yig'di, duo qildi. Yorlig' bo'ldi: Bani Isroil eranlari, tishilari qibtiylar evinga kirsunlar, aytsunlar: yorin bizing iydimiz bor, molimizni bizga bering kim tutum, quloqqdag'i qo'ldag'i narsalarni bizga amonat bering. Yoring iydimiz qilib yana kelturub beraling, tedilar. Mavlo taolo qibtiy tishilarining ko'ngling'a mehr soldi. Qamug' oltun-kumush yuzuk, bilazuk, isirg'alarin Bani Isroil tishilariga berdilar. Yana yorlig' bo'ldi: Qabpug'laring'a qon suvadilar, tunla chiqarda biri birini tanimoq uchun. Tun yorimi bo'ldi ersa chiqtilar. Mavlo taolo qibtiylarg'a uyqu kemishti: bir qibtiy uyg'onmadi. Ul holda Muso yalavoch ko'ngliga tushdi, Yusuf yalavoch qilmish erdi. Muso mening so'ngukimni chiqarib Kan'ong'a eltgay, teb. Kim ersa Yusuf yalavoch so'ngukin qaydaliqin bilgan bormu? Bir qurtqa aydi: Men bilurman. Muso: Ayg'il, tedi. Aydi: Bir hojatim bor ravo qilmaguncha aymasman. Muso aydi: Hojating (115v) ne turur? Aydi: Hojatim ul tururkim, ujmoh ichinda sening birla bo'lcam. Muso qabul qildi, Yusuf so'ngukin olib chiqti. O'n iki sibtd erdilar, tekma bir sibtd yigirmi ming erdilar, Muso duo qildi, qibtiylar moli, tovari qamug' tosh bo'ldi. Muso chiqti, iki yuz qirq ming sanch(ish)g'utek er birla. Horun cherik birla so'ngini surdi. Tong otti ersa qibtiylar uyg'onidilar. Fir'avnga xabar qildilar. Fir'avn cherik yig'ing, teb munodiy qildurdi. Bani Isroilni yuklari og'ir erdi yayog' avratlar, yosh o'g'lonlar ko'p uchun Muso Bani Isroil birla aqrin yurur erdilar.

Aymishlar: Uch kun yurudilar, uch yuz ming er birla. Fir'avn otlandi. Yetmish ming yayog' Musoni qovdilar. Kun tug'ar vaqtda Musoning cherikin ko'rdilar. Muso qavmi qo'rtqilar. Aydlilar: Ey Muso, ilgari tengiz ortqaru yog'i, tedilar. Qavluhu taolo. *Fa lamma tara'al jam'ani qola ashabu Musa innaa lamudrakun.* Muso aydi: Qo'rqmang, lzi azza va jalla bizing birla turur. Qavluhu taolo. *Kallaa inna ma'iy rabbiy sayahdiniy.* Suvga yorlig' bo'ldi: Ey Muso, tayoaqing birla tengizga urg'il. Qavluhu taolo. *Fanfalaqa fakaana qullu firqin kattavdil azim.* Muso aydi: Kiring. Aydlilar: Tengiz tubi balchiq netak kiraling. Mavlo taolo yel izdi, kun isig'i bir soatda tengiz tubini quridi. Savol: Olam ichinda qayu yerdurkim anga bir yo'li kun tegdi azin tegmagay? Javob ul tururkim, Nil daryosi turur. Muso aso birla urg'anda suvlar ayrilib, daryo tubiga kun tushdi, azin tushmagay. Aydlilar: Ey Muso, bu o'n iki yo'lning tekma birini bir sibtiy o'g'li qizi birla kirib, halok bo'lsa yana biri ko'rmagay. Mavlo ul tog' mengizlik suvlarni o'ta tuluklar yaratdi. Qamug'lari biri birin ko'rar bo'ldilar. Ko'ngullari tinch suvg'a kirdilar, kechtular. Ul holda Fir'avn cheriki etildi. Fir'avn ayy'ir ot minmish erdi. Tengizni ko'rdilar o'n iki yo'li bo'lmish erdi. Fir'avn ani ko'rub qo'rtqi, Musoning mo'jizasi erdukin bildi, ammo cherikka bilgurtmadi, aydi: Mening tengriliqimni bildingizmu? Suv menga yo'l berdi, (116r) teb shaltoq birla yonar bo'ldi. Ul holda Jabroilni Mavlo taolo odam suratincha izdi. Qisraq ot minib, aning o'ngindin suvg'a tushdi. Fir'avn mingan ayy'ir ani ko'rub tizginin Fir'avn qo'lidin chiqarib, so'ngindin tushdi. Aymishlar: Mavlo taolo to'rt yuz farishtani izdi, Fir'avn cherikining so'ngidin. Qibtiylar qamug' kirdilar. Savol qilmishlar, Mavlo taolo yorliqar. Qavluhu taolo. *Va in minkum illaa variduha.* Ma'nisi ul bo'lurkim, sizlarda kim ersa tamug'g'a kirmagan bo'lmag'ay. Anbiyo avliyo mo'min kofir va qamug'...kirur mo'minna kirurmish.

Mo'mindin kofirga ne farq bo'ldi. Javob: Ko'rmasmussen, Nil Tengiziga bani Isroil bo'zuni kirdi, Jabroil ham kirdi. Fir'avn cherikin boshlab alarni andog'-o'q qildi, o'zi salomat chiqdi. Mundag'-o'q mo'min kofirni boshlab tamug'g'a kirar, o'zi chiqar ular anda qolurlar: Qavluhu taolo. *Summa nunajil lazinat taqov va nazaruz zolimina fiha jisiyya.* Qissada andog' kelmish. Muso

cheriki tugal suvdin chiqilar, Muso bir adiz yerda Bani Isroilni yig'ib, Mavlo taolog'a shukr qildilar, hamd-u sano aydilar. Taqi aydi: *Yo ibada-Iloh absiru fa inna-Iloha qod ahlaka aduvvakum fil bahri*. Ya'ni Mavlo taolo qullari, ko'rung. Izi azza va jalla tahqiq dushmaningizni halok qildi. Daryoda qachon tamom qibtiylar daryog'a kirdilar ersa suvg'a yorlig' bo'ldi: *Oqa boshla*, teb. Qachon Fir'avn daryog'a g'arq bo'ldi ersa ul holda aydi: Imon kelturdum. Qavluhu taolo. *Aamantu annahu la ilaha lazzy aamanat bihi banu Isroila*. Ul holda Jabroil bir ovuch balchiqni olib Fir'avning og'zig'a tiqti, emdimu imon kelturisen, mundin burun Mavlog'a yozding, tengriman teding, yozuqsiz. Bani Isroil o'g'lonlarin o'lturdung. Qavluhu taolo. *Va qad asayta qablu va kunta minal mufsidin*. Aymishlar: Fir'avn bir kun Nil daryosi qirog'inda ov ovlayu yurur erdi, Jabroil odam suratincha kelib Fir'avnga aydi: mening qulum bor so'zumni olmas, men buyurg'an ishini qilmas, aning hukmi netak bo'lur? Fir'avn aydi: andog' qulni suvg'a boturmoq kerak. Jabroil aydi: bu hukmga sendan xat kerak. Fir'avn xat berdi, ul xat Jabroilda erdi, daryo tubinda g'arq (116v) bo'lur holda Jabroil ul bitikni Fir'avnga ko'rguzdi, bu sening hukmung bormu? Aydi: bor. Mavlog'a yozgan, Mavlo so'zin eshitmagan qul sensen, teyu halok qildi. Aymishlar: Fir'avn halok bo'lmishdin so'ng Jabroil o'zinga yondi. Xitob keldi: ey Jabroil, Fir'avn imon iqror qilur holinda qo'ysang: imon keltursa mening Izzu jalolim haqqi hurmati qabul qilg'ay erdim, ujmoHg'a kiyurgay erdim. Aymishlar, Muso bo'zunig'a aydi: Fir'avn cheriki birla halok bo'ldi, Bani Isroil aydilar: bir un eshittimiz, ammo Fir'avn halok bo'lg'anin bilmasmiz. Fir'avn to'rt yuz yil tengriliq da'vo qildi, Bani Isroilg'a qulluq buyurdi, yurak oldurub qo'rqmush erdilar, ko'z birla ko'rmaguncha ko'ngullari tinmadi. Tengiz qirog'ing'a keldilar, Muso Bani Isroilni tengiz qirog'inda qo'ndurdi, Fir'avn netak bo'lurin ko'rmaq uchun. Aymishlar: Odam ro'zgorindin Fir'avn ro'zgoriga tegi suvg'a g'arqa qilsa o'lukni tashqari solmas erdi. Musoning ko'ngli tinsun, teb suv o'lukni tashqari otar bo'ldi, Fir'avning o'lugin suv tashqari soldi. Aymishlar: *Kaana Fir'avnu mulqan ala shatoil bahri kassavril azim*, ya'ni Fir'avn tengiz qirog'inda bir ulug' sig'irtek bo'lub yotur erdi. *Fal yavma*

nunajjika bidadanika litakuna liman xalfaka (aayatan) qiroat shoz ichinda kelmish fa *ag'raqnahum ajma'in*. Aymishlar: Musoning Somiriy otlig' xolasi o'g'li bor erdi, Jabroil tengizdin chiqmishda kim ersa Jabroilni tanimadi, Somiriy tanidi. Tanimoqda sabab ul erdi: Somiriyning ko'zi Jabroilning oti tuyoqing'a tushdi. Qayu yerga tuyoqini qo'ysa, ul yer yashnayur erdi. Somiriy, otdin indi, Jabroil oti tuyoqi o'mindin bir ovuch tufroq oldi, asradi. Bani Isroil (suv)din chiqib turg'an yerda Amoliqa urug'indin Fir'avn birla qolmish erdilar, tengiz qirog'ida o'mab butg'a topunur erdilar. Ul butlar buzag'u suratlig' erdi. Bani Isroil ani ko'rub, Musog'a aydilar: ey Muso, bir tengri qilu bergil, andog'kim ul bo'zunlarning tengrisi bor. Qavluhu taolo. *Qolu ya Musa ij'al lana ilahan kama tahum aaliha*. Muso aydi: biliksiz ermishsiz, bu butg'a tabunmang, munga tabung'anlar qamug' botil tururlar, oxir halok bo'lg'usi tururlar. Qavluhu taolo. *Inna haulaai mutabbarun*. Sizlarga Mavlo taolodimmu azin Tengri kerak? Ul bizlarni fazli birla uzduurdi, qudrati birla dushmanlarni halok qildi.

MUSO ALAYHIS-SALOM SHOMG'A BORG'AN QISSASI

Bani Isroil umonchi ul erdi, Misrg'a kirgaymiz, qolg'an qibtiylarni qul qilg'aymiz, ular bizga ne qildilar ersa bizma anlarg'a qilg'aymiz. Mavlo taolo xavosti bo'ldi, ularning umanchi bo'lmadi. Yorlig' bo'ldi: otalaringiz yeri Shom viloyati turur, anda boring. Yorindasi tebradilar, ul vaqt Mismi Homon bilur yerdi, Fir'avn urug'i yo'q erdi. Fir'avndin so'ng Homon yeti yil tirildi, andin so'ng o'ldi, qirq yil Homon o'g'lonlari Misrda podshohliq qildilar, qirq yildin so'ng yana yabondin kelib Mismi oldilar. Qachon Shomg'a tegdilar ersa yorlig' bo'ldi: bu kendlarga kirurda qamug' sajda qiling, til birla uzr qo'ling, tavba qiling. *Hitta* teng, ya'ni *Hittatun alayno zunubuno allazi irtakbano bil-ixtiyori al-asnomi*. *Butg'a tabung'an yozuqlarimizni bizdin kechurgil temak bo'lur*. *Qamug' sajda qilu kirdilar*; *Shom xalqi nazzorag'a turdilar*. *Yana bir yerda mundog' so'zlamasun, teb Mavlo taolo qizg'ut*

qildi, *ezgulari arig'lari ul yorliqni bityurdilar, yigitlari arig'sizlari ul ishga fusus qildilar tillarin o'vurdilar, hittata temadilar hintata tedilar*. Qavluhu taolo. *Fa baddalal lazina zalamu qovlan g'ayral laziy qila lahum*. Anchada Shuay vafoti bo'lmish erdi, Muso Tur tog'ing'a tegdi, oshg'il, teb yorlig' bo'ldi, oshti. Mavlo taolo Muso birla so'zlashti, Muso shari'at qo'ldi ijobat bo'ldi, Tavrot otlig' kitobg'a va'da bo'ldi. O'tuz ming yalavoch Tavrotning shari'ati uza erdilar, Bani Isroilg'a izzat erdi. Yorlig' keldi: Ey Muso, sizlarni yalavoch urug'lari qildim, bir ancha sizdin yalavoch, bir anchasi malik bo'lg'aylar, bir anchasi olimlar azin xalqlardin uzdukdum, sizni *ezgular* qildim, yorliqg'a bo'yunsunub osiy bo'lmang, mening xushnudliqim tilar ersangiz Yaman viloyati tapa otlaning (117v). Otlaringizning Amoliqa otlig' dushmanlari bor, ular birla harb qiling, sizlarga nusrat berayin. Muso sevunub Tur tog'indin yondi, Bani Isroilg'a yorlig' tekurdi, sevundilar, yarog'lanib otlandilar. Amoliqa malik ul xabarni bilib yavloq qo'rqti, Fir'avn halok bo'lg'aning eshitmish erdi. Ular yavloq uzun bo'ylug', kuchluk erdilar, ularg'a odiyalar teyur erdilar. Musog'a kishi izdilar, o'z kuchlarindin, haybatlarindin azob va'dasi qildilar. Muso aydi: Men sizlardin qo'rqmasmen, o'z ko'nglumcha kelmishim yo'q, men Tengri yalavochimen, meni saqlag'an Mavlo taolo turur, imon kelturung, yo'q ersa sanchishurmiz. Ul qo'rqub...

ODIYLAR SIFATI

Aymishlar: tekma birlarining bo'ylari uch yuz arshun, ko'kuslarining eni o'n yeti arshun. Muso o'n iki kishini ularg'a josus izdi, Rubil urug'indin Shomil ibn Zakaz, Sham'un urug'indin Sobit ibn Jaz'in, Yahudo urug'indin Jaddi ibn Suri, Ashitar qafu urug'indin Salul ibn Malik, Yafso urug'indin Jay ibn Viqas, Don urug'indin Xorlabil ibn Hamal, Loviy urug'indin Juloyin ibn Malikiyo, Yusuf urug'indin ikagu, Yusha' ibn Nun taqi Xurriy ibn Oshush ibn Yomin urug'indin Faltama ibn Dafrin. Bular tunla yuridilar, kunduz kizlandilar, el hadding'a tegdilar ersa bir bo'riqqg'a kirdilar. Bo'riqq iyasi yemish olg'ali keldi ersa bularni

ko'rdi, qandin keldingiz? teb so'rdi. Qo'qmishdin ko'nisin aytu berdilar, oltag'usin bir yengiga so'qti, anda kezin yemish terdi, ko'turdi, elga kirdi. Malik saroying'a bordi, va o'n ikisin yemishlar birla Malik ilayinda qo'ydi. Mundog' kishilar bizga yog'ilasha kelmishlar, tedi. Malik aydi: Mundog' ushoqlar netak el tuturlar? Aydilar: Bular ol birla el tuturlar, inonmasangiz bularning biringa ayg'il otimg'a yem bersun. Malik andog' qildi ularning otlari ulug' erdi, otlarindin oxurlari adiz erdi. Anga osha bilmadi qozuqlarni oxurtomng'a qoqti. Odiyalar kizlanu turub boqarerdilar, ul qozuqqg'a oshib yana qozuq qoqar erdi. Mundog'in oxurg'a oshib (118r) otg'a yem berdi, imib yana yem og'durg'uncha ot yemni tugatur erdi. Otg'a yem yedurmadin, yem uza sidi, Siduk yizig'indin ot yem yemas bo'ldi, ani ko'rub Odiyalar malikka aydilar, malik ularni o'tutur bo'ldi, xotuni aydi: Bularning qo'lidan ne kelgay qo'yg'il, borsunlar, sizning kuchingiz ularg'a aytsunlar, ular qo'rqub kelmagaylar, tedi. Aymishlar: ularning birisi bu oltisini ko'tarib bir oyasig'a qo'ydi, yana oltisini yana bir oyasig'a qo'yub bozorni kezduydi. Mundog' kishilar yog'ilashu kelmishlar, teb bozor xalqi kulushtilar. Malik ularg'a bir bosh uzum berdi, ozuq uchun. Ko'tara bilmadilar, bir uzun yig'ochni uzumning o'rtasig'a suqtilar, yib birla bog'ladilar, oltisi bir yondin yana oltisi bir yondin eginlariga qo'ydilar, evlaringa kelguncha ozuqlari ul erdi. Yo'lda so'zlashtilar: Odiyarni mundog' tesak qo'rqg'aylar sanchishg'a bormag'aylar, xotunlarga, aytmag'alang. Kelib Yusha' ibn Nun so'zlardi, xotunlar bu so'zni eshittilar, erlariga aydilar: Qamug' erlar yurak oldurdilar. Musog'a aydilar: biz ul elga kirmasmiz, ular kuchluk ermishlar, ul elda bor erkancha kirmasmiz, qachon chiqsalar kirgaymiz. Qavluhu taolo. *Qolu ya Musa inna lan nadxulaha abadan ma damu fiha fa in yaxruju minha fainna daxilun*. Muso aydi: yorlig' bo'ldi kirng. Aydilar: sen Tengring birla borg'il sanchishg'il, biz munda o'tuturub tururmiz. Qavluhu taolo. *Fazhab anta va rabbuka fa qotilaa innaa hahuna qo'idun*. Muso Izi azza va jallag'a yorbordi, aydi: Iziyo, mening bularg'a erkim yo'q, o'zum taqi qarindoshim bor, biz qarindosh borib sanchishaling, bu fosiqlardin bizni qutqarg'il, ayirg'il. Qavluhu taolo. *Imniy la amliku illa nafsiy va axiy fafruq baynanaa va baynal qovmil fasikin*. Yorlig' bo'ldi: bulardin

ayirmag' il, bular yonarmiz teyurlar ularg'a yo'l berkitgaymiz, qirq yil yobonda qolg' aylar, elga borumag' aylar. Ularning uchun qazg' urmag' il seni saqlag' ayman. Qavluhu taolo. *Qola fa innaha muharramatun alayhim arba' ina sanatan yatihuna fil arzi.*

YANA YONINDA QOLG'AN QISSA (118V)

O'tuz tun kun Musog'a keldilar, qatig' un birla aydilar: Biz munda halok bo'lduq, bizni munda necha saqlarsen, qo'bg'il bizni bir yong'a eltil, yo'q ersa ijizat bergil ketaling, sen qayong'a borur ersang borg'il. Muso tonglasi tebradi, kechaga tegru yuridilar, manzilga yetduk, teb saqindilar. Ko'rdilar, tong birla tebragan yerga kelmishlar, yana ozuqlari tugandi, yilqi qoralarini yedilar, o'jiz qoldilar, Musog'a yolboru boshladilar. Muso aydi: Qamug'i ma'siyatingiz shumluqi turur. Yana duo qildi: Iziyo, qamug' sening qullaring turur, nodonliq qildilar bularni halok qilding ersa Ya'qub yalavoch urug'indin seni birlagan hech kimarsa qolmadi. *Allohumma urzuknaa min fazlik.* Fazlingdin bizga ro'zi bergil, teyu duo qildi. Mavlo taolo duosin ijobat qildi. *Manna vas-salvo* karomat qildi. *Manna* yandoq shakari bo'lur, *salvo* buldurchin eti bo'lur so'klunmish. Tunla shakar yog'ar o'n kun yegucha terarlar, so'klunmish buldurchin yog'ar ular yegucha. Qavluhu taolo. *Va anzalnaa alaykum almanna vas-salva.* Susadilar, suv qo'ldilar, yorlig' keldi: Ey Muso, tayoyingni toshg'a urg'il. Urdi ersa o'n iki yul bilgurdi. Qavluhu taolo. *Fa qulnaz rib biasokal hajjar fanfajarat minhusnata ashara ayna.* Tekma bir sibtg'a bir yul oqar suv bo'ldi, o'z ariqlarini bilur erdilar. Qavluhu taolo. *Qod alima qullu unasin mashrabahum.* Bir yil mundog'in turdilar tunlari, kiyimlari, chodirlari o'pradi, kun isig'ig'a toqat tutmaz bo'ldilar, yolbordilar Musog'a. Duo qildi bulut og'di tun aduk yog'a boshladi, tekma birining bo'yig'a loyiq yosh o'g'long'a tegi o'g'lon ulg'ormishincha tun uzayur erdi, oy eskirmishincha qorong'uluq bo'lsa Mavlo taolo ko'kdin bir sanduq yoruq izur erdi. Qavluhu taolo. *Va zolalnaa alayhimul g'omama.* Qirq yil mundog' kun kechurdilar, shakar yeyu, so'klunmish et yeyu, aniq to'n kiyib

bulut ko'lakasinda turdilar. Mas'alada kelmish: kimarsa forig' qolsa qayg'urur. To'yg'incha et, shakar yedilar, bular birisi ta'om yemishda kezin ul etdin olib yorin yemak uchun qo'ydi, kecha ul et sasidi. (119r) Aymishlar: Odamdin Muso vaqtig'a tegi pishgan osh kecha qolsa sasimas erdi, biragu ko'z qilib saqladi ersa sasidi. Ul kundin beri pishgan osh kecha qolsa sasir bo'ldi, xabarda kelur: Rasul alayhis-salom aydi: *Lav la banu Isroila ma xubizat taomu.* Katta hadis. Bani Isroil bo'lmasa pishgan osh ortqay erdi. Yana aydilar: Ey Muso duo qilg'il, Izi azza va jalla yerdin ungan zarg'un, qarın, sarmusog, yasmuq, sug'on bersun. Qavluhu taolo. *Fad'u lanna rabbaka yuxrij lanaa min ma tunbi tul arzu min baqliha va qissayiha va fumiha va adasiha basaliha qola a tasdab dilunal lazi huva adna bil lazi huva xayr.* Muso aydi: Ustun ne'matni qo'yub ostin ne'matmu tilayursiz.

Aymishlar: bu qirq yil ichinda tirmoqlari uzamadi, sochlari taroqg'a muhtoj bo'lmadi, to'nlari o'pramadi, kir bo'lsa o'tg'a solur erdilar, kiri kuyar erdi, to'nlari kuyamas erdi. Mundag'in qirq yil ul yobonda qoldilar, ammo ul so'z kim, *Bal'am bo'ur* duosi birla qoldi. Yolg'on turur ani tinglamagu. Ular o'z yo'lsuz shumluqindin yobonda qoldilar.

Foyda. Ul yobonda Muso duosi birla anuq, to'nlar kiydilar, anuq ne'matlar yedilar. Biz yozuqlug'lar Muhammad rasululloh duosi birla ujmoh ne'matin yeb, Mavlo diydorin bulsamiz hech ajib va g'arib ermas.

TAVROTNING QISSASI

Yana aydilar: Ey Muso, bizga va'da qilmish erding Mavlo taolo manga kitob indirur, teb. Emdi qo'lg'il ul kitob kelsun. Muso Tur tog'ing'a keldi, munojot qildi, aydi: Iziyo, sen bilursenkim, ne tilayur bular. Mavlo taolo Tavrot otlig' kitobni Musog'a izdi, ming suralig' o'yat, o'n lavh uzra bitiklik. Aymishlar: lavh yashil zabarjaddin erdi. Aymishlar: qizil yoqut. Tavrotni bitigan qalamning unin Muso eshitur erdi, bu lavh o'n yo'li Muso o'nginda indi, yorlig' keldi: ko'turgil, teyu, Muso qo'turmadi. Mavlo taolo

tekma sura sayin bir farishta izdi, qo'tara bilmadilar, tekma bir oyat sayin bir farishta izdi ko'tara bilmadilar, tekma harf sayin bir farishta izdi ham ko'tara bilmadilar. Yorlig' bo'ldi Musog'a bir yo'li: *La havla va la quvvata illa billah*, (119v) tegil. Qachon Muso bu kalimani aydi ersa, Tavrotni yolg'uz ko'tardi, qavmiga keldi. Bani Isroil ulug'-kichik, er-xotun yeti tun kun kuyub turdilar. Muso keldi azin yerga oshti, aydi: Tengri, Izza va jalla, bu kitobni sizga izdi, Ibriy tilincha bu kitobda yeti ming buyruq bor, to'atga yeti ming tiyig' bor, ma'siyatga yeti ming o'gut bor, yeti ming ezguluk ehson bor. Bani Isroil qachon bularni eshitilar ersa aydilar: Bularni kim saqlayu bilgay, ul tabunganimiz buzag'u bizga yigrak, bu ko'turgandin, tedilar. Muso aydi: Sizlar ne kishilarsiz, o'zungiz kitob qo'ldingiz, yana unamassiz, teb duo qildi: Iziyo, men bulardin yoliqtim, sen bilgil. Muso cheriki o'n iki yig'ochlik yer ichinda tushar erdilar. Jabroilga yorliq bo'ldi: Falastin tog'larindin muncha cherikni bosg'ucha tog'ni tupindin qamurub kelturub ularning boshlari uza tutdi. Qavluhu taolo. *Va iz nataqnal jabala favqahum kaannahu zullatun*. Muso aydi: Qabul qiling, qilmadingiz ersa bu tog' tepangizga tushar, qamug'ingizni yanchar. Unamadilar tog' indi, tepalariga tegdi, uchalarin bosti, yuzun tushdilar. Singar yang'oqlarin yerga qo'yub singar ko'zlarin birla toqqa boqtilar. Mundin ortuq insa qabul qilaling, inmasa qabul qilmag'aling, tedilar. Tog' indi, yang'oqlariga tegdi ersa qabul qildilar.

Bu kun juhudlar ayturlar: otalarimiz mundog' qilib balodin qurtuldilar teb, andog' namoz qilurlar.

MUSO YALAVOCHNI OZORLAG'ANLAR QISSASI

Qachon olam faxri Muhammad Mustafo sallallohu alayhi va sallam Haq yorliqin tegurdi ersa, Mavlo taolo yorliq izdi: Ey iymon kelturganlar, sizlar Musoni ozorlag'anlardin bo'lmang, mening yorliqimni sizga tegururda o'zini yolg'onga nisbat qilmang, ko'ni teb biling. Musoni bir nechalari ayb qildilar Mavlo taolo Musoning aybi yo'qin ularg'a bilgurtidi. Qavluhu taolo. *Ya ayyuhal-lazina*

a'manu la takunu kallazina aazav Musa fa barra'ahu-llohu mimma qolu. Muso yalavocho uyatlig' erdi, o'z tanini o'rtuklu tutar erdi, bir nechasi (120r) olaliqg'a nisbat qildilar. Bir nechasi udrag'a nisbat qildilar. Udra uyat andomdag'i shish bo'lur. Kunlarda bir kun Muso ich to'ni birla suvg'a kirdi. To'nin bir tosh uza qo'ydi, to'nin tosh olib qochdi. Muso ich to'ni birla suvdim chiqti. *Za' savbiy ya xajaru* teyu so'ngincha kelur erdi. Achig'idin yalang'och ekanin bilmadi, tosh xalq qoshig'a keldi, Musoning tanini ko'rdilar-yavloq arig', ko'rkluk, olasi yo'q, ich to'nima taninga yopushmush. Udra illatining shishin yo'qinma ko'rdilar Ba'zilar aydilar: Ozar ul erdi, qachon ilgaru yurisa mutakabbir derlar erdi, orada yurisa qo'raqq teyurlar, so'ngida yurisa qavg'unchitek bizni surar, derlar erdi. Aymishlar: ozar ul erdikim Horunni sen o'lturding, tedilar. Muso yetmish er birla Tur tog'ing'a borurda Horunning qabridin kechdilar, Muso: Yo Horun, deb undadi. Mavlo taolo Horunni turguzdi. Aydi: Horun, seni kim o'lturdi? Aydi: Mavlo taolo ajal berdi, o'ldum, meni kim ersa o'lturmadi. Qavluhu taolo. *Ma bar-ra'ahu-llohu mimma qolu* bu erdi.

MUSO YALAVOCH DIYDOR TILAGAN QISSASI

Yana aydilar: Ey, Muso, Tengri birla so'zlashurman, teyursan. Bizma yalavocho o'g'lonlarimiz sanga qarindosh-urug' bo'lurmiz. Biznima olib borsang Mavlo taolo kalomin eshitsamiz bo'lg'aymu? tedilar. Muso duo qildi, yorlig' bo'ldi: Aygil, ulug'larin sening birla izsunlar, kalom eshitsunlar. Muso Solih abushqani o'zduurdi. Oltmish abushqa chiqti, yetmishga yetmadi. Yorlig' bo'ldi, tekma bir sibtdin bir yigit chiqardilar, o'n iki yigit bo'ldi, yetmish iki bo'ldilar. Muso aydi: Ikagu yoning, azinlar mening birla borsunlar. Tekma biri unamadi, Yusha ibn Nun va Kellu ibn Bufna ikagu yondilar. Aydilar: Bizga bu borg'anlar savobi bulg'aymu? Bulg'ay, tedilar. O'tg'a kuymadin qurtuldilar. Qavluhu taolo. *Vaxtara Musa qavmahu sab'ina rajulan limiqotina*. Horunni xalifa qo'ymish erdi, o'tuz kunda kelgayman, teb Tur tog'inda o'tuz kun ulashu ro'za

tutdi. Yemadi, ichmadi. So'z so'zlashg'u vaqt bo'ldi ersa shoxtut ag'ochining qabug'in olib, og'zinga surtdi. Yorlig' keldi: Ne uchun andog' qilding? Muso aydi: Og'zim sasig'i ketsun teb andog' qildim. Yorlig' keldi: Bilmadingmukim ro'za tutgan qulning (120v) og'zining isi mening qatimda yipordin sevuglugrak turur erdi. Ey Muso, yana o'n kun ro'za tutg'il, qirq kun ro'za tamom bo'lsun. Qavluhu talolo: *Va atmannaha biashrin fa tamma mikotu rabih arba'ina laylan*. Zulhijja oyining to'quzunchi kuni tog' tubinda yig'ildilar. Muso aydi: Siz munda turung, man tog'g'a oshayin, siz so'ngumcha keling, kalom eshiting. Andog' qildilar, so'z eshitgilar, hushlandilar, aydilar: Ey Muso, seni ko'ni tutmasmiz Tengrini oshkoro ko'rmag'uncha. Qavluhu taolo. *Lan nu'mina laka hatta naro'lloha jahratan fa axazathu-mus soiqatu*. O't keldi, qamug'ni kuydurdi, Muso qazg'ulug' bo'ldi, netak qilayin. Muso bularni eltti qamug'ini halok qildi. Qamug' so'zlari Musoning yolg'on turur, tegaylar. Mavlo taolo ul zamonda qamug'ini turguzdi. Qavluhu taolo: *Summa ba'asnakum min ba'd mavtikum*. Muso aydi: Emdi bildingizmu? Aydilar: Bildimiz, eshitdimiz, tedilar. Muso yalavoch Mavlodin qo'ldi, ular bani Isroil orasinda xalifa bo'ldilar. Kimi malik bo'ldi, kimi yalavochliqg'a tegdi. Ulamo va sulaho bo'ldilar. Tavrotni zohir o'qiyur bo'ldilar. Muso birla yonib, evlaringa keldilar. Aymishlar, Muso diydor qo'lg'ani munda erdi. Bu qavl durust ermaz. Diydor qo'lmoqi yetti oyda kezin erdi. Bir ancha kechmishda aydilar: Ey Muso, bizga karomatlar va'da qilmish erding emdiga tegi bulmadimiz. Yana borg'il, duo qilgil, bo'lg'aykim Mavlo taolo ijobat qilg'ay. Muso yondurdi Horunni, ularga ulug' qildi. O'zi Turg'a bordi, kalom eshitti, xushlandi. Kalom totig'i mundog' bo'lsa diydor ne'mati ortuqroq bo'lg'ay, teb duo qildi. Aydi: *Ilayhiy ji'tuka toliban rog'iban sailan mutazarri'an litu'tiyaniy ma mana'ta min g'ayriy as'aluka ya zal azamati vas-sulton an turoniy lianzura ilayka. Qola lan taroniy*. Ey Muso, ulug' so'z so'zladim, kim ersaning bu so'z ayturg'a yarog'i yo'q erdi. Muso aydi: Ilohi, seni ko'rub o'lsam o'layin, bu tilagim bergil, tedi. Yorlig' keldi: Ey Muso, sen za'ifsen, ko'rmasen. Aydi: Ko'rgayman. Yorlig' keldi: Ul tog'g'a boqg'il, tog' o'rinda tulansa sen meni ko'rgaysen (121r). Yorlig' keldi: Ul iki tog'

orasindag'i tosh uza o'lturg'il. Muso keldi, ul tosh uza o'lturdi Mavlo taolodin ilk qat ko'k farishtalariga yorlig' keldi, yerga indilar, qamug'i uy suratlig'. Tog' tegrasin to'rt yig'ochliq yerga tegi tuttilar. So'iq qo'pti, yel esti, ko'k gulduradi, yashin yashnadi. Farishtalar un ko'turdilar, tasbih, tahlil aydilar. Yana ikkinchi qat ko'k farishtalari indilar, arslon suratlig'. Azin un birla tasbih, taqdis aydilar. Ul farishtalarning tegrasin qabadilar. Muso qo'rqi, sajdaga bordi Aydi: Iziyo, mani bu qo'rqug'din qutqarg'il. Bu tilakdin pushaymon bo'idum. Ul farishtalar ulug'lari aydilar: Ey Muso, ukushning ozin ko'rmading. Yana uchunchi qat ko'k farishtalari indilar, burgut suratlig', ularning tegrasini egirdilar, og'izlarindin o't chiqar erdi. Izi azza va jallaga tasbih va tahlil aytur erdilar. Muso andog' soqindikim, qamug' olam kuydi, tiriklikdin ko'ngul kesti. Yana to'rtunchi qat ko'k farishtalari indi, urung qor suratlig'. Tasbih va tahlil aytur erdilar. Yana beshinchi qat ko'k farishtalari indi, og'izlarindin o't chiqar erdi. Yana oltinchi qat farishtalari indi, ularni egirdilar. Iliklarinda xurmo yig'ochining o'tdin, ko'zdin turuqraq, qizil yoqutdin arig'roq. Qatig' un birla ayturlar: *Suvbuhun quddusun rabbul izzati abadan la yamut*. Muso behush bo'ldi. Burun yig'ladi, aydi: Iziyo, munda tursam, *Rabbul izzati lo yamutu abadan*, teyu un qo'pordilar. Ul holda Mavlo azza va jalla tajalliy nurin ul tog'g'a soldi. Tajalliy ma'nisi ochilmoq bo'lur. Yorlig' keldi: Ey Muso, bu tog'g'a boqg'il, o'rinda tulansa mani ko'rgaysan. Qavluhu taollo. *Va lakin unzur ilal jabali fa in istaqarra makanahu fa sayfa taraniy*. Tog' o'larman, chiqdim ersa kuyarman. Yana Arshni ko'targan farishtalar indi. Bu qamug' farishta birikib *subbuhun quddusan* ayturda tog'ni turub ko'rdi ersa, kesak-kesak bo'ldi. Abdulloh Salom taqi Ka'bul-Axbor raziyallohu anhumo, aydilar: Tajalliy nuri igna yurtug'idin chiqarcha erdi. Sayyidi Imom (121v) aytur, chichala barmoqcha erdi. Anas ibn Molik aytur, Rasul alayhis-salom aydi: Bosh barmoqin chichala barmoq uchinda qo'yub: Muncha, erdi. Shayx Hasan aytur: Izi azza va jalla tog'g'a xitob qildi: Mening diydorimni ko'ra bilmassan. Tog' erdi, suv bo'lib yerga singdi, Muso ko'rub turur erdi. Aymishlar, yetmish hijobdin o'rta barmoq andozasincha tajalliy nuri ko'rundi. Tog' olti kesak bo'ldi, Uchusi uclub Makkaga tushdi: Tuvar va Sabir

va Hiro, uchusi Madinaga gushdi: Uhud va Varqo va Ravza. Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhum aytur: Ul kun qamug suv suchuldi, qamug' og'riqlar o'ngaldi, qamug' talvarlar ayildi, qamug' tikonlar to'kuldi, yer yuzi yashardi, chechaklar undi, mug'lar o'ti o'chti, qamug' but yuzin tushdi. Qavluhu taolo. *Fa lamma tajalla rabbuhu liljabali ja'alahu.* Abdulloh raziyallohu anhum aytur: *Jaalahu turaban* tuproq bo'ldi. Sufyon aytur: Yerga singdi, suvga qorildi. Imom Atiya Avfiy aytur: Oqar qum bo'ldi. Urva ibn Daylamiy al-Laxmiy aytur: Tog'lardag'i ungurlar qamug'i tajalliy nurindin to'ldi. Muso behush bo'ldi, yuzin tushdi. Qavluhu taolo. *Va xarra Musa sa'iqan.* Ul kun panjshanba kuni erdi. Arafa kuni, yorindisi qurbon kuni Tavrot indi. Zahhok aytur: Muso uch tun-kun behush bo'ldi. Farishtalar kechib ayturlar erdi: *Ya ibnan nisail hayyizi laqad sa'alta rabbaka sualan aziman fi g'ayri vaqtih.* Ya'ni arig'sizliq ko'rgan ey urag'ut o'g'li, Izi azza va jalladin vaqti yo'q erkan ulug' tilak tilading! Uch kundan so'ng o'ziga keldi. Qattig un birla aydi: Iziyo, bu tilakdin tavba qildim. Sanga kertunganlar avvai manman. *Fa lamma afaqa qola subhanaka tubtu ilayka va ana avvalul mu'minin.* Haqiqat bildimkim, seni kim ersa ko'rmas emish. Farishtalaringa toqat tutmagan seni netak ko'rar. Yorlig' keldi: Ey Muso, seni yalavochliq birla kalom uzurdum. Sanga berilg'an kitobni olg'il, manga shukr qilg'il. Qavluhu taolo. *Inniy istafaytuka atan nasi birisaalaatiy va bikalamiy fa xuz ma aataytuka va kun minash-shakirin.*

Savol: Muso diydor tiladi, bermadi, hikmat na erdi? Javob aymishlar: (122r) andog' temak bo'lur: Ey Muso, nafsing foniy, ko'zung foniy, dunyo foniy. Foniyy nafs birla, foniy ko'z birla, fonny dunyoda boqiy Mavlo diydorin netak ko'rarsen? Sabr qilg'il nafsingni boqiy qilayin. Anda kezin boqiy saroyda boqiy diydorini ko'rgaysan. Taqi javob: Kalom Muso ulushi erdi, berdi. *Va kallama-llohu Musa takliman.* Hullat Ibrohim ulushi erdi, berdi. *Vat tahaza-llohu Ibrohima xalilan.* Ro'yo Mustafo ulushi erdi, azinlarg'a bermadi. Taqi javob: Muso birla so'zlashurda shayton bir tosh uza o'lturub hasad qilib, Musog'a aydi: *Ma'a man takallamu.* Ya'ni kim birla so'zlashursen? Muso aydi: *Ma-llohu ta'ala.* Ya'ni Izi birla so'zlashurman. Shayton aydi: Sen ne bilursen Izi kalomi erdukin?

Ravo bo'lg'aykim, farishta bo'lg'ay, yo Shayton bo'lg'ay. Bu so'z Musog'a yavloq qattig' dushvor keldi. Shaytong'a o'fkalab diydor qo'ldi: *Rabbi arini anzur ilayka*, teb. Javob keldi: *Lan taroniy.* Ya'ni meni ko'rmagaysen, aning uchun shayton vasvasasi yo'lindin tilading. Yana mu'tazili va kaddara *alayhim al-la'na*, bizga hujjat qilurlar. Tengrini ko'rmak ravo bo'lmas. Agar ko'rkuluk bo'lsa Muso ko'rgay edi.

Javob ayturmiz: *Lan* kalimasi ta'kidga ermaz. Ko'rmasmussen, Izi azza va jalla juhudlar xolindin xabar qildi, hargiz o'lim orzulamag'aylar, teb. *Va lan yatamannavhu abadan.* Dunyoda tilamadilar, ammo uqboda orzulag'aylar. Taqi javob: Juhudlar Oyishani onamiz ermaz teyurlar. Biz ayturmiz, ko'ni so'zlayursiz, sizning onangiz ermaz, biz mo'minlarning onasi turur.

Taqi javob: Izi diydorini ko'rmak ravo bo'lmas, Musog'a bo'lmag'ay erdi. Ko'rguluk ravo ermasini tilamak yalavochlardan netak ravo bo'lur.

Taqi javob: Izi azza va jalla diydoring'a tog' tulanmagiga ta'liq qildi. Tog' tulanmagi Izi azza va jalla qudratinda joyiz erdi. Lojaram diydor ko'rmak ham joyiz turur. Anchasi bor: Vaqtisiz narsani qo'ldi, bermadi.

She'r

Izi rumtal amoniy

Qalba vaqtin fa lasta bivojidin tilkal amoniy

Fa kona sualu Musa qabla vaqtin

Fa jo'a javobu lan taroniy

Taqi javob: Biragu malik saroyig'a kelur. Malikni ko'rayin, teyur. Ayturlar: Bu kun malikni ko'rsa bo'lmas, ammo azin kunlar ko'rmak (122v) ravo bo'lur. Aymishlar, *xarra Musa sa'iqan binafsihi fa afaqa biqalbihi va sabbaha bilisanihi fas-sa'ku hazzul abdan val ifaqtu hazzul jinan vat-tavbatu hazzul-lisan.* Qachon Jabroil alayhis-salom bu oyatni Mustafo alayhis-salomg'a kelturdi ersa: Qavluhu taolo. *Va lamma jaa'a Musa limiqotina va*

kallamahu rabbuhu qola rabbi arini anzur ilayka fa vasaba rasulun alayhis-salomu xina qara'a jibriylulu lan taroniy fa saqatan nabiyuu alayhis-salom liannar ru'yata hazzuhu duna g'ayrihi. Ya'ni Muso aydi, Iziyo, diydor ko'rguzgil, seni ko'rayin. Rasul sekriyu qo'pti onchada Jabroil o'qidi: Qola lan taroniy. Rasul alayhis-salom o'lturdi, ya'ni diydor mening ulushim turur. Men ko'rmaguncha kim ersa ko'rmas aymishlar, Mavlo taolo Musog'a o'n iki sababdin diydor ko'rguzmadi. Avval, vaqtsiz tiladi. Aning uchun diydor qamug'lardin ustunrak turur. Andin ostinroq ne'matlarini bulmas erkan ustunrak ne'matni bulmoq mahol turur. Ikinch, Musoning ko'zi sifliyi erdi, yerga taqi tog'g'a boqar erdi. Ulviy diydorg'a loyiq ermas erdi. Uchunch, foniy ko'z boqiy diydorg'a mutazod erdi. To'rtinch, ul soat Musoning ko'zi shaytonni ko'rmish erdi. Dushmanni ko'rgan ko'z do'st diydorig'a yaramaz. Beshinch, Muso habibdin boshqa diydor tiladi, bermadi. Ya'ni sabr qilg'il. Haqiqat do'sti taqi o'ngin yalavochnlar oxiratda yig'ilsalar taqi Mustafo Amin kelsa onchada ko'rgaysen. Oltinch, emgaksiz diydor ko'rayin tedi. Aydi: O'ngay bo'lg'ay. O'ngay bo'lg'an narsa izzati bo'lmas. Bir emgak tortg'il, ortuq sabr qilg'il. Bersamiz mazasi ukush bo'lg'ay. Yetinch, Muso Tur Sinog'a kelib, Muhammad Mustafoning taqi Tengri ummatlarining sifatin eshitib, Tengri azza va jalladin Muhammadni qo'lmish erdi. Ijobat bo'lmish erdi. Izi diydorini qo'ldi ersa yorlig' keldi: Yo Muso, unudungmu mendin habib diydorin qo'ldung erdi. Emdi sabr qilg'il, burun habib diydorin ko'rgil. Aning mazasini bulub og'irlading ersa mening diydorimni bulg'aysan, Sekizinch, ey Muso, kim bizni ko'rsa qamug' emgaklardin ani saqlayurmiz. Sen taqi emgaklar ko'rgung, (123r) go'rga kirung, qiyomat havlindin ko'rgung. Sabr qilg'il, bu g'amdin kechding ersa anchada bizni ko'rgaysen. To'quzunch, senga diydor ko'rguzsam anbiyo va anliyo qamug' qazg'ulug' bo'lg'aylar. Men do'stlaring'a qazg'u ravo ko'rmasmen. O'nunch, qo'noqlarg'a ev eyasi burun qiyomatlig' ne'matlar kelturmas. Qachon qo'noqlar ulug'i, xoslari hozir bo'lsa anchada ulug' ne'matlarni keltururlar. Ey Muso, mening hazratimda qamug'din azizrak Muhammad rasululloh turur. Diydor ne'matin anga ko'rguzmaguncha sen ko'rmagaysan. O'n birinch, Muso yalavochn

aydi: Diydor ko'rguzgil, senga boqayin. Javob keldi: *Man anta hatta yanzura ilayya. Sen kimsen manga boqayin teguchi! Muhotepa tariqin so'zlad. Hifzul adab min sharoitil maqol. O'n ikinch, diydor qo'ldi, bermadi. Agar bersa savol mukofoti bo'lg'ay erdi. Aymishlar, as-sual va in qalla van-navol va in jalla. Mavlo taolo diydorin savolg'a mukofot bo'lmoqin ravo ko'rmadi. Netakkim, Iso alayhis-salom savoli moida erdi, berdi. Ibrohim savoli qushlar tirilmagi erdi, berdi. Ul mukofot savolg'a to'sh erdi, ammo Mavlo diydorin savolg'a to'sh ermas uchun bermadi.*

Taqi javob: Ibrohimning, Isoning savoli sun'da erdi, berdi. Musoning savoli soni'da erdi, bermadi.

Foyda. Muso diydor tiladi, Tog'g'a boqg'il, teyu javob keldi. Tog'g'a boqti. *Lan taroniy* javobi keldi. Ya'ni haqiqat ey Muso, bizing diydorimizni tilayur ersang nega tog'g'a boqting? Me'roj tununda qamug' malakutni Muhammad Mustafog'a ko'rguzdi, ko'zi uchi birla boqmadi. Aytilar: Ey Muhammad, Mavlo san'atig'a boqmassen? Aydi: *Ana mashg'ulun bissoni'i la bis sun'i va ana mashg'ulun bil maliki la bil mamluki. Lojaram Izi azza va jalla Qur'on ichinda o'ga yorliqadi. Qavluhu taolo. Ma zag'al basaru va ma tog'o.*

Savol: Muso behush bo'lmoqing'a hikmat ne erdi? Javob: Iki narsa erdi. Biri ulkim, tog'g'a og'di. Izi kalomin eshitdi, xushlandi, *Mentekkim ersa bormu!* tedi, kuvandi. Mavlo taolo ani tilamadi. Arsh nurini Muso nuri beri keturdi, tog'g'a kemishti, tog' yorudi. Muso tog'g'a boqti, yetmish ming er ko'rdi. O'zitek kilim keyib, tayoq elinga olib, *Arini anzur ilayka*, teb faryod qilurlar. (123v) Muso ani eshitib: *Yalg'uz mushtoq menman*, teyur erdi. *Mentek mushtoqlar telim ermish*, teb sajda qildi. Behush bo'ldi. Aymishlar, Muso diydor bulmoqing'a illatlar bu ermas erdi. Sabab ul erdi, dunyoda diydor ko'rmak uch turlikdin xoli ermas. Yo do'stg'a bergay erdi dushmang'a yo'q, yo dushmang'a berg'ay erdi do'stg'a yo'q, yo kendu ikising'a berg'ay. Do'stg'a berib dushmang'a bermasa yorin qiyomatda hujjat qilg'ay erdi. Ularga diydor haddin ko'rguzdung imon kelturdilar. Bizga ham ko'rguzsang imon kelturgay erduk. Kofirg'a bersa, mo'minga bermasa ham ravo bo'lmag'ay erdi. Aning uchunkim, diydor qamug' ne'matlaridin ortuqroq turur. Izi

azza va jalla karamidin ravo bo'lgan ay erdi, ustunrak ne'matni do'stig'a bermayin dushmang'a bersa yo kendu ikisinga bergay erdi, ikrom qilsa mo'min birla kofir aro farq bo'lgan ay erdi. Bu hikmat yiroq turur. Ma'lum bo'ldi, dunyoda diydor ko'rmaq ravo bo'lmas. Ujmohda mo'minlar ko'rgaylar. Qavlulu taolo. *Kalla iniahum an rabbihim yavma'izin lamahjubun*. Kofirlar ko'rmagaylar.

Hikoyat. Bir urag'ut Muso so'ngincha tog'g'a bordi, diydor ko'rmishda men ham ko'rayin teb. Muso *Lan taroniy* xitobin eshitib tog'din inmishda ul uragut ko'rdi. Iki ko'zi chiqmish, o'z ilkinga olib yurur. Muso savol qildi. Urag'ut aydi: Ey Muso, umanu keldim erdi, bulmadim. Bu ko'z manga kerakmaz teb, tortib chiqardim.

Aymishlar, tajalliy nuri Musoda zohir erdi, kimning ko'zi Musog'a tushsa tirik borincha ko'zi ko'rmas erdi. Aymishlar, qi-yomat kunga tegi ko'rmas bo'lur erdi. Bu sababdin Muso niqob birla yurur erdi, yuzini kim ersa ko'rmas erdi. Hikoyatda kelmish, Muso tog'din inib kelmishda bir urag'ut o'tru keldi, Musog'a aydi: Yuzungni ochg'il, ko'rayin. Muso yuzuni ochti. Urag'ut boqti ersa iki ko'zi ko'rmas bo'ldi. Musog'a yolbord, aydi: Izi azza va jalladin tilagin ko'zumni manga bersun. Muso duo qildi, ko'zi ochildi. Yana aydi: Yuzungni ochg'il, bir ko'rayin. Muso ochti. Boqti ersa yana ko'rmas bo'ldi. Aydi: Duo qilg'il. Qildi ersa ochildi. Yana ko'rayin tedi. Muso aydi: Ko'rmas bo'lg'aysen. Aydi: Ey Muso, tajalliy (124r) nurin ko'rmayin ko'zluk yurguncha, ko'rub ko'zsuz qolsam yaxshiroq. Muso yuzin ochti, urag'ut boqti, ko'zlari ko'rmas bo'ldi, andag'o'q qoldi.

QISSAYI QORUN ALAYHIL-LA'NA

Muso yalavochning xolasi o'g'li erdi. Bir kun Muso Fir'avng'a yorlig' tegurgali borurda bir tilanchi o'tru keldi. Musodin narsa tiladi, Muso aydi: Menda narsa yo'q sanga bergali. Tilanchi aydi: Yavloq munglug'men, teb yolbord. Qorun Musog'a salom qilg'ali kelur erdi. Qorun yiroqdin Musoni darvish birla ko'rdi. Meni ko'rsa narsa tilagay teb yashundi. Muso aydi: Munda turg'il, Fir'avndin yonib evga kelmishda sanga narsa berayin. Darvish aydi: Yavloq benavomen, sabrim yo'q, tedi. Muso umasg'a tegdi

ersa aydi: Yerda ko'ringan o'tlarni yig'g'il, qurutg'il, andin so'ng bir ancha temur, yo tuch, yo qo'rg'oshun, yo baqir sen buldung ersa eritgil. Bu qurutg'an o'tdin ozg'ina anga kemishgil, qamug' qizil oltun bo'lg'ay.

Darvish bilur erdikim, yolg'on so'z Musodin chiqmas. Ul so'zga inonib yondi, Musodin bu so'zlamni Qorun eshitib turur erdi, ammo Muso Qorunni ko'rmas erdi. Muso ketdi ersa Qorun darvishdan so'rdikim: Muso sanga ne berdi? Darvish aydi: Narsa bermadi, ammo qurug' o'tlarni baqirg'a qotg'il, oltun bo'lg'ay tedi. Qorun aydi: Ey darvish, Muso sendin qutulmoq uchun tiltog' qildi, bu na so'z bo'lur, borg'il, ro'zing tilagil. Darvish evinga keldi. Qorun ul o'tlarni yig'di, qurutti. Temur, baqir, tuch, qo'rg'oshin eritti. Ul o'tdin ozg'ina kemishti, qizil oltun bo'ldi. Tekma bir ming botmon temurga, baqirg'a, qo'rg'oshing'a burchaq choqlig' ul o'tdin solsa, qizil oltun bo'lur erdi. Mavlo qudrati birla Qorun yeti tun-kun oltunchilik qildi. Ganjlardin xazinalar o'rnatdi, tekma bir ganjga bir oltundin kalid qildurdi, kalidlar ko'p bo'ldi, ko'tarmak og'ir bo'ldi. Qachirg'a yukladilar, qachir ko'tarmadi.

Aymishlar: tekma ganjga sig'ir terisin qurutub barmoqcha kalid qildurdi, yungul bo'lg'ay teb. Qirg' qachirg'a yuklati, ko'tarmadi. Tekma bir qachir yuki to'rt yuz botmon erdi. Aymishlar, to'rt qo'sh o'kuzluk yerni saroy qildurdi, tomlari bir kirpich oltundin, bir kirpich kumushdin, iki kirpich (124v) orasig'a yipor, za'faron yurutdi, yinjular, gavharlar ta'biya qildilar.

To'shangulari qamug' oltundin, yinjudin, gavhardin. Qachon cherik otlansa, ellik ming er qamug'i oltun uzanguluk otlanur erdi. Boshdin azoqg'a tegi yuzlari, sochlari qizil oltundin erdi. Kun yoruqluqitek qo'miyur erdilar. O'zi cherik orasida qora ko'zlik, yoli, quyrug'i qora urung qachirg'a minib to'rt yuz qul o'g'onlar qizlar to'nin kiyib, yana to'rt yuz qul o'g'onlar yigitlar to'nin kiyib, qamug'i qachirlarg'a minib chiqar erdilar. Xaloyiq ani ko'rub, dunyo tilaganlar kusab aytur erdilar: Ey, koshki, bu Qorung'a berilgan mol tovar bizgama berilgay erdi. Qavlulu taolo. *Ya layta lana mista ma utiya Qorunu innahu lazu hazzin azim*. Ammo ul jahonlig' tilaganlar aytur erdilar: Voy, sizing uza Izi azza va jallani birlaganlar, ezgu ish qilg'anlarg'a Mavloning savoblari yaxshiroq.

Ul savobni bulmag' aylar, magar sobirlar. Qavluhu taolo. *Va qolal lazina utul ilma vaylakum savabu-Ilohi xayrun liman aamana.*

Xabarda kelur, Muso yalavoch har kunda bani Isroilni yig'ib, minbarg'a oshib majlis tutar erdi, va'z va nasihat aytur erdi. Qorunma oltun piyola chiqarub Muso o'trusunda qo'yub, mutriblar hozir qilib, qullari o'nginda, so'nginda o'turub xamr ichar erdi. Muso tahammul qilib turar erdi.

Hikoyatda kelur: Bir kun Qorun bir Shamit otlig' arig'siz urag'utg'a ming oltun berdi, taqi aydi: Borg'il, Muso majlis tutar yerda xalq qoshinda ayg'il: Ey Muso, sen o'zgalarga o'gut berursan, o'zing mening birla tong o'tg'uncha nelar qilding, xamr ichting, emdi kelib xalqg'a ne o'g'ut berursen? Shamit ming oltunni oldi, Musog'a keldi. Ul so'zlarni ayturg'a Mavlo taolo ko'nglin o'vurdi. Ul ming oltunni qelturub Muso o'nginda qo'ydi, taqi aydi: Muni manga Qorun berdi. Borg'il, Musog'a bani Isroil qatinda mundog' tegil teb emdi keldim, tavba qildim, tedi. Bani Isroil ani eshitib tongladilar. Muso qazg'ulug' bo'ldi, aydi: Yo Rabbi, emdiga tegi sabr qildim, (125r) azin toqatim qolmadi, sen bilursen. Yorlig' keldi: Ey Muso, bani Isroilg'a ayg'il, sizlarni qudrat birla yaratdim, ne'mat birla igitdim, butg'a topundingiz, ani Tengri tedingiz. Balolar berdim, manga bitmadingiz, meni unutdingiz, kofirliqdin musulmonlirg'a kivurdim, shukr qilmadingiz. Fir'avnni halok qildim, ko'nmdingiz. Emdi tekma biringiz uchar ko'k yeluk qilib biri sog'din, biri so'ldin, ilgari va orqada osing. Qachon ani ko'rsangiz azin ko'kni sog'inib mening bergan ne'matim shukrin qilg'aysiz. Muso yorlig' tegurdi. Aydlilar: Ey Muso, sen taqi Horun yeluklar osarmusiz? Muso munojot qildi, yorlig' keldi: sizlar mening yalavochimiz. Bu kun mani o'qiyursiz, osmang. Ular aydlilar: Ey Muso, sizlar osmag'uncha bizlar osmamingiz. Yorlig' keldi: Uch kun muhlat berduk, osmadilar ersa balo in-dirurmen. O'n iki sibt erdilar, to'quz sibt ko'ngulsiz ostilar, uch sibt osmadilar. Biri Qorun erdi, Yahudo urug'indin ellik ming er.

Yana biri Moryob, Rubil urug'indin ellik ming. Yana biri Afzim erdi, Yag'sar urug'indin o'ttuz ming er. Yorlig' keldi Musog'a. Bani Isroil cherigin yig'ib ko'rgil. Yig'di, ul to'quz sibtin besh yuz ming chiqti, qamug'i yeluk osig'lig'. Qorun, Moryob, Afzimni

ko'rdi, yeluk yo'q. Afzimg'a aydi: Yeluk osg'il, sen osmag'uncha osmazmen, tedi. Muso tayoq oldi, tepundi. Afzim qo'rtqi, o'tuz ming er qamug' yeluk ostilar.

Yana Moryobg'a ham aydi, andag'-o'q javob berdi. Muso tayoq olib keldi. Moryobning xotuni bor erdi, arig' musulmon. Uch yeluk anuqlab qo'zdi. Aydi: Yeluk osg'il. Moryob yuzin, boshin oshoq soldi, Muso tayoq tebratdi, yer tebranu boshladi. Evlugi yeluklarni Moryobg'a sola berdi. Moryob oldi, bo'yning'a osti. Ellik ming er qamug' ostilar, andin so'ng Yusha'ni Qorunga izdi, yeluk ossun, teb.

Ul ma aydi: Sen osmag'uncha men osmazmen. Mavlodin yorlig' bo'ldi: Ey Muso, Qorung'a ayg'il, molining yarimin darvishlarga bersun, taqi to'rt yeluk ossun. Kellub aydi ersa Qorun (125v) aydi: Musog'a ayg'il, men sening Tengringdin narsa qo'lmazmen. Yana Jabroil yorlig' tegurdi: Ey Muso, Qorung'a aygil molining beshda birin chig'oylarga bersun, to'rt yiluk ossun. O'n ancha mol berayin. Kelib aydi ersa, Qorun aydi: Musog'a ayg'il, o'n ancha molni o'zi chig'oylarga bersun. Mendin narsa qo'lmasun. Kellub kelib telim o'gutlar berdi, unamadi. Molma bermazmen, tedi, yiluk ham osmazmen, tedi. Kellub aydi: Tark ro'zgora seni Fir'avn birla tamug'da ko'rgaymen, teb yondi. Muso munojot qildi, aydi: Ilohiy, balo izg'il. Yorlig' keldi, qayu baloni qo'larsen? Muso aydi: Yerni mening tasarrufimda qo'yg'il. Mavlo taolo ijobat qildi. Muso o'fkalab tayoq oldi, Qorun saroyig'a bordi. Horun, Yusha', Kellub taqi azin bani Isroil birla bordilar. Ayvonda ruxom toshidin but qilib, oltun birla bezaklik, o'zi taxt uza o'turur. Yigitlar, qizlar, qul o'g'lonlar oltun tojlig' tegrasinda turur erdilar. Muso kirib keldi, aydi: Ey Qorun, Fir'avn o'ltunda kunda to'rt etmak uchun topug' qilmasmu erding? Tengri azza va jalla (sanga) muncha mol va ne'mat berdi, yorliqni nega tutmassen? Qorun aydi: Tengri bermish ermaz, men o'z erdamim birla qazg'andim. Qavluhu taolo. *Qola innama uutiytuhu ala ilmin indiy*. Muso achig'lanib tayoq ko'turdi, aydi: Ey yer, tutg'il, Qorunni. Qorunning taxti tegrasini yeti yo'li evruldi. Qorun sekrib quzi indi. Yer Qorunni oshuqung'a tegi tutdi. Qorun faryod qildi: Ey Muso, kechurgil. Muso aydi: Azob yetildi, emdimu ko'narsen? Ikinchi aydi: Tutg'il! Beling'a tegi tutdi. Yana

yolborddi. Muso aydi: Azob kelmishdin kezin asig' qilmaz. Yana aydi: Ey yer, tutg'il! Qorunni tamom yer yutti. Bani Isroil aydilar: Muso Qorunning molin olmoq uchun halok qildi. Muso duo qildi, aydi. Ilohiy, sen bilursenkim, mol uchun duo qilmadim, bular manga ta'n qilmasunlar, molin saroyin yer quyi izg'il. Mavlo taolo Muso duosin ijobat qildi, Qorunni qamug' mol tovari birla, saroyi birla quyi izdi.

SOMIRIY QISSASI

Somiriy Musoning xolasi o'g'li erdi, (126r) Musoning shogirdi erdi. Muso ani g'oyat suvar erdi. Mavlo taolo Fir'avni halok qilurda Jabroil ujmah buroqin mimib Fir'avn ilayinda borur erdi. Somiriy Jabroilni tanidi, aning uchunkim Somiriyini Jabroil qanoti uza igit-mish erdi. Jabroilning otining tuyuqi qayu yerga tegsa yasharur erdi. Somiriy ul tufroqdin bir ovuch olib saqlamish erdi. Muso Turg'a borib kech qoldi ersa, Somiriy bani Isroilni aldadi. Aydi: Bu sizdagi qibtiylardin olg'an mol qamug'i harom turur, aning shumliqidin diydordin mahrum qoldingiz. O'zingizdin ketaring, manga bering, men Tengri ni sizga ko'rgazayin. Bani Isroil ul kelturgan mollarni qamug' Somiriyg'a berdilar. Somiriy nakim gavhar, yinju bor erdi kizladi. Oltun, kumushlarni eritti, bir buzog'u qildi ichi qovush. Ul Jabroil oti tuyuqi tufroqini aning ichiga soldi. Buzog'udin bir un keldi. Qavluhu taolo. *Fa ahraja lavhum ijlan jasadani*. Somiriy aydi: Ushbu sizing Tengringiz turur. Qavluhu taolo. *Fa qolu haza ilahukum va ilahu Musa*. Telimlari anga topundilar, to'qiz yarim sibt qamug' sajda qildilar. Horun ani bildi ersa qayg'urdi. Horun ukush, halim erdi. Iki yarim sibt birla qamug' musulmon bo'ldilar. Aymishlar: ul iki yarim sibt birisi Yusuf yalavocho urug'indin, biri Ibn Yamin urug'indin erdilar. Ul yarim sibt Yahudo urug'indin, yarimi musulmon bo'ldilar, yarimi kofir bo'ldilar.

Xabarda kelmish: Ota-ona ezgu bo'lsa ularning ezguligi yeti urug'g'a tegar. Netekkim, Muso va Xizr qissasinda yorliqar. Qavluhu taolo. *Va kaana abuhumo solihan*. Aymishlar, qachon Mustafo alayhis-salomning bitigi turklarga keldi ersa, qabul qildilar,

og'irladilar. Lojaram qiyomatg'a tegi o'g'lonlari hurmatlig', davlatlig' bo'ldilar. Hindular Rasul alayhis-salom bitigini xo'rladilar, it bo'yning' a ostilar, aning uchun bo'yinlarin bog'lab sotarlar. Yahudo ul kun Yusufni o'lturuga o'g'ramishda iki ko'ngullug' erdi, urug'i ham iki ko'ngullug' bo'ldilar. Yarimi buzag'ug'a topundi, yarimi topunmadi. Bu qamug' Mavlo taoloning taqdiri-qazosi erdi. Horun aydi: Ey bani Isroil, bu buzag'ug'a topunmang. Sizing tengringiz Alloh turur, meni izaring, manga toat tutung. Qavluhu taolo. *Va inna (126v) rabbakum ar-rahmanu fattabi'uniy va ati'u amriy*. Qabul qildilar, aydilar: Biz ish uza tururmiz Muso kelguncha. Muso Tur tog'inda munojot qildi ersa, Mavlo taolo alvoh karomat qildi. Aning ichinda qamug' Muhammad ummatining sifati erdi, Muso ani ko'rdi, aydi: Mening ummatimg'a ne buyurusen? Yorlig' keldi: Ey Muso, ummatimg' qilmag'u ish qildilar, buzag'ug'a topundilar. Qavluhu taolo: *Fa inna qod fatanna qavmaka min ba'dika va azallahum as-Samiriyu*. Muso o'fkalab, qazulug' bo'lub yondi. Qavluhu taolo. *Fa raja'a Musa ila qavmihi g'ozbana asifan*. Ko'rdi, buzag'ug'a sajda qilurlar. O'fkasindin kelturgan alvohni kemishti. Alvohlar ushandi. Ukushraki ko'kka og'di, ushoqlari yerda qoldi. Muso aydi: Iziyo, Somiriy buzog'u qildi, ichiga tufroq kemishti, ichindin, unni kim chiqardi? Yorlig' keldi: Men yaratdim. Muso aydi: *Hi hiya illa fitnatuka tuzullu biha man mashau va tahdi man tashau*. Andin so'ng yugurdi Horuning sochi, saqoling'a yopushdi. Qavluhu taolo. *Va ahaza bir'asi axixi yajurruhu ilayhi*. Sen bularing orasinda yo'qmu erding? Naluk bularni tiymading, kofir bo'ldilar. Horun aydi: Ey onam o'g'li, sochim, saqolim tutmag'il. Bularni tiysa men tarilg' aylar, naluk tongding, ko'nmading tegaylar teyu qo'rtum. Yana meni ko'zga ilmay xo'rlayurlar. Meni o'lturugali o'g'radilar, meni dushmanlar tepasi qilmag'il. Qavluhu taolo. *Qolabna umma innal qavma-staz'afuniy va kadu yaqtulunaniy fa la tushmit biyal'a'da'a*. Musoning Horunga rahmi keldi, yig'layu aydi: Iziyo, mani taqi qarindoshimni yorliqag'il. Qavluhu taolo. *Rabbi-g'fir liy va liaxiy va adxilnaa fi rahmatika va anta arhamur rohimin*. Savol: Horun Musoni qarindoshim temadi, onam o'g'li tedi. Hikmat ne erdi? Javob: Aning uchunkim, Horun onasindin erdi, Umron o'g'li ermas erdi. Ba'zilar aymishlar, onam o'g'li tedi,

onasin atadi, rahm va shafqat qilg'ay tedi. Yana Muso Somiriyg'a aydi: Bu ishni neluk qilding? Qavlulu taolo. *Fa ma xatbuka ya Samiriyu*. Aydi: Men narsa ko'rdum, azinlar ko'rmadi. Jabroil-ni ko'rdum, oti tuyoqindin bir ovuch tufroq oldim, buzog'uning ichiga soldim. Qavlulu taolo. *Qola basurtu bima lam yabsuru bihi fa qabaztu qabzatan min asarir (127r) rasuli fa nabaztuha*.

Bu ahmoqlarni yo'ldin ozdurdim. Muso aydi: Ne uchun qilding? Somiriy aydi: Nafsim mundaq tiladi. Qavlulu taolo. *Va kazalika savvalat liy nafsiy*. Bir necha izzat, hurmat ulug'luq sen so'rdung, bir necha men so'rayin, tedi. Muso aydi: Men sendin bezormen, mundin ketgil. Somiriy aydi: Olamda yolg'uz kishi senmuse? Sendan ayrildim ersa meni qamug' izzatlagaylar. Muso duo qildi: Iziyo, muni qamug' xalqdin ayirg'il, kim ersaga qotilmasun. Jabroil kelib aydi: Ey Muso, Mavlo taolo duongni ijobat qildi. Muso aydi: *Fazhab fa inna laka fil-hayati an taqula la misasa*. Mendin ketgil Tirik bor erkancha hech xalq, odamiy, dev, pari sanga yovumasun. *La misas* teyu yurugil, kim aning qoting'a kelsa mendin yiroq turg'il, men Izi azza va jalla la'nat qilmishimen, teyur erdi, mundag'in o'ldi. Muso aydi: Ey Somiriy, sen bitgan tengringg'a boqg'il, muni o'tg'a kuydurayin, suvg'a solayin. Qavlulu taolo. *Va-nzur ila ilahika al-lazyi zalta alayhi akifan lanu-harriqannahu summa lanansifannahu fil yammi nasfan*. Qachon bani Isroil ani ko'rdilar ersa, Musog'a kelib yobordilar. Aydilar: Tavba qilduq, Mavlog'a yonduq. Duo qilg'il Izi azza va jalla tavbamizni qabul qilsun. Muso duo qildi, Jabroil yorlig' tegurdi.

BANI ISROIL TAVBASI SIFATI

Uzoqi ummatlar tavba qilsalar yana tavba qilaling tesalar Izi azza va jallaning otini og'izlarinda yuritgu ishlari bo'imas erdi, yalavochnlar Mavlodin dastur qo'lmag'uncha Mavlo taolo dastur bersa andin so'ng tavba qilur erdilar. Ammo bu kun Muhammad rasululloh barakatodin ummatlari nechakim yozuq qilsalar, bir yo'li nadomat yeb, pushaymon bo'lsalar, yozuqlari yorliqanur, tavbalari qabul bo'lur. *Li qavlihi atayhis-salam*. Musog'a yorlig' bo'ldi: Bani Isroilg'a ayg'il, biri biringiz qilich birla o'lturung, yo evlaringizdin

yiroqib chiqing. Yerdin, suvdin tariling, tavbangiz qabul bo'lsun. Qavlulu taolo: *Ani-qtulu anfusakum avi-xruju min diyarikum*. O'lumni o'zlariga ravo ko'rmadilar, yer yuzindin tarilmoqni ravo ko'rmadilar. Masalun: *Al-mavtu min fiqdil axi ashalu*. Yana yorlig' bo'ldi: *Fa tubu ila bari'ikum faq-tulu anfusakum*. Ba'zilar aymishlar, yorlig': Buzag'ug'a topunganlar bir to'quz sibt evlarindin (127v) chiqib, qapug'larinda boshlarin yalang qilib, qiblag'a qarshu tizin cho'kub, bo'yunlarin qilichg'a sunub o'ltursunlar. Buzag'ug'a topunmagan iki yarim sibt Horun boshlab qilich olib kelsa har kim tizin cho'kub qiblag'a qarshu o'lturmasa, yo qilich urg'anning yuziga boqsa, Tengri la'nati aning uza taqi mangu tamug'da qolsun. Andag' qildilar, to'quz yarim soat o'n iki ming evlari qapug'larida yalang bosh qiblag'a qarshi tizin cho'kub kafanlig bo'zlarin iliklariga olib qilichg'a bo'yunsunub o'lturdilar. Horun iki yarim sibtini boshlab, qilich tortib keldilar. Horun qatig' un birla aydi: Kim bu kun qibliadin yuz evursa, yalang bosh tizin cho'kub o'lturmasa, qilichga bo'yun summasa, qilich urg'anda urg'anning yuziga boqsa, Tengring la'nati aning uza bo'lsun, mangu tamug'da qolsun. Ular qamug': Omin teyu qilichg'a bo'yunsundilar. Mundog'in iki yarim sibt bularni o'lturdilar. Ekindi namozig'a tegru yetmish ming er o'ldi. Yer yuzinda qondin ariqlar oqti. Muso ani ko'rub o'zga o'limlar birla sajdag'a yuzin tushtilar. Zoriliq birla Muso aydi: Iziyo, sen bu kun bulardin kechurmasang Ya'qub yalavochn urug'i yer yuzinda qolmas. Jabroil kelib aydi: Ey Muso, boshing ko'turgil, Izi azza va jalla duongni ijobat qildi, o'lganlar ujmochg'a ulandi, qolg'anlar tavbasi qabul bo'ldi. Qavlulu taolo: *Summa afavnaa anqum min ba'di zalika la'allakum tashkurun*. Andin so'ng sig'ir, buzog'u bo'g'uzlamoq balosig'a mubtalo bo'ldilar.

SIG'IR BUZAG'U QISSASI

Qachon bani Isroil ko'chub, Falasting'a borur bo'ldilar ersa, yo'lda ajoyibotlar telim ko'rdilar. Ul ajoyibotlarda biri ul erdi. Arxab va A'liya otlig' iki kend orasida bir o'luk buldilar, oti Omil ibn Isroil. Musog'a aydilar, Muso munojot qildi: Iziyo, muni kim o'lturdi, bizga xabar qilg'il. Shari'atni aning uza yuritaling. Yorlig'

bo'ldi: Bu o'luk qayu kentga yovuq ersa ul kentlik kishilarga ont bering. Kim ont ichmasa qasos qilg'il. Ont ichti ersa qasosdin qutuldilar, ont ichmagan xun bahosin bersun. Musog'a aydilar: Xun bahosi, berduk, kerakkim muni o'lturganni bilsang. Muso munojot qildi, yorlig' keldi: Bir sig'ir (128r) o'lturung, aning etidin olib o'lukka urung, kim o'lturganin tirilib ayta bergay. Muso yorlig' tegurdi. Bular aydilar: Biragu o'ldi, yana bir jonlig' o'lturursen, bizg'amu kularsen. Qavlulu taolo: *A tattaxizuanaa huzuwan*. Muso aydi: Tengri saqlasun, men sizlarga kulguchi johillardin ermasmen. Qavlulu taolo: *Qola a'uzu bi-llahi an akuna minal-jahilin*.

Muso o'lturganni bilur, tedilar, aydilar: Izi azza va jalladin tilagil, bizga xabar qilsun. Bu sig'ir necha yoshlig' turur? Qavlulu taolo: *Ud'u lanaa rabbaka yubayyin lanaa ma hiya*. Yorlig' keldi: Kichikma ermas, qarima ermas, o'rtta yoshlig' turur. Qavlulu taolo: *Innaha baqaratun la farizun va la bikrun avonun bayna*. Muso aydi: Yorlig' birla ish qiling, ortuq yinchkalamang. Izi azza va jalla sizga ham og'irroq qilmasun. Abdulloh ibn Abbos raziyallohu anhumo aydur: Ul kun ular bir yashar tana bo'g'uzlasalar emgaklari ortmas erdi. Yana aydilar: Duo qilg'il, Mavlo taolo bayon qilu yorliqasun, sig'irning tusi netak turur? Qavlulu taolo: *Qolu-d'u lanaa rabbaka yubayyin lanaa ma lavnuha*. Yorlig' keldi: Ul sig'ir yavloq sarig', ko'rganlarni suvdurgan turur. Qavlu taolo: *Innaha baqaratun safro'u foqi'un lavnuh tasurtun nozirin*.

Yana aydilar: Duo qilg'il, bu so'z bizga belgusiz bo'ldi, ochuqraq aysun, in sha'a-llohkim, bulung'ay. Qavlulu taolo: *Qolud'u lanaa rabbaka yubayyin lanaa ma hiya innal-baqara tashabaha alaynaa va innaa in sha'a-llohu lamuhtadun*.

Abdulloh ibn Abbos aydur, in sha'a-lloh temasalar hargiz bulmag'ay erdilar. Ul sig'ir sabon surmish ermas, chiqirg'a yurumish ermas, bir turluk o'zga belgusi yo'q. Qavlulu taolo. *Innaha baqaratun la zalulun tusirul arza va la tasqil harsa musallamatun la shiyata fiha*. Emdi ko'nilik uza buldimi. Qavlulu taolo. *Qola al'ana ji'ta bilhaq-qi*. Mundag' sig'irni tiladilar, bulmadilar. Aymishlar, bani Isroilda bir qurtqaning o'gsuz o'g'li bor erdi, yavloq yo'qsiz, chig'oy, ammo onasig'a yavloq topug'soq erdi. Har kunda bir orqa o'tunni bozorda sotib to'rt diramga, ikisini sadaqa qilib, ikisiga osh olib onasiga berur

erdi. Kunduz ishi bu erdi, kecha bo'lsa tunni uch ulush qilur erdi. Bir ulushin namoz qilur erdi, bir ulushin uyur erdi, yana bir ulushin onasi yastuqi to'shunda o'lturub aydur erdi: Ey ona, qo'pg'il, namoz qilg'il, tasbihu tahlil ayg'il. Onasig'a (128v) aydi: Muso kunda munodiy qildirur, mundog' sig'ir kimda bor ersa keltursun, og'ir baho birla olurman. Onasi aydi: Ey o'g'lum, otang mundog' turluk buzag'uni tog'da sening uchun qo'ymish erdi. Anda borib Izi azza va jallaning ulug'otlarin o'qusang shoyadkim bulg'aysen. O'g'li tog'g'a borib duo qildi, ul sig'ir kelib o'g'long'a bo'yunsundi. Tutub kelturur bo'ldi. Ul sig'ir tilga kelib aydi: Man seningman, manga mingil. O'g'lon aydi: Man onamdin dastursiz minmazmen. Onchada Iblis alayhail-la'na, bu ish bani Isroil orasida bitmasun, teb o'zini xasta qilib, yo'lini saqlab o'lturdi. O'g'long'a aydi: Men sig'irchiman. Sig'ir minib kelurda sig'ir meni yiqib qochti. Men og'riq bo'ldum. Meni bu sig'irg'a mindurgil, sening birla kentga borayin. O'g'lon aydi: Onamdin dastursiz mindurmazman. Iblis aydi: Meni qo'ysang munda o'larman. O'g'lon aydi: O'lsang Mavlo taolo qazosi birla o'lgaysen. Yana aydi: Manga rahm qilib mindurgil, muzd yarmoq berayin. O'g'lon aydi: Onam manga dastur bermishi yo'q, mindurmazman. Iblis bildikim, so'zing tinglarnas. Sekridi, bir qichqirdi, sig'ir urkti, qochti. O'g'lon onasi o'gratgan duoni o'qidi ersa sig'ir yetib keldi. O'g'lon tutub evga kelturdi: Izi azza va jalla bir farishtani onasing'a izdi, aydi: Bu sig'irni mendin dastursiz sotmag'il. O'g'lon sig'irni bozorg'a kivurdi, og'ir bahog'a tiladilar. Aydi: Onamdin dastursiz sotmasman. Onasiga kelib aytti ersa, farishta aydi: Bahosi yetmay turur. Bu tartib birla bahosi oshti, terisi to'lug' oltun berur bo'ldilar. Anda dastur berdi, sotilar, olib bo'g'uzladilar. Bo'g'uzlamog'g'a unamas erdilar. Qavlulu taolo. *Fa zabahuha va ma kadu yaf'atun*. Etini olib o'lukka urdilar, ul o'luk tirildi. O'mgan tamoridan qon oqar erdi. Aydi: Meni otam qarindoshining o'g'li o'lturdi.

Hikoyatda kelmish, o'lukning oti Omil erdi, yavloq muna'im erdi. O'g'li, qizi yo'q erdi. Ammuzadolari chig'oy erdilar. Omil o'lsa meros ularga tegar erdi. O'luminga sabr qilmay oshuqub Omil (129 r) ni o'lturdilar. Meros olmoq uchun da'vo qilur erdilar. Omil tirilib: Mani bular o'lturdi, tedi ersa tondilar. Yorlig' bo'ldikim, qardoshini mol uchun o'lturganlarga qardosh molidin

meros bermang, taqi azinlar o'granmasunlar. Muso ularg'a meros bermadi. Bu kun bizing shariatimizda ul hukm boqiy turur. Kim o'z qarindoshini meros umidiga o'ltursa, merosdin mahrum qolur. Bilgil, kim yovuzluq qilsa anga yanut berurlar, ko'rmasusen. Mavlo taolo shikoyat tariqin juhudlarg'a berur va yorliqar: biraguni o'lturdungiz, o'rtukluk qolsun teb ukush hiylalar qildingiz. Izi azza va jalla sizlar o'rtganni chiqarg'an turur. Qavluhu taolo. *Va iz qataltum nafsana faddara tum fiha va-llohu muxrijun ma kuntum taktumuna fa qulna-zribuhu biba'ziha kazalika yuhyi-llahul mavta va yuriykum ayatihi la'allakum ta'qilun* teyu yorliqar. Biz aydimiz: Bir kesak sig'ir eti anga urung, Mavlo taolo turguzgay. O'z qudratini bizga ko'rguzgay, bo'lg'aykim anglag'aysiz. Izi azza va jalla yalavochlarni, arig'larni doim emgakda tutqan turur, ularga yovuzluqlarni musallat qilg'an turur.

MUSO BIRLA XIZRNING RIF'AT DARAJASI BAYONI

Qachon Musog'a yalavochliq birla Tavrot tamom berildi ersa Mavlo taolo Muso birla yuz ming so'z so'zlashti. Muso xushlanib aydi: Iziyo, bu karomatkim manga berding, azin kim ersaga berdingmu? Yorlig' keldi: Ey Muso, tengizlar azoqinda mening bir qulum bor, sening ilinging aning ilmi to'shinda bir qatra suvcha bo'lg'ay, aning ilmi daryodek. Muso aydi: Ilohiy, meni aning jamolig'a musharraf qilg'il. Yorlig' keldi: Ey Muso, Rum tengizi taqi Fors tengizi qo'shulg'an yerg'a borg'il ani anda topqaysen. Sanga yo'ichi baliq bo'lg'ay. Muso aydi: Ilohiy, ul kim ersa yalavochmu, sovchimu turur? Yorlig' keldi: Ul sovchilardin turur, sen yalavochlardin turusen. Muso shogirdi Yusha g'a: Oziqlang'il, safar qilaling, tedi. Yusha' bir idishga etmak taqi so'kulunnish iki baliq soldi. Ikilari yo'lga tushdilar. Muso qattig' yuridi. Yusha' teng yuri bilmadi. Aning uchunkim, bir yalavochning qirq er choqlig' kuchi bo'lur. Muso tog'tubinda (129 v) bir yo'l buldi. Yo'l boshinda bir chashma suv ko'rdi. Ul suvdin tahorat qildi, ammo suv ichmadi. Qo'pti, yo'lg'a tushdi. Andin so'ng Yusha' ul suvg'a

keldi. Ul mangu suvi erdi. Ul ham tahorat qildi, ichmadi. Ammo ozuqin olurda qo'lindin bir qatra suv tomdi ozuq ustiga. Ammo ul qatra suv baliqlarg'a tegdi. Baliqlar tirildilar, sekrib tengizga tushdilar. Kami sichqon iniga kirgantek. Qavluhu taolo. *Fattaxaza sabila-hu fil bahri saraban.*

Yusha' ani ko'rub Musoga xabar qilg'ali oshuqti, ozuqini unutdi, Musog'a qovushti. Muso aydi: Emganduk, ochduq, ozuqni keltur, yegali. Qavluhu talolo. *Qola lifatahu aatinaa g'oda'anaa laqad laqaynaa min safarinaa haza nasaban.* Yusha' aydi: Ey Muso, ko'rmasusen, ozuqni ul tosh uza yo'l qatinda unutmishman. Qavluhu taolo. *Qola ara'ayta iz avaynaa ilas-sahrati fa inniy nasiytul-huta.* Muso aydi: Men ham birga qaytayin, qo'rqaman, yo'l g'alat qilg'aysen, biri birimizg'a qovushmag'aymiz. Ikagu birga qayttilar, boyaqi yerga tegdilar, Xizrni toptilar, namoz qilur. Qavluhu taolo. *Fa vajadaa abdan min ibadinaa.* Muso salom qildi, Xizr alik oldi, yo nabiyalloh, teb. Muso aydi: *Man anta va bima araftaniy.* Sen kimsen, meni nedin bilding? Xizr aydi: Men Tengri quli Xizrman. Tengri seni manga bildurdi. Sen ne ishga kelding? Muso aydi: Sendin ilm o'grangali keldim. Xizr aydi: Ey Muso, Tengri taolo sanga Tavrot berdi, sening birla so'zlashti. Mendin ne o'granusen. Muso aydi: *Amaraniy rabbin bihaza.* Izim manga mundog' yorliqadi. Xizr aydi: *Ayna g'izakuma.* Ya'ni ozuqlaringiz qayda turur? Aydi: Bu yo'lda unutdi. Xizr aydi: Toping! Toptilar, nonni, baliqni topmadilar. Yusha' aydi: *Ayna samakatural-mashviyyatu.* Ya'ni so'kulunnish baliqlarimiz qani? Xizr kulumsib aydi: Baliqlaringiz Tengri yorliqi birla tirildilar, bu suv ichinda Iziga tasbih ayturlar. Muso tongladi, Xizr aydi. Izi azza va jalla yorliqi birla ul iki baliq suvdin chiqtilar, so'kulunnish. Muso, Yusha' ikagu baliqdin yedilar. Xizr namozda erdi, forig' bo'ldi ersa Musog'a aydi: So'rug'ung ne turur? So'rg'il, javob eshitgil, terk (130 r) yong'il, meni Mavlo taolo ibodatidin mashg'ul qilmag'il, sen yalavochsen, sening xalqing ulug' turur. Taqsir kechmasin, tedi. Muso aydi: Men sening birla turayin, ilm o'granayin teyu keldim. Qavluhu taolo. *Qola lahu Musa hal attabi'uka ala an tu'allimani mimma ullimta rushdan.* Xizr aydi: Sen mening birla sabr qilmag'aysen. Qavluhu taolo. *Innaka lan tasta-ti'a ma'iya*

sabran. Muso aydi: Bo'lg'aykim, sabr qilg'ayman. Qavluhu taolo. *Satajidiyiy in sha'a-llohu sobiran va la a'siy laka amran.*

Xizr aydi: Manga eyarur bo'lsang, har ne qilsam so'rmag'aysen, men sanga aytqayman. Ikisi yo'lg'a kirdilar, iki yig'och yer bordilar. Muso aydi: Men och bo'ldum, yuriyu bilmasmen, taom kerak, teb o'lturdi. Mavlo taolo ularg'a iki tepaq izdi. Birida so'klunmish baliq birla etmak, birinda xom et, un birla kelturgan aydi: Pishgan taomlar Xizrg'a, xomi Musog'a. Muso qo'pti, o'tun yig'di, un yo'g'urdi. Emganu boshladi. Ko'zindin yosh oqar, yuzindin suv tomar erdi. Pishurub, Xizr birla taom yeyurda Xizr kulumsidi. Muso aydi: Yalavochg'a kularmu bo'lur? Xizr aydi: Men sanga kulmasmen. Izi azza va jallaning qudratin tonglanur, bir qul sabr qilur, emgaksiz taom berur. Bir qul sabr qilmas, anga emgak birla taom berur! Qachon taomdin forig'dilar ersa, tengiz qiroqig'a kelib bir yig'och tubida o'lturdilar. Bir chibchuqni ko'rdilar, tengizga indi. Tumshuqi birla suv oldi, uchdi. Yig'och uza qo'ndi. Xizr aydi: Ey Muso, sen bilurmusen, bu qush na teyur? Muso aydi: Yo'q. Xizr aydi: Bu qush aytur, Musoning ilmi Xizr ilmi to'shunda tumshuqumdag'i suv choqlig' turur. Qavluhu taolo. *Fantalaqo hatta iza rakibaa fis-safinati xaraqaha.* Ikisi yuridilar, bir kemiga tegdilar, ikagu kirdilar. Xizr ul kemini buza boshladi. Kemidagilar chiqtilar. Muso o'fkalab aydi: Kemidagilarni halok qilg'alimu buzarsen? Qavluhu taolo. *A xaraqataha litug'riqa ahlaha laqad ji'ta shay'an imran.* Xizr aydi: Men senga aymadimu, mening birla sabr qilu bilmagaysen, teb. Muso aydi: Unutub qilmishman, mendin kechuril. Qavluhu taolo. *Qola la tuaxizniy bima nasiytu va turhiqniy min amriy usran.* Yana yuridilar, ko'rdilar, o'g'lon o'ynayurlar. Xizr ularda bir o'g'lonni o'lturdi. Muso aydi: Bu yozuqsiz o'g'lonni o'lturding, (130v) yaroqsiz ish qilding. Qavluhu taolo. *Qola a qatalta nafsan zakiiyyatan big'ayri nafsni laqad ji'ta shay'an nukran.* Xizr aydi: Men sanga aymadimmu, mening birla sabr qilumassen. Muso aydi: Emdidin so'ng so'z so'rsam, o'zungg'a yovutmag'il. Aymishlar: Ul o'g'lonning oti Xayshur erdi, ul kofir erdi. Aymishlar, otasining oti Zajmi erdi. Yana yuridilar, Antokiya otlig' kengda tegdilar. Taom tiladilar, bermadilar. Muso g'amgin bo'ldi. Kecha anda qo'ndilar. Tonglasi tebrar bo'ldilar. Bir tom ko'rdilar, tushgalu turur. Qavluhu

taolo. *Fantalaqo hatta iza atayaa qaryatin istatamaa ahlaha fa abav an yuzayyifuhuma fa vajadaa fiha jidaran yuridu an yanqazza fa aqomahu.* Xizr ul tomni tuzatti. Muso aydi: Bular bizga taom bermadilar. Xizr aydi: Bersunlarmu teyursen? Xizr aydi: Emdi ayrilg'u vaqt bo'ldi. Qavluhu taolo. *Qola lav shi'ta lattaxazta alayhi ajran.* Muso aydi: Ayrilayin, valekin qamug' ishlarni aytu bergil.

Xizr aydi: Aytayin. Qavluhu taolo. *Saunabbiuka bita'vili ma lam tastati' alayhi sabran.* Emdi bilgilkim, ul kemi o'n qarindoshning erdi, otalarindin meros tegmish. Beshagusi kemida ishlayur erdilar, taqi beshisi ishlamas erdilar. Ishlagan beshaguning birisi juzomlik erdi, birisi singar ko'zuk erdi, uchunchisi aqsoq erdi, to'rtunchi tani shishuq erdi, beshinchi eshitmas erdi, qamug'din kichikrak ul erdi. Taqi ishlamaganlar: biri qarag'u, ikkinchi sag'ir, uchunchi ag'in, to'rtunchi o'trum edi. Aydi: Bu kemi borg'an tepa Juland otlig' zolim bor, malik, yo'luqg'an kemini tortub olur. Man ul kemini illatlik qildim, ul zolim olmasun teb, ul za'iflarga qolsun teb. Taqi ul o'lturgan o'g'lonning otasi mo'min erdi, onasini taloq qilmish erdi. Onasi o'zga elda erdi. Bu o'g'lon otasig'a borg'andakelganda o'g'riliq qilur erdi. Otasi, onasi o'g'limiz o'g'riliq qilmas, teb bilimayin ont ichar erdilar. Ani o'lturdum. Mavlo taolo andin yaxshiroq o'g'ul bergay, tedum. Qavluhu taolo. *Fa arodnaa an yubditahuma rabbahuma xayroi minhu zakatan va aqraba ruhman.* Taqi ul yiqilaturg'an tom ichinda yetim o'g'lonlarning mollari bor erdi, bir Azrom otlig', biri Zarrom otlig'. Ota-onalari solih erdi. (131 r) Qavluhu taolo. *Va kaana abuhuma solihan.* Agar tom yiqilsa, ul mol ko'runub o'zgalar olmasun teb, ul tomni rost qildim. O'gsuzlar ulg'armishda ul molni olgaylar Qilduquum ishlarning ta'vili bu turur. Qavluhu taolo. *Zalika ma lam tasti' alayhi sabran.* Aymishlar, ul ganjda bir olun taxta bor erdi, bilik so'zlari bitiklik. So'zlar bu erdi: Odam o'g'li o'larin bilur erkan, sog'inur o'Imasman. *Ikinchi:* Tamug'din qo'rqar erkan yovuzluq qilur. *Uchunchi:* Ne qilsa saqish bermakni bilur. *To'rtunchi:* Izi azza va jalladin qo'rqar erkan yozuq qilur. *Beshinchi:* Bu dunyo kecharin bilur erkan, ko'ngul berur La ilaha illa-llohu Muhammadun-rasulu-llohi. Bir vaqtda Muso alayhis-salom bani Isroilg'a yavloq pand berur erdi, ko'nglidin kechti, menteg kim ersa bormu yerkan teb. Xitob keldi: Ey Muso, mening qullarim orasinda bir qulum bor, sendin olimroq, anga

yalavochliq berdim taqi bir malik tepa izdim, mening yorliqimni etkur teb. Ul malik zolim erdi. Qo'lin, burmin, quloqin, butun kesdi. Men ani o'ngaltdim. Yana ul malik tepa izdim, aydi: Xudoyo, sen manga hukm qilding ersa jon birla qabul qildim, roziman, tedi. Seni Fir'avn tepa izganda boshda-o'q *inniy axofu an yukazzibun* teding, ul temadi. Andin so'ng Muso Xizrdin ayrilur vaqt bo'ldi. Muso aydi: Manga bir vasiyat qilg'il. Xizr aydi: *Kuv bashshashan va la takun g'azzaban*. Ochuq yuzluk bo'lg'il, to'nuq turmag'il. *Va tar'a nafsakal jidala va tamshi fil arzi big'ayri hajatin*. Egashmakni o'zungdin ketargil, hojatsiz yerga bormag'il.

Aymishlar, Muso Xizr birla o'n sekiz kun musohib bo'ldi. Tekma kunda o'n bilik o'grandi, qamug'i yuz seksan so'z bo'lur. Ul yo'l birla-o'q yonib, bani Isroilg'a keldi. Uch yil yetti oydin so'ng vafoti bo'ldi. Musodin so'ng' qavmi yetmish turluk bo'ldilar, juhudluqg'a kirdilar. Izi azza va jalla yuz qirq yalavochni ularg'a izdi. Bulardin so'ng Dovud yalavochni izdi. Musodin Dovudg'a tegi yuz qirq yil erdi. Taqi aymishlar, yetmish yil erdi.

QISSAYI DOVUD ALAYHIS-SALOM

Ul *inna haza lahu tis'un va tis'una na'jatan* ibtilosi birla mubtalo bo'lg'an, *xarra raki'an va anab* sajdasin qilgan, *fa g'afarnaa* xitobin eshitgan, *ya Davudu inna ja'alnaaka xalifatan fil arzi xil'atin bulg'an, fahkum baynan-nasi bil-haqqi* amrini tutqan, *va la tattabi'il hava* nahisindin (131v) yiroq turg'an, *va vahabnaa li Davuda Sulayman* mavhibati berilgan, *va qatala Davudu Jaluta* muborazati birla chavlangan Dovud yalavoch alayhis-salom.

She'r:

Kel netak erdiki bil Dovud yalavoch ishlari,
Bir o'g'long'a hamd ayurda kimlar erdi eshlari.
O'zi otlig', o'rni otlig, kez yuraklik alpog'ut,
Tekmalarning qayda erdi o'tru turg'u ishlari.
Tasbih ayisa birla bo'lub, un tuzub ingrashilar,

Yerdagi kiziklari ham ko'kda uchqan qushlari.
Haq itobi tegdi ersa yig'ladi inchiqlayuu,
Oqti yultek to'ldi ko'llar ko'zlarining yoshlari.

Dovud yalavoch bani Isroildin erdi, o'n qarindosh erdilar, otalari Isho' otlig'. Dovud qamug'idin kichik erdi, tun-kun yig'layur erdi, ibodat ichinda. Aymishlar, bani Isroil o'n iki sibt erdilar. Ammo yalavochlar bor erdi, maliklar bor erdi. Yalavochliq, taqi maliklik bu o'n iki sibt orasida o'vrulur erdi. Bir sibtdin yalavoch bo'lsa, bir sibtdin malik qo'par erdi. Bani Isroil hargiz maliksiz, yalavochsiz qolmas erdilar. Bularga Haq taolo dushman uza doim nusrat bermish erdi. Ul nusrat alomati bir tobut erdi.

TOBUT SIFATI

Muso yalavoch bani Isroil birla Tih yabonida qolmishda Izi azza va jalla Musog'a bir tosh izmish erdi, mushuk suratlig', o'n iki yul andin chiqar erdi. Bani Isroil birla Misrg'a kelmishda ul tosh Muso birla erdi. Taqi Tur tog'indin kelurda sing'an alvohlardin ushoqlari ham birla erdi. Qachon Musoning oxiri umri bo'ldi ersa munojot qildi: Iziyo, bani Isroilg'a narsa karomat qilg'ilkim, mandin so'ng' ularg'a hujjat nusrat bo'lsun dushman uza. Izi azza va jalla yorlig' qildi: Ey Muso, ayg'il, bir tobut qilsunlar. Ul toshni taqi alvoh ushoqlarini taqi sening asongni taqi Horunning amomasini aning ichida qo'ysunlar. Bani Isroil oltun, kumush yig'ib bir tobut qildilar. Tosh, alvoh, aso, amomani aning ichida qo'ydilar. Qachon ularg'a bir mung-qazg'u tushsa, yog'ilari bilgursa, ul tobutni chiqarib, ilguru qo'yub, duo qilsalar, ul mung, ul yog'idin qutulur erdilar. Ul tobut birorda maliklari ilkinda erdi, (132r) bir yerda yalavoch olimlari ilkinda erdi. Ul vaqtg'a tegikim, bani Isroil Mavlog'a yozdilar ersa Izi azza va jalla Baxtu Nasrni ularg'a musallat qildi. Jolul keldi, bani Isroil bo'zunidin ul tobutni oldi, sindurayin tedi, sinmadi, o'tg'a soldi, kuymadi. Arig'siz yerga soldilar. Mavlo taolo ularg'a nosur illatini havola qildi. Qamug'i nosur illati birla mubtalo bo'ldilar. Bu tobut bani Isroilning Tengrisi bo'lg'aymu,

ularg'a qayta beraling, yo'q ersa barchamiz halok bo'lmimiz, tedilar. Tobutni bani Isroil tepa izdilar. Bani Isroil sevunushub Iziga shukr qildilar. Tevalar, uylar so'yub shukrona berdilar. Ul kun iydlari erdi. Yana bir qavlda, Tolut malik bo'lmish kun yozig'a chiqtilar, sevunchlar qildilar. Iziga yolibordilar, tobutni qo'ldilar. Ul soatda-o'q bulut o'rladi, tobutni kelturub bularning o'ngida qo'ydi, Yana bir qavlda, tobutni Jolut olib bermish erdi.

JOLUT ALAYHIL-LA'NA QISSASI

Bu Jolut odiyalar urug'indin erdi. Amoliqaning yaqini erdi. Yavloq alpoq'ut kofir erdi. Bani Isroilg'a yog'i erdi. Ul vaqtda ularg'a Ishmuil yalavoch erdi. Bani Isroil aydilar: Duo qilg'il, Mavlo taolo bizga bir malik bersun. Duo qildi ersa mustajob bo'ldi. Mavlo taolo ujmohdin qamish izdi va yorlig' bo'ldikim: Bu qamish kimning bo'yig'a teng kelsa, ul kim ersa sizga malik bo'lsun. Ishmuil yalavoch ul qamishg'a o'lchab, tekma bir kishining qo'lig'a bir yig'och berdi, kim bu yig'ochg'a barobar bo'yug' kishi topsangiz olib keling. Bu Tolut bir sig'irchi erdi. Sig'ir yitirib tilayurda Ishmuilga yo'luqti. Ko'r'di, uzun bo'yug'. Ne tilayursan? teb so'r'di. Sig'ir tilarman, tedi. Bizga malik bu bo'lg'ay, teb eviga eltti. Orimish erdi, yotib uyudi. Ishmuil ul qamishni kelturub Jolutg'a tengladi-barobar keldi Uyg'onmishda Ishmuil: Sevunch sangakim, sig'irchiliqdin qutuldung. Tengri taolo seni malik qildi. Tonglasi bani Isroilg'a aydi: Ul suratlig' kim ersani topdim. Evdin chiqardi, ko'r'dilar. Aydilar: Bu bizing sig'irchimiz turur. Moli, tovari yo'q, bu bizga netak malik bo'lur. Qavluhu taolo. *Va qola lahum nabiyuhum inna-lloha qad ba'asa (132v) lakum Toluta malikan.* Ishmuil aydi: Ani Izi azza va jalla sizning uza uzurdi. Taqi ilmi sizdin ortuqroq turur. Qavluhu taolo. *Inna-lloha-stafahu alaykum va zadahu bastatan fil ilmi val jismi.* MulK Izi azza va jallaning tururkim, ne tilasa qilur. Qavluhu taolo. *Va-llohu yu'ti mulkahu man yasha'u.* Ular Tolutni karohiyat birla qabul qildilar. Aydilar: Maliklikka yatarin bilaling, bizga nishoni bor munung yo'lindin bersun. Ishmuil duo qildi. Yorlig' keldi: Jolut eltgan

tobut aning yo'lindin sizga kelgay. Qavluhu taolo. *Va qola lahum nabiyuhum inna aayata mulkihi an ya'tiyakum at-tobutu.* Tolutni maliklikka muqarrar qildilar. Anga sonsiz cherik yig'ildi, Jolutg'a sanchishg'ali ul cherigni sayladilar, yaramaslarin yondurdilar. Yorlig' keldi *ul yalavochg'a:* Men sizlarni Falastin ariqining suvi birla mubtalo qilgayman. Uch kun suvsiz qolg'aysiz. Mening yorliqimni tutmag'anlar, sanchishmoqdin yog'ini ko'rmayin. Duo qildi: Iziyo, yorlig' ne ermish? Yorlig' bo'ldikim, har kishi ul suvdin o'z ko'nglincha ichsa, halok qilg'ayman. Bir ovuch suv ichib qanoat qilsa, kechirgayman. Qavluhu taolo. *Fa man shariba minhu fa laysa minniy va man yat'amhu fa innahu minniy illa man-ig'tarafa g'urfatan biyadihi...* Suvg'a yettilar ersa Tolut aydi: Bir ovuch suvdin ortuq ichmang. Ular aydilar: Sen malik bo'ldung ersa suv ichmakka taqi erklik bo'ldung, teb ukushlari suvg'a yuzin tushub, yilqi qora mengizlik icha boshladilar. Qorinlari kerildi, yuzlari sarg'ardi, suvdin qonmadilar, o'ldilar.

Ular qirq ming erdikim, yorlig' eshitibkim, yorlig' bir ovuch suv ichganlar qondilar, o'ldilar.

Aymishlar, suv ichganlar o'ldadilar, ammo qorinlar shishti. Tolut aydi: Siz Mavlo yorliqig'a bo'yunsumub tutmadingiz, sanchishg'a netak o'tru turursiz, teb yondurdi. O'zi yuz yetmish er birla Jolutg'a boraling, sanchishaling tedi. Mavlo taolo ularnin ko'nglin xush ildi. Yorliqadi. Necha oz cherik ukushni bostilar. Qavluhu taolo. *Kam min fiatin qalilatin g'alabat fiatan kasiratan biizni-llohi va-llohu ma'as sobirin.*

Ishmuil, Tolut uch yuz er birla bordilar. Dovud alayhis-salom o'n qarindosh erdi. Otalari Isho' otlig'. Dovud qamug'idin kichik erdi, ul kun qo'y saqlar erdi, ko'rmakka ko'rsiz erdi. Taqi aymishlar: Yavloq ko'rkluk erdi. O'zga qarindoshlari cherikka chiqtilar. Dovud aydi: Men ham borayin. Aydilar: Sen kichiksen, yaramassen. Ular ketgandin so'ng qo'yni o'zga kim ersaga topshurdi, qarindoshlari so'ngindin yo'lg'a kirdi. Borurda Izi azza va jalla yorliqi birla uch tosh tilga keldi, aydi: Ey Dovud, Jolut o'lumi saning ilkingda maning birla bo'lg'usi turur, meni olg'il, tedi. Dovud ularni oldi, keldi. Yana bir rivoyatda, Ishmuil Tolutg'a xabar qilmish erdi, Jolut o'lumi Isho' o'g'lonlari ilkinda turur Bir yariq, yashiq bermish erdi.

Qayu o'g'ling'a yarasha, boshdin yashiqdin yog' bilgursa, anga bergil, teb. Jolut Isho'ni kelturdi, o'g'lonlarin yig'durdi. Ul yariq, yashiqni ularg'a kiydurdi, yarashmadi. Anda Dovud yo'q erdi. Tolut Isho'din so'r'di: O'zga o'g'lung bormu? teb. Aydi: Yana bir o'g'lum bor, bu ishga yaramas. Tolut aydi: Ani kelturgil, bo'lg'aykim yarag'ay. Isho' Dovudni kelturdi, yariqni kiydurdi. Uzun keldi ersa Dovud bir silkindi, yariq bo'ing'a loyiq keldi. Yashiqni boshig'a urdi ersa yog' bilgurdi, sevundilar. Ul holda Jolut yariq kiymish erdi uch botmon chiqti. Aydikim, sanchishaling. Qamug' qo'rtqilar. Aymishlar, ul holda Dovudni kim ersa bilmas erdi. Tolut aydi: Har kim bu kun Jolut birla sanchishsa yarim mulkumni, qizimni anga berayin. Dovud aydi: Men sanchishayin. Dovud aydi, Tolut eshitmadi. Ikinchi so'r'di, Dovud javob aydi ham eshitmadi. Uchunchi so'r'di, Dovud javob aydi ham eshitmadi. To'rtunchi so'rganda Dovud qatig'roq javob berdi, eshitti. Tolut aydi: To'rt yo'li so'radim. Avvalda neluk javob bermading? Dovud aydi: Javob berdim, sen eshimading. Yana aydi: Avvalda aning uchun javob aymadim, qamug' cherik xalqi tanuq bo'lsunlar teb. Tolut aydi: Mundin burun o'zungni hech sinamishing bormu? Aydi: Bir vaqt qo'yumg'a bo'ri keldi. Bo'rini tutdum, bo'ynini uzub tashladim. Andin o'zga sinamishing bormu? tedi. Dovud aydi: (133v) Yana bir arslon keldi, tutub engaklarin sindurdum. Tolut aydi: Bas, chiqq'il. Dovud aydi: Bu yariq birla sanchishsa bilmasman. Yariqni soldi, tosh ko'tardi, sopqon oldi, ilgaru yurudi. Jolut ham ilgari keldi. aydi: Ne birla urushursen? Aydi: Ushbu tosh birla. Jolut aydi: Tosh birla itni uratlar. Dovud aydi: Sen ham bir itsen. Jolut aydi: Mening senga rahmim kelur, yo'q ersa og'zimdag'i tufluk birla seni halok qilg'aymen. Dovud aydi: Bu so'z sanga asig' qilmas. Senmu tepinursan yo menmu sanga tepunurman? Jolut aydi: Sen tepun. Dovud bir tosh chiqardi, sopqon uza qo'ydi, maydong'a kirdi, Izi azza va jallag'a sano aydi. Qilich yo'q erdi, yoy-o'q yo'q erdi, o'tru yuridi. Jolut ko'rmish erdi. Sopqon chevrub tosh otti. Jolutg'a yetmasdin burun Mavlo taolo Jolutning boshindaqi yashiqni yel tushurdi, olni ochildi. Tosh olnig'a tegdi, engsasindin o'ta chiqti. Aymishlar, ul toshni Dovud yalavocho etakinda Mavlo azza va jalla qudrati birla berkitti. Yana sopqon oldi. Qachon otti ersa, havoda

uch kesak bo'ldi, biri Jolutning olnig'a tegdi, biri sog' yonindag'i cherikka tegdi, biri so'l yonindag'ig'a tegdi. Bir tosh Jolutni halok qildi. Iki tosh iki yonindag'i cherikni halok qildi. Mo'minlar bir yo'li takbir aydilar, sevundilar, kofirlarg'a tepundilar, bir nechani o'lturdilar, bir nechani asir qildilar. Qavluhu taolo. *Fa hazamuhum biizni-Ilahi va qatala Davudu Jaluta va aatohu-Ilohul mulka.*

Qamug'lari Dovudg'a rahmat o'qudilar, xil'at berdilar, bizing ulug' dushmanimizni halok qilding, tedilar. Aymishlar, Tolut Dovudg'a hasad qildi. Qabul qilg'an molini bermadi, ammo xalq tilindin qo'rqub qizini berdi. Andin so'ng Dovudni o'lturgali o'g'radi. Qizi aydi: Otam Tolut seni o'lturayin teyu turur. Muni bilayin tesang kecha yoturda bir qop olu kirgil. Ani ko'rsunlar. Yana ko'rmazda chiqq'il. Qopni dushob birla to'ldurg'il, to'nungni aning uza yopg'il. Andog' qildi, kishi ko'rmasda saroydin chiqti. Tolut soqchilar qo'ymish erdi, tunla ko'rmayin kirdilar, qilich birla chopti, to'n kesildi, qop yirtildi, dushoblar (134r) oqti. Tolut aydi: Ey Dovud, Izi azza va jalla rahmati sening uza bo'ldi. Tirik erkan arig' erding, o'lmishda ham arig' yizig'sen. Tun qorong'u erdi, Dovudni o'lturdum teb sanidi, ne qilg'anin bilmadi, ko'ngli tindi. Soqchilarni evlariga izdi, o'zi evinda uyvuqladi. Qachon Dovud Tolutni uyumish ko'rdi ersa qo'pti, iki o'q oldi, Tolut saroying'a keldi. Bir o'q Tolut boshinda qo'ydi, bir o'q ayoqinda qo'ydi. Qachon Tolut uyg'ondi ersa iki o'q ko'rdi. Aydi: Dovud manga ezguluk qildi, uyquda topib o'lturmadi. Dovud ul zamon tog' tepa zohidlarg'a bormish erdi. Bir zohidning savmaasig'a kirdi. Tolut Dovudni izlayu tog'g'a keldi. Dovudni ko'rdungizmu! teyu obidlardin so'rdi. Bu savmaada turur, teb aydilar, Tolut kirdi, kim ersa topmadi, manga kularmusiz, teb qamug' zohidlarni o'lturdi, bir zohid qoldi. Qachon achig'i o'chti ersa, tirik qolg'an zohidg'a aydi: Men tavba qilsam qabul bo'lg'aymu? Obid aydi: Men bilmasman falon y bir urag'ut bor, bani Isroildin, ul mendin olim turur. Yalavochlarni ko'rub turur. Anga boraling, teb ilgari bordilar. Obid qapug' qoqti, urag'ut: Kimsen? tedi. Falon obidmen. Aydi: Ul zolimdin netak qutuldung? Obid aydi: Aqrinroq so'zlagil, Tolut qapug'da turur. Urag'ut aydi: Qo'ldoshlarimni o'lturdi, emdi meni o'lturgali kelibmu turur? Obid aydi: Yo'q, tavba qilg'ali kelib

turur. Urag'ut eshik ochti, ikagu kirdilar. Kecha erdi, tun ichinda Tolut so'rdi: Tunning necha ulushi kechgi? Urag'ut aydi: Tunni uyog'liq birla kechura turg'anlarni ulturdung. Emdim kim bilur? Bu so'zdin Tolutning qayg'usi ko'poldi. Yana aydi: Ishmuil yalavoch tuprog'i boshing'a borg'il, namoz qilg'il, sening tavba qilg'aning uchun kelgay, eshitgaysen, tedi. Ishmuil tuproqing'a borib duo qildi. Un eshitti. Ne ish qilding? teb. Tolut: Yovuz qildim, tedi. Yana un keldi: Dovudni Mavlo azza va jalla mulkindin qovg'an senmussen? Aydi: Bale. Yana un keldi: Ey Tolut, o'g'lonlaring birla qo'rg'ong'a borg'il (134 v) el olding ersa tavbang qabul, agar anda o'ldung ersa ham qabul, tedi. Tolut o'g'lonlaring'a keldi. Aydi: Ey o'g'lonlar, meni yonar o't ichinda ko'rsangiz manga bo'lishqaymusiz yo yo'qmu? Aydilar: Bo'lushqaymiz. Emdim falon qal'ani olurg'a manga bo'lushung, yo'q ersa mangu tamug'da qolurman. O'g'lonlari Tolut birla ul qal'ag'a bordilar, sanchishilar. O'g'lonlari o'ldi, so'ng Tolut o'ldi. Mulk Dovudg'a qoldi.

Aymishlar, bani Isroildin Dovud yalavochga yig'ilmish teg hech malikka yig'ilmadi. Netakkim, Izi azza va jalla yorliqar: Qavluhu taolo. *Va aataynahum mulkan aziman.*

Aymishlar, tekma kecha Dovud yalavoch saroyi eshikida uch ming yalavoch o'g'lonlari soqchi erdilar. Aymishlar, Dovud yalavoch tunla o'zin belgusiz qilib ra'iyatlardin so'rar erdikim, podshohingiz sizing birla netak muomala qilur? Aytur erdilar: Yavloq odil turur. Bir kecha andog' so'zlayurda Mavlo taolo bir farishtani izdi, bir qurtqa surati uza. Andin so'radi: Podshohingiz netak turur? teb. Qurtqa aydi: Yavloq odil turur, onchasi bor kishilar molin yeyur. Dovud duo qildi: Iziyo, manga bir harfe o'gratgil, aning birla qazg'anchimni yeyayin, xalq meni so'zlamasunlar. Mavlo taolo yarig'chiliq sino'atin anga o'gratu berdi. Qavluhu taolo. *Va alaamnahu san'ata labusin lakum.* Aymishlar, temur Dovud ilkinda mo'ntek yumshar erdi, netakkim xamir o'zgalar ilkinda. Qavluhu taolo: Qavluhu taolo. *Va alanaa lahul hadida.* Aymishlar, Dovud yozuq qilg'an osiylarni qar'ar erdi. Haq taolo ul sababdin balo berdi. Sabab ul erdiki, bir kun duo qildi: Iziyo, ne uchun bu xaloyiq seni o'qiyurda Ibrohim Izisi teyurlar, Dovudning Izisi temaslar. Xitob keldi: Ularga balo izdim, balog'a sabr qildilar.

Dovud aydi: Manga ham balo izg'il, sabr qilayin. Meni ham duolarinda o'qisunlar.

Aymishlar, Dovud ofiyat duosi qilsa kerak erdi, balo duosin qildi. Yorlig' keldi: Ey Dovud, ularg'a balo berdim, ammo qayu vaqtda berurimni xabar qilmadim. Ammo sanga balo berurmen, teb xabar qildim. Yana bir rivoyatda, yorlig' keldi: Falon yilda, falon oyda, falon kunda, falon soatda balo yuborgaymen. Dovud ul tarixni bitidi. Qachon ul kun yetti ersa qapug'chilarg'a aydi: Qapug'ni berkitgil, kim ersani kirguzmang, tedi. Taqi (135r) o'zi yetinchi qat evga kirdi, Zaburni o'qiyu boshladi. Iblis bir qush surati uza kirib keldi, boshi yinjudin, ko'zlari qizil yoqut(din), azoqlari yashil zabarjaddin, qanotlari oltundin, Dovud qatinda qo'ndi. Dovud aning ko'rkin ko'rub tongladi, balo kelurin unutdi. Qushni tutayin tedi, qush uchub naru qo'ndi. Tutayin teb bordi, yana uchub naru qo'ndi. Dovudni navmid qilg'utek ketmadi. Dovud so'nguncha bordi. Qush uchub tunglukda qo'ndi. Dovud turg'ali qo'pti. Qush uchib toshg'a chiqti. Dovud ko'zi tashqari tushti ersa bir qiz ko'r'di, yalangbosh, bu ne turur? teb turur erdi. Dovudning ko'lakasi ul qizg'a tushti. Ko'lakani ko'r'di ersa uftandi, boshin irg'adi, sochi birla qamug' andomlarin o'rtdi. Dovud ul sochni, ul ko'r'kni ko'rub ko'ngul oldirdi. Ul qiz Yusuf urug'indin erdi. Bani Isroil ichinda mashhur erdi Bitshoni' otlig', Dovud alayhis-salom ul qizni qo'lduru kishi izdi. Aydilar, Ibn Yamin urug'indin. Uryo otlig' kishini yuborib erdi. Yalavoch so'zin rad qilmas erdilar. Bitshoni' rizo berdi. Aydi: Dovudg'a borurmen ul shart birlakim, tunla qo'nushi menda bo'lsun. Qachon mendin o'g'ul tug'sa polshohlikni anga bersun. Dovud qabul qildi. Aqd qilib Bitshoni'ni oldi. Anga ko'ngul berdi. Balo kelurin bilmadi. Aymishlar, bir kun namoz qildi, mehrobda o'lturur erdiki, ikagu kirib keldilar. Qavluhu taolo: *Iz tasavvarul mihraba.* Dovud ularni ko'rub qo'rqti. Qavluhu taolo. *Iz daxalu ala Davuda fa fazi'a minhum.* Aydilar: Qo'rqmag'il, biz ikagu xasmlarmiz. Sanga keldukkim qilg'aysen.

Savol: Dovud ne uchun qo'rqti?

Javob: Qachon kim ersa Dovudg'a kelur bo'lsa dastur tilab kelur erdi, bu ikagu dastur tilamay kirdilar, qapug'din kirmadilar, mehrob tomindin kirdilar. Aning uchun qo'rqti. Biri Dovuddin

so'rdi, aydi: Bu mening qarindoshim turur, to'qson to'qiz soglig'i bor. Taqi mening bir sog'liqim bor. Bu bir sog'liqni olayin teyu turur, Qavluha taolo: *Inna haza ahii lahu tis'un va tis'una na'jatan va liy na'jatun vahidatun.*

Dovud mahol so'z eshitti ersa sabr qilmadi. Aydi: Muning to'qson to'qiz sog'liqi bor ersa (135 v), sening bir sog'liqingni olayin tesa senga zulm qilur. Birisi qo'ldoshina aydi: Bu er azoqini kirki birla chopa turur. Aymishlar, Dovud so'zinga birisi kuldi. Dovud aydi: Halifa qatinda ne uchun kulasen? Yana biri aydi: Bu davot birla elini tabora urmoq kerak. Biri aydi: Davot birla tabora urmoqg'a sen sazoroqsen. Yana ikagu ko'rinnas bo'ldilar.

Savol: Hikmat ne erdi, farishtalar uragutni sog'liqg'a mengzagtilar? Javob: Qamug' jonlig'larda uyot andomi o'rtuglug qaviy turur. Ani na'ja tedilar. Dovud bildikim, Mavlo taolodin itob bo'ldi. Ul itobda telim sabablar bor. Aymishlar: Ba'zi sabab ul erdikim, Bitshoni'ni Uryo olmish erdi. Dovud Bitshoni'ni olmoq uchun Uryoni cherikka izdi. Ba'zilar mundin ham yaramas so'zlamni Dovudg'a bog'lamishlar, qamug'i xato turur. Tafsirda, taqi Usnat al-avliyoda kelturmishlar, Dovud shari'atinda bir kim ersa bir qizni qo'larmen tesa o'zga kim ersa ul qizni qo'lmoq ravu yo'q erdi. Bitshoni'ni Uryo qo'ldurg'ali kishi izmish erdi. Dovud ani bilmay, kim ersa qo'lmaydur teb qo'ldi. Afzalu amoli anbiyo uza fariza uchun Dovud tafahhus qilmaduqi uchun itob keldi. Savobi javob bu turur. Bu itobni bildi ersa duo va tazarru'g'a mashg'ul bo'ldi Hazratg'a yondi, namozg'a turuqti. Qavluhu taolo. *Va zamma Davudu annama fatannahu fastannahu fastag'fara rabbahu va xarra roki'an va anaba.*

Aymishlar, yozig'a chiqib, qirq tun-kun sajda qildi. Sajda ichinda payg'ambar ul qadar yig'ladikim, sajdagohi ko'zi yoshidin ko'l bo'ldi. O't undi. Dovud bo'yi ul o't ichinda ko'rinnas bo'ldi. Dovud yig'isi birla olam xalqi yig'isin o'lchasa, Dovud yig'isi ortuqroq kelgay. Taqi Dovud yig'isi birla Odam Ato yig'isin o'lchasa, Odam yig'isi ortuqroq kelgay. Izi azza va jalladin Dovud tiladikim, sanga tasbih ayurg'a manga qo'ldosh kerak. Bani Isroildin to'rt yuz arig'er Dovud birla yig'lashtilar. Qavluhu taolo. *Ya jibalu avvibiy ma'ahu.* Uchar qushlarga yorlig' bo'ldi. Ular ham Dovud

birla yig'lashtilar. *Xabarda kelmish*, qachon Dovud tog'g'a chiqsa to'qson to'qquz xotuni birla qamug' mavjudot jonivorlar yig'lashur erdilar. Bir kun boshin toshqa urdi, un eshittikim: (136r) Ey Dovud ne tilayursen? Dovud aydi: *Ilahiy ansit al-xalaiqa sa'atan anniy arfa'u hajatiy.* Iziyo, o'n sakkiz ming olam xalqini tindurg'il, kim ersa sendin hojat tilamasunlar, men qo'layin. Yorlig' keldi: *Ya Davudu ama alimta anna kasratal asvati la yashg'aluni amis sam'i.* Ey Dovud, bilmadimgmu, un ukushlugi meni eshitmagimni tiymas. Dovud aydi: *Balo ya rabbiy ansit al-xalaiqa sa'atan.* Andag'o'q turur, ammo bir soat tiyg'il, qamug'ni tek qilg'il. Vahb ibn Munabbih aytur: Andin burun, so'ng xaloyiqni kim ersa tiymishi yo'q erdi. Ul soatda Dovud un qo'pordi: *Man azabillohi.* Uch yo'li sajdaga bordi, qirq tun-kun bosh ko'tarmadi, hech narsa temadi. Andin so'ng bir farishta inib aydi: Ey Dovud, Izi azza va jalla yorliqar, ochding ersa, osh berayin, susading ersa suv berayin, yalang'och bo'lsang to'n berayin. Dovud ko'rtdi yorlig' keldikim, zillat zikri yo'q. Qazg'ulug' bo'ldi, yana bir oh tedi, og'zindin o't chiqti. Teg'rasindagilar kuydi. Jabroil etildi. Aydi: Ey Dovud, Izi azza va jalla seni yorliqadi. Taqi ulug' qildi, o'rning ujmoh qildi. Qavluhu taolo. *Fa g'afarua lahu zalika va inna lahu indana lazulfa va husna ma'ab.*

O'ch tun-kun ibodatda ura turdi. Yorlig' keldi: Ey, Dovud, ne tilayursen? Aydi: Ilohiy, meni yorliqading. Qiyomat kuni Uryo xasm bo'lsa ne qilayin? Farmon bo'ldi, ul tun-kun Uryog'a seni topshurg'aymen. Yana andin qo'lg'aymen, sanga bag'ishlag'aymen. Ani sendin xushnud qilg'ayman. Dovud aydi: Endi ko'nglum tindi. Xalq aro kirib hukm qila boshladi. Xabarda andag' kelur, kunlarda bir kun ikagu Dovudg'a keldilar, biri aydi: Bu kishining qo'ylari kecha kelib mening oshliqimni yeb turur. Dovud aydi: Sen borg'il aning qo'ylarin olg'il. Ul iki kishi biri shod, biri g'amgin bo'lub chiqtilar. Sulaymon tash qapug'da bulami qazg'ulug' ko'rub so'rdi. Dovud hukmin ayta berdilar. Sulaymon aydi: Borib otamg'a aying, bu hukm yarog'siz turur. Kelib aydilar ersa, Dovud Sulaymon(ni) indadi. Bu hukm ichinda ne teyursan, tedi. Sulaymon aydi: Oshliqni qo'y iyasinga bering, timor qilsa oshliq yetilgay, qo'yni oshliq iyasinga bering, oshliq yetilguncha sutin ichsun. Oshliq

yetilgandim so'ng oshliq iyasi oshliqin olg'ay, qo'y iyasi (136) qo'yin olg'ay. Dovudg'a bu hukm xush keldi. Xasmlar ham rizo berdilar. Qavluhu taolo. *Va Davuda va Sulaymana iz yahkumani fil-harsi iz nafashat fih g'anamul-qavmi va kumnaa li hukmihim shahidina fa fahhannaha Sulaymana.*

Hikoyatda kelmish, Dovudning o'n iki o'g'li bor erdi, qamug'i olim, faqih, oqil. Bularidin mening o'riming'a o'lturug'a qayusi yarog'liq erkan, teb fikr qilur erdi. Oxir umri bo'ldi ersa, Jabroil bir muhrlilik xat kelturdi, aydi: Ey Dovud, qayu o'g'lung bu xatni ochmayin o'qusa o'rmungda ani o'lturt. Dovud o'g'lonlarig'a berdi, o'qiyu bilimadilar. Jabroil aydi: O'zga o'g'lung bormu? Dovud aydi, yana bir o'g'lum bor. Kichik turur. Jabroil: Kelturgil, tedi. Sulaymonni undab, xat qo'lung'a berdi ersa ochmayin o'qidi. Ochib boqtilar ersa Sulaymon o'qug'andin bir so'z ortuq, eksuk kelmadi. Qachon Dovud ani ko'rdi ersa olimlarni, qarlamni undatdi: Sulaymonni sinang, teb. Kelib sinadilar, aydilar: Base olim va fozil va komil topduq. Andin so'ng Dovud Sulaymonni o'z o'rmunda o'lturdi.

Xabarda kelmish, bir kun Dovud alayhis-salom Zaburni o'qiyurda urag'utlar unin eshitti. Yukluk urag'utlar qamug'i o'g'lon tushurdilar, yuz qiz qizliqin yitirdi. Aymishlar, Odamdin Dovudg'a tegi kim ersa yariq qilmishi yo'q erdi, bu sinoat Dovuddin meros qoldi.

Hikoyat. Bir kun Luqmoni hakim Dovud yalavochnig'a keldi ko'rdi temurni xamirtek ishlayur. Tonglab turdi, so'rmadi. Dovud yariqni tamom ishladi ersa ura qo'pub kiydi, sanchishg'a yarog'liq bormu? tedi. Luqmon bildikim, sanchish to'ni turur. Aydi: *As-sumtu hikmatun va qallilun fa'iluhu.* So'rmayin tek turmoq hikmat turur, ammo ishlatgan oz turur. Qachon Dovud umri oxir bo'ldi ersa, palosi to'n kiyib, mehrobda yalangbosh o'lturub yig'layur erdi.

Aymishlar, bir kun Azroil Dovud saroying'a keldi, odam suraticha. Dovud evda yo'q erdi. Azroilg'a Sulaymonning onasi Bitshoni' aydi: Sen ketgil. Azroil aydi: Men sanga so'zlag'ali keldim. Bitshoni' aydi: Meni Dovud yalavochnig'ali yot kishi ko'rmishim yo'q, yot kishi meni ko'rmishi yo'q, Dovud kelmasdin burun ketgil. Azroil kulumsindi. Dovud ustiga kirdi. Azroilg'a boqti, tanidi. Ne ishga kelding? tedi. Azroil aydi: Seni joningni olib ujmohg'a eltgali keldim. Dovud birla Azroil so'zlashganlarin

Bitshoni' eshitur erdi. Azroil erkanin bilmadi. Dovud o'ring'a kelib sog' qo'lin uza yotdi. Azroil jonin oldi, o'lmasdin burun mulku mamlakatni Sulaymong'a topshurmish erdi.

SULAYMON IBN DOVUD ALAYHIS-SALOM QISSASI

Ul va hab liy mulkan la yanbag'i li ahadin min ba'diy, teyu Izidin mulk tilagan, haza atounaa fannun av amsik big'ayri hisab, javobin eshitgan ul, g'uduvvuha shahrin va ravahuha shahrin sifatlig' markab berilgan, ul fa fahhannaha Sulaymana va kullan aataynaa hukman va ilman karomatin bulg'an Sulaymon yalavochn alayhis-salom.

She'r:

*Dovud o'g'li ul Sulaymon Tengrimizning sovchisi,
El ulog'lig' shoh ediyu ham uchar qush elchisi,
Odamiy, uchqan, yugurgan, dev, pari ham yel, bulut,
Og'ulug' bo'sun ozig'lig' barcha aning ishchisi.
To'zi to'rt yuz qangli erdi kunda qushluq oshig'a,
Yorg'usinda kur arslon, bo'ri, qoplan qo'ychisi.
Tupuchoq otning urug'i qoldi andin dunyoda,
Tilda hujjat, tanda xidmat, qo'lda mulkat qamchisi.
O'zi ni'mal abd atandi ham yalavochn, ham malik,
Yo'ldin ozg'antarg'a erdi o'zi ujmoh yo'ichisi.*

Sulaymon Dovud podshohliqini meros oldi. Xabarda andog' kelur, Dovud yalavochn duo qildi: Iziyo, mening haqqimda ko'p lutf-u karam qilding, o'g'lum Sulaymon(g'a) ham andag' o'q karam qilg'il. Xitob keldi: Ey Dovud, Sulaymong'a ayg'il, mening hazratimda andog' tirilsunkim, sen tirilding. Men taqi sanga qilg'an lutfu karamni anga qilayin. Mavlo taolo ukush narsalarni anga ulug' mulk berdi. Avval mulk ul erdikim, Sulaymonning podshohliqi ichinda yaxshidin,

yomondin xabar bergan uchar qushlar erdi. Aymishlar, yetmish tun uyug' turdi, duo qilidi, yolbordi: Iziyo, meni yorliqag'il. Manga mulke bergilkim, mendin o'zga kim ersaga bermish bo'lmag'aysen. Qamug'ni bag'ishlag'an sensen. Qavluhu taolo. *Rabbig'fir'iy va hab'iy mulkan la yanbag'i lihadin min ba'diy innaka antal vahhab.*

Yorlig' keldi: *Ya Sulaymanu inniy qabizu arvahil-muluki hatta la yanbag'i malikun g'ayruka fid-dunya.* Yorliqadi: Qamug' maliklarning jonin olg'anmen, dunyo ichinda sendin o'zga malik bo'lmag'ay. Mavlo taolo ul va'daga vafo qildi. Qamug' maliklarni ko'tardi. Sulaymon yolg'uz qamug' olamg'a malik bo'ldi. Yetmish tun yana uyug' turdi. Aydi: Ilohiy, taqi orturg'il. Yorlig' keldi: Parilarni sening farmoningda qildim. Tonglasi parilarning ulug'larin yig'durdi. Viloyatlarni ularg'a topshurdi. Tekmasini bir ishga nasb qildi. Yana yetmish tun uyug' turdi. Mavlo taolo devlarni Sulaymon tasarrufig'a kiyurdi, viloyatlarni ularg'a qismat qildi. Yana yetmish tun uyug' turdi, aydi: Ilohiy, ortuqroq kerak. Mavlo taolo ani uchar qushlarga'a, yugurur kiyiklarga erklik qildi. Yana yetmish tun uyug' turdi. Mavlo taolo yelni, taqi suvni musaxxar qildi. Yer-ko'k orasinda ne kim yaratmish ersa, qamug'ini musaxxar qildi. Qamug'ni bo'yunsundilar. Aymishlar, qachon Sulaymon tog'din kechar bo'lsa, ul tog'dag'i oltun, kumush nekim bor ersa barchasi tilga kelur erdi: Men mundamen, kerak bo'lsa olg'il, teb. Tengiz ham andog' der erdi. Kerak bo'lg'an devlarga tog'da savmaa qazdurur erdi. Parilarga, odamiylarg'a imorat qildirur erdi. Ka'b ul-Axbor raziyallohu anhu ayur: O'n iki ming yig'och yerni maydon qildurdi, bir taxt qildi qizil oltundin, to'rt yuz yig'och yer aning uza to'rt yuz olim o'lturur erdi. Qachon kelib hukm uchun kursi uza o'ltursa, Osaf kelib o'ngida o'lturur erdi. To'rt ming odamiylardin ilayinda, to'rt ming devlardin, to'rt ming farishtalardin qanot ko'laka qilib tururlar erdi. Bu tartib uza Sulaymon ulan namozin qilg'uncha hukm qilur erdi. Andin so'ng eviga borur erdi. Tong otg'uncha toat qilur erdi. Andin so'ng ertasi xalqg'a taom berur erdi.

Xabarda kelmish, qushluq oshig'a to'rt yuz qangli, yana aymishlar yeti yuz qangli un xarj bo'lur erdi. Taqi aymishlar, tol yig'ochlar yig'ib, sabat to'qub, kilim kiyib, sabat sotar erdi. Yarim bahosin sadaqa qilur erdi, yarim bahosig'a arpa etmakni olib

yezur erdi taqi ayur erdi: Bu mulk Tengrining turur, xaloyiqg'a beraturmen, ammo men o'z qazg'anchimni yeyurman. To'rt yuz tilsim qildurdi, yeti yuz (138r) tog'ni o'rindin qo'murub o'zga erda o'rnatilar. Vahb ayur: Ul maydon to'rt yig'och ichinda, to'rt yig'ochliq yer erdi. Taxt bir yig'och yer ichinda erdi. Ul taxtini oltun, kumush birla qilmish erdi. Odamiylar, devlar topug'inda tururlar erdi. Tekma turluk qushlardin saf tutub bu taxt andozasincha ko'laka qilur erdilar. El kelib ul taxtni muncha xaloyiq birla ko'turub eltur erdi. Kunda bir oyliq yerga eltib yana kelturur erdi. Qavluhu taolo. *G'uduvvuha shahrin va ravahuha shahrin.*

Aymishlar, bu iki oyliq yemi yel uza yuruganlarin bilmas erdilar. Qavluhu taolo. *Fa saxxarnaa lahur-riha tajri biamrihi ruxoan haysu asab.* Ruxo arab tilincha yumshoq yel bo'lur. Yana yorliqar: Qavluhu taolo. *Va asalnaa lahu aynal-qitri.* Ma'nisi ul bo'lur: Biz Sulaymon uchun qitri yelini esturduk. Qitirma nisinda ulamo qavllaraymishlar. Bir qavl ul turur, Sulaymondin burun qitri yo'q erdi. Aymishlar, mo' miyo turur, Fors viloyatining tog'larinda bo'lur, xaloyiqning qamug' zahmatlari, yirtuklari, sinuqlari aning birla o'ngalur. Aymishlar, qitri oqar baqir bo'lur, qitri qaynayur baqir bo'lur, hisorlar tomlarin aning birla suvartlar. Ul tom yiqilmas bo'lur, netakkim, Zulqamayn vaqtinda bilgurdi. Qavluhu taolo. *Aatuniy ufrig' alayhi qitran.* Taqi aymishlar, ba'zi parilarni bir ishga nasb qilib erdi, farroshliq, kannoshliq, tabboxliq, ba'zi naqqosh erdi. Aymishlar, devlar dunyoda yeti narsa tasnif qildi. Sulaymon payg'ambar vaqtinda, andin burun yo'q erdi. Hammom, suv tegirmoni, ohak, naqqoshliq, surat qilmoq, toshni bu tog'din ul tog'g'a eltmaq. Ba'zilar kuchluk qaviy erdilar, Sulaymonga bo'yunsunmas erdilar. Ularni tog'da zanjir birla saqlar erdi. Qachon malik Sulaymong'a musallam bo'ldi ersa Mavlo taolo ilm va hikmat birla yalavochliq, qamug'in Sulaymong'a ocha berdi. Kalbiy rivoyat qilur, qachon Sulaymong'a podshohliq muqarrar bo'ldi ersa duo qildi: Iziyo, qamug' xaloyiqni bir kun qo'nuqlag'ayin teyu saqinchim bor. Yorlig' keldi: Mening xalqimni mandin o'zga kim qo'nuqlay olur? Sulaymon aydi: Manga ukush (138v) ne'mat berding, dastur bergil. Mavlo taolo vahiy qildi: qamug' uchqan, yugurganlarga falon kun Sulaymon qo'nuqluqung'a hozir bo'lung. Sulaymon qamug' odamiy va devlarga xabar qildi, falon kun yig'iling teb. Andin so'ng bir ulug' tengiz qirog'inda sekkiz oyliq keng saхро bor erdi, ul yerda da'vat

qildi, dev, pari qamug' tanlig'larg'a buyurdi. Mag'ribdin mashriqg'a tegi yeguluk narsa jam' qildilar. Bir yig'och yer ichinda yig'dilar. Devlarga buyurdi, qozonlar qildilar, tekma bir qozonning adizligi yetmish qari, yeti yuz ming mundog' qozon kelturdilar, ichi qirq qari. Ichinda qirq chanoq qildilar. Qavluhu taolo. *Va jifanin kal-javabi va qudurin rosiyatin*. Ul sekiz oylik yerni osh birla to'ldurdilar.

Sulaymon taxtini ul tengiz qirog'inda qo'ydilar, bir kursi urdilar. Sulaymon ul taxt uza o'lturdi. Ul tengizga boqar erdi. Tengizdin bir baliq bosh ko'tardi. Aydi Sulaymonga: Bizga yorlig' bo'ldi, sening ko'nuqluqing'a kelduk. Xaloyiq yig'ilguncha mening sabrim yo'q, manga taom bergil. Sulaymon tepassum qildi, Aydi: Ey baliq, muncha taomlarni xalq uchun yig'ib tururmen, necha kerak ersa egil, tedi. Baliq bosh ko'tarib ul taomlarning jumlasin bir suqum qildi, taqi aydi: Ey Sulaymonu, ati'mni, ya'ni manga taom bergil. Sulaymon mutahhayir qoldi. Aydi: Bu taomlarni mag'ribdin, mashriqdin yig'dirmish erdim xaloyiq uchun, sen qamug'ini bir suqum qilding, o'zga taom yo'q, tedi. Baliq aydi: Zayya'aka-llohu kama zayya'taniy. Mavlo taolo manga har kunda qirq suqum osh berur erdi. Har bir suqumi barcha oshingcha erdi. Bu kun men och qoldim. Osh yo'q ermish, naluk xalqni qo'nuqlading? Sulaymon behush bo'ldi, hushiga keldi ersa aydi: Xudoyo, tavba qildim, ro'zi berguchi sensen, biz chigoyimiz.

Aymishlar, ul kun qamug' tanlig'lar och qoldilar. Aymishlar, ul baliq yerni ko'targan baliq erdi. Mavlo taolo ul holda yerni baliq orqasindin ko'tarib o'z qudrati birla saqladi. Ani Sulaymong'a izdi. Qamug' xaloyiq Mavlo taolo qudratin bilsunlar, o'z ojizliqlarin anglasunlar, ibrat olsunlar teb. Aymishlar, ul baliq ermas erdi. Mavlo taolo o'z qudratin ko'rguzdi, Sulaymon pand olsun teb.

SULAYMON QARINCHQA BILAN SO'ZLASHGANI

Qavluhu taolo. *Iza ataa ala vadin namli qolat namlatun ya ayyuhan namlu udxulu masakinakum la yahtimannakum Sulaymanu va junuduhu va hum la yash'urun*. (139r) Sulaymon bir kun taxt uza o'lturur erdi, yel taxtini ko'tardi. Cheriki taxt ostinda yurur

erdilar, bir ulug' qo'lg'a tegdilar. Ul qo'l ichi to'lug' qarinchqa erdi. Ul qarinchqalarning ulug'i ohsoq erdi, Mindir otlig', un qildi: Ey qarinchqalar, qoching, evlaringizga kiring. Sulaymon cheriki sizlarni bosib halok qilmasun. Sulaymon ul so'zni eshitti, kulimsib aydi: Iziyo, manga tavfiq bergan taqi otamg'a bergan ne'mat uza shukr qilayin. Taqi tavfiq bergil. Sen xushnud bo'lg'ungtek ezgu ishlar qilayin. *Fa tepaasma zohikan min qavliha va qola rabbi avzi'niy an ashkura ni'matakal lati an'anta alayya va ala volidayya va an'a'mala solihan tarzohu*. Sulaymon taxtdin indii, qarinchqani undadi. Aydi: Ey qarinchqa, qarinchqalarni neluk qochurding? Qarinchqa aydi: Sen maliksen, men ham malikmen. Mavlo taolo manga qirq tepaq, yer, mulk berdi. Tekma tepaq yerda sarhanglarim bor. Tekma bir sarhang birla qirq ming qarinchqa cherik bor. Mavlo taolo yorlig'i bo'lsa yer yuzinda bir dushmani qo'ymag'aymen. Sulaymon aydi: Andog' cherikingni naluk qochirding? Aydi: Sening cheriking kecharda bilmayin bosqaylar, ular halok bo'lg'aylar deb qochurdum. Sulaymon aydi: Sen neluk qochmading? Aydi: Men bularning ulug'imen, ulug' ra'iyatlarg'a mushfiq kerak. Balo kelmishda o'zini balog'a qarshu tutg'u kerak. Sulaymon aydi: Bu bilikni qandin o'granding? Qarinchqa aydi: Qamug' olarning biligi mendamu turur teyursan? Aydi: Izi azza va jalla bilikni biraguga bermadi. Emdi dastur bersang necha mas'ala savol qilayin. Sulaymon aydi: Qilg'il. Qarinchqa aydi: Mavlodin ne tilading? Sulaymon aydi: Andog' mulk tiladimkim, mandin o'zga kim ersada bo'imasun. Qarinchqa aydi: Bu so'zdin hasad isi kelur, manga bo'lgun, o'zgalarga bo'imasun. Taqi ne tilading? Sulaymon aydi: Yelni tiladimkim manga musaxxar qildi, minib yururmen, Isthardin Shomg'a, Shomdin Istharg'a bir oylik yer turur, kunda borurman ham kelurmen. Qarinchqa aydi: Ma'nisi ul bo'lur: Sening ilkingdagi mulkning qamug'i yel turur. Ani minguncha ma'rifat markabini mingsang sanga yaxshiroq bo'lur. Ko'z yumub ochg'uncha bir soatda Arshg'a tekkey erding. Yana ne tilading? Aydi: Yag'an so'ngukindin taxt berdi. Qarinchqa aydi: Mavlo taolo yorliqar: Qavluhu taolo. *Val arza farashvaha fa ni'mal mahidun*. Bu keng yer kifoyat bo'lmadimu? (139v) Yana so'rdi: Taqi ne berdi? Aydi: Uchar qushlarga hukm qildi.

Boshim uza ko'laka qilurlar. Qarinchqa aydi: Adiz ko'k ko'lakasi sanga bas ermasmu erdi! Taqi ne berdi? Aydi: Bir yuzuk berdi, qamug' maxluqot aning birla musaxxar tururlar. Qarinchqa aydi: Mavlo taolo sanga ko'rigizmishkim, yerdin ko'kka tegi, mag'ribdin mashriqg'a tegi sanga berdim. Aning bahosi bir kesak tosh turur, xaloyiq bilsunlarkim aning qiymati yo'q. Mulk-ujmoh mulki turur, kim ersa aning qiymatini bilmas. Qarinchqa aydi: Taqi ne berdi? Aydi: Dev, parini manga musaxxar qildi. Qarinchqa aydi: Bu sahl mulk turur. Sabr qilsang erdi farishtalarni sanga musaxxar qilur erdi. Netakkim oxir uz-zamonda Muhammad otlig' payg'ambar bo'lg'ay Mavlo taolodin hech narsa qo'lmag'ay. Qamug' farishtalar anga musaxxar kelgaylar. Sulaymon aydi: Bu bilikni kimdin o'granding? Aydi: Allamaniy rabbiy, ya'ni Izim o'gratti.

Akuz malik birla so'zlari

Bir kun Sulaymon o'tlanib borurda Kovon otlig' adog'g'a tegdi. Yilqi ko'r'di, o'tlayur. Sulaymonni ko'rdilar ersa uchub havog'a og'dilar. Sulaymon ani ko'rub hayrat qildi. Hech kim ersa ko'rmishi yo'q. Sulaymonning ul otlarg'a rag'bati bo'ldi. Evinga keldi, Kovish otlig' dev bor erdi, anga aydi: Qanotlig' ming ot ko'rdum, Qovon otlig' adog'da yururlar. Ani manga keltura bergil. Kovish aydi: Men ul ishni qilu bilmashmen, ammo kim ersaga yo'lichilag'ayin, ul borib kelturgay. Sulaymon aydi: Ul kim turur? Aydi: Ul adog'da Samdun otlig' bir dev bor. Ul ishni ul biturgay. Sulaymon aydi: Men ham Samdunni tilab topmasman. Bu Samdun bir dev erdi yavloq kuchluk, haybatlik, Sulaymong'a bo'yunsunmas erdi. Qachon ani tutg'ali kishi izsa qochib bulutg'a og'ar erdi. Bulutg'a og'salar, qochib tengizga kirar erdi. Ne hiyla qilg'aysiz? Kovish aydi: Ul kim ersaning so'ziga inonmas, yalg'uz maning so'zunga inonur. Manga yuz dev bergil. Ular bir yerda busub o'ttursunlar, men anga yolg'uz borayin. San o'zingni xasta qilib yotg'il. Bir necha kundin so'ng Sulaymon o'ldi tesunlar, xaloyiq orasinda yozilsun, xabar bizga kelgay. Samdun bizga kelib (140r) so'rsa men ham andag'-o'q o'ldi teb aytu berayin. Andin so'ng ani al birla bu devlar busub turg'an yerga kelturayin. Sulaymon

yuz devni Kovishg'a berdi, o'zi xasta bo'lg'an bo'lub yotdi. Necha kundin so'ng Sulaymon o'ldi deb chov bo'ldi. Kovish Samdunga keldi. Samdun: Bu ne xabar turur? teb so'rdi. Kovish aydi: Sulaymondin qutulduq. Samdun sevundi. Kovish: Sulaymon o'ldi ersa qamug' devlar, parilar qutuldilar, saroylar qapug'i qurug' qoldi. Borib bir tomosha qilaling, teb bu tiltog' birlan Samdunni busug' yerga kelturdi. Yuz dev busug'idin chiqa kelib Samdunni tutdilar, Sulaymong'a kelturdilar. Sulaymon aydi: Emdi o'zungni netak ko'rarsen? Samdun aydi: Sen Tengri yalavochoi erkliksen, qinyasang qing'a loyiqmen, yorliqasang karimsen. Sulaymon, aydi: Sendin kechurdim bu shart birla, shart ul tururkim, Kovon otlig' adog'da ming qanotlig' ot ko'rdum, uchub havog'a og'dilar. Ul-arni tutub manga kelturgil. Samdun aydi: Manga ming dev bergil, taqi ming botmon yung taqi ming ko'za suvg'a mengzar chog'ir bergil, alarni tutub kelturayin. Sulaymon aydi: Devlarni netarsen? Aydi: Devlarga buyururmen ul atog'ning suvin chiqarurlar, qo'y yungin buloqlarning tuluklariga suqarlar, berkiturlar. Ul chog'irlar ul qo'llarga qo'ydururmen. Otlar suv ichmak kelsalar nochor suv o'rnig'a chogirni ichib usurgaylar, ucha bilmagaylar, tekma bir devga bir ot tutub bergayman, sanga kelturgaylar. Sulaymon ming dev, ming botmon yung, ming ko'za chog'ir berdi. Samdun borib ul suvlarni chiqartdi, buloqlar tulukin tiqdurdi, ko'llarni chog'ir birla to'ldurdi, o'zi ming dev birla busub turdi. Ul otlar suv ichgali keldilar, chog'ir isin topib ichmadilar, yondilar. O'zga suv topmadilar ersa, qayra kelib chog'irni ichtilar, isrib ucha bilmadilar. Samdun ul ming dev birla kelib qamug'in tuttilar, Sulaymong'a kelturdilar. Ulan namozi vaqti erdi, Sulaymon namoz qilib o'lturmish erdi. Osaf ibn Barxayoni undadi, otlarni manga ko'rguzgil, teb. Qavlug'u taolo. *Iz uriza alayhi bil-ashiyi as-sofnatul jiyadu.* Yorliqar. Arza qildi: Sulaymong'a kechalik o'gurd, uch azoqi birla turub to'rtunchi azoqining to'puqi uza turg'an ezgu otlar to'quz yuz ot, qolg'an yuz otni arza qilur holda kun hijobg'a kirdi. Kun botdi, ekindi namozi favt bo'ldi (140v). Sulaymon haybatlik erdi, namoz favt bo'ldi, temadilar. Aymishlar, kun botqali yovushti, mustahab vaqti qolmadi. Aymishlar, namoz qazo bo'lmadi, ammo o'qiyur virdi bor erdi, ul favt bo'ldi. Sulaymon ani bildi ersa, aydi: Men

bu otlar sevukluki birla mashg'ul bo'lub Izi azza va jalla zikrin qo'yumshmen. Qavluhu taolo. *Inniy ahbabtu hubbal xayri an zikri rabbiy hatta tavorat bilhijab*. Ul namoznu qazo qildi. Yana virdini o'qudi. Andin so'ng aydi: Ul otlarni manga yondura bering! Yondura berdilar. Bularning yo'lidan mening namozim kechikti, teb to'quz yuz otning azoqlarin, bo'yunlarin qilich birla chopti. Qavluhu taolo. *Rudduha alayya fa tafiqqa mashan bis-suqi val a'naq*. Ma'nisi ul bo'lur: Sulaymon ilki birla otlarning azoqlarin, bo'yunlarin siyub uzlat uchun vaqf qildi.

Aymishlar, qachon ekindi namozi qazo bo'ldi ersa, duo va tazarru'g'a mashg'ul bo'ldi. Botqan kunni yondura bering, teb farishtalardin qo'ldi. Qavlug'u taolo. *Rudduha alayya*. Kun yondi, ekindi namozi vaqtinda to'ruqti, ekindi namozin vaqt birla o'tadi. Aymishlar, ul ming otni to'quz yuz teb Sulaymong'a arza qilimish erdilar. Ul otlar qolmadi, qolg'an yuz otni Osaf ibn Barxayo ibn Samdumkim, Sulaymonning xos vaziri erdi, ham xolasi o'g'li erdi, kizlamish erdi, ul otlar qoldi, bu kun dunyoda tubuchoq otlar andin yoyildi. Aymishlar, qachon Mustafo alayhis-salom Sulaymon uchun kun yong'anin eshiti ersa g'ayratlandi, mening uchun taqi ummatlarim uchun kun yonsa namozlarimiz qazo bo'lmasa ne bo'lg'ay erdi, teb saqindi. Yorlig' keldi: Ey mening habibim Muhammad, bu ne karomat bo'lur? Sulaymon uchun kun yonsa, namozin vaqtinda o'tasa, sening karomating uchun ummating qazo namoz o'tamakin qiyomatg'a tegi mashru' qildim. Bir kunda yuz raka't namozning qazosini o'tasalar, vaqtinda o'tamishtek qabul qilg'ayman.

SULAYMON KURSISINING SIFATI

Bir kun Sulaymon qamug' odamiylar, dev, parilarni jam' qildi. Aydi: Mundog' sifatlig' kursi kerak. Kim mundog' kursi qila bilgay? Saxr otlig' pari bor erdi, ifritlardin. Ul: Qilayin, asbobin bergil, tedi. Sulaymon aydi: Ne kerak? Ifrit oltun, kumush, javohir tiladi. Sulaymon berdi. Bir kursi qildi, to'rt oyoqlig', bir burjinda

qizil oltundin to'rt arslon qildi, **(141r)** tilsim birla o'vrulur erdilar, og'izlarindin o't chiqar erdi. Qachon Sulaymon ul ko'shkka og'ar bo'lsa yipor, anbar sochar erdilar. O'zga kim ersa og'ar bo'lsa og'izlarindin o'tlar sochar erdilar. Ikinchi burjinda arslon qildi, ulug' sifatlig', uchunchi burjinda iki karkas qildi, ko'zlari yoqutdin, qanotlari yinjudin. Qachon Sulaymon ko'shkka og'ar bo'lsa karkaslar qanotlar yozib gulob sochar erdilar, bir-biringa ulashur erdilar, parda mengizlik, kim ersaning ko'zi Sulaymong'a tushmaz erdi. Kursi ustinda iki tovus oltun, kumush, gavharlar birla murassa erdi, Sulaymon kursiga og'ir bo'lsa og'izlarin ochar erdilar, yipor, anbari Isroil olimlari uza sochar erdilar. Aymishlar, Sulaymonning o'n qo'linda yetmish oltun kursi erdi, so'l qo'linda ham andag'-o'q. Olimlar, qozilar o'lturur erdilar. Kursi uza oltundin bir to'shak erdi, tegirmon mengizlik o'vrulur erdi. Ul tovuslar ham birga o'vrulur erdilar. Osaf ibn Barxayo ul o'runda o'lturur erdi. Andin so'ng hukm qilur erdi. Aymishlar, ul kursi o'n uch yil Sulaymon birla erdi. Qachon Sulaymon dunyodindin borg'u vaqt bo'ldi ersa, ul kursini Bayt ul-Muqaddasga eltib bir tosh tubinda kizladilar. Baxt un-nasr kelib Bayt ul-Muqaddasni olmishda ul kursini chiqardi. Ko'rub tongladi, minayin, tedi. Urdilar, bir azoqi sindikim azoq qo'yg'u yerni bilmasa andog' bo'lur erdi, ammo Sulaymon bilur erdi. Buxt un-nasrning achchig'i kelib kursini pora-pora qildurdi, tengizga soldurdi. Sulaymonning qushluq oshig'a iki ming qo'y, to'rt yuz uy borur erdi.

Aymishlar, to'rt yuz qo'y kirar qozoni bor erdi. Rivoyatda kelur, Sulaymon Samdun otlig' devga aydi: Ajoyib ko'rganlaringdin aytg'il. Samdun aydi: yo Rasululloh, sandin qochib yururda bir adog'g'a tegdim. Qirq yig'och yer erdi kengligi yig'ochlar to'lug', o'zimni odam suratig'a qildim, anga kirdim. Bir yer ko'rdim, so'rdu: Bu adog'ning erkligi kim turur? Aydi: Akuz malik turur. Uchdim, ul tog' ustig'a og'dim, o'rtasinda bir shahar ko'rdim, eni, uzuni o'n iki yig'och yer erdi. Ul shaharning barcha tomlari toshdin, adizligi seksan qari, eni yigirmi qari, har burji o'n iki qari, tekma bir burjda bir xo'rus, tovuq. Ul shahar o'rtasinda bir minora ko'rdum, ruxom toshidin. Yuz qari uzuni, o'tuz qari eni. Ul minora tebasinda kumushdin **(141v)** bir kursi, ul kursi uza baqirdin bir

xo'rus, tumshuqi, qanitlari, ko'zlari qizil yoqutdin. Bu xo'rusning sog' yonida bir erkak arslon baqirdin, yana o'zumni odam suratig'a qilib biragudin so'rdum. Bu shaharning oti ne turur? Aydi: Oti Sundurna. Yana so'rdum: Bu xalq kimga topinurlar? Aydi: Bu minora ustundagi xo'rusg'a. Qachon kun tug'sa bu xo'rus chaqirur, aning uning eshitib iki ming xo'rus chorlar, anda bu xaloyiq anga sajda qilurlar. Tekma kunda iki yo'li bu so'zni eshittim ersa uchung xo'rusning, arslonning qotida qo'ndum. Yeti ming yeti yuz joduluqlar ko'rdum, ulardin o'n beshni o'grandim, sening ilkingga tushmasam qamug'ni o'granur erdim. Kim ersa ul xo'rusdin dastursiz kechar bo'lsa ul arslon tepunur. Qilich birla chopib o'ltururlar. Tilsim birla joduliy birla kechdim. Malik saroying'a bordim. Ulug' ko'shk ko'rdum, kengligi to'rt yig'och. Aning podshohliqi, aning cherikitek cherik ko'rmadim. Oltun taxt uza o'lturur, boshi tor, yuzi chig'it, burni keng, ko'zi qora o'nginda bir qiz o'lturur. Odamiyda, paryida andog' ko'rkuk ko'rmishim yo'q. Yana o'zumni odam suratig'a qilib biragudin so'rdum: Bu malikning oti ne turur? Aydi: Akuz malik. Aydim: Bu qiz ne turur? Aydi: Malikning qizi turur Kuna otlig'. So'rdim: Bu tekma bir xo'rus olninda ne tablu alamlar bor? Aydi: Qachon malikka bir ish tushsa ul xo'ruslar chaqirur. Kim ersa qoqmayin ul tabllar un qilur. Tekma bir xo'rus o'nginda o'n iki ming er yig'ulur. Yana so'rdum: Bu malikning bu atog'din tash mulki, cheriki bormu? Aydi: Yana qirq atog'g'a malik turur. Samdun aydi: Yo Rasululloh, Mavlo taolo manga iki ming yuz yigirma yil umr berdi. Iki ming yuz bu jahonni kezdim, andog' ajoyiblar ko'rmadim. Sulaymon aydi: Ey Samdun, bu so'zuing rostmu turur? Samdun aydi: Yo Rasululloh, *laysal-xabaru kal-mu'ayana*. Eshitmak ko'rmak birla teng ermas. Agar tilasang barg'il, ko'rgil. Sulaymon farmonladi. To'rt yig'ochliq bisoti erdi, ko'tardi, o'n ming oltun kursi sog'inda, (142r) o'n ming kumush kursi so'linda, o'nginda, so'nginda o'zga parilar, sarhanglar, yuz ming odamiy o'nginda, yuz ming pari so'linda. Osaf ibn Barxayo o'n iki er birla sog'inda. Mirbat ibn Saxro o'n iki er birla so'linda. Bug'ot ibn Zubi'a ibn Iblis ortinda. Sulaymon so'rdikim, necha oyliq yer turur? Samdun aydi: Yetti oyliq yer turur. Yelga Sulaymon aydi: Bizni iza etkurgil:

Yel uch yarim kunda yetkurdi. Qavlahu taolo *Va li Sulaymanar-ri-ha guduuvuha shahrin va ravahuha shahrin*. Sulaymon Osafg'a aydi: Cherikni tuzgil! Osaf sog' qo'linda yuz ming dev birla Bug'ot Zubi'ani qo'ydi, so'linda Mirbat ibn Saxro birla yuz ming devni qo'ydi, odamiy cheriki birla Osaf o'rtasinda turdi. Akuz Malik ibn Moring'a xabar bo'ldi. Cherik tortib urushtilar. Sulaymon cheriki sindi, Samdun keldi, madad qo'ldi. Sulaymon yuz ming arslon, yuz ming bars, yuz ming qoplon, yuz ming bo'ri, yuz ming shag'ol ko'mak izdi. Bir nechadan so'ng Samdun yetib keldi, yo Rasululloh, madad kerak teb tekma turluk qushlardin izdi. Aydi: Siz borib qanot birla ko'zlarin tutung, tumshuq birla etlarin uzung. Andog' qildilar, yenga bilmadilar. Andin so'ng yelga buyurdi. Kelib yuz-ko'zlariga tuproq sovurdilar, taqi dev, parilar to'qush qildilar. Akuz cheriki sindi, Sulaymon o'z qamchisin Osafg'a berdi. Qamchi bo'yug' kim ersani tirik qo'ymadi. Akuz o'zi otlab chiqti. Bir arslon o'tru borib bir yangoqladi ersa bo'yni sindi, o'ldi. Boshin kesib Sulaymong'a kelturdilar, yig'ochdin osdilar. Osaf ibn Barxayo Sundurna shahriga kirdi, ul burjlarni buzdi.

Ul xo'ruslar, ul arslon, ul tilsimlarni qamug'in o'tg'a kuydurdi, ul mollarni, yilqi qoralar birla Sulaymong'a kelturdi. Andin so'ng Samdunga aydi: Ul ayg'aning qiz qayda turur, manga olib kelgil. Ammo o'zga dev, pari kim ersaning ilgi tegmasun. Samdun ul so'zga kuldi, aydi: Ilik tegurmayin netak keltursa bo'lur? Sulaymon aydi: Bir tadbir hiyla qiling. Hech kim ersa javob aymadi. Samdun aydi: Bulutg'a ayg'il tengizlar tubindin yinjular olsun, kunaning saroyi qapug'ing'a yog'murtek yog'dursun. Qiz ani ko'rub chiqq'ay, bulut qizni ko'tarib sanga keltursun. Mundog' qilmasa ul saroyg'a kim ersa kirmas. Aymishlar, devlar tekma kun er belincha yig'ar erdilar. Qavluhu taolo. *Vash shayatina kulla bannain va g'avvasin*. Bulut bordi, yinjular kelturdi, kuna saroyi qapug'ing'a yog'a boshladi. Saroy ruxom toshidin erdi, yinjular toshg'a tegib un qildilar ersa qoraboshlari yugurub chiqdi. Ko'rdilar, bir nechani terib qizg'a kelturdilar. Bulutdin mundog' yinju yog'a turur, teb qiz ani tonglab ko'rgali chiqti ersa oq bulut inib qizni yo'rgab ko'tardi. Yel birla bulut qizni Sulaymong'a kelturdilar. Sulaymonning xotuni bor erdi, kunani ko'rdi ersa oldi, qamug'din ortuq suvar bo'ldi. Yana sahrog'a

keldi. Aymishlar, Kuna islom qabul qildi. Sulaymon suvmishdin islomsiz olmish erdi. Aymishlar, bu so'zlar durust ermas, ammo xalq tilinda yuritir. Shayton alqasi birla e'tiqod tutmoq kerakmas. Xatosi ko'p kufr so'zlar ham bor. Nechama xatosi, kufr bor ersa, munda ham yod qilaling. Xatoni savobdin ayira bilsunlar. *Va-llohul-hadiy alar-rashad.*

Hikoyatlarda bu turur. Qachon Sulaymon Kunani islomsiz oldi ersa, bir kun Iblis alayhul-la'na Kunaning evina otasi suraticha kirdi. Kuna ko'rgach so'rdi: Otam Akuz holi netak turur? Aydi: Otangni ering o'lturdi, elin xarob qildi. Kuna zor-zor yig'ladi, otasin sog'indi. Iblis aydi: Eringga ayg'il, otangning suraticha bir surat qilsun, ani ko'rub ovung'aysen. Iblis ketdi, Sulaymon kirib keldi. Kuna Sulaymondin yuz o'vurdi, yig'ladi. Sulaymon: Ne bo'ldi? tedi. Kuna aydi: Sen otamni o'lturmishsen, anga yig'layurman. Taqi otamni sog'inibmen. Ayg'il, otamg'a mengzayur bir surat qilsunlar, ani ko'rub ko'nglum tinsun. Sulaymon ani suvar uchun qabul qildi. Rubi'a otlig' devg'a buyurdi, artuch yig'ochidin bir surat qildi. Aymishlar, Odamdin qiyomatg'a tegi hech yalavoch evinda surat yo'q erdi, magar Sulaymon evinda kimi kumushdin, kimi yig'ochdin, kimi ruxomdin. Qavluhu taolo. *Ya'maluna lahu ma yasha'u min mahariba va tamasila va jifanin.* Aymishlar, burunqi zamonada ezgular, ayig'lar o'lgandin so'ng suratini qilib, anga boqmoq ravo erdi. Bu Kuna otasi suratini o'nginda qo'yub kecha-kunduz anga topinur (143 r) erdi. Sulaymon ani bilmas erdi. Qirq tun-kun tamom bo'ldi ersa qurbon iydi bo'ldi. Iblis yana o'zini qurtqa suraticha qilib Kunag'a keldi Aydi: Bu kun eringning iydi turur, o'z tengrisi uchun qurbon qilur. Sen ham narsa olib otang suratiga qurbon qilg'il, otang sendin xushnud bo'lsun. Sulaymon Iydga chiqar bo'ldi ersa burun Kunag'a keldi, so'zlad ersa javob bermadi, yuz o'vurdi. Sulaymon: Ne bo'ldi? tedi Kuna aydi: Sen tengring uchun qurbon qilursen, manga ham narsa bergil otam ruhi uchun qurbon qilayin. Sulaymon aydi: Izi azza va jalladin o'zga kim ersaga qurbon ravo ermas. Kuna aydi: Bir teva bergil. Ul zamon tunglukdin bir chegurka kirib keldi. Kuna aydi: Bu chegurkani bori bergil. Sulaymon ani sahl ko'rub olg'il, tedi. Kuna chugurkani tutdi, adoqlarin bog'ladi, but o'nginda kemishti. Sulaymon chiqib

iyd namozin qildi. Osaf ibn Barxayo xatib erdi, qachon minbarga og'sa, Izig'a hamd va sano aytur erdi. Odamdin Sulaymong'a tegi qamug' yalavochlarni zikr qilur erdi. Qamug'ini yod qildi, ammo Sulaymonni aymadi. Minbardin indi. Sulaymon aydi: Ey Osaf, bu kun xutbada meni naluk yod qilmading? Osaf aydi: Evingda butg'a topunur bor, andog' kim ersani xutbada netak yod qilayin? Sulaymon aydi: Mening evimda kim topinur? Osaf aydi: Kuna topinur. Sulaymonning rangi, holi o'zga bo'ldi, eviga keldi, ko'rdi chegurkani o'lturmish, but o'ngida qo'y'mish, o'zi tizin cho'kub butg'a qarshu o'lturmish. Sulaymon ani ko'rdi. Kunani suvar uchun so'z temadi. Ammo butni sindurip o'tg'a yoqti, tonglasi turdi, tahorat qilg'u yerga kirdi. Sulaymon qachon tahorat qilur bo'lsa ich to'nini, yuzukini Omina otlig' qoraboshig'a berur erdi. Bu kun tahorat qilg'ali kirdi chiqmasdin burun Izi azza va jalla Sulaymon yalavoch mengizin Xaqiq otlig' devga berdi. Sulaymondin burun Ominaga keldi, ich to'nin, yuzukin oldi, barmoqig'a suqti, dev, pari anga musaxxar bo'ldilar. Keldi Sulaymon taxtig'a oshib o'lturdi. Sulaymon tahorat qilib chiqti Ominani topmadi, Xaqiqni ko'rdi, taxt uza o'lturur, qo'rqti, meni halok qilg'ay teyu qochti. Izi azza va jalla xaloyiq ko'zindin saqladi. Sahar darvozasiga tegdi bir ko'nglak, bir dastor birla yugurdi, oxshom (143v) bo'lg'uncha azoqlari qabardi, o'lturdi. Mavlo taolodin yerga yorliq bo'ldi, qaror bermagil teb, tebratu boshladi. Ul kecha tong otquncha yugurdi, qabarg'anlar shishti, yorildi, orib, ochib bir kengda kirdi. Bir qapug'da bir avrat chiqti. Sulaymon aydi: Taomg'a muhtojmen. Avrat aydi: Erim evda yo'q. Er kishi yo'qinda taom bermazmen. Ul bog'g'a kirib o'lturg'il, ne'mat yegil, erim kelsa seni qo'nuqlag'ay. Sulaymon ul bog'g'a kirdi. Havz qirog'inda o'lturdi. Yerga yorlig' bo'ldi: Sulaymong'a qaror bergil. Sulaymon ul yerdan tun-kun uyudi. Pashshalar ulug'i, Tutarus otlig', Sulaymonning isin oldi, Pashshalarga buyurdi. Yig'ildilar, Sulaymong'a zahmat beru boshladilar. Bir yilon Sulaymonning isin oldi, keldi, ko'rdi, pashshalar Sulaymong'a zahmat berurlar. Tutarusg'a aydi: Bilurmusen, bu kim turur? Aydi: Sulaymon turur, ammo Izig'a osiy turur. Yilon pashshalarni qava boshladi, bir yig'och budog'i birla yelpiyu boshladi. Anchada ev iyasi keldi. Xotuni aydi: Bir

qo'noq keldi, taom qo'ldi, bermadim. Bog'da yotur, borib ko'rgil, taom tilasa bergil, tedi. Kelib ko'rdi, pashshalar zahmat berur, yilon qo'riyur, tongladi. Xotunidin kelib so'rdi: Bu kishi kim turur, oti ne gurur? Xotuni aydi: So'rmadim. Eri aydi: Bir ajoyib ish ko'rdum, sen ham kelib ko'rgil, teb, xotuni birla kelib ko'rdi. Yilon ularni ko'rib ketti. Xotuni aydi: Bu arig' kishi bo'lg'ay, uyg'otib taom bergil. Eri ul yig'och budoqin suvg'a suqib yelpidi, qatra yuziga tegib Sulaymon uyg'ondi. Ul xotun sufra kelturdi. Sulaymon yeti kun ro'zador erdi, ozg'ina taom yedi, qo'pti, tahorat qilib namoz o'qudi. Uch kun Qur'on o'qudi. Ul er xotuni birla yavloq porsa erdilar bir ko'rkluk qizi bor erdi. Telim kishilar tilab bermas erdilar. Xotun eri birla kengashib aydilar: Bu er bizga loyiq kuyov turur, qizimizni bunga berurmiz, tedilar. Sulaymong'a aydilar. Men qochmish, qo'rqmish kishimen, mol tovarim yo'q. Sizga boy kuyov topilur, tedi. Ular ko'p darxost qildilar ersa qabul qildi. Qizni Sulaymong'a berdilar. Ul kecha Sulaymon tong o'tg'uncha namoz qildi, qizg'a boqmadi. Tonglasi kun qiz ota-onasiga aydi, bir qurtqa qo'ngshilari bor erdi, kuyovingni ko'rayin teb Sulaymonni ko'rdi. Ich to'nni dastoridin bir kesak yirtmish, adoqinga chulg'amish. (144r) Qurtqa aydi: Ey yigit, sen komil kishiga o'xshaysen. Borg'il kishi ishin ishlagil to'n etmak hosil qilg'il. Sulaymon aydi: Ey qurtqa, man ishe bilmazman. Qurtqa aydi: Bu tengiz qirog'inda baliqchilar bor. Anda borg'il, hammolliq qilg'il, teb zambil kelturub berdi. Sulaymon zambilni olib tengiz qirog'ig'a bordi. Kechaga tegi o'lturdi, kim ersa ish buyurmadi. Kecha keldi, narsa kelturmadi. Tonglasi qurtqa yana keldi. Kuyov ne kelturdi? tedi. Narsa kelturmadi, tedilar. Sulaymong'a qatig' so'zladi. Borg'il, kishi ishin ishlagil. Sulaymon o'z mulkin soqindi. Inchiq birla yig'ladi, zambil ko'tarib tengiz qiroqig'a keldi. Bir dehqon keldi otlig', quli birla baliq sotqun oldi. Quli bir porasin, Sulaymon zambil birla bir porasin baliqning ko'tardi, dehqon eviga bordilar. Dehqon aydi: Izi azza va jalla hurmati, taqi Sulaymon haqqi kim bu er hammol ermaz. Sulaymondin so'rdi. Aydi: Hargiz hammolliq qilishim yo'q. Zarurat birla bu yerga tushdum. Dehqon so'rdi: Netak tushdung? Aydi: Man g'aribmen. Qapug'g'a keldim, meni bog'g'a kivurdilar, qo'nuqladilar, kuch birla qiz berdilar.

Dehqan aydi: Ul er, xotunkim seni qo'noq qildilar, ikisi ham porso turur. Yetmish pora eida ul qizdin ko'rkluk qiz yo'q turur. Ul qurtqa yavloq murdor turur. Dehqon qulig'a aydi: Ul baliqni pishurub, o'zga taom birla sufrag'a solib, bu kishi olmig'a kelturgil. Kelturdi, Sulaymon ro'za erdi, yemadi. Dehqon buyurdi, besh botmon etmak, besh botmon et, besh botmon un, besh kumush yarmoq, bir joma bo'z ul baliq birla Sulaymong'a berdilar. Dehqon aydi: Ey yigit, har kunda manga kelgil, mundag'o'q berayin, tekma yilda oltmish joma bo'z, bir qat to'n za'ifangga berayin. Men tirik bor ersam qayg'urmag'il. Sulaymon keldi, kelturganin za'ifasi o'nginda qo'ydi, o'zi namozg'a mashg'ul bo'ldi. Tong otquncha namoz qildi. Tonglasi qurtqa keldi. Kuyovingiz ne kelturdi? tedi. Kelturganin ko'rguzdilar. Qurtqa aydi: Bulami o'zga yerda yashurub qo'yg'an emish. Sulaymon yigirmi kunda ul tegrada javiqdi, xastani o'qub dam bersa, sihhat topdi. Devonag'a o'qusa, sag'aldi. Bu ish shuhrat topdi ersa Sulaymon fikr qildi. Meni topmasunlar, teb ular din ketdi. Bir tog'g'a keldi. Ul tog'da erkakli, tishili iki arslon yo'luqti. (144v) Tishisi erkakka aydi: Kel bu odamiyni yegaling. Erkak arslon kelib Sulaymonni ko'rdi, tanidi. Ikilari yukunub Sulaymong'a salom qildilar, azoqin o'ptilar. Sulaymon mulkindin ayrilg'ali o'ttuz yeti kun kechmish erdi. Biragu Sulaymon taxtinda o'lturg'an devg'a keldikim oti Xaqiq erdi. Yana chiqib aydi: Sulaymon kofir bo'lmish, el ichinda chov bo'ldi. Qavluhu taolo. *Vattepa'u ma tatlush shayatinu ala mulki Sulaymana*. G'avg'o qo'pti. Osaf ibn Barxayog'a keldilar. Osaf aydi: O'tuz yetti kun bo'ldi, bu sifat o'zga turluk saroy ko'rarman, teb saroylarg'a bordi, xotunlari faryod qildilarkim: Ey Osaf, o'tuz yeti kun bo'ldikim, Sulaymonning xabarini bilmasmiz. Osaf yig'layu boshladi. Chiqti: Ne qilsangiz siz biling, tedi. Devlar va parilar, qush, qurtlar barisi kettilar, olimlar, zohidlar Sulaymonning taxti uza o'lturg'an Xaqiq devg'a hamla qildilar. Dev qochti, tengizga keldi. Ilkingdagi yuzukni chiqarib suvg'a soldi. Mavlo taolo Arxam otlig' baliqg'a ilhom berdi. Ul yuzukni olib yutti, aydi: Xudoyo, bu mening qutummu turur? Yorlig' keldi: Ul saning qutung ermas, mendin sanga yorlig' bo'lg'uncha saqlag'il. Baliq aydi: Xudoyo, man ani saqlamishim uchun ne berursen? Yorlig' keldi: Baliqg'a

podshoh bo'lg'il. Arxam sevundi. Andin so'ng Sulaymon boyoqi kengda keldi, ani og'irladilar. Bizga ish qilmag'il. Bu kun necha baliq tutsaq sanga beraling, tedilar. Og' soldilar, narsa tushmadi. Ulug'lari aydilar: Bu kun ani og'irlang. Aning odig'a og' soling. O'n bir og' soldilar, kechaga tegi hech narsa ilinmadi. Uchunchi kun ham hech narsa ilinmadi. To'rtunchi kunkim, Sulaymon mulkindin ayrilg'ali qirq birinchi kun erdi, Sulaymong'a aydilar: Sen og' solg'il. Sulaymon tek turdi, o'n er og' soldilar, tengizga erklik bo'lg'an Firqoyil otlig' farishtaga yorliq bo'ldi. Baliqlarni surub og'larg'a kiyurdi. Tekma bir og'g'a yuz ming baliq kirdi. Andin so'ng: Sulaymon, sen og' solg'il, tedilar. Sulaymon soldi ersa Arxam kelib og'g'a kirdi. Arxam nurindin jahon ravshan bo'ldi. Mavlo taolo Arxamg'a til berdi. Sulaymong'a aydi: Qo'lingni og'zing'a suqg'il. Sulaymon elini suqdi ersa yuzuk elinga kirdi, barmoqi (145r)g'a suqti. Qamug' dev, pari, uchar qushlar Sulaymong'a yig'ildilar. Baliqchilar: Sen kimsen? tedilar. Aydi: Sulaymon yalavochman. Aydilar: Yo Rasululloh, bu ne hol erdi? Aydi: Men Mavlo azza va jallaga yozdim, meni qinadi. Anda Jabroil Mavlo taoloning salomini tegurdi. Taqi yorlig' bo'ldi: To'rt xato ish qilding sendin kechurdim. Avval: Kunani islomg'a kiyurmayin olding, ikkinchi, kofira tishini nikoh qilding, uchunchi, aning uchun but yo'ndurding, to'rtunchi, chegurkani qurbonliq berding. Qamug'ni bildi ersa, Sulaymon uzr qo'lub sajdaga bordi. Izi azza va jalla yana mamlakatga tegurdi. Yelga yorlig' bo'ldi, sarchadin bir qubba kelturdi, xotunin solib ko'tardi, yana sahrig'a kelturdi. Sulaymon tobut qildurdi. Kunani anga suqti, tengizga soldi. Taqi Xaqiq devni tutti, ming botmon temuri bo'ynig'a osib, qo'lin-oyoqin bog'lab, tengizga solib halok qildi, o'zi o'runda o'lturdi. Ey aziz, bilgilkim Sulaymon qissasinda telim xatolar bor. Aymishlar, bir xato bu Kuna otlig' qiz hikoyati tururkim, aytduq, bu qamug' johil so'zi turur. Avval xato, ul kabira yozuq bo'lg'ay, mundin ortuq kim butg'a topunsalar yalavoch evinda ul ani bilmasa, sen xotuning hayzi kelmiş holini bilmasang fosiq bo'lursen. Subhonallohi Sulaymon yalavoch evinda butg'a topundilar, bilmadi teyursen. Ikinchi xato, Sulaymon xotuni butg'a topunsa kofira bo'lg'ay erdi. Sulaymon kofirani nikoh qilmag'ay erdi. Agar bilmasa kofira erdukin Mavlo

taolo xabar bergay erdi. Uchunchi xato, Shayton Sulaymon suratig'a kelib yuzuk oldi teyurlar, andog' bo'lsa Mavlo taolo yana bir odamni saming surating'a evurug'a qudrati yo'qmu? To'rtunchi xato ul tururkim, Sulaymonning surati o'vruldi teyurlar. Suvrat o'vrulsa masx bo'lar. Kim muni ravo tutsa Shaytonni yalavochliqig'a ravo tutmish bo'lar. *Beshinchi* xato ul tururkim, dev Sulaymon xotunlari birla xilvat qildi teyurlar, andog' bo'lsa qayu qiz xotun eriga qiz kelgay erdi. Mavlo taoloning hukmi ul turur, mo'minlarning moli uza taqi harami uza hech Shaytonning tasarrufi yo'q. Bu so'zlar qamug' yolg'on turur. Noahlardindin, kofirlar(145v)din, zindiqlardin musulmonlar og'zig'a tushdi, bilmaslikdin so'zlayurlar. Oltinchi xato ul tururkim, yalavochlar xotunlari nikoh birla o'zgalarga harom turur. Yettinchi xato ul tururkim, Shayton Sulaymon taxti uza o'lturdi teyurlar, oyat dalil qilurlar, bu ham xato turur, aning uchunkim, bu Ilqoi Jasad ul vaqtda erdikim, Sulaymong'a ul taxt, ul mulki azim berilmay erdi, dev ham musaxxar ermas erdi. Taxt bo'lmasa, mulki azim bo'lmasa, dev musaxxar bo'lmasa yuzukni kim olmish bo'lar. Sulaymonga bu mulk berilmas erkan. Taqi dalil bu tururkim, Sulaymon bu jumladin so'ng bu duoni qildi. Qavlulu taolo. *Rabbig' firliy va hab liy mulkai la yanbag'iy li ahadin min ba'diy innaka antal-vahhab*. Aydi: savob, taqi durust tafsir ul tururkim, bayon qilaling. In sha'a-llohu ta'ala.

Rivoyat. Imom Ya'qub Sufyon o'z Tafsiri ichinda taqi Qaffol Shoshiy rahimahulloh Abu Hurayradin, raziyallohu anhu, ul Muhammad Mustafodin aydur: Sulaymon fitnasi bor erdi. Bu taxt uza etilgan jasad kim erdi? Rasul alayhis-salom aydi: Mavlo taolo Sulaymong'a kofir birla sanchishmoq farmonladi. Ul vaqtda Sulaymonning yetmish xotuni bor erdi, yana bir rivoyatda to'qson xotuni bor erdi. Sulaymonning cherik boshlar kim ersasi yo'q erdi ko'nglindin kechti, bu kecha bu to'qson urag'ut birla subhat qilayin. Mavlo taolo tekma birindin bir o'g'ul bersa, cherik boshlar beklarim birla bu to'rt taraf olam ichra to'qush qilg'aylar. In sha'a-llohu temakni unutti. Ul kecha qamug' xotunlarig'a bordi, sekson to'quzi homila bo'lmadi, birisi homila bo'ldi. Bir o'g'ul tug'di, singar qo'llug', singar azoqliq', singar ko'zluk, singar qulog'lig'. Andog' erkan Sulaymong'a sevukluk erdi, ul o'g'lon o'ldi, ani taxt

uza qo'ydi. Rasul alayhis-salom aydi: Ul Mavlo hahqikim, meni rostlig' uza xaloyiqg'a yibordi. Agar Sulaymon *in sha'a-lloh* temish bo'lsa erdi tekma xotunidin bir o'g'ul bo'lg'ay erdi. Qamug'lari cherik boshlag'aylar erdi. Sulaymon aning nedin bo'lg'anin bilmasdi, terk duo va tazarru'g'a mashg'ul bo'ldi. Aydi: *Rabbi-g'fir liy va hab liy mulkan la yanbag'i li ahad min ba'diy innaka antal-vahhab bu turur. Va laqad fatanna Sulaymana va alqayna ala kursiyiyihi jasadn summa anab.* Ma'nisi ul bo'lurkim, mehnat qatig' berduk Sulaymong'a, (146r) solduq Sulaymoning jasadi, ya'ni taxt uza, ul o'ksuk yaratilmish o'g'lon necha ul kun Sulaymon birla mulki azim yo'q erkan Dovud yalavoch taxtini meros olmish erdi. Qavluhu taolo. *Va varisa Sulaymanu Davuda.* Sulaymon Mavlog'a yondi. *Rabbi-g'fir liy nisyana zikrik,* tedi. Necha ham andin avval zillat ermasa yalavoch ul qadami o'zlarindin ulug' zillat ko'rdilar. Netakkim, Yusuf qissasinda yorliqar. Qavlulu taolo. *Uzkurniy inda rabbika fa ansahush-shaytonu zikra rabbih.* Yana aydi: *Va hab liy mulkan la yanbag'i li ahadin min ba'diy.* Xudoyo, mani yorliqag'il, manga mulk bergil. Andog' mulk o'zga kim ersaga yarog'lig' bo'lmasun. Mavlo taolo ul duoni ijobat qildi. *Fasaxxarna lahur-riha.* Ya'ni yelni Sulaymong'a musaxxar qilduq. Mashriqdin mag'ribg'a kim ersa Sulaymon xilofincha so'zlasa yel ani Sulaymonga tegurur erdi. Ba'zilar aymishlar, bu duoni aning uchun qildikim, o'zgalar aning shukrin o'tayu bilmagaylar, ul shukrin man o'tayin tedi. Xalqg'a shafqat uchun, ammo bu za'if qavl turur. Aning uchun olam ichinda mundin ulug'roq shokir yo'q temak bo'lur. Qamug' yalavochlarg'a ma'lum erdi Mustafo alayhis-salom ulardin fozilroq erdi. Ba'zilar aymishlar, *min ba'diy ay ma'iy* temak bo'lur. Bu qavl ni xato temishlar. Aning uchunkim, Rasul yorliqadi: Men namoz qilurda bir dev kirdi, namozimni ortatg'ali. Tutdum, berkitdim. Qarindoshim Sulaymonning *min ba'diy* duosi ko'nglimga kirdi, bog'lag'ay erdim, bu kun sizlar ko'rgay erdingiz. *Fa saxxarna lahur-riha.* Yeldin markab berduk, yana devlarni anga musaxxar qilduq. Tosh binolar qo'pordilar. Bir nechalari tengizdin gavhar, yinju chiqardilar. O'zga kuchluk bo'ynag'ularni tengiz tubida, bog'da, bo'qag'uda tutti. *Vash-shayatina kulla bannain va g'avvasin va aaxarina muqarranina fil-asfad.*

Xabarda kelmish, qachon olam oxirg'a tegsa qamug'lari qutulg'aylar ibtilo uchun, xaloyiqg'a vasvasa qilmoq uchun. Yana yorliqar. *Haza atouno.* Ey Sulaymon, bu bizning atomiz turur senga. Tilasang azinlarg'a bergil. *Famnun.* Tilasang o'zing birla tutg'il, Qiyomat kun saning birla saqshimiz yo'q, sanga emgak yo'q. *Av amsik bi g'ayri hisab.* Yana yorliqadi: Bu Sulaymonning, bizning hazratimizda qurbati bor. *Va inna laxu indana lazulfa va husna maab.* (146v) Hudhud so'zlari. Aymishlar, uchar qushlar Sulaymon uza ko'laka qilar erdilar. Tekma bir turluk qushlar bir qushluq yerni tutar erdilar. Imom Kalbiy qavlincha, qirq qushluq yerni tutar erdilar Sulaymon ko'rdi, bir qush o'rindin ketmish. Sulaymonning taxti uza oy choqlig' kun tushmish. Biyik boqti hudhud qushni ko'rmadi. Munga ne bo'ldi, hudhud qushni ko'rmasman, ul g'oyibmu turur? tedi. *Va tafaqqadat tayra va qola ma li la aral hudhuda am kaana minal g'aybin.* Yana aydi: Har oyina ani qattig' qinag'ayman yoxud bo'g'uzlag'ayman, yoxud belguluk tiltog' keltursa qutulg'ay. *Lau'azzibannahu azaban shadidan av laazbaxannahu av layatiyanniy bisultonin mubinin.* Ibn Abbos raziyallohu anhu aytur: Hudhud qush suvni qayu yerd borin bilur. Sulaymon safarda erdi, suvg'a muhtoj erdi. Hudhud suv istayu havog'a chiqti. Aymishlar, hudhud qush tosh ichindagi suvni ko'rar. Havog'a ul choqlig' o'rladikim, yigirmi yig'och yer baland chiqti. So'ngig'a boqti, Sulaymon cherikin ko'rmadi. Ilgaru boqti, bir tog' ko'rdi. Ul tog'g'a borib qo'ndi. Bir g'arib hudhud qush ko'rdi. Oting ne turur? tedi. Ul tedi: Otim Aqba. Sulaymon hudhudin so'rdi: Sening ne turur? Aydi: Otim Ya'qub, Pors viloyatindin kelurman. Sulaymon otlig' podshohim bor. Odamiylar, devlar, parilar, qushlar, qumursqalar qamug'ining podshohi ul turur. Aqba aydi: Bizning ham begimiz bor. Mulkini sifat qilsa bo'lmas. Ya'qub aydi: Aning mulkini ko'rguzgil. Ul hudhud Sulaymon hudhudin Bilqis viloyatig'a eltdi. Ul viloyatg'a Sabo teyurlar erdi. Aymishlar, o'n uch shariston erdi. Bilqis Marab otlig' sharistonda erdi. Anda Sulaymon hudhudi kelib, Bilqis birla saroyini ko'rdi, Yavloq ko'rkuk, yer yuzinda o'xshashi yo'q bir qiz taxt ustida o'turur. Ul taxtning uzunliqi qirq qari, eni o'n iki qari. Qizil oltundin, to'rt azoqlarig'a marmar o'rnatmish. Tekma bir azoqinda

qizil oltundin, tekma bir arslon uza bir tavushqon kumushdin, tekma bir tavushqon uza bir qangli kumushdin, tekma bir bulungda bir yag'an kumushtin, tekma bir yag'an uza bir arslon oltundin, tekma bir arslon uza bir qush qizil oltundin, (147r) tekma bir qush uza bir tovus qizil yoqutdin, tekma bir tovus uza bir qarchig'ay arig' yoqutdin, qanitlari yinjudin, tekma bir qarchig'ay boshi uza bir qo'g'ur erdi, boshinda bir chechak arig' yoqutdin, tumshuqlari qizil yoqutdin, tumshuqi uza bir tuzum yinju osig'liq, yumurtqadin ulug'roq. Ul taxt o'rtasinda bir qubba o'n arshun, yashil parchadin qamug'i gavhar birla bezaklik to'rt qapug'lig' taxt erdi. Bir qapug'i billurdin, biri aqiqdin, biri qahrabodin, biri oq kumushdin, yumurtqaning ich qopitek. Ichinda besh parda bor erdi, tashindin ko'rinur erdi. Ul qubbaning oltmish tungaluki bor erdi. Qachon ul tungaluklardin kun tushsa ul gavharlar yoruqluq berurlar erdi. Ul tungalukdin tushgan kunga Bilqis sajda qilur erdi. Aymishlar, Sulaymon hudhudin yo'qlamishdin so'ng kun issig'inda tush choqi kun tushdi. Suvsadi. Suv topmay borurda bir qarinchqani ko'rdi. Tushub telmurur, suvsamish. Aytur: Iziyo, meni sen yaratding, seni bandangman, suvsadim suv bergil. Agar ajalim yetib bo'lsa o'lum bergil, qutulayin. Aning duosin eshitib: Omin, tedi. Mavlo taolo qarinchqa duosin ijobat qildi. Bulut og'di, yog'in yog'di. Tog'lar, daralar suvg'a to'ldi. Andin so'ng Sulaymon turmani, burgutni, anqoni yubordi. Boring, hudhudni topib kelturing. Chiqtilar, hudhudni yo'lda ko'rdilar. Orib, ochib, og'zin ochib kelur. Aydlilar: Sulaymon sanga o'fkalik turur. Seni qatig' qiynarman teyur. Hudhud aydi: In sha'a-lloh tedimu? Aydlilar: Yo'q. Sulaymonning qatig' azobi ul erdi: Qushlarga qanotin yulub kunga solur erdi, qarinchqalar yig'ilib ani tishlar erdilar. Qirq kundin so'ng tusi o'sub, quttulur erdi. Hudhud yonib keldi. Sulaymonning taxti uza o'lturdi. Sulaymon aydi: Emdiga tegi bizga yozding, topug' maqomindin g'oyib bo'ldung, xidmatda taqsir qilding. Taqi taxtim uza tayanub o'lturusen. Hudhud aydi: Bordim ersa, ko'rmaduk erlami ko'rdum. Sen ko'rmagan narsadan xabar kelturdum. *Fa qola ahattu bima lam tuhit bihi va ji'tuka min sabann binabain yaqimin.* Sulaymon aydi: Ne xabar kelturdung? Aydi: Sabodin keldim, ochuq xabar kelturdum. Sulaymon aydi: Ul xabar netak

turur? Hudhud aydi: Bir urag'ut ko'rdum, podshohliq qilur, qamug' (147v) narsa anga berilmish, yavloq ulug' taxti bor. *Inniy vajadtum ra'atan tamlikuhum va uuyiyat min kulli shay'in va laha arshun azimur.* Taqi aydi: Ul urag'utni andog' ko'rdum o'z qavmi birla kunga sajda qilurlar, Mavlodin o'zgaga. *Vajadtuha va qavmaha yasjudula lish-shamsi min duni-llahi.* Sulaymon aydi: Ko'raling rostmiyu so'zlayursen yo yolg'onchilardinmussen. *Sananzuru a sadaqta am kunta minal-kazibin.* Sulaymon uch xat bigidi. Ul xat bukim: *An la ta'lu alayya va tuniy muslimin.* Ma' nisi: Bu bitik Sulaymondin turur. Yaratqan, ektulagan, kechurgan Izing ot birla manga bo'ynag'uliy qilmang. Kelib musulmon bo'lung. Bu xat bitidi. Muhr qilib, hudhudg'a berib, aydi: Muni borib Bilqisg'a bergil. Hudhud xatni tumshuqi birla tutub, isiq havoda Bilqisg'a keldi. Bilqis saroylar qapug'in bog'lab, qapug'chilarg'a saqlatib, o'zi ichkari kirib, taxt uza oq harir o'rtunub yotur erdi. Aymishlar, Bilqis yotqan saroyning bir tomi aqiqdin, bir tomi jaza'din, bir tomi bullurdin, bir tomi ruxomdin erdi. Eni qirq sekiz qari, uzuni oltmish qari, biyikligi o'tuz qari. Bir tungaluki kun tug'ar yondin, bir tungaluki kun botar yondin. Qachon saroyg'a kun tushsa sajda qilur erdi. Bilqis ul saroyda uyquqlab yoturda hudhud qush tungalukdin kirib, bitikni o'ngunda qo'ydi, uyg'onmadi. Hudhud ko'kragi uza qo'nub, iki emchagi orasig'a tumshuqi birla qoqti. Aning og'riqidin uyg'ondi. Hudhud uchub tungalukda qo'ndi Bilqis qo'pub o'lturdi, kim ersani ko'rmadi. Qotinda o'n yashar erkak o'g'lonlar, o'n uch yashar qiz o'g'lonlardin o'zga kim ersa kimas erdi. Qapug'chilarni yig'durdi. Bu bitikni kim kelturdi? teb so'rdi Kim ersa bilmadi. Anda hudhud qush tungalukdin un qildi. Bilqis hudhudg'a aydi: Bu xatni senmu kelturdung? Aydi: Bale. Bilqis ul bitikni Tengridin teb soqindi. Oq harirg'a chuvg'adi, boshig'a sanchib, taxtig'a og'ib o'lturdi. Do'in otlig vaziriga aydi. Qamug' beklarni cheriki birla yig'durdi. Bitikni qo'lig'a olib aydi: Ey xalq ulug'lari, bu qush manga bitik kelturdi. Izi azza va jalla yorliqi teyu bilurman. Qavluhu taolo. *Ya ayyuhal malau inniy ulkiya ilayya kitabun karimun.* Beklar aydlilar: Ey malika, bitikni o'qig'il, ne ermish ko'raling, Bilqis (148r) o'qidi: *Innahu min Sulaymana va innahu bismillahir rahmanir rahim an la ta'lu alayya va tuniy muslimin.* Bilqis qo'raqti,

mengizi sarg'ardi. Aytdilar: Ey malika, telim maliklar senga bitik izdilar. Ko'nglung qo'rqmadi, emdi ne bo'ldi? Bilqis aydi: O'zga maliklar bu da'voni qilmadilarkim, bu er qilar. O'zgalar mulk tiladilar, bu er yalavochliq da'vo qilar. Siz ulug'lar javob aytin, bu ishim ichinda hech esni kesigli ermasman, sizlar bo'lmag'uncha, ya'ni sizlardan boshqa ish qilmon. *Qolat ya ayyuhal-malau aftuniy fi amriy ma kuntu qoti'atan amran hatta tashhaduni.* Ular aytdilar: Bizlardin kuchluk, erklik malikasen. Boqq'il va ra'y ko'rsen, biz ani qilaling. Bilqis bularning so'zlarin eshitib sevundi. Aydi: Bu er birla sanchishmoq ravo ermas. Kerakmaskim, aning ilki bizdin ustun bo'lsa eli kuni bizdin olg'ay. Aymishlar, Bilqisning musulmon bo'lg'uga ko'ngli bor erdi. Cherik ham manga uyg'aymu, uymag'aymu teb soqinur erdi. Yangi maliklar elga kirsu ulug'larni ma'zul qilurlar, teb ularni qo'rqutdi qavlatu taola. *Qolat innal-mulka iza daxalu qaryatan afsaduha va ja'alu a'izzata ahliha azillatan.* Bu so'zlarni Bilqis aydi. Andin Mavlo taolo yorliqadi. Andag'o'q qilurlar. Bilqis aydi: Mananga mol yiborayin. Agar mol olsa bizning elimiz ustun kelgay, mol olmasa tengrlik er bo'lg'ay, anda bo'yunsung'aymiz. *Va inniy mursilatun ilayhim bihadiyatini fa naziraton bima yarji'ul mursalun.* Farmonladi, oq yag'an kelturdilar. Iki oltun kirpich qildilar, tekma biri ming botmon, yag'ang'a yukladilar. Iki qadah kelturdilar billurdin, iki yinju kelturdilar-biri o'tlug', biri o'tsiz. Besh yuz oltun tepaq, kumush birla bezaklik, besh yuz kumush tepaq oltun birla bezaklik. Bir toj qipil oltundin, gavhar birla murassa'. Ming to'n og'i, atlaci yazdiymoniy, sundusi rumiy. Ming sonlig' harir idish, tepaq, qozg'onlar jaza'din, aqiqdin, billurdin. O'n besh qul o'g'lonlar qiz suratlig', o'n besh qiz o'g'lon izdi er suratlig'. Qamug'i bir to'nlug'. Ellik qisraq bir to'nlug'. O'ni qula, o'ni qora, o'ni bo'z, sekizi ola, biri chipor. Zuyu' otlig' qozisini, Rofi' otlig' vazirini, Do'in otlig' hojibini bu mol birla Sulaymong'a izdi. Taqi salom tegurung, tedi. Taqi ayding, agar sen yalavoch (**148v**) ersang bu to'shukluk yinjuga kim ersa ilik tegurmayin yip o'tsun. Taqi tushuksiz yinjuga odamiy, pari qo'li tegmayin to'shulsun. Taqi bu o'g'lonlarning qayusi qiz, qayusi o'g'ul erdukin bilsun. Taqi ilik tegurmayin bu qadahlarni suv birla to'ldursunkim, ul suv ko'kdin ingan, erdin chiqg'an

bo'imasun. Taqi o'rtuglug' otlarning tusi netak turur bilsun. Qachon yo'lg'a kirdilar ersa, devlar kelib ular xabarin Sulaymong'a aytdilar. Sulaymon devlarga farmonladi, bir maydon qildilar. To'rt yig'ochliq erdin saroy qapug'iga tegi. Yana farmonladi, tog'lardin yassi toshlar kelturdilar. Maydonda to'shadilar. Yana bir xos maydon qildirdi, bir kirpich, bir oltun kirpich, bir kumush kirpich to'shadilar. Yana farmonladi. Oltundin to'rt ming kirpich quydilar, tekma biri iki yuz botmon, tekma bir mungushinda bir gavhar murassa' qildi, to'rt kirpich o'rmin xoli qo'ydi. To'rt ming oltning azoqing'a oltin taqalar qoqturdilar, qamug'i oltun egarlik, To'rt ming uylarning munguzlarin oltun birla murassa' qildilar. To'rt ming qulg'a podshohona to'nlar kiydurub, iliklariga to'puzlar berib turg'urdi. O'n ming oltun kursi sog'da, o'n ming kumush kursi so'lda erdi. O'zi taxtg'a mindi. Odamiylar sarhanglari sog'din, parilar so'ldan, devlar o'ngdin, ozig'lig'lar ortdin, uchar qushlar havoda qanot qanotg'a tutub ko'laka qilurlar erdi. Bulutg'a farmonladilar, yipor gulob kelturib Sulaymonning tegrasinda sochtilar. Yana tegrasinda daraxtlar erdi - tublari kumushdin, yaproqlari oltundin, butoqlari, yafroqlari yashil zabarjaddin, mevalari yoqutdin, yinjudin. Sulaymon bir sirchadin qubba ichinda o'turdi, oltmish qari biyikligi. Bilqis elchilari keldilar, dastur birla kirdilar. Ul azamat va jalolatni ko'rdilar, tongladilar. Bulut kelib boshlari uza yinju, yoqut quyar erdi. Elchilar Sulaymong'a aytdilar: Malikamiz sanga salom, topug' izdi, tedilar. Taqi aytdilar: Sen yalavoch ersang to'shukluk yinjuga qo'li tegmayin yip o'turgil. Taqi to'shuksiz yinjuga odamiylar, parilar qo'li tegurmayin (**149r**) teshgil, yipga tizgil. Erkak o'g'lonlardin qiz o'g'lonlarni ilik tegurmayin ayirg'il. Qadahlarni ko'k, yer suvi ermas suv birla to'ldurgil. Qisraqlarni, o'rtuglug'erkan, tuslarin farq etgil. Sulaymon alayhis-salom aydi: Kim bo'lg'ay bu yinjularni odamiy, dev, pari ermas erkan tilsa. Yig'ochni yegan kuya kelib yinjuni tildi, balchiqda yotg'an qizil qurt kelib, yeb o'turdi. O'g'ul qayu, qiz qayu erdikin bilmak uchun qo'llarig'a suv quydurdilar. Suvni oz quyganlarni o'g'ul tedilar, ko'p quyg'anlarni qiz tedilar. Andog' ermish. Otlarni chopturdilar. Otlar derlari birla qadahlar to'ldurdilar va qisraqlarning tuslarin Jabroil alayhis-salom aytu berdi. Yinju

tilgan qurt aydi: Ey Sulaymon, Mavlodim qo'lg'il, manga qurug'likda ro'zi bersun. Sulaymon duo qildi, yig'ochni emak anga ro'zi qildi. Yana yinjuga yip o'turgan qurt erda ro'zi tiladi. Sulaymon duo qildi, balchiqda ro'zi berdi. Bilqis elchilari aydilar: Saning tengrimg'a imon kelturduk. Taqi kelturgan mollarin Sulaymong'a tortdilar. Sulaymon anga o'fkalab aydi: Mani mol birlamu ozdurusen? Mavlo taoloning manga bergani siz kelturgandin ortiqroq turur. Ul mol birla siz sevunursiz. Qavluhu taolo. *A tumiddunani bimalin fa ma aatinnya-llohu xayrun mimma aatakum bal antum bihadiyatinkum tafrahan.* Yana aydi: Yong'il! Ularg'a ayg'il, Sulaymong'a bo'lsunlar, yo'q ersa og'ir cherik birla kelurman, qamug'larin chiqarurman, kimini o'tururman, kimini xo'r qilurman". *Irti' ilayhim fa lana tiyannaxum bijunudin la qibala lahum biha va lanuxrijannahum minha va hum sog'irun.* Elchilar mol olib, yonib keldilar, Sulaymon so'zin yetkurdilar. Yaman beglarin yig'ib, xabar so'rdilar. Bilqis aydi: Sulaymon chin yalavoch ermish, anga bormag'uncha bo'lmas, teb. To'rt yuz qoraboshni oltunlar, yinjular birla bezadi. To'rt yuz tevaga oltun, kumush, tansux narsalar yukladi. To'rt ming er otlanturub, sozlari birla Sabo viloyatidin tebradi. Aymishlar, Bilqis yavloq ko'rkluk erdi, Sulaymong'a ko'ngulluk bo'lub o'tru yuridi. Aymishlar, xazina qapug'larin berkititi. Yana bir ev qildurdi, toshdin. Tepasin temur birla yopti, qo'rg'oshin birla suvadi. Bilqis taxtini anda qo'ydilar. Tekna kunda ming silohlik er soqchi qo'ydilar. Aymishlar, o'n iki ming sarhang, o'n iki ming qul, o'n iki ming qorabosh, o'n iki ming xodim yag'anlarg'a minib, amoriyg'a o'turib, Sabodin chiqib yo'lg'a kirdilar. Hudhud qush ilgari kelib xabar tegurdi. Parilar qo'rqtilar, aning uchun Bilqis parilar urug'indin erdi. Sulaymon so'rsa, manga Bilqisdin neluk xabar qilmadingiz, tesa na javob beraling? Aydilar: Andog' javob beraling kim, aning uchun aymadukim, Bilqisning azoqi eshak azoqitek erdi. Andog' temasak Sulaymon Bilqisni olur, bizga emgak ortar, teb muni Sulaymonga aydilar. Sulaymon tongladi. Netak qilib ani ko'rgayman, tedi. Osaf ibn Barxayog'a kengashti. Osaf Mirbat ibn Saxrog'a buyurdi, bir ev qo'pordi, yuz arshun ichinda o'n iki burj, tekma burjda bir ev qo'pordi sirchadin. Ul ev ichinda bir havz qildi, suv birla to'ldurdi.

Ichinga suv ionvorlari soldilar. Sulaymon farmonladi, qizil sirchadin ul suv yuzingato'nlar, o'n sakkiz kunlik yerga chuz, atlas to'shadilar. O'n sakkiz kunlik yer chuz birla atlas uza yuridilar. Bulutg'a farmonladi, boshlaring'a kumush, shakar yog'di. Bir kunluk yerga tegdi ersa, Sulaymon hudhuddin so'rdi: Taxtini keltirdimu? teb. Sulaymon ul taxtg'a tama'lig' bo'ldi. Osafg'a kengashti, yana shayotinga aydi: Qayungiz bo'lg'aykim, Bilqis manga kelmazdin burun taxtini bunda keltursa. Bir bo'ynag'u dev aydi: Sen hukm qilg'u maqomda qo'yg'uncha men munda keltururmen. Bu ishga qavayman. Qavluhu taolo. *Qola ifritun minal-jinni ana aatika bihi qabla an taquma min maqomik.* Sulaymon aydi: Andinma tez kerak. Osaf ibn Barxayokim, Sulaymonning xos vaziri erdi: Sen ko'z yumub ochg'uncha kelturayin, tedi. Qavluhu taolo. *Qolal lazi indaxu ilmun minal kitabi ana aatika bihi qabla an yirtadda ilayka tarfuka.* Sulaymon ko'zin yumdi. Osaf aydi: yo hayyu, yo qayyum. Izi azza va jalla yorliq tegurdi. Mekoil Bilqis taxtin ko'tarib Osaf qo'lig'a berdi. Sulaymon ko'z ochti, taxtni o'ngida ko'rdi. Farmonladi, oltun o'rnimg'a kumush o'rnatdilar, kumush o'rnimg'a oltun o'rnatdilar. Yoqutni yinju o'rnimg'a, yinjuni yoqut (150r) o'rnimg'a o'rnatdi. Ko'rayin tanirmu yo tanimasmu, teb. Qavluhu taof. *Nakkiru laha arshaha.* Tonglasi Bilqis shaharg'a kirdi, piyoda bo'ldi. Sulaymon ani eshitti ersa farmonladi, otlanturdilar. Bulutg'a aydilar, Bilqis tepasiga yinju, yoqut, shakar, anbar yog'di. Bilqis bu karomatlar birla Sulaymon qatig'a keldi. Ko'rdikim, saltanat taxti uza o'turur. Odamiylar, devlar, parilar, uchar qushlar, yel-bulut xidmatinda tururlar. Bilqis ani ko'rub, yig'ladi, mulkin unutdi. Osaf kelib, Bilqisni oltun taxt uza o'lturdi. Sulaymon aydi: Ey Bilqis, yuzungni ochg'il. Niqob ko'tardi ersa Sulaymon yuzin ko'rdi. Andog' yuzni ko'rmishi yo'q erdi. Aydi: Ey Bilqis, uftanmasmuse, aning bandasi erkan, muncha ne'mat bermish erkan, kunga topinursen? Bilqis aydi: Ey malik, ayblik bandani Tengri yormas, sen ham yormagil. Sulaymon pushaymon bo'ldi. Bilqis yig'ladi, o'zumga zulm qildim, emdi Tengriga yondim. Sening dingingni qabul qildim, teb, Sulaymon taxtining azoqini o'pti. Jabroil kelib yorliq tegurdi: Ey Sulaymon, qilmishlarin kechirdum, tavbasin qabul qildim. Sulaymon bashorat berdi, Bilqis

sevundi. Ko'zi o'z taxtig'a tushdi. Sulaymon aydi: Bu sening taxtingmu turur? Qavluhu taolo. *Ka'annahu huna*. Aymishlar, Sulaymon Bilqisning ziyirakligin tongladi. Yiroq yerdin mundakim kelturdi, maning turur temadi. Qamug' naqshlarin ko'rdi ersa, mening ermas ham temadi. Mening turur tegulik tedi. Sulaymon oshuqti, azoqini ko'ray teb. Parilar aymishlartekmu erkan teb. Ul sirchadin ev saning turur, kirgil, tedi. Suv ko'rdi, ichinda darayo jonvorlari bor. Sircha borin bilmadi, o'zin yopqardi. Sulaymon meni bu suvda o'turur sandi. Meni o'turur bo'lsang sanga mol berayin, meni bu suvda o'turmagil, tedi. Sulaymon aydi: Kirgil. Bilqis o'tuk chiqarib azoqin yalang qildi, suv teb qo'ydi. Yana bir azoqin qo'yarda bildikim suv ermas. Sulaymonning murodi yinchukin ko'rmak erdi. Qavluhu taolo: *Fa lamma ra'athu hasnathu lujjatan va kashafat an saqayha qola innahu sarhun mumarradun min qavarira*. Bilqis sarhanglari birla ul evga kirdilar. Sulaymon aydi: Tilasang seni sening beklarimga berayin, tilasang (150v) mening beklarimga berayin. Bilqis aydi: Mening beklarim mening birla erdilar, saning beklaring ham kerakmas, men anga muhtoj ermasmen. Sen meni olur bo'lsang borurmen. Sulaymon Bilqisni oldi. Aymishlar, Bilqis haqida iki so'z so'zladilar, avval aydilar: azoqi eshak azoqig'a mengzar, ikkinchi, yinjuki tukluk turur tedilar. O'tukin chiqarib suvg'a kirdi, azoqin ko'rdi, ular aytg'antek ermas tusi bor erdi. Savol: Oq et uza qora ayb bo'lmas, arab ham oq uza qorani suvar. Sulaymon unamadi, hikmat ne erdi? Javob: Aymishlar, arab oq uza qorani suvar, Muhammad rasululloh ani suvdi arab uchun, ammo Sulaymon suryoniy erdi, ular oq uza sarig'ni suvarlar. Aning uchun unamadi. Bir kun Bilqis Sulaymondin so'rar erdi: Sendin so'ng yalavochlarda sendin fozilroq bo'lg'aymu? Sulaymon aydi: Mendin burun hech yalavochg'a mening karomatim tegmadi, ammo mendin so'ng Muhammad otlig' yalavoch bo'lg'usi, mendin ham qamug' yer-ko'k xalqidin fozilroq bo'lg'usi. Bilqis aydi: Men ani ko'rgaymenmu? Sulaymong'a ul so'z yoqmadi. O'g'li Hakimni undadi, Bilqisni o'z mulkiga yondurdi. Ul so'zdin aymishlar, Sulaymoning Bilqisidin o'n iki o'g'li bo'ldi, qamug' i kichikda vafot bo'ldi. Aymishlar, Bilqis yuz yil o'z mulkida umr kechurdi, musulmonliq uza bordi.

BAYT UL-MUQADDAS SIFATI

Ka'b ul-Axbor aymish, raziallohu anhu: Mavlo taolo Sulaymong'a vahiy qildi, Bayt ul-Muqaddasni bino qilg'il! Devlarg'a farmonladi, tog'lardin toshlar kesib tomin qo'pordilar. Ruhom toshidin ustunlar qildilar. Tengizdin gavhar, yinjular nechakim o'mattilar turmadi. Sulaymon qazg'uluq bo'ldi. Osaf bilan kengash-ti. Baqirdin kublar qilsunlar, suv birla to'ldursunlar, qir birla og'zin berkitsunlar, yuzuk birla muhr qilsunlar, bo'lg'aykim turg'ay. Sulaymon andog' qildi, ev tamom bo'ldi. Gavharlar birla bezadilar. Qamug' xaloyiqni undab qurbonlar qildi. Sulaymon ura qo'pub munojot qildi: Xudoyo, tavfiq berding bu uyni qo'porduq. Emdi besh hojatim bor, rava qilg'il. Qayu yozug'luq qul bu evga tavba qilg'ali kelsa tavbasin qabul qilg'il (151r), ani yorliqag'il, ikkinchi, qayu og'riq kelsa shifo bergil, uchunchi, qayu hojatlig' kelsa hojatin ravo qilg'il, to'rtunchi qayu dushman uza nusrat tilasa zafar bergil. Bu duolar ijobat bo'lg'anining belgusi ul bo'lsun, mening qurbon qilg'anim bezarlasun. Ul holda havodini o't keldi, qurbonlarni kuydurdi, ma'lum bo'ldikim, Sulaymonning duosi mustajob bo'ldi. Aymishlar, Sulaymon mulki tamom bo'ldi, yigirmi yeti o'g'li, qirq uch qizi bo'ldi. Aymishlar, o'g'lonlarda uch qiz, bir o'g'ul Bilqisidin bo'lub erdi. Qachon umri tamom bo'ldi ersa, bir kun mehrobd ibodat qilur erdi, devlarg'a aydi: Bu tengizni tufroq birla tiqing. Aning uchunkim bir kun kim ersa g'arq qilmish erdi. Ammo aymishlar, Sulaymon Fors viloyatindin tebradi, Kirmon tog'laring'a keldi, devlarg'a farmonladi, tog'lardan tosh kelturub yigirmi yig'ochg'a tegi tengizni tiqtilar. Sulaymon yonib keldi, an-din to'rt oy yeti kun og'ridi, bir kun qo'pti. Yotur yeringa borurda og'riq tutdi, tayoqing'a yopushti. Azroil kelib ura tururda jonin oldi. Aymishlar, Bayt ul-Muqaddasni qilurda tayoqq'a tayanib tururda Azroil jonin oldi. Mavlo taolo Sulaymon yalavoch holin-din kim ersaga bildurmadi. Agar o'lmish bilsalar devlar qamug' i ketgay, Bayt ul-muqaddas imorati tamom bo'lmag'ay erdi. Ammo Osaf bilur erdi, odamiy, dev, pariga ish buyurur erdi, xalqg'a ay-tur erdikim, Sulaymon ibodatg'a mashg'ul turur. Bir yilga tegi ev-din chiqmas der erdi. Kim ersa Sulaymonning haybatidin qoshig'a

kela bilmas erdi. Bir yil tayoqq'a tayanib turdi, o'Imishin kim ersa bilmas. Bu ishni devlar sezidilar, yig'ochni yegan qurtg'a aydilar: Borg'il, Sulaymonning tayoqin yegil! Qurt aydi: Men yig'ochni yeyurda suvsiz tura bilmon. Parilar aydilar: Biz senga suv kel-turaling. Ul qurt yig'ochni yeyu tugatti ersa Sulaymon yuzin tush-di. Qavluhu taolo: *Fa lamma qazaynaa alayhil-mavta ma dallahum ala mavti-hi illa daabbatul-arzi ta'kulu minsa'ata*. Ma'nisi ul tururkim, Mavlo taolo yorliqar: Qachon Sulaymong'a o'lum huk-mini yurutduk ersa aning o'limig'a kim ersa yo'Ichilamadi, (151V) illo ul qurtg'inakim, tayoqin yedi. Qachon Sulaymon yuzin tushdi, olamg'a ma'lum bo'ldikim, parilar g'ayb ilmin bilmas. Agar g'ayb-ni bilsalar erdi bir yil azobda qolmag'aylar erdi. Qavluhu taolo. *Fa lamma xarra tepayyanatil jinnu an lav kaanu ya'lamunal g'ayba ma labisu fil azabil muhin*. Bilgilikim, aybni Tengridin o'zga bilgu-chi yo'q. Andin so'ng Sulaymonni ul evda-o'q qo'yidilar. Qapug'in kin birla og'durdilar. Aymishlar, o'tuz iki yil mamlakat surdi. Olt-mish bir yil umri erdi.

QISSAYI YUNUS YALAVOCH ALAYHIS-SALOM

Ul va inna Yunusa laminal mursalin darojating'a etgan, iz zahaba mag'oziban itobi birla muftalo bo'lg'an, fa naada fiz-zulumati xil'atin kizgan, la iloha illa anta subhanaka tasbihin ayg'an, falav la annahu kaana minal-musabbihin tashrifi birla musharraf bo'lg'an, lanubiza bil'arai va huva mazmum karoma-ti birla mukarram bo'lg'an, qirq tun-kun baliq qornida qolg'an Yunus yalavoch alayhis-salom.

She'r

Ninavag'a haq yalavoch Yunus erdi yolg'uzun,

Yuz ming evlik el tepa yorlig' yeturdi yolg'uzun.

Muncha sonlig' xalq ichinda biri yo'lg'a ko'nmadi,

Haqqqa yozib, yo'ldin ozib yurudilar yo'lsuzun.

Chiqti eldin o'fka birla o'tru keldi bir tengiz,
Yetti suvg'a botti baliq qornig'a tushdi yuzun.
Iki o'g'li birla erdi, bo'ri yedi birisin,
Birni baliq eltti ko'rdi ani o'zi o'z ko'zin.
Ich qorong'uluqda baliq qornini mehrob etib,
Haqq'a yonib qildi toat, tasbih aydi tun kunun.
Xalqdin ozorlandi chiqti, kirdi baliq qornig'a,
Tun-kun anda ingranibon qoldi kecha kunduzun.
Rabbi Ug'on qutqardi andin qavmi imon kelturub,
Keldi yuz ming er qamug' beshin o'nun o'tuzun.

Aymishlar, Barshom otlig' malik bor erdi. Yuz yetmish malik aning tasarrufida erdilar. Barshom malik tengiz qirog'inda Matlav otlig' shariyonda butha topinur erdi. Ul butning oti Balas erdi. Uzuni yigirmi uch qari, eni yuz qari. Boshi kumushdin, tishlari ol-tundin, ko'zlari yinju, yoqutdin, qo'llari, butlari qizil oltundin, Toji qizil yoqut, ko'k, sarig', yashil zabarijaddin murassa'. Taxt uza o'lturub, uch yuz qorabosh oltun, kumushdin bir mijmar ul but o'ngida yipor, za'faron kuydururlar. (152r) Barshom yuz ming er birla otlanib, Mo'sil sharinga kelib o'lturdi Ul elda yalavoch o'g'lonlari telim erdi. Qamug'i zohidlar, obidlar erdilar. Ul Bayt ul-Muqaddasg'a keldilar, yigirmi ming zohid, obidlar erdilar. Ul kun Bayt ul-Muqaddasda bir yalavoch bor erdi, Maxahirqiyo otlig'. Jabroil kelib aydi: Ey Maxahirqiyo, Izi azza va jalla sanga salom aydi taqi yorliqadikim, bu yigirmi ming zohid, obidlardin manga yarag'utek birisini uzurg'il. Maxahirqiyo aydi: Xudoyo, senga yarag'uni ne bilayin? Jabroil bir qamish kelturdi, aydi: Izi yorliqar, bu qamishni maning qullaring'a tenglagil. Kimning bo'yiga teng kelsa yalavochlig' berdim, anga ayg'il, borsun. Mo'sul eilnga Bar-shamg'a aytsun: Alloh bir turur, men aning yalavochiman. Maxahir-qiyo ul qamishni zohidlar, obidlarg'a tengladi. Hech kim ersa bo'ynug'a teng kelmasi. Aydi: Xudoyo, sami'un alimsen. Aymish-lar, Bayt ul-Muqaddasda bir Mano otlig' zohid bor erdi. Tekma kunda to'rt yuz rak'at namoz qilur erdi. Hudhud otlig' xotuni bor erdi, tekma kecha bir farishta anga ko'kdin ta'om kelturur erdi. Aning bir o'g'li bo'ldi, Yunus atadilar. Yunus to'yar choqlig' onasi

suti yo'q erdi. Otasi Mano Yunusni tog'ga eltti. Ul tog'da qo'ychilar bor erdi. Alarg'a aydi: Bu o'g'long'a qo'y sutin bering. Sutlug qo'yular sutin bermadilar, sutsiz qo'yular sutin berdilar. Mano ul qo'yning emchakin Yunus og'zig'a suqdi, aydi: Bismillahir rahmanir rahim. Izi qudrati birla sut oqa boshladi. Yunus ul sutni emdi, aydi: *Alhamdu li-llahi rabbil olamin*. Ul qo'ychilar aydilar: Bu shukrni kimga qilursen? Mano aydi: Xudoyg'a. Ul qo'ychilar yetmish er erdilar, barchasi imon kelturdilar. Yunus ulg'aydi, toatg'a mashg'ul bo'ldi. Qamug' zohidlardan fozilroq erdi. Yunusning bir oti Zannun erdi, anchada Jabroil kelib aydi: Ey Maxahirqiyo, Izi azza va jalla sanga salom izdi, salom birla durud yorliqadi taqi Hiro tog'ing'a borg'il, anda bizing bir qulumiz bor. Ul qamishni aning bo'ynig'a o'lchag'il. Maxahirqiyo kelib qamishni Yunus bo'ynig'a o'lchadi ersa, teng keldi. Ey Yunus, bashorat senga yalavochnlig' berdi. Anchada Jabroil keldi, aydi: Ey Yunus, ug'on Tengri senga (152v) salom izdi. Yunus aydi: Sen kim? Aydi: Men Jabroilman. Izi azza va jalla yorliqar, Mo'sul elinga borg'il, taqi qulum Barshomg'a ayg'il, butg'a topunmasun. Aytson, men bir Allohman, sen manim yalavochimsan. Aymishlar, Yunus tor ko'ngulluk erdi, aydi: Iziyo, bularni imong'a netak o'qiyin? Jabroil kelib yorlig' tegurdi. Qayu yerda xalq ukushrak ersa anda turg'il, ayg'ilkim, bo'lg'aykim uch narsa qabul qilg'ay. Agar so'rsalar, ul uch qayu turur, ayg'il, bir, Alloh turur iqrar qilinglar *La ilaha illa-llohu Yunusu rasulu-llohi*. Ikinchi, ul tururkim, sizlarga hargiz qahatlig' bo'lmag'ay. Uchunchi, sizlarga a zulm bo'lmag'ay. Yunus aydi: Ilohiy, ularni qachong'a tegi undayin? Yorlig' keldi, bir yilga tegi. Aydi: Qabul qilmasalar ne qilayin? Yorlig' keldi, balo yuborgaymen. Yunus aydi: Ne balo yuborgaysen? Yorlig' keldi, bizing xazinamizda zahmat va azoblar kam ermas. Aydi. Xudoyo, qachon yuborursen? Yorlig' keldi, ul seshanba kunikim man tilasam. Yunus xotunig'a keldi, oti Sofon binti Sofun, aydi: Ey Sofon, meni Mavlo taolo qamug'din yovuz xaloyiqg'a yibordi. Sofon aydi: Qayu xaloyiqg'a? Aydi: Mo'sul xalqing'a. Xotuni aydi. Men sanga mute'man, sen ham Izi azza va jallag'a mute' bo'lg'il. Iki o'g'li bor erdi, biri yeti yashar, biri besh yashar. Yunus ulug' o'g'lin ko'tardi, xotuni kichik o'g'lin ko'tardi. Kechaga tegru yuridilar. Kecha uyudilar ersa Mavlo taolo bir

farishta izdi, Yunusni, xotuni taqi o'g'lonlari birla ko'tardi, o'n yig'ochliq yer eltdi. Mo'sul shahri qatinda qo'ydi. Tonglasi uyg'ondilar, o'zlarin Mo'sul shahrinda ko'rdilar. Yunus yig'och cho'p kelturdi, o'g'lonlarig'a ko'laka qildi. Xotunig'a aydi: Men Mo'sul elinga borib, Tengri yorliqin tegurayin. Eson qolsam kecha kelayin, kelmasam o'z yarog'ingizni qiling. Ul yerdin Mo'sul bir yig'och yer erdi. Elga kirdi, g'alaba xalq ko'rdi, qatig' un birla aydi: Kim bo'lg'ay birni bersa taqi uchni olsa. Aydilar: Ey telva, ul bir qayu turur? Aydi: Bir ul tururkim, *la ilaha illa-llohu Yunusu rasulu-llohi*. Aydilar: Ey telva, bu bir bori ulug' ish turur. Ul uch qayu turur? Aydi: Sizga biri ulkim, toun bo'lmag'ay. Ikinchi, qahatliq bo'lmag'ay. Uchunchi, zulm bo'lmag'ay. Aydilar: Ey telva, biz hargiz toun va qahatliq (153r) va zulm ko'rmishimiz yo'q, teb tosh, tuproq birla urdilar. Taqi o'z maliklaringa aydilar. Malik so'rdi: Ne cho'g'i turur? Aydilar: Bir er keldi, ko'rmakka yuzi ko'rkluk, ammo o'zi telva turur. Malik kelturub, Yunusni ko'rdi ersa, qo'rquv, kimsen? tedi. Yunus aydi: Sentek odamiyman. So'rdi: Oting ne turur? Aydi: Yunus. Aydi: O'zga oting bormu? Aydi: Yana bir otim Zannun. Malik barmoqin tishladi. Kitob o'qimish oqil erdi. Aydi: Kimdin kelding? Aydi: Allohadin keldim. Aydi: Qayu Allohadin? Aydi: Seni, meni yaratg'an taqi qamug' olamni yaratg'an Allohadin. Aydi: Ne ishga kelding? Aydi: Qamug'ingiz ayding: *La ilaha illa-llohu va inna Yunusa rasulu-llohi*. Malik boshin quyi soldi. Yunus aydi: Ey Barshom, bir yo'li ayg'il, uch narsani olg'il. Aydi: Uch ne turur? Yunus aydi: Toun, qahatlig', zulmg'a ilinmagaysen. Malik aydi: Telva bo'lg'ay-musen? Yunus aydi: Netakdin meni telva teyursen? Malik aydi: Qayu malik bo'lg'ay mendin zolimroq, mendin cheriki ko'prak. Mening muncha telim ne matim bor erkan qahatliq ne qilg'ay? Biz kendu toun ko'rmishimiz yo'q. Ul uch narsa so'z ermas. Yunus aydi: Ayg'il Alloh bir turur, men aning yalavochiman. Taqi butg'a topunmang. Malik aydi: Bu so'zga tanuqung bormu? Saroy o'rtasinda bir oq tosh bor erdi? uy suratlig'. Malik aning uza minub suv quyunur erdi. Yunus aydi: Bu tosh tanuq turur. Malik aydi: Tosh netak tanuq bo'lur? Yunus aydi: *Ayyatuhas saratu taqaddami* ey tosh, ilgari kelgil. Mavlo yorliqi birla tosh keldi. Yunus aydi:

Tanuqluq berurmusen? Tosh aydi: *La ilaha illa-llohu va imna Yunusa rasulu-llohi*. Malik tongladi, aydi: Ey Yunus, taqi kim tanuqluq berur? Evda saqlag'an kiyik o'g'loqi bor erdi. Yunus aydi: Bu o'g'loq tanuq turur. Malik aydi: Ayg'il, tanuqluq bersun. Yunus aydi: *Ya ayyuhal-g'azalu taqaddam*. O'g'loq Yunus qatig'a keldi. Yunus aydi: Tanuqluq berurmusen? Aydi: Tanuqmankim, Alloh bir turur, Yunus aning yalavochoi turur. Malik o'ng, so'ling'a boqti, aydi: Sizlar ne teyursiz? Aytilar: Jodu turur. Malik aydi: Ey Yunus, men seningdek ulug' jodu ko'rmishim yo'q (153v), mendin yiroq ketgil Yunus chiqti, oqshomg'a tegi xaloyiqni Mavlog'a indadi. Kecha o'g'lonlaring'a keldi. Kunda bir mundog' kelur erdi. Yunus-ni tosh, tuprog' birla urar erdilar. Yigirmi kundan so'ng yana keldi. Malik aydi: Ey Yunus, bilgil erga o'xshayursen, ammo qiliqing telvalarg'a o'xshar. Kelgil, bu so'zni qo'yg'il, mulkim ichinda seni vazir qilayin. Yunus aydi: Manga sening mulkung kerakmas. Ayg'il: *La ilaha illa-llohu va imna Yunusa rasulu-llohi*. Malik aydi: Ey Yunus, maning tengrimni ko'rdungmu? Yunus aydi: Ko'rma-dim. Aydi: Borg'il, tengrimni ko'rgil, mening tengrimmu ko'rkluk yo' sening tengringmu. Yunus aydi: Ey kofir, mening tengrim oltun, kumushdin ermas, qamug'ni yorliqag'an erklik turur. Malik aydi: Ey Yunus, mening sanga rahmim kelur. O'zingni o'lumga solursen. Yunus aydi: Mening qazg'umni yemagil, mening Izim qamug' yovuzlardin saqlayur, teb malik qatidin chiqti. Malik mundoiy qil-durdur: Har kim Yunusni ursa, emgatsa men ani halok qilurman. Yunus xaloyiqni imong'a undayu boshladi, qirq kunga tegi. Qirq birinchi kun malikka keldi. Aydi: Ey malik, Mavlo yorliqi manga qirq kun erdi. Undadim, biragu imong'a kelmadi. Emdi Izi azza va jalla balosing'a anuq turg'il. Malik aydi: Baloning belgisi ne turur? Aydi: Tong birla qo'psangiz yuzlaringiz qizarg'ay, ikinci kun sarg'arg'ay, uchunchi kun qorarg'ay. O'nunchi kun balo kelgay, teb malik qatidin chiqti. Kechaga tegi xalqni imong'a undadi. Tunla o'ring'a keldi, namozg'a turdi, o'zga elga kirmadi. Ular tonglasi qo'ptilar, yuzlari sarg'ardi, ikinci kun qizardi, uchunchi kun qorardi. Malikka aytilar: Yunus so'zi rost keldi. Malik aydi: Tonglasi ko'raling ne bo'lur. To'rtunchi kun ham andag'-o'q, beshinchi kun qop-qora bo'ldi. Malik aydi: Tonglasi ne bo'lur ko'raling. O'nunchi

kun Jabroil keldi, tamug' erkligi, malikka aydi: Tengri taolo aydi, Yunus qavming'a ellik ming yildin burun qilg'an azobni ularg'a izsun, mening qudratimni ko'rsunlar. Molik uch azob chiqar-di-sarig', qizil, qora, uch bulut uza qo'ydi. Tekma bir bulutg'a yet-mish ming farishta muvakkil erdi. Ul bulut (154r) larni undadi, Mo'sul viloyati uza tutdilar. Jabroil bir-bir un qildi. Qamug' qush-lar, yilqi qoralar Mo'sul viloyatidin chiqtilar, balo ularni egirdi. Malik aydi: Yunusni tilang. Tilab topmadilar. Malik aydi: Yunus yo'q ersa tengrisi bor. Aydi: Xudoyo, sening birliginga, Yunusning yalavochliqiga iqror qilduq. O'z butlarini sindurdilar, o'tg'a kuy-durdilar. Malik o'zibir paloskiydi. Bo'ynig'ag'ulurdi. Azoqlaring'a bo'qagu urdi. Bir zangi qulg'a buyurdi: Bu yipni bo'ynumga bog'lag'il, meni yuzin solg'il, ayg'il: Bu ul kim ersaning jazosi tururkim, o'z tengrisindin yuz o'vursa. Andin so'ng malik erlarni xotunlardin, yosh o'g'lonlarni onalaridin ayirdi. Qamug'i yozig'a chiqtilar, Mavlo taolog'a yolbordilar. Ul balo boshlari uza turuqdi, havo qorardi, bir-birini ko'rmas bo'ldilar. O'n kun kechti. Er xotung'a, xotun erga yovumadilar, osh, suv ichmakni soqinmadilar, yosh o'g'lonlar onalarin emmadilar. Qamug' boshlarin yerga qo'yub, Mavlog'a zoriliq qildilar. Malikni andag'-o'q bo'ynin bog'lig' sudrayur erdilar. Malik qattiq un birla: *La ilaha illa-llohu* der erdi. Uch kundan so'ng farishtalar munojot qildilar: *Ilahana va sayyidana arhamar rohimin* sensen, bu qamug' sening qullaring tururlar. Yorlig' keldi, ey farishtalar, bu qullarimning tillari ko'ngullari birla tuz ermas. Ul xaloyiq qirq kun mundog' baloda erdilar, qirq kun Yunus yalavochni mundog' emgatmishlari uchun. Qachon qirq kun tamom bo'ldi ersa Jabroil keldi. Yorlig' tegurdi, qullarimning tillari ko'ngullari birla tuzaldi, azobni ularin yondur-g'il. Qirq birinchi kun yondurdi. Malik musulmon, qamug' musul-mon bo'ldilar. Islomlari qabul bo'ldi.

Aymishlar, Izi azza va jalla balolarin hech qavmdin yondurmadi, magar Yunus qavmindin. Qavluhu taolo. *Illa qavma Yunusa lamma aamanu kashafna anhum azabal-xiziya*. Yunusning bu ishlardin xabari yo'q erdi. Qachon malik musulmon bo'ldi ersa, mundoiy qildirdi: Har kim Yunusni manga keltursa yo xabarin bersa qayda erdukin, yarim mulkunni berurmen. Anda Iblis bir qari kishi

suratig'a (154v) Yunus qatig'a keldi. Yunus aydi: Qaydin kelursen? Iblis aydi: Yolg'onchi Yunus sen bo'lurmusen? Balo kelmadi. Malik dor tikib, dorg'a osayin teyur. O'zgalar ham mundog' so'zlamasunlar teb seni tilayur. Yunus Iblis so'zin rost tutub, o'fkalab, xotuni birla o'g'lonlarin olib, yozig'a chiqti. Qavluhu taolo. *Va zan nuni iz zahaba mug'oziban fa zanna lan naqdira alayhi.* Aymishlar, o'fkasi Jabroilg'a erdi, Jabroil kelib aydi: Izi yorliqar, Ninvag'a borg'il, yorlig' tegurgil, imon keltursinlar. Ul kun Yunus palos to'nlug' erdi, kiyiz bo'rkluk erdi, azoqinda iylanmagan eshak terisidin choriqi bor erdi. Yunus aydi: Ey Jabroil, oncha zamon bergil. Mavloning yalavochoi bo'lub mundog' libos bormoq loyiq ermas. Jabroil aydi: Mavlo yorliqinda zamon bermak yo'q. O'fkalab chiqti. Aymishlar, qavmi imon kelturmadi ersa qavmig'a o'fkaladi. Aymishlar, ul zamonda yalavochoi ko'p erdi, bir yalavochoi g'a farmon bo'ldi: Zamona malikinga yalavochoilardin birin uzursun, Ninvag'a borib yorlig' tegursun. Ul yalavochoi malikka aydi. Malik Yunus yalavochni uzudi. Yunus aydi: Meni borsun teb yorlig' bormu? Malik aydi: Seni borsun teb yorlig' yo'q, ammo yorlig' ul turur, men kimni uzursam ul borur. Yunus aydi: Meni borsun, teb kasa yorlig' yo'q ermish. Ul haloyiq yavloq yovuq tururlar. Mani uzurg'uncha yana birovnini uzurg'il. Malik unamadi, Yunus malikka o'fkalab, eldin chiqti, xotuni, o'g'lonlari birla Lukom tog'ing'a o'g'radi. Ul tog'da bo'ri, qoplon, arslondin o'zga jonvar bo'lmas erdi. Ul kun yetmish besh obid kimersa xalqdin qochib, bizni kishi ko'rmasun, teb Lukom tog'inda ibodatg'a mashg'ul erdilar. Yunus ulardin qochti ersa ul tog'ning bir burji tengiz erdi. Izi azza va jalla erga erklik Sarsabil otlig' farishtag'a yorlig' tegurdi. Maqdisg'a borur yo'lni tutg'il, Yunus anda bormasun. Yunus Maqdis yo'lin qo'ydi, tog' yo'ling'a kirdi. Sarsabil Izi yorlig'i birla kelib, Yunusg'a salom qildi. Yunus alik oldi. So'rdi: Qayong'a borursen? Yunus aydi: Bilmasman qayda borurmen. Izi azza va jalla men faqirni qamug'din yomon xaloyiqg'a izdi. Ularg'a balo yiborgay (155r) men teb va'da qilmish erdi, yibormadi. Meni yolg'onchi atadilar, dor tikib meni osayin tedilar. Aning uchun qochib tururman. Sarsabil aydi: *Lav kaana qalbuka qalbal-xaifna va sabruka sabras-sobirina ma harabtamin rabbil-alamina.* Ya'ni ko'nglung

qo'rqunchlug'lar ko'ngli bo'lsa erdi, sobirlar sabri bo'lsa erdi, olamni yaratg'an Tengridin qochmag'ay erding. Yunus andin kechub bir obidg'a tegdi. Ko'rdi, namoz qilur. Namozdin forig'di ersa salom qildi. Obid alik oldi. Yunus aydi: Oting ne turur? Obid aydi: Otim Hammom. Yunus aydi: Ey Hammom, menga sening qatigda o'run bo'lg'aymu. Hammom aydi: Sen Tengri azza va jalladin qochmishg'a o'xshaysen. Ketgil, meni mashg'ul qilmag'il. Yunus yana bir obidg'a tegdi. Anga ham salom qildi. Obid javob berdi. Oting ne turur? deb so'rdi. Obid aydi: Otim Hammom. Yunus aydi: Necha yil bo'ldi munda turursen? Obid aydi: Uch yuz yil bo'ldi. Yunus aydi: Qatigda menga yo'l bo'lg'aymu? Obid aydi: Tengri azza va jalladin qochmish bo'lg'aysen. Ketgil, meni mashg'ul qilmag'il. Yana bir obidg'a tegdi. Oting ne? tedi. Otim Solih. Necha yil bo'ldi mundasen? tedi. Obid: To'rt yuz yil bo'ldi, tedi. Sendin o'zga kishi ko'rmishim yo'q. Yunus aydi: Manga o'run bo'lg'aymu? Ulartek javob berdi. Yana bir obidg'a tegdi, ruku' ichinda uyuqlar erdi, aning ham otin so'rdi. Aydi: Otim Abdurrahmon, besh yuz yil bo'ldi mundamen. Yunus aydi: Taomg'a muhtojmen. Qatinda oq tosh bor erdi, qo'li birla sifadi. Isig' etmak zohir bo'ldi. Yunusg'a berdi. Bir pora edi, qolg'anin o'g'lonlarig'a berdi. Andin ham o'run tiladi. Aydi: Besh yuz yildin beri Mavlog'a yozmishim yo'q. Bilmasman, o'rnum ujmohtamudur yo tamug'damu. Yana bir obidg'a kelib: Oting ne? tedi. Obid: Otim Munis, olti yuz yildin beri mundaman. Mundin ketgil, meni o'z qayg'um birla qo'yg'il, tedi. Yunus: Ne qayg'ung bor, tedi. Aydi: Iki yuz qirq yildin beri bir hojat tilarman. O'lmasdin burun ul hojatim ravo qilg'il derman. Bu kun eshittim, ajaling yetti, bu kun o'larsen. Bilmasmankim, Mavlom mendin xushnud bormu yo yo'qmu. Yunus aydi: Hojating ravo bo'lmish bo'lg'ay. Obid aydi: Sen kimsen? (155v) Aydi: Men Yunus taqi bir otim Zannun turur. Yunus yalavochoi senmussen? teb Munis Yunusning azoqig'a tushti. Taqi aydi: Ey Yunus, bir soat sabr qilg'il, qachon va'dam yetsa meni tuproqda qo'yg'aysen. Yunus namozg'a turdi, Munis boshin sajdaga qo'ydi. Sajda ichinda jon taslim qildi. Yunus Munisni yuvdi. Yerga ko'mdi. Andin so'ng yana bir obidni ko'rdi-ura turur, tebranmas. Yunus anga salom qildi. Jabroil kelib aydi: Ey Yunus,

aning birla so'zlashmagil. Yunus so'rdi: Bu kim turur? Jabroil aydi: Mekoil otlig' obid turur. Yunus aydi: Necha yil bo'ldi mavlo taolog' a toat Jabroil aydi: To'qquz yuz etmish yil bo'ldi Mavlo taolog' a toat qilur. Yunus aydi: Yegani, ichgani ne turur? Jabroil aydi: Tasbih va tahlil. Taqi Mavlo azza va jalla umohdin har yilda bir hulla to'n yiborur. Men kelib eskisin chiqarub, yangisin kiydururmen. Ul odatdin xoli bo'lmas. Andin so'ng yana bir obidg' a tegdi. Aning yuzi kuntek shu' la urar. Yunus salom qildi. Jabroil aydi: Ey Yunus, munga ham so'z qotmag'il. Yunus aydi: Bu kim turur? Jabroil aydi: Bu parilarning ulug' i turur. Jahmo otlig'. Odam Safiy ilkinda musulmon bo'ldi. To'rt ming yil tururkim, munda ibodat qilur, tebranmas. Oxir zamona bo'lsa Muhammad rasulullohg' a borg' ay, kofirlar birla to'qush qilg' ay. Yunus aydi. Yegani, ichgani ne turur? Aydi: Tasbih va tahlil. Izi azza va jalla turuk obidlarni anga ko'rguzdi. Bizing hazratimizda sendin ortuqroq bor teb bilgil. Andin so'ng tog' lar tugandi, bir tengiz o'tru keldi. Yiroqdin kemi ko'rundi. Xotuni birla iki o'g' lin tengiz qirog' ida qo'ydi. Kemichiga so'zlashgali bordi. Ul borg' anda kichik o'g' li tengiz qirg' oqiga keldi. Tengizdin bir baliq boshin chiqarib, Mavlo yorliqi birla o'g' lonni yutti. Onasi so'nguncha yugurdi, ani ham yutti. Bo'ri kelib ulug' o'g' lin olib ketti. Onasi yig' lay qoldi. Ul zamon arqish yetildi. Qamug' i juhudlar erdi. Yunus xotunin, o'g' lonlarin olg' ali keldi, topmadi. Yig' layu kemiga keldi. Bir baliq boshin suvdin chiqarib aydi: Ey Yunus, nega yig' layursen? Tengri bermish erdi, oldi. Yunus kemiga kirdi, tengiz o'rtasig' a yetganda suvg' a erklik farishtaga yorliq bo'ldi, to'rt muxolif yelni qo'pordi: aqim, sarsar, janub, shimoliy. To'rt tarafdin kemini o'ynata boshladilar. Xaloyiq qo'rtqilar. Kemiga bir qari kishi kemichi bor erdi, aydi: Ey musulmonlar, qachon yozuqlug' kim ersa kemiga kirsu kemi mundog' bo'lur. Ul yozuqluq suvg' a solmag' uncha suv qaror topmas. Aydlar: Netak yozuq bo'lsa suv(g' a) solursan? Aydi: Xojasidin qochqan taqi ota-onani ozorlagan bo'lsa. Aydlar: Tengri taolo haqqi, Yunus yalavoch haqqi, kim yozuqluq ersa kemidin chiqsun. Hech kim javob aytmadi. Yunus alayhis-salom ura qo'pti, aydi: Musulmonlar, xojasindin qochqan qul menman. Suv g' a meni soling. Aydlar: Ey yigit, sen kimsen? Aydi: Men Yunus

yalavochman. Kemi xalqi qamug' i Yunus azoqig' a tushtilar. Aydlar: Yo Rasululloh, biz bu kun qutulsaq sening barakotingdin qutulg' aymiz. Suvning jo'shi taqi ortdi. Yunus qo'pti, o'zin suvg' a solg' ali o'g' radi. Ular unamadilar, Yunus aydi: Qur' a soling, kimning otig' a chiqsa yozuqlug' ul bo'lg' ay. Qamug' lari biror toshga odlarin bitidilar, suvga soldilar. Qamug' ining toshi suvg' a botti, Yunus toshi botmadi. Yunus aydi: Ko'rdunguzmu, yozuqlug' menman. Aydlar: Qur' a xato qilur, yana soling. Aymishlar, uch yo'li soldilar Yunus otig' a chiqti. Yunus qo'pti, to'nin kafan qildi, kemi qirog' ig' a keldi o'zini solg' ali. Zolujo otlig' baliq g' a ilhom bo'ldi, ul Yunus otlig' yalavochimizni tutg' il. Zolujo Yunusni tutayin tedi ersa Yunus qo'rqub bir yong' a ketdi. Baliq ul yong' a bordi. Yunus bu yong' a keldi. To'rt yong' a o'vrulur erdi. Baliq aydi: Ey Yunus, qachong' a tegi qocharsan? Yunus bildikim, Tengri taolo qazosi turur. Ilki birla ko'zin tutti. *Bismillahir rahmanir rahim*, teb o'zin baliq og' zig' a soldi. *Va inna Yunusa (156v) laminal mursalina iz abaqa ilal-fulkil-mashumi fa sahama fa kaana minal-mudhazina faltaqamahul-hutu va huva mulim*. Yorliq bo'ldi Zolujo g' a, sening qorningni Yunus g' a zindon qildim. Ani yemakni sanga harom qildim, ani emgatmagil. Munda savollar bor. Savol. Zannur nedin atandi, nun baliq turur? Javob: Izi azza va jalla xaloyiq g' a ko'rguzdi Yunus bizing toat va xidmatda erkanda ani yalavoch taqi sovchi ataduq. Bir soat bizdin g'ofil bo'ldi ersa baliq ataduq. Taqi bir javob: Doim sajdada erdi, baliq ham sojidalarg' a mengzar. Bu ot anga ta'rif edi. Mavlo yorliqadi: *Va zan nuni iz zahaba mug'oziban va zama an lan naqdira alayhi*. Ya'ni Yunus o'fkalik bordi, andog' xayol qildikim, bizaning uza qodir ermasmiz. Savol: Mavlo yalavoching' a mundog' sanmoq ravo bo'lurmu? Javob: Mavlo muni tariq uza yod qildi. Ayturlar, seni tutmoq g' a qudratimiz yo'qmu sanding? Necha ham tutarg' a qudrati bor erkan. urf Qur' on ichinda telim bor. Taqi javob: *An lan naqdira aylahi an lan nuzayyiq a layhi*. Ma'nisi ul bo'lur, bizing yorliqimizdin tash ketmagi uchun qo'yg' aymiz, uqubat qilmag' aymiz sandi. Taqi javob: Ma'rifat iyalari aymishlar, taqdir ma'nisi ul bo'lurkim, kofirlarg' a emgakda tutmoqni anga taqdir qilmaduqmu sanur. Mavlo taolo yorliqar: *Fa nada fiz-zulmati an la ilaha illa anta*

subhanaka inniy kuntu minaz-zolimin. Ma'nisi ul bo'lur, Yunus baland un birla bizni yod qildi: Iziyo, sendin o'zga Tengri yo'q, arig'liq senga turur. Men o'zunga zulm qildim, zolimlardan bo'ldum, tedi. Aymishlar, to'rt qorong'uluq erdi. Biri, zillat qorong'uligi, ikkinchi, tun qorong'uligi, uchunchi, suv qorong'uligi, to'rtinchi, baliq qorong'uligi. Bu so'zda dalil turur. Qachon bu qorong'uliklardan qutuldi ersa to'rt rak'at namoz qildi, ekindu namozi vaqti erdi, andin Mavlo taolo qabul qildi, bizga fariza bo'ldi. Aymishlar, ul baliq qirg tun kun og'zin yumjadi, tutulmasun teb. Jabroil kelib, ul baliq burning'a burunduq tiqti. Ul tengiz tegrasinda o'vrulur erdi (157r). Baliq qorin ko'zgudek qildi. Tashi ichdin, ichi tashdin ko'rundi. Qamug' ajoyiblarni ko'rguzdi. Bir farishtani ko'rdi, kursi uza o'lturur. Bu kimdur? teb so'rdi. Jabroil aydi: Bu tengiz erkligi farishta turur, amug' daryo xalqlarin, suv qatralarin bilur. Andin kechti biraguni ko'rdi, o'din kursi uza o'lturur. Sog'din, so'ldin ikagu munga sardroq tuflok solur. Ayturlar: Uftanmadimgmu, tengriman teding. Yunus so'rdi: Bu kim turur? Jabroil aydi: Bu Fir'avn turur, sog'indag'i Homon turur, so'lding'i Qorun turur. Taqi biraguni ko'rdi, kursi uza o'lturur. O'ngida qo'ldoshlari bor, biorda suvunur, birorda qayg'urur. Bu kim? teyu so'rdi. Jabroil aydi: Bu Iblis turur. Har kim tavba qilsa qayg'urur, har kim yozuq qilsa suvunur. Andin bir un eshitti. Bu na un? tedi. Jabroil aydi: Bu daryo xalqlari Iziga tasbih, taqdis ayturlar. Yunus aydi: *Ya rabbi minal-jibali habbattaniy va minal-barri axrajtaniy va fil-bahri ag'raqtaniy va fi batnil-huti asjantaniy fa va-llohi laa budanna laka ibadatan fi mavzi'in la ya'budu fiha ahadun minal-alamin*. Ma'nisi ul bo'lurkim, meni tog'lardin indurding, yozilardin chiqaring, daryog'a cho'murduq, baliq qornig'a solding, sentek Alloh hurmati olamlig'larda biragu senga qulluq qilmag'an yerda qulluq qilayin teb tasbihga mashg'ul bo'ldi. Unini farishtalar eshittilar ersa, aydilar: Iziyo, bilmasmiz eshitmas yerdin un kelur. Kimning uni turur? Yorlig' keldi: Baliq qornida Yunus yalavocho. Aydilar: Ilohiy, Yunus yalavocho doim seni o'qiyur erdi ezgulikda, bu kun anga farah bergil, zillatin kechurkil, baliq qornidin qutqarg'il, teb shaf'o'at qo'ldilar. Izi azza va jalla ularning shaf'o'atin qabul qildi. Agar Yunus baliq qornida namoz

qilg'anlardan, tasbih ayg'anardin bo'lmasa erdi qiyomatg'a tegi baliq qornida qolg'ay erdi. Qirg kun baliq qornida qoldi. Andin so'ng Jabroilg'a yorlig' bo'ldi, Zolujo'g'a ayg'il Yunusni chiqarsun. Zolujo aydi: Ey Jabroil, Izi azza va jalla Yunusni o'zga zindong'a solur bo'lsa munda-o'q tursun. Men anga sendin bag'irsoqman. Jabroil aydi: Izi azza va jalla ani zindonlamas, chiqarg'il. Zolujo yetti daryodin kechurub, tengiz qirog'ida (157v) qo'ydi. Qanoti yulummish qushtek za'if. Qavluhu taolo. *Fa nabaznahu bil'-aron va huva saqim*. Mavlo taolo Yunusg'a qabaq yig'ochin undurdi. Qavluhu taolo. *Va anbatnaa alayhi shajaratan min yaqtin*. Savol: Yunusg'a o'zga yig'och ko'lakasin bermadi, qabaq yig'ochi ko'lakasin berdi. Hikmat ne erdi? Javob: Qabaq yig'oching'a singak oz qo'nar. Yunus taqi za'if bo'lmish erdi, singak zahmat bermasun teb qabaq yig'ochin ko'karti. Yana Jabroil qanotin yerga sig'adi, totlig' oqar suv bilgurdi. Bir ivuq-kiyikka ilhom bo'ldi, kunda kelib sut berur erdi. Qachon tani kuchlandi, quvvati kirdi ersa bir kun hojatg'a borib erdi, kelguncha ivuq ketmish, suv qurimish, qabaq ham qurimish. Ani ko'rub qazg'urdi. Aydi: Iziyo, dunyo ne'matindin manga muncha bermish erding yana olding. Yorlig' keldi: Ey Yunus, undurmagan yig'ochg'a, oqurmag'an suvg'a qayg'urursen, muncha ming xaloyiqning haloklikiga yomon duo qilding, ani nega qayg'urmading? Emdi Ninavo tapa borg'il, ularni tavhidg'a o'qig'il. Andin kechti, Ninavog'a yovushti ersa, bir qo'ychi ko'rdi, andin sut tiladi. Qo'ychi aydi: Ey Yunus, sen bizning oramizdin chiqg'ali ko'k'din yog'in yog'maz, yerdin nabot unmaz, qo'yarimiz suti quridi. Yunus bir sog'liq qo'yni undadi, keldi ersa, Yunus qo'lin emchakiga sig'adi ersa, emchaklariga sut to'lub keldi. Qo'ychidin ayoq olib sut sog'ib ichti. Ayoqini tosh uza qo'ydi. Qo'ychig'a aydi: Borg'il, meni keldi teb elga xabar bergil. Qo'ychi aydi: Men qo'rqamen. Yunus aydi: Naluk qo'rqarsen? Qo'ychi aydi: Telim kim ersalar men Yunusni ko'rdum teyu keldilar. Ammo ul so'zga hujjat kelturmadi. Malik ularni o'lturdi, yolg'on aytursen teb. Yunus aydi: Qo'rqmagil, borg'il, bu sog'liqni, bu ayoqni, bu tosh(ni) olib borg'il, tanuqluq bergay. Qo'ychi uchallasin olib bordi, elga xabar berdi, qo'ychini malikka eltdilar. Yunusning xabarin aytu berdi. Malik aydi: Ko'rganingga

tanuqing bormu? Qo'y, ayoq, toshni bular tanuqlarim turur teb ilgari qo'ydi. Qo'y aydi: Meni sog'di. Ayoq aydi: Mening ichimga sut sog'di. Tosh aydi: Sutni ichib, ayoqni maning ustumda qo'ydi. Malik qamug' cherik birla otlandi, Yunus yalavochoq'a o'tru keldilar, Yunusni namozda (158r) buldilar. Namozdin forig' mishta Yunusg'a tabiiyyat sajdasin qildilar. Azoqlarin o'pub, uzrlar qo'ldilar, og'irlab oltun qangli uza mindurdilar. Qachon qangli uza mindi ersa, havodind un eshitildi: *Ya Yunusu a ma yakfika maktasabta minaz-zunubi summa tajlisa ala markabil-muluk*. Ey Yunus, bizing hazratimizda yozmishing bas bo'lmadimu erdi, bu podshohliq markabiga minarsen. Muni eshitti ersa, o'zin qanglidin soldi, yalang oyoq elga kirdi. Ul qavm qamug'lari Yunus kelmasdin burun musulmon bo'lmish erdilar. Malik ul mulkni qo'ychiga berdi. Yunus yalavochoq birla ibodatg'a mashg'ul bo'ldi. Mavlo taolo Yunusning xotuni birla iki o'g'lin turguzdi, Yunusg'a qovushturdi. Yunus ketmishda qavmi imon kelturdilar. Izi azza va jalla otini oyalarig'a bitidilar, ilik ko'turub yolbordilar, azob ulardind yondi.

Ey mo'mini muvahhid, bashorat sengakim imon kelturding. Izi azza va jalla qudrat qalami birla ko'nglungda bitimish. Qavluhu taolo. *Ulaika kataba fi qulubihim al-imana*.

QISSAYI ILYOS YALAVOCH ALAYHIS-SALOM

Armala bintu Aflotun ibn G'ush alayhil-la'na, ul va *inna Ilyasa lammial mursalin* xil'atin kiygan, ul Xizr birla esh bo'lub tog', tengizlarni kezgan, ul Mavlog'a to'at qilmoqni kusab uzun (umr) qo'lg'an, duosi mustajob bo'lub qiyomatg'a tegi tirik qolgan Ilyos yalavochoq alayhis-salom.

She'r

Tinglagil Ilyos yalavochoq so'zlarini ey aqi,

Aytayin men, sen eshit yo eshitayin men, sen o'qi.

Xalq uza yavlaq bagirsoq erdi belguluk nabiy,

Mavlog'a ortuq topug'soq obid erdi muttaqiy.

Xoliqg'a imon kelturung teb ko'p o'gut berdi o'yla,

Ul o'gutni olmayin emgattillar ko'rgan shaqiy.

Azroil jonin olurda yig'ladi toat uchun,

Haq bag'ishladi anga jon bo'ldi yosh uzunliqi.

Mursal erdi Mavlog'a ul mangu yashab yuriyur,

Tog' tengizda sayr etar tirik turur ul ham taqi.

Aymishlar, bani Isroilda bir malik bor erdi, oti Ajb ibn Amrad erdi. Shom viloyatida Ba'labakk otlig' sharistonda bu Ajbning Armala bint Aflotun ibn G'ush otlig' xotuni bor erdi. Ajab muhtalo bo'lmish erdi. Podshohliqni Armalaga bermish erdi. Bu Armala butg'a topinur erdi. Ul butning oti Ba'l erdi (158v). Bu Armala uch yuz yetmish payg'ambari o'turdi. Yetmishi yalavochoq erdi, uch yuzi sovchi erdi. Viloyatda iki musulmon qoldi – biri Ilyos otlig', biri Zul-Yasa' otlig'. Bu malikning tirikligida bir obid bor erdi Muzdaki otlig'. Armala ani o'turg'ali o'g'radi, eri Ajb aydi: Bu kishiga zahmat bermagil. Muni o'turmasang salomat qolursen. Bir kun Muzdaki Armala saoyig'a kirdi. Aydi: Ey fosiqa, ayg'il, *la ilaha illa-lloh*. Armala buyurdi, ani o'turdilar. Bu xabar ibn Amrnga tegdi. Aydi: Ey Armala, muni o'turdung ersa emdi balog'a anuq turg'il. Izi azza va jalla ul Ilyos otlig' erga vahy izdi, yalavochoqliq berdi. Yana bir oti Yushan erdi. Jabroil keldi, aydi: Ey Yushan, Mavlo senga salom izdi taqi aydi, borg'il qulum Ajbga va kungum Armalaga ayg'il, aytsunlar: *La ilaha illa-llohu Ilyasu rasulu-llohi*. Ilyos aydi: Ilohiy, meni kim ersaga yibording, andin yovuzroq yo'q. Jabroil kelib aydi: Haq taolo yorliqar, men ani yaratdim. Sen manga o'qig'il. Ilyos aydi: Iziyo, uch yuz yalavochoqni o'turdi, mendin za'if kim ersa yo'q. Yorlig' keldi: Ey Ilyos, mening ilimim ichinda qiyosmu qilursen? Qiyosni yaratqan menman. Ilyos aydi: Iziyo, mening ajalim yetmish ersa tilayin, bu kofirdin yavloq qo'rqarman. Yorliq, keldi: Ey Yushan, xalq balosi mening qudratimda turur. Ilyos aydi: Manga cherik bergil. Yorlig' keldi: Yer yuzinda na arslon bor ersa sanga musaxxar qildim. Aydi: Ilohiy, arslonlar manga netak uyarlar? Yorliq keldi: Qachon sanga kerak bo'lmishda ularni o'qug'il, qamug'i sanga kelgaylar. Ilyos aydi: Iziyo, orturg'il. Yorlig' bo'ldi: Yetti tengizni senga musaxxar qildim. Ilyos tog'din quyi indi.

Mundin burun tog'din tushub, bo'yni sunguki taqi sog' qo'li sin-
 mish erdi, yilqi qorag'a minmas erdi, aydi: Ilohiy, *sabbili shayton*
arkabuhu. Aydi: Manga minmakka markab bergil. Izi azza da jalla
 qulon izdi. Ilyos anga mindi, malik saroyig'a keldi. Qapug'chi Il-
 yosni ko'rub, tilanchi sandi, saroyg'a (159r) kirib bir etmak, bir
 yarmoq chiqardi. Ilyosg'a berdi. Ilyos olib saroyg'a kirayin tedi.
 Bir qul chiqti. Ilyosning ilkin tutub, yiroq eltib qo'ydi. Ul qul ketti
 ersa Ilyos yana keldi, qapug'chi achchig'landi. Necha qovdi ersa
 ketmadi. Burunqi qul naluk ketmassen, teb ko'ngli tilamishincha
 urdi. G'avg'o qo'pti. Malika: Bu na g'avg'o turur? teb so'rdi. Ay-
 dilar: Ey malika, bir telva kelib saroyg'a kirarman teyur. Hojib
 chiqti, Ilyosni saroyg'a kiyurdi. Malika Ilyosni ko'rdi ersa mengizi
 sarg'ardi, qo'rti. Aydi: Ey hojib, ne ko'rkisiz kishi kelturding? Ne
 kishisen? tesa, Ilyos aydi: Odamiyman. Qandin kelding, ne uchun
 kelding? tesa, aydi: Ota orqasindin, ona rahmindin keldim. Armala
 aydi: O'zungmu kelding, yo kim ersamu undadi? Ilyos aydi: Ey
 fosiqa, manga sendin dushmanroq kishi yo'q. Yuzungni ko'rgum
 kelmas, ammo meni izguchi izdi, keldim. Aydi: Izguchi kim-
 dur? Aydi: Alloh. Armala aydi: Qayu Allohni aytursen? Aydi: Ul
 Allohni ayturmankim meni, seni, qamug' xalqlarni yaratdi. Aydi:
 Ne teyu izdi? Aydi: Ayg'il, *la ilaha illa-llohu va ana Ilyasu rasu-*
lu-llohi. Armala aydi: Sen ul Jalil tog'da turg'an Ilyos erurmusen?
 Aydi: Bale. Armala aydi: Men uch yuz yetmish yalavochni o'ltur-
 dum, sen so'zlagan so'z birla. Qamug'ining boshi sensen. Men
 seni o'ldi sanarman. Emdin sen o'z azoqing birla o'lumga kelding,
 tedi. Yaxnun otlig' vaziri bor erdi, sir birla musulmon erdi, anga
 aydi: Muni chiqarg'il, boshini kesgil. Yaxnun Ilyosning ilkin tu-
 tub shahardin chiqardi. Aydi: Yo Rasululloh, bu Armala uch yuz
 yetmish yalavochni o'lturtdi. Hech kim ersani manga o'lturta-
 di. Bu kun seni o'lturmak buyurdi, men seni ozorlamasman, teb
 Ilyosning azoqinga tushdi. Aydi: Mundin ketgil, bu mal'una seni
 o'lturmasun, teb ketti. Yana yorlig' bo'ldi: Ey Yushan, borg'il
 bandamg'a ayg'il: Alloh bir turur, sen mening yalavochtsimen.
 Ilyos borib aydi: Ey fosiqa, ayg'il: *La ilaha illa-llohu va ana Il-*
yasu rasulu-llohi. Armala aydi: Sening Tengring manga muncha
 jafolar qildi, men anga topunmasmen. Manga ne qilsa qilsun. Ilyos

aydi: Ey fosiqa, ayg'il *la ilaha illa-llohu va ana Ilyasu rasulu-llohi*.
 Armala o'zga javob bermadi. Ilyos aning qavming'a tedi: Sizlar
 Ba'lga topunub ahsan ul-xoliqin (159v) ni qo'yimishsiz. *A tad'una*
ba'lan va tazaruna ahsanal xoliqin. Ular aydilar: Biz Ba'lni bi-
 lumiz, bizning andin o'zga Tengrimiz yo'q. Ilyos aydi: Teng-
 ringiz Alloh turur. Otalaringiz Tengrisi ham Alloh turur. *Alloha*
rabba aabinkum al-avvalin. Armala aydi: Ey Ilyos, o'z Tengringni
 o'garsen, bizning Tengrimizni sindirursen. Emdin Tengring'a ayg'il,
 kelsun, sanchishaling. Ul bizni yengsa ul qutulg'ay. Ilyos aydi: Yo
 Rabbi bulardin bizni qutqarg'il. Jabroil kelib aydi: Ey Ilyos, Mavlo
 taolo yorliqar, men halimman, uyumazman. Qulumg'a ayg'il, qayu
 kun sanchishmoq tilar. Armala aydi: Tongla tilarman. Tonglasi
 Armala cherik chiqardi. Yetti guruh, tekma guruhi yuz ming'er. Uch
 yig'och y bir saf tuttilar. Jabroil aydi: Yo Ilyos, savmaadin chiqg'il.
 Armala cherikin ko'rgil. Ilyos aydi: Maning cherikim qani? Yorlig
 keldi: Arslonlarni yig'g'il, o'qig'il. Yerga yorlig' bo'ldi, Ilyos unin
 mashriqdin mag'ribg'a tegurdi. Kun tug'ardin kun botarg'a tegi ne
 kim arslon bor ersa, ko'z yumub ochg'uncha yig'ildilar, Ilyosning
 o'n qo'linda turdilar. Jabroil aydi: Taqi kerakmu? Ilyos aydi: Ey
 xaloyiq, Izi azza va jallag'a imon kelturung. Aydilar: Ey Ilyos,
 bizni bu so'zdin qo'rqarmu teyursen? Ilyos aydi: Sabr qiling, Mavlo
 bizing oramizda hukm qilg'uncha. Qamug' hokimlardin yaxshiroq
 turur. Qavlulu taolo. *Vasbir hatta yahkuma-llohu va huva xayrul*
hakimin. Yana aydi: Iziyo, meni bu zolimlardin qutqarg'il. Qavlu-
 hu taolo. *Va najjiniy minal qavmiz-zolimin*. Jabroil keldi: Ey Ilyos,
 o'lum tilarmusen? Aydi: Tilarmasmen. Mavlo taolo Ilyosni qudrati
 birla mag'ribg'a eltti. Andin so'ng saf tuzdilar, arslonlar tepundilar.
 Tekma bir erga o'n arslon yopushti, ko'z yumub ochg'uncha yetti
 yuz ming'erdin biri qolmadi. Ilyos mingan arslon Ajb ibn Amrning
 ayoqin tutti. Bir tishi arslon kelib, Armalaning to'nin tutub, sudrayu
 kelturdi. O'luklar orasinda por-pora qildilar. Kecha bo'ldi ersa Izi
 azza va jalla o't izdi. Ul shahar xalqin kuydurdi. Iki ev qoldi: biri
 Yaxnun obid evi, biri Al-Yasa' evi. Andin o'zga qamug'i kuydilar
 (160r).

XIZR VA ILYOS ALAYHIMAS-SALOM SO'ZLARI

Xizr ma'nisi yashil bo'lur, qayu tosh uza Xizr alayhis-salom o'ltursa ul tosh yasharur erdi. Aning uchun Xizr atandi. Aymishlar: Qayu yerda o'ltursa ul yer ko'karur erdi. Ba'zilar aydilar, Xizr yalavoch erdi, ba'zilar aydilar, yalavoch ermas, solih, musulih erdi, tag'i sayramlig'. Bani Isroilda ulg'ardi, mangu suyini ichib tirik qoldi, ammo Ilyos mursal yalavoch turur. Qavluhu taolo. *Va imna Ilyasa laminal mursalin*. Aymishlar, telim yillar toat qilmish erdi, Azroil jonin olg'ali keldi ersa, qatig' un birla yig'ladi. Azroil aydi: Ey Ilyos, Mavlo hazrating'a borurg'ami yig'layursen? Ilyos aydi: Toat ibodatdin mahrum qolurmen, o'zgalar toat qilg'aylar teb yig'larmen. Ul (zamon) Jabroil keldi, yorlig' tegurdi: Ilyos so'zi rost turur, jon uchun yig'lamas, toat uchun yig'layur. Sen Azroil yong'il, biz anga uzun yosh karomat qilduq. Tirik qolg'ani bu sababdin erdi. Aymishlar, oti Al-Yasa' turur, ilmi keng uchun. Ba'zilar aymishlar, Xizr birla ikilari mangu suyini ichtilar, qiyomatg'a tegi o'lmaslar. Xizr daryolarda yurur, Ilyos sahralarda yo'ldin ozg'anlarg'a yo'l ko'rguzurlar. Ishlari bu turur: Kecha bo'lsa Ya'juj, Ma'juj yeringa borurlar, yiyimlari ko'k o't turur, ja'diy otlig'. Ularni Mavlo taolo butg'a topung'an qavmg'a izdi, islomg'a o'qing teb. Xizr, Ilyos ikisi kelib butg'a topung'anlarg'a: Butg'a topunmang, sharob ichmang, tedilar. Ul xalq ularni maliklaringa olib bordilar. Malik so'rdi: Mo'jizangiz bormu? Aydilar: Sen qayu mo'jiza tilarsen? Malik aydi: Telim yillar bo'ldi mening qizim o'lub turur. Ani tirguzsangiz imon kelturayin. Tengri farmoni birla qizi tirildi. So'rdilar, qiz aydi: So'zlari ko'ni turur, butg'a topunmang, bir bor Tengrig'a topuning. Seni Tengri yaratdi, sanga mulk berdi, qavmning ayg'il, imon keltursunlar. Malik aydi: Oshiqmag'il, fikr etayin. Qizi aydi: Ey mal'un, ne fikr qilursen? Telim yillar o'lgan tirilib oxiratdin xabar berur Taqi ne so'zung bor, teb otasidin yuz o'vurdi. Aydi: Iziyo, jonimni olg'il, bayoqi holni tilarmen. Mavlo taolo qizining jonini oldi, otasi imon kelturmadi ersa (160v) Xizr va Ilyos halokat duosin qildi. Yorlig' keldi: darhol halok qilmasmen. Aydilar: Halok qilmas ersang, bulutni bizga musaxxar qilu berg'il.

Yorlig' keldi: musaxxar qildim. Ular bulutg'a aydilar: Yog'mag'il. Sekiz yil yog'in yog'madi, ojiz bo'ldilar. Malik yalavochmiz teganlarni undadi. Aydi: Bizga yog'in nedin yog'maz bilurmusiz? Aydilar: Bilurmiz, butlar topug'inda taqsir qildingiz. Sizga o'fka qilib yog'in bermadi. Malik aydi: Netaq qilaling? Aydilar: Tevalar qurbon qiling, bo'lg'aykim butlar sizdin xushnud bo'lg'aylar. Andog' qildilar, yog'in yog'madi. Aydilar: Butlarni yozig'a chiqaring, og'i to'nlar kiydurung, xamr iching, butg'a sajda qiling, yolboring, bo'lg'aykim, sizdin xushnud bo'lg'aylar, yog'in yuborgaylar. Andog' qildilar ham yog'madi, yana qahatliq bo'ldi. Tengrig'a imon kelturmagan uchun yog'in yog'madi. Xizr va Ilyos tog'g'a og'dilar, toat qildilar. Har kunda ujmohtin taom kelur erdi, malik har yuz qart kishini Xizr va Ilyosg'a izdi, uzrlar qo'lub, elga kelturung, tedi. Bordilar ersa, Xizr va Ilyos aydilar: Ojiz bo'ldungiz ersa bizga keldingiz. Halokat duosin qildilar, Mavlo taolo qamug'in halok qildi. Malik yana o'n kishi izdi, tog'g'a yaqin bordilar, biri aydi: Sizlar bunda turung, man yolg'uz borayin, uzr qo'layin, qabul qilsalar kelturayin, qilmasalar sizlar ham halok bo'lmang. Yalg'uz bordi, Xizr va Ilyos (ning halokat) duosi birla ul ham halok bo'ldi. O'zgalari yondilar taqi aydilar: Keling, Mavlog'a yonaling, teb Mavlo taolog'a iqror qildilar, yolbordilar. Mavlo taolo yog'in izdi, oshliq ektilar, qahatliqdin qutuldilar. Ul ariqkim, Xizr va Ilyos andin suv ichar erdilar, qurudi. Ujmohtin taom kelmas bo'ldi, chora topmadilar, elga kirdilar. bir qurtg'a evinga keldilar. Taom tiladilar. Qurtg'a aydi: Yeti kun bo'ldi malik evinda yemakka taom topilmas teb ozraq taom topib kelturdi. Suv tegmish, islammish. Xizr na Ilyos iliklaringa olib uvaladilar, oq bo'ldi. Ani xamir qildilar, tanur qizittilar. Qurtqa: Qo'rqrman, tedi. Neluk qo'rqrarsen, tedilar. Qo'rtqa aydi: Tutun chiqsa (161r) el yig'ilur, qamug'in yeyurlar, tedi. Aydilar: Qo'rqmag'il. Qurtqa etmak pishurdi. El tutun ko'rub yig'ildilar. Malikka xabar qildilar, Malik kishi izdi, qapug'in tamg'aladilar. Malik otlanib qurtqa evinga keldi. Xizr va Ilyos so'zlarin qurtqadin eshitti. Cherik birla Xizr va Ilyosni tilayu bordilar, namozda topdilar. Azoqlarig'a uzrlar qo'lub imon kelturdilar. Og'irib elga kiyurdilar. Va-illohu a'lam.

QISSAYI JIRJIS YALAVOCH ALAYHIS-SALOM

Ul dunyo maslahatin qo'ygan, Mavlo yorlig'iga o'yg'an,
sotig' birla halal mol yig'gan, ul molni faqirlarga sadaqa qilg'an,
Mavlo rizosi uchun qin ko'rgan, turluk qinlar birla eti yo'li o'lgan,
olti yo'li tirilgan Jirjis yalavoch alayhis-salom.

She'r

Jirjis otlig' bir sotig'chi ezgu mo'min erdi ul,

Shom malikin qo'rgali ko'p mol birla keldi ul.

Aftun otlig' butg'a topunur kofir ermish savmaadin,

Bermadi molin anga yo'qsuz, chig'oyga berdi ul.

Jabroil indi yalavochliq tegurdi Mavlodin,

Haqq'a yongil teyu terkin malikka kirdi, bordi ul.

Qinayu o'turdi ani qayra keldi tirilib,

Hech yalavoch ko'rmagan qinlar azobin ko'rdi ul.

Yetti yo'li yetti turluk qin bo'qag'uda o'lub,

Olti yo'li tirilib yettida yo'l ko'ndurdi ul.

Rivoyat qilurlar. Vahb ibn Munabbih al-Yamaniy: Shom viloyatida Dodbona otlig' kofir malik bor erdi, butg'a topinur erdi. Oltung'a qoplang'an Ortamish otlig' buti bor erdi. Yana bir but qilib erdi, oq toshdin, Afgun otlig', gavhar birla murassa' qilg'an. Qamug' butlarning ulug'i ul erdi. Bu Dodbona malik butlarini yavloq suvar erdi. Yana Falastin viloyatida Jirjis otlig' porso musulmon bor erdi. Tun-kun toat qilib sotig'ga yurur erdi. Dodbona malikning otin eshitib, aning birla do'st bo'layin teb, ko'p bo'laklar birla Falastindin Shomga yigirma kunda keldi. Malikning dodi, adli netak? teb so'rdi. Aydilar: Butga topunur, kofir turur. Ul so'zga qazg'ulug' bo'lub yonar bo'ldi, kelturgan mollarin darveshlariga sadaqa berib yondi, Falasting'a. Malikka aydilar: Bir bozirgon sanga hadya kelturdi, necha kun turub seni so'rди, sanga kelturgan hadyalarni darveshlariga sadaqa qilib ketti. Malik o'fkalab, kishi

(161v) yiborib, kelturdi, Malik aydi: Mening ilimga kirib, meni ko'rmayin neluk bording? Rostliq uza ayy' il, aymading ersa qatiq qin birla o'tururmen. Jirjis aydi: Rost aytayin, man Falastin ellik sotig'chi qulman. Sen ham Tengriga qulsen. Sening uchun hadyalar anuqlab keldim, sening birla do'stliq qilayin teb, munda kelib eshitim, butqa topinur ermishsen, molim kofirga bo'lmasun teb yo'qsuz musulmon chig'oylarg'a berdim. Malik aydi: Tengrim Afgun haqqi seni qin birla o'turayin, qamug' olam ibrat olg'ay. Kel Afgunga sajda qilg'il, qutulg'il. Sening Tengring bor ermish, emdiga tegi naluk yalavoch izmadi? Jirjis aydi: Ey kofir, yalavochlar telim izdi. Izi azza va jalladin yorlig' keldi. Kim qabul qildi ersa qindin qutuldi, kim qabul qilmadi ersa balog'a tushti, halok bo'ldi. Ul yalavochlar Nuh yalavoch, Ibrohim, Muso yalavoch. Ancha butlarni sindurdilar, soni yo'q, kofirlarni halok qildilar. Namrud, Shaddod, Fir'avn, Qorun mengizlik. Ey kofir, qo'rqg'il, Tengri qullaring'a qotilmag'il, musulmon bo'lg'il, bu butlarni sindurg'il, bulardin asig' yo'q, ziyon bor. Dodbona malik aydi: Men Nuh, Ibrohim, Musoni bilmasmen, Tengrini ham bilmasmen. Jallodlarni undadi Jirjisni tutub, to'nlarini chiqarib, ilkin, ayoqin bog'lab havog'a ko'tardilar. Ilgarudin, ortqaridin urdilar. Bu so'zdin yong'il, Afgunga sajda qilg'il, tedilar. Tekma bir urmishda *La ilaha illa-llohu vahduhu la sharika lahu*, teyur erdi. Ertadin tushga tegru ikagu orsa yana ikagu urar erdilar. O'lgan, tedilar. O'Imadi. Dodbona o'fkalab aydi: Ey Jirjis, bu so'zdin yong'il, Afgunga sajda qilg'il, Jirjis aydi: Ey mal'un, Izidin qo'rqg'il, musulmon bo'lg'il. Tamug'din ozod bo'lg'il, ujmohg'a kirgil, butlarni sindurg'il. Dodbona aydi: Yigirmi temur qozuq qoqing, temur bo'qov, temir taroq birla etin tarang. Qo'tshun eritib og'zing'a quydilar, bo'g'uzlab o'turdilar, el o'rtasinda uzun yig'ochdin ostilar. Dodbona o'zga maliklarni yig'di, ko'ngul tindurdim, teb choqir ichib, o'yun-kulgu boshlab o'turdilar. Mavlo qudrati birla havodin (162r) bir un keldi. Qo'rqunchdin qamug'i behush bo'ldilar. Zilzila qo'pti, ul yig'ochda Jirjis tirildi. Ul zamon Jirjis yetib keldi, aydi: Ey mal'un ayy'il: *La ilaha illal-llohu Jirjisun rasulu-llohi*. Malik hayron qoldi, aydi: Men seni qin birla o'turdum, joduluq birla o'zungni tirguzding. Yana tutub urdilar, andin so'ng zindong'a soldilar. Bir ulug' toshni

qapug'ing'a bosurdilar. Mavlo taolo Jabroilg'a aydi, Jirjisa yalavoqliq tegurdi, ujmohda sanga ming saroy yasadi, qudrati birla, yoqut, zabarjaddin, taqi yeti yil bu emgakda sabr qilg'il, andin so'ng rohat topg'il. Bu kofirlar seni yeti yo'li o'turgaylar. Tekma o'turganlarinda Mavlo taolo yana turguzgay. Qiyomat kun jazosin bergay. Tonglasi malik qamug' jodularni yig'di, xil'atlar berdi, ulug'laring'a aydi: Falastin ellik bir jodu tutub o'turduk, yana o'zin turguzdi. Siz ham andog' o'luk turguzung, yarim molimni sizga berayin, tedi. Jodular aydi: Ey malik, andin ajibrak ko'rguzaling, teb bir uy kelturtdi. O'rtasindin chopturtdi, yarmini olib ichinga urdi, iki uy bo'ldi. Taqi bir yarimig'a urdi, ul ham iki uy bo'ldi. Malik ani ko'rub tongladi. Malikka aydilar: Ey malik, Jirjisni bizga kelturung, men ani o'tluq qilayin, zindondin chiqarib Jirjisni kelturdilar, joduchilar Jirjisg'a aydilar: Joduliqda nelar bilursen? Men senga yavloq jodular ko'rguzayin, teb jodular ulug'i iki bo'yundurug' kelturdi, ul to'rt uy bo'ynung'a urdi. Malik saroyiga kirdi, qo'sh surdi, urluq sochti. Ul zamonda-o'q undi, bosh tortdi, pishdi. Malik pishgandin yedi. Jirjisg'a aydilar: Bizing joduqlarimiz bu erdi, emdi sening joduqlaringni ko'raling, sennu ustodsen yo bizmu? Jirjis aydi: Men joduliq bilimasmen, bir za'if qulmen Tengrig'a. Aydilar: Qayu tengrig'a? Jirjis aydi: Ul Tengrig'aqim, qamug' olamg'a ro'zi berur, qamug'ni o'turur, yana qiyomat kuni qamug'ni turguzur. Og'riqq'a shifo bergan ul, yerni, ko'kni yaratqan ul, aziz qilg'an ul, zalil qilg'an ul. Malik aydi: **(162v)** Seni yana bir sinagayin. Bir ichim xamr berayin, ichib o'lmading ersa tavba qilayin, imon kelturayin, tedi Jirjis aydi: Kel-turgil, ichayin. Kelturdi telim og'u soldilar, Afgun otin o'gub anga berdilar Jirjis: *Bismillahir rahmanir rahim*, teb ichti. Suvsab erdim, qondim, tedi, *alhamdu li-lloh*. Ul jodular ko'rub kuldilar, aydilar: Ey malik, bu ayoqliq' xamrni bu turgan qamug'g'a bersang erdi biragu tirik qolmag'ay erdi. Malik aydi: Yana bir ayoq berayin, ichib o'lmang ersa, yavloq ajab bo'lg'ay. Bir qadah xamrg'a og'u qotti, Jirjisg'a berdi. Olib: *Bismillahir rahmanir rahim*, teb ichti. Suvsab erdim, qondim, tedi. Jodular aydi: Bu og'uni shomlig'larga bersang biri tirik qolmag'ay erdi. Bu maxluq ishi ermas, bir-u bor yaratqan Xoliq ishi turur, biz barimiz Jirjisning Tengrisig'a imon

kelturduk, Afgundin bezarmiz teb joduchilar musulmon bo'ldilar. Malik qazg'ulug' bo'lib mengizi sarg'ardi, Jirjis malik qotig'i keldi, aydi: Ey mal'un, ayg'il: *La ilaha illa-llohu Jirjisun rasulu-llohi*. Telim xaloyiq yig'ladilar, aydilar: Buncha yo'li o'turduk ersa tirildi, og'u ichib o'lmadi, bu Xoliq ishi turur, emdi iqrur qilduq. Alloh bir turur, Jirjis aning yalavochoi turur, teb imon kelturdilar. Malik buyurdi, qamug'ini o'turdilar, Izi azza va jallaga ulandilar. Bir bek malik birla o'turur erdi, aydi: Ey Jirjis, sening Tengring haq ersa bir burhon ko'rguzul. Burhon ulkim, Tengringg'a ayg'il bu shaharda kesik qurug' yig'ochlarni, o'tunlarni mevalik yig'och qilsun, biz imon kelturaling. Jirjis namozg'a turdi, iki rak'at namoz qildi, aydi: Ilohiy, qamug'ning sirrini sen bilursen. Duosi tamom bo'lmish erdi, qamug'sinuq yig'ochlar yafroqlanib, yemishlar bilgurdi. Ul malik aydi: Ey Jirjis, ustod jodu ermishsen, bu dam men seni o'turayin, netak tirilub ermishsen ko'rayin, teb yitik bichoq kelturdi. Jirjis tepasing'a qo'yub azoqing'a tegi yordi, pora-pora qildi. Qazong'a solib qaynatdi. Qatig' zilzila qo'pti. Mekoilga yorlig' bo'ldi, qazonni to'ngtardi. Tirilgil, tedi. Mavlo yorliqi birla Jirjis tirildi **(163r)**. Malik qazg'ulug' bo'ldi, vaziri aydi: Men hojat qo'layin, bu turgurmasa tez kelmay biz qutulg'aymiz, tedi. Aydi: Ey Jirjis, bu el qirog'inda bir sin bor, o'n yeti kishi anda ko'mukluk turur. Agar ularni turguzsang biz imon kelturaling. Jirjis aydi: Ul sinni manga ko'rguzgil. Malik hashami birla otlandilar, sin boshig'a keldilar. Jirjis iki rak'at namoz qildi, duo qildi. Aydi: Ilohiy, olam ul-asrorsen, qamug'g'a qodirsen. Duosi tamom bo'lmay erdikim, go'rlari yorilib, o'n yetti kishi qo'pa keldi. Besh er, uch o'g'lon, to'qquz tishi. Malik ul besh erning biridin so'rdi: Oting ne? teb. Aydi: Burqoil. Otalari otin ham aytu berdi, vazir so'rdi: Siz o'lg'ali necha yil bo'ldi? Aydilar: Ming yil bo'ldi. Malik aydi: Onchada sizlar nega topinur erdingiz? Aydilar: Butg'a topinur erduk, o'lduk ersa Mavlo taolo bizlarni tamug'g'a eltti, telim azoblar qildi, telim o'kunduk, asig' qilmadi, siz ham andog' qilmang, o'kunursiz, asig' qilmas, tedi. Qamug'lari: *La ilaha illa-llohu*, teb hamul kun o'ldilar. Imon birla bordilar, Jirjis barakotidin. Vazir aydi: Ey malik, ellik yilg'i o'lukni turguzdi, mundog' jodu bo'lmag'ay. Malik iki jallodg'a buyurdi. Bog'lab uch tun-kun urdilar, etlari pora-pora

bo'ldi, sinlarga eltilar, yig'och tikib ostilar. To'rt yondin o'qladilar. Jirjis: *La ilaha illa-llohu vahdahu la sharika lahu*, der erdi. Ul kecha o'lgandin so'ng tushurdilar, tog' boshinda qo'ydlilar. Eti, terisi, so'ngaki qamug' yanchildi. Ular ketti ersa, Izi azza va jalla yana turguzdi. Yorlig' bo'ldi: Qulumg'a ayg'il, meni bir tesun, seni yalavochim tesun. Jirjis keldi, aydi: Ey mal'un, ayg'il: *La ilaha illa-llohu Jirjisun rasulu-llohi*. Ul qavmlar Jirjisni ko'rdilar ersa tongladilar, darhol imon kelturdilar, butdin bezor bo'lduk, teb malikka keldilar. Aydlar: Sen ne tesang qilduq, Jirjisni necha yo'li o'lturduk, yana tirildi, mundog' qudrat birgina Tengridin o'zgada yo'q, Jirjis haq yalavoch turur, teb arig' ko'ngul birta *La ilaha illa-llohu Jirjisun rasulu-llohi*, teb iqror qildilar. Malik bu so'zni eshitib qamug'larini o'lturdi, (163v) ular qamug' ujmohg'a ulandilar. Malik aydi: Muni tutung! Ellik er bir bo'lub tuttilar, eldin chiqardilar, o'lturgali tegdilar. Jirjis aydi: Yo zuljaloli valikrom, o'z fazling birta manga rahmat qilg'il, bu kofirni azobing birta halok qilg'il. Meni dunyoda o'zga turguzmagil. Tengri taolo qudrati birta ko'kdin o't indi, ul shahar o'tg'a yoqildi. Ul ellik er Jirjisni qilich birta ura-ura o'lturdilar, o'zlarin tamug'g'a sazovor qildilar. Ular-din o'tuz ming er, o'tuz ming xotun musulmon bo'ldilar, o'zgalari kofirlik birta halok bo'ldilar. *Vallohu alhodiy ilo sabili ar-rashodi*.

QISSAYI LUQMON HAKIM RAHMATULLOHI

Luqmon Dovud yalavoch vaqtinda erdi. Uzun tishlik bir habashiy qul erdi. Ul ming besh yuz yashadi. Aymishlar, bir yo'nuchining quli erdi, xojasi ozod qildi. Aymishlar, o'zi yo'nuchi erdi. Aymishlar, Mavlo taolo anga iki farishta izdi, kun o'rta vaqtida. Aydlar: Ey Luqmon, tilasang senga yalavochliq beraling, tilasang hikmat beraling. Luqmon aydi: Manga hikmat kerak. Hikmat ma'nisi ko'ni, pishig' ishlik bo'lur. Yana so'rdilar: Yalavochliqg'a neluk unamading? Aydi: Og'ir yuk turur. Mavlo taolo hikmat birta ul choqliq' hikmat bayon qildikim, qamug' yalavochlar anga muhtoj bo'ldilar.

Aymishlar, bir kun o'lturub xaloyiqg'a o'gut berur erdi. Bani Isroildin biragu telim xaloyiq ko'rdi, ularg'a bordilar. Luqmonni ko'rdi, o'gut berur. Ortindin kelib, bo'yinin tutub qisti. Luqmon senmussen! tedi. Aydi: Bale. Aydi: Bu maqomga neding tegding? Luqmon aydi: Ko'ni so'zlar birta amonatni o'tadim, haqq'a yaramasni qo'ydim - bu maqomg'a tegdim.

Hikoyatda kelmish, bir kun xojasi Luqmonni bug'doy ekkali izdi. Luqmon borib, arpa ekti. Xojasi aydi: Bug'doy ek tedim, ne uchun arpa ekting? Luqmon aydi: Arpa eksa bug'doy unmasmu? Xojasi aydi: Unmas. Luqmon aydi: Andag' bo'lsa sen ham yomonliq ekib yaxshiliq umid etmagil.

Yana bir hikoyatda aymishlar, Luqmon qarz berur erdi, tanuqsiz, bitiksiz. Biragu kelib ming oltun oldi, bermas niyati, eviga (164r) borurda yarog'ing'a o'lturdi, oltunni qizil o'proq birta chulg'ab qo'ydi. Qush havodin ko'rub, et xayol qilib, olib uchti. Luqmon evi to'shung'a keldi ersa oltunni tumshuqidin tushurdi. Luqmon oltunni tanib evinda qo'ydi. Ul kishi kelib yana ming oltun oldi. Hamul niyat uza. Suvdin kecharda oltunni suvg'a tushurdi. Ul suv Luqmon evinga borur erdi. Luqmon suvda ko'rub, oltunni tanub oldi. Ul kishi uchunchi kelib yana ming oltun oldi, hamul niyat birta. Ani ham yitirdi. Sabab birta oltun Luqmon qo'lig'a kirdi. To'rtunchi kelib ming oltun oldi Bu niyat birlakim, sotig' qilayin. Mavlo taolo foyda bersa, to'rt ming qilib, oltunni Luqmong'a berayin teb. Telim foydalar ko'rdi. To'rt ming oltunni kelturub Luqmon o'rninda qo'ydi. Luqmon ming oltunni oldi, o'zgalarin olmadi, haqiqat manga tegdi teb. Hikoyat. Luqmong'a xojasi aydi: Borg'il, bir qo'y bo'g'uzlab, etindin qayu yaxshiroq ersa manga kelturgil. Qo'yni bo'g'uzladi, tili birta yurakin olib keldi. Xojasi so'rdi: Bularni neluk kelturding? Aydi: Qo'yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo'q. Agar yovuz ersa tildin, yurakdin yovuzroq yo'q.

Hikoyatda andog' kelurkim, Luqmon o'g'lung'a vasiyat qildi. Biri ulkim, xotuningg'a zinhor rozingni aymag'il, navkisadin bo'rch olmag'il, avon birta do'st bo'lmag'il. Qachon Luqmon vafoti bo'ldi ersa, o'g'li bu uch vasiyatni sinag'ayin, teb bozorg'a bordi. Bir qo'y oldi, so'yub qopg'a soldi, og'zin bog'lab evinga kelturdi. Xotuni aydi: muning ichinda ne bor? Aydi: Biraguni

o'lturub, munga solib kelturdum. Zinhor kishiga aymag'il, rasvo bo'lmag'ayin. Yana bordi, navkasidin bo'rch oldi, taqi avon birla do'st bo'ldi. Andin so'ng xotuni birla xusumat qilishti. Xotunin urdi ersa, xotuni qichqirib aydi: Ey musulmonlar, erim kishi o'tura o'granib turur, meni o'lturayin teyur. Darhol bu so'zni malikka aydilar. Malik aydi: Ul kishini qochmasdin burun kelturing. Aydilar: Kim kelturur? Avon do'sti aydi: **(164v)** Men evin bilurmen, borib kelturayin. Bordi, tutub kelturdi. Kelurda aydi: Ey do'stum, meni qo'ygil, qochayin. Qo'ymadi naqi navkisa keldi: Haqqimni bergil, sen o'larsan, haqqim kuyar. O'zgadin kelturub, haqqin berdi. Avon do'sti malikka eltti. Malikning ko'zi Luqmon o'g'lig'a tushti. Aydi: Subhonallohi, ey hakim o'g'li, bu ish sendin loyiq ermas erdi. Luqmon o'g'li aydi: Ey malik, yoshing uzun bo'lsun, kishi borib men o'lturganni keltursun. Noiblar borib ul og'zi bog'lig' jivolni kelturdilar. Malik o'nginda og'zin ochtilar, bir so'yulmish qo'y chiqti. Malik aydi: Bu ne hol turur, manga ayg'il. Ul kechmish qissalarni aytti: Otam manga uch nasihat qilmish erdi, ani sinag'ayin teb bu ishni qildim. Otam so'zi rost chiqti. Hikoyat. Luqmon vaqtindagi sulton o'fkalab Luqmonni o'g'li birla tirikla quyug'ga soldi. Xaloyiq bilmasun qayda ekanin (teb), ustiga oshliq ekturdi. Luqmon ul chuqurg'a kirurda qirq botmon quruq yuzum olib kirdi. Telim yillar anda qoldi. Ul sulton o'lgandin so'ng o'zga sulton o'lturdi, telim yillar sultonliq qildi. Bir qari kishi sultong'a aydi: Sendin burung'i sulton Luqmoni hakimni o'g'li birla yerga qazib tirikla ko'mmish erdi. Esiz ermasmu, andog' qinalib o'lsa. Sulton aydi: Ul hakim erdi, shoyad yarog'in qildi bo'lg'ay, tirik bo'lg'ay teb, qamug' xalq birla izlab ul chuqur og'zin toptilar, charog' birla uzun arg'amchi bog'lab, kishi soldilar. Tiladi, topmadi. Yana oqil kim ersani soldilar. Ul bir necha bordi. Meni torting, tedi. Ani chiqardilar, aydi: Chuqur yarminda bir arquri ungur bor, aning ichinda bir er yalang yotur. Necha bosh hakim, oqil eranlar kirib, ungur og'zi to'shunda arquri yig'ochlar o'rmattilar. kishilar turg'udek yer ettilar. Andin so'ng ko'rdilar, yoruqluq qilib, Luqmonning eti, terisi yufqalamish, ilik tegursa tarulg'utek. Hiyla birla yuqori chiqarg'utek qildilar, yig'ochlar birla o'run qildilar. Ul o'run uza yangi paxtalar to'shab, yumshoq o'run qilib, ungur

og'zini tutub, ostin qazib, Luqmong'a yaqin keldilar ersa ul paxtalig' o'runni **(165r)** Luqmonning osting'a tuta berdilar. Ilik tegurmayin aqrinliq birla ul o'run yumalanib yarog'incha indi. Ustun chiqarsak havo isig'indin halok bo'lg'ay, teb chuqur havosinda uch kun osib tuttilar. Uch kundan so'ng yuragi tebrandi. Yana uch kun tuttilar, dami og'zindin chiqa boshladi. Beshinchi kun sarig' yog'ni yumaloq qilib, og'zing'a oshuq choqlig' soldilar, kunda uch yo'li. Uch kundan so'ng terisi kuchlandi, ko'zin ochti. Andin so'ng chiqarib saroyg'a kelturdilar. Yana uch kundan so'ng so'zladi. So'rdilar ersa, aydi: Iki o'v qizi kelturing, mening sog'im, so'limni quchub yotsunlar. Andog' qildilar, bir oydin so'ng qo'pub o'lturdi. Sulton so'rdi: Sen tirilgaymuse? Bu qizlar seni quchub yotqandin ne foyda bor erdi?. Luqmon aydi: Ani tugal aytmog'ga quvvatim yo'q. Agar bilmak kerak ersa bir o'v qizin qo'lg'an abushqani kelturing, yana bir qaviy qurtqani qo'lg'an yigitni kelturing. Ikilarin ham o'lturub, yinjuklarin sindurub yiliklarin boqing — anglag'aysiz. Andog' qilib ko'rdilar, qurtqa qo'lg'an yigitning yilligi suvtek bo'lmish, taqi o'v qizini qo'lg'an yigitning yinjuki to'lug' yog'. Ani ko'rub qurtqa birla qizning tafovutini bildilar.

QISSAYI UZAYR YALAVOCH ALAYHIS-SALOM

Aymishlar, Uzayrning yalavoqliqida ixtilof bor. Netakkim, Xizr va Zulqarnayn va Zulkiflning. Uzayr Sharxayoning o'g'li erdi. Aymishlar, Hazur otlig' elda bani Isroil o'n uch yalavochni o'lturttilar. Mavlo taolo ularg'a nusrat berdi, qamug'ini sungu, qilich birla sanchtilar, yosh o'g'lonlarin beshikdin chiqarib, o'rtalaridin choptilar. Urag'utlarin bulnadilar, mollarin oldilar. Uzayr ularning orasinda erdi, Tavrotni yod tutar erdi. Buxtnast bani Isroildin bir qiz oldi. Ul qiz aydi: Sendin bir hojatim bor. Aydi: Ne hojating? Aydi: Bani Isroildin kim ersani o'lturmagil, ozod qilg'il. Elga yondilar. Uzayr ul eldin chiqti. Ul el ani Shobirobod teyur erdi. O'zga elga borur bo'ldi. Bu iki kending orasida Vatr Havqal yetmish ermi o'lturtmish **(165v)** erdi, kim ersa yo'q erdi, ul kenda tushdi, eshakni yig'ochga bog'ladi. Taqi aymishlar, Bayt ul-Muqaddas erdi.

Qavlulu taolo. *Av kal-lazi marra ala qaryatin va xiya xoviyatun ala urushiha*. Uzayr birla suchug uzum suvi bor erdi. Ul kun Uzayr qirq yoshlig' qora saqollig' erdi. Namoz qildi, burunqi elning o'luklarin ko'rdi. Aydi: Tengri bularni o'lgandin so'ng netak turguzur erkan. *Qavlulu taolo. Annaa yuhyi hazihi-llohu ba'da mavtiha*. Mavlo taolo turguzmak qudratin Uzayrg'a ko'rguzmak uchun Uzairning jonin oldi. Yuz yil o'shunda yotti, andin so'ng turguzdi erkan. *Qavlulu taolo. Fa amatahu-llohu miata aamin summa ba'asahu*. Aymishlar, ul o'lum anga ajal o'lumi ermas erdi, ibtilo o'lumi erdi. Ajal o'lumi bo'lsa erdi oxiratdin xabar topqay erdi. Hech xabar bulmadi. Xitob keldi: Ey Uzayr, necha bo'ldikim munda yotursen? *Qavlulu taolo. Qola kam labista*. Aydi: Bir kun bo'ldi. *Qavlulu taolo. Labistu yavman*. Aning uchun uyqu haddi bir kun bo'lur. Yana kunga boqti, ko'laka qaytmish. Bir necha zamon bo'ldi yoturman, tedi. *Qavlulu taolo. Av ba'za yavmin*. Xitob keldi: Yuz yil bo'ldi yotursen. *Qavlulu taolo. Qola bal labista miata aamin*. Yeyur ozuqingg'a boqq'il, Ozuqi anjir birla uzumning suchuk suvi erdi. Oz kunda anjir birla uzumning suvi orar, saning ozuqing ormadi. *Qavlulu taolo. Fanzur ila ta'amika va sharobika lam yatasanna*. Yana yorliqadi, eshakka boqq'il. *Qavlulu taolo. Vanzur ila himarika*. Eshakka boqti, o'lmish. So'nguklari oqarmish. Mavlo taolo yorliqadi: Seni qamug'larg'a nishona qildi. *Qavlulu taolo. Va linaj'alaka aayatan lin-nasi*.

Hasan Basriy rahimahulloh qavlincha, bu izom Uzayr so'nguklari erdi. Avval ko'zlarin yaratti, andin so'ng andomlarin, netak turguzurini o'z ko'zi birla ko'rsun teb. Abdulloh ibn Abbos qavlincha, eshak so'nguki erdi. Mavlo taolo elga xitob qildi, olamni kezdi, eti, terisi, so'nguki qayda ersa yig'ib, terib kelturdi. Barchasini birlik yeringa o'rnatti, bir tuki o'zga bo'lmadi. Eshak taqi ko'pti, bir qaqrirdi. Uzayr ani ko'rub, Izi azza va jallag'a sajda qildi. Uzayr bildikim, Mavlo taolo qamug' (166r) narsaga ug'on turur. *Qavlulu taolo. A'lamu anna-lloha ala kulli shay'in qadirun*. Andin so'ng Uzayr eshakka mindi, evinga keldi, qapug' qoqti. O'g'li chiqti, oq saqollig'. Uzayr aydi: Assalomu alaykum yo o'g'lum. O'g'li aydi: Meni masxaramu tutarsen, men qariman, sen yigit, taqi manga o'g'lum dersen. O'g'li anda yuz yigirmi yoshda

erdi, Uzayr qirq yoshda erkan bu voqea bo'lub erdi. Voqeadin burun o'g'li yigirmada edi, yuz yil Uzayr o'lub yotti, bas, o'g'li yuz yigirmada bo'lur va Uzayr qirqda. Mundog' ajabni dunyoda hech kishi qo'rgan emas. Uzayr aydi: Men Uzayrman. Qartlar yig'ildilar, Uzayr so'zin rost tutmadilar, aydilar: Uzayr Tavrotni yod tutar erdi, sen imlo qilg'il, biz inonaling va yozaling. Imlo qildi, yozdilar ham ko'ngullari to'lanmadi. Biragu aydi; Falon yerda Tavrot kizlab tururman teb Tavrotni olib kelturdilar. Muqobala qildilar, bir harf ortuq, o'ksuk chiqmadi. Qachon ani ko'rdilar ersa aydilar: Izi azza va jalla Tavrotni bizing oramizdin ko'turmish erdi, kim ersaning ko'nglinda yo'q erdi, bu kun Uzayr ko'nglinda hosil bo'ldi. Mavlog'a qayu Uzayr biz qamug'din do'stroq turur, bu Mavloning o'g'li turur, tedilar. *Qavlulu taolo. Qalati-l yahudu uzayru ibnu-llohi*. Aymishlar, muni ayy'g'anlar qamug'i ozmaz erdilar.

Hikoyat. Uzayr duo qildi: Iziyo, qul uza yozuq qilurin sen qazo qilding, sening qazong o'zga bo'lmas. Yana naluk azob qilursen? Yorlig' keldi: Ey Uzayr, *haza min unsuri ilmiy*. Bu mening ilmimning asli turur. Bu duoni qo'yg'il. Uch yo'li aydi: Mundin so'ng bu duoni ikinci qilding ersa otini yalavochlar devonindin chiqarurman. Uzayr ul duoni yana qildi. Mavlo taolo Uzayr otini yalavochlar devonidin chiqardi, siddiqlar devonida bitidi. Aymishlar, bu sababdin yalavochlig'inda ixtilof bo'ldi.

ZAKARIYO VA YAHYO VA MARYAM VA ISO ALAYHIMUS-SALOM QISSASI

Ul naada rabbahu nida'an xafiyya xil'atin kiygan, rabbi in-niy vahaial-azmu minniy teb Hazratg'a munglag'an, va lam aqun bidu'aika rabbi shakiyyan shukrin o'tagan, fa hab liy min la-dunka va liyyan teb Mavlodin o'g'ul qo'lg'an, ya Zakariyya in-naa nubashshiruka big'ulamin ismuhu Yahya bashoratin bulg'an Zakariyo alayhis-salom. *Qavlulu taolo. (166v) Iz qolat imra'atu Imrona*. Mavlo taolo yorliqar, Imronning xotuni erdi, bu Imron Muso otasi Imron ermas. Abdulloh ibn Abbos raziyallohu anhu aytur, Muso otasi Imrondin bu Imrong'a tegi ming sekiz yuz yil

kechmish erdi. Bu Imron yavloq solih muttaqiy er erdi. Xotuning oti Hanna erdi. Bu Hanna bir kun bir qarg'ani ko'rdi, ayollarig'a yem berur. Nazr qildi, Mavlo taolo menga ayol bersa ani muharar qilg'ayman, muharrar ozod temak bo'lur. Ularning rasmlari ul erdi, ayolni ozod qilib, Bayt ul-Muqaddasg'a xidmat uchun vaqf qilur erdilar. O'g'lon tug'g'andin so'ng sut bermayin onadin ayirib, to'ng'a chulg'ab, Bayt ul-Muqaddasg'a eltib qo'yar erdilar, andag'i xodimlar asrar erdilar. O'n iki yashasa masjid supurib, charog' yor qar erdilar. Balig' bo'lg'an so'ng o'z erkinda erdi. Qachon Hanna qorninda o'g'lon bilgurdirdi ersa, eringa aydi: Ayol bilgurdirdi, muharrar qilg'ayman. Nazr qilib erdim. Imron aydi: Sabr qilg'il, o'g'ulmu bo'lur yo qizmu. Qiz tug'sa masjid xizmatig'a yaramag'ay. Hanna aydi: Mendin kelganini qildim, boqisini Mavlo taolo berur. Yana aydi: Xudoyo, bu nazrni mendin qabul qilg'il. Eshitguchi, bilguchi sensen. Qavluhu taolo. *Fa taqabbal minniy innaka antas sami'ul'alim.* Oyi, kuni yetti ersa, Hanna qiz tug'urdi. Munojot qildi, aydi: Iziyo, o'g'ul tug'sam nazr qilg'ayman teb erdim. Qiz tug'di, raddim yo'q. Qavluhu taolo. *Fa lamma vaza'atha qolat rabbi inniy vaza'ul-ha unsa.* O'g'ul qiztek bo'lmas. Qavluhu taolo. *Va laysaz-zakaru kal-unsa.* Yana aydi: Men bu o'g'long'a Maryam od berdim. Ibriy tilincha Maryam xodim temak bo'lur. Taqi aydi: Ilohiy, Maryamni taqi urug'ini Shayton sharrindin saqlag'il, sanga sig'inurman, tedi. Qavluhu taolo. *Va inniy u izuha bika va zurriyyataha minash-shaytonur rajim.* Mavlo taolo Hanna duosin ijobat qildi, Maryamni onasi Bayt ul-Muqaddasg'a eltib qo'ydi. Qamug'lari Maryamni saqlarg'a rag'bat qildilar. Zakariyo aydi: Maryamni saqlarg'a men avloroqmen, aning uchunkim, xolasi mening nikohimda turur. Qavluhu taolo. *Va kaffalaha Zakariyya.*

Aytdilar: Qayoshlig' avloroq ersa onag'a tegar erdi. Qur'a so'ling, kimning odig'a chiqsa ul olg'ay, tedilar. (167r) Aymishlar, qur'alari temurdin erdi, odlarini bitidilar, suvg'a soldilar. Qamug'ining qur'asi suvg'a botdi, Zakariyo qur'asi botmadi. Zakariyo Maryamni ularni eviga eltti, biyik yerda qo'ydi, yemak, etmak berdi. Maryam ulg'aydi ersa, kuyavga beraling tedilar, unamadi.

Savol: Maryam nedin unamadi? Javob: Avratga er uch narsa uchun kerak, bir, yemak-ichmak, ikkinchi, o'g'ul-qiz, uchunchi,

juftlik mazasi uchun. Mavlo taolo Maryamga savmaa ichinda emgaksiz, tilaksiz ro'zi tegurdi. Qavluhu taolo. *Kullama dahala alayha Zakariyyal mehroba vajada indaha rizqan.* O'g'ul-qiz erdin bo'lur tesang Maryamga Isotek o'g'ul otasiz ro'zi qildi. Juftlik mazasi tesang, Mavlo taolo toat va ibodat ichinda Maryamga maza bermish erdikim, er mazasi aning qatida yo'qg'a chiqti. Maryam tun-kun mehrobdada namoz qilur erdi. Zakariyo kirgan sayi o'nginda ne'mat ko'rar erdi. Aydi: Ey Maryam, bu ro'zilar senga qandin kelur? Qavluhu taolo. *Ya Maryamu annaa laki haza.* Aydi: Bu ne'matlar menga Mavlo hazratindin kelur. Qavluhu taolo. *Qolat huva min indi-llahi.* Kimga tilasa Mavlo sonsiz ro'zi berur. Qavluhu taolo. *Imni-Iloha yazuquq man yashau big'ayri hisab.* Ul holda ko'rdi ersa duo qildi: Iziyo, Maryamga qish kuninda yoz ne'matin berusan. Menga qarig'anda arig' o'g'lon bergil, teb duo qildi. Qavluhu taolo. *Hunlika da'a Zakariyya rabbahu qola rabbi hab liy min ladunka zurriyatan tayyibatan innaka sami'ul du'a.* Zakariyo uch yuz yashamish erdi, muni yolbordi, aydi: Iziyo, so'ngukum kavlandi, sochim oqardi, hazratindin ne qo'ldum ersa berding. Emdi qo'ynumdag'i o'g'ul-qiz tug'magan qurtqadin menga bir o'tul bergil, ul o'g'il menga valiy bo'lusun. Qavluhu taolo. *Va hab liy min ladunka valiyyan yarisiy va yarisu min aali Ya'quba vaj'alhu rabbi raziyyan.*

Hikoyatda aytmishlar, biragu Tengridin o'g'ul tiladi ersa bir muhannas o'g'ul berdi. Aydi: Ilohiy, o'g'ul tiladim ersa muhannas berding. Ovoz keldi: Biz o'g'ul berduk, sen tilayu bilmading. Ey mo'min, o'g'ul tilasang mutlaq o'g'ul tilamagil, o'g'ul yaxshi ham bo'lur, yomon ham. Ko'rmasmuse, Zakariyo mutlaq o'g'ul tilamadi. Aydi, Ilohiy menga (167v) o'g'ul bergil, ham valiy bo'lusun, ham roziy bo'lusun Mavlo taolo Yahyotek o'g'ul karomat qildi. Qavluhu taolo. *Ya Zakariyya innaa nubashshiruka big'ul-lamin ismuhu Yahya.* Tun-kun yig'layu toat va ibodat qilur erdi. Zakariyo aydi: Ilohiy, o'g'ul tiladim ersa berding. Yorlig' keldi, ey Zakariyo, sen o'g'ul tilading bizning valiy qullarimiz andag'-o'q bo'lur. Zakariyo o'g'ul duosi qilg'andin so'ng mehrobdada namozg'a turdi. Jabroil kelib nido qildi ul soat: Qavluhu taolo. *Fa naadatxul malaikatu va huva qoimun yusalli fil-mehrobi.* Mavlo taolo

yorliqar, Zakariyo mehrobdan namoz qilur tedi, bozorda tila temadi. Ma'lum bo'ldikim, tilak tilasa namoz qilg'andin so'ng mehrobdan tilagu kerak va mehrobg'a boqib turmoq kerak. Jabroil aydi: Ey Zakariyo, Izi azza va jalla senga bashorat berur Yahyo otlig' o'g'uldin. Ul o'g'ul Iso yalavochni rostg'a tutar, arig' turur. Quvvati, rag'bati bor erkan juftiga mungi yo'q, sovg'chi turur, ezgu turur. Qavluhu taolo. *Anna-Iloha yubashshiruka bi Yahya musaddiqan bikalimatini mina-Ilohi va sayyidan va hasuran va nabiiyyan minas solihin*. Taqi bir oyatda yorliqar: Qavluhu taolo. *Innaa nubashshiruka big'ulamini ismuhu Yahya lam naj'al lahu min qablu samiyyan*. Mundin burun hech kim ersa otin Yahyo bermaduk. Aymishlar, Yahyo hargiz yozuq qilmadi, yozuqni ko'nglida kechurmadi. Aymishlar, Yahyoning onasi Iso onasi birla qarindosh erdilar. Yahyog'a ham Isog'a ikagu homilador erdi. Bir kun ikagu o'turur erdilar. Yahyoning onasi Isoning onasig'a aydi. Sevunch senga, sening so'ngukundagi o'g'lon mening so'ngukumdagi o'g'lonidin afzal turur. Andin bildimkim, bu zamon mendagi o'g'lon sendagi o'g'long'a sajda qildi. Ul shari'atda tahiyvat sajdasin qilmoq mashru' erdi. Zakariyo aydi: Ilohiy, men qaridim, juftum ham o'g'ul-qiz tug'urmadi. Biz ikagudin netak o'g'lon bo'lur. Ya'ni boshdin yigitmu bo'lurmiz yoxud mundag'-o'q qari erkan o'g'ul tug'armu? Qavluhu taolo. *Rabbi amaa yakumu liy g'ulamun va qad balag'aniy al kibarun vamraatiy aaqir*. Jabroil aydi: Mundag'-o'q turur, Yo Zakariyo neteg tilasa berur. Alloh netak tilasa berur. Qavluhu taolo. *Qola kazalika-Ilohu yaf'alu ma yashau*. Zakariyo aydi: Iziyo, xotunimda o'g'lon (168r) bo'lg'anin menga bilgurta bergil. Qavluhu taolo. *Rabbi-j'al liy aayatan*. Yorlig' keldi: Belgusi ul tururkim, uch kun tiling og'ir bo'lg'ay, kishiga so'zlay bilmag'aysen. Qavluhu taolo. *Qola aayatuka an la tukalli-man nasa salasata ayyamin illa ramzan vazkur rabbaka kasiran va sabih bil-ashiyi val-ibkar*. Ammo mening zikrim, tasbihimni erta kech ayg'aysen. Aymishlar, Yahyo yavloq muttaqiy, zohid kishi erdi, kichikda toatg'a haris erdi, o'g'lonlarga a qo'shulmay tun-kun tog'larga oshib, toat qilur erdi. Zakariyo onasi birla ikagu darxost qilib, elga kivurur erdilar. Zakariyo xaloyiqg'a va'z etib, majlis

tutar erdi, tilinda tamug' so'zi kechti. Yahyo ani eshitib, oh teb o'gsuz bo'lub yiqildi, yana qo'pub ketti. Otasi, onasi ikagu borib tuttilar. Ul choqliq yig'lamishkim, ko'zlari yoshi iki yangoqindin ariqtek bo'lib oqar erdi. Yosh oqatug'an yullaridin jarohat bo'lub, qon oqar erdi. Onasi oq kiyizlarni kesib, yangoqidag'i ariqlarg'a o'rnatir erdi. Bu turluk qo'rqunch birla Mavlog'a toat qilur erdi. Aymishlar, ul ro'zgordagi malik bir tul urag'utni juftlikka oldi. Burunqi eridin bir qizi bor erdi. Ul qiz bo'yg'a tegdi ersa, onasi dunyo hurmatiga bo'lub, bu qizni malikka nikoh birla berur bo'ldi. Qizg'a arig' to'nlar kiydurub, yiporlar birla malikka izdi. Malik aning ko'rkinga (hayron) bo'lib rag'bat qildi, qiz ham ko'ngul berandi. Nikoh bo'lsun tebtavaquf qildilar. Nikoh bo'luring'a fatvoraavo topmadilar. Qiz onasi malikka aydi: Yahyoni hozir qilg'il. Hozir qilib, savol qildilar, ravo yo'q, tedi. O'zga olimlarga a savol qildilar ersa qo'rqunchdan ravo bo'lur tedilar. Malik Yahyoga o'fkalab qizg'a qasd qildi. Qiz aydi: Ey malik, Yahyoni, Zakariyoni o'lturmaguncha men sanga bo'yunsunmazman. Malik Yahyoni o'lturur bo'ldi. Aytilar: Yahyoning qoni yerga tomsa qiyomatg'a tegi o't unmas. Malik buyurdi, Yahyoni tasht ichinda bo'g'uzladilar, qoni tinmadi, tasht to'ldi, chiqib yerga oqa boshladi. Saroy to'ldi, saroydin chiqib elga kirdi. El qon ostinda qoldilar. Qo'rqub oji bo'ldilar. Hukamo aytilar: (168v) Bu qon tinmas, to ul qizni o'lturmaguncha. Necha hiyla qildilar, qon tinmadi. Darmonda bo'ldilar ersa Malik qizni kelturub, tasht ichinda bo'g'uzlattir. Yahyo qoni andin so'ng tindi. Kesilgan bosh tasht ichindan qatig' un birla aydi: Onasin olg'ang'a qizi tegmas. Onchada Zakariyo qochdi. Qochib borurda bir yosh yig'och yo'luqti. Zakariyo ul yig'ochdin kizlanurga o'run tiladi. Mavlo yorliqi birla yig'och iki pora bo'ldi. Zakariyo kirdi, yig'och qovushdi. So'ngincha tilayu keldilar. Iblis alayhil-la'na yo'luqti. Zakariyoni ko'rdungmi? tedilar. Iblis aydi: Bu yig'ochg'a kirdi. Inonmadilar, ammo chalmasining uchi toshda qolmish erdi, ani ko'rguzdi. Aytilar: Yig'ochning tubin kessak boshidin chiqar boshin kessak tubidin chiqar, teb arra kelturub, yig'ochning tepasidin iki yordilar. Qachon arra Zakariyoning boshig'a tegdi ersa, faryod qilayin tedi. Jabroil kelib aydi: Ey Zakariyo, Mavlo

yorliqar, sabr qilg'il. Faryod qilding ersa unungdin yetti qat yerlar buzulur. Yer yerga to'qishur, pora-pora bo'lur. Zakariyo sabr qildi. Zakariyoni yig'och birla birga yordilar. Xabarda andog' kelmish, qachon yalavochlarni o'ltsalar fitna bo'lur erdi. Yetmish ming er o'ldi o'Imaguncha fitna ketmas erdi. Fitna qo'pti, yetmish ming er o'ldi Zakariyo uchun. Yana yetmish ming er Yahyo uchun o'ldi. Andin so'ng fitna ketdi. Aymishlar, amir ul-mo' minin Usmon uchun ham yetmish ming er o'ldi.

ISO YALAVOCHNING VALODATI SO'ZLARI

Vazkur fil-kitabi Maryama Izintepazat min ahliha makanan sharqiyyan. Izi yorliqar: Ey Muhammad, yod qilg'il Qur'on ichinda Maryamni qachon ersa o'g'ushinda kun tug'ar. Aymishlar, Maryam bir hayz ko'r'di, o'zga ko'rmadi. Boshin yuvarg'a evining kun tug'aring'a yuridi, kishi ko'zi tushmasun teb hijob tutti. Qavluhu taolo. *Fattaxazat min dunihim hijaban.* Mavlo taolo Jabroilni izdi, bir yigit suratlig'. Ani ko'r'di ersa: Sendin rahmat, Tengrig'a sig'inurman, sinuq muttaqiy er ersang, tedi. Aning uchunkim, arig' eranlarni rahmati Tengridin qo'rquturlar. Jabroil aydi: Qo'rqmag'il, men odamiy ermasman, Tengri yuborgan farishtamen. Senga arig' o'g'ul bag'ishlag'ayin (169r) teyu keldim. Qavluhu taolo. *Innama ana rasulu rabbiki lihaba laki g'ulamun zakiyyan.*

Savol: Jabroil o'g'ul bag'ishlag'ayin temak netak ravo bo'lur? Qamug'ini bag'ishlag'an Mavlo turur.

Javob: Munda narsa muzmir bor. *Liaqula laki ma qola rabbuki g'ulamun zakiyyan.* Ya'ni men keldim senga ayg'alikim, Mavlo taolo yorliqar: Sanga arig' o'g'ul bag'ishlayurmen. Maryam aydi: Manga o'g'ul qaydin kelsun, hech odamiy menga yovug'ani yo'q. Qavluhu taolo. *Qolat annaa yakunu liy g'ulamun va lam yamsasniy basharun va lam aku bag'iyyan.* Jabroil aydi: Andag'-o'q turur Mavlo taolo ne tilasa qilur, teb. Jabroil Maryamning yaqosin tutub urdi, Maryam Isog'a yukluk bo'ldi. Qavluhu taolo. *Fa nafaxnaa fih min ruhina.* Aymishlar, ul soatda-o'q Iso tug'di, ba'zilar aydilar, olti oyda tug'di. Aymishlar, o'g'lon olti oyda tug'sa tirilur, sekiz oyda tug'sa tirilmas. Iso olti oyda tug'di, tirildi. Ul anga mo'jiza

erdi. Aymishlar, Yahyo va Iso ikilari onalari qorinda so'zlashur erdilar. Qachon Maryamning oyi, kuni yovushti ersa, o'g'lon og'riqi bilgurdi. Ko'pti, xurmo yig'ochi tubinga bordi. Ul yig'och qurug' erdi. Maryam barakatidin yashardi. Xurmo bilgurdi. Aymishlar, Maryam Isoni og'zindin tug'urdi. Aymishlar, kindikidin tug'urdi. Maryam aydi: Koshki muni tug'urmasdin burun o'lgay erdim. Qavluhu taolo. *Qolat ya laitanii mittu qabla haza.* Qachon Iso Maryamdan ayrildi ersa, ostindin un keldi: Ey Maryam qayg'urmag'il. Qavluhu taolo. *Fa naadaha min tahtiha an la tahzani.* Aymishlar, min tahtiha qiroat turur. Yana aydi: Mavlo sanga bu oqar o'rta, ulug' ariq ermas, kichik ariq ermas, suv berdi yuvunmoq uchun. Qavluhu taolo. *Qad jaala rabbuki tahtaki sariyyan.* O'rta ariq temak bo'lur. Savol: O'rta ariq bermakda hikmat ne erdi. Javob: Ariq ulug' bo'lsa Maryam kirib yuvunmoqg'a qo'rqg'ay erdi. Kichik ham bo'lsa boshliqin yuvmoqg'a yaramag'ay erdi. Qo'rqmasun teb o'rta ariq berdi. Aydi: Ey Maryam, bu qurug' yig'ochni irg'ag'il, sanga toza xurmolar to'kulsun. Qavluhu taolo. *Va huzziy ilayki bijiz'in naxlati tusaqit alayki rutepan janiyyan.* Jabroil aydi: Ey Maryam, bu xurmodin yegil, bu ariqdin suv ichgil, Isotek o'g'ul birla ko'z zung yorutg'il. Qavluhu taolo (169v). *Fa kuliy vashrabiyy va qarriyy ayyan.* Yana aydi: Kim ersa bu otasiz o'g'ulni qaydin keturding tesa ayg'il, man lzi birla nazr qilib tururman, ro'za tutarman, kim ersa birla so'zlashmasman tegil. Qavluhu taolo. *Inniy nazartu lir-rahmani savman fa lan ukallimal-yavma insiyyan.* Aymishlar, qirg kun o'lturdi nafasindin arilg'uncha. Andin so'ng Isoni ko'tarib, qavming'a keldi. Qavluhu taolo. *Fa atat bihi qavmaha tahmilluhu.* Aymishlar, Isoni Maryam ko'tarib kelurda juhudlardin kizlayur erdi, otasiz o'g'ulni qandin kelturding temasunlar teb. Yo'lda bo'zchilar yo'luqti. Ulardin yo'l so'r'di, tikonlig' yo'lni ko'rguzdilar. Maryam ul yo'lda emgandi. Aymishlar, teran ariq tepa yo'lechiladilar. Oyoq yalang qilsa etin, tanin ko'raling teb. Maryam ulardin ozorlandi, aydi: *Allohummar-fa aal-barakata an hifatihim teyu, ularg'a qarg'ish duosi qildi.*

Aymishlar, Maryam kelgan qavm solih erdi. Maryamning o'g'ul qo'ndoglab kelurin ko'rdilar. Aydilar: Ey Maryam, yavloq yarog'siz ish qilding, sendin burunqi bu ishni qilmadi. Otang,

onang yovuz ermas erdi. Sen bu o'g'lonni qaydin olding? Iso sut emar erdi. Maryam Isog'a ishorat qildi, ya'ni xabar so'rsa mundin so'ring, yiroqdin kelgan bu erdi, men munda-o'q erdim. Aydlilar: Beshikdagi o'g'lon birla netak so'zlashaling. Qavluhu taolo. *Man kaanna fil-mahdn sabiyyan*. Qachon Iso ularning so'zin eshitti ersa, ema tururda yuzin ularg'a o'vurdi. Aydi: Men Mavlo taoloning quliman. Qavluhu taolo. *Qola inniy abdulloh*. Ul o'z qulluqig'a iqrar qildi. Yana aydi: Tengrining bandasiman, birlikinga kitob. Yana aydi: Mavlo taolo manga kitob bergusi, ya'ni Injilni taqi yalavochliqni bergusi. Qavluhu taolo. *Aataniyal-kitoba va ja'alaniy nabiyyan va ja'alaniy muborakan aynama kuntu*. Ya'ni meni qutlug' yaratg'usi qayda ersa taqi manga namoz farmonladi, molim bo'lsa zakot buyurdi tirik borimcha. Qavluhu taolo. *Va avsoniy bis-solati vaz-zakati ma dumtu hayyan*. Iso bu so'zni tindi taqi o'zga so'zlamadi. O'g'lonlar so'zlagu vaqtg'a tegi. Yana yorliqar, bu so'zni so'zlagan Maryam o'g'li Iso erdi. **(170r)** Tarsolar aymishtek, *fa yaxtalifun*. Aymishlar, ixtilof ul erdikim, Isoni ba'zilar ibnulloh tedilar, ba'zilar iloh tedilar. *Solisu saloatin*. Ul ixtilof ul vaqtda erdikim, Iso ko'kka og'di ersa, bani Isroil olimlarida to'rtgani o'zdukdilar. Av-valoig'a aydlilar: Iso haqinda ne teyursen? Aydi: Iso Tengri turur, erga indi ne qildi ersa yana ko'kka og'di. Ikinchisi aydi: Iso Tengrining o'g'li turur. Uchunchi aydi: Iso iloh turur, onasi iloha turur, Izi azza va jalla uchunchilari turur. To'rtunchilari mo'min erdi, aydi: Iso Tengrining quli turur, yalavoch taqi ruhulloh turur. Tekma birlari jam'iyat qildilar, to'qush boshladilar. Ul mo'min olimning jam'iyati. *Faxtalafal-ahzabu min baynihim*.

Aymishlar, tarsolar uch turluk tururlar. Biri, hori ya' qubiylar. Ikinchisi, malikoni. Uchunchisi, tashuriy. Hori ya' qubiylar Isoni Tengri teyurlar, malikoniylar Tengrining o'g'li teyurlar, tashuriylar uchagu teyurlar. *Xazalahumu-Ilohu ta'ala*.

Qachon Iso ulug' aydi ersa bir kun onasig'a aydi: Mavlo taolo bizni ne uchun yaratti? Onasi aydi: Xidmat, toat uchun yaratdi. Iso aydi: Qo'pg'il, bu xaloyiqlar orasindin chiqaling. Men bular orasinda xidmat qilumasman. Onasining ilkin olib, tog'g'a chiqdilar. Savmaa qilib toat, ibodatg'a mashg'ul bo'ldilar. Kunduz ro'za tuttilar, og'iz ochg'u vaqt bo'lsa ja'diy otlig' ko'k o't

kelturdilar, og'iz ochtilar Bir kun Iso narsa tilayu bordi. Azroil yetib keldi. Maryam aydi: Kimsen, o'g'lum yo'q, men za'ifaman. Azroil aydi: Men malak ul-mavtman. Maryam aydi: Ne ishga kelding? Aydi: Sening joningni olg'ali keldim, tedi. Maryam aydi: Mavlo taolo yorliqin yurutgil. Maryamning jonin oldi. Iso yetib keldi. Onasin ko'rdi, yotur. Uyuqlabdur teb, uyg'otmadi. Kun botar vaqt bo'ldi ersa, Iso aydi: Ey ona qo'pg'il, namoz vaqti kechmasun. Javob bermadi. Havodin un eshitildi: Onang o'ldi, o'luknimu indayursen. Iso zor-zor yig'lab, qazg'ulug' bo'ldi. Onam narsa yemadi, o'ldi, teb o'zi ham y. Ul kecha onasi qatinda uyudi. Tush ko'rdi. Onasi ujmoah ichinda hulla **(170v)** kiyib taxt uza o'lturur, tegrasinda hurlar xidmat qilurlar. Onasi aydi: Ey Iso, mani og'iz ochmadi teb qazg'urmag'il, Mavlo taolo menga ro'zi berdi, og'iz ochtim, tedi. Tonglasi qo'pti, kengda bordi, avratlar kelturdi, Maryamni yuvdilar, tuproqg'a qo'ydilar. Andin so'ng Iso elga kirdi, xaloyiqni imong'a da'vat qildi, Yalavochliq oshkoro qildi. Aydlilar: Yalavoch ersang mo'jiza ko'rguzgil. Aydi: Mo'jiza ul tururkim, o'lukni tirguzurman, xastani yaxshi etarman, pesni to'g'a, ko'zsizni ko'rar qilurman.

Aymishlar, Mavlo taolo qamug' yalavochlarga ul narsani karomat qilmadikim, qavmi aning o'tachi erdilar. Netakkim, Ibrohim yalavoch vaqtda jodulig'a kuvanur erdilar. Mavlo taolo Musog'a aso berdi. Yana Iso vaqtda o'tachilik birla kuvanur erdilar. Mavlo taolo Isog'a mo'jizalar berdi, qamug' o'tachi ojiz bo'ldilar, o'luk tirguzmakteg. Qavluhu taolo. *Va ubarriul akmahal val abrassa va uhyil mavta biizni-llahi*. Ular aydlilar: Bizga mo'jiza kerakkim, baliqdin qush qilsang, yungsiz et, qanotlig'. Og'zing birla dam qilg'il, bizning ko'zumizda uchsun, biz ko'raling. Iso baliqdin qush qildi, og'zi birla dam qildi, havo uchti. Aymishlar, ul qush yarasig' turur.

Savol: Yarasig' qush tiladilar, o'zga qush tilamadilar, hikmat ne erdi?

Javob ul tururkim, qushlarda tansuqroq qush yarasig' turur. Tansuqluqi ul tururkim, yung yo'q, et, qanot birla uchar. Ikinchi ul tururkim, o'zga qushlar bolasi yumurtqadin chiqar, yarasig' yilqi qoratek tug'urur. Uchunchi, yarasig' kishitek kular. To'rtunchi,

avratlartek oy sayi arig'siz bo'lur. Beshinchi, kunduz ko'zi ko'rmas ham uchmas. Oltinchi, ekchitek emchakda sut berur. Yetinchi, bir emukindin sut emar, ammo yana bir emukindin suv ichar. Sekizinchi, kun botmishdin so'ng (171r) qorong'u bo'lg'uncha bir soat ko'zi ko'rar uchun uchar. To'quzunchi, tishlari bor. Bu tangsuqlar yarasig'da bor uchun Isodin ani mo'jiza qo'ldilar.

Savol: O'luk turguzmak mo'jizasi bo'lg'ay, ammo ko'rni taqi pesni o'tachilar o'nglaturlar doru birla. Iso duosi birla bu ne mo'jiza bo'lur?

Javob ul turur: Modarzod ko'zsizni Iso duo birla o'ngaltur erdi. Yana pesni, iki turluk bo'lur, biriga davo yarar, biriga yaramas. Davo yarag'an pes ul bo'lurkim, igna sanchsa qon chiqar, davo yaramasg'a igna sanchsa qon chiqmas. Iso alayhis-salom andog' pesni yaxshi qilar erdi. Yana sekiz kishini duo birla turguzdi. Oshir qizi taqi qurtqaning o'g'li bir qurtqa Isog'a kelib yig'ladi: O'g'lum o'ldi, o'g'lonlari qoldi, ularni boqarg'a kuchim yo'q. Iso duo qildi, o'g'li tirilib, tuproqdin qo'pti. Yillar tirildi, o'g'lonlari bo'ldi. Ul qavmlari aydilar: Sen tunagi o'lukni turguzursen, joni taqi tamom chiqmay erdi. Bir ertagi o'lukni turguzgil. Iso aydi: Kimni tilasangiz turguzayin. Aydilar: Nuh o'g'li Somni turguzgil. Iso aydi: Aning tuproqi qayda turur? Ko'rguzdilar, Iso iki rak'at namoz qildi, aydi: *Ya Samu qum biizni-llohi ta'ala*. Mavlo yorliqi birla qo'pti, go'r yorildi. Som: *Labbayka ya Rasulu-llohi*, teyu qo'pti. Ko'rdilar, sochi saqoli oqarmish. Aydilar; O'lmishda yigit erding emdi oq saqollig' ko'rarmiz. Som aydi: Qo'pqil teyu un eshittim, qiyomat bo'lmish, Isrofil uni bo'lg'ay teb qo'rqmishdin sochim, saqolim oqardi. Iso aydi: Emd ne teyursen, o'lummu kerak yo tiriklikmu? Som aydi: Yo Rasululloh, tiriklik tilasam so'ngi o'lum bormu? Aydi: Bor. Andog' ersa jon achig'i mandin ketmayin turur, teb yana o'ldi ersa saqish qildilar Som o'lgali to'rt ming yil bo'lmish ortuq o'ksuk. Hikoyat. Iso bir kubdin suv ichti. Totig'siz narsa bor bo'lg'aymu, teb suvni to'kti, taqi ariqdin to'ldurdi. Icht, suchuk. Tongladi, aydi: Bu ariq suvi suchuk, bu kub suvi achig'. Hikmat na ermiş? Yorlig' keldi: Yo Iso, bu kubdin so'rg'il, so'rdi. Mavlo taolo kubga til berdi, aydi: Men odam erdim, o'ldum. Telim yillar kechti. Egim, tanim, so'ngukim churidi, tuproq bo'ldi. Ul tuproqdin

(171v) kub qildilar. Suv achig'i jon achig'i turur, tedi. Aymishlar, Isog'a bir maqomda turmoq ravu ermas erdi. Aning yurumakida illatliklarga manfaat bor erdi. Qachon harakat qilsa xaloyiqlar ozorlanur erdilar. Hikoyat. Iso yalavochning qo'ldoshlari bor erdi, ularg'a havoriylar teyurlar, havoriy xos ishlik temak bo'lur. Aymishlar, gozurilar erdilar. Xaloyiq to'nlarin oq uchun havoriy atadilar. Oq etmakka xubz ul-qavoriy teyurlar. Hur oq temak bo'lur. Ujimoh hurlari oqliqlari uchun hur atadilar. Aymishlar, ul iki to'n yuvug'uchilar erdi. Isoni onasi maktabga izdi Ustod aymasdin burun aytur erdi. Ustod Isoni onasig'a yondurub kelturdi, aydi: Bu mendin yaxshi bilur. Andin so'ng bo'yog'chiliqq'a berdi. Ustod evdin chiqti ersa Iso qamug' to'nlarini kubga soldi. Ustod kirdi, do'konda to'n ko'rmadi. To'nlar qani? tesa, Iso aydi: Nil kubinda. Ustod aydi: Har to'ng'a bir rang bermak kerak erdi. Iso aydi: Har kishi netak rang kerak ayg'il, man ul ranglik to'n chiqarayin. Ustod, har birining rangi mundog' kerak teb, eta berdi, Iso teganitek to'nlarini kubdin chiqarib berdi. Ustod muni ko'rub tongladi, aydi: Bu jodu turur, teb to'nlarini suvg'a eltib toshg'a urdi ersa to'nlarining bo'yog'i arig'roq, ravshanroq bo'ldi. Aydilar: Bu jodu ermas, haq yalavochi turur, qamug'i imon kelturdilar. Havoriyun anlar turur. Andin so'ng ukush xaloyiqlar havoriylarg'a kelib aydilar: Ey Iso, Tengring ko'kdin bizga moida yiborsun. Iso aydi: Mavlodin qo'rqung, fitnalik qilmang mo'min ersangiz. Qavluhu taolo. *Fattaqu-lloha in kuntum mu'minin*. Aydilar: Biz fitna qilmasmiz, ko'kdin ingan moidadin yemak tilayurmiz. Anda Iso duo qildi: Ey Iziyo, ko'kdin bizga moida yiborgil, burunqilarimizg'a, so'ngg'ilarimizg'a ul kun iyd bo'lsun. Mavlo taolodin xitob keldi: Ey Iso, man sanga moida yiborgayman. Ul moidani ko'rgandin so'ig'kim imon kelturmasa man anga bir azob qilg'ayman. Qamug' olamlarg'a uz azob bo'lmag'ay. Qavluhu taolo (172r). *Imniy munazziluha alaykum fa man yakfur ba'du minkum fa inniy u'azzibuhu azaban la u'azzibuhu ahadan*.

Bir tergi bilgurdi, azoqlari havoda. Ichinda oq etmaklar, taqi pishg'an baliqlar, taqi sirka ko'k o'tlarkim, xaloyiq yeyurlar. Qamug' xaloyiq ko'rdilar. Qachon indi ersa tergi o'vruldi. Eligi yuqori bo'ldi, azoqlari ashoq bo'ldi, Iso o'nginda turdi. Aymishlar,

kim ersa andin yemadi. Aymishlar, to'quz yuz er, xotun erdilar, andin edilar. Qamug' to'ydilar. Og'inlar, qarag'ular, oxsoqlar, sag'irlar, illatliklar ul moidadin edilar. Qamug'i o'ngaldilar, hech kim ersa imon kelturmadi Aymishlar, ul moida uch kunga tegi andag'-o'q izdi. Yana ko'kka og'di. Bu to'quz yuz er, xotun edilar, eksilmadi. Kim ersa imon kelturmadi. Uch kundin so'ng masx qildi, to'nguz bo'ldilar, biri birin yeyur erdilar. Uch kunga tegi ul sifat birla tirik bo'ldilar. Ibrat uchun andin so'ng o'ldilar, yo'q bo'ldilar. Hikoyat. Bir kuni Iso yozig'a chiqti, bir tulki ko'rdi, inidin chiqar. Iso aydi: Tulkining evi bor taqi Isoning yo'q. Xaloyiq eshitib aydilar: Biz sanga bir ev qilaling. Aydi: Molim yo'q. Mol yig'dilar. Aydilar: Ne yerda qilaling? Iso tengiz qirog'ig'a bordi. Bir qum uza qilaling, tedi. Aydilar: Munda ev turarmu? Iso aydi: Oqil dunyoda ev qilurmu?

Hikoyat. Iso vaqtinda bir soliha urag'ut bor erdi, tanur boshig'a etmak pishurg'ali keldi, qo'linda o'g'lona birla. Namoz vaqti bo'ldi, o'g'lonna qo'yub o'zi namozga qo'pti. O'g'lon emgaklar borib tanurg'a tushdi. Onasi namozni buzmasdi. Eri keldi, xotunin namozda ko'rdi. O'g'lon tanur ichinda o'lturur, o'ynayur. Otasi ani ko'rub, kelib Isog'a aydi. Iso aydi: Xotuningdin so'rg'il, ne amal qilmish erdi? Kelib so'rdi ersa xotuni aydi: To'rt amal qilmish erdim. Avval, Mavlo ne'matinga shukr qildim. Ikinchi, balosing'a sabr qildim. Uchunchi, qazosing'a rizo berdim. To'rtunchi, dunyo ishin oxirat ishiga badal qildim. Eri kelib Isog'a aydi ersa Iso aydi: Agar xotuning er bo'lsa payg'ambar bo'lur erdi. Hikoyat. Iso bir kun go'ristondin kechar erdi, ko'rdiki, bir go'rdin (172v) nur chiqar. Aydi: Iziyo, bu o'lukka til bergil, so'zlashayin. Darhol go'r yorildi, bir kishi chiqti, boshinda tepaq birla nur. Iso: Bu ne nur? teb so'radi. Aydi: Manda hech amali solih yo'q erdi. Yolg'uz o'g'lum bor erdi. Erta-kech aning duosi birlan bu nurg'a shoyista bo'ldum. Iso aydi: Tiriklar duosi o'lukka tegarmu? Ul aydi: Ey Iso, siz yalavochliqg'a netak kuanursiz, biz ham o'g'ul qizg'a andog' kuanurmiz. Isoni onasi kichiklikta muallimga berdi va aydi: O'g'lumg'a ko'p o'gratgil, oz urg'il. Muallim aydi: Abjad tegil. Iso aydi: Abjad ma'nisi ne bo'lur? Muallim aydi: Avval o'rgangil, andin so'ng so'rg'aysen. Iso aydi: Bilmas narsani o'rganmasmen.

Muallim, ayg'il teyu, urdi Iso aymadi. Kecha evga borurda aydi: Ey ustod, onam vasiyyati tutmading, ko'p o'rgat, oz urg'il temish erdi. Sen meni ko'p urding, oz o'rgatding. Taqi muallimg'a aydi: Sen abjad ma'nisin manga aymading. Man senga aytayin. Muallim aydi: Ayg'il. Iso aydi: Alif-olosi Mavloning, "b"-baqosi, "j"-jamoli, "d"-mulkning davomi. Yana bir rivoyatda, abjad: "alif" iborati Odamdin turur, "b" obosi turur toatdin, "jim" va "dol" jiddi ma'siyatdin. (Havvaz) *ayamila bihavai nafsihi, (huttii) ay hutta anniy zunubiy, (kalaman) ay kalamu-llohi man takallama bihi fa g'afara lahu, (sa'fas) ay so'un biso'in ay kama tudinu tudanu.*

Kechalik bo'ldi ersa, Maryamga keldi. Muallim kelib onasig'a aydi: Bu o'g'lung bizdin o'granurlardin ermas, biz mundin o'granurlardanmiz. Aymishlar, Iso bir kun yo'ldin kechmishda biragu aydi: Arig'siz onalig' jodu keldi. Iso ani eshitib qazg'ulug' bo'ldi, aydi: Iziyo, sen bilursen, onam bikr turur, Bu ermi halok qilg'il. Darhol halok bo'ldi.

QISSAYI ZULQARNAYN

Qavlulu taolo. *Va yas'alunaka an Zil-qarnayn.* Iskandariya otlig' eldin erdi, aning uchun Iskandariya atandi, ammo Zulqarnayn aning uchun atandikim, yerning iki qarnig'a yetti, ya'ni mashriqdin mag'ribg'a tegi. *Qarn* arab tilincha muynuz bo'lur. Iki muynuzlig' temak bo'lur. Zulqarnayn aning boshinda oltundin iki muynuzi bor erdi. Mavlo taolo ani yalavochliqg'a izdi, (173r) urdilar, muynuzlari sindi. Aymishlar, Zulqarnayn aning uchun tedilarkim, iki qarn yashab erdi, anda itxilof qildilar. Ba'zilar yalavoch tedilar, ba'zilar malik tedilar. Bu oyatni hujjat kelturdilar. Qavlulu taolo. *Quinaa ya Zal-qarnayn.* Mavlo taolo anga mulki azim berdi, Qofdin Qofg'a tegi. Qavlulu taolo. *Imnaa makkanna lahu fil-arzi va aataynahu min kulli shay'in sababan fa atba'a sababan.* Yo'llarni bilmak karomat qildi. Dunyoni kezdi, shaharlar qo'pordi. Telim kofirlarning shahrin oldi. Hech kim ersa anga o'tru turmadi. Xabarda kelur, Makka xalqi Mustafu alayhis-salomg'a munkar bo'ldilar, bo'lmasa Hijozg'a kishi izdilar. Bu Muhammad yalavochman teyur, rostini, yolg'onin

bilmasmiz. Juhudlarda Tavrot bor erdi. Olimlari kechmish, axborlaridin: Bizga hujjat masoil chiqaring, javoblarin bizga ayta bering. Biz so'zlashaling, yalavoqliqin tahqiq qilaling, teb Abu Jahl alayhil-lanani izdilar. Ular Tavrotni chiqarib, boqib, uch mas'ala topib, ixtiyor qildilar. Biri ulkim, ruh ne turur tub so'ring. Tavrotda ruh zikri, sifati yo'q. Agar ruhni sifat qilsa yolg'onchi turur, yalavocho ermas. Agar sifat qilmasa haq yalavocho turur. Taqi Zulqarnayn, taqi ashobi kahf so'zlarin so'runq tedilar. Arab mushrikleri kelib aydilar: Yo Muhammad, sening Muso kitobitek kitobing bor bo'lsa, Tavrotdagı savollarga javob berur bo'lsang, senga imon kulturaling, tedilar. Onchada Mavlo taolo, azza va jalla Mustafo alayhis-salomga bu qissalardin xabar bermay erdi. Kofirler kelib so'rdilar ersa, Rasul alayhis-salom aydi: Mavlo taolo manga xabar bersa men ham sizlarga aytayin. *In sha' a-lloh*, temadi. Abdulloh ibn Abbas raziyallohu anhumo aytur, labroil o'n kunga tegi kelmedi. Kofirler kunda kelib, javob ayg'il teb taqozo qilur erdilar. Taqi aydilar: Tengri Muhammadni unutdi, Rasul ani eshitib qazg'utug' bo'ldi. Odina kuni zavol vaqtida Jabroil yetib keldi. Tengri salomin tegurdi, taqi aydi: Mavlo yorliqar, ul mushrikler aymishtek ermasmen. Seni unutmadim, dushman tutmadim. Qasamyod qilu yorliqadi. Qavluhu taolo. *Vazzuha val-layli iza saja ma vad da'aka rabbuka va maqala*. Yana Jabroil aydi Yo Muhammad, sanga so'rarlarkim, ruh ne turur? Ayg'il, mening Izim azza va jalla bilur, ammo ashobi kahf (173v) so'zlarin aytu bergil, Bilqis xabarin aytu bergil, Zulqarnaynni men senga aytu berayin. Qavluhu taolo. *Qul saatlu alaykum minhu zikran*. Mavlo taolo yorliqadi, biz anga yer mulkin berduk. Har tarafdin yo'l ko'rguzduk. Qavluhu taolo. *Va aataynahu min kulli shay'in sababan fa atba'a sababan*. Ul yo'lg'a kirdi, anchaga tegikim kun botar yerga bordi. Qavluhu taolo. *Hatta iza balag'a mag'ribash-shamsi*. Onchada bo'ldikim bir uyuk yo'lg'a yetar. Qavluhu taolo. *Vajdahatag'rubu fi aynin hami'atin* qiroat turur. Qiroatcha ma'nisi, qinar yo'lg'a botar temak bo'lur. Ikki qiroat orasinda farq ul tururkim, ul yo'l ham qinar erdi.

Savol: Mashriqdin mag'ribg'a tegi besh yuz yillik yo'l turur teyurlar. Zulqarnayn kun botarg'a netak bordi?

Javob ul tururkim, odamiyning azoqi mag'ribg'a tegmas. Ammo Zulqarnayn oncha bordikim, ko'ziga kun yer ichinda botartek ko'rundi. Yana ul yerda bir shahar ko'rdi, tosh, temur, baringirdin, qapug'i yo'q, andin nari yo'l yo'q. Hiyla qildilar, tanoblar soldilar. Biraguni tom boshig'a mindurdilar, andin narini ko'rsen, xabar bergil bizga teb. Ul tom boshig'a chiqti ersa, ko'rganin aytmay o'zin nari soldi. Yana birovni soldilar, aning birla ahd qildilar, ko'rganingdin bizga xabar bergil teb. Ul ham mindi ersa, o'zin nari soldi, hech nima so'zlamadi. Uchunchini izdilar. Aning birla ahd qildilar, tomg'a oshib agar ujmoq ko'rsang xabar qilg'il teb. Tomg'a mindi ersa ul ham andag'-o'q qildi. Zulqarnayn ul yerdin yondi, mashriq tepa o'g'radi. Bir adog'g'a tegdi, kemisiz kirsab o'lmas. Ul adog'da qamug' hakimlar erdilar. Zulqarnayn kelurin bildilar ersa, kemini tortdilar. Zulqarnayn tengiz qirog'ida bir manora qo'pordi, qurg'oshindin tegrasinda pomuq sham' yoqdi, o'tun yig'di ersa, kun charog'i tegdi, pomuq sham'i yoqildi, o'tun tutashdi, aning cho'g'i shaharga tegdi, saroylar, evlar yoqildi. Halok bo'lg'ali yovushtilar ersa, shaharni Zulqarnayng'a berdilar. Shaharga kirdilar ersa, qurumish o'luklar ko'rdi. Islanmay, sasimay turur bu ne hol turur? teb so'rdi. Aydilar: Bizing yeganimiz hikmat turur. (174r) teb Zulqarnayn qiziqladilar. Qartlar kelib o'ngida o'lturdilar, moida kelturdilar, ilgari qo'ydilar, tekma biri hikmat so'z boshladilar. Kezik Zulqarnayng'a tegdi. So'zlagil, tedilar. Zulqarnayn aydi: Bu oshni naluk yemassiz? Ular oshni ichtilar, shira uza tepaqlar ko'rdilar, yinju, gavhar birla to'lug'. Zulqarnayng'a: Yegil, tedilar. Zulqarnayn aydi: Yesa bo'lmas. Ular aydilar: Bo'g'uzg'a bitgan osh uza bu asig' qilmas ermish. Bizdin ne tilayursen! teb hujjat qildilar. Iskandar javob topmadi, ularni qo'ydi. Cheriki birla chiqib Hindustong'a o'g'radi. El qirog'ig'a yetti ersa elchi yibordi. Menda cherik telim turur. Sening eling orqa suvlug', ukush yig'ochlig' ermish. Man kirdim ersa eling halok bo'lur. Manga elchi yiborgil, so'zlashaling, teb. Hinduston maliki elchi yibordi. Qachon elchi Zulqarnayng'a keldi ersa, Zulqarnayn boshin ko'tarub, elchiga boqib turdi ersa, elchi boshin quyi soldi. Elchi bir barmoqin burnig'a qo'yub tashqa chiqti. Zulqarnayng'a so'rdilar: Sen ne teding unga, ul senga ne tedi? Zulqarnayn aydi: Men anga

uzun bo'ylug' kim ersa asig'siz bo'lur tedim. Ul barmoqin burnig'a suqub, anda ne xayr bor? tedi. Zulqarnayn aydi: Bu elchi biliklik kishiga o'xshayur, olib keling. Kelturdilar, o'zga saroyda o'run berdilar. Elchiga bir sarnich to'lug' yog' izdi, o'ngida qo'yidilar. Elchi sarnichga telim ignalar solib, Zulqarnayng'a yibordi. Zulqarnayn ignalarni ollina bir ko'zgu qo'ydi, elchiga yibordi. Elchi ko'zguni yorutti, Zulqarnayng'a yibordi. So'rdilar: Sarnichda ne bor? Zulqarnayn aydi: Men sarnichlik yog' izdim to'lug', ilmlig'er keldi ersa ul ignalarni solib izdi, ul ilm bizda ortuqroq turur teb, men ignalarni ollina ko'zgu qo'ydim, anga izdim. Sizing ilmingiz qora turur teb, narsaga yaramas tedim. Ul ko'zguni olib yorutti, andog' ermas, yorug' tedi. Elchi borur bo'ldi ersa Zulqarnayn yibormadi. Biliklik kishisen, mening qoshimda turg'il, tedi. Hinduston maliki elchi yibordi, mening elchim(174v)ni yiborsun, teb. Zulqarnayn yibormadi. Bir kun Zulqarnayn bir yerga kirdi, bir surat ko'rdi, qo'rqti, mengizi sarg'ardi, tashqari chiqti. Elchi andog' ko'rdi ersa, ne bo'ldi? teb so'rdi. Zulqarnayn ko'rganin ayta berdi. Elchi aydi: Doru kelturing, men iloj qilayin. Doru kelturdilar, Zulqarnayng'a yozilanmoq hojat bo'ldi, evga kirdi ersa yana bayoqi suratni ko'rdi. Surat aydi: Sendin ketdim, seni qo'ydim, tedi. Zulqarnayn chiqti, mengizi holiq'a keldi, elchi so'rdi, holiq aydi. Elchi aydi: Ey darig'o, men doru qilg'uncha kuysang erdi ul surat halok bo'lg'ay erdi. Andin so'ng o'tlanib yana mashriqg'a o'g'radi. Kun tug'ar yerga bordi. Ul yerda xaloyiq ko'rdi. Qamug' yalang'och, to'nlari yo'q, uyatlari yo'q, biri-birining qatinda jimo' qiturlar. Yo'l ustinda hojat ravo qiturlar. Yilqi qora mengizlik. Kun tug'sa ularg'a osoyish bo'lur, zavol vaqtig'a tegi yana tashvish bo'lur, tongla kun tug'g'uncha. Qavluhu taolo: *Hatta iza balag'a matli'ash-shamsi vajadaha tatl'u'ala qavmin lam naj'al lahum min duniha sitran kazalik*, ya'ni andoq temak bo'lur: Yo'l tutub mag'ribga bordi. Mashriqg'a ham andag'o'q yo'l tutub bordi, yana andin tebradi. Iki azin tog'g'a tegdi, orasi qo'l. Ul tog' og'zida xaloyiq erdi, qamug'i musulmon. Zulqarnayn anglamadi. Mavlo taolo Zulqarnayng'a ta'lim qildi, so'zlashtilar. Ulartek kim ersa yo'q erdi. Zulqarnayn cherikin ko'rub tongladilar va ancha bo'yunsunub o'tru yurudilar. Musulmonliq oshkoro qildilar. Zulqarnayn ularni og'irladi, ezgu va'dalar

qildi. Qavluhu taolo. *Hatta iza balag'a baynas saddayni vajada min duniha qavman la yakaduna yafqahuna qavlan*. Ular aydilar: Ey Zulqarnayn, bu tog' orasida Ya'juj va Ma'juj bor. Tekma bir yilda bir chiqib bizga kelurlar, ortuq ishlar qilmazlar. Ulug'lari-mizni yeyurlar, qurug'larin olib borurlar, biz zoyi' qolurmiz. Qavluhu taolo: *Qolu ya zal-qarnayni inna ya'juja va ma'juja*. Aymishlar, ular iki qarindosh erdilar, bular iki bo'lak ul ikagu urug'i tururlar, sonlari, saqishlari yo'q. Aymishlar, tekma biri o'z o'ngida o'g'lonlari ming siloh(175r)lig' yarag'utek er ko'rmaguncha o'lmak yo'q. Ularg'a xotunlari ham andag'o'q teb aydi. Xadicha raziyallohu anho rivoyat qilur, Payg'ambar sallallohu alayhi va sallamdin so'rdumkim: Yo Rasululloh, Ya'juj va Ma'juj ne turur? Rasul alayhis-salom aydi: Ya'juj bir ummat turur. Va Ma'juj bir ummat turur. Taqi tekma birlari to'rt ummat tururlar. Tekma bir o'z ungurtqasindin tug'gan ming silohlig' ko'rmaguncha o'lmaslar, Yana so'rdum: Yo Rasululloh, ularning sifoti netak turur? Rasul alayhis-salom aydi: Ulur uch turluk turur. Biri ozarg'a mengzar. So'rdum: Yo Rasululloh, ozar ne bo'lur? Aydi: Shom viloyatida bir yig'och bo'lur, uzunluqi yuz yigirmi arshun. Yana bir turluki ham yuz yigirmi arshun. Uzuni va eni barobar turur. Ularg'a temur o'tru turmas. Yana biri singar quloqin to'shanur, singar quloqin o'rtunur. Arslon, bo'ri, qaplon, to'ngo'z yo'luqsa yeyurlar, o'zlarindin o'zgani yerlar. Ulur chiqmishda o'ngi Shomda, so'ngi Balxda bo'lur, Mashriq tengizlari Tor bahriya daryosin qamug' icharlar. Amir al-mo'minin Ali raziyallohu anhu rivoyatincha, ba'zisi bir qarish, ba'zisi yavloq uzun, tirnoqlari yitlik, bo'ylari tushuk, issig' -sovuqdin saqlag'utek. Ulur Yofas ibn Nuh alayhis-salom urug'in-din tururlar. Imom Saddy rivoyatincha, oxir uz-zamonda chiqg'aylar. Ya'juj bezaki Zulqarnayn sin qo'porurda tashqari qoldilar. Imom Qatoda rivoyatincha, Zulqarnayn yigirmi bir qabilag'a sin bog'ladi, bir qabila tashda qoldi, ular bu chiqg'aylar tururlar. Ammo Imon Ka'b rivoyatincha, raziyallohu anhu, ular Odam o'g'lonlarida tansuqroqi turur. Odam Safiy uyurda tush ko'rdi, nut-fasi yerga tom-di. Mavlo taolo ul nutfadin Ya'juj, Ma'jujni yaratti, bizga otamiz tarafidin qotilurlar, onamiz Havvodin qotilmaslar. Abdulloh ibn Abbos raziyallohu anhu rivoyat qilur, ular o'n ulush

tururlar. Taqi Odami Safiy o'g'lonlari qamug' bir ulush tururlar. Aymishlar, ularning yeyimi xart otlig' yegan turur. Taqi bir rivoyatda, xartut bilmaslar, narsa temaslar. Aymishlar: (175v) Ularg'a bir yilda ko'k'din bir yilon inar, qamug'lari ani yeyurlar. Va agar iki yilon tushsa kenglik bo'lur, bir yilon tushsa torliq. Andag'i musulmonlar Zulqarnaynga aydilar: Bo'lg'aymu bizing birla ular orasinda bir tom qo'porsang, kela bilmaslar. Biz ham ular din qutulsak, senga yillar xiroj beraling. Qavlulu taolo. *Fa hal naj'atu taka xarjan ala an taj'ala baynana saddan*. Iki qiroat turur. Zulqarnayn aydi: Mavlo taolo menga bergan ne'mat mashriqdan mag'ribg'a tegi siz bergan xirojdin ortuqroq turur. Ul molga hojatim yo'q. Ammo sizlar manga yori bering, orangizda tom qo'porayin. Ular sizga kelmasunlar. Qavlulu taolo. *Qola ma makkanniy fih rabbiy hayrun va a'inuniy biquvvatin aj'al baynakum va baynahum radman*. Ular qabul qildilar. Boring, kirpich kelturing, tedi. Qiroat turur. *Aatuniy zubaral-hadid*. Kelturdilar, iki tog' orasinda kirpich mengizlik. *Hatta Izi sava baynas-sadaf-ayni*. Andin so'ng ostinda qo'ydilar, ko'mur mengizliklar qo'ydurdi. Qamug'i o't bo'lg'uncha urung, tedi. *Qolanfaxu hatta iza ja'lahu naran*. Andin so'ng aydi: Qitr kelturing. Qitr eritmish baqir bo'lur, netakkim, Sulaymon alay-his-salom qissasinda yorliqar: Qavlulu taolo. *Va asalhaa lahu aynal-qitr*. Aymishlar, Mavlo taolo bir sel yaratti, oqar baqirdin. Ul baqirni temur orasinda qo'ydilar, ko'ruk urdilar, temur orasinda eridi, temur tog' bo'ldi. Bir qo'rg'on temur, bir qo'rg'on qizil baqir, uzasinga el osha bilmaz ham ul o't osha bilmaz bo'ldi. Qavlulu taolo. *Qola aatuniy ufrig' alayh qitran va mas to'u an yazharuhu va mas tato'u lahu naqban*. Aymishlar, iki tog' orasi yuz yig'ochliq yer erdi. Suvg'a tegi yerni qazdirdi, ellik yig'och bir tomning eni bo'ldi, temur birla, baqir birla yuzingga oshurdi. Qachon tamom bo'ldi ersa Zulqarnayn aydi: Bu mening kuchum, quvvatimdin emas erdi. Izi azza va jalla rahmatindin erdi. Qavlulu taolo. *Haza rahmatun min rabbiy*. Mavlono Majiddin Andigoni rahmatullohi tafsirinda kelturmish: Halifalarda bir kishi Abu Ya'qub Tarjimoniy (176r) g'a ellik er birla besh qachit yuki oltun berdi, borib Zulqarnaynning saddini ko'ro'b keling teb. Ular Bag'doddin chiqib mashriq bordilar, Zulqarnayn soddig'a tegdilar. Uzunin, enin

ko'rdilar, baqir eritgan, tosh qazg'anlarin ko'rdilar. Soddig'a Zulqarnayn kirib, chiqib ishlamak uchun qapug' qilmish erdi, iki taxtalig'. Ul qapug'ni o'lchadilar, o'tuz arshun uzuni. Yana ul qapug'ni bog'lab kalidni bir yerda qo'ymish erdi. Ul kalidning o'n sekiz tishi bor erdi, qamug'i temurdin, ularni ko'rub iki yarim yilda yana Bag'dodg'a keldilar. Xalifag'a aydilar: Yana qayturda Semuzkenda sekiz yig'ochliq yerdin kechib kelduk, tedilar.

Aymishlar, ular to'rt turluk tururlar: biri Ya'juj, biri Ma'juj, biri Masma', biri Kimit. Har kunda soddig'a kelurlar. Qatig'lanib saddini qazarlar kun yoruqi ko'runguncha. Ancha kech bo'lur. Yovushtuq, qolg'anin tong birla kelib to'lgaymiz, teb ketarlar. Tonglasi kelsalar Tengri yorliqi birla birikmish. Kunda ishlari bu turur. *In sha'a-lloh temaslar*. Qachon ularning chiqg'u vaqti bo'lsa, Mavlo taolo ularning biringa imon karomat qilg'ay, mo'min bo'lg'ay. Kecha bo'lsa: Yorin kelib qolg'anin qilg'aymiz, tesalar ul mo'min bo'lg'an: *In sha'a-lloh*, tegay. Tonglasi kelsa boyoqi qag'zanlaritek topqaydilar. Qavlulu taolo. *Fa iza ja'a va'du rabbiy ja'alahu dakqa'ava kaana va'du rabbiy haqqan*. Andin so'ng yer yuzinda yoyilg'aylar. Qavlulu taolo. *Hatta iza futihat ya'juju va ma'juju va hum min kulli xadabin yansilun*. Yo'lugg'anni yegaylar, daryo suvin tugata ichgaylar. Ul vaqtda Iso yalavoch ko'k'din indargay, Dajjohni o'lturgay. Xaloyiq qutulub evlariga yonmishda Ya'juj va Ma'juj yo'lugg'ay. Tekma biri tog'din oshuqub ingaylar. Iso alayhis-salom duo qilg'ay, barchasi qarag'u bo'lub o'lg'aylar, sasig'aylar. Iso yana duo qilg'ay, Mavlo taolo suv yiborgay. Ul o'luklarni Muhitg'a solg'ay. Yana tog'larni qurg'ay, yerni yozg'ay. Aymishlar, Rasul alayhis-salom mushriklarga bu qissani aytu berdi, Ashob ul-kahf (176v)ni aytu berdi. Tavrot birla o'lchadilar harf ortuq o'ksuk chiqmadi. Abu Jahl alayhil-la'na aydi: *Sahirani haza va Musa tazoharo va innaa bikullin kafirun*. Ya'ni bir jodu sensen, bir jodu Muso, aning uchun so'zingiz bir kelur, biz sizga kofirmiz, tedilar. Yana Zulqarnayn andin tebradi. Mashriq tepa kishi yibordi, ulamoni, maliklarni yig'di. Savol qildi: Sizlar kitob ichinda yosh uzunliqig'a hiyla torqaningiz bormu? Aytig, hiyla qilaling, Mavlog'a mute'bo'laling. Bir yigit ura qo'pub aydi: Men Odami Safiy vasiyat qilg'an kitobda ko'rdum, Mavlo taolo birla

yetmish bir yo'l bor, Qofdin naru qorongg'uda bir chashma bor. Suvi sutdin oqroq, asaldin suchukrak, sarig' yog'din yumshoqroq. Har kim andin bir ichim ichsa o'lumas qiyomatg'a tegi. Yana olimlarg'a aydi: Mening birla boring, ul suvni istagayin. Ulamolar aydi: Bizni eltmagil, borsaq kerakmazkim, qaytmag'aymiz, nogoh bir olim anda qolsa tamom olam qorag'ay, xaroblig' bo'lg'ay. Ularni qo'ydi, yana so'rdi: Yilqi qorada qamug'din ziyrakrak qayu turur? Aydlar: Qamug'din tetik, yitik ko'zluk qulunlamag'il qisraq turur. Zulqarnayn olti ming qisraq, taqi aymishlar, yigirmi ming qisraq hozir qildi Xizmi iki ming er birla yibordi. Xizr aydi: Qorongg'uda cherikdin ayrilsam netak qilayin? Zulqarnayn xazinadin bir gavhar shabchirog' chiqarib Xizrg'a berdi, taqi aydi: Qachon cherikdin ayrilsang, bu gavharni chiqarg'il. Aning yoruqluqida cherikni topqaysen. Xizr ketti. Andin so'ng Zulqarnayn to'rt ming er birla otlandi. O'g'lini o'z o'rinda o'lturtdi. O'n iki yilliq ozuq ko'tardi, qolg'anlarga aydi: Men o'n yilda kelmasam sizlar o'z yo'lunguzni ko'rung. Xizr borib qorongg'uda yururda yo'l ozdi, cherikdin ayrildi. Ul gavharni chiqarib yuqoru ko'tardi, bir buloq ko'rdi. Borib ul suvg'a kirdi, g'usl qildi, suv ichti. Mavloga shukr qilib tebradi. Bir necha borib yana gavharni chiqardi, aning yoruqluqida cherikni topdi, yonib keldi. Qorongg'uda yururda kun yoruqluqin (177r) ko'rdi. Cherikka aydi: Iskandar, siz munda turung. Men borayin, na ajoyib ko'rarmen, teb. Bir necha bordi, bir baland saroy ko'rdi, saroyg'a kirdi ersa bir qush qarlug' och mengizlik, ul qush Iskandarga aydi: Munda ne uchun kirding? Yoruq jahon mulkinga magar qanoat qilmading? Zulqarnayn aydi: Mangu suvin tilayu keldim. Ul qush aydi: Yiporlig' to'nlar kiymak, biyik binolar qo'pormoq xaloyiq orasida bilgurdimu? Zulqarnayn aydi: Bilgurdi. Qush bir silkindi, saroyning uchda biri to'ldi. Yana so'radi: Choqir ichmak bilgurdimu? Aydi: Bilgurdi. Qush yana silkindi saroyning iki ulushi qush birla to'ldi. Yana so'rdikim: Changu, tanburu, qo'buz chalmoq bilgurdimu? Aydi: Bilgurdi. Qush yana bir silkindi-tamom saroyni tutdi. Zulqarnayn qo'rqi. Qush aydi: Qo'rqmag'il, man Iblisimen. Yana aydi: Xaloyiq kalimayi shahodatni qo'ydlilarmu? Aydi: Qo'ymadilar. Qushning uchda biri qarardi, yana so'radi: Janobatdin g'usl qilmoqni qo'ydlilarmu? Aydi: Qo'ymadilar. Qamug'i

qorardi, avvalg'i holing'a o'vruldi. Aydi: Bu saroy ustiga chiqg'il. Chiqdi ersa biraguni ko'rdi. Bir ayoqi ilgari, bir ayoqi ortqari, surni og'zig'a qo'yub, yuqoru ko'kka boqib, urg'alu turur. Ul Isrofil erdi. Zulqarnayng'a aydi: Yoruq dunyoni qo'yub qorongg'uluqg'a neluk kelding Zulqarnayn aydi: Mangu suvin istayu keldim, uzun yashab Iziga bandalik qilayin tedim. Ul kim ersa Zulqarnayng'a: Bir tosh berdi, bir mushuk boshi chog'liq, mundin senga telim ilm hosil bo'lg'ay, tedi. Yana cherikka keldi, yururda azoqig'a toshlar tegdi. Bu na ekan? tedilar ersa un keldi: Buni olgan ham pushaymon bo'lur, olmag'an ham pushaymon bo'lur. Biragu olib qorong'udin chiqtilar ersa ko'rdilarki, qamug'i zumurrad, yashil zabarjad erdi va ul toshkim, ul kim ersa berib erdi, ani olimlarg'a ko'rsatib so'rdi: Bu toshda ne hikmat bor? Aydlar: Tarozuga tortg'il, bir yonda muni qo'yg'il, yana bir yonda o'zga narsa. Andog' qildilar ersa har necha bir yong'a tosh, temur soldilar, ul-o'q og'ir keldi. Ulamolar tongladilar. Xizr bir mungushda o'lturub kular erdi. Bu ne hikmat turur? teb (177v) so'rdilar ersa, Xizr aydi: Bu toshlarni qamug' ketaring va tosh o'rnig'a bir ovuch tuproq soling. Toshlarni ketarib, o'rnig'a bir ovuch tuproq soldilar ersa, barobar keldi. Aydlar: Bu ne hikmat turur? Xizr aydi: Hikmat ul turukim, Mavlo taolo qamug' dunyo mulkin berdi, aning birla to'ymassen. Qachon lahadga kirsang bir ovuch tuproq birla to'yarsen. Zulqarnayn bu so'zlardin pand oldi. Dunyoni qo'ydi, zohid bo'ldi. Cherikka ijozat berdi. Aymishlar, qachon dunyo mulki anga musallam bo'ldi ersa, onasi bitik yubordi. Bitikda bu erdi: *Ya maliku malaktal-bilada bil-fursani fajtahid an tamlikal-quluba bil-ihsani*. Ma'nisi ul bo'lur: Ey malik, ellarni cherik birla (olding) emdi qatlatg'ilkim, ko'ngullarni yaxshiliq birla olg'aysen. Andin so'ng Zar'at al-Jandalg'a bordi. Anda Mavlo taolog'a ibodat qildi. Ul yerda vafot bo'ldi. Oltundin sanduq ichinda qo'yub onasi Iskandariyaga yibordilar. Aymishlar, Zulqarnayn olam ichinda obodonliq telim qildi, binolar qo'pordi. Qustantiniyada bir qal'a qo'pordi. Yetti yo'li o'vrulmaguncha anga kirsab bo'lmas. Ul qal'aning surati bu turur. Hisori Qustantiniya bu turur (178r).

Aymishlar, Rumda bir malik bor erdi, yavloq jabbor erdi, Daqyonus otlig', ulug' mulki bor erdi, cheriki telim erdi. Yana bir malik birla yog'ilashti, sanchishtilar. Ul malik hazimat bo'ldi, o'lturdi. Ul malikning olti o'g'li bor erdi, bulun kelturdi, topug' kelturdi. O'zi Tengriman, og'zig'a tuproq, taqi o'ziga sajda qildirur erdi. Bir kun xabar keldi, yog'i kelur teb. Daqyonus ani eshitib, qo'rqub titradi. Aymishlar, saroyda taxt uza o'ltururda saroy tunglukiidin iki mushuk urushub xirlashu tushdilar. Daqyonus mushuklar unidin qo'rqub behush bo'ldi. Bu olti qarindosh ani ko'rub aydilar: Bu Tengri ermish, mushukdin neluk qo'rqarbiz, mundin ketaling, haqiqat Tengri tilaling, teb qocharg'a kengashtilar. Tamliho aydi: Qochar vaqt anda bo'lurkim, chavgon birla to'p urarda, saroy tepa kelurda aqrin uraling, yozi tepa ururda qatig' uraling. Ul vaqtda Daqyonus manzargohdin tamoshu qiltur erdi, kim ezgu ura xil'at berur erdi. Bir kun bu tiltog' birla iki yig'och yer to'p ura bordilar. Anda arig' to'nlarini soldilar, janda to'nlar yoshurub kelturmish erdilar, ani kiydilar, yalang oyoq bo'lub borurda bir qo'ychi yo'luqti. Qayda borursiz? teb so'radi. Aydilar: Tengri tilayu borurmiz. Qo'ychi aydi: Men ham sizing birla borurmen. Sabr qiling qo'yni iyasinga topshurayin. Turdilar, qo'yni iyasinga topshurdi. Qo'ychining bir iti bor erdi. Qazqazin otlig'. Ul it ham ularg'a iyardi. Aymishlar, ularning odlari Tamlixo, Igsigmino, Martulus, Sarrinius, Zuana, Qo'ychining oti Kafsittinus, itning oti Qitmir. Qo'ychig'a aydilar: Itingni urg'il, yonsun. Bizga iyarmasun. Biz kizlanmishda it ura kishi eshitib kelgay, teb yondurdi. It yonmadi, tosh, kesak birla urdilar, yonmadi. Mavlo taolo ul itga til berdi, aydi: Meni ne uchun yondurursiz, siz borg'an Tengrig'a men ham borurmen. Ul so'zni eshittilar ersa itni tutub bo'yunlarig'a ko'tardilar, g'org'a kirdilar, yotib uyuqladilar (178v). It iki qo'lin eshikka qo'yub uyuqladi. Daqyonus ularni istab topmadi, bir kun ovga chiqti, yiroqtin g'or ko'rdikim, ular uyumish erdilar. Qavluhu taolo: *Fa zarabnaa ala aazanihim fil-kahfi sinina adadan*. Borib ul g'org'a kirdi, bularni ko'rdi, oyoqlari qabarmish, o'zlariga to'g' o'mamish, o'lmish sandi. Daqyonus

aydi: Qamug' xaloyiq yig'ilsa bularg'a bu ish qilumag'ay erdilar, bular o'z o'zlariga qildilar, teb yondi. Mavlo yorliq birla uch yuz yilda to'quz oy g'or ichinda qoldilar. Qavluhu taolo. *Va labisu fi kahfihim salasa miatin sinina vazdadu tis'an*. Aymishlar, to'quz oy erdi, aymishlar, to'quz kun erdi. Qachon bu kunlar kechti ersa uyg'ondilar, aydilar: Necha bo'ldikim, munda yoturimiz? Tamlixo aydi: Bir kun bo'ldi. Yana kunga boqtillar. Yoturda kun bu yuzda erdi, emdi qaytmish, naru o'vrulmish. Qavluhu taolo: *Qola qoilun minhum kam labistum qolu labisiaa yavmai av ba'za yavmin*. Yana aydilar: Izi azza va jalla yaxshiroq bilurkim, necha bo'ldi. Qavluhu taolo: *Qolu rabbukum a'lamu bima labisgum*. Yana aydilar: Biraguni yarmoq birla elga Izing. Qavluhu taolo. *Fab'asu ahadakum bivariqikum hazihi ilal-madinati*. Aydilar: Ul borg'an ko'rsun, qayu taom ortuqroq turur. Ani keltursun, ularning birla o'z tilin so'zlashsun. Kim ersa bilmasun. Qavluhu taolo. *Fal yanzur ayyuha azka ta'aman fal ya'tikum birizqin min hu val yatalattaf*. Aymishlar, qurralar Qur'onning qamug' harfin sanab iki bo'lmishlar val yatalattafning ikinchi lominda Qur'on yarimi bo'lmish. Aydilar: Bu borg'an kishini bilsalar tosh birla urg'aylar, yoxud o'z dinlariga kiyurgaylar. Andin so'ng o'zga qutulmag'aysiz. Qavluhu taolo. *Inahum in yazharu alaykum yar-jumukum av yu'idukum fi millatihim va lan tufsihu izan abadan*. Tamlixo yarmoq oldi va chiqti. Telim yillar kechgani uchun yo'llar o'zga bo'lmish. Bozor yo'lin bilmadi. Ko'nglidin aydi: Men hanuz uyquda yurg'aymumen? Bozorg'a kirdi, etmakchiga bir yarmoq berdi. Tarozug'a tortdilar, olti botmon keldi. Etmakchi Tamlixog'a boqib aydi: Sen ganj topdingmu bo'lg'ay. Meni ham o'rtoq qilg'il, yo'q ersa malikka ayturmen. Tamlixo aydi: Bu ne so'z bo'lur? Biz tunokun tog'g'a chiqub borduq. Qornimiz ochti ersa etmak olg'ali keldim. Yarmoqni (179r) olg'il, etmak bergil, etmakchi unamadi, Tamlixoni malikka eltti, Malik Yastag'od otlig' musulmon erdi, ra'iyatlari ham musulmon erdilar. Tamlixo bu malikni Daqyonus saqindi, Malik so'rdi, ne kishisen teb. Tamlixo o'z holin aytu berdi, tongladilar. Malik olimlarni yig'di, kitoblarda bu so'z bormu? teb so'rdi. Bir yigit aydi: Men kitob ichinda toptim. Daqyonus vaqtinda olti yigit qochib, tog'g'a kirib,

g'or ichinda qolg'anlar ermiş, tark ro'zgorda xabarlarini bilgugay teb. Yastag'od malik aydi: Otlaning, borib ko'raling, teb g'org'a yaqin keldilar ersa Tamlixo aydi: Siz aqrinroq keling, men borib Daqyonus ermasingizni aytu berayin, qo'rqmasunlar, teb borib g'orga kirdi, Malik keldi, tedi. Daqyonus sanib barchasi behush bo'ldilar. Yana bir rivoyatda, qamug' kirdilar. So'rab so'zlashtilar. Javob aydilar, avvalqi holg'a bordilar.

Aymishlar, ul elda iki turluk xaloyiq erdi. Birisi aytur erdi, Tengri azza va jalla jonini turguzur, tanni turguzmas der erdi. Taqi bir aytur erdi, tanni ham jonni ham turguzur. Qachon bularni ko'rdilar ersa bildilarkim, tanni ham turguzur ermiş. Qamug' imon kelturdilar. Burunqi mo'minlar aydilar: Ul g'or uza rabot qo'poraling, so'ngg'i mo'minlar aydilar: Masjid qo'poraling. Masjid qo'pordilar. Qavluhu taolo. *Qotal-lazina g'alabu ala amrihim lan'attaxizanna alayhim masjidan*. Ya'funiylar aydilar: Ular uchagu turur, to'rtunchilari iturur. Yasturiylar: Beshagu, tedilar. Oltinchilari it. Qavluhu taolo: *Sayaquluaia salasatun robi'uhum kalbuhum va yaquluna xamsatun sadisuhum kalbuhum*. Ul so'zlari sizik turur, yaqin ermas. Mo'min tegi turur. Sekizinchilari it. Qavluhu taolo: *Rajman bil-g'ayb*. Ayg'il, ey Muhammad, Izimiz bilganrak turur, sonlarini bilmaslar, magar oz kim ersa bilurlar. Qavluhu taolo. *Va yaquluna sab'atun va saminuhum kalbuhum*. Ayg'il, Ey Muhammad, Izimiz bilganrak turur, sonlarini bilmaslar. Magar oz kim ersa bilurlar. Qavluhu taolo: *Qul rabbiy a'lamu bi'iddatithim ma ya'lamuhum illa qalil*. Abdulloh ibn Abbas raziyallohu anhum aytur, men ul oz kim ersalardinman, tedi. Men bilurman (179v) kim, yetagu tururlar tedi. Sekizinchilari it turur. Aymishlar, yetagu erdukinga dalil ul tururkim, Mavlo taolo yorliqar. Qavluhu taolo: *Qola qonluv minhum kam labistum*. Bu so'rg'an biragu turur. Qavluhu taolo: *Qolu labisnaa yavman tegan uchagu tururlar*. Qolu aytur jame' lafzi uza. Yana yorliqar: *Qolu rabbukum a'lamu bima labistum*. Muni ayg'anlar ham uchagu tururlar. Munda ham Qolu aytur. Agar jam' qilsak yeti bo'lur. Aymishlar, Jabroil yilda iki yo'li kelib ularni sog'din so'lg'a evirur erdi, yonlari yerda churimasun teb. Aymishlar, g'orning og'zi shimol tepa erdi. Kun tegmasun ular ko'lakada tururlar. Mavlo taolo ul tog'da qo'rqunch haybat

yaratti. Aymishlar, Mavlo taolo ularg'a xodimlar musallat qildi. Xidmatlarin qilurlar, tirnoqlarin kesib, sochlarin qirqarlar erdi. Aymishlar, Mu'oviya ularni ko'rayin teb o'g'radi, yaqin keldi ersa, tosh birla ottilar. Kim ersani ko'rmayin yondi.

QISSAYI AS'HOB UL-FIL

Aymishlar, Makkadin Shom viloyatig'a arqish bordi, sotig' qilib yondilar. Yonmishdin so'ng bir necha adabsiz o'g'lonlar ularning Sarjon otlig' butlarin o'tg'a kuyurdilar. Aymishlar, qosid kuydurmadilar, ammo o'z yarog'larig'a o't urmishda o't sachrab kuydi. Ul butning ichi yig'och, tashi oltun erdi. Maliklarining oti Asmaha, kunyati Yakshum erdi. Anga xabar qildilar, qazg'ulug' bo'ldi: Aymishlar, Yaman cherigi ulug'lari kelib aydilar: Ey malik, qazg'urmag'il, o'z molimizdin sanga sarjon qila beraling, avvalqidin ezgurak. Taqi Makkaga borib, bizga ne qildilar ersa, biz ham ularning Ka'ba otlig' evlarin xarob qilaling, mollarin olaling, o'g'ul-qizlarni asir qilib kelturaling. Malik telim cherik yig'di. Ul cherikka Abraha ibn Asram, ibn Abraha Sabohni sarxayl qildilar. To'qushg'a yarasun teb yag'anlar berdilar. Bu Abraha cherik boshlab keldi, Makkaga bir kunluk yer qolib erdi, tushdilar. Abdul Mutallibning tevalari anda erdi. Ular ham bilur (180r) erdilar, qamug' tevalarin oldilar. Tevachi qochib Makkaga keldi va aydi: Ey Makka ahli, soni saqishi yo'q cherik keldi, Makkaga buzg'ali, o'g'ul-qiz asir qilg'ali. Abdul Mutallib otlandi, ul cherikka keldi. Abdul Mutallibning ul cherikda bir necha do'stlari bor erdi. Ularg'a aydi: Avval mendin boshladingiz, tevalarni menga bering. Aydilar: Bu kun bersak tongla yana olurmiz. Ka'bani buzg'ali, o'g'ul-qiz asir qilg'ali kelduk, sen tevalarni qo'larsen, Ka'bani naluk qo'lmassen. Abdul Mutallib aydi: Tevalarni o'zum uchun qo'larmen, Ka'bani iyasi bor, saqlag'ay. Tevalarni berdilar, olib Makkaga kirdi. Abdul Mutallibning otlinda nur balqib Ka'ba tomilg'a tushdi. Aydi: Ey qavmim, sevinch sizga, Mavlo taolo Ka'ba xalqig'a nusrat berur. Aydilar: Nedin bilding'? Aydi: Bu nur kimda bo'lsa Mavlo taolo anga nusrat berur. Andin so'ng quraysh ulug'lari Abdul Mutallibg'a yig'ildilar. Bek qilaling, teb kengashtilar. Tekma biri bir so'z aydi.

Abdul Mutallib aydi: Mening soʻzim ul tururkim, tekma birimiz bir teva chiqaraling, Kaʼba uchun bir cherikka yiboraling. Ular tevalarni boʻgʻuzlab yegaylar, Mavlo taolo kifoyat qilgʻay. Oʻzgalar ham bu nazirni savob koʻrdilar, Tekma birlari bir teva chiqarib cherik tepa surdilar. Habashiylar yigʻilib tevalarni ulashtilar. Boʻgʻuzlamasdin burun qilich birla choptilar va pora-pora qilib uladilar. Ul kun anga mashgʻul boʻldilar ersa Makka xalqi qamugʻ eldin chiqib qochtilar, tonglasi Makkada Abdul Mutallibdin taqi bir koʻzsizdin oʻzga kishi qolmadi. Qamugʻ togʻ oʻngurlariga kirib kizlandilar. Abdul Mutallib ul koʻzsizning qoʻlin tutub Hiro togʻingʻa chiqti. Bir necha tavaqquf qildilar, cherik ham otlanib Kaʼbani xarob qilgʻali oʻgʻradi. Ul zamon havoda sonsiz, saqishsiz qushlar koʻrundi, qamugʻi oq, azoqlari, tumshuqlari qizil, tekma birining tumshuqinda bir tosh, tuproqdin pishurilmish. Baq(i)la andozasincha uchub keldilar, Kaʼbani bir oʻvruldilar. Andin soʻng havoda yigʻilishtilar. Abdul Mutallib aydi: Mundogʻ qushlarni (180v) koʻrmishim yoʻq, nega keldilar erkan? Ul koʻzsiz kishi aydi: Makkaga nusrat bergali keldilar boʻlgʻay. Tamom yigʻilgandin soʻng cherik tepa oʻgʻradilar. Ul zamonda kun yuqori oshmish erdi. Abdul Mutallib aydi: Cherik kech qoldi, halok boʻldilarmu erkan, teb. Koʻzsiz ne teb Makkaga kirdi. Xavf birla kim ersa yoʻluqub zahmat borib koʻrdilar. Cherik qamugʻi yoʻluqmadi. Cherik tushgan yerga borib koʻrdilar. Cherik qamugʻi oʻlmish, hech tirik kishi qolmamish, qamugʻ qurugʻan yafroqtek boʻlmish. Qavlulu taolo: *Fa ja lahum ka asfin ma qul*. Aymishlar, Mavlo taolo qamugʻini halok qildi, yilqi qoralari qolmadi. Rivoyat qilurlar, Abdulloh ibn Abbos raziyallohu anhumo, Ummahoni evinga kirdim, bir sogʻu ul toshdii koʻrdum, ulugʻlugʻi baqila aydozasincha: oʻrtanchasi noʻxud andozasincha, kichigi yasmuq andozasincha, aymishlar, ul toshlar uza sarigʻ xat birla bir ot bitiklik erdi. Tekma bir er sayi bir qush tumshuqinda bir tosh. Ul qush ul toshni otsa bitilganning tepasiga tegar, andin oʻtub, otidin oʻtub, ikilarin ham halok qilur erdi. Ul qush oti bitilgandin oʻzgani urmas erdi. Oti bitilgan agar cherikdin gʻoyib boʻlmish boʻlsa, ul qush ani izlayu borib, turgʻan yerinda tosh birla urub, oti birla ikisin ham halok qilur erdi. Aymishlar, Abdul Mutallib andogʻ koʻrdi ersa toʻnlarin, silohlarin, oltun, kumushlarin yigʻib

iki ulush qildi. Bir ulushni koʻzsizga berdi, bir ulushni oʻzi oldi. Chuqur qazib koʻmdilar. Andin soʻng ikagu Makkaga keldilar taqi munodiy qilib: Kelib koʻrung, Mavlo taolo dushmanlaringizni netak halok qildi. Qamugʻ Makka xalqi keldilar. Ularning mollarin oldilar. Aymishlar, qirq yilgʻa tegi yigʻar erdilar. Aymishlar, qirq yilgʻa tegi chodir yigʻochlarin kuyurdi. Aymishlar, ashob ul-fildin qolgʻan inggʻirchoqlarni Abdul Mutallib roʻzgoringa tegi koʻyurdi, tuganmadi. Muhammad rasululloh ahdinga tegi tuganmadi. Abu Bakr Siddiq roʻzgorinda ham tuganmadi. Amir al-moʻminin Umar raziyallohu anhu (181r) vaqtinda tugandi. Qavlulu taolo: *Alam tara kayfa faʼala rabbuka biashabil-fil*. Aymishlar, ul yagʻan Abdul Mutallibgʻa sajda qildi. Qamugʻ tongladilar, aning uchunkim, maliklardin oʻzgaga sajda qilmas erdilar. Ammo ulamo aymishlar: sajda Abdul Mutallibgʻa ermas erdi, olnindagi nurgʻa erdi. Ul nur Muhammad rasululloh nuri erdi. Aymishlar, bu qissa Muhammad rasulullohning valodatidin yigirmi uch yil burun erdi.

QISSAYI VALODATI MUHAMMAD RASULULLOHI SALLALLOHU ALAYHI VA SALLAM

Ul laʼamruka tojligʻ, lav laaka lama xalaqtul-aslaq xirojligʻ, jahidil-kuffara val-munafiqin jihodligʻ, va lasayfa yoʻtika rabbuka fa tarzo murodligʻ, muhalliqina ruʼusakum boshligʻ, kuntu nabiyyan va Adamu baynal-maai vat-tiyin yoshligʻ, vaz-zuha olinligʻ, val-layli iza saja sochligʻ, va yaquluna huva uzunun qulogʻligʻ, fa ravhun va rayhanun burunligʻ, qad naro taqalluba vajhaka yuzluk, va la taʼdu aynaka koʻzluk, va ma yantiqun anil-hava soʻzluk, alam nashrah laka sadrak koʻkusluk, anqaza zahrak orqaligʻ, toha ma anzalna alaykal-qurʼana litashqo qadamligʻ, va la tajʼal yadaka magʻlulatan ila unuqika iliklik, la uqsimu bihazal-baladi ellik, bilisanin arabiiyin mubinin tillik, va annahu lamma qama abdullahi boʻyilgʻ. Adiz koʻkni boshi uza jivoh qildilar vas-samaʼa banaynaha bimaydin va imna lamusiʼun qildilar. Yagʻiz yerni qadami ostida bisot qildilar, val-arza farashnaha fa niʼmal mahidun. Yozuq igining tabibi, yaratqan Allohning habibi Muhammad Rasulullohi alayhis-

salotu vat-tahiyat. Na'ti Muhammad Mustafo salollohu alayhi vassalam.

Oldi tarkin, berdi ersa haq risolat xil'atin,
O'tlanib kezdi tun ichra iki olam mulkatin.
To'rt bulun(g) olti jihatdin sekiz ujmoh bo'lg'ug'a,
Yeti iqlimda o'garlar kunda bashar navbatin.
Ko'kdagi jumla maloyik kecha kunduz ravzasin,
O'vrulub oy, kun qilurlar kecha-kunduz xidmatin.
Bir ishorat birla yordi oyni ernin tebratib,
So'zlari chin teb tanuqluq berdi Qur'on ummatin.
Qoba qavsayinda buroqin buldi ersa rozlashib.
Qob qayoshin orturubon qo'ldi osiy ummatin.
Kusayur erdi jamolin anbiyo mursal qamug',
O'zitek o'zg'a yalavoch bulmadi Haq qurbatin.
Avval allahumma salli tegil eshitib otini,
Yorin anda ichar ersang kavsarining sharbatin. (181v)

Na'ti oxirun nabiyy alayhis-salom

Tengrimizga chin topug'soq odamiylar bilgasi,
To'b yalavoch ulug'i ham sovchilarning tamg'asi.
Anbiyo, mursal qamug'ning o'ngi ham so'ngi uchun,
Ilgaridin ko'rmishitek ko'rdi aning orqasi.
Yuz o'vurub yorliqidin yondi ersa to'ng arab,
Til ochib berdi tanuqluq ingani ham bug'rasi.
Eshlari birla umano Makka ichra yig'ilishib,
O'zi to'lun oy mengizlik yulduz erdi tegrasi.
To'ng' bilimlik och kechurgan qursoqing'a tosh tikib,
Bulmadi bug'doy oshini ham yo'q erdi arpasi.
O'zi farshta, oti Arshda himmati andin adiz.
Yuzi kundin ko'p yoruqroq olni oynining egmasi.
Qo'lg'ani mahshar kuninda ummatining yozuqi,
Mingani me'roj tuninda erdi ujmoh yo'rg'asi.
Rahmatin lil-olamin teb aydi Rahmon rahmatin,

Tekmalar qayda bilurlar Haq Rasulning izzatin.

O'gdi, mo zag'al basar teb o'z kalomi ichra haq,
Anbiyo, mursal qamug'din aning a'lo himmatin.
Uyuqlayurda Mustafoni eltguchi men teguchi,
Sidradin o'tmishda hayron qoldi, bildi hurmatin.
Keldi kavnaynini kezibon topti isig' o'rmini,
Tonglashib qoldi xaloyiq qodir Alloh qudratin.
Men Muhammad ummatiman teyu yolg'on so'zlama,
Ne Ug'on topug'in qilursen, ne Rasulning sunnatin.
Fag'islu aning amrini tut, hofizo' hukmin guzar,
Andin aning ummati bo'li, top sahoba suhbatin.
Turma forig' kunda sallu xamsankim, ishin bitur,
Ko'rma dunyo engakin sen ham qiyomat haybatin.
Ushbu munglug' osiylarg'a ul netak yopushmasun,
Besh namozni o'tayurlar ham buyurg'an sunnatin.
Yo' Ilohiy, Ahmad otlig' Mustafoning hurmati.
Ul bo'lur holda ayirma bizdin imon davlatin.
Ko'rmaduk ko'rkluk jamolin kusagan dunyoda ham,
Ro'zi qil yo Rab, ko'raling yorin aning ravzasin.
Kim bu kun jon birla tesa allohumma sallini,
Yorin ujmoh ichra yesun turluk alvon ne'matin.
Barmoqi samdusi birla oy liqosin yorg'uchi,
Kechmadi Chin Mochin ichra o'zitek chin yorg'uchi.
Ul dumantek ko'p tuman to'g' turg'uzub yuz ming arab,
Kelmishinda bir ovuch tufroq otibon turg'uchi.
Ul qatig'liq ichra toshmen yangli dushman ko'nglini.
Ezguluk birla o'n uch yil Makka ichra turg'uchi. (182r)

Ul ko'rub ming mo'jizani yuz chevurgan dushmanin,
Angsiz in ol qoni birla tufroqini qorg'uchi.

Muhammad ibn Abdulloh ibn Abdul Mutallib ibn Hoshim ibn Abdi Mannof ibn Qusay ibn Kilob ibn Murra ibn Ka'b ibn Luvay ibn Adiy ibn G'olib ibn Fihri ibn Molik ibn Nazr ibn Huzayma ibn Mudrika. Va ummu Zubayr Safiyya bint Abdil Mutallib. Va ummu Aliyy ibn Abu Tolib Fotima al-kubro bint Asad ibn Hoshim. Va ummu Sa'id Hamiya bint Sufyon ibn Abdi Shams ibn Abdi

yozidin kelurmen, evga borayin, Aminani ko'rayin, seni nikohlab seni olayin, teb otlandi. Fotima ul so'zga sevunchluk bo'ldi, nikoh yarog'in qila boshladi. Abdulloh evga borib Aminaga qovushdi. Ul suhbatda ul nur Amina rahminga kechti. Andin so'ng Abdulloh Fotima so'zin otasi Abdul Mutallibg'a aytdi. Abdul Mutallib: Olg'il, tedi. Abdulloh otlandi, Fotimag'a keldi. Fotima ul nurni Abdulloh elninda ko'rmadi, aydi: Ey Abdulloh, Shom maliklari meni qo'ldilar, mol tovar arza qildilar, men ularni qabul qilmadim. Men sening uchun (183r) kelmay erdim, ul elningdagi nur umidiga kelib erdim, emdi ul nurdan mahrum qoldim, teb oh teyu ingranu otlanib yo'lig'a ketti. Ul vaqtda Amina Muhammad rasulullohga yukluk bo'ldi. Olti oy kechti ersa otasi Abdulloh o'ldi, Amina tul qoldi. O'zin tomg'a urub, zor ingrab aydi: Bu so'ngukumdag'iazizni ne qilayin, tug'mushdin so'ng netak saqlag'ayin, o'g'lum teyu ilkimdin kim olg'ay, ulg'armishda kimni otam tegay, teb yig'ladi. Abdul Mutallib kunda Amina qatig'a kirib o'lturur erdi. Aytur erdi: Ey aziz kelinim, ko'p qayg'urmag'il. Biz qamug'ning izzati hurmati ul sandagi aziz turur. Otasi Abdulloh bordi, ersa o'sh men otamen. Kun sayu Ka'baga borurman, Izi azza va jallani o'qirmen, ul azizni bizga salomat topshurg'ay teb tilayurmen. To'quz oy o'n kun tamom bo'ldi ersa dushanba kechasi Abdul Mutallib Amina evinga kirdi, ko'rди, yolg'uz o'lturur, qazg'ulug'. Abdul Mutallib aydi: Ne uchun qazg'urug'sen? Amina aydi: Netak qazg'ulug' bo'lmag'ayin, men evda yolg'uz o'lturur erdim, bir kim ersa kelib aydi: Ey Amina, bu tun ul tun tururkim, ul so'ngu kundagi aziz vujudg'a kelgusi, qo'pqil boshingni, bo'yungni yuvg'il, kim ersani o'zingga yovutmag'il. Abdul Mutallib ani eshitib, ko'zlarindin qatarot ravon qilib aydi: Ey qizim, netak tedilar ersa andog' qilg'il. Men Ka'bag'a borib Ka'ba halqasin tutayin, eshikka boshimni qo'yayin, Ka'baning tengrisindan tilagayin, bo'lg'aykim ul amonatni bizga qovushturg'ay. Qizim Otkaga aytayin, kelib sening qatingda tursun, teb ketti. Amina boshin yuvdi, arig' to'nlar kiydi, yig'layu o'lturdi. Tun yarimi bo'ldi ersa og'riq, sizlog' yo'q erkan evning saqfi havog'a ko'tarildi. Olam ravshan bo'ldi, ko'rdikim, jumla maxluqot havoda yig'ilib tururlar. Ular barchasi Abdulloh ibn Abdi Mannofning qizlarig'a mengzayurlar. Amina aytur: Men

Mannof. Va ummu Usmon Arva bint Quraya ibn Rabi'a ibn Husayn ibn Abdi Shama ibn Abdi Mannof. Va ummu Sa'id Fotima bint Na'ja ibn Umaya al-Xazo'iya ibn Saharatun nisai. Va ummu nabiyyaamina bint Vahb ibn Abdi Mannof ibn Zahra ibn Qusay Kilab. Va ummu Abdirrahman ibn Avf ibn Horis Ummunnisa bint Avf ibn Horis ibn Murra. Va olajahu ibn Abdullah ibn Usmon ibn Himr ibn Ka'b ibn Sa'd ibn Tayyim ibn Murra. Va ummu Hirboh ibn Abdulloh ibn Qirt ibn Razoh ibn Adiy ibn Ka'b. Soliha Sa'ba ibn Abdulloh ibn Od ibn Molik ibn Jarroh ibn Nodim. Va ummu Umar Humayra bint Hoshim al-Mug'iro ibn Abdulloh ibn Maxzum ibn G'olib. Va Abu Ubayda ibn Murra ibn Omir ibn Abdullah Jarroh ibn Hilol ibn Nazr. (182v) Xabarda andog'kelurkim, bir kun Mustafo alayhis-salom Jabroildin savol qildikim: Yo axiy Jabroil, senmu yoshg'a ulug'sen, yo menmu? Jabroil aydi: Yo Rasululloh, mana kendu yoshimni tajraba qilmishim yo'q, ammo bir yulduz bor, Nashrdamuq otlig'. O'tuz ming yilda bir tug'ar, aning o'tuz ming yo'li tug'ganin ko'rubmen. Rasul aydi: Mening yoshim sandin ulug'ermish, aning uchunkim qamug'din burunroq mening nurimni Mavlo taolo yaratti. Qola alayhis-salamu. Alloh taolo nuri, Muhammad nuri sifati Odam qissasinda bitildi. Ul nur avval ujmohda Odam olninda erdi. Odam olninda Havvo rahming'a bordi. Yana Shis olning'a keldi. Mundag'-o'q otalar olnindin onalar rahminga, onalar rahmindin o'g'ullar olninga o'vrulur erdi. Navbat birla Abdullohg'a tegdi, ul nurni qamug' ko'rar erdilar. Muhammad rasululloh erdukin qamug' bilur erdilar. Kohinlar, munajjimlar bu zamonda chiqg'usi teb aytur erdilar. Qamug'er, xotun ul nur kusayur erdilar. Hikoyat. Shom viloyatindag'i malikning bir Fotima otlig' qizi bor erdi. Erdin tul qolmish erdi. Ul nurni kusab, qullari, topg'uchilari birla telim mol yuklab, Makkaga keldi. El qirog'ida chodir tikib o'lturdi. Abdulloh ovg'a chiqib, yonib kelurinda ul chodirni ko'rди. Bu ne erkan, ko'rayin, teb chodirg'a keldi, Fotimayi Shomiya Abdulloh olnindag'i nurni ko'rди, rag'bat qilib o'tru yurdi. Abdullohni chodirg'a tushurdi, bir teva so'ydi, taom yegandin so'ng uzrlar qilib o'zin anga arza qildi. Shom viloyatidin sanga bo'layin teb keldim. So'zumni qabul qilg'il, meni nikoh birla olg'il, tedi. Abdulloh aydi: Men bu zamon

ularning jamollarin ko'rub tongladim, hayron bo'ldum, o'zumdin ketdim. Birisi aydi: Bizga nega boqar sen, biz qamug' topug'chi yumushchilarmiz. Jannati andin (183v) topug' qilg'ali kelduk, bizni qo'yg'il, anga boqq'il kim, faxri olam ul turur. Biz qamug'imiz aning tufayli tururmiz, aning birla ko'zung yorursun. Boqdim ersa o'g'lon tug'mish. So'l ilki birla o'vut andomin tutmish, mening ko'zum anga tushmasun teb. Taqi sog' ilkin ko'zunga o'rtmish, meni ko'rmasin teb. Darhol boshin sajdaga qo'yub sajda ichinda so'zlayu boshladi. Quloq qo'y dum ersa ummatiy, ummatiy teyur, ilik uzatib yuvayin tedim ersa, ev mungushindin un keldi: Hoy Amina, ul arig', silig' turur, qo'l tortg'il, teb. Ustun boqdim ersa ev saqfi ochilmish, bir kesak oq bulut indi, o'g'lonni olub havog'a oshurdi, ko'rumas bo'ldi.

Aymishlar, ul bulut Rasulg'a xos mo'jiza erdi, Tavrot, Injil, Zaburda Rasulning sifati bitiklik erdi. Ul bulut avvaldin oxirg'a Rasul birla erdi. Rasul qachon qazoyi hojatg'a muhtoj bo'lsa ul bulut qolib erdi. Ul bulut eltib, ujmoh hullasing'a burkab yo'rgab, yig'izlar muattar qilib, ko'zlariga surma tortib, sochlari o'rub, ujmoh hullasinga yo'rgab, kelturub onasi o'nginda qo'ya berdi. Aymishlar, hech odamiylar Rasul hojatini ko'rmadi, o'g'lonliq holinda. Qachon ulg'aydi ersa hojatin yer yutar erdi. Ul bulut havo issig' bo'lsa Rasulg'a ko'laka qilar erdi, suvsasa suv keltirur erdi, qachon yolg'uz bo'lsa, ul bulut amoma mengizlik boshi uza turub so'zlashur erdi. Bu ul alomat erdikim, qamug' tarso va juhudlar Rasul chiqaring'a muntazir erdilar. Ul vaqtda Rasulning ammasi Otika kelib tashqarida o'lturdi va holing ne? teb so'rdi. Amina aydi: Ey Otika, sevinch sanga, o'g'lum bo'ldi, kirgil, ajoyiblarni ko'rgil, sanga aytu berayin. Otika evga kirdi. Amina ko'rganlarin, hurlar kelganin, ev saqfi ochilg'anin, bulut ko'turub eltganin qamug' aytu berdi. Otika aydi: O'g'lon qani? Amina aydi: Qamug'din ajabrak ulkim, men ilik tegurgali qo'ymadilar. Bir oq bulut indi, o'g'lonni ko'tarib, bilmasmen qayda eltti, teb yig'ladi. Bu so'zda erdilar kim, bulut yonib keldi, o'g'lonni Kavsar suyi birla yuvub, ko'ziga surma tortib, ujmoh yizig' (184r) lari birla muattar qilib, hariga yo'rg'ab, kelturub Amina o'ngida qo'ydi. Otika aydi: Sevunmishdin sachrab qo'ptum, o'g'lonni olib qo'ynumga so'qtum. Andog'

xush yizig'lar ko'rdumkim, dunyoda andog' yizig' ko'rmishim yo'q erdi. Ul tuntek dunyoda tun kechmadi. Ul tun kisrolar toqlaridin kungurlari yiqildi. Shom maliklarining ayvonlari emruildi. Qaysarlarning qusurlari buzuldi, qamug'lar o'ti o'chti, yer yuzindin ne butlar bor ersa qamug'i yuzin tushdi. Qamug' shaytonlar yer yuzindin atrofi olamg'a mutafarriq bo'ldilar. Zilzila zohir bo'ldi. Qo'rquchdin Qof tog'ing'a sig'indilar. Nopoklar yig'ilib iblisga keldilar. Bu ne hol turur? teb so'rdilar. Iblis aydi: Bu kecha hazratning muqarriblari Tahama tepa inarin ko'rdum, Muhammad dunyog'a keldi bo'lg'ay. Boring, xabar kelturing, tedi. Shaytonlar Tahoma tepa bordilar, farishtalar ko'rdilar, qanit qanitg'a to'qub havoda tururlar. Igna kirguncha ochuq yo'q. Ilgari borib, anglating tesalar, farishtalar o'tlug' to'puzlar birla urub qovdilar. Shaytonlar kelib iblisga ko'rganlarin aydilar. Ul mal'un aydi: Muhammad sallolohu alayhi va sallam dunyoga kelmishning nishonasi turur. Aydilar: Muhammad sallallohu alayhi va sallam kim bo'lurkim, aning kelurindin qayg'urursen? Ul mardudi la'in aydi: Mening uza bu tundin qatig'roq tun yo'q. Bu ul er tururkim, ming yeti yuz kibrlik millatini aning (millat) yo'q etar. Bu ul yalavoch tururkim, qamug' yalavoch shari'ati aning birla mansux bo'lur. Bu ul er tururkim, Mavlo taolo qullarida biragu ming yil, yo o'n yil kofirliq qilsa, bir soat aning yo'lig'a kirsas qamug' kofirliq yo'q bo'lur. Bu ul tururkim, aning ummatida biragu bizga iyarsa va umrini botil ish birla kechursa, bir zamon pushaymon bo'lsa taqi bir yo'li Muhammadga salavot yiborsa Izi azza va jalla qamug' qilmishini kechurub yozuqlarin yorliqar. Bu ul er tururkim, qiyomat kuni bo'lsa, oman-na bihi va saddaqno — tuman ming osiy aning dudoq tebramagi birla yorliqang'ay.

Kelduk bayoqi so'zga. Ul zamonkim, Muhammadni bulut kelturdi, Amina o'g'longa omukin berayin tedi ersa (184v) olmadi. Otika aydur: Muhammad sallallohu alayhi va sallam yalavoch bo'lg'andin so'ng so'rdum: Yo Rasululloh, ul kun onang sutin naluk emmading? Aydi: Onamdin ayrilurimni bilur erdim, sutin emmadim, yuzin ko'rmayin tedim. Aymishlar, yetti kun kechti, sut olmadi. Yana aymishlar, yigirmi besh kun kechti, sut olmadi, Abdul Mutallib hayron qoldi. Amina ul qayg'udin og'rib o'ldi. Rasul

otasiz erdi, onasiz qoldi. Yoruq jahon Abdul Mutallib uza qorardi. O'g'lum o'ldi, kelinim ham o'ldi. Otasiz, onasiz o'g'lonni men netak asrayin, teb yig'ladi. Andin so'ng o'g'lonni doyaga berdilar.

RASUL ALAYHIS-SALOMNI AVURTAG'A BERGAN SO'ZLARI

Arabda bir qabila bor erdi, bani Sa'd otlig'. Tekma yil ulardin urag'utlar kelib Makka xalqindin sut bergali o'g'lon eltur erdilar. Bu yil kelib o'g'lon oldilar, Muhammadni otasiz, onasiz teb kim ersa qabul qilmadi. Abdul Mutallib o'jiz bo'ldi. Bir avrat bani sa'd qabilasindin Halima otlig', eri Horis otlig', ukush ayollari bor erdi, chig'oy erdi, dunyolikda bir qo'tir ingan tevasi bor erdi. Qamug'lari aning suti birla ovqat kechurur erdilar. Abdul Mutallib aydi: Ey Halima, bu o'g'lumni olib sut bergil, men sanga oncha shafqat qilayinkim, vaqting xush bo'lg'ay. Halima aydi: Ey sodati arab, o'g'lungni jon birla timor qilayin, agar narsa bersang, bermasang hurmating, izzating manga bas turur. Evga borg'il, so'nguncha borayin, tedi. Maqsudi ul erdikim otalig', onalig' o'g'lon tilar erdi. Topsam olayin teb topmadi, eringa borib aydi: Ul o'gsuzni olayin, qabila tasabbui bo'lmag'ay bori, Horis: Olg'il, tedi. Ikagu Abdul Mutallibg'a bordilar. Ko'rdilar, yigirmi besh kunluk o'g'lonni ilayinda tutub o'lturur. Abdul Mutallib aydi: Ey Halima, va'daga vafo qilg'il mening o'g'lumg'a sut bergil, otasiz, onasiz temagil, men ota ham onaman. Halimaning ko'zi o'g'long'a tushdi ersa: Jonim bu o'g'long'a fido bo'lsun, mundog' isig' yuzluk o'g'lon ko'rmishim yo'q, tedi. Bu Halimaning sog'emuki onadin tug'g'ali qurug' erdi, o'g'lonlarig'a so'l emuki sutin berur erdi. O'g'lonni oldi, sut bergali so'l emukin berdi, (185r) olmadi. Otika aydi: Ey Halima, bu o'g'lon yigirmi besh kunluk bo'ldi sut ko'rmishi yo'q. Yana bir qavlda, yigirmi yeti kun bo'ldi, och turur, bu o'g'londa ajoyib narsalar ko'farmiz. Halima sog'emukin berdi ersa oldi. Quruq emukdin Mavlo qudrati birla oqar suvtek sut oqa boshladi. Savol: Hikmat ne erdikim, o'g'lon so'l emukin olmadi? Javob: So'l emukin olsam o'g'lonlarig'a qo'noq bo'lmishtek bo'lurmen,

sog'emukin emayin, qo'noq ham bo'lmag'ayin, sog'emuk suti xos maning turur. Ular mundin emsunlar, manga qo'noq bo'lsunlar.

Halima ul mo'jizani ko'rub, eriga kelib (aydi), andin so'ng o'g'lonni oldilar. O'z qo'tur tevalariga mindurdilar, teva qo'pg'ach qo'turi to'kildi, oruq erdi semiz bo'ldi, suti oqa boshladi. Yo'lg'a kirdilar, burun ketgan arqishdin evlariga burun bordilar. Qayu qabila bu tevani ko'rdi ersa tongladi, o'l qo'tur, sutsiz teva ermasmu? tedilar. Bular aydilar: Bale, ammo bu o'g'lon barakotidin mundog' sutluk, ko'rukluk bo'ldi, tedilar. Yil sayi o'g'lonni Makkaga kelturur erdilar. Abdul Mutallib ularg'a atolar, xil'atlar berib yondurur erdi, mundag'in to'rt yashadi. Halima o'g'lonlarin yozig'a qo'y-qo'zi kuzatgali yiborur erdi. Muhammadni yibormas erdi. Bir kun Muhammad sallallohu alayhi va sallam aydi: Ey ona, bu qarindoshlarim kunda qayong'a borurlar? Halima aydi: Qo'y-qo'zi boqg'ali borurlar. Muhammad aydi: Menima yiborg'il, qarindoshlarim birla borayin. Halima aydi: Men sani yozig'a yibormasman, ammo sen borurman tesang, yiborayin, teb yarog' qilib o'g'lonlari birla yibordi. Taqi aydi: Muhammadni emgatmang, och qo'ymang, iriksa manga bot olib keling. Bir yig'och yer chiqtilar ersa, iki oq qush havodin inib, Muhammadni o'g'lonlar oraşindin olib, havog'a oshurdilar, biyik yerga eltib qo'yib, Rasulni orqan yotqurub ko'kragin yordilar, yuragini chiqarib bir oltun tasht ichinda yuvdilar, yana erinda o'mattilar. Oltun igna birla yarasin tiktilar, qanot birla sig'adilar. Ul ikaguda biri Jabroil erdi, yana biri Mekoil erdi. Halima o'g'lonlari ani ko'rub qo'rtqilar, yig'layu onalarig'a kelib aydilar: (185v) Ey ona, ikagu kelib Muhammadni bizdin ayirdilar, eltib, qornin yorib o'lturdilar. Halima yuzin yirtib, faryod qilib, bosh-oyoq yalang keldi. Muhammadni ko'rdi, behush bo'lub yotur. O'nginda suv qo'yg'an yeri ul turur, qorninda yorg'an nishoni belgulk. Qurayshlar ani eshitib, otlanib keldilar. Ul Muhammad bu turur teb o'ayat birla yorliqar. Qavluhu taolo: *Alam nashrah laka sadrak.* Andin so'ng Muhammadni Halima o'zi qatida saqlag'ali qo'rtqi, kelturub Abdul Mutallibg'a topshurdi. Abdul Mutallib Halimaga telim atolar, xil'atlar berdi, uzrlar qilib yondurdi. Rasulni Abdul Mutallib aziz tutar erdi. Qachon Ka'bada o'ltursa Muhammadni olib o'lturur yerdi. Qurayshning rustolari

Muhammadning tegrasiga kelur zahralari yo'q erdi. Aymishlar, bir kun Abdul Mutallibning o'lturur erin anuqlab tururda Rasul keldi. Quraysh ulug'lari qamug' o'lturur erdilar, kim ersa iltifot qilmayin Abdul Mutallib o'rimda o'lturdi. Xodimlarning yondurg'u zahralari yo'q erdi. Abdul Mutallib kirdi ersa xodimlar Muhammadni qo'porurtek bo'ldilar ersa Abdul Mutallib man' qildi, aydi: Ul o'run'ga bu loyiqturur. Rasul to'rt yashaganda Abdul Mutallib og'riq yotti. Bildikim, o'lum og'riqi turur, dunyodini borg'u vaqt bo'ldi. To'rt o'g'lin undadi, Biri Abu Lahab, ikkinchi Abbos, uchunchi Hamza, to'rtunchi Abu Tolib. Muhammadni o'z yastuqi uza o'lturtmish erdi, o'g'lonlarig'a boqib aydi: Ey farzandlarim, mani dunyodini borg'u vaqtim bo'ldi, hech hasratim yo'q, illo Muhammad hasrati bor. Koshki umr vafo qilsa muning hurmatin va izzatin ko'rsam quvong'ay erdim, emdi bu hasrat birla borurmen. Muhammad yetimni tarbiyat qilurg'a qaysingiz qabul qilursiz? Aning birla ahd qilayin, mening xushnudliqim uchun ahdga xilof qilmag'ay. Abu Lahab qo'pti, qamug'din ulug' erdi. Tizin cho'kib aydi: Ey arab maliki, Tengri senga Muhammadning izzatin ko'rguncha uzun yosh bersun, agar Muhammadni menga bersangiz jon birla qabul qilayin. Abdul Mutallib aydi: Ey Abu Lahab, sen qamug'din ulug'sen, hurmating bor, va lekin qatig' ko'ngulluksen, rahmsiz kishisen, yetim astomog'ga yaramassen. Andin so'ng Hamza yukundi, aydi: Men qabul qilurmen. Abdul Mutallib (186r) aydi: Sen menga qamug'din ortuq kerakliksen, ammo o'g'ul-qizing yo'q, o'g'ul qizsiz kishi yana buraguning o'g'ul-qizining qadrin bilmas, taqi ovchisen, ovg'a borsang xodimlaring Muhammadni ozorlag'aylar. Andin so'ng Abbos yukundi, aydi: Men Muhammadni qabul qilurmen. Abdul Mutallib aydi: Yarog'lisen, va lekin o'g'ul-ushoqing telim turur, ko'p o'g'lonlig' kishining yarog'i yetmas bo'lur. Andin so'ng Abu Tolib yukundi, aydi: Ey saodati arab, rag'batim ul erdi, avval Muhammadni men qabul qilurmen tegayin, ammo ulug' qarindoshlarim haqqin saqladim, burun so'zlamadim, taqi molsiz chig'oyman. Abdul Mutallib aydi: Muhammadni tarbiyat qilmoq'ga sen loyiqsen, aning uchunkim, yumshoq ko'ngulluksen. Taqi aydi: Muhammad dono turur, ul bilganin men bilmasman. Qayu ishga munglug' bo'lsam manga yo'l ko'rguzur,

aning so'zi birla ishim kifoyat bo'lur, emdi Muhammadga kengashaling, kimga ixtiyor qilsa anga topshurayin, teb Sayyidi olam'ga boqib aydi: O'g'lum, men dunyodini bordim ersa, otang qarindoshlarindin qayusin ixtiyor qilursen? Rasul alayhis-salom ura qo'pub Abu Tolibning bo'ynun quchti, o'ngunda o'lturdi. Abdul Mutallib aydi: Alhamdu lillohkim, mening ixtiyorim savob tushdi, Muhammadni Abu Tolib'ga topshurdi. Ka'baning tengrisin tanuq qildi, taqi aydi: Sening birla ahd qildimkim, Muhammadni ezgu asrag'il, iyd kunlari bo'lsa yangi to'nsiz qo'ymag'il. Sufra boshinda o'lturmishda Muhammadni o'zung birla olib o'lturg'il. O'g'lonlaring aning uza ortuqluq qilmasunlar, Muhammadni hech narsag'a orzulig' qilmag'il. Bu shartlarni qabul qildingmu? Aydi: Qildim. Aydi: Makkaning tengrisin tanuq qildingmukim, agar xilof qilsang Mavlo sanga xasm bo'lsunmi? Aydi: Bo'lsun. Abdul Mutallib dunyodini bordi, Abu Tolib Muhammadni evinga elti. Ul qamug' shartlarni yeriga kelturdi, qachon evdin chiqsa yana kelsa, o'g'lonlari o'tru chiqsalar burun Muhammadni quchar erdi. Sufra boshida Muhammad birla o'lturur erdi. Iyd kunlari qarz qilib Muhammadga yangi to'nlar kiydirur erdi. Qachon Muhammad balig' bo'ldi ersa afyyat va saloh ko'nilikda ma'rif bo'ldi. (186v) Qamug' qurayshiyalar taqi oli Abdi Mannof Muqammad Amin atadilar. O'n sekiz yashadi, Jamol-u kamol-u malohat birla bezandi. Olam xalqi tongladilar, hech kim ersa yuzunga o'tru boqa bilmas bo'ldi. Kun ko'rkluki, ravnaqi mazid.

RASUL ALAYHIS-SALOM XADICHANI QO'LG'AN SO'ZLARI

Qachon Rasul o'n sekiz yashadi ersa ammasi Otika Abu Tolib'ga aydi: Ey qarindosh, bizing Muhammad ulg'aydi, qiz olur vaqti bo'ldi, ne fikr qilursiz? Abu Tolib ko'z yoshi qilib aydi: Men tun-kun bu qazg'udamen. Teng-to'shimizni olurga kuchimiz yetmas, tengsizni biz ola bilmasmiz, netak qilurimizni bilmasmiz. Otika aydi: Men bir fikr qilib aytayin, agar savob ersa ul ishga ruju' qilaling. Abu Tolib aydi: Ayg'il. Otika aydi: Men eshittim,

Xadicha Shom viloyatig'a sotig' uchun arqish yiborar ermish, men borib Xadicha birla kengash qilayin, Muhammadni targa beraling, ul qadar narsa bergaykim, qiz qalangi bo'lg'ay. Abu Tolib yig'lab aydi: Ey qarindosh, bizing qabilamizda kim ersa targa kirgan ermas, necha ham yo'qsuz bo'lsaq Muhammadni targa berurga ravo ko'rmagaymiz. Ammo fikr qilibsen borg'il, Xadicha birla so'zlashgil, ne teyur ersa bizga xabar bergil. Aymishlar, Xadicha arab malikasi erdi. Kim ersa ul zamonda Xadichadin boyroq yo'q erdi, to'rt ming qizil tustuk tevalar birla tijorat qilur erdi. Tekma yeti tevalar bir qul yurur erdi. Shomg'a borib, sotig' qilib, oshliq kelturur erdilar. Qachon Xadichaning tevalari tebrasa qamug' qurayshiyalar aning arqish birla borur erdilar. Tekma yilda iki navbat tijorat qilur erdilar, biri qish, biri yoy. Qavlulu taolo: *Liylafi qurayshin iylafihim rihlatash-shitai vas-sayf*. Xadicha tavrotxon erdi, o'zi tetik erdi, eri o'lub o'zi tul qolmish erdi, arab maliklari tiladilar ersa bormadi. Bir kecha tush ko'rdikim, oy ko'k'din inib Xadichaning qo'ynig'a kirdi. Qo'ynundin nur qamug' qavmg'a taqi yer yuziga yoyildi. Olam ravshan bo'ldi, uyg'ondi ersa Bahiro rahibg'a aydi: Ta'bir qil, teb. Bahiro aydi: Bu tush yo'rug'i ul bo'lg'aykim, oy oxir uz-zamon payg'ambari turur, Muhammad Mustafo, ul chiqq'usi yo'chiqmish bo'lg'ay, ul seni (187r) olg'ay, sening qo'ynung'a kirganda vahiy kelgay, payg'ambarliq tegurgay. Olam aning nuri birla munavvar bo'lg'ay. Xotun qabilasinda sendin burun imon kelturgan bo'lmag'ay. Bu sifat Tavrotida bitiklik turur, ul payg'ambar qurayshiy Hoshimdin bo'lg'usi, teb ta'bir etdi. Xadicha bu so'z'din sevunchluk bo'ldi, Mavlo hukminga muntazir bo'lub turdi. Otika ul holda boyoqi so'z uchun kirib keldi, Xadicha o'tru yuridi, Otikani og'irlab o'z yoninda o'run berdi. Hech kim ersani andog' og'irlamish yo'q erdi. Aning uchunkim, Otika Abdul Mutallibning qizi erdi. Otika Muhammad sallallohu alayhi va sallam so'zin so'zlagayin ter erdi, ammo targa berurmiz temakka uftanur erdi.

Xadicha fahm ettikim, Otikaning so'zi bor, ammo so'zlamas. Xadicha aydi: Ey sayyidai arab, ne tilaging bor, ayg'il? Otika aydi: So'zum bor, ammo ayturg'a uftanurmen. Xadicha aydi: Ayg'il, uftanmag'il. Otika aydi: Eshitmish bo'lg'aysiz, bizing Abdullohdin

bir o'g'ul qoldi, otamiz Abdul Mutallib aning uchun ko'p vasiyatlar qildi, emdi ul yigit bo'ldi, qiz olur ko'nglumiz bor, ammo og'am Abu Tolib ilkinda narsa yo'q, o'g'lonlari telim turur, sizing arqishlar shomg'a borur teb eshitduk, bo'lg'aymukim Muhammad sallallohu alayhi va sallam targa kirib sizning tevalaringiz birla borsa, narsa belguluk qilsangiz. Abdi Mannof urug'lari sening minnatingda bo'lsaq. Xadicha ko'nglidan aydi: Muna tushum ta'biri bilgurdi, sevinmishdin mengizi qizardi, aydi: Ey Otika, sen (ne) tesang andog' qilayin, ammo arqish birla bormoq og'ir ish turur, borg'il, Muhammadni kelturgil. Ko'raling, yarartekmu turur? Otika ketti ersa Xadicha qo'pti, suv quyundi, arildi. Tavrotni qo'lig'a oldi, Muhammadning na'tin, sifatini o'qidi. Ko'z yo'lg'a tikib o'lturdi, Otika Muhammadni kelturdi. Xadicha hojibg'a aydi: Muhammadni izzat va hurmat birla kiyuring, ustun o'lturtung. Andog' qildilar, Xadicha parda ichida o'lturub, bir Muhammad yuziga boqar, bir Tavrotga boqar erdi. Tavrotida qo'rgani birla Rasul jamolinda bir qil andozasincha tafovut topmadi. Sochi qoraligi, ko'zi, qoshi qamug' nuroniy, andog'kim qayda yurusa yo' o'ltursa qirq kunga tegi ul yerdin yipor isi kelur erdi. Tavrot (187v) da ko'rgani birla rost keldi. O'zi birla andisha qilib aydi: Ey Xadicha, tushung ko'niga chiqti, senga loyiq juft hosil bo'ldi, ammo oshkoro qilur vaqt ermas, arablar ta'n va tashni' qilg'aylar, har necha Muhammad shoh bo'lsa va Xadichag'a habib bo'lsa qamug' mol aning turur, bir necha kun targa kirmishtek yursun, xaloyiq ta'nasi ketsun. Rasulg'a Otika ishchi, yumushchilar to'nin kiydurdi, Otika birla Xadicha so'z kestilar, murodlar hosil bo'ldi. Abu Tolibg'a kelib so'z kestilar, murodlar hosil bo'ldi. Abu Tolibg'a kelib so'zldadi, Abu Tolib birla Otika Muhammadga aydilar: Rozi bo'lurmusen? Rasul aydi: Sizning maslahat ko'rganingizga men rozimen. Andin so'ng Muhammadni Xadichag'a eltilar, taqi aydilar: Tarin belguluk qilg'il. Ne berursen? Xadicha aydi: O'zgalar tari uch oltun turur, Muhammad tari ellik oltun bo'lsun. Muhammadni, ko'zi yoshlig', Xadicha saroyi eshigida qo'ydilar, Xadicha saroy ichinda kuvanur, Muhammad saroy eshikida ingranur. Xadichaning Mubashshira otlig' quli bori erdi, qamug' moli aning qo'lida erdi, Arqishni ul boshlab chiqar erdi. Xadicha Muhammadni anga topshurdi, aydi:

Bu Muhammadning aslin, naslin bilersen, Muhammad sening birla borurda ko'ngul birla saqlab emgatmayin, salomat kelturgil, meni Hoshim urug'iga uyotlig' qilmag'il. Foyda. Muhammadni ishchi, yumushchi atab, safar emgakin tortturub, yana arqish ulug'ing'a muni ezgu tutg'il temakda murodi yumushchiliqi ermas erdi. Ammo ul so'zda sirri bor erdi, netakkim Zulayxo Yusufni zindong'a yibormakda sirri bor erdi, yana zindonchini undatib aydi: Zinhor Yusufni urmag'il, ilkin, ayoqin bog'lomag'il, munda bizga bashorat bor, bashorat ul tururkim, mundag' o'q qiyomat kuni, omanno bihi va saddaqa, mo'minni tamug'ga kiyurgaylar yorlig' kelgay: Ey molik, mo'min yuzin kuydurmagil, ul yuz birla manga sajda qildi, quloqin kuydurmagil, ul quloq birla ilm va hikmat so'zin eshitti, ko'zin kuydurmagil, ul ko'z birla Kalomullohga boqti, tilin kuydurmagil, ul til birla meni bir tedi, ko'ngluni kuydurmagil, ul ko'ngul birla meni bildi, ilkini kuydurmagil, ul ilik birla sadaqa berdi, ayoqin kuydurmagil, (188r) ul ayoq birla jamoatga, ilm majlisiga keldi. Tamug'ga yiborganimiz kuydurmak uchun ermas, kechurmak uchun turur. Yana Xadicha Mubashshiraga aydi: Tong birla tabl qoqib arqish tebrasa Muhammadni saroy eshikiga kelturub, tevachilar to'nin kiydurub, teva burunduin beliga bog'lag'il, bir qo'lig'a tayoq bergil, bu sifat birla yo'lg'a kirsun. Makkaliklar ko'zindin yiroq bo'ldi ersa tevachilar to'nin chiqarib Daqqi misriy otlig' to'n kiydurgil, mingan tevasin bezagil, Muhammadni sultontek og'irlab tevaga mindurgil, sen qushtek bo'lub burunduin olib yugurgil, qayong'a tortsa borg'il, ne ish qilsang aning kengashi birla qilg'il, ani salomat kelturub manga topshursang, seni o'z molimdin ozod qilayin taqi ham boy qilayin. Anchada arqish tebradi Makka xalqi nazzorag'a chiqtilar. Abu Tolib qarindoshlari birla Muhammadning kishisi yo'q teb o'zlari chiqtilar, Muhammadni ko'rdilar, tevachilar to'nin kiymish, burunduin beliga bog'lamish, ilkinga tayoq olmish, o'z ammlari ko'rub yig'lashtilar. Otika boshing'a tuproq sovurdi. Aydi: Yo Abdulloh boshingni lahad tuproqidin ko'targil, Muhammad yumushchi bo'lub, targa kirib, teva yitib borur, ani ko'rgil, teb Otika to'nin pora-pora qilib behush bo'ldi. Mustafo urug'lari faryod birla yig'lashtilar, jumla farishtalar navha qila boshladilar, aydilar:

Iziyo, bu Muhammad qiyomat ko'rki ermasmu, imon kalidi aning oti ermasmu, olamlig'ga rahmat ermasmu, paygambartlar toji ermasmu, muncha emgak anga ne uchun turur? Yorlig' keldi: Mundag' o'q qolmag'ay, qamug' olamni anga musaxxar qilg'aymen, maqomi mahmudni anga bergaymen, qamug' yalavochohlariga ani ulug' qilg'aymen. Andin so'ng Muhammad ammalariga boqib aydi: Men bordim, siz eson qoling, meni unutmang, qayda bir g'arib ko'rsangiz men g'aribni soqining. Aymishlar: ketib ayrilg'an yana ko'rishur. Netakkim Muhammad urug'indin ayrildi yana ko'rushdi. Yusuf yalavoch ham otasidin ayrildi yana ko'rushdi. Muhammad Ka'badin ayrildi yana qiyomat kuni ko'rushgusi, ammo bir ayrilmoq borkim, o'zga ko'rishmak yo'q, ul qiyomat kuni iki yo'l boshindag'i ayrilmoq turur, kim ujmohg'a (188v) bor kim tamug'ga borur. Qavluhu taolo. *Fariqun fil-jannati va fariqun fis-sa'ir*. Ul holdin hikoya qilurlarkim, *vamtazul-yavma ayyuhal munafiqun, imtazu fi inial muxlisina qad fazu*. Ey kofirlar, tahqiq biling, mo'minlar qutuldilar, ey munofiqar, tahqiq biling, muxlislar qutuldilar. Munojotullohiy: Ul misoq kuninda biz mo'minlarni kofirlardin sochib, ujmoh yoninda turg'uzub, *xaulan fin-nari va la ubali* teyu xitob qildik, bizda toat va ibodat yo'q erkan o'z fazling va karaming birla bizlarni ularin socha yorliqading, qiyomat kuni iki yo'l boshinda kofirlarg'a qo'shmayin, ularin ayirib *fariqun fil-jannati* zumrasinda bo'lmoqqa sen Alloh ro'zi qilu ber. Qachon Makka xalqi Muhammadni qamug' yo'lg'a ko'ndurdilar ersa ko'runmas bo'lg'ach Mubashshira teva burunduin Muhammad belindin cheshib, tevachilar to'nin chiqarib, Daqqi misriy to'nin Muhammadga kiydurdidi va izzat birla tevaga mindurdi, o'zi teva burunduin tutub yo'lg'a kirdi. Atepa va Abu Jahl va Shayba alayhim ul-la'na ul uchusi arqishda erdilar, Mubashshiraga aydilar: Bu yetimni o'proq to'nlar birla o'q tutg'il, arig' to'nlar kiydurmagil, qatig' ishlar buyurg'il, o'gransun, tedi. Mubashshira aydi: Xadicha manga andog' ishorat qilib erdikim, tevaga mindurgil, mindurdim ersa bir kesak oq bulut Mavlo taolo yorliqi birla Rasul alayhis-salom boshig'a ko'laka qildi. Qamug' arqish xalqi issig' oftobda, Mustafo ko'lakada. Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhu ul arqishda erdi. Mubashshiraga aydi: Bu

Muhammadning hurmatin ko'rrarmusen. Bu Muhammadning dushmanlari bor. Sen tevaga minib ilgari yurugul, men so'ngida yurugayin. Nogoh dushman qasd qilsa biz ikagu daf' qilaling. Abu Bakr do'stliq bilgurdi. Aymishlar: qachon kun tug'ar bo'lsa burun subh oqarur, so'ngra kun tug'ar. Mundag'-o'q Rasul alayhis-salomning payg'ambarliqi kun tug'g'antek ravshan bo'lmashin burun Siddiqning subhi bilgurdi, bashorat berdi. Izi azza va jalla yorliqar: Abu Bakr Rasulning do'sti erdi, do'stliqin bilgurtdi, yalavoqliq tegmasdin, lojaram dunyo va oxiratda Rasuldin ayrimadi. Xadicha ham Muhammadni (189r) sevdi, nubuvvat ko'rmasdin burun. Men ham Xadichani Muhammaddin ayirmadim. Mo'min bandalarim oltmish-yetmish yil meni sevdilar, mening fazl-u karamimdin ravo bo'lmag'aykim, rahmatimdin ayirsam rahmatim birla yorliqag'aymen: *Razaqana-Ilohu va iyyakum.* Necha kun yurub bir o'tlog', suvlog'g'a yettilar, anda Bahiro otlig' rohib bor erdi, biyik yerga og'ib o'lturur erdi, ko'rdikim, Makkadin bir arqish kelur, bir pora oq bulut biraguning boshig'a soya solur. Tavrot va Injilda oxir uz-zamon payg'ambarining na'ti va sifati bitilmish erdi, ani ko'rmish erdi, ul payg'ambar munda bo'lg'ay teb, arqish xalqin qo'noqlag'ayin teb, qarshu kelib, karvon xalqig'a aydi: Mundin o'tsangiz o't suv topmassiz, teb karvonnin tushurdi, taomlar anuqlab arqish xalqin evinga undadi. Abu Jahl aydi: Barchamiz borsaq yuklarimiz zoyi' bo'lg'ay, teb Muhammadni qo'shda solib kettilar. Bahiro rohib savmaadin bularg'a o'tru chiqti, Tavrot va Injilda ko'rgan sifatin bularda topmadi. Ul oq bulut ham bularda yo'q. Bahiro aydi: Sizlardin kim ersa qoldimu? Abu Jahl aydi: Bir o'g'long'ina qo'shda qoldi. Bahiro aydi: Ul, o'g'lon qayu qabiladin erur? Abu Jahl aydi: Quraysh va hoshimdin erur. Rohib aydi: Ahl ul turur, sizlar qamug' tepa'sizlar turursiz, mening maqsadim ul turur, sizlar ermassiz. Andin so'ng Muhammadni undadilar. Rohib qarshu chiqti, salom qildi, ilikin o'pti, eltib yuqoruda o'run berdi. Taom yedilar. Rohib aydi: Ey Muhammad sallallohu alayhi va sallam, mening bir hojatim bor. Rasul: Ayg'il, tedi. Rohib aydi: To'mungni chiqarg'il. Chiqardi ersa iki yag'rini orasinda muhrni ko'r'di, filhol o'pub yuziga so'rtti, aydi: Ey Muhammad, men ulg'aydim senga vahiy kelguncha umrum vafo

qilg'aymu? Bu kun tanuqluq berurmen, Alloh bir turur, sen aning rasuli bo'lg'ung. Andin so'ng mamlakat ko'zgusi turur. Ummat solori, nubuvvat toji, risolat chirog'i, qamug' suratlar aning oti birla musavvar turur, kavnayn ichinda jumla jamol aning birla munavvar turur, haybat va izzat aning, saxovat va quvvat aning, kamol va shon aning, qibla va imon aning, noqa va amoma aning, batho va tohoma aning qanoat va shukur aning, (189v) hamd va zikr aning, maqomi mahmud aning, amonat va imomat aning, shafqat va shafolat aning, hasab va nasab aning, ashobi izom va arvohi kirom aning, ashobi xulqi karam aning, uluvi darajot aning, azvoji tahiro, fasihu sahih til aning, qaviy ko'ngul va sabur tan aning, baladi muharram, masjidi muazzam aning, haj va ixrom aning, Zamzam va maqom aning, ma'shar ul-harom aning, zakot-u siyom aning, tilovati Qur'on aning, jum'a va jamoat aning, amri ma'ruf va nahyi munkar aning, tahlil va taqdis aning, tamjid va tasbih aning, viqoru sukunat aning. Bahiro bularni aytib tugatti ersa korvon tebradi, Shomg'a tegdilar. Mubashshira aydi: Ey Muhammad so'zum ul turur, bu mol qamug' sening bo'lg'usi. Muhammad aydi: Ey Mubashshira, bir ev kir, targa tutg'il, molni ul evda tutg'il taqi oshuqmag'il. Andog' qildi. Makkadin korvon kelib turur, teb xabar bo'ldi. Shomlig'lar, makkaliklar yukin oldilar, o'zga yuk qolmadi. Rfisto xalqi eshitib, sotig'g'a keldilar. Yuk topmadilar, og'ir bahog'a tilayu boshladilar. Andin so'ng Muhammad Mubashshirag'a dastur berdi, og'ir baho yuklarin sottilar, iki ulush foyda hosil. Yana tavaqquf qildilar. O'zgalar yuk oldilar. Rasul Mubashshiraga yuk oldurmadi. El yuk olg'andin so'ng, narx tushdi. Mubashshiraga aydi: Emdin yuk olg'il. Iki bahog'a olurni bir bahog'a oldi, iki yondin foyda bo'ldi. Andin so'ng Shom juhudlarining iydi keldi. Abu Bakr Mubashshira birga Muhammadni juhudlar ma'badinga eltti, Kanisa bor teb, uch yuz qandil (osilmish) erdi. Muhammad kirdi ersa, qutlug' ko'zi qandillarg'a tushdi ersa, temur zanjirlar so'kuldi, qandillar yerga tushdi.

Ey mo'minlar, sizlarga bashorat bor. Munda Ibrohim yalavocho xil'atin bir zarra Namrud o'tig'a soldi ersa Namrud o'ti o'chti. Muhammadning qutlug' ko'zi juhudlar qandilig'a tushdi ersa pora-pora bo'ldi. Mavlo taolo kunda uch yuz oltmish rahmat

nazari birla boqar. Agar bir rahmat nazari birla boqib, tamug' o'tin ularg'a o'churub, yozuqlarin yorliqab, tamug' o'tidin ozod qilsa ne ajab bo'lg'ay!

Juhudlar ani ko'rub tongladilar, olimlari Tavrotg'a boqtilar. Oxir uz-zamon yalavoichining sifatlarindin birisi bu turur, bizing dinimizni buzg'an (190r) ul turur, bizing oramizda bo'lg'ay, ani istagaling, topib o'lturaling, tedilar. Abu Bakr birla Mubashshira bu so'zni eshitib, Rasul alayhis-salomni yoshurdilar. Yuk yuklayu ketarda chiqardilar. Abu Jahl la'in juhudlarga'a aydi: Ul siz istagan kim ersa bizing korvonda turur. Sizlar silohlig' eranlar anuqlab turung, yo'l tutub korvonni to'qtating, yig'ing. Men sizlarga ko'rguza berayin, siz tutub o'lturung. Uch yuz silohlig' juhud keldilar, korvonning tegrasin qabadilar. Abu Jahl la'in ishorat birla Rasulni ko'rguzdi, juhudlar tevasin oldilar, qilich birla chopqali o'g'radilar. Ul holda Jabbori olam Mekoilg'a farmonladikim, bir kesak-bulut dunyog'a yibordi. Qora bulut kelib olamni qorartdi. Ko'k ko'krab yashin yashnadi, qatig' yel qo'pti. Tevalar burunduq uzdilar, qator buzdilar, usruk bug'ralartek juhudlarga hamla qildilar, juhudlar qochtilar tevalar qovib yetib, uch yuz juhudning boshlarin uzub yerga solidilar. Andin so'ng yel tindi, olam yorudi, tevalar tindilar, korvon xalqi tevalarni tutub, burunduqlab yo'lg'a kivurdilar. Makkaga olti manzil qolmish yer bor erdi, qachon arqish ul manzilga tegsalar sevinchilamakka kishi uzdurur erdilar, borgan kishiga Xadicha tashriflar berur erdi. Mubashshira kishi uzdurayin tedi ersa Abu Bakr aydi: Muhammadni uzdurg'il, sevinch xil'ati anga bo'lsun. Mubashshira andog' qilayin teb jammasin yaxshisin bezab Muhammadni uzdurdidi. Abu Bakr aydi: Ey Mubashshira, necha bezading? Mubashshira aydi: Xadichaning odati ul turur, sevinchilay kelganga minib kelgan jammosani tuzuki birla berur. Yaxshi bezagayin, bo'lg'aykim, Muhammadga bergay. Uzg'ali tevaga mindi ersa Abu Jahl aydi: Bu o'g'lon turur, ish biturmagay, yo'lda ozg'ay. Abu Bakr birla Mubashshira aning so'zin tinglamadilar, Muhammadni ravon qildilar. Muhammad necha yurudi, havo issig' erdi Muhammad teva uza uyugladi, teva yo'ldin chiqti, o'tlayur. Jabbori olamdin yorlig' bo'ldi Jabroilga, borg'il Muhammad tevasin rost yo'lg'a solg'il, Jabroil keldi, burunduq tutub tevani

yo'lg'a soldi, ul oyat bu turur. Qavluhu taolo. *Va vajadaka zollan fa hada.* (190v) Xabarda kelurkim, Rasul alayhis-salom aydi: *Sa'altu-lloha shay'an vudidtu an lam a'sal.* Mavlo taolodin narsa qo'ldum, ani so'rdumkim, koshki bo'lmasa erdum. Qultu: *kallamta Musa takliman va a'tayta Sulaymana mulkan aziman va iysh a'taytani bima qobilyahi.* Ya'ni aydim: Xudoyo, Muso birla vosita bilan so'zlashting, Sulaymong'a ulug' mulk berding, ularga bergantek manga ne berding? Xitob keldi: Yo Muhammad, yetim qolding Abdul Mutallib taqi Abu Tolib qo'yninda men astramadimmu? Qavluhu taolo. *Alam yayidka yatiman fa aava.* Shomdin kelurda yo'l ozding, men ko'ni yo'lg'a ko'nduramadimmu? Qavluhu taolo. *Va vajadaka zollan fa hada.* Yo'qsiz chig'oy erding, Xadicha moli birla men boyitmadimmu? Qavluhu taolo. *Va vajadaka aailan fa ag'na* Rasul o'zub borurda erkklik farishtakim, yerga erkklik turur, anga yorlig bo'ldi: Yerning tomurlarin torting! Farishtalar torttilar ersa olti manzil yo'lg'a Rasul yarim kunda borib keldi. Qachon Batho Makka tepa keldi ersa Xadicha Muhammadning jamoling'a orzulug' bo'lub, qoraboshlarin baland yerga mindurub, boqib turarda bir kim ersa ko'rundi. Teva uza uyuglag'an, bir kesak oq bulut ko'laka qilur. Qoraboshlari aydilar: Ey sayyidayi arab, bizdin neluk kizlarsen? Ani Muhammad erdukin, bilursen, ani sevganing nishonasi yuzungda belguluk turur. Bu so'zda erdikim Rasul qapug'ing'a keldi, bir qorabosh yugurub kirib xabar berdi, Muhammad keldi, teb. Rasul kirib Xadichag'a salom qildi, xabarlarni aydi. Mubashshiraning bitigin berdi bitikda bu erdi; Ey sayyidai arab, hech vaqt mundog' savdomiz bo'lmamish erdikim, bu yo'l Muhammad barakotidin bo'ldi. Xadicha sevindi, Mubashshira bitikiga javob bitidi va Rasulg'a borib yondurdidi. (Yarim kun) da olti manzil yo'lg'a bordi ham keldi. Muhammadni iroqdin ko'rdilar, tarsolar, Abu Jahl sekrib qo'pti, aydi: Ey Mubashshira, men sanga aymadimmukim, Muhammadni yibormagil, muna yo'l ozib kelur. Abu Bakr birla Mubashshirga qazg'ulug' bo'ldilar, Abu Jahl sevindi. Rasul kelib Xadicha bitigin Mubashshiraga berdi, Mubashshira aydi: Ey Abu Jahl, ko'rdingmukim Muhammad yo'l ozmamish, ammo sen ozmishsen. Abu Jahl aydi: Bu (191r) so'zga inonmasmen, o'z qulumni yiborayin, javob keltursun, teb

noma yozib qulig'a berdi, olti kunda Xadichag'a kelib xatni berdi, Xadicha pora-pora qildi taqi aydi: olti kun sendin burun Muhammad xat kelturdi. Andin so'ng arqish Makkaga keldilar. Bir haftadin so'ng Abu Tolib birla Otika Muhammadni Xadichag'a yibordilar. Borib taringni tilagil teb. Sanga qiz qalini bo'lsun, tedilar, Rasul Xadicha eshikiga keldi, Xadichag'a xabar berdilar ersa, aydi: Muhammadni izzat va hurmat birla kivuring, kivurdilar, to'rdi o'lturdilar, so'rdilar: Ne uchun emganib kelding? Muhammad uftanib aydi: Meni yibordilar, borib taringni tilagil, qiz qalini bo'lsun teb, aning uchun keldim. Aydi: Ey Muhammad, sening ammung taqi ammang sening ishingni bitkurmagaylar, Sen menga kelgil, men bitkarayin. Taqi aydi: Ey Muhammad, men senga bir juft anuqlab tururmen, Qamug' arabning ulug'lari ani tiladilar ul bormadi, ancha moli bor ammo aybi ulkim, qiz ermas, bul aybi birla qabul qilsang, ul seni darvishliging birla qabul qilur. Rasul bul so'zni eshitib, ko'zi yoshlig' bo'lub ammasiga keldikim, aydilar: Ne bo'ldi? Rasul aydi: Xadicha meni masxara tutub mundog'lar tedi. Aydilar: Yo Muhammad, munda senga bu so'zda bashorat bor. Mo'minlarga bashorat ulkim, Rasul yorliqadi: qiyomat kuni bo'lsa, *omanno bihi va saddaqla*, bir farishta kelib mo'min qullarning nomai a'molin qo'lung'a bergay. Mo'min nomani to'lug' toat va ibodat ko'rgay. Necha boqsa yozuq ko'rmagay. Ayg'ay: Ey farishta, sen g'alat qilib(sen) bu noma mening ermas, men telim yozuq qilib erdim, ularning biri ham munda yo'q. Ul farishta ayg'ay: Ey mo'min, noma sening turur. Ul mo'min yig'lab ayg'ay: Ilohiy, bu farishta meni masxara tutar. Netakkim, Rasul alayhis-salom Xadicha meni masxara tutar, teb yig'ladi. Haq taolodin nido kelgay: Ey bandam, noma sening turur. Yozuq qilding, taqi pushaymon bo'lub oh qilding, ul oh teduking uchun qamug' yozuqingni yorliqadim. Taqi ma'siyatingni toatg'a badal qildim. Qavlulu taolo. *Fa ulyayka yubaddilu-llohu sayyi'atihim hasanatin*. Sendin kelurin qilding, mendin kelurin qildim. Qavlulu taolo. *Qul kallun ya'malu ata shakilatih*. Abu Tolib qazg'ulug' bo'lub aydi: Muhammadning moli yuq bo'lsa johi, jamoli bor, g'ayratda, aslu nasabda bizdin ulug' yo'q, balki teng-to'sh ham yo'q. Agar Xadicha mundog' aymish ersa ko'rgaysen Xadichag'a va taqi

qavming'a nelar qilg'aymen. Otika aydi: Ey qarindosh, ko'ngul mashg'ul qilmag'il. Men Xadichag'a borayin, haqiqatin ma'lum qilayin. Otika keldi, Xadicha ta'zim birla aydi: Ne maslahatg'a keldingiz? Otika Muhammad so'zin aytu berdi: Xadicha meni masxara tutti teb yig'ladi. Xadicha aydi: Ey Otika, zinhor bu so'zni aymag'il, men quvanurmen, ul ayg'an so'zlar qamug' rost turur. Men o'zimni Muhammadg'a arza qildim, emdiga tegru yashurur erdim, emdi oshkora ayturmen, agar Muhammad meni qabul qilsa jonim, tanim, molim qamug' Muhammadning turur. Otika aydi: Ul ham seni qabul qilg'ay, ammo sen unag'aymussen? Xadicha aydi: Men ani ne teb unamag'aymen, asli va nasabi, ulug' so'ngukimu yo'q, odlig' otalarimu yo'q, ezgu qiliqimu yo'q, ko'rgali jamolimu yo'q? Otika aydi: Bu qamug' bor, ammo moli yo'q, Xadicha aydi: Muhammadning moli yo'q ersa mening molim bor.

Bu so'zda bizga bashorat bor. Mundag'-o'q qiyomat kuni bo'lsa, *omanno va saddaqla*, Mustafo alayhis-salom Arsh ostinda ummatg'a shafot qilg'ay. Ayg'ay: Ilohiy, osiyumatidin kechurgil, hazratingda qabul qilg'il. Yerlig' kelgay: Yo Muhammad, natuk qabul qilmasmen. Tilinda shahodat, ko'nglinda tasdiqmu yo'q! Ayg'ay: Ilohiy, bular bor, ammo toatlari yo'q. Xitob kelgay: Yo Muhammad, agar ularda toat yo'q ersa, menda rahmat bor.

Xadichaning bu so'zin arablar eshitilar ersa aydilar: Muncha ulug' maliklar seni tiladilar, bormading, Muhammadni ixtiyor qilding, muroding ne erdi?

Aydi: Maning murodim so'ng ma'lum bo'lgay. Ul tushni kim, men ko'rdum, siz ko'rmagaysiz. Ul so'z kim, men eshitim, siz eshitmagaysiz. Otika aydi: Sen hud bu so'zda borsen, amma ammung Varaqa ibn Navfal unag'aymu? Xadicha aydi: Bu ishning tadbiri bor. Abu Tolib mehmondorliq qilib Varaqani undasun, sharob ichursun, isirmishda meni Muhammad uchun tilasun. Qolg'an yarog'ini men bilgaymen. Otika bu so'zni Abu Tolibg'a aydi. Mehmondorliq qilib ulug'larni yig'di. Varaqani undadi, sharob ichurdi, isirdi ersa Abu Tolib Xadichani Muhammad uchun tiladi. Varaqa aydi: (192r) Xadichadin so'raling, teb. Xadicha qatig'a keldi, aydi: Abu Tolib seni Muhammad uchun tilar, ne dersen? Xadicha aydi: Sen bilursen, ne tegayman. Asli bor, nasli bor, ko'rki bor, hunari bor, xaridi bor,

amonati bor, diyonati bor. Varaqa aydi: Bu qamug' bor, ammo moli yo'q. Xadicha aydi: Aning moli yo'q ersa maning molim bor. Varaqa o'fkalab, qo'lin tiziga urib chiqti: Arab va ajam maliklari qo'ldi unamading, emdi Abu Tolib o'gsuzin unarsen. Varaqa usruk erdi. Xadicha qoraboshlarig'a farmonlab erdi, oltun idishlarga za'faron ezib qo'yung. Ul vaqtda andog' erdikim, qiz qo'lar bo'lsalar vakil rizo bersa, vakil to'ning'a za'faron suyin sochar erdilar. Varaqa o'fkalab chiqarda qoraboshlari za'faron suvin sochtilar, Varaqaning to'nig'a. Tonglasi sharobdin ayildi ersa tabaq isorlar elttilar. Varaqa aydi: Bu na turur? Aydilar: Xadichani Muhammadg'a berding. Varaqa aydi: Men bermadim. Aydilar: To'nungdag'i za'faron ne turur? Boqti ersa to'ninda zafaron ko'rdi. Andog' bo'lsa hujjatlari qolmas erdi, o'zga so'zlamadi. Aymishlar, Xadicha Muhammadga aydi: Falon kun Varaqa ibn Navfalni mehmonliqga undarman, sharob berurman. Sen falon ulug'larni aning qatig'a yiborgil. Varaqa kayfiyat qilmishda kelgil. Muhammad qabul qildi. Varaqa sharob ichib vaqti xush bo'lmishda Xadicha aydi: Ey amm, bu yil bozorgonlarimiz yavloq asig' qilib keldilar. Muhammad ezgulikindin telim mollar hosil bo'ldi, teyu Rasulni o'ga so'zladı. Bu so'zda erdilar, Muhammad eshik qoqti. Xadicha: Kirgil, tedi. Rasul alayhis-salom ulug'lar birla kirib keldi, Varaqa ibn Navfal ko'zi Rasulg'a tushdi ersa aydi: Ey Muhammad, Xadicha sendin ezgulik ko'rgantek so'zlayur, biz ham seni ezgu ko'raling. Bu kun ne tilaging bor ersa beraling, Xadicha ham kerak ersa berayin, tedi. Xadicha pardadin chiqib aydi: Muhadmmad ham aning uchun kelib turur. Varaqa ul kelgan ulug'larg'a aydi: Tanuq bo'lung, men Xadichani Muhammadga berdim. Yana Rasulg'a aydi: Sen qabul qildingmu? Rasul aydi: Qabul qildim. Andin so'ng Rasulg'a aydi: Sen bir teva bo'g'uzlagil, men bir teva bo'g'uzlag'ayin. Ikilari iki teva bo'g'uzladilar, to'ylashdilar, daf qoqtilar. Ul vaqtda rasm andog' (192v) erdi. Bilsunlar, kim nikoh turur, sifoh ermas. Qachon Varaqa sharobdin ayildi ersa egnida iki qat tun ko'rdi Ul vaqtda rasm erdikim, qachon qiz bersalar iki qat to'n kiydirur erdilar qiz berganga. Taqi daf unin eshitti. Bu ne un erur? teb so'radi. Xadicha aydi: Meni Muhammadga berding. Varaqa aydn: Sen rizo berdingmu? Berdim, tedi. Varaqa aydi: Arab va ajam ulug'larin

unamading, Abu Tolib o'gsuzin unading. Xadicha aydi: O'guz bo'lsa bo'lsun. Quvvati va jamoli bor, fasohati, hasabi va nasabi bor, mol yo'q ersa mol bergayman, teb xazina ochti, oltun, kumush chiqardi, xirmon mengizlik yig'durdi. Aydi: Bu qamug' molni Muhammadga bag'ishladim, kim ersaning muncha moli bo'lsa chig'oy bo'lmag'ay. Bu ul oyat ma'nisi turur. *Va vajadaka azilan va ag'na. Rasul ammlari tevalar bo'guzladilar, arablar yig'ildilar, ulug' to'y qildilar, oltun, kumush sochtilar. Abu Tolib nikoh qildi. Bu xutbani o'qudi: Xutbatun fi tazviji Xadijata li Muhammadin alayhis-salam: Alhamdu li Ilahil-lazi ja'lal-ka'bata mu'azzaman, val-harama muharraman, vaz-zamzama muzamzaman, va maqoma Ibrohima mulamlaman, vas-safa mu'allaman, val-marvata muhtaman, van-nikaha muhkaman, val-halla fin nikahi amran mubraman, vab-na axi Ahmada musharrafan va mukarraman, va inniy aqadtu bayna Xadijata binti Xuvaylidin birizoha va hiya sayyidatul-aalamin va baynabni axi Ahmada birizohu va huva sayyidu ahil-arazin, bisadaqin mu'ayyanin, va huva minal-aalafi arba'un, alaa fa shaffi'ush-shafi'a fan kihul xotiba, burika bihimal mustami'un, va yarji'u sorrina g'ayra zorrin, va birabbil-ka'bati i'tiqoduna, vas-solatu vas-salamu ala jaddina Ibrohima alayhis-salomu xalilini va atabnihi Isma'ila rasidihi va safyyihi va sallim tasliman.*

Andin so'ng Xadicha qosid kishi izdi, Rasulnievinga keltur, tedi. Abu Tolib qarindoshlari birla qazg'ulug' bo'ldi, Muhammadning kiyib borurg'a yarog'liq to'ni yo'q teb. Ular bu so'zda erdilar, kim Abu Bakr Siddiq kirib keldi, Rasulni qazg'ulug' ko'rdi. Aydi: Ne bo'ldi? Agar ish mendin bitar bo'lsa men biturayin, agar mol birla bitar ersa muna mol, agar tan birla bitar ersa muna tan, agar jon birla bitar bo'lsa muna jon. Mening tanim, jonim sanga fido bo'lsun. Rasul alayhis-salom aydi: Qazg'um ulkim, Xadicha birla nikohimiz bo'ldi. Kishi yibormish, meni evga kelsun (193r) teb. Emdi kiyib borurg'a to'num yo'q taqi Xadichaga olib borurg'a yarog'liq narsa yo'q. Abu Bakr aydi: Qazg'urmag'il, senda yo'q ersa, sening menda moling bor. Ulug' otang Abdul Mutalib ema tirikliginda qirq ming oltun berdi, tekma turluk ajnoslardin manga berdi, senga amonat tursun, kerak bo'lg'anda Muhammadga bergaysen, teb. Bu zamon

senga kelturayin. Bu kun o'g'lonlaring'a bersam, otamiz moli turur teb Muhammadga bermagaylar teb qo'ymish erdi.

Aymishlar, ul qamug' Abu Bakrning erdi. Agar mening teb xarj qilsam minnat qilmish bo'lg'ayman, Rasul minnat ko'tarman, uftanmasun teb, Abdul Mutallib berdi teb bahona qildi. Andin so'ng borib uch suf to'n kelturdi, tekma biri besh yuz oltun qiymatlig'. Bir surra ichinda ming qizil oltun kelturdi, Rasulning o'nginda qo'ydi. Rasul aydi: Yo Abo Bakr, qamug' vaqtda sening ezguliging tegdi, telim xalqlar bizing uza vojib qilding, safarda, hazarda. Aydi: Necha ham emgak tegsa bu kecha mening birla borg'il, bu haqni ul xalqlarg'a ulag'il. Abu Bakr: Jon birla borayin, tedi. Bu so'zda erdilar kim Mubashshira bir necha qoraboshlar birla kirib keldi, bir qat podshohona to'nlar kelturdi. Rasul aydi: Abo Bakr to'ni bor erkan Xadicha to'nin ixtiyor qilmag'ayman, teb Abu Bakr to'nin kiydi. Abu Bakr birla Xadicha saroying'a bordilar. Ul ming oltunni surra birla Xadicha o'nginda qo'ydi. Saroylarni bezab, qoraboshlar iliklarinda to'lug' oltun taboqlar anuqlab turur erdilar. Rasul kirib keldi ersa muborak qadamig'a sochtular. Ulug' mehmondorliq qildilar. Abu Bakr taom yeb chiqarda Xadicha qiymatlig' zarif to'n kiydurdi taqi uzrlar qo'ldi. Abu Bakr yondi. Rasul Xadicha birla qoldi. Xadicha aydi: Ey Muhammad, ne narsakim mening tasarrufimda turur qamug'in senga bag'ishladim. Men sanning minnatingda bo'layin, sen maning minnatimda bo'lmag'il. Mol-muluk qamug' Rasulning bo'ldi. Lojaram qiyomatg'a tegi imomlar mehrobda, qorilar davrada, o'g'lonlar dabiristonda muni o'qurlarkim Qavluhu taolo. *Va vajadaka aailan fa ag'na*. Ya'ni Muhammad chig'oy erdi, Xadicha moli birla boyidi. Aymishlar, Rasulg'a vahy kelsa Jabroil Oyishag'a o'z salomini aytur erdi, Xadichag'a Tengri salomin tegurur erdi. (193v) Rasul Jabroilg'a aydi: Yo axiy Jabroil, Oyisha manga qamug'din sevuklukrak turur, sen Oyishag'a o'z saloming aytursen, Mavlo salomin Xadichag'a aytursan. Hikmat ne turur? Jabroil aydi: Oyisha seni hurmatda, nubuvvatda, risolatda qabul qildi. Ammo Xadicha seni faqirliqda hurmat, izzat yo'q erkan qabul qildi. Mol-mulk senga berdi, senga isor qildi. Ul sababdin Xadicha yo'li ortuq bo'ldi.

Aymishlar, Xadicha raziyallohu anho va abiho salli alo zavjiho, Xadichaning umri oxir bo'lmishda Rasulg'a kishi yibordi, aydi: Men senga kelmishda oltun, kumush, mol-u asbob, qul qoraboshdin boshqa qirq ming oltun havon (berdim), o'zga havonlardin boshqa. Rasul muni eshitib, ko'ngli og'rirtak bo'lub, aydi: Borib Xadichag'a aytimg, menga molni ixtiyorib birla berding. Bu kun pushaymon bo'lub minnatmu qilursen! So'z Xadichag'a yetgi ersa Xadicha aydi: Rasulg'a aytimg, men ul so'zni minnat uchun aytmadim, valekin maqsudim bor, Maqsudim ul turukim, avvalqi yalavochoqlik kelmishda burkanib yotqan kilimni manga bergil, oxirat kafanim ul bo'lsun, Tamug' o'ting'a qalqon bo'lsun. Rasul ul kilimni yibordi, Xadichag'a ani kafan qildilar.

Aymishlar, erming yeti yoshinda tishi tushar, o'n besh yoshida rasida bo'lur, yigirmi bir yoshg'a tegi bo'yi o'sar, qirq yoshg'a yetsa a'lo aqli kamol. Rasul qirq yashadi ersa Jabroil yalavochoqliq tegurdi.

MUHAMMAD AL-MUSTAFO

SALLALLOHU ALAYHI VA SALLAMG'A YALAVOCHLIQ KELGAN SO'ZLARI

Ul ro'zgorida yalavoch kesilib erdi, amri ma'ruf va nahy munkar va namoz-u toat yo'q erdi, toatlari tafakkur erdi. Rasul alayhis-salom Hiro tog'ing'a oshib uzun kun tafakkur qilur erdi. Qirq yoshi tamom bo'ldi ersa Jabroil keldi, o'zini Rasulg'a ko'rguzdi. Aydi: Iqra', ya'ni o'qi, Rasul qo'rqub titrayu evga keldi. Tonglasi andag'-o'q ko'r'di, yana Iqra', tedi. Rasul qo'rqub, Xadicha evinga kelib yotti, Xadicha aydi: Ne bo'ldi, yo Rasululloh? Rasul aydi: Ey Xadicha, iki kun bo'ldi, bir kim ersa kelib manga iqra' teyur, bilmasman kim turur, Xadicha aydi: Yana kelmishda manga xabar qilg'il. Keldi ersa xabar qildi, Xadicha boshin ochti taqi aydi: Bormu? Rasul aydi: ketti. (194r) Xadicha aydi: Mujda sanga, yo Muhammad, yalavoch bo'lursen. Rasul aydi: Nedin bilding? Xadicha aydi: Andin bildimkim, keldi deganingda boshimni ochtim, ketgi teding, bildimkim, farishta turur, aning uchunkim, farishta haromni ko'rmas, agar shayton bo'lsa erdi ketmagay erdi. Agar

kelib iqra' tesa, ne o'qug'ayin tegil, teb Xadicha qo'pti. Varaqa eviga bordi. Varaqa tarso bo'lub erdi, Injilni arab tilincha bitmish erdi, qartayib erdi, Xadicha kelib aydi: Yo amm, Muhammadga yalavoqliq yo'li bilgurdi, kim ersa ko'rinur, teb azin qissalarin aytu berdi. Varaqa aydi: Muhammadning bu so'zi rost ersa, ul ko'rungan Nomusi Akbar turur. Jabroilning oti Zaburda Nomusi Akbar erdi. Varaqa aydi: Nomusi Akbar Iso ko'kka uchqandin so'ng kim ersaga inmadi, emdi insa qamug' xaloyiqning yigragi Muhammad Mustafog'a inar, valekin aning belgulari (bor), borg'il, Muhammadg'a ayg'il, emdi kelsa manga bersun. Kelti tesa sen boshingni ochg'il farishta bo'lsa avratg'a boqmag'ay. Xadicha evga keldi, Rasulg'a aydi: Yana kelsa manga ayg'il. Bir zamon kechti ersa, keldi teb, Xadichag'a xabar berdi. Rasul muborak boshin Xadicha tizinga qo'ydi, Xadicha boshin yalang qildi, emdi ko'ramusen? tedi. Rasul aydi: Ko'runmas, Xadicha boshin o'rtidi, Rasul aydi: Emdi ko'rinur. Uch yo'li mundog' qildi ersa Xadicha bildikim farishta turur, shayton ermas, qo'pti, yana Varaqag'a bordi, bu xabarni aydi. Varaqa aydi: Ul Nomusi Akbar turur, koshki mening umrum vafo qilsa erdi, seni Makkadin chiqarur kun sanga yori bergay erdim. Andin so'ng aydi: Ul Nomusi Akbar anga kelgay, kim ersa ani ozorlarmu bo'lur? Ro'zgor kechmayin Varaqa vafot qildi, Xadicha Rasulg'a aydi: Emdi kelib iqra' tesa, ne o'qug'ayin, tegil. Kilim yo'rkanib yoturda Jabroil yana keldi, Iqra' tedi. Rasul aydi: *Iysh aqra' va ana ummiyyun*, ya'ni men bitik bilmasman, ne o'qug'ayin? Jabroil aydi: *Iqra' bismil rabbikal-lazi xalmaq xalaaqal-insana min alaqin iqra' va rabbukal-akram al-lazi allama bil-qalam allamal-insana ma lam ya'lam*. Aymishlar, bir kun Rasul alayhis-salom aydi: Ul keligli meni tog'din yondurdi, azoqin yerga tepdi, bir buloq bilgurdi, o'zi tahorat qildi taqi manga tahorat (194v) qildurdi, iki rak'at namoz qildi, men ham aning birla namoz qildim. Andin so'ng aydi: Ey Muhammad, namoz bu turur. Jabroilning yashil to'ni bor erdi. Ul vaqtda Xadicha imon kelturdi. Uch kunda kezin bu xabar Makkada fosh bo'ldi. Ali kelib aydi, Yo Muhammad, bu ne ish bo'lur? Rasul aydi: Bu bir Tengrining dini bo'lur, bu dinga kirarmusen? Ali aydi: Otalarimiz dinning xilofincha ermasmu? Biroz zamon ko'rayin, tedi. Bir zamondin

so'ng kelib imon kelturdi, Makka xalqi aydilar: Muhammad va Ali telva bo'ldi. Darhol bir oyat nozil bo'ldi: Qavlulu taolo: *Nun val-qalami va ma yasturun man anta bini'mati rabbika bimajnun*. Andin so'ng Rasul alayhis-salom iki rak'at namoz qildi. Makkadin hijrat qilib Madinaga bormasdin iki yil burun, andin so'ng me'roj tununda bu besh vaqt namoz fariza bo'ldi. Aymishlar, Muhammad Is'hoq aydur: Ul kunkim, Jabroil Rasul alayhis-salomg'a ko'rundi, aydi: Yo Muhammad, sevunch sanga Mavlo taolo o'n narsa ato qildikim, o'z yalavoqlarig'a bermadi. Ul o'n bu turukim, avval, qayu yerda Tengri taolo oti chiqsa sening oting aning oti birla atanur. Netakkim, yorliqar: *Va raf'ana laka zikrak*. Ikinchi, ummatingni qamug' ummatlarning yaxshiroqi qildi. Qavlulu taolo. *Kuntum xayra ummatin uxrijat lin nasi*. Uchunchi, yer yuzini sanga masjid qildi taqi arig' qilu berdi. Qavlulu taolo. *Ja'altu fil-arzi masjidin va tahuran*. To'rtunchi, ummating Qur'anni ko'ngul birla zohir o'qug'aylar. Beshinchi, Mavlo taolo qamug' farishtalar birla ummatingg'a salovot yiborur. Qavlulu taolo. *Huval-lazi yusalli alaykum va malakatuhu*. Oltinchi, sening diningni o'zga dinlar uza zohir qilg'ay. Qavlulu taolo. *Li yuzhirahu alad-dini kullihi va lav karihal-mushrikun*. Yetinchi, namozlar qazosin ummatingg'a mashru' qildi. Sekizinchi, g'animatn sanga halol qildi, burunqi shari'atlarda halol ermas erdi. To'quzunchi, qurbonlik etin yemak buyurdi, avvaliqlarning qurbonin qilg'anin o't yer erdi. O'nunchi, ko'lakangni yerga tushurmadi, ilgariyin, ortqaridin birtek ko'runur erdi.

Yana Abu Bakrmi ko'rdi, aydi: Men Tengri yalavochimani. Abu Bakr aydi: Rost aytursen, men sendin muni tasavur qilur erdim. O'zgalar unashtilar, andin so'ng imon kelturdi (195r). Ammo Abo Bakr unashmasdin burun Rasulni rostg'a tutti, imon kelturdi. Aning uchun Siddiq atandi, ma'nisi yavloq ko'ngli ko'ni so'zni temak bo'lur. Andin so'ng Rasul imon da'vatin zohir qildi. Qayu yo'qsuz chig'oy ersa imon kelturdi, boylar, bo'ynag'ular zahmat bera boshladilar. Arab kofirlari dushman bo'ldilar.

Hikoyatda kelur, bir kun amir al-mo'minin Umar raziyallohu anhu Abu Bakr birla so'zlashurda qatig'roq so'zlad, Abu Bakr raziyallohu anhuning ko'ngli og'rib Rasulg'a bordi. Umar

bildikim, Rasulg'a borib mendin gila qilur, so'ngidin borib uzr qilib yondurayin tedi. Abu Bakr yonmadi, kirib Rasulg'a aydi, Rasul alayhis-salomning o'fkasi kelib, Umar qayda turu teganda Umar kirib keldi. Rasul aydi: Ey Umar meni necha kun bu qo'ldoshim birla tirilgali qo'ymasmuse? Yana aydi: Qavluhu alayhis-salam: *Ma araztul islama ala ahadin illa va fin vajihi kabvatun g'ayru Abu Bakrin va innahu lam yatala'sam.* Ma'nisi ul bo'lur, men kimgakum islom arza qildim ersa, yuzin achitti illo Abu Bakr yuzin achitmadi. O'zgalar yolg'on aytursen teb, kazzob tedilar, ammo Bakr Siddiq saddaqa teb rost aytursen tedi. Aning uchun Siddiq teb atandi. Aymishlar: Eranlarda avval imon kelturgan Abu Bakr Siddiq erdi, raziyallohu anhu, xotunlarda avval imon kelturgan Xadicha erdi, raziyallohu anhu. Taqi o'g'lonlarda avval imon kelturgan Ali erdi, raziyallohu anhu. Aymishlar, imon kelturganlar Rasulga o'tuz to'quz bo'ldilar, namozni oshkoro qilumas erdilar, kofirlar mo'minlarga zahmat bera boshladilar. Rasul alayhis-salom duo qildi: *Allohumma a'izil-islama biahadi rajulayni imma bi Umara av bi Abi Jahlin.* Ma'nisi: Xudoyo, quvvat bergil islomg'a, bu iki erning birisi yo Umar, yo Abu Jahl birla.

Savol: Rasul alayhis-salom bu ikaguda birini islom birla og'irlag'il teb duo qildi, Umar haqinda ijobat bo'ldi, Abu Jahl haqinda ijobat bo'lmadi, hikmat ne erdi?

Javob: Rasul alayhis-salom tilinda avval Umar oti yuridi, aning uchun islom topti Abu Jahl topmadi, temishlar.

UMAR RAZIYALLOHU ANHU ISLOM KELTURGAN SO'ZLARI

Abu Jahl boshliq quraysh kofirlari Rasulga kofirliq qila boshladilar. Bir kun Abu Jahl birla kofirlar Rasulg'a nosazo aytur erdilar, Umar hozir erdi, aydi: (195v) Bu jafolar eranlar ishi ermas, muxannaaslar ishi turur. Abu Jahl aydi: Sen er ersang, yuz uqiya oltun va yuz teva beraling Muhammadni halok qilgil. Umar bu ishga rag'bat qildi, qamug'lari qo'pub, butlarga bormas burun, Umar sharob ichti, ularning rasmlari ul erdi, kachon abd qilsalar

butlar qatinda ahd qilur erdilar va butlar tanuq qilib ul ahdni buzmas erdilar. Qamug'i yig'ilib Lot va Uzzo va Hubalg'a bordilar, ul kun qamug' butlar Ka'ba ichinda erdi. Mavlo taolo Hubalg'a til berdi, aydi: *Rajulun aminun yad'uka ilal-islam va anta turidu an tasfika damahu bi-Ilahi ma taqdir.* Ya'ni bir amin rost er seni musulmonliqg'a undar, sen aning qonin to'karmusen? Vallohikim, qilmag'aysen. Umar ani eshitib ahdni buzg'ali rag'bat qildi, shayton vasvasa qildi. Muncha oltun, muncha tevadin mahrummu qolursen, yuz ming xaloyiq oltun sevuklukindin jon-u imonin elga berdilar. *Valayozu billoh.* Umar yana butlarga kirdi, Haq taolo Uzzog'a til berdi, aydi: *La ilaha illa-Ilohu Muhammadun rasulu-Iloh.* Umar ani eshitib aydi: Men bu butg'a topunurmen, mening ma'budam Ahadning birliginga, Ahmadning payg'ambarliqing'a tanuqluq berur. Men Ahmadning qonin to'kkali borurmen, netak bo'lg'ay, Rasul duosi Umar haqinda ijobat bo'lmish erdi.

Savol: Izi azza va jallaning rahmatindin ne eksulgay erdikim Rasul yolg'iz Umarga duo qildi, ikisinga duo qilmadi. Hikmat ne erdi?

Javob: Mavlo taolo rahmatindin eksumas erdi, ammo Rasulg'a Jabroil xabar bermish erdi, bu ikining biri imon kelturgay teb. Aning uchun birini duoda burun tiladi, tilida Umar oti kechti. Lo-jaram duosi Umar haqinda mustajob bo'ldi. Bashorat. Muhammad Umarga bir yo'li duo qildi, Umar hidoyat topdi, yana yigirmi uch yil ummatg'a duo qildi. Mavlo ijobat qilsa ne ajab bo'lg'ay. Umar butlar o'ngidin ko'ngulsiz chiqti, yomon yo'ldoshlar qo'yamadilar, yana Muhammadni o'lturgali qasd qildi. *Pand va nashat.* Ey musulmonlar, yomonlar birla qo'ldoshliq qilmang. Tongla ular birla tamug'g'a bormang, bu kungi yomon esh, qo'ldoshlar tongla barchasi dushman bo'lg'usi. Qavluhu taolo. *Al-axillau yavmaizin ba'zuhum li ba'zin aduvvan (196r) illal muttaqin.* Qiyomat kuni yomon esh, qo'ldosh biri-birindin tebarro qilurlar. Ayturlar: Ey koshki, mening birla sening oramiz mashriq birla mag'rib choqlig' bo'lg'ay erdi, nima yomon turur mundog' qo'ldosh. Qavluhu taolo. *Ya layta bayniy va baynaka bu'dal-mashraqayn fa bi'sal qarain.* Yana Umar birla Abu Jahl butlarga kirdilar. Haq taolo qudra-ti birla Lotg'a til berdi, aydikim, ta'budul-asnam va qad xaraja

xayrul-anam ya'duka ila daris-salam. Ya'ni qachong'a tegi but-larg'a topinursen? Xaloyiq yaxshiroq chiqti, seni ujmohg'a o'qiyur. Bu so'zni Umar taqi Abu Jahl ikilari eshittilar, Abu Jahl aydi: Ey Umar, bu so'zni sir ichinda tutg'il, Makka xalqi eshitsalar, qamug'anga imon kelturgaylar. Biz izzatsiz va hurmatsiz bo'lg'aymiz. Ajabo, Umar muncha yil kofirliq qildi, mol andin esirgamadi, yuz teva uchun Muhammadni o'lturgali qasd qildi. Abu Jahl so'zuna mag'rur bo'ldi, yalang qilich oldi, yo'lg'a kirdi. Lot va Uzso tuta ont ichti, Muhammadni o'lturmaguncha qilichim qing'a kirmagay, tedi. Ul holda Rabb ul-izza xitob qitur erdi: Izzu jalolim haqqi hurmati, ko'nglungni kufrdin aritmag'uncha choshtgohni o'lakka tegurmagaymen. Umar borurda bir necha yigitlarni ko'rdi, to'nlarin bir yerda qo'yub, bir buzag'uni qavub tuta bilmaslar. Buzag'u qochib Umar qating'a keldi, aydi: Ey Umar, bu muncha kishi birikib meni tuta bilmaslar, sen yolg'uz borib Muhammad boshin netak kesarsen? Umar fikrga borib aqrin yuri boshladi. Foyda. Qachon Mavlo taoloning asari rahmati zohir bo'lsa banda Tengrig'a topung'uchi bo'lur. Yana fazlining asarini zohir qilsa toshqi toping'an Umarni Tengrig'a topung'an qilur. Yo'lda borurda Xubob ibn al-Aras yo'luqti, bu Xubob Umarning qiz qarindoshin olmish erdi, Umardin so'rdikim, qayda borursen? Umar aydi: Ul erning boshin olg'ali borurmen. Rasulni, andog' dushman erdikim, otin og'zing'a olmas erdi. Xubob aydi: Ey Umar, ul qiz qarindoshing va kuyovingdin boshlag'il, so'ngra Muhammadg'a o'g'rag'il-kim, kuyovning va qiz qarindoshing Muhammadg'a imon kelturub tururlar. Maqsudi ul erdikim, Umarni o'zlariga mashg'ul qilg'aylar, Muhammad (196v) ni o'lturmasun teb. Umar aydi: Andog'mu bo'ldungiz? Xubob aydi: Agar inonmasang borib qiz qarindoshingni ko'rgil. Bir tovuq o'lturub bergil murdorni yeyurmu, ko'rgil. Qarindoshi benavolarg'a taom berur erdi, Umar kirdi, bir tovuqni o'lturub, iki pora qilib qarindoshig'a aydi: Muni tukin yulub, pishurub bergil. Yulub, pishurub Umarni o'nginda qo'ydi. Umar aydi: Kelgil, yegaling. Qarindoshi aydi: Murdorni yemasman. Umar qilich uchi birla qarindoshini sanchti, yemadi, dam urmadi. Umar aydi: Neluk so'zlamasen? Qarindoshi aydi: Mening so'zim ul bir-u bor yaratqan birla turur. Kim do'stini suvsa bolasin ham

suvar. Umar usruk erdi uyuqladi, uyqudin uyg'ondi ersa ko'rdi, ikagu Qur'on o'qiyurlar, qo'pti, kiroyani oldi, tiladi, ko'rayin tedi. Qiz qarindoshi: Arig'sizen, olmag'il, tedi. Umar aydi: O'qung, eshitayin. Qarindoshi boshladi: Qavluhu taolo. *Toha ma anzal-na alaykal-qur'ana litashqo*. Tahoratg'a sabab bo'ldi, hidoyatg'a yo'l boshladi. Umar aydi: Ey qarindosh, ul Qur'on haqqikim yana o'qig'il. Yana o'qudi, Umar aydi: Ey qarindoshim, yovuzluqim ko'p bo'ldi, tavba qilsam qabul qilg'aymu? Qarindoshi aydi: Izi azza va jalla karim turur, qabul qilg'ay. Bashorat. Bu iki Harf Umarning imong'a kirmakka sabab bo'ldi. Yetmish yil, sekson yil mo'minlar o'qiyurlar, ujmohg'a kirmaklariga sabab bo'lsa ne ajab bo'lg'ay? Umar qarindoshig'a aydi: Meni Muhammadga eltgil, ko'rayin tedi. Qo'ptilar, yo'lg'a kirdilar, qiz qarindoshi ilguru, Umar so'ngidin borur erdilar. Aymishlar, Haq taoloning lutfi asari zohir bo'lsa asrlong'a tulki boshchi bo'lur. Umar qarindoshi birla ilik olishib kelurdi, aytmishlar, Iza azza va jalla qiyomat kuni er qarindosh qiz qarindoshdin qochqay, ota-onadin, o'g'ul-qizdin, er-juftidin qochg'aylar. Qavluhu taolo: *Yavma yafrrul-mar'u min axihim va ummihi va abihi va sohibatibi va banih*. Ammo Umar barakotidin er qarindosh qiz qarindoshdim qochmagay teyu Mavlo Qur'onda bayoq qildi. Jabroil kelib aydi: Yo Rasululloh, Mavlo hazratinda Umarning oti kofirilar daftarindin yuvuldi, Umar sanga kelo turur, orzulab topding, (197r) o'tru chiqg'il. Rasul alayhis-salom o'tru chiqti. Umarning ko'zi Rasulning jamoliga tushdi ersa aydi: Ani o'lturayin teyu kelmishda manga Muhammaddin dushmanroq kim ersa yo'q erdi, emdi Muhammad jamolin ko'rdum ersa Muhammaddin do'stroq kim ersa yo'q, bosh olg'ali keldim, emdi boshim berayin, teb tuproqg'a yuzun tushub, evrula kelib, Rasulning azoqing'a tushub, aydi: Ne teyursen, ayg'il. Rasul kalimayi tavhid qildi, Umar fasih til birla, sahih ko'ngul birla aydi: Biz ham muvofaqat qilib aytalingkim, *La ilaha illa-llohu Muhammadun rasulu-lloh*. Rasul Umarni quchoqladi va ilkin tutub bir irg'adi, Umar bir qurug' yig'ochtek erdi, kufr hanzalasi birla yukiuk, qachon Muhammad Mustafo irg'adi ersa kufr hanzalasi to'kuldi, islom xurmolari ko'rklandi, islomga quvvat bo'ldi, Mu'izzidin laqab berildi. O'tuz to'quz erdi islomg'a kirganlar, Umar raziyallohu

anhu birla tamom qirq bo'ldilar. Aning uchun alqobinda mukam-malu adatil-arbain teyurlar. Anchada namoz vaqti bo'ldi, namozni musulmonlar evda kizlanib qilur eddilar. Umar aydi: Kofirlar botil dinni oshkora qilurlar, bizlar haq dinni neluk kizlanub qilurmiz. Qo'pung! Ka'baga boraling, jamoat birla namoz qilaling. Jabroil keldi, bu oyatni kelturdi: Qavluhu taolo: *Ya ayyuhan-nabiyyu has-buka-llohu va manittepa'ka minal-mu'minin*. Ma'nisi ul bo'lurkim, yo Muhammad, senga yorichimen, taqi Umar tab tururlar, ba'zilar aymishlar, ma'nisi ul bo'lurkim, ey Muhammad, sanga taqi qamug'mo'minlarga men tabmen. Andin so'ng Rasul sallallohu alayhi va sallam Umar birla qamug' musulmonlar birla Ka'baga keldilar. Abu Jahl, arab urug'lari kofirlar birla: Umar neluk kech qoldi?, teb qazg'urub, yo'lga boqib turur eddilar. Yiroqdin bularni ko'rub sevunishtilar, Muhammadni o'lturub yorlarini bulun keltura turur, tedilar. Yaqin keldilar ersa aydilar: Bularning ishi o'zga turluk kerak erdi, bularning orasinda Muhammad bor, teb qamug'lari ura qo'pub tonglayur. Muhammad rasulullohni ko'rdilar, Umar birla ilik olishib yoronlari birla kelurlar. Umar qilich oldi va ilgari yurudi va aydi:

Ma li aroikum kullakum hiyama

Ash-shayxa vash-shababa val-g'ulama

Qad ba'asa-llohu lana imama

Haza Muhammadun alayhis-salama

Fa azribukum bis-sayfi nahtulukum

Va la nada'ul-axvala val-a'mama

(197v) Ne bo'ldi ko'rarman sizlarni uru,

To'nguztek yig'ilib asbahda qoni,

Qilich birla qirg'am qamug'ni bu kun,

Tirik qo'ymag'am bir ini og'ani.

Boshimiz yo'q erdi Muhammadni,

Haq Ato qildi mundog'arig'er qani.

Abu Jahl qamug' kofirlar birlan qochtilar. Umar Ka'ba qapug'in ochti, kirdilar. Ul kun Ka'ba ichinda uch yuz oltmish but bor erdi, temur qozuqlar birla Ka'ba tominda o'rnatmishlar erdi. Umar ilki birla ishorat qilib aydi: *Ayyatuhal-asnam haza Ahmad*

in kaana haqqai ma yaqulu fasjudu. Ya'ni ey butlar, bu Muhammad ayg'an haq ersa qamug'ingiz Mavlog'a sajda qiling. Abu Bakr aydi, raziyalohu anhu, Ul soatkim Umar butlarg'a ishorat qildi, kulli tanim tuklari ura qo'pti. Agar Umar so'zi birla (yuzin) tushmasalar Umar, islom ichinda shaklik bo'lga'ay, qilich tortib qamug' musulmonlarni qirg'ay, ko'rdilar, Umar ishorati birla qamug'butlar yuzin tuttilar. Umar to'puz oldi, qamug'utlarni sindurdi, tashqari chiqarib soldilar. Ka'bani artdilar. Ka'bada kofirlar bir butni yavloq adiz yerga o'rnatmish erdilar, kimersaning iligi yetmas erdi. Rasul'ayhis-salom aydi: Yo Ali, mening egnimga mingil, ul utni indurgil. Ali aydi: Yo Rasululloh, sizing egningizga netak azoq qo'yarmen? Rasul aydi: Yo Ali, mening so'zumni azoq osting'a olg'uncha egnimni azoq osting'a olsang yaxshiroq turur. Ali Rasulning eginlariga ayoq qo'yub butni olurda Rasul aydi: Yo Ali, ilking yetdimu? Ali aydi: Yo Rasululloh, bu yergakim men qadam urdum, ilik sunsam Arshg'a yetgaymen. Ali butni indurdi. Savol: Rasul alayhis-salom Alidin fozilroq erdi, Ali egniga neluk minmadi, Ali mindi.

Javob: Rasul safarda ingan minib tururda Jabroil kelib vahiy keltursa Rasul terlayu erdi, ingan vahiy yukin ko'tara bilmay cho'kar erdi. Rasul alayhis-salom og'irligi mundog' bo'lsa Ali netak ko'targay erdi, ammo Ali ham andog' oz erdikim Rasuldin o'zga kim ersa ko'tarda bilmagay erdi. Aymishlar, *Ala qadri jirmil fili tubnal qavaim*, ya'ni yag'anning bo'yning'a yarashu yuk bergay. Kelduk maqsudg'a, Umar Ka'bani aritti, butlarni sindurdi. Hech kim ersa anga yovumadi. Savol: **(198r)** Umar andog' haybatlig'erkan, qiz qarindoshi so'ziga netak bo'yunsundi? Javob: Aymishlar, Rum viloyatining odati bor, tevalari chaliqliq qilib burunduqlatmasalar yangi tushgan kelinlarni kelturub, un tuzib irlaturlar, tevalar ularning ovozloriga xushlanib o'zlaridin kecharlar, ilikka ilimurlar. Umar ham arablar orasinda usruk bug'ratek erdi, qiz qarindoshi Qur'on unun tuzub o'qidi ersa imong'a bo'yunsundi. Munojot. Ilohiy, Umar Rasulni o'lturgali keldi, imon berding, biz telim yillar bo'ldikim Muhammadning payg'ambarliqig'a iqrur qilduq, oxir damda imon birla bormoq va uqboda diydor ko'rmaq karomat ro'zi qilub bergil.

PAYG'AMBAR SALLALLOHU ALAYHI VA SALLAM SO'ZLARI

Rasul alayhis-salomning otalarining oti qissaning avvalinda yod qilindi. Ukush yalavochnlar Is'hoq urug'indin turur, Ismoil urug'indin yolg'uz Muhammad Mustafo turur. Rasul aydi: Izi azza va jalla Ismoil urug'indin kanona qavmini uzduydi, yana kanona urug'indin qurayshni uzduydi, quraysh urug'indin Hoshimni uzduydi, Hoshim urug'indin mani uzduydi. Rasulning onasi Amina bint Vahab erdi, otasi qarindoshlari Abdullohdin boshqa to'quz erdilar, ul jumladin Abbos va Hamza musulmon bo'ldilar. Rasul sekiz yashag'anda Abdul Mutallib o'ldi, Abu Tolib, Abu Lahab kofir erdilar, Rasul alayhis-salom Makkada tug'di. Onasi qorminda olti oyliq erkan otasi Abdulloh o'ldi, onasindin yigirmi besh kunluk tug'ub qoldi, sekiz yashag'anda Abdul Mutallib o'ldi, Abu Tolib ektuladi. Qirq yashag'anda Jabroil payg'ambarliq tegurdi. Andin so'ng o'n uch yil Makkada turdi, andin so'ng Madinaga hijrat qilib keldi, o'n yil Madinada turdi, oltmish uch yashadi, Rabi'ul avval oyining o'n uchunchi kuni, dushanba kuni, dunyodind bordi. Ammo xotunlarinda tul Xadicha erdi, Xadichadin uch o'g'ul bo'ldi: Qosim va Tohir va Tayyib. To'rt qiz erdi: Fotima va Zaynab va Ruqiyya va Ummi Kulsum. O'g'ullar kichiklikda o'ldilar, Fotimani Ali ibn Abu Tolibg'a berdilar. Zaynabni Abul Osg'a berdilar, Ruqayyani Usmong'a berdilar, Ul o'ldi ersa Ummi Kulsumni berdilar. Rasul alayhis-salom vafot bo'lmishda to'quz xotunlari qoldi. Savda bint Zamm'a, Oyisha bint Abu Bakr Siddiq, (198v) Hafsa bint Umar ibn al-Xattob, Ummi Salama bint Abi Umayya, Zaynab bint Jahsh, Ummi Habiba bint Abi Sufyon, Maymuna bint al-Horis, Safiyya bint Huayyi ibn Axtab, Jarira bint al-Xaris raziyallohu anhum. Ammo Ibrohim otlig' o'g'ul Mariya al-Qibtiyadin erdi, to'rt yoshinda vafot qildi. Ammo bilgilkim, Rasul yalavoqliqining nishonalari telim erdi, imomlar ulug' kitob bitidilar, Daloil an-nubuvva atadilar, Tekma biri alohida ulug' kitob turur, aningdek munda bitisak so'z uzar. Bu maqsuddin iroq tusharmiz. Rasul alayhis-salomning yaxshi qiliqlarining nihoyati yo'q, sanasa bo'lmas, ammo bir nechani aytaling. Rasul alayhis-salom doim tafakkur birla erdilar va doim

tek turmoq va haybatlik erdi, ochuq yuzluk, kular so'zluq, juvonmard dinlig', yumshoq ko'ngulluk, jadal qilmadi, ko'p so'z birla kishini ayb qilmadi, g'iybat qilmadi, yaxshi qiliqliq'. Aning majlisi ilm va amonat va hayo va sabr majlisi erdi. Ulug' yoshlig'larni og'irladi, kichik yoshlig'larni yorliqadi, g'ariblarni, faqirlarni o'zundin ilgaru tutti. Payg'ambar alayhis-salomning kofirlar muborak tishlarini sindurg'anlarg'a hidoyat tiladi. *Allohumma-hdi qavmiy fa innahum la ya lamun* teb dushmanlarg'a mundog' qildi, shafqat do'stlarg'a netak qilmasun. Agar Ibrohim payg'ambarni xalqg'a imom qildim ersa, *Inni ja'uluka linnasi imaman* tedim ersa Muhammad Mustafo ni me'roj tununda Bayt ul-Muqaddasda qamug' payg'ambarlarg'a imom qildim, yeti qat ko'k farishtalariga imom qildim, Namrud o'tini Ibrohimg'a sovtudum ersa, tamug' o'tini Muhammad alayhis-salomning ummatlarig'a sovtug' ayman. Qavluhu alayhis-salom. *Iza vaza'al... mu'мину qadamahu alas-siroti tahmudun naru tahta qadamayhi kama yahmudu*. Agar Sulaymon payg'ambarg'a mulk berib elni anga musaxxar qildim ersa, Muhammad rasulullohning ummatig'a andog' mulk berdim, ul mulk ul tururkim, qachon ko'ngli sinuq, ichi butuk mazlum mo'min oh teb ichi bag'ridin sovuq dam ersa, shahodat kalimasi aning birla qo'ldosh qilsa, ko'z yumub ochg'uncha ul sovuq yel ul kalimani Arshg'a tegurgay, ul qulum yorliqanmish bo'lgay. Agar Muso alayhis-salomni qavmi ayoqlari ho'l bo'lmay Nil tengizidin kechurdum ersa, Mustafo alayhis salomning ummatlarin tamug'din ayoqlarin kuymayin kechurgaymen, ho'l etaklari qurumag'ay. Qavluhu alayhis-salom. *Tamuru toifatun min (199r) ummatiy alas-siroti la taffu savbuhu minal-araqi*. Agar Iso alayhis-salom to'rtunchi qat ko'kka og'di ersa, Muhammad Mustafo ul maqomg'a tegdikim, Qavluhu taolo. *Fa kaana qoba qavsayni av adna*. Bilgil, har kim iki jahonda izzat tiladi ersa Muhammad rasululloh barakotidin topiti, ko'rmasusen, Odam alayhis-salom uch yuz yil yig'ladi, Jabroil kelib aydi: Ey Odam, tavbang qabul bo'lsun tesang Muhammad rasulullohni shafi' kelturgil. Odam shafi' kelturdi, tavbasin qabul qildi, agar Ibrohimni o'tg'a soldi ersa Jabroil kelib ujmoh xullasin kelturdi. Alami uza bitiklik uchun, *Lo ilaha illa-llohu Muhammadun rasulu-llohi* uni o't kuydurma di. Agar Muso daryo qirog'in-

da kirgali uchun qo'rtqi ersa Jabroil: Muhammadni shafi' keltur-gil, tedi. Kelturdi ersa daryo suvi yorildi, anga yo'l berdi. Qavluhu taolo. *Fan falaka fa kaana kullu firqin kat tovdil azim*. Dovud alay-his-salom temurdin sovut qilur bo'ldi ersa, Muhammad rasululloh-ni shafi' kelturdi. Sovuq temur yumshadi. Qiyomat kuni Mavlo taolog'a hech kim ersa so'zlamagay, Muhammad alayhis-salom shafcoat qilmag'uncha va hech kim ersa diydor ko'rmagay, Muham-mad rasululloh ko'rmayin. Va hech kim ersa ujmoHg'a kirmagay, Muhammad va ummatlari kirmaguncha. Qavluhu alayhis-salom. *Avvalu man yaqra'u babal jannati Bilalun*. Hikoyat. Bir kun Oyi-sha raziyallohu anho va salli alayhi va zavjuho so'rdi: *Ya rasula-llohi anta ahsanu am Yusufu*. Rasul alayhis-salom aydi: *Kaana Yusufu ahsanu minniy va ana amlahu minhu*. Ya'ni Yusuf mendin ko'rklukrak erdi, ammo men Yusufdin tuzlug'roqmen. Oyisha yana so'rdi Bu ne temak bo'lur? teb. Rasul alayhis-salom aydi: *Lian-nahu kaana fitnatan lil-aalamin va ana rahmatun lil-aalamin*. Kim Yusuf-ni ko'rsa sevunch anga harom bo'lur erdi, kim meni ko'rsa qazg'u anga harom bo'lur, teb. Savol: Mavlo taolo Ibrohim payg'ambarni bizga ota tedi. Qavluhu taolo. *Millata abikum Ibrohim*. Yana Muham-mad rasulullohg'a ota temadi, Qavluhu taolo. *Laqad ja'akum rasulun min anfusikum azizun*. Hikmat ne erdi? Javob: Agar Muham-mad rasulullohni sizga ota tesa qiyomat kuni aning tanuqluqi-din mahrum qolg'aymiz. Ey Muhammad, seni ummatg'a rasul te-dim, yorin sen tanuqluq bergil, men qabul qilayin. Sen tilagil, men berayin, sen shafcoat qilg'il, men qabul qilayin. Aymishlar, ma'si-yatni bitigan farishta kunda kelur, toatni bitigan farishta kunda kelmas, o'zga farishta kelur mo'min o'lguncha (199v). *Abu Bakr*: Me'rojg'a tasdiqan qilg'an Abu Bakr, Islomg'a qul ozod qilg'an, Abu Bakr, Rasul yoninda o'run topqan Abu Bakr, iftixor uchun qiz bergan Abu Bakr, avval masjid bino qilg'an Abu Bakr. Aymishlar, Mavlo taolo Abu Bakrmi iki narsa birla Yusuf payg'ambarg'a tash-bih qildi. Biri siddiq, ikkinchi xilofat birla Yusuf haqinda *Ayyuhas siddiq*. Abu Bakrga aydi: *Val-lazi ja'a bis-sidqi va saddaqa bihi*. Yusuf haqinda Yusufdin xabar berdi, payg'ambar *ala xazainil arzi*, Abu Bakr haqinda aydi: *Layastaxlifannahum fil-arzi*. Yana iki andak birla Yahyo payg'ambarg'a tashbih qildi. Yahyo haqinda aydi: *Va*

hananan min ladunna va zakatan va kaana taqiyyan. Abu Bakr haqinda aydi: *Vattaqo va saddaqqo bil-husna*. Yana iki xislat birla Muhammad alayhis-salomga tashbih qildi. Rasul haqinda aydi: *Va nu-yassiruka lil-yusro*. Aymishlar, Abu Bakr haqinda aydi: *Fa sani-yassiruka lil-yusro*. Aymishlar, Abu Bakrning zohir karomatlarinda biri ul erdi. Oxir umrinda vasiyat qildi, qachon o'ldum ersa Rasul ravzasinda manga yer qazing, qapug'ni bog'lang, meni eltib qa-pug'da qo'yung, Aytng: Yo Rasululloh, assalomu alayka, Abu Bakr qapug'g'a keldi, dastur tilayur, dastur bo'lsa kiyuring, eltib salom qildilar ersa qufl tushdi, qapug' ochildi, ravzadin un keldi: *Adxilul-habiba ilal-habibi fa innahu mushtaquun illal-habibi*. Ya'ni do'stni do'stg'a kiyuring, mushtoq turur do'stg'a aymishlar, Abu Bakrda yetmish iki fazilat bor erdi, payg'ambarlardin o'zga hech kim ersada ul fazilat yo'q erdi.

FI FAZOYILI UMAR IBN AL-XATTOB RAZIYALLOHU ANHU

Rivoyat qilmishlar. Jabroil aydi: Qamug' ko'kdagi farishtalar Umar islom kelturmishda sevunmishlar. Rasul alayhis-salom aydi: Umar mening birla, men Umar birla, Umar qayda ersa haq aning birla. Rasul alayhis-salomg'a Jabroil aydi. Umarg'a ayg'il, Mavlo taolo sening achug'ing aziz turur, sening rizong hukm turur. Rasul aydi: Ujmoh ichinda qamug' yafroqlarda bitiklik turur: *Kaanash-shaytonu yafirru min zilli Umara*. Yana Rasul yorliqadi: Ul kun menga bir xabar tegdi, Umar islom kelturdi ersa ming to'quz yuz minbar quruldi. Yana Umarning ko'lakasindin Shayton qo'rqar erdi.

Hikoyatda kelmish, bir urag'ut Rasulg'a aydi: Men nazr qilmish (200r) erdim, azobdin eson kelsang sevunmishdin sening hazratingda daf urg'ayman, teb. Rasul aydi: So'zungga yetgil. Urug'ut qo'pti, daf oldi, og'oz qildi. Ul holda Umar kirib keldi ersa urag'ut dafni to'ni ichida kizladi. Rasul tepassum qildi, aydi: Ey Umar, shayton sening ko'lakangdin qo'rqub qochar. Yana yorliqadi, kim Umarni sevsa Allohni sevdi, kim Umarni dushman tutsa Allohni dushman tutti. Rivoyatda kelmish, bir kun Hasan va Husayn raziyallohu anhumo Umar qatig'a kirdilar. Umar ularni

ko'rgach ozod qo'pti, shahzodalarni o'z o'rnida o'lturtdi, yavloq og'irladi. Ani kelib otalari shohi mardon Alig'a aydilar. Ali aydi: Ey jigargo'shalarim, sizlarga so'zum ul tururkim, Rasul'din eshitdim, aydi: Umar dunyoda islom nuri turur, ujmohlig'larning charohi turur. Hasan va Husayn bu so'zni borib Umarg'a aydilar. Umar ura qo'pub aydi: Billohki, otangizdin eshitdingizmu taqi Rasul'din eshitmishtek siz eshitdingizmu? Eshitduk, tedilar. Andin so'ng kog'az olib bitidi. Bu bitikni ul tururkim, tanuqluq berdilar ujmoh yigitlarining iki sayyidlarikim, biz otamizdin eshitduk. Otamiz jaddimiz Muhammad Mustafodin eshittikim, Umar dunyoda islom nuri turur, ujmohlarning charog'i turur. Andin so'ng vasiyat qildi, qachon men o'ldum ersa bu bitikni kafanimga chulg'ab mening birla qabrda qo'yung. Andog' keldilar. Kog'az orasinda bitik bilgurdi. Ko'rdilar, bitikda bu erdi: Hasan va Husayn rost aydilar, otalari Ali ham rost aydi. Ulug' otalari Muhammad Mustafo sallallohu alayhi va sallam ham rost aydi. Umar dunyoda islom nuri, ujmohlig'lar charog'i turur. Xabarda kelur, Rasul alayhis-salom aydi: Umar islom kelturdi ersa Shayton andin hargiz shodmon bo'lmadi. Yana aydi: Ey ummatlarim, sufralaringizni xuzar birla bezang va majlislaringizni Umar zikri birla bezang. *Zayyinu mavaidakum bil xuzari va zayyinu majalisakum bizikri Umara.*

FI-FAZOYILI USMON IBN AFFON RAZIYALLOHU ANHU

Qavlulu taolo. *Ruhamou baynahum* aning sha'ninda nozil bo'ldi. Aymishlar, Rasulning iki qizin oldi, aning uchun Zunnurayn atandi. Aymishlar, Qur'onni ul jam' qildi, bir tun ichinda xatm qildi. Aymishlar, islom cheriki yo'qsuz chig'oy erdilar (200v), qachon qiyomat kuni bo'lsa, *omanno bihi va sadda'qna*, Rasul toatg'a tanuqluq berur. Toat bitigan farishtalar Rasulning tanuqluqi uza tanuqluq berurlar. Ammo ma'siyat bitigan farishtalar yolg'uz kelur. Ma'siyatg'a tanuqluq berur. Mavlo taolodin yorlig' kelur. Dunyoda zino tanuqluqi to'rt erdi. Ul zino tanuqluqi iki erdi, yolg'uz tanuq so'zi tinglanmas erdi, sen ham yolg'uzsen, tanuqluqing tinglamasman. Qamug' olamlig'lar bilsunlarkim, men

Karim malikman. Taqi javob yorliqar, qiyomat kunining sifati ul tururkim, qarindoshdin qarindosh qochar, ayol ota-onadin qochar, er juftindin qochar, ota o'g'lindin qochar. *Yavma yafirrul-ma'ru min axihi va ummihl va abihl va sohibatihl va banihl*. Agar Rasulni sizga ota tesam siz andin, ul sizdin qochmoq kerak erdi. Bir birindin qochmasunlar teb ota temadim, sizing nafsingizdin tedim. Hech kim ersa o'z nafsindin qochmas. Lojaram ummat birla qolur.

Bashorat. Rasul alayhis-salom bizing nafsimizdin bo'lsa ul bizga bosh bo'lur, biz ayog bo'lurmiz.

Ey mo'minlar, hech eshitganingiz bormukim, bosh ujmohda bo'lub, ayog tamug'da bo'lg'ay. Mustafo alayhis-salom bizing boshimiz, boshchimiz bo'lsa har oyna ul ujmohda bo'lg'usi. Biz mutobi' xodimlar qamug' ujmohda bo'lg'aymiz. *In sha'a'llohu ta'ala.*

Yana bir qiroatda min anfusikum hasaban va nasaban o'qimishlar. Kofirlar bori Rasulg'a munkar erdilar. Subhonallohi, bir pora yig'ochni oltung'a tutub, Tengri tutundilar, mundog' aziz boshchini qabul qilmadilar. *Alhamdu li-llohi*, biz bori necha yuz yildin so'ng iqror qilduq, Muhammad rasululloh teyurmiz. Ilohiy, andog'kim, Muhammad rasulullohning do'stluqin dunyoda bizga karomat qilding, qiyomat kuni aning shafoti birla musharraf bo'lmoq biz za'iflarga ro'zi qilu ber. *Va-llohu a'lamu bissavob.*

FI SIFATI AS-SAHOBATI AL-ARBAATI RIZVONALLOHI ALAYHIM AJMAIN

Qamug' sahabalarning sifati bu erdi, ular Tengri azza va jalla farmoni uza erdilar, shug'llari Tengri azza va jalla qulluqin qilmoq erdi. Jihod qilmoqg'a anuq tilaklari Mavlo taoloning xushnudluqi erdi, dushmanliqlari Shayton birla erdi. Balog'a sabr, qazog'a rozi, balog'a shokir erdilar. Kishilarni o'zlarindin ilguru tuttilar' Rag'batlari dunyo (201r) moling'a op erdi, tiriklari haq so'zlamak birla, bermaklari hadya erdi. Doyim qo'rqunch ichinda erdilar, biri biringa mehribon erdilar, kim ersani yod qilsalar ezguluk birla qilur erdilar. G'iybatdin, hasaddin, bo'htonidin qo'rqub, so'zleri hikmat, nafslari ibrat, tek turmishlari fikrat erdi. Achig' vaqtinda sabr

qilmoq, hushnudluq vaqtida uzr qilmoq, o'z hojatlaridin kishi hojatlarni ilgari tutmoq, o'zlari chig'oy erkan xalqg'a naf' yetkurmak. Yoluqlug'lar uzrin qo'lmoq, va'dani rost tutub oxirat savobini umid tutmoq, yozluqlug'lar yozuqin, aybin o'rttilar, islom haqini saqladilar.

Hikmat. Luqmoni hakim aytur, rahmatullohi alayhi, abdollar-ning nishoni uch turur. Biri, juvonmardlik, taqi biri, ko'ngul arig'li-qi yomon qiliqlardin, hasad va kina mengizliklardin, uchunchi, ulamo va fuzalo do'stluqi. Bilgilkim, Abu Bakr Siddiq va Umar ibn al-Xattob raziyallohu anhumo Rasul alayhis-salomning qayin otalari erdilar, Oysa va Hafsa yo'lindin. Yana Usmon va Ali raziyallohu anhumo kuyovlari erdilar, Usmon raziyallohu anhu Ruqayya sababidin. Ul vafot bo'ldi ersa yana Ummi Kulsumni berdi, aning uchun Zummurayn atandi. Yana Ali raziyallohu anhu Fotima yo'lindin kuyov erdi teb aymishlar.

FI FAZOYILI ABU BAKR AS-SIDDIQ RAZIYALLOHU ANHU

Rasul alayhis-salom Mavlo taolo yorliqi birla Abu Bakr Siddiqni tafsil alifi birla laqabini oyat uza o'n yerda yod qildi. Qavluhu taolo. *Inna akramakum inda-llohi atqokum. Fa ma akrama va atqo tedi. Yana ulaika a'zamu darajatan tedi. Yana va man ahsanu dinan min man aslama vajhahu tedi. Yana Rasul aydi: Ar'afu ummatiy Abu Bakrin. Yana Jabroil xabar berdi: Inna Abu Bakrin a'rafu fis saman minhu fil arzi. Yana aydi: Asdaqukuma Abu Bakrii. Yana aydi: Avvalu man saddaqaniy Abu Bakrin. Abu Dardo' aydi: A tam-shi amama man huva xayrun minka va-llohi ma tala'atish shamsu va g'arabat ala ahadin ba'dan-nabiyyina afzal min Abu Bakrin. Yana aydi: Asbaqukum ilal-birri Abu Bakrin. Aymishlar, farishtalar Abu Bakr Siddiq teyurlar, ujmoqliq'lar Abulfazl teyurlar, arsh farishtalari Muttafiq teyurlar, Otiiq teyurlar, qamug'lar Shayx Vaqur teyurlar, yamanliklar Abho teyurlar, ummatlar xalifa teyurlar. Bular qamug' fazl va madh turur. Aymishlar, Abu Bakr avval imon kel-turganda Rasul haqqinda qirq ming oltun xarj qildi, ul nusrat qildi (201v), Usmon o'z molindin ming erning masolihin tugal berdi, taqi*

Aruma quyug'in sotqun olib, musulmonlarg'a vaqf qildi. Rasul ibn Abbosg'a aydi: Ushbu qo'lidin bir ujmoqliq' er chiqar. Ko'rdilar, Usmon chiqdi. Aymishlar, bir kun Rasul alayhis-salom ujmoq sifatin qilur erdi, biragu aydi: Yo Rasululloh, ujmoq ko'rklanurmu? Rasul aydi: Bale. Yana aydi: Meni yaratqan Izi haqqikim, Usmon bir manzildin yana manzilga borsa, ujmoq ko'rklanur. Usmon aydi: Menga g'avg'o kelturub, qasd qilmishlari kun Izi azza va jalla haz-ratinda o'n narsa borkim, manga berdi. Biri ulkim, to'rt erning biri menman islom ichinda; ikinci ulkim, Rasulg'a iki qiz yo'lindin kuyovman; uchunchi ulkim, hargiz zino qilmadim; to'rtunchi, sharob ichmadim islomda, johiliyatda; beshinchi, yolg'on so'zlamadim; oltinchi, Rasulg'a bay'at qilmishda so'ng ilkimni avrat andomg'a tegurmadim; yetinchi, Qur'onni jam' qilmishda tekma bir surani boshlamishda bir qul ozod qildim; sekkizinchi, Qur'onni jam' qildim; to'quzunchi, islom kelturmishdin so'ng hamisha qul ozod qildim, o'nunchi, Qur'onni bir rak'at namozda xatm qildim.

Aymishlar, Usmon yavloq rahim ko'ngulluk erdi. Ul kunkim, Usmong'a g'avg'o kelturdilar qullari o'tru turub sanchishaling tedilar, qo'ymadi. Kim ersa mandin ozorlanmasun, tedi. Kirib Usmonni o'lturdilar. Rasul alayhis-salom aydi: Manga me'roj tuninda bir olma berdilar, iki pora qildim, bir hur chiqti, so'rdum: Sen kimingsen? Aydi: Meni Tengri azza va jalla Arsh nurindin yaratdi, sening mazlum xalifang Usmoningman, tedi.

FAZOYILI ALI IBN ABU TOLIB RAZIYALLOHU ANHU

Qavluhu taolo. *Tarimum rukka'an sujjadan.* Rasul alayhis-salom aydi: Yo Ali, seni suvgan mo'min turur, seni dushman tutqan munofiq turur. Yana yorliqadi, Alining suvukluki yozuqni tugatur, netakkim o't o'tunni tugatur. Yana yorliqadikim, Alini ko'ngul birla suvsa maning ummatimning uchda birining savobi berilgay, taqi Alini har kim ko'ngli taqi tili birla suvsa ummatimning iki ulushining savobi berilgay, taqi Alini ko'ngli taqi joni birla suvsa qamug' ummatimning savobi berilgay. Imom Abu Hanifadin savol qildilar: Abu Hanifa, Alig'a ne teyursen? Aydi: Xaloyiqning

ko'pragi aning qo'rqunchidin (202r) islom kelturdilar. Rasul alayhis-salom aydi: Ilm uchun Odamni ko'rayin, fahm uchun Nuhni ko'rayin, hilm uchun Ibrohimni, quvvat uchun Musoni, zuhd uchun Isoni, mahobat uchun Muhammadni, amonat uchun Jabroilni, rahm uchun Mekoilni, yoruq kunni ko'rayin, oyni, yulduzlarni ko'rayin tesa bu yigitga boqsun, ya'ni *Ali karrama allohu vajhahu*.

Rivoyat qiturlar Alidin. Aydi: Qachon qiyomat kuni bo'lsa, *omanno bihi va saddaqla*, ilkimga bir qadah berilgay, nurdin, Havzi Kavsar bulog'inda turg'il, xaloyig'a suv bergil teb, suv bergaymen. Bir guruh kelgaylar, suv berayin tesam ularg'a, suv qatron bo'lg'ay. Ichmasmiz tegaylar. Ali ayyg'ay, sizlar iki xalifa sahobani dushman tutqan bo'lg'aymuisiz? Ayyg'aylar, bale. Ali ayyg'ay: Sizlar Kavsar-din yiroq keraksiz. Andin so'ng Arsh ostindin un kelgay, men taqi sen alardin bezarmiz. Ul zamon ortqaru ularg'a boqsam to'nguz bo'lmish bo'lg'aylar. Rivoyat qilurlar ustod Is'hoq Mamshoddin, rahmatullohi alayhi, qachon ujmohliqlar ujmohg'a kirib moidag'a o'ltursalar farishtalar xizmatida bo'lg'aylar, g'ilmon, vildon sharo-bi tahir tutqaylar. Ujmoh qushlari tubo yig'ochi uzra turluk un birla samay boshlag'aylar. Ul holda nuri bilgurgay, ujmohlig'lar tonglag'aylar, diydor vaqti bo'lmish. Bu tajalliy nuri bo'lg'aymu tegaylar. Taom yemakdin ilik tortqaylar. Arsh ostindan nido kelgay: Ey ujmohlig'lar, sizlar ishingizga bo'lung. Bu tajalliy nuri ermas. Fotimayi Zahro Ali Murtazoning yuzlariga boqsalar ularning nuri turur. Yana Is'hoq Mamshod aytur: Ujmohda o'lturub taom yeb, sharobi tahir icha boshlasalar ujmohdin yana bir nur bilgurgay, yemakdin ilik tortqaylar, tajalliy nuri turur teb. Nido kelgay: Ey Mavlning do'stlari, ishingizga bo'lung, tana'um qiling, tajalliy nuri ermas bo'lur, bu nur Abu Bakr Siddiq na'lining nuri turur. Bu darajadin ul darajaga ul kimarsaning nuri mo'minlar ko'nglinda bo'lsa, ujmohda aning mahobatining nuri mo'minlar ko'nglinda netak bo'lg'ay. Hikoyat. Bir kun bir uragut amir al mo'minin Umarga keldi, falon kim ersa mening birla zino qildi teb. Ul kim ersani kelturub so'rdilar ersa, tondi, zino qilmadim, tedi. (202v) Ul avrat ich to'nini ko'rguzdi, muna shahvat suyi teb. Umarga xabar qildilar. Ali o't kelturdi. Ul shahvat suyi teganning ustiga bostilar, pishdi. Ma'lum bo'ldikim, shahvat suyi ermas, urag'utning hiyla-

si ermish. Ul er tuhmatdin qutuldi, xotunning yolg'onchiligi bilgurdi. *Lav la Ali lahalaka Umaru*, ya'ni Ali bo'Imasa Umar halok bo'lg'ay erdi.

Taqi aymishlar, Mavlo taolo yorliqadi. Qavluhu taolo. *Vallazina ma'ahu* Abu Bakr turur. *Ashidda'u alal kuffaru* Umar tutur. *Ruhama'u baynahum* Usmon turur. *Tarohum rukka'an sujjadan* Ali turur. Bu sura tamom bo'lg'uncha to'rt sahobaning madh-u sifati turur. Bu yigirmi to'quz harf birla to'rt sahobani o'gdi, ya'ni yetmish iki til bor. Ul qamug' lug'atlar bu yigirmi to'quz harfdin tash ermas. Ma'ni tarafidin andog' bo'lurkim, bu to'rt sahobani yetmish iki til birla o'gmish bo'lg'ay. Har kim ersa bu to'rt sahobani dushman tutub, jafu aytur bo'lsa bu harflardin o'zga harf keltursun, ul harflar birla jafu aytusun. Bu harflardin azin harf kelturmasa bu harflar birla jafu ayyg'ani xato turur. Yana Rasul yorliqadi. *Ashabiy kan-nujumi fa biayyihim iqtadaytum ihtadaytum*. Ya'ni mening yoronlarim yulduzlar tek turur, qayu yulduzni ko'rub, qulavuz qilib yurudingiz ersa rost yo'lg'a yo'lichilar.

Munojot. Ilohiy, biz za'iflar yetti yuz kofirliqdin bezarmiz, taqi yetmish iki turluk havo va bid'atdin yiroqmiz, sening birligingga, Muhammad rasulullohning yalavochliqig'a muqarrarmiz. Bu to'rt sahoba taqi yoronlarining juftlarin taqi o'g'lonlarin suvarmiz, do'stlari birla do'stmiz, dushmanlari birla dushmanmiz. Xudoyo, sen bilursen bu so'zumiz haq turur, ko'nglimiz tilimiz birla bir turur. Bu e'tiqodimiz barakotidin qiyomat kuni mahshar yerinda bizni fasihah qilmayin habibing shafuati birla sirotidin salomat kechurub, sekiz ujmohg'a kiyurub, o'z diydoringg'a musharraf qilu ber.

MUHAMMAD RASULULLOH ARAB KOFIRLARIN IMONQA DA'VAT QILG'AN SO'ZLARI

Rasul arab kofirlarig'a Mavlo yorliqin tegurdi. Mavlioni bir teng, butg'a topunmang, meni Haq yalavochoi biling. *La ilaha illa-Ilohu Muhammadun rasulu-Ilohi* teng tedi, qabul qilmadilar. Rasul avval yetim erdi, yolg'uz (203r) darvish erdi, moli-mulki yo'q erdi. Necha mulotafat qildi, bir ezgu javob eshitmadi. Bu va'dalarga uyumadilar, Rasul so'zin hisobg'a tutmadilar, ulug'lari Rasulni

undab o'gut berdlar, aydilar: Eyyigit, sening otalarining bizing uza haqlari (bor) biz qamug' ularning millatidamiz. Bu ne ish tururkim otalarining dinin solding, ularning dinlarin xatog'a chiqarding? Agar telva bo'ldung ersa ayg'il, iloj qilaling, agar dev, pari ofati tekkan bo'lsa qurbon qilaling, sadaqa beraling, shafi' bo'laling. Agar darvishlikdin ersa mol jam' qilaling sanga. Agar kim ersaga oshiq ersang aning yarog'in qilaling-seni murodg'a teguraling. Agar jodulig qilg'an bo'lsalar botil qilduraling. Yo ulug'luq tama' qilur ersang ulug' qilaling. Agar kim ersada o'chung bo'lsa o'chungni olaling. Agar kimsadin qo'rqar ersang bo'lushaling, bu so'zlarni qo'yg'il, teb so'rdilar ersa, Rasul aydi: Telva ermasman, dev, pari chalmadi. Mol qazg'usi yo'q. Oshiq ermasman, kim ersa birla o'chum yo'q. Bu so'zlaringiz qamug' behuda turur. Mavlo taolo bir turur, men aning yalavo chiman. Meni sizga yubordi, mening hazrating'a ularni o'qug'il teb. Tamug'din qutulaling, ujmohg'a kiraling. Iki jahon ezguligin topaling tesangiz mening so'zumni qabul qiling, tedi. Kofirlar til ochib jaf o'qin otdilar. Yo'ldin ozg'an, Tengridin yong'an ichi qoralalar barchasi til, ko'ngul bir qilib Rasulg'a o'g'radilar. Kunda bir turluk hiyla qildilar, o'q otdilar, qilich tortdilar. Tengringing lutf-u inoyati va nusrati bo'Imasa bir yolg'uz muncha nopok birla netak muqovamat qilg'ay erdi. Necha o'gut berib ezguluk birla o'tru yuridi-bo'yunsumadilar. Umar islomg'a kirmak birla musulmonliq kuchlandi, lashkar yig'ildi, emdi sanchishg'il, teb farmon bo'ldi. *Faqtulul-mushrikina haysu vajadtumhum*. Cherik otlandi, sanchishtilar, birorda nusrat toptilar, birorda munhazim bo'ldilar. Mundag'in imong'a da'vat qildi. Rasulg'a kofirlar istihzo qildilar, ular besh erdilar: biri, Valid ibn Mag'iral-Hamroniy, ikinch, Osib ibn Doyil as-Shomiy, uchunchi, Asvad ibn Abdig'avs, to'rtunchi, Abu Rama Os ibn Vobak, beshinchi, Horis ibn Talotil. Haq subhonahu va taolo bu beshisin bir kunda halok qildi. Bu turlukkim, Jabroil keldi, Rasul birla o'lturdi. Ul gabrlar Ka'ba tegrasinda tavof qilur erdilar, Jabroil birla Rasul ura qo'ptilar. Abu Rama alayhil-la'na Jabroil o'ngidin kechti. Jabroil bir yashil yapurg'oq aning o'ngida soldi - iki ko'zi ko'rmas bo'ldi. Andin so'ng Abdig'avs kechti, Jabroil ishorat qildi, qorni uruldi, o'shul zamon tamug'g'a bordi. Andin so'ng Valid ibn Mug'ira

kechti. To'puqinda jarohati bor erdi. Jabroil ko'zi jarohatg'a tushdi ersa yorildi, halok bo'ldi. Andin so'ng Os ibn Vobak kechti, Jabroil azoqing'a nazar qildi, darhol tikan sanchti, etlari yorildi, darhol o'ldi. Andin so'ng Horis ibn Talotil kechti, tepasinga ishorat qildi, iring yig'ildi, bosh og'riqi tutti, aydi: *Qatalamiy rabbu Muhammadin*. Faryod qildi chiqib, o'larda qulig'a aydi: Muni tutug'il. Quli aydi: Kimni tutayin, kim ersa ko'runmas? Bu sifat halok bo'ldilar. Imom Muqotil aydi, raziyallohu anhu: bu ul oyat turur: *Inna kafa yakal-mustahzi'in*. Ammo muqassamlari o'n iki erdilar. Aymishlar: o'n olti erdilar. To'rt yo'lning boshinda o'lturub, Abu Jahl so'zi birla har kim Muhammaddin so'rsa aytur erdilar: Muhammad jodu turur, yalg'onchi turur, ani ko'rmaganingiz yaxshiroq. Yana Rasul alayhis-salom kishi qo'ymish erdi, andag'o'q har kim kecharda Muhammaddin so'rsa aytur erdilar: Ko'z andog'erni ko'rmishi yo'q, qulog'andog'er sifatini eshitmishi yo'q. Urug'-qarindoshni og'irlang, ota-onani ezgu tutung, Mavlo taolog'a toat qiling. O'tgan, kechgan bu so'z ularning so'zindin yaxshiroq turur, teb qamug'musulmon bo'ldilar. Mavlo taolo ul o'n oltini halok qildi. Rasul alayhis-salom yilda mavsimg'a kelib, qizil to'nlar kiyib xalqi imong'a undar erdi, Mavlo yorliqin tegurur erdi. Ush Xazraj, Ebqa, Farit va Batir birla sanchishur erdi, Asbodin Madinaga kettilar. Ush bu Xazraj ularg'a aytur erdi: Bu yovuqda Makkadin bir er chiqg'ay, oti Muhammad ibn Abdulloh, aning kitobi bo'lg'ay, anga uymag'aymiz, ani yer yuzindin ketargaysiz. Qachon Muhammad bilgurdi ersa da'vat zohir qildi. Ush Xazraj Makkaga keldi, haj o'tadilar. Ul vaqt kofirlar haj o'tayur erdilar, juhudlar (204r) Bayt ul-Muqaddasg'a haj arkonin kelturur erdilar. Ammo *Labbayka* ayturda *labbayka la sharika laka ila sharikun xuva laka tamliku va mayamliku* teyur erdilar. Ma'nisi ul bo'lur: Ijobat qilurmiz seni, sening o'rtoqing yo'q, magar ul o'rtoqkim, sen anga erkliksen, ul senga erklik ermas, ya'ni butlar senga o'rtoq temak bo'lo'r. Qachon Ush Xazraj haj o'tadilar ersa Rasulni ko'rdilar, xalqni imong'a da'vat qildi. Na'tu sifatini juhudlar aytqantek toptilar. Bir biringa aydilar: Ular bizga axshomlig'bermasdin burun biz ularg'a qushluq beraling. Ya'ni ular bizga topunmasdin burun biz ularga topunaling teb keldilar. Islom kelturdilar, Rasul birla bay'at qildilar.

Aydilar: Sening ishing bizing ishimiz turur. Biz senga muti'miz, ne tesang qilurmiz, biz va o'g'lonlarimiz senga yulug' bo'laling, tedilar. Iblis alayhul la'na ani ko'ra bilmayin tog'g'a minib chaqirdi: Ey odamiylar, bilmish bo'lung Ush Xazraj bu mazmum birla ahd qildilar. Bular mundin chiqmoq bo'ldi, ular andin kelmak bo'ldilar. Qilich birla sizlarni qitarlar. Quraysh kofirlari muni eshitib ularg'a bordilar, aydilar: Sizing birla bizing oramizda yog'iliq kerakmas, bizing dimimizda siz bizga qo'ngshisiz. Bu ahdda bor bo'lsangiz ularg'a xilof qiling, yo'q ersa bizing xabarimiz yo'q, teb yondilar, keldilar. Ul zamon qurayshdin bir yigit keldi kumush boshmoqlig'; Ush Xazraj aydi: Telim yil bo'ldi riyosat da'vo qilib yurursiz. Ilikka ko'tarib yurugu boshmoqingiz yo'q erdi. Bu yigit eshitib boshmoqini ularg'a sola berdi. Men sizga mizoh qildim, tedi. Yana biri aydi: Olmang, boshmoq erning izzati bo'lur. Ani olduq ersa dunyo izzatin olmish bo'lurmiz, tedilar. O'g'ul-qizlarin kelturub imong'a kiyurdilar. Andin so'ng telim xaloyiq kelib imong'a kirdilar. Ikinchi yil yana hajga kelmishda muallim qo'ldilar, Rasul bir sahobani ularg'a berdi. Uchunchi yil kelmishda: Dastur bersang ular birla sanchishaling, tedilar. Rasul alayhis-salom aydi: Mavlodin ular birla sanchishg'il teb manga yorliq bo'lmadi. Hikoyat. Toifning yigitlari tunla o'tturub so'zlashur erdilar, havodin un keldi: Voy, sizing uza uftanmasmiz! Bu Muhammad sizni (204v) islomg'a undar, siz anga uymassiz. Uch kecha mundog' un eshitilar ersa yigitlar qartlar'ga a xabar qildilar. Bir yarog'lig', tetik qulni kelturdilar, sekiz yukluk teva berdilar, Makkaga borg'il, Muhammadni ko'rgil teb. Borib Makkaga kirdi, avval Abu Jahlni ko'rdi, Muhammad xabarin so'rdi, Abu Jahl aydi: Yiroq turg'il, andin yolg'onchi joduluq yo'q, anga bormasang, ani ko'rmasang yaxshiroq. Yigit o'zini anga kelganin ayta berdi. Abu Jahl aydi: Tevalarni yuklari birla manga sotg'il, to'rt ming oltung'a olayin. Ammo Makkadin chiqmag'uncha oltunni bermasman. Munda bersam kerakmazkim, Muhammadga bersang, teb bermadi. Yigit ziyrak erdi, elni kezdi. Ali yo'luqti, aydi: Yo Ali, Muhammad haqinda ne teyursen? Ali aydi: Ko'rar ko'nglung bormu? Yigit aydi: Men ani ko'rgali kelibman. Ikilari Rasulni borib ko'rdilar, Rasul aydi: Ne yigitsen? Ne kelganingni, kimga yo'luqg'aningni senmu aytursen, yo men ayta

berayin? Yigit aydi: Siz aytng, Rasul ayta berdi. Yigit aydi: Dastur bering. Abu Jahl kofirdin borib molni olayin. Dastur berdilar, bordi. Abu Jahl manzarda o'tturur erdi, Rasul ham bordilar, Abu Jahl qulung'a eshik bog'latdi, borib qapug' qoqtilar. Aydi: Molni manga qayta bergil. Abu Jahl Abdulhakim erdi. Saroyi o'rtasinda bir ulug'tegirmon toshi bor erdi, qulinga aydi: Bu toshni ko'tarib boshim uza qo'yg'il. Bek yerga minib Muhammadning boshing'a urayin, bu ish bitsa seni ozod qilayin. Toshni ko'tardi, boshig'a qo'yayin teganda qudrati yetmadi, ko'targali tosh bir o'vrulub qo'lin bosti, qo'li yonchildi, og'riqing'a chidamadi. Mavlo taolo birla nazr qildi: Bu og'rig'din o'ngalsam molni Muhammadga berayin. Mavlo taolo shifo berdi, ul badbaxt ahdini buzdi, evga kirdi. Evda bir habashiy ko'rdi, qilich sug'urub aytur: Molni Muhammadg'a bergil, yo'q ersa o'rtangdin chopaman. Qo'rqub chiqti, molni tamom Rasulg'a berdi. Rasul Abu Jahl saroyindin chiqti. Xaloyiq og'zig'a tushdikim, Abu Jahl sofiy bo'ldi, ya'ni Muhammad tepa mayl etdi, Aydilar, agar sen Muhammadga mayl etib qaysang qamug'imiz qaytaling. Bir nechalari aydilar: Keling Muhammadga boraling, musulmon bo'laling. Abu Jahl bizga ulug'luq sotar. (205r) Ul burun musulmon bo'lsa andag'-o'q, ulug'luq sotqay, teb Rasulg'a keldilar. Yo'lda Abdulloh ibn ar-Rabg'uziy yo'luqti, qayong'a borursiz? tedi. Ular aydilar: Eshitdingmu, Abu Jahl musulmon bo'l'mish. Biz ham musulmon bo'lg'ali borurmiz. Ul aydi: Abu Jahlg'a boraling, borib Abu Jahlg'a aydilar: Eshitduk, Muhammad diniga kirmishsen. Abu Jahl aydi: Tengri saqlasun, men otalarim dinig'a xilof qilmag'ayman. Muhammad otalarimiz dinig'a xilof qildi. Abu Tolibg'a boraling, borib aydilar: Bu qarindoshing o'g'lig'a ayg'il, bu so'zdin qochsun. Abu Tolib aydi: Muhammad kelsun ko'raling. Undab kelturdilar, keldi, ularni bosib kechti, Abu Tolib taxting'a og'ib o'turdi. Aydilar: Ko'rgil, sening hurmatingni saqlamas, biz sening taxtingg'a og'masmiz, bu og'ib o'turdi. Abu Tolib aydi: Har kim rost so'zduk bo'lsa bo'yunigziga og'ar. Andin so'ng ular ayg'an so'zni Rasulg'a ayta berdi. Yana ayta tururlar; Muhammadning yalavochliqi rost bo'lsa bizga bir nishona ko'rguzsun. Aydi: Ne nishona tilarsiz? Aydilar: Saroy o'rtasinda bir ulug'tosh bor erdi, bu toshdin yig'och undurgil, havog'a uzasun. Bir shoxi

mashriq tepa, bir shoxi mag'rib tepa borsun". Rasul alayhis-salom duo qildi, toshdin yig'och undi ular tilagantek. Yana aydilar: Duo qilg'il, avvalg'i xoling'a borsun. Duo qildi, yana avvalg'i holing'a bordi. Aydilar: Yo Muhammad, ulug' jodu emishsen, teb imon kelturmaddilar. Yana aydilar: *U'bud aalihata na yavman va naahnu na'budu ilahaka sab'ata ayyamin*. Ya'ni sen bir kun bizing Tengrimizg'a topung'il, biz yetti kun sening Tengringg'a topunaling. *Va ta'budu ilahana sab'ata ayaamin hatta na'budu shahran*. Aydilar: Sen yetti kun bizing Tengrimizg'a topung'il, biz bir oy sening Tengringg'a topunaling, *Ta'budu shahran hatta na'budu sab'a*. Sen bir oy topunsang biz bir yil topunaling. Ular muni so'zlayurda Rasul titrayur erdi. Jabroil keldi. Bu surani kelturdi. *Qul ya ayyuhal-ka-firun laa'budu ma ta'budun*. Yo Muhammad, ayg'il: Ey kofirlar, siz topung'ang'a men topunmasman. *Va la antum aabiduna ma a'bud*. Siz ham men topung'ang'a topunmassiz. *Va la ana aabidun ma abadtum*. Men topung'uchi bo'lmag'ayman siz topung'ang'a. *Va la antum aabiduna ma a'bud*. Siz topung'uchi bo'lmag'ay (205v) siz men topung'anga. *Lakum dinukum va liyadin*. Sizing diningiz sizga, mning dinim menga. Aymishlar, bu hukm ul vaqtda erdikim, islom za'if erdi. Qachon islom qaviy bo'ldi ersa bu hukm ko'tarildi. *Faqtulul-mushrikina oyati birla mansux bo'ldi*. Aymishlar, Abu Tolib aytur erdi arablarga: *Ittibi'u ibna va in kaana sodiqan av kaziban ya'muru bimakarimil-axlaq*. Ya'ni qarindoshim o'g'li so'zinga bo'yunsunung, rost yo yolg'on ersa, aning uchun Tengri ezguligindin tash so'zlamas. O'zgalarga andog' aytur erkan o'zinga tegsa: *Inniy la'akrahu ya'luniy*, teyur erdi. Ya'ni men quyi bo'lub, kunum yuqori bo'lg'aning'a unamasman. Tafsirda bor, bir kun quraysh kofirlari yig'ilib, Muhammad rasululloh haqida kengash qildilar. Netak qilib bu Muhammad balosindin qutulg'aymiz. Ul zamon shayton bir qari kishi surating'a bo'lub oralarinda hozir bo'ldi. Birisi aydi: Keling, qamug'imiz bir bo'lub Muhammadni eldin chiqaraling. Shayton aydi: Bu kengash ermas, Muhammad tetik er turur, borg'an yerda tek turmas, yana o'run bo'lur, oxir sizga kelur. Yana biri aydi: Yerni suvg'a tegi qazaling, tosh, temur birla tom qilaling. Yer yuziga tegmishda tomni baland qo'poraling, bir eshik qo'yaling. Muhammadni ul tomg'a kirguzub eshikni

berkitaling. Anda-o'q ochliqdin o'lgay. Shayton aydi: Andog' bo'lmas, anga Jabroil kelib havodin chiqarur, bu so'z ermas. Har biri bir kengash aydi, Iblis qamug'ing'a javob aydi. Biragu aydi: Bo'lmasa qamug'imiz yig'ilib mukobara sanchib o'lturaling. Iblis aydi: So'z bu turur. Ittifoq qildilar, tonglasi kelib Muhammadni o'lturur bo'ldilar. Bir kim ersa bu holdin Abu Tolibg'a xabar berdi, Abu Tolib Rasulni undab aydi: Quraysh kofirlari seni o'lturgali kengash qilmishlar Men eson erkan kim ersa qasd qila bilmagay, teb bu baytni o'qiyu boshladi:

Manga arza qilding' arig' dinni san,
Ammung kirmaguncha o'lub simig'a.
Mazammot so'kush or agar bo'lmasa,
Ulanma teyursen tamug' qinig'a.
Ko'nisen bilursen, berursen o'go't,
Ulayur meni ul jinon aynig'a.
Yovumag'ay, vallohi, sanga bu arab,
Kirur erdim erksiz Izi dinig'a.

Hikoyatda kelur, Rasul alayhis-salom Toifg'a bordi, ularg'a islom arza (206r) qildi, qabul qilmadilar. Andin yondi, Haramg'a tegdi ersa namozg'a turuqti, Qur'on o'qiyu boshladi. Parilar g'orlarinda Qur'on ovozin eshittilar, tingladilar, xushlanib, borib qavmlarig'a xabar qildilar. Aydilar: Qur'on, eshittuk, Muhammadga inmish. Biz anga imon keltururmiz, siz ham qamug' Mavlo yorliqin ijobat qiling. Qavlulu taolo. *Qolu ya qavmana innaa sami'na kitepan ila qavlithi ajibu da'iyal-lohi va aaminu bihi*. Parilar yig'ilib Makkaga keldilar, Haram qatinda turudilar, hurmat tutub, bostirib kirmadilar. Mavlo taolo bir xurmo yig'oching'a ilhom berdi, Qamug' ko'kdin qumrulub Rasulg'a keldi, parilar kelganin xabar berdi. Rasul aydi: Kim bo'lg'aykim, aning ko'nglinda xardala andozasincha kir bo'lmag'ay manga kelsun, parilarga boraling. Abdulloh ibn Mas'ud aydi: Men borayin. Bir idishga suv oldi, bir necha xurmo birla tun ichinda parilarga keldilar. Rasul alayhis-salom u yerda bir xat sizdi. Abdulloh ibn Mas'udg'a aydi: Ul xat ichinda o'lturg'il, chiqmag'il. Chiqting ersa qiyomatg'a tegi sen meni, men seni ko'rmagaymiz. Andin so'ng Rasul parilarga borib yorlig' tegurdi. Qabul qildilar,

imon kelturdilar. Tahorat, namoz ta'lim berdi, shari'at ahkomin o'gratti. Abdulloh ibn Mas'ud aydi: Men ul xat orasinda o'lturur erdim, Parilar guruhi mening yonimdan kechar erdilar, Rasul alayhis-salomg'a borib, imon kelturur erdilar, so'zlashganlarin eshitur erdim. Qachon subh vaqti bo'ldi ersa Rasul yonib keldi, Mani ura turur ko'r'di, O'ltursang ne bo'lur? tedi. Aydim: Yo Rasululloh, men qo'rqtum. Rasul aydi: Xatdin chiqsang ko'rushmas erduk, taqi aydi: Qatingda suv bormu?. Aydim: Xurmo ichinda ezilmish suv bor. Aydi: Xurmo arig' turur, suvi ham, teb olib tahorat qildi, namoz o'qidi. Bir necha parilar Rasulg'a kelib uydilar, namoz qildilar. Parilar aydilar: Yo Rasululloh, biz sizing yoningizdin ketmagay erduk, ammo yo'limiz yiroq turur. Ozuqlarimiz yo'q, ko'luklarimiz ham yo'q. Rasul alayhis salom yorliqadi, yilqi qora tezaqlarini ko'luklaringizga yem qiling. Taqi so'ngaklar sizga yem bo'lsun. Aning uchun tezak birla so'ngak birla istinjo qilmoqni shari'at unamadi. *Va la yastanji biravsin va la biazmin*. Foyda. Mavlo taolo yorliqar. Qavluhu taolo. *Va ma yantiqiu (206r) anil-hava*. Ya'ni Muhammad Rasululloh tilagincha so'z so'zlamadi, botinini nafsdin yiroq tutduq, nafs tilagincha so'z so'zlamadi, zohirini ko'lakakulli shay'in mistluhu yuka va la yuhzo. Tekma narsaning ko'lakasi aning mengizi (turur). Izi azza va jalla yorliqar: Men habibim Muhammadga ko'laka bermadim, o'n sekiz ming olam aning mengizi bo'lmasun teb. Yuz yigirmi to'rt ming payg'ambar yibordim, qamug' olamlig'larg'a xabar qildilarkim, mening mengzakim yo'q, men o'z azamatim va jalolatim birla Muhammadg'a ko'laka bermadim. Qamug' xaloyiqlar bilsunlarkim, yer yuzinda habibimning mengzaki yo'q. Muhammadning payg'ambarliqi ichinda naziri yo'q. Odamni Havvo birla ujmohdin chiqardim ersa, Muhammad ummatini yuz yil yozuq qilmishdin so'ng bir tavba birla ujmohg'a kiyurgaymam. Idrisga nujum ilmin berdim ersa, Muhammad rasulullohni tamug' yulduzlaridin o'ta kechurdum. Yulduz yuzushi aning uza bo'lmasun tedim. Agar Nuh payg'ambarga kemi berib suvda yurutdum ersa, Muhammadga Buroq berdim, havo uza yurutdum. Nuh alayhis-salom o'z qavmig'a azob tiladi: *Rabbi la tazar alal-arzi minal-kafirina dayyaran*, teb. Valekin Muhammad

alayhis-salomni kofirlar tishin sindurdilar, burmin buzdilar, ularg'a hidoyat tiladi *Allohumahdi qavmiy fa innahum ya'lamu*, tedi. Dunyoda dushmang'a mundog' shafqat qildi. Qiyomatda do'stg'a netak shafqat qilmag'ay? Agar Ibrohimni xalqg'a imom qildim ersa: *Inniy ja'iluka lin-nasi imaman* tedim. Muhammad Mustafoni me'roj kechasi Bayt ul-Muqaddasda tamom payg'ambarg'a imom qildim. Yetti qat ko'k farishtalariga imom qildim. Agar Namrud o'tini Ibrohim sovutdum ersa, tamug' o'tini Muhammad Mustafoning ummatlarig'a sovutg'ayman, netakkim baqirni temur uza bukartek. Qolan nabi alayhis-salom. *Iza vaza'al-mu'minu qadamahu alasiroti taxmudun-nari tahtaqadamayhi qama yaxmudu*.

Sulaymon payg'ambarg'a mulk berib, yel anga musaxxar qildim ersa, Muhammad rasulullohning ummatig'a andag'-o'q mulk berdim. Mulk ul turukim, qachon ko'ngli sinuq, ichi yirtuk mazlum mo'min oh teb ichi bag'ridin sovuq damin ersa, shahodat kalimasin aning birla qo'ldosh (207r) qilsa, ko'z yumub ochg'uncha ul sovuq yel ul kalimani Arshg'a tegurgay. Agar Muso qavmini etaklari o'limayin tilsiz tengizdin kechurdum ersa, Muhammad Mustafo alayhis-salomni tamug'din andog' kechurgayman, o'limish etaklari qurutmag'ay. Qolan nabi alayhis-salom. *Tamurru toifatuh min ummatiy alas-siroti la yajiffu savbuhu minal-araqi*. Agar Fir'avnni daryog'a g'arq qildim, nes-u nobud qildim, agar Iso payg'ambarlarg'a to'rtinch qat ko'kka oshurdum ersa Muhammad Mustafo alayhis-salom ul maqomg'a tegdi. Netakkim Mavlo taolo yorliqar, *fa kaana qoba qavsayni av adna*. Bilgilkim, iki jahonda izzat bo'ldi, Muhammad rasululloh barokotinda bo'ldi. Ko'rmasmuse Ibrohimni o'tga soldi ersa Jabroil alayhis-salomg'a ujmoh xullasini kelturdi, uzasinda bitiklik erdikim: *La ilaha illa-llohu Muhammadun rasulu-llohi*. Ne kiydi, o't ani kuydirmadi. Muso alayhis-salom tengiz qirog'inda kelib kirgali mayl qildi ersa Jabroil alayhis-salom keldi, aydi: Ey Muso, Muhammadni shafi' kelturgil. Muso aydi: Bahaqqi Muhammad, tengiz suvi yorildi, yo'l bo'ldi. Qavluhu taolo. *Fan falaqa fa kaana kultu firqin katovdil azim*. Muso salomat kechti. Dovud alayhis-salom temurdin yoriq yetar bo'lsa Muhammad rasululloh otin aytsa temur yumshoq bo'lur erdi.

Qiyomat kuni Mavlo taolo hech kim ersa birla so'z so'z-lashmag'ay, Muhammad Mustafo shafolat qilmag'uncha. Rasul alayhis-salom diydor ko'rmaguncha hech payg'ambar ko'rmagay. Muhammad ummatlari ujmohqa kirmaguncha hech payg'ambar ko'rmagay taqi kirmagay. Qolan nabi alayhis-salom. *Avvalu man yaqra'u babal-jannati Bilalun.*

Savol: Muhammad ummati barchadin ilgaro' ermish. So'ng kelmoqg'a hikmat ne erdi?

Javob: Qachon ulug'lar kelur bo'lsalar burun kichiklar kelurlar, andin so'ng ulug'lar kelurlar.

Taqi javob: Muhammad sallalohu alayhi va sallam ummatlari barchadin azizroq turur. Tuproqda ko'p yotmasun teb barchadin so'ng chiqardi.

Javob: O'zga ummatlarning aybini Muhammad ummatlari bildilar, bularning aybini o'zga ummat bilmasun teb so'ng chiqardi.

Hikoyatda (kelur): Bir kun Oyisha raziyallohu anho va an abiho va alo zavjaho so'rdi: *Ya rasula-llohi anta aqsanu... minniy va ana amlahu minhu.* Ya'ni Yusuf mendin ko'riklukrak erdi, ammo men Yusufdin tuzluqroqmen tedi. Oyisha yana so'rdi: **(207v)** Bu ne temak bo'lur, teb. Rasul aydi: *Liannahu fitnatun lil-aalamin va ana rahmatun lil-aalamin.* Yusuf olamlig'larg'a fitna erdi, men olamlig'larg'a rahmatlig'man. *Va ma arsalnaka illa rahmatan lil-aalamin.* Kim Yusufni ko'rsa sevinch aning ko'nglinda harom bo'lur erdi, netakkim meni ko'rsa harom bo'lur. Mavlo taolo Ibrohim payg'ambarni bizga ota tedi, netakkim Mavlo taolo yorliqar: *Millata abikum Ibrohim.* Yana Muhammad rasulullohni ota temadi, rasul tedi. Hikmat ne erdi?

Javob: Qavlulu taolo. *Laqad ja'akum rasulun min anfusikum azizun.* Javob ul tururkim, agar Muhammadni sizga ota tesam, qiyomatda aning tanuqluqi sizing haqingizda ravo bo'lmag'ay erdi, aning tanuqluqindin mahrum qolg'ay erdingiz. Ey Muhammad, men seni ummatg'a rasul tedin. Yarin sen tanuqluq beiril, men qabul qilayin. Sen tilagil men berayin, Sen shafolat qilg'il, men yorliqayin. Aymishlar, ma'siyat bitigan farishta kunda kelur, toat bitigan farishta kunda kelmas, o'zga farishta kelur, mo'min o'lguncha. Qachon qiyomat kuni bo'lsa, *omanno bihi va saddaqqna,*

Rasul alayhis-salomg'a tanuqluq berurlar. Ammo ne'mat bitigan farishta doyim kelur, ma'siyatg'a tanuqluq berur. Mavlo taolindin yorlig' bo'lg'ay: Dunyoda zino tanuqluqi to'rt erdi, o'zga muomila tanuqluqi iki erdi, yolg'uz tanuq so'zin tinglamas erdi, sen ham yolg'uzsen, tanuqluqingizni tinglamasmen. Qamug' olamlig'lar bilsunlarkim, men karimman. Yana Haq taolo yorliqar: Qiyomat kunining sifati ul tururkim, qarindosh qarindoshdin qochar, er juftdin qochar. Qavlulu taolo. *Yavma yafirru mar'u min axihi va ummihi va abihi va sohibatihi va banih.* Agar Rasulni ota tesam ul ham qochg'ay erdi, nafsingizdin, rasulingiz tedin. Muhammad sizdin, siz andin qochmasunlar, teb. Qavlulu taolo. *Laqad ja'akum rasulun min anfusikum azizun.* Hech kim ersa o'z nafsindin qochmaslar. Lojaram Rasul alayhis-salom ummat birla qolur, ishorat ulkim, Rasul alayhis-salom ummat birla qolur, ishorat ul tururkim, Rasul alayhis-salom bizing nafsimizdin bo'lsa ul bizga bosh bo'lur, biz ayoq bo'lurmiz.

Ey mo'minlar, eshittingiz mukim bosh ujmohta bo'lub, azoq tamug'da bo'lsa Rasul alayhis-salom bizing boshchimiz turur, har oyina ul ujmohta bo'lg'usi, biz mutobi' **(208r)** xodimlar qamug' ujmohta bo'lg'aybiz. Yana bir qiroatda *min anfu-sikum hasaban va nasaban o'qimishlar.*

Foyda. Kofirlar Rasulg'a munkar erdilar. Subhonallohi, biz bori musulmonbiz. Va yana kofirlar bir pora yig'ochni yo'nub, Tengri teyu topundilar. Mundog' aziz arig' boshchini payg'ambarliqaga qabul qilmadilar. Alhamdu li-llohi, biz bari yeti yuz qirq yildin so'ng iqror qilib *Muhammadun rasulu-lloh* teyurbiz. Ilohiy, andog'kim, Muhammad rasulullohning do'stluqun dunyoda bizga karomat qilding. Aning shafoati birla musharraf va mukarram bo'lmoq sen Alloh ro'zi qilu ber. *Omin ya rabbil olamin.*

RASUL ALAYHIS-SALOM ISHORATI BIRLA OY YORILG'AN SO'ZLARI

Iqtarabatis-sa'atu van shaqqal-qamar. Ma'nisi ul bo'lurkim, Mavlo taolo yorliqar: Qiyomat yovudi, oy yorildi. Aymishlar, burunqi ummatlar o'z payg'ambarlarig'a so'rar erdilar: Qiyomat

qachon kelur? teb, ular javob aytar erdilar: Qachon oxir uz-zamon payg'ambari chiqsa qiyomat bo'lur, teb. Mavlo taolo yorliqar: Muhammad Mustafo sallallohu alayhi va sallam chiqti. Oy yorildi, qiyomat yovushti, teb. Qavluhu taolo. *Iqtarabatis-sa'atu van shaqqal-qamar*. Bu sura aymog'ing'a sabab ul erdikim, Rasul alayhis-salom bir tunla Makka ichinda yuriyur erdi. Makkaliklar odati ul tururkim, ular tunla yuriyurlar. Qamug' ishlarin tunla bitururlar, kunduzlar g'oyat isig' bo'lur. Aning uchunkim, kecha Rasul alayhis-salom yuriyur erdi. Abu Jahl bir juhud birla Rasul alayhis-salomg'a yo'luqti. Aydi: *Ari-liy aayatan va illa alavtu ra'saka*. Ya'ni manga bir mo'jiza ko'rguzgil, yo'q ersa boshingni olurman, tedi. Rasul alayhis-salom aydi: Ne tilayursen? Abu Jahl aydi: Oy yorg'il, ko'rayin, tedi. Aning uchunkim, joduluq yerda asar qilur, ko'kda asar qilmas. Rasul alayhis-salom barmoqi birla ishorat qildi ersa oy yorildi. Yorimi o'rinda turdi yana bir yorimi iroqroq borib turdi. Abdulloh ibn Ma'sud aytur: Biz Rasul alayhis-salom birla Minoda erduk oy yorildi, tog'ning orting'a bordi. Yana Abdulloh ibn Umar va Sayr ibn Mut'im taqi o'zga sahobalar, rizvanallohi va Hadiqa va Sayr ibn Mut'im taqi o'zga sahobalar, rizvanallohi alayhim ajmain, oy pora bo'lg'anin barchalari ko'rdi. Abu Jahl aydi: Yo Muhammad, bu oy yana qovushusun. Muhammad aydi ersa yana qovushti. Abu Jahl aydi: Emdiga tegi yer yuzinda jodu erding, emdi ko'kka joduliqing asar qildi, teb imon kelturmadi. (208v) Sendek jodu yo'q, tedi ammo ul juhud musulmon bo'ldi. Yana bir mo'jizasi Merojg'a oshmoq erdi.

QISSAYI ME'ROJ AN-NABIY SALLALLOHU ALAYHI VA SALLAM

Subhanal-lazi asro biabdihi laylan minal-masjidil haromi. Ma'nisi ul bo'lurkim, arig' turur eshdin va qo'ldoshdin, munazzah turur juftdin, o'g'ul-qizdin. Ul Izi aza va jalla eltti qulini, ya'ni Muhammad rasulullohni bir tun ichinda Makkadin Baytul-Muqaddasg'a. Aymishlar, Rasul sallallohu alayhi va sallam bir kecha Ummahoni evinda yotur erdi. Ummahoni Abdul Mutallibning qizi erdi. Rivoyat qilur Molik ibn Sa'sa'a, Rasul alayhis-salom yorliqadi:

Yotur erdim keligli keldi, ko'ksumni yordi, yuragimni chiqardi. Oltun tasht kelturdi, ichi to'la imon hikmat erdi. Yuragimni aning ichinda yordi, yana o'rinda qo'ydi. Andin so'ng bir Buroq kelturdi, oq tukluk, xachirdin kichikrak, eshakdin ulug'raq. Aydlilar: Yo Rasululloh, Buroq bu turur, Ko'zi etgan yerda ayoqin qo'yar erdi, meni anga mindurdi. Jabroil mening birla erdi, avvalg'i qat ko'kka tegdimiz ersa, dastur tiladi, kimsen? tedilar. Jabroil aydi: Men tururman. So'rdilar: Sening birla kim bor? teb. Aydi: Muhammad Mustafo bor, tedi. Seni angamu yibordilar? teb so'rdilar. Hov, tedi. Qapug' ochtilar, kirduk Odam alayhis-salomni kurdum. Bu kim? teyu so'rdum. Jabroil aydi: Otang Odam turur. Odamg'a salom qildim, javob aydi: Yaxshi o'g'lum, yaxshi payg'ambar, tedi. Ikinchi qat ko'kka tegduk Qapug' oching! tedi. Hamon tariqa qapug' ochtilar, kirdum, Isoni, Yahyoni alayhimas-salom ko'rdum. Bular kim turur tedim ersa Jabroil alayhis-salom aydi: Iso va Yahyo turur. Ularg'a salom qildim, javob aydlilar: Yaxshi payg'ambarsen, tedilar. Uchunchi qat ko'kka tegdim, Jabroil alayhis-salom dastur tiladi hamon tariqa qapug' ochtilar, kirduk, Yusuf payg'ambarni ko'rdum, Aydim: Yo Jabroil, bu kim turur? Aydi: Qarindoshing Yusuf turur, alayhis-salom. Anga salom qildim, javob berdi. Aydi: Nima ko'rkluk payg'ambar turusen! To'rtunchi qat ko'kka yetdimiz, hamon tariqa qapug' ochtilar, kirduk. Idris payg'ambarni ko'rduk. Kim turur? teyu so'rdum. Jabroil aydi: Qarindoshing Idris payg'ambar turur. Anga salom qildim, javob aydi: Nima ko'rkluk payg'ambar turur, qarindosh! tedi. Beshinchi qat ko'kka tegdimiz, qapug' ochtilar, kirdim, Horun payg'ambarni ko'rdumiz. Kim turur? tedim. Jabroil aydi: Horun payg'ambar turur. Oltinchi (209r) qat ko'kka tegduk, hamon tariqa birla qapug' ochtilar, kirduk, Muso payg'ambarni ko'rdum. Anga salom qildim, aydi: Nima ko'rkluk payg'ambar turusen! Andin kechtim ersa Muso payg'ambar yig'ladi. Nega yig'layursen? tedi. Un eshitildi, aydi: Ilohiy, bu Muhammad o'g'lon turur. Mendin so'ng xalqg'a yubording, muning ummatlari mening ummatlarimdin burunroq ujmo'hg'a kirgay. Yetinchi qat ko'kka tegduk ersa hamon tariqa qapug' ochtilar, kirduk. Ibrohim payg'ambarni ko'rduk, so'rdum: Bu kim turur? aydi: Otang Ibrohim payg'ambar. Yana Sidrat ul-

muntahoni ko'rdum. *Inna samarataha mistu qilali hajrin*. Hajr otlig' qabila bor. Qilla qilaling jam'i turur. Qilla bir idish bo'lur, oltmish botmon suv kirur. Ani hajr qabilasiga mansub qilmishlar, ya'ni Sidrat ul-muntahoning yig'ochlarining mevalari ul andozalig' turur, tekma yopurg'ochlari pil qulog'ig'a mengzayur. Aning tubinda to'rt ariq ne? teb so'rdum. Aydi: Bu iki ich ariq ujmohta oqar, bu iki tash ariqlar - biri Nil daryosi turur, biri Furot turur. Andin so'ng iki idishlar kelturdilar, birinda xamr yana birinda sut, manga arza qildilar. Xammni unamadim, sutdin ichtim, yaxshi qilding, tedi.

Savol: Rasul alayhis-salomni me'rojg'a oshirmoqg'a hikmat ne erdi?

Javob ul tururkim, Mavlo taolo yorliqar: Biz Muhammadni oshurduk, bizing oyotimizni, qodirliqimizni, vohidliqimizning nishonlarini ko'rguzmak uchun. Taqi javob ul tururkim, qachon Qoba qavsayn maqomig'a tegdim ersa yorlig' keldi: Quyi boqg'il! Dunyo olamindag'ilarni bir zarra tuproq ko'rundi, arsh, aflokni, ujmohti, tamug'ni o'zindin ostin ko'rdi. Ya'ni Ey Muhammad, qamug' yaratilmish mavjudotni sening uchun yarattim, sen bo'lmasang erdi, aflok bo'lmag'ay erdi. Qavlulu taolo. *Lav laaka lama xalaqtul aflak*. Ey Muhammad, bilgil tamom narsalarkim, yaratib tururman, sening azoqing ostida tuproq tururlar. Aymishlar, Jabroil alayhis-salom ul suratuza yaratilmish tururkim, iki qatla o'zin ko'rguzdi, o'zga vaqtlarda Vahiyat al-Kalbiy suraticha ko'rdi. Bu Vahiyat Rasulning yoshdoshi erdi. Jabroil so'rdi Muhammadg'a: Men senga kelsam kimning suraticha kelayin? Rasul: Vahiyat suraticha kelgil, temish erdi, ammo Jabroilni farishtalik suraticha iki yo'li ko'rdi, ul ko'kning etaklari (209v) yerga qovushg'an yerda kun tug'artek, o'ng yoninda ujmohting Buroqin minib, Buroqning bir qo'li, buti Qofdin naru, bir qo'li, bir buti Qofdin, Buroqning ko'ksi Jabroil ko'ksi birla. Kun nuri tushmish erdi, bir zarra kun tushmas erdi. Rasul alayhis-salom Jabroilga aydi: *Ma zanantu anna-illoha ta'ala xalaqa xalqan mistaka*. Mavlo taolo yaratmish xalqda sentek bo'lmag'ay. Jabroil aydi: *Kayfa va lav ra'ayta Isrofla va qad ra'aytu va fi vajhihi uxduvan minad dam'n lav ajraytas-sufuna fiha lanajavta*. Aydi: Isrofilni ko'rsang kerak erdi, men bori ko'rdum, yoshi yuzunda daryo bo'lub oqar, ichinda

kemi yurusa bo'lg'ay. So'rdum: Yo Jabroil, mundog' yig'lamoqi ne uchun turur? Aydi: Iblisga ul hol tushmishdin beru ko'zimiz yoshi qurumish yo'q. Qavlulu taolo. *Va laqaad ra'ahu bil-ufuqul mubin*. Yana ikkinchi farishta suraticha Jabroilni Sidrat ul-muntahoda ko'rdi. Qavlulu taolo. *Va laqaad ra'ahu nazlatan uxro anda sidratil-mantaha*. Tamom qanotlarini yozmish. Aymishlar, Jabroilning olti ming qanoti bor. Tamomisi zumurrad birla, yinju, gavhar birla, qizil yoqut birla murassa'. Olam ichinda daraja bergay, Jabroil anga shafi' qilg'ay.

Mekoilni ko'rdi, ming qurla Jabroilidin qaviyroq. Tasbihi bu turur: *Subhanal-mubdiul-xoliq subhanal-mun'imul-roziq*. Rasul alayhis-salomni me'rojg'a eltmak, farishtalarni ko'rguzmak taqi payg'ambarlarni ko'rguzmak erdi. Qavlulu taolo. *Li nuriyaka min aayatinal kubro*.

Farishtalarni ko'rmishin eshittik, emdi payg'ambarlarni ko'rmishin eshitgil. Rasul alayhis-salom yorliqar: Qachonkim Bayt ul-muqaddasg'a tegdim ersa Buroqdin indim, Masjidi Aqsog'a kirdim, iki rak'at namoz o'tadim, salom berdim. Yorlig' keldi: *Qablqka min rusulina*. Boqtim, payg'ambarlarni ko'rdum. Biragu qo'pti, aydi: *Alhamdu li-llahil-lazi ittaxazaniy safiyyan va ja'alaniy xalifatan va lil-nalaikati masjidan va ja'ala Havva zavjatiy solihatan afisan va abaha lanal-jannata anharan va qusuran va na'iman va tarada aduvviy shaytonan rajiman, fa alimtu annahu Aadamu alayhis-salam*. Yana biragu qo'pti, aydi: *Alhamdu li-llahil-lazi ittaxazaniy najiyyan va da'avtu qavmiy alfa sanatin illa xamsina aaman laylan va naharan fa lam yazidhum du'ay illa firoran fa qultus tag'firu rabbakum, fa lam (210r) yu' minu illa qalilan ... va yalidu illa fajiran kaffaran... fa qultu rabbi la tazar alal-arzi minal-ka firina dayyanan fa ajaba du'ay va ahlaqa qavmiy buran, fa alimtu annahu Nuhun alayhis-salam*. Ya'ni hamd-u sano ul Izi azza va jallag'akim, meni najiy yaratti, ellig' eksuk qavmimni imong'a da'vat qildim, qochmoqdin o'zga narsa orturmadim, dinlaringizni qo'yung, yozuqingizni yorliqayu tilang. Izi azza va jalla ukush yorliqag'an turur, tedim imon kelturmadilar, illo ozdurg'aylar, arig'siz, yarog'sizdin o'zga tug'urmagaylar. Aydim: Iziyo, yer yuzinda dayyor kofir qo'yimg'il. Mavlo taolo duomni ijobat

qildi, qavmumni halok qildi. Bildikim, Nuh payg'ambar ermish, *salavotullohi alayhi va sallam*. Yana biragu qo'pti, aydi: *Alhamdu li-llohil-lazi ittaxazaniy xalilan va ja'alar-rajula fiyya daqiqan va ja'ala nara Namruda alayya bardan va salaman va aslaha zavjatiy kaanat aqiman va bashsharaniy bi Isma'la va Is'haqa nabiyyan va ahlaka aduvviy Namrudan, fa alimtu annahu Ibrahimu alayhis-salam*. Ya'ni hamdu sano ul Izi azza va jallag'akim, meni Xalil tedi, qavmni mening uchun yorliqg'a evurdi, Namrud o'tin bo'ston qildi, o'g'ul-qiz tug'urmas evlukumni salohg'a kelturdi Ismoil va Is'hoq otlig' payg'ambarlar o'g'ullardin sevinch berdi, dushmanim Namrudni halok qildi. Bildikim, Ibrohim payg'ambar ermish, *salavotullohi va salomuhu alayhi*. Yana biragu qo'pti, uzun bo'yluq, haybatlik, ilking'a asoni oldi, aydi: *Alhamdu li-llohil-lazi kallamaniy takliman va a'toniy tis'a aaytin mufassalatin ajiban va katepal-olvaha mufassaran muniran va javaza qavmiy minal-bahri va la yabtallu qadamuhu va la tinan fan fajarat minal-hajari isnata ashara aynan va anzalla Fir'avna va qavmahu va ma hada, fa alimtu annahu Musa alayhis-salam*.

Ya'ni hamd va sano ul Izi azza va jallag'akim, mening birla so'zlashti, manga ajab mo'jiza berdi, alvoh berdi, mening qavmimni daryodin salomat kechurdi, toshdin o'n iki oqar buloq chiqardi taqi qavmimga yandoq shakari, buldurchin eti ro'zi berdi, dushmanim Fir'avni qavmi birla g'arq qildi. Bildimkim, Muso payg'ambar ermish, *salavotullohi alayhi va sallam*.

Yana biragu qo'pti, aydi: *Alhamdu li-llohil-lazm a'toniy az zabura va alanna liyal hadida va saxxara liyal-jibala vat-tayra va a'toniy siyasatal-hukmi val-qazo va ahlaka ala yadiy (210v) Jaluta, fa alimtu annahu Davudu alayhis-salam*. Ya'ni hamdu sano ul Izi azza va jallag'akim, manga Zabur otlig' kitob berdi, temurni ilkimda yumshoq qildi, tog'larni manga musaxxar qildi, hukm uchun silsila karomat qildi, Jolutni ilkimda halok qildi. Bildimkim, Dovud alayhis-salom turur. Yana biragu qo'pti, aydi: *Alhamdu li-llohil-lazi saxxara liyal-jinna val-insa var-riha vash-shaytona va allamaniy mantiqat-tayri va a'toniy mulkan minal-mashriqi ilal-mag'ribi, fa alimtu annahu Sulaymonu alayhis-salam*. Yana biragu qo'pti, uzun ermas, o'rta bo'yluq, keng

ko'zluk, isig' suvdim chiqmishdek. Aydi: *Alhamdu li-llohil-lazi lam yaxluqni min nufatin haziratin va axrajaniy bil-hujjati min batniz-zahidatil-aabidati va bidu'ay ubriul-akmaha val-abrasa va uhyil-mavta biizni-l-lahn, fa alimtu annahu Iysa alayhis-salam*. Bu payg'ambarlar bu so'zlarni aydilar ersa g'ayratim tebrandi, ura qo'ptum, aydim: *Alhamdu li-llohil-lazi qaranas miy ma'as mihi hina xaalaqal-arsha val-kursiyya val... va katepas miy ala bibil-jannati va ala qulli varaqatin va xillatin, valhamdu li-llohil-lazi rafa'as mifi kulli yavmin xamsa marrotin minal-xutbati val aazani val-iqomati, valhamdu li-llohil-lazi samma ummamiy xayral-ismi va satara alayhim uyubahum va lam yag'uzzahum ru'usal-muslimin, valhamdu li-llohil-lazi ja'lal arza masjidan va tahuran aynama adrakatni-yas-salatu tayammamtu va sallaytu, valhamdu li-llohil-lazi ahallal-g'anaima va ja'alar-rizqa tahta rumhiy va ja'alaz-zulla vas-sag'ora ala man xolafaniy, valhamdu li-llohil-lazi rafa'an nara an qurbani ummamiy, valhamdu li-llohil-lazi a'toniy kavasaran va maqoman mahmudan va min ahadin minal-anbiya va qad ja'ala da'vatahu fid-dunya va ana iddaxartu da'vatiy shafa'atan li ummamiy*. Ma'nisi ul bo'lurkim, aydim: Hamdu sano ul Izig'akim, Arsh, kursini, hijoblarni yaratorda mening otimni o'z oting'a qo'sha yorliqadi, ujmoq qapug'ing'a mening otimni bitidi. Ujmoq yapurg'og'larinda, hullalarinda mening otimni bitidi, hamdu sano ul Izig'akim, manga Qur'on yibordi, hamdu sano ul Tengrigakim, mening kechmish, kechmaduk yozuqlarimni yorliqadi, hamdu sano ul Izig'akim, umatlarimni o'zga ummatlardin behrak tedi, ayblarimni o'rta yorliqadi, payg'ambar o'linda rasvo qilmadi, hamdu sano ul Izi azza va jallag'akim, yer yuzini manga masjid qildi, tuproqni manga arig' qildi, qayda (211r) namoz vaqti bo'lsa tayammum qilib namoz qilurman, hamdu sano ul Tengrigakim, ummatlarim qurbonini o'tg'a ravvo ko'rmadi, hamdu sano ul Tengrigakim, Kavsarini manga ato qildi, Maqomi mahmudni manga karomat qildi. Qamug' payg'ambarlar tilagini dunyoda tiladi, men dunyoda tilamadim, oxiratda mening shafa'atim uchun qo'ydim. Rasul alayhis-salom yorliqar, men bu minnatlarni tilayurda payg'ambarlar boshlarin irg'ayu Haza xatmun-nabiyyin fazulta alayna teyur erdilar.

Ey sovchilar tamg'asi, munungtek karomat birla bizlardin ortuq bo'ldungteb. Yana aydilar: *Sal luummati-kal-yusra*. Ummatingg'a ish o'ngayliqin, yuk engillik in qo'lg'il, tedilar. Ba'zi payg'ambarlarni mening birla ko'kka og'durdi, ba'zisi dunyo ko'kinda, ba'zisi ikkinchi qat ko'kda, alo hazo oshtilar. Muso payg'ambar alayhis-salom mening birla beshinchi qat ko'kka oshti, anda qoldi.

Aymishlar, Jabroil birla ko'kka oshurda Jabroilning ko'ng-liga tushdikim, mundog' karomatlig' Muhammadni ko'kka oshurubman, teb Mavlo taoloning sog'ing'anin Muhammadg'a xabar berdi. Qachon Sidrat ul-muntahog'a tegdilar ersa Jabroil turdi, Rasul alayhis-salom Jabroilning ilkin tutub ilgaru tortdi. Andog' haybatlig', azamatlig' Jabroil Mavlo taolo haybatinda yoy kirishitek inchkaldi. Aydi: *Yo Rasululloh, ma manna illa lahu maqomun ma'lumun*. Bizning maqomimiz belguluk turur, mundin o'ta kechsak o't kelib bizni kuydurur, tedi. Rasul alayhis-salom aydi; Jabroil Muhammadni oshdurg'uchi, sen ersang mundin ustun nega eltmassen? Jabroilni anda qo'ydi, o'zi podshohlar mengizlik kuvanu yurub Arshg'a oshti. Andin o'ta kechti. Yetti qat ko'k farishtalari ani ko'rub tonglashtilar, aydilar: Ilohiy, bu kim turur? Mundog' yolg'uzun istoxliq birla boru turur. Arshni ko'zga ilmas, kursiga boqmas, ujmojni, tamug'ni saqishg'a olmas, bu kim turur? Yaratqan Izimizdin yorlig' keldi: Ey mening farishtalarim, bu ul tururkim, qachon mening arig' otim eshitsangiz *La ilaha illa-Ilohu Muhammadun rasulu-Ilohi* teb so'nguncha aning oti turur. Muhammad rasululloh Arshdin, kursidin kechti, hijoblardin o'ta chiqdi, hijoblar ko'r di, **(211v)** ul maqomg'a tegdikim, Mavlo taolo yorliqar: *Fa kaana qoba kavsayni av adna*. Ya'ni iki yoy andozasincha tenglik Mavloning azamati va jalolatig'a yovushti, andin ustun maqom yo'q. Nabiyi mursal, malaki muqarrab tegmas erga tegdi. Ammo Mavlo taolog'a zot soridin yovushti temak ravo bo'lmas, kufr bo'lur kim Haq taoloni yuqori, quyi, ostin, ustun, ilgaru, ortg'aru birla yod qilsa kofir bo'lur. *Na'uzu bi-Ilahi min zalik*.

Savol: Yog'a tashbih qilmoqda hikmat ne turur? Javob: Arabning odati bor, ikagu do'st bo'lub ahd qilsalar iki yo keltururlar. Tekma birining boshini boshi birla, quloqini quloqi birla, bo'g'zini bo'g'zi

birla, qabzasini qabzasi birla, kirishini kirishi birla tuzun teng tutarlar Aymishlar: mundog' kim bu iki yoning boshlari, bag'irlari, tutqalari, kirishlari tuz muvofiq tururlar. Biz ikaguma biri birimiz birla muvafaqat qilduq. Biri birimizg'a xilof qilmag'aybiz, ahdni buzmag'aybiz. Ey Muhammad, men ham sening birla ahd qildim, sen mening buyurg'an amrlarimni biturgil, men ham sening tilagingni berayin. Sen duo qilg'il, men ijobat qilayin. Sen ham qo'lg'il, men ham berayin. Sen shafolat qilg'il, men bag'ishlayin. Bu kun men sendin xushnudman, yorin yozuqlaringni sening shafloating birla bag'ishlayin, sen ham ummatdin xushnud bo'lg'il. Qavlulu taolo. *Va lasavfa yu'tika rabbika fa tarzo*. Andin so'ng tilaklarin tiladi, ijobat bo'ldi. Yorlig' keldi: O'zga ne tilaging bor? Aydi: Ilohiy, tilagim — ummat turur. Yorlig' keldi: Yetmish ming osiyini senga bag'ishladim. Rasul alayhis-salom sajdag'a bordi. Yorlig' keldi: Ne tilayursen? Aydi: Ilohiy, ummat tilayurmen. Xitob keldi: Uch ulushda ikisin bag'ishladim. Yana sajdag'a bordi, yorlig' keldi: Ne tilayursen? Aydi: Ilohiy, ummat tilayurmen. Xitob keldi: Olti ulushda beshin bag'ishladim, agar bir ulushin bag'ishlasam tongla mahshar kunida xaloyiq yig'ilimishda sening shafloating mening rahmatim qayda bilgurgay. Bu bir ulushi tursun, tongla sen tilagil, men berayin. Duo qilg'il, men ijobat qilayin. Shafolat qilg'il, men bag'ishlayin. Qamug' olamlig'lar sening sha-floatingni, mening rahmatimni mushohada qilsunlar. **(212r)** *Va lasavfa yu'tika rabbuka fa tarzo*.

Aymishlar, qachon Muhammad Rasul sallallohu alayhi va sallam maqomg'a tegdi ersa, xitob keldi: *Ya Muhammad asni alayya*. Bizga sano ayg'il. Payg'ambar sallallohu alayhi va sallam aydi: *La uhsi sana'an alayka anta kama asnayta ala nafsik*. Ilohiy, sening sanongni ayta olmasman, sen-o'q, sano ayg'aysen. Ey Muhammad, *ana afsahul-arbi val-ajami* degan sen ermasmussen? Ilohiy, ul da'vim arab va ajam birla erdi. Bu kun arab va ajamni yaratqan, Mavlo hazratinda ne so'zlagu ishim bor. Yorlig' keldi: Ey Muhammad necha andog' ersa o'gmishingcha sano ayg'il. Rasul alayhil-salom og'oz qildi: *At-tahiyatu li-Ilahi vas-salavatu vattayyibatu*. Xitob keldi: Ey Muhammad, burun salom turur andin so'ng kalom. Mavlo taolo yorliqadi: *Assalamu alayka ayyuhan*

nabiyyu va rahmatu-llohi va barakatuhu. Rasul alayhis-salom Mavlo taolo salomiga javob aydi: *Assalamu alayna va ala ibadi-lahis-solihin*. Salom bizga taqi Mavlo taoloning ezgu qullariga.

Bashorat: qachon kim Mavlo taolo azza va jalla Rasulg'a salom aydi ersa Rasul alayhis-salom Mavlo taoloning saloming'a men yolg'uz javob aytayin teb tamom yaxshi qullarni o'ziga qo'ldosh qildi. *Assalomu alayna va ala ibadi-lahis-solihin*. Farishtalar Mavlo taolo salomin eshitib, Rasul alayhis-salomning javobin ko'rub, tamomilari sevunub aydilar: *Ashhadu an la ilaha illa-llohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluhu*. Aymishlar, ul kecha Mavlo taolodin ummatlari yozuqin qo'ldi ersa *Rabbana la tuzig'qulubana ba'da iz hadaytaia va hab lana*. Yana aydi: *Rabbana la tuaxizna in nasiyna av axta'na*. Yana aydi: *Yo zuq to'rt turluk turur: unutub qilg'an, xato birla kechgan, qasd birla qilg'an yozuqni yorliqadi*. Tilasam azob qilsam, ammo avf qilmoq, kechurmak sevukrak tedi. Ba'zilar aymishlar, xitob keldi: *Yo Muhammad, sen ne tilasang beraling*. Ul holda bu hojatlilar tiladikim, bu oyatlarda bor. Taqi aymishlar, yorlig' keldi: *Ey Muhammad, bizing farmonimizni qullarg'a tegurdung, ne tedilar? Aydi: Ya rabb sami'na va ata'na, tedilar, ya'ni eshitdik, bo'yunsunduq tedilar*. Yorlig' keldikim, ey Muhammad ularni muti' teding, ammo men azal ichinda bir anchasin osiy tedim, bir anchasin (212v) zoniyy bildim, bir anchasin chog'ir ichguchi bildim, bir anchasin harom yeguchi bildim, bir anchani benamoz bildim, bir anchani kohili namoz teyu bildim. Ammo sen bu kun muti' teding ersa men ham muti'g'a tuttum. Ular arig'siz ersa sen arig'sen, ular osiy ersa sen muti'sen, ular jofiy ersa sen vofiy sen. Hazratimda sening ancha tenglik hurmating bor. Nechama ular yuz ming jafu va xato qilsalar sen ularni arig' teyu kelsang men tamom jafolarin va xatolarin yorliqab, arig'qa chiqarg'ayman. Aning uchunkim, do'st do'stg'a xilof qilmas bo'lur. Sen bizing yorliqimizda xilof qilmading, biz ham sening tilagingda xilof qilmag'aymiz. Yorlig' keldi: *Ey Muhammad, sen ummatingg'a yorliqanmoq tilayursen, ummatingni mundin burun yorliqab tururmen*. Yorliqamasam imon bermagay erdim, *La ilaha illa-llohu Muhammadun rasulu-llohi* teguga ne yarog'lari bo'lg'ay erdi, ko'rmasmussen, mug'lar, juhudlar, tarsolar, butg'a topung'anlar

aytmalar, ummatingning tilin shahodat uza men yuritdim, ma'rifatni ma'rifatg'a dalil qildim, Ka'ba ularning yo'li, ularni yorliqamasam qurbon oyi, ramazon oyi, jum'a va jamoat, haj va umra, iyd va arafa, zakot, sadoqat, barot tuni, qadr tuni *Qul huvallohu ahad* surasi ato bermagay erdim, tamug'din qutqarmag'ay erdim. Sekiz ujmoq, hur va qusur va vildon va g'ilmon, anhor va ashjor, basotin va rayohin bir yon, so'klu qushlar, tahir sharobi va'da qilmag'ay erdim. *Ey Muhammad, mening jabborlig'im seni sharofatg'a kelturdi*. Sening sharofating bizni ma'rifatg'a kelturmadi. *Ey Muhammad, ummating ne tilayur? Aydi: Iziyo, unutib qilg'an xato birla kechgan yozuqlarin yorliqayu tilayurlar*. *Rabbana la tuaxizna in nasiyna av axta'na*. Yorlig' keldi: *Kechurdum*. Qolan nabiy alayhis-salom. *Rufi'a an ummatiy al-xatau van-nisyana va mas tukrihu alayhi*. Odam zillat uzr qildi, kechurdim. *Aydi: Fa nasiya va lash najid lahu azman*. Unutib qildi, qasd qilmadi, tedi. Ummatingning bilmasda qilg'anin uzr aydi. *Innamat tavbatu alal lazina (213r) ya malunas su'a bijahalatin*.

Ey Muhammad, ummating taqi ne tilayurlar? Aydi: Iziyo, bizga og'ir yuk yuklamagil, burnaqilarg'a yuklamishdek teyurlar. Rabbana va tahmil alayna isran kama hamaltahu alal-lazina min qabliha. Yorlig' keldi: *Naza'u anhum israhum*. Og'ir yukni alardin ko'tardim tedi. Burnoqlarning tavbasi o'lum erdi, bizing tavbamiz nadam turur, burunqilar yozuq qilsalar elinlarinda yo uylarinda, yo eshiklarinda turur erdi. Namozlari o'z mulklarindin tash, masjidlariindin tash ravu bo'lmas erdi, suv yo'qinda tayammum ravu ermas erdi. Er xotunig'a taloq bersa ul xotun o'lmagincha o'zga xotin ravu bo'lmas erdi. Bu borcha Muhammad ummatidin ko'tarildi. Yorlig' keldi: *Ey Muhammad, og'ir yuk nechuk yuklayin*. Ro'za tutg'ang'a ro'zasin unutturdum, yeyim-ichim birla qorni to'ydi ersa angurdum, ro'zasin buzmadim, savobin o'ksutmadim, tamom ishlarin o'ngay qildim. Safarda arig'siz suv yo'luqti, arig'in arig'sizin bilmasalar, tahoratlarin ravu tedim, ularning bilmasligi uza hukm qildim, bilmayin qildilar teb. Uzr aydim, avf qildim, arig'siz suvni arig'qa tutub, yozuqlarin kechurdum. Taqi boshlari yostuq tegmishda kuchlari, quvvatlari manga so'zlagu, tavba qilg'u yarog'i qolmasa ko'ngullari birla tavba qilsa avf qildim, kechurdum

tegaymen. Sandin bir ishorat bo'lsa mandin yuz ming bashorat bo'lg'ay. Sandin hojat bo'lsa mendin ijobat bo'lg'ay. Yana xitob keldi: Ey Muhammad, sen tilamagil, do'st do'stdin tilamas bo'lur, do'st hukm qilur. Sen hukm qilg'il, men berayin Aydi: Ilohiy, ummatlarim ko'tarmagutek yuk yuklamagil. *Rabbana va tuhammitna ma la toqata lana bihi*. Buma yuk ermish. Muhabbatdin so'ng firoq tamom yukni ko'targaymiz, ammo firoq yukin ko'tara olmag'aymiz. Firoq ne temak bo'lur? Un eishtildi: Ey qul, sonsiz toat qilding, ammo bizga kerakmassen. Bas, jahdlar qilding, hazratimizg'a yaramassen. Ilohiy, barchag'a sabr qilg'aybiz, ammo qati'atg'a sabr qila olmag'aybiz. Xitob keldi, duongni ijobat qildim. Qati'atdin amon berdim, namozlarin iki rak'at qildim. Tilayu kelding, beshar vaqt bag'ishladim, besh namoz qildim, ani ham tilasang bag'ishlayur erdim, tilamading. Xabarda kelmish, (213v) Rasul alayhis-salom aydi: Ellik rak'at namoz buyurdi har kunda, aytdim. Muso alayhis-salom yo'luqti. Ne buyurdi? tedi har kunda, Muso alayhis-salom aydi: Men sandin burun xalq birla mubtalo bo'ldum. Bani Isroilda biragu ummating bu yukni ko'tara olmag'ay. Yong'il, yengilrak qo'lg'il, tedi. Yondim, qo'ldum ersa besh namoz bag'ishladi. Aydi: Ey Muhammad, yong'il, yana qo'lg'il. Yondim, yana qo'ldum ersa yana besh namozni bag'ishladi. Qirq namoz qoldi. Yana keldim. Muso payg'ambar andag'-o'q javob aydi. Yana yondurdi. Beshar namoz qo'ldi, besh namoz qoldi. Bayoqitek yana so'rdi. Yong'il, qo'lg'il, tedi. Aydi: Mavlo hazratingg'a ko'p uftanurman, tedi. Yonmadim, besh namoni qabul qildim. Yorlig' keldi: Ey Muhammad, senga ellik namoz farz qildim, qirq besh namozni ummatlaringg'a bag'ishladim. Maning hukmum aznamas. Ummatlaringg'a ellik namoz uchun ellik savob berur erdim. Saning uchun qirq beshini bag'ishladim, yuklarin engilladim, ammo savoblarin o'ksutmadim. Har bir namozlaringa o'n savob bitidim. Besh namoz bo'ldi ersa ellik savob bo'ldi. *Man ja'a bil-hasanati ja lahu ashru amsaliha*. Yana xitob keldi: Ey Muhammad, ummatlaringg'a ul muomala qildim-kim, o'zgalar birla qilmadim. Ellik namozlarin beshga indurdum, savoblarin o'ksutmadim. Azin ummatlarning zakoti iki yuz kumushda qirq erdi, ummatlaringga besh buyurdim, savoblarin tugal berdim. Ulari ichinda bir haj

kelturmakni farz qildim, tamom yozuqlari uchun bir tavba qabul qildim, bo'lg'an yozuqlarin bag'ishladim. Andin so'ng Muhammad rasululloh hojatlarin yig'di, bulg'an tilaklarin birikturdi, boshqa-boshqa tilamadi. Barchani yig'di, lyasinga urub, uru qo'pti, aydi: Ilohiy, bu qamug'ni manga bag'ishlag'il. Sanga ziyon yo'q, ularga asig' bor. *Va'fu anna*. Xitob keldi: *Va ya'fu anis-sayyiat*. Yana aydi: *Vag'fir lana*, kechurdung ersa yong'il, kim ersaga aymag'il, pardamiz yirtilmasun, fasihah bo'lmaling. Xitob keldi: Ey Muhammad, rahmat qilg'li ermasman, ertadin-o'q rahmat qilg'uchiman. *Va kaana bil-mu'minina rahman*. Sening duong bipni rahmatg'a kelturdi, balki doyim bizing rahmatimiz seni duog'a kelturdi. Yana aydi: (214r) *Anta mavlana va valiyyuna va hafizuna va nasiruna*. Erkligimizsensen, sovcimizsen, nusrat berguvchimizsen. Xitob keldi: *Zalika bi anna-Iloha mavlalat lazina aamanu*. Yana aydi: *Fan surna alal qavmil kafirin*. Yana aydi: *Va kaana haqqai alayna nasrul mu'minnin*. Bu erda bir ko'rkluk bashorat bor. Ey Muhammad, biz ummatlaring imoniga tanuqluq berduk. *Val-mu'minuna kullun aamana bi-llahi*. Ularning birla do'stluq tutunduq, ularni o'g'duk. Do'st do'stini o'gar bo'lur, imon kelturmishingga shukr qilduq, do'st shukr qilur bo'lur, ayblarini yopq' bo'lur. Ularg'a rahmat qilduq, do'stga rahmat qilur bo'lur. Foyda. Muhammad aydi: *Fag'fir lano*, bizdin kechurgil. Ma'lum tururkim, Muhammading yozuqi yo'q. Ummatni duo vaqtinda o'zindin ayirmadi, o'zini ularg'a qata yorliqadi, aydi: Agar ayb va jafu ichinda birla ermaslar sening inoyating saridin ularning birlamen. Ilohiy, rahmat qilg'il. Yorlig' keldi: Ey Muhammad, sanga ummat ersa manga qul ermasmu? Sening shafqating mening rahmatimdin ortuq ermas, sening shafqating vaqtiy turur, maning rahmatim azaliy turur. Sen vaqtiy shafqat birla bularni yorliqan-mamoq bo'lsa erdim *Omana ar-rasulu* oyatin yibormagay erdim. *Li-llahil hamdu ala ma an'ama va avla va laxul-hamdu vas-sanau fil aaxirati val-ula haziran amran*. Muhammad so'zladi, Mavlo eshitti, Maliki muqarrab orada yo'q erdi. *Fa avha ila abdihi maavha*. Ul kecha yeti qat ko'kni, yeti yerni, ujmohni, tamug'ni, dunyoni, kavnayn olamini Muhammadg'a ko'rguzdilar, ko'zi uchi birla boqmadi. Qavluhu taolo. *Ma zag'al basaru va ma tag'o*.

Aymishlar, Muhammad rasululloh mundog' tashriflar, karomatlar bulub yonar bo'ldi ersa, xitob keldi: Ey Muhammad, xalq orasida rasm bor, do'st do'stqa safar qilib yonar bo'lsa bir hadya, ya'ni bo'lak ola borurlar. Bu kun bizing hazratimizg'a safar qilding, ummatlaring'a olu borg'il. Ilohiy, ne bo'lak eltayin? Yorlig' keldi: Sen bizing hazratimizda bizga sano ayding, *Attahiyatu li-llahi vas-salavatu vat-tayibatu*. Ul holda men sanga salom aydim. *Assalamu alayka ayyuhan nabiiyyu (214v)* va *rahmatullohi va barakatuhu*. Yana mening salomimg'a javob ayding: *Assalamu alayna va ala ibadi-llahis solihin*. Farishtalar ani eshitib aydilar: *Ash-hadu an la ilaha illa-llahu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluhu*. Tedilar: Bu kalimotni jam' qilg'il, ummatlaring'a bo'lak eltgil, iki rak'at namoz o'tab tuganmishda, namoz oxirinda bu kalimotni aysunlar. *Va nahnu nusabbihu bihamdika va nuhaddisu lak*. Yetti qat ko'k farishtalari ibodat qilib savob bo'lur ersa, ul iki rak'at namoz o'tab so'nginda bu kalimotni o'qig'anlarga oncha savob bergayman, teb yorliqadi. Taqi aymishlar, Muhammad rasululloh yonib, Arshg'a tegdi ersa malaula'la farishtalari aydilar: Bu Muhammad Mavdo taolog'a, bas, aziz qul turu, bu maqomg'a oshti qiyomatg'a tegi o'zga kelgusi yo'q. Biz o'tru yurub salom qilaling, qutluq diydorin ko'raling, qutluq so'z eshitaling. Qiyomatg'a tegi farishtalar orasinda bizga mufoxarat, kuvanch bo'lsun, teb yo'lin saqlab turdilar. Muhammad rasululloh yonib keldi, o'tru yuridilar, salam qildilar. Aydilar: Yo Rasululloh, bizga o'gut bergil, ul sening o'guting birla o'zga farishtalar orasinda bizga yuz suvi hurmat bo'lsun, tedilar. Rasul alayhis-salom boshin quyi solib, tafakkur qilib, o'tru ko'tardi, aydi: Zinhor bu hazratda mundin so'ng va *nahnu nusabbihu bihamdika va nuhaddisu lak* teyu o'kunmang. Farishtalar ani eshitib, uyotlig' bo'lub, yondilar. Aymishlar, yorlig' bo'ldi: Muhammad ujmohg'a kirsun, do'stlarining bo'stonini tamosho qilsun. Kirdi, sekiz ujmohni ko'rdi, mo'min qullarning o'rmini ko'rdi. Idris payg'ambar o'tru yuridi, Muhammad rasulullohga salom qildi, salomimga javob aydi: Minglik senga, ey Idris! Aydi: Yo Rasululloh, bu qamug' bor, ammo orzum ul turur, koshki sening ummating bo'lsam. Rasul alayhis-salom aydi: Ey Idris, bu maqomg'a tegmishda manga

ummat bo'lmoqni nedin orzu qilursen? Aydi: Yo Rasululloh, ujmoh ichinda qayu ko'rkuk bo'stong'a ko'zum tushsa ko'nglum tilar, ul bo'ston manga bo'lsa teb. Yorlig' keldi: Ey Idris, ul bo'ston (215r) Muhammad ummating turur. Yana bir ko'rkuk, bezaklik saroylar ko'rarmen, koshki bu saroylar manga bo'lsa teb orzu qilurman. Yorlig' kelur: Ey Idris, ul saroylar Muhammad ummating turur. Yana andin kecharman, ko'rkuk, jamollig' hurlar ko'rarmen, sifat qilg'andin ortuq. Koshki bu hurlar manga bo'lsa teb ko'nglumda kechar. Yorlig' kelur: Ey Idris, ul hurlar Muhammad ummati uchun yaratilmish turur. Ayturman: Ilohiy, bu Muhammad ummatlarig'a bu toat birla bu savoblar toparlar. Xitab kelur: Ey Idris, Muhammad ummatlari Ixlos surasin o'qiyurlar, tekma yeti kunda odina namozi o'tayurlar, bu darajotg'a musharraf bo'lurlar. Qachon yonib ujmohdin chiqarg'a bo'ldum, bir bo'lak hurlar olmalar, ayvalar orasinda boshlarin chiqarib aydilar: Yo Rasululloh, qutluq azoqing bu maqomg'a tegdi, qiyomat bo'lmag'incha o'zga kelgung yo'q, bizni ummatlaringda biragu birla nikoh qilib borg'il, tedilar. Rasul alayhis-salom aydi: Sizni mening muazzininim Bilol habashiy birla nikoh qildim. Aydilar: Yo Rasululloh, ummatlaringda muncha tenglik oqlar bor erkan, bizni qora Bilol birla ahd qilursen. Rasul boshin quyi soldi yana yuqori qildi, aydi: Siz mundog' dersiz, man borib Bilolg'a aytayin, sizlarni unayurmu, tedi. Foyda, aymishlar, Mavlo azza va jalla ujmoh hurlarin yaratmish kundin beru o'zlarini bezayurlar, tamom bo'lmish yo'q. Qiyomat kun bo'lmishda tamom ko'rkulari tamom bo'lur, ammo menglari bo'lmas uchun ko'rkulari bezaklari o'ksuk turur. Qiyomat kuni bo'lsa Bilol habashiyning qoralig'in tamom ujmoh hurlarig'a nuqta-nuqta ulashu berurlar, har biriga biror mengar, aning birla ko'rkulari tamom bo'lur. Andin so'ng' Jabroilg'a yorlig' keldi: Muhammadni do'stlar bo'stoniga kigurdung, do'stlar o'rmini ko'rdi, emdi dushmanlar zindoniga kigurgil, ani ham ko'rsun. Keldilar, Molik boshladi, tamug'qa kirdilar. Har tamug'ning kalidini Molik kelturdi, azoblarin ko'rdi, turluk yozuqlarni, turluk-turluk (215v) qinayurtar. Bir qapug'qa yettilar, kalidi yo'q. Aydi: Ey Molik, bu qapug'ni ochg'il! Molik aydi: Bu eshikning kalidi manda yo'q, tedi. Rasul alayhis-salom aydi: Kalidi qayda turur? Aydi: Bu eshikninu kalidi sening qutlug'

barmoqning turur, ishorat qilg'il, ochilsun, tedi. Rasul alayhis-salom ishorat qildi, eshik ochildi. Bir er, bir xotun qinayurlar, ko'zlaridin yosh oqar. So'rdi: Sen kimsen, mundog' uqubat biria mubtalosen? Aydi: Ey Muhammad, men sening otang Abdullohman. Xotundin so'rdi: Sen kimsen? Aydi: Men seni to'quz oy qornimda ko'targan Aminaman, teb ikagu yig'layu, bizga shafolat qilg'il, teb yoliboru boshladilar. Rasul alayhis-salom ularg'a kuyub, qo'lg'alu sog'indi. Yorlig' keldi: Ey Muhammad, zinhor tamug'liqlar uchun narsa tilamag'il. *Va la tus'alu an ashabil-jahim*. Aydi: Ilohiy, otam, onam turur. Yorlig' keldi: Ota-onani tilayur ersang sanga berali, ammo ummatni qo'lmag'il. Ummatingni biz bilaling, ummat qo'larsan, ota-onani qo'lmag'il. Aydi: Ilohiy, bu ikagu uchun kim kofir erurlar, seni birilagan yuz ming taqi ortuqroq mo'minlarni tamug'da netak ko'rayin. Manga ummat kerak, ota-onadin kechdim, tedi. Aymishlar, Rasul alayhis-salom yorliqadi: Otam Abdulloh, onam Amina bizga shafolat qilg'ay teb umsunur erdilar, qachon yuz evuru yondim ersa un qo'pordilar: Oh, bu era ayrilmoq, tedilar. Rasul alayhis-salom qazg'ulug' bo'ldi. Xitob keldi: *Ya Muhammad lav anniy hakamtu ala nafsiy an la ag'fira limushrikii liajlita va lakin ushaffi'uka fi alal-kafirina va laanjaytuhim liajlita va lakin ushaffi'uka fi ummatika hatta tarzo*. Ma'nisi ul bo'lur, yorliqadi: Ey Muhammad, men hukmu qazo qildimkim, kofirliq uza borg'an mushrik yorliqamag'ayman teb, yo'q ersa seni kofirlar uza shafolat qilg'uchi qilg'ay erdim, barchani saning uchun qutqarg'ay erdim, lekin ummating uza shafolat berdim, sen xushnud bo'lmag'incha **(216r)** bag'ishlag'ayman tedi. Ul holda Rasul alayhis-salom aydi: Manga ul kerak. Rasul alayhis-salom yorliqar: Andin so'ng yondim, mag'rib haddinga, labulqag'a indim. Ul shahar turur, o'n iki ming darvozasi bor. Har bir darvozada o'n iki ming soqchi bor. Bir tun ichinda o'lg'incha ularg'a navbat tegmas. Bir darvozadin yana bir darvozag'acha bir yig'ochliq yer erur, ularga islom arza qildim, musulmon bo'ldilar. Mundag'-o'q mashriq sari Chabulsag'a bor-dim, Ya'juj va Ma'juj'ga yovuq erdilar, Islom arza qildim, musulmon bo'lmadilar. Yana Chin viloyatig'a bordim, Xitoy shaharlariga. *Va min qavmi Musa ummatun yahduva bil-haqqi va bihi ya'dilun*. Ular qaviy erdilar, Musodin so'ng fohisha ishlar zohir qildilar,

xaloyiq ul sababdin qazg'ulug' bo'ldilar. Mavlo taolo ularga yer ostidin yo'l berdi, anga kirdilar. Ular to'quz sibt erdilar, yerga kirdilar, nurdin yorug' erdi, aning yoruqluqinda borur erdilar. Yeyim-ichimlari o'nlarinda quzug'lug', yeyur erdilar. Iki tamom yil, ba'zi aymishlar, to'quz oy yer ostida yuridilar. Andin so'ng ul yerda yilon, chayon ko'p bo'ldi. Rasul alayhis-salom ularg'a tegdi, islom arza qildi. Biz sizdin burun imon kelturduk, musulmon biz, tedilar. Shari'at ahkomin ularg'a aytu berdi. Anda ajoyiblar ko'p ko'rdi. O'g'lonlari yilon, chayon birla o'ynayur erdilar. Aymishlar, maliklari, sultonlari yo'q erdi. Rasul alayhis-salom so'rdilar ersa, aydilar: Biz bir-birimizga kuch qilmasbiz, biz zulm etmasbiz, bizga dod berguchi hojat ermas. Yana ko'rdi, uylarning endaklari bir-birindin adizrak ermas, barchasi teng turur. Rasul alayhis-salom so'rdi ersa, aydilar: Yoy tunlarida endakda yoturbiz, tun yeli barchag'a teng tegsun teb, ortuq, o'ksuk qilmasbiz. Yana ko'rdi, ellarinda tarozu yo'q. Rasul alayhis-salom ani so'rdi, aydilar: Biz bir-birga insof berurbiz, ortuq olmasbiz, o'ksuk bermasbiz, necha tilasa oncha berurbiz, tarozu hojat ermas. Yana ko'rdi, masjidlari **(216v)** uylaridin yiroq, go'ristonlari yovuq. Ani ham so'rdi, aydilar: Savobi ortuqroq bo'lsun, teb masjidni yiroqroq ettuk. Va har zamon chiqsamiz o'luklarni ko'rub ibrat olaling, teb go'ristonni yovuq qilduq. Yana ko'rdi, oshliq, tariqlari barchaning saroyinda yig'il-mish. Quy-qo'zilari tog'da yuriyur, qo'ychisi yo'q. Anima so'rdi, aydilar: Oshliq, tariq barcha bir saroyda yig'arbiz. Qayumizg'a kerak bo'lmishincha olib yeyurmiz. Qachon et, yog' kerak bo'lsa borib qo'y-qo'zi kelturub yeyurbiz, bir-birga ortuqluq qilmasbiz, yarashib yeyurbiz. Yana ko'rdi, qizliq kishi o'g'ulluqg'a borur. Mening qizim bo'yg'a tegdi, o'g'lungg'a berg'il, teyur. Mavlo taolo ularning teqrasinda oqar qumdin qo'llari tun-kunduz oqar, har yilda bir kunginar, oqmas. Kimning' ko'ngli tilasa kirur, kimning ko'ngli tilasa chiqar. Andin so'ng ular aydilar: Yo Rasululloh, biz shari'atning tamomiy ahkomini biturbiz, ammo Ka'ba asru yiroq turur, hajg'a borg'incha er qariyur, yana yonib kelurga umr vafo qilmas Bu haj farizasi bo'ynimizda qolur, netak qilaling? tedilar. Rasul alayhis-salom ular uchun duo qildi, Mavlo taolo ijobat yorliqadi: Haj kunlari bo'lsa yerga erklik farishtaga yorlig' bo'lur.

Yer tomularin tortar, yo'nlari qisqa bo'lur. Bot ro'zgorda kelib haj o'tayurlar, yana yonib borurlar.

Hikoyatda kelmish. Bir yil hajga bir qofila keldi, barchalari qari. Savol qildi: Sizing yigitlarga ham fariza ermasmu, barcha qarilar kelmishsiz? Aytilar: Biz shahrimizdin chiqmishda barcha yigitlar erduk, qarig'incha yuridik, emdi kelduk, bilmasbiz, uyumizga yonarmubiz yo yonmasmubiz, tedilar. Aymishlar, Rasul alayhis-salom ul-o'q kecha andin yondi, ammasi Ummahoni evinga keldi, Me'roj xabarini aytu berdi. O'rni taqi isig' erdi. *Subhanal-tazi asro biabdihi laylan minal-masjidil haromi.*

Mas'ala: Kim Rasul alayhis-salom me'rojing'a Makkadin Bayt ul-muqaddasg'a bir tun ichina bormishiga munkar bo'lsa kofir bo'lur, yana Bayt ul-muqaddasdin qoba qavsayn osharig'a munkar bo'lsa mu'tadi' yo'lsuz (217r) havodor bo'lur.

Rivoyat qilmishlar, Oyisha Siddiqadin, raziallohu anho: Qachon Mustafo alayhis-salom me'rojdin yonib keldi ersa Masjidi Aqso(g'a) borg'anin xalqg'a aytu berdi. Bir anchasi rost dedi, bir anchasi ul so'zga inonmadi, fitna qo'pti. Mushriklardin bir anchasi Abu Bakrg'a bordilar, aydi: Bu sening qo'ldoshing bir tun ichinda Bayt ul-Muqaddasg'a bordim, yana yonib keldim teyur, tedilar. Abu Bakr aydi: Andog' teyurmu? Teyur, tedilar. Abu Bakr aydi: Rost aydur. Yana aydilar: Bir tun ichinda Bayt ul-Muqaddasg'a borib yana yonib keldim. Taqi Shom shahrig'a tong otmasdin burun borib yana keldim, tegan so'zga inonurmusen? Abu Bakr raziyallohu anhu aydi: Andin adizrak, yiroqroq yetti qat ko'kdin teyur. Andin xabar berur, inonurmen, dedi. Oyisha aydi, raziyallohu anho: Otam Siddiq atandi, raziyallohu anhu.

Foyda. Rasul alayhis-salom bir tun ichinda Makkadin Masjidi Aqso'ga bormish, durust turur. Qamug' sunnat va jamoat egalari qatinda, ammo bid'at iyalari qabul kilmadilar, me'roj durustlug'inga sahobaning ulug'lari telim sahih axbor rivoyat qildilar. Ularda avval Abu Bakr Siddiq va Umar Foruq va Usmon Zinnurayn va Ali al-Murtazo va Abdulloh ibn Abbos va Abdulloh ibn Mas'ud va Anas ibn Molik va Abu Hurayra va Abu Sa'id al-Xidriy va Molik ibn Sa'sa'a va Imron ibn Husayn va Abdulloh ibn Umar va Abu Muslim va Huzayfa al-Yamaniy va Abdulloh ibn al-Zubayr va Abu Ayyub Ansoriy va Jobir ibn Abdulloh va Abbos ibn Abdul

Mutallib va Abdulloh ibn Avfo' va Abu Muslimi Rofiy va Ummi Kulsum bint Rasululloh va Bilol Habashiy va Abu Amoma al-Bohiliy va Usoma ibn Zayd va Os va Abdurrahmon Oys va Abu Dardo' va Ummahoni bint Abu Tolib va Oyisha va Abu Zar G'afori va Bilol ibn Sa'd va Abu Dajjonatu al-Ansoriy va Ubay ibn Ka'b raziyallohu anhum ajma'in.

Borchalari me'roj hadisini rivoyat qildilar, durust turur. Mavlo taolo qudratindin tong ermas, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi va sallam bu karomatlar birla maxsus erdi, o'zga payg'ambarlarda yo'q erdi. Qachon mundog' axbor vorid bo'lsa (217v) qabul qilmoq bizga vojib bo'lur. Ammo ulamoyi rahimahumulloh me'roj'ga bormish netak erduki ixtilof qilmishlar, iki qavl uza. Bir qavl ul turur, Muhammad Mustafo sallallohu alayhi sallam me'roj'ga og'mishi tani birla erdi ham joni birla erdi. Muni ayg'anlar Abu Salamadin va Abu Hurayradin va Abu Huzayfa al-Yamaniydin turur, raziyallohu anhum, ayurlar: Bayt ul-Muqaddasg'a kirdi, payg'ambarlar birla namoz o'tadi, andin so'ng ko'kka og'di, yana Ka'bage keldi, tong bomdod namozini Makkada o'tadi. Ammo yolg'uz Xadicha aydur, raziyallohu anho: Bayt ul-Muqaddasg'a kirmadi, namozin o'tamadi, buroqdin inmadi, ko'kka oshti, ul-o'q kecha Makkaga keldi.

Ikinchi qavl ul turur, joni oshti, ammo bo'yi oshmadi. Bu qavlini Oyishadin, raziyallohu anho, rivoyat qilmishlar, ammo Makka mushriklari, la'nahum Allohu, yolg'ong'a chiqarurlar. Ba'zi ulamolalar rahimahum Allohu alayhim ajma'in, ayurlar, bu so'zda iki durust rivoyat keldi ersa jam' qilmoqi avloroq bo'ldi, me'roj iki qurla bo'ldi biri uyquda, biri uyg'og' erkan. Yana bir rivoyat qilurlar, Rasul alayhis-salomni yolg'ong'a tuttilar Bayt ul-Muqaddasdin so'rdilar. Nelar ko'rdung? tedilar. Rasul alayhis-salom biror-biror aytu berdi, Aydi: Bir uluq chanoq ko'rdum, to'la suv, og'zi o'trukluk, ani oldim, og'zin ochtim, suvdin ichtim, bayoqitek yana yopib qo'ydim. Yana aydi: Shom yo'linda yukluk tevalar ko'rdum, falon kun yetib kelgaylar. Andag'-o'q bo'ldi. Bu datoyil birla ma'lum bo'ldikim, me'roj ham tani birla erdi, ham joni birla erdi. Ammo bid'at va xavodorlar me'roj'ga munkar bo'lub yana o'z orada muxtalif bo'ldilar. G'abloniylar

aydilar: me'roj aslo yo'q erdi, ka'biylar, shahhoriylar aydilar: uyquda erdi, Bohiliylar aydilar: Bayt ul-Muqaddasg'a tegi erdilar, andin ortuqroq yo'q erdi muntahiy, Xashaviylar aydilar, me'roj bor erdi, ul kecha olam xalqi uch yuz yil uziyu qoldilar, ul tunning uzunliqi oncha erdi. Ibohatiylar aydi: Me'roj Muhammadning ko'nglida erdi.

Ammo arig' musulmonlar, sunnat va jamoat aydilar: Me'roj (218r) haq tutur, Makkadin Bayt ul-Muqaddasg'a, Bayt ul-Muqaddasdin ko'kka, ko'kdin ufqi a'log'a, ufqi a'lodin Sidrat al-muntahog'a, Sidrat ul-muntahodin Qoba qavsayng'a, Qoba qavsayn (din) uyog' holinda joni sirri birla tun ichinda yana kelturdilar, taqi o'run to'shagi sovumayin issig' erdi. Bu ishlar Izi azza va jalla qudratinda ujb va mahol emas, me'roj durustluqi kundan burunroq, ul dalil bu turur. Muhammad bir tun ichinda Bayt al-Muqaddasg'a bordi, andin yana ko'kka oshiti bo'lg'aymu, bo'Imag'aymu teb sezar ersang ko'rgil, Mavlo taolo yorliqar. Qavluhu taolo: *Subhana-l-azzi asro biabdihi laylan minal-masjidil haromi*. Arig' turur, ul Izi azza va jallakim, elti o'z quli Muhammadni bir tun ichinda. So'rg'il, Mavlo taoloning bu qudrati bormu? Yo'q, tesa kofir bo'lur, qudrati bor tesa sunniy turur. Ikinchi dalil ul turur, iblisg'a istidroj tariqin bir soatda mashriqdin mag'ribg'a tegi bormoqi mumkin, karomat yunuglukkun Muhammad rasululloh bir tun ichinda erdin ko'kka oshmoqi netak ravo bo'lmas.

Uchunchi dalil ul turur, Sulaymon payg'ambarg'a, salavotullohi alayhi va salomuhu, elga munub, bir oyliq ermi bir kunda borib yana kelmaki ravo bo'lur. Muhammad Mustafo istifo minub, ijtiho Buroqing'a o'tlanib, bir tunla Qoba qavsayn maqoming'a oshib, yana kelsa netak ravo bo'lmas. Munda ajabroq ul turur. Qamug' uqalo Izilari olinda muqarrar va ma'lum tururkim, jodular bir tun ichinda turg'an erlarindin Damovand tog'inga va Horut va Morutg'a borub joduluq o'rganib yana kelurlar. Borg'an jodu muni it yo kub, yo mushuk elinga dev yo'lchi iblis bir tunla muncha yig'ochliq yerni borur yana kelur. Me'roj tunida munit Buroq mingan Muhammad Mustafo yo'lchisi Jabroil, topug'chisi Mekoil rabbu al-jalil bir tun ichinda borib kelmagi ne ajab bo'lg'ay. Aymishlar, kim Muhammadning oshmoqing'a munkar bo'lsa Jabroilning

eltmagiga munkar bo'lur. Kimning e'timodi bu ersa kofir bo'lur. Savol: Muhammadni me'rojg'a (218v) oshurmoqda hikmat ne erdi, eshitgil, tunla eltti, kunduz eltmadi hikmat ne erdi? Javob bu turur, kunduz eltsa tamom xalq ko'rgay erdi, tunla eltti, muvofiqdin va munofiqdin va siddiqdin va zindiqdin belguluk bo'lsun teb. Taqi do'st do'stg'a, oshiq ma'shuqq'a, muhib mahubg'a tunla qovushur bo'lur. Aymishlar, farishtalar ko'k oyini ko'p ko'rmish erdi, yer oyinima ko'rsunlar teb Muhammadni tunla eltilar. Aymishlar, Jabroil Oyat al-kursilni kelturda yetmish ming farishtalar indi, Jabroil aydi: Yo Rasululloh, sening ummatlaringkim bir yo'li Oyat al-kursini o'qisa, Mavlo taolo anga kursi ulug'luqincha savob bergay. Rasul alayhis-salom, tiladikim, bu kursini ko'rsa, Oyat al-kursining savobin bilsa, me'rojga oshurdi, bir kesak zumuraddin ulug'luqi oncha tenglikim aning muqobalasinda yetti qat yer va ko'k yobondaqi xalqa mengizlik, tegrasinda Oyat al-kursi bitiklik, o'nginda o'n ming kursi, so'nginda o'n ming kursi, ortinda o'ng ming kursi, har bir kursida o'n ming farishta ura turub Oyat al-kursini o'qiyurlar, tamom savoblarin Muhammad ummatlarig'a bag'ishlayurlar. Yana bir qavlda ul turur: Qachon Xadicha vafoti bo'ldi ersa, raziyallohu anho, arab kofirlari Rasul alayhis-salomg'a adovat va hasad zoxir qildilar. Abu Tolib tirik erkincha kofirlarni daf' qilur erdi. Abu Tolib vafot bo'ldi ersa Abu Jahl, Atepa va Shayba va taqi o'zga kofirlar emgatu boshladilar. Qattig' emgandi, bulug'an topmadi, munglag'alu yer topmadi, oxshom o'g'urinda ammasi Ummahoni uyiga keldi, eshik qoqti. Ummahoni o'tru chiqti, og'irladi, uyiga kigurdi, osh-bo'g'uz kelturdi. Rasul alayhis-salom aydi: Ey amma, osh yegu yarog'im qolmadi, kofirlar jafosidin jong'a etgim, uyni xoli qilg'il, bu kecha rozim, niyozimni beniyoz Malikning hazrati(da) o'tunayin, tedi. Ummahoni uy holi qildi, Rasul alayhis-salom namozg'a turdi, Ummahoni aydi: Uyum (219r) holi, Makka to'la dushman, kerakmaskim, Muhammadg'a qasd qilsalar, bu kecha jonimni fido qilayin, teb eranlartek qilich olib uy tegrasinda Muhammadni saqlay boshladi. Uyquga erklik bo'lg'an farishtag'a yorlig' bo'ldi: Olam xalqini uyqug'a solg'il. Barchani uyutti, Ummahoni qoldi. Yorlig' bo'ldi, Ummahonini uyutg'il. Ummahoni qilichni olib ura tururda boshin tomg'a qo'yub uyudi.

Yorlig' bo'ldi: Ey Jabroil, bu kecha Muhammadning uyinchasi qolmadi, dunyoda yolg'uz turur, borg'il, ani qurb maqomimg'a kelturgil, qutluq qadami Arshga tegsun, rozin tinglayin, hojatin ravo qilayin, tilaklarin berayin. Jabroil etmish ming farishta birla keldi. Toj va Buroq kelturdi. Ming e'zoz birla ko'kka oshurdi. Ummahoni uyg'ondi, *La havla va la quvvata illa bi-llahil atiyil-azim* kalimasin aytu eshikka keldi. Tingladi, ul eshitmadi, Rasul alayhis-salomni tiladi, topmadi. Tashqa chiqib faryod qilurda un eshitti: Ey za'ifa, un qilmag'il o'zungni emgatmagil sen tilagan kim ersa Sidrat ul-Muntahodin kechti. Qavluhu taolo. *Subhanal-lazi asro biabdihil laylan minal masjidil haromi*. Me'rojning hikmati bu erdi, tonglasi do'st-dushmang'a xabar bo'ldi. Aymishlar, Rasul alayhis-salom Fotima hujrasinga kirdi. Me'roj so'zlarin aytu berdi. Fotima raziyallohu anho sevundi. Rasul alayhis-salom hujradin chiqar bo'ldi ersa, Fotimaning Fizza otlig' qoraboshi bor erdi, Rasulning etagin tutdi, aydi: Yo Rasululloh, Me'roj qissasin Fotimag'a raziyallohu anho aytu berding, Ummatlarg'a bashorat berding, savoblarni ayding, mendek za'if qulnung quli, kungnung kungi bo'lg'anlarga Hazratdin ne bashorat kelturding? Rasul alayhis-salom aydi: Quloqingni menga tutg'il. Fizza quloqin tutti, aydi: Mavlo taolo yorliqadi: *Utubul-illata kay ag'firaz-zillata*. Ey Muhammad, qullarimni yorliqamog'a topug' tilamasmen, tiltog' tilayurmen. Munojot: Ilohiy kim keldikim, qabul qilmading, kim tiladikim, bermading, kim yolbordikim, (219v) ijobat qilmading, kelganni qabul qilding, tilaganga berding, yolborg'anni yorliqading. Ul qudrat birla biz osiy, jofiy yozuqluqlarni Mustafo barakotinda yorliqab, tamug'din qutqarib, sekiz ujmoqqa tegurub o'z diydoringga mustavjib bo'lmoq fazling, karaming birla qilu bergil. *Ya ilahal-aalamin bihaqqi Muhammadin va aalihu ajma'in*.

RASUL ALAYHIS-SALOM MAKKADIN MADINAGA HIJRAT QILG'AN SO'ZLARI

Qachon Abu Tolib vafoti bo'ldi ersa Abu Jahl ibn Hishom va Abu an-Najziy ibn Hishom va Amr ibn Hishom alayhim al-la'onin xalqdin kizlanu bir saroyda yig'ildilar. Muhammad rasululloh

ishiga kengash qildilar. Iblis alayhil-la'na bir abushqa surati uza birla kirdi. Aydlar: Bu kim turur, bizdin dastursiz munda kirur. Aydi: Man bir abushqamen, Najddin keldim, savob tadbir kerak ersa menda bo'lg'ay, molim bor, kishilarim bor, bisyor o'g'lonlarim bor. Bu so'zga savindilar, kengashga turdilar. Abu an-Najziy aydi: Maning kengashim ul turur, muni tutaling, usruk tevaga tongaling, yozig'a tashlaling, o'zi-o'q o'lsun. Iblis aydi: Bu kengash yarog'siz turur, tevadlin ingay, ul yerda-o'q xaloyiq andog' qilg'aykim munda qilur. Abu Jahl aydi: Mening kengashim ul turur, har bir qabiladin biror er chiqsun. Bir kecha boraling, Muhammadni qilich birla o'lduraling. Biragu uchun qamug'ni o'ldurmagaylar, xunbaho tilasalar, man berayin. Iki xunbaho, uch xunbaho man berayin. Iblis aydi: Yo Abulhakam, sening kengashing barchadin yaxshiroq turur, agar yuz xunbaho tilasalar to'qson to'quzin men berayin, bir xunbaho siz bermasmusiz? Bu so'zga itifoq qildilar. Mavlo taolo Jabroilni Muhammad Mustafog'a yibordi, ularning kengashlaridin xabar berdi. Rasul alayhis-salom qo'pti, kun tush erdi, Abu Bakr saroyig'a bordi. Abu Bakr raziyallohu anhu bu ish uchun tevalar tayyor qilib erdi, so'zlashib yondi. Kecha bo'ldi ersa Abu Jahl qo'ldoshlari Iblis birla yig'ildilar, o'zgalarga boqib o'lturdilar. Mavlo taolo ularga uyqu soldi, barchalari uyudi, Iblis ham uyudi. Rasul alayhis-salom har birining boshig'a (220r) bir ovuch tufroq sochti, la'inning boshi uzasanga ham sochti. Chiqib bordi, Alini, raziyallohu anhu, o'z o'mida yotg'urdi, o'zi ketti. Ular uyg'ondilar, Iblis ko'rdi, barchaning boshig'a, o'zining boshig'a tuproq bor. Aydi: Oh, Muhammad boshimizg'a tufroq sochib ketmish, teb. Qo'ptilar, Rasulg'a keldilar, Alini ko'rdilar, Muhammad qani? teyu so'rdilar, chiqdi. Qayda bordi? Bilmasmen, tedi. Andin chiqtilar, Abu Bakr saroyig'a kirdilar, un qildilar, qizi Asmo chiqti. Otang qani? tedilar. Bilmasman, tedi. Rasul alayhis-salom bir g'org'a kirdilar. Abu Bakr aydi: Burun man kirayin, ichinda qurt, qush, yilon, chayon bor ersa manga bo'lsun, sanga bo'lmasun, teb o'zi kirdi, yilon, chayon inlarin ko'rdi. To'nin, dastorin ul inlarga tiqdi, o'zi yalang qoldi. Iki in og'zi ochuq qoldi, berkiturga narsa topmadi. Iki ayoqining poshnalarin ul iki inga tiqti. Yo Rasululloh, kirgil, tedi, kirdi, Abu Bakrni yalang ko'rdi, aydi: To'ningni ne

qilding? Abu Bakr ul holni aytdi berdi. Rasul alayhis-salom duo qildi: *Allohumma j'al Abu Bakrin mu'iniy fi darajatiy*. Aymishlar, yilonlar inlaridin chiqg'ali buldilar, yo'l topmadilar. Bu iki inga keldilar, chiqa olmadilar ersa Abu Bakr tabonin tegdi, Abu Bakr ayoqin tortmadi. Aymishlar, yetti qatla tegdi. Abu Bakr azoqin tortmadi, sabr qildi. Oh, tedi. Rasul alayhis-salom aydi: Ne bo'ldi? tedi. Aydi: Bu inda yilon bor, meni tega turur. Aymishlar, ul yilon Abu Bakrni aning uchun tegdikim, Muhammad rasulullohning qutlug diydorin ziyorat qilayin teyu chiqar erdi. Yo'l topmadi ersa yo'l bersun teb tegdi. Tong otti ersa kofirlar ularni tilayu keldilar, tog'da, yozida topmadilar. Mavlo taolo iki kabusami g'or eshigida yumurtqaladilar. O'runchakka yorlig' bo'ldi, ul yumurtqalar tegrasinda ag'in kirdilar. Abu Jahl kofirlar birla ul g'org'a keldilar, eshikda yumurtqa ko'rdi (220v) o'runchak uyin ko'rdilar, munda kelmadi, teb yondilar. Bir kofir ul eshikka o'tru yurub bavl qildi. Abu Bakr aydi: Yo Rasululloh, biragu bizni ko'rdi. Rasul alayhis-salom aydi: Bizni ko'rmish bo'lsa erdi bizga o'tru bavl qilmag'ay erdi. Aymishlar, uch kun ul g'orda turdilar. Asmo yetib keldi. Abu Bakr g'a, raziyallohu anhu, taom kelturdi. Tun ichinda Abu Bakrning qo'ychisi ham sut kelturur erdi. Uchunchi kun g'ordin chiqtilar, Madina sari bordilar. Abu Jahlg'a xabar bo'ldi, Suroqani so'nglarincha yibordilar. Bu Suroqa muboriz erdi, anga yuz ingan qabul qildilar. Suroqa otlandi, qilich, o'q, yo oldi, so'nglarincha kirdi. Abu Bakr ortincha boqti, to'g' tuproq ko'rdi, Rasul alayhis-salom g'a xabar qildi. Aydi: Suroqag'a o'xshayur. Qachon yovushni ersa Rasul alayhis-salom duo qildi, aydi: *Allohumma fa' sharrahu anna*. Mavlo taolo Suroqaning otining to'rt oyoqlarin yerga berkitdi, ot turdi, tebranmas bo'ldi, Rasul alayhis-salom g'a yolbordidi, aydi: Men senga qotilmasman. Duo qilg'il, Mavlo taolo xalosliq bersun. Duo qildi, xalos bo'ldi, yondi. Anchada Madinada xabar bo'ldi: Rasul alayhis-salom keldi, teb. Madina xalqi o'tru chiqtilar, eshikka turmayin yondilar, yaqin keldilar ersa yana o'tru chiqtilar.

Abdulloh ibn Salom aytdi: Men ham o'tru chiqtim, ul kun juhud erdim, nazzora qilg'ali chiqdim. Abu Bakr birla ikagu tom ko'lakasinda o'ltururlar. Rasul alayhis-salom qayu erdukim bilmadim, tavaqquf qildim. Kun tush bo'lganda kun issiq bo'ldi

Abu Bakr qo'pti, Rasul g'a ko'laka qildi. Bildimkim, Rasul alayhis-salom bu turur. Ko'rdum ersa bildimkim, bu yol g'onchi ermas. Tekma biragu saroyim g'a tushgil teyu darxost qilar erdilar. Rasul alayhis-salom aydi: Tevamni qo'yung, kimning eshikinda cho'ksa anda tushgaymen, tedi. Teva bordi, Abu Ayyub Ansoriy uyi eshikinda cho'kti. Rasul alayhis-salom anda indi, o'zgalarning ko'ngli o'zga bo'lmasun teb. Aymishlar, (221r) Abu Ayyub al-Ansoriy bo'zchi erdi, amonatlig', xiyonatlig' da asig'lig'. Rasul aning saroyiga kirdi, iki uyi bor erdi biri ostin, biri ustun biriga o'zi kirdi, biriniq Rasul alayhis-salom g'a berdi.

BADR SANCHISHINING QISSASI

Qachon Rasul alayhis-salom Makkadin Madinag'a hijrat qildi ersa iki yil sanchish bo'lmadi, uchunchi yil Badr to'qushi bo'ldi, to'rtunchi yil Uhud sanchishi bo'ldi, beshinchi yil Badri sug'ro sanchishi bo'ldi, oltinchi yil Om ul-Huzayba, yetinchi yil Umrat al-qazo bo'ldi, sekizinchi yil Makka fathi bo'ldi. To'quzunchi yil Abu Bakr raziyallohu anhuri mavsim g'a ulug' qildi, o'nunchi yil Hajjat ul-vido' bo'ldi. Ammo Badr to'qushig'a sabab ul erdi: Jabroil keldi, Rasul alayhis-salom g'a xabar berdi, Makkaning ozuqini Shomdin kelturur bug'doy, arpa, xurmo, qurug' uzum yuklab tururlar, sahoblarga ayg'il, ularg'a borsunlar. Rasul alayhis-salom xabar berdi, chiqtilar, iliklarinda biror yig'och silohlari. Munofiqlardan bir josus borib makkalig'larg'a xabar qildi: Muhammad qo'ldoshlari birla sizing karvonni olg'ali bordilar. Abu Jahl munodiy qildurdi: Kimning bir yig'och ko'tarur kuchi bor ersa chiqsun, kim chiqmasa mundog'mundog' qinlar qilurmiz, tedi. Tamom xaloyiq chiqtilar, bir yig'ochliq yerga bordilar. Abu Jahl aydi: Qo'pung, Badr quzug'ig'a borib suvni olaling, xamr ichaling, nay chalaling, dushmanlarimiz bilsunlar kim, biz ular din qo'rqmasbiz. Ajnas ibn Sharif aydi: Bizing maqsudimiz tamom bo'ldi, karvonni olduq, uyumizga boraling. Abu Jahl unamadi. Ani so'kti, uch yuz er birla keldilar. Jabroil keldi, Rasul g'a yorlig' tegurdi, kofirlar birla sanchishing, teyur. Rasul alayhis-salom sahobalarg'a aydi, ular

Rasul alayhis-salomg'a mujodila boshladilar, aydilar: Bizga nega aymading, siloh olsamiz silohimiz yo'q, Netak to'qush qilaling? Qavluhu taolo. *Yujaditunaka fil-haqqi ba'da ma tabayyana ka'aannama yusaquna ilal-mavti va hum yanzurun.* (221v) Bular Makka arqishin urg'ali kelmish erdilar, arqishni urmoq o'ngay erdi, urmusha kezin g'animin olmoq erdi, yana cherik birla sanchishmoqdin qatig'roq g'animinma yo'q. Islom cheriki qo'lining Madina singarindin bo'ldilar, kofirlar qo'lining Makka singarindin bo'ldilar, Qavluhu taolo. *Iz antum bil-udvatid-dunya va hum bil-udvatil qusva.* Kofirlar suvni oldilar, mo'minlar ul kecha qamug'i muhtalim bo'ldilar. Uzg'a indilar, Rasul alayhis-salomg'a xabar qildilar. Rasul alayhis-salom tayammum qilmoq buyurdi, tayammum birla namoz q'ldilar. Iblis alayhil-la'na vasvasa qildi: Sizlar qamug' junublarsiz, tahoratsizmu namoz qilursiz? Munung birla ma'lum bo'ldikim, ular haq yo'linda turur, siz botil yo'lida yuriyursiz, yana suvma olarda. Mo'minlar ko'ngli mashg'ul bo'ldi, Haq subhonahu va taolo bulut izti. Telim yag'mur yog'di, qo'llar to'ldi, qamug' g'usl kelturdilar, suv oldilar, yilqi qoralari suv ichti, qavmma ulidi, er barqidi. To'qush yarog'inga turdilar. Bir otlig' kofirlardin keldi, islom cherikin o'vrulub, uch yuz bo'l (g'ay), ortuqroq bo'imasa teb, tenglab bordi. Islom cheriki ul kun uch yuz o'n uch erdi, o'n uchin tengladi. Anchada farishtalar nusrat qilg'ali izdilar. Bir farishta mo'min surati uza kelib aydi: Qo'rqmang! Kofirlar sizlardin g'oyat qo'rqub tururlar. Ul holda ikagu keldi, biri Qurayzadin biri Nazirdin. Nazzora qilali, ko'rali qayusinga bo'lur ermish. Ulardin narsa qo'lali, tedilar.

Iki cherik qarshu turmishta havog'a bir bulut og'di, ul bulutdin o't chiqti, zanjiri uni eshitildi, yana un keldi: Hazum, ilgaru yurug'il, teb. Rasul alayhis-salom Jabroilga so'rdi: Bu na turur? teb. Jabroil aydi: Bu bulut cherikimiz turur, teb. Aydi: O't cherik otlarin turguchi turur, zanjir ul tururkim, kofirlar, bo'yunlarin bog'lag'aymen. Ammo Hazum bir belguluk otning oti turur. Ul holda kofirladin uchagu keldi: Atepa, Sayiba, Valid. Mo'minlardin uchagu chiqti, kofirlar aydilar: Sizlar kimlarsiz? Aydilar: Bizlar Madinadin chiqq'an ansoriylarmiz. Aydilar: Siz kerakmassiz. Bizga teng-to'sh eranlar kerak, sanchishsamiz, teb ular yondilar,

Ali va Hamza na Ubayd ibn al-Jarroh chiqdi, ularg'a aydilar: Siz kimlarsiz? teb. Ular otlarin aytu berdilar. Kofirlar aydilar: Siz ne uchun sanchishursiz? Aydilar: o'ldursamiz el olaling, g'oziy savobin bulaling, o'lsamiz shahidlar bo'laling teyurmiz. Ular aydilar: Bizma munung uchun sanchishurmiz, teb. Mavlo taolo bu oyatni Iztikim, Qavluhu taolo. *A fa naj'alul-muslimina kal-mujrimin.* Uchallasin o'ldurdilar, Makkaliklarda ulug'larin ular erdi, bu ammor orasida saning mengiz. Rasul alayhis-salom Alidin bir ovuch tuproq tiladi, kofirlar yuziga otti (222r). Mavlo taolo kofirlar ko'zinga kigurdi, ko'zlariga mashg'ul bo'ldilar, islom cheriki qilich olib kirdilar, o'lturu boshladilar. Abu Jahl alayhil la'na cherik qochg'anin ko'rdi ersa qayg'urdi, aydi: Qo'rqmang, yurak oldurmang, ul uchagu yarog' bilmazlikdin o'ldilar, emdi siz biror arg'amchi, yip etuk qo'njina suqung, bu zamonda Muhammadni eshlari birla tutub, bo'yunlarin bog'lab, Makkaga eltgaymiz tedilar. *In sha'a-llohu,* temadilar. Ular saqing'ani o'zlariga keldi, musulmonlar kofirlarda ukushin o'ldurdilar, Yetmishni boshlig' qildilar, yetmishni bulun qildilar. O'shal yiplar birla-o'q bo'yunlarin bog'lab Madinaga sudrayu eltdilar.

Aymishlar, Rasul alayhis-salomning qamug' sanchishlarida farishtalar kelur erdilar, ammo sanchishmas erdilar, yolg'uz Badr to'qushinda sanchishtilar. Abu Jahl otinqa qamchi urdi, Mekoilg'a tepundi. Mekoil bir urdi ersa Abu Jahl otdin tushti, Abdulloh ibn Mas'ud raziyallohu anhu yetib keldi. Abu Jahlni ko'rdi, tebatek bo'lub yotur, ko'ksinga mundi. Abu Jahl aydur: *Ya roi'iyal-g'anami.* Ey mening cho'ponim, adiz yerga og'ding, bu ish sening ishing ermas, mening sungum anga etmagan, aning sungusi menim uchamda bo'lg'an kim ersaning ishi turur. Abdulloh ibn Mas'ud qilich chiqarib boshin kescali o'g'radi, Abu Jahl aydi: Menim bo'yumni kesar ersang mening qilichim birla bo'yumni tubindin kescil, Muhammad ko'rsun, eranlar boshin mundog' ulug' erdukin bilsun, tedi. Yana so'rdi: Davlat kimda bo'ldi? Abdulloh ibn Mas'ud aydi: Rasulg'a bo'ldi, kofir cheriki sindi. Anda keyin qilichin oldi, torta bilmadi. Abu Jahl aydi: Qilich sopin manga bergil, qinin sen tutg'il, ikagu tortaling, tedi. Abdulloh ibn Mas'ud qinin anga berdi, sopin o'zi tutti, ikagu tortilar. Qinin Abu Jahlg'a sola berdi. Aning

qilichi birla boshin kesti, Rasulqa kelturdi, ani ko'rub qamug' musulmonlar takbir aydilar, g'animatlar oldilar. Mundog' ulug' dushmani halok qildi, teb Izi azza va jallag'a shukrlar qildilar. Anda kezin Jabroil keldi g'animatni ukush qilg'ali. Rasul alayhis-salom sahobadin kengash qo'ldi, bulunlarin netak qilaleng? tedi. Umar raziyallohu anhu aydi: O't yoqib qamug'ini kuydiraleng, bizdin burunqi qavmlar, yalavochnlar bu ish qilmadilar, senda bu izzat bor erkan, bularda bu ho'rluq bor erkan bu ish qildilar. Rasul alayhis-salom ani unamadi, Abu Bakr raziyallohu anhu aydi: Qamug'i saning urug'ung tururlar, boshlarin ularg'a-o'q, sotg'il, yulug' bersunlar, bu molni olib musulmonlarga sarf qilaleng (222v). Rasul alayhis-salomg'a bu so'z xush keldi, aydi: Yo Umar, bu so'zung birla Nuh yalavochna o'xshayursen. Netakkim, Mavlo taolo yorliqar, Qavlulu taolo. *Va qola Nuhun rabbi la tazar alal-arzi minal-kafrina dayyaran*. Yana bir farishtalarg'a o'xshayursen, haybatlik. Ammo yo Abu Bakr sen Ibrohim payg'ambarga o'xshayursen. Izi azza va jalla yorliqar, Qavlulu taolo. *Fa man tabi'aniy fa innahu minniy va man asoniy fa innaka g'afurun rahim*. Yana farishtalarda Mekoilg'a o'xshayursen, rahm ko'ngulluk. Anda kezin Abu Bakr ra'yi birla ish qildi, tekma biringa qirq uqiya kumush yo oltun hukm qildi, tekma bir uqiya qirq oltun bo'lur vazn birla. Qachon Abbosqa tegdi ersa sekson uqiya hukm qildi. Abbos aydi: Azinlarga qirq uqiya, manga sekson o'qiya nedin qilding? (Aydi): San mendin qardoshliq kesting, jafolar qilding, aning uchun manma sendin ortuq tilayurmen. Abbos aydi: Bu qirq uqiyani saqish qilg'il, ul qo'nuqlarkim edingiz anima saqish qiling. Rasul alayhis-salom aydi: Ul g'animat erdi, bu saqishg'a kirmas. Abbos aydi: Ey qarindoshim o'g'li, men bu molni kishilardin qo'lsam sen meni tizmag'il. Rasul alayhis-salom aydi: O'g'lonlarga nafaqa qilg'aysen teding, ul mol qayda turur? Abbos aydi: *Man anba'aka haza*. Muni sanga kim aytu berdi? Rasul alayhis-salom aydi: *Qola nabba'ani-yal alimul xabir*. Manga bilgan olim va xabir Izim aydi. Abbos aydi: Sizing Tengringiz g'aybni bilurmu? Bilur, tedilar, andog' ersa arza qilg'il, tedi. Islom arza qildi, Abbos musulmon bo'ldi. Rasul alayhis-salom ul sekson uqiyanı oldi. Mavlo taolo oyat izti. Qavlulu taolo. *Qul liman fi aydikum minal-asro in*

ya'lami-llahu fi-qulubikum xayran yu'tikum xayran mimma uxiza minkum. Kezin Abbos aytur erdi, Mavlo taolo meni yorliqadi, teb, umidim bor, aning uchunkim oyatda yorliqadi, *atoan va mag'firatan*. Men oldurg'an molnin ortuqroq karomat qildi, yigirmi qulum erdi, sotig'qa yuruganlar tekma bir qavl birla yigirmi ming oltun erdi, sotig'qa yuriyur erdilar. Mavlo taolo oyat izti: *Lav la kitabun mina-llahi sabaqa lamassakum fima axaztum azabun azim*. Ya'ni kofirlardin oling'an mollar halol bo'lmasa ulug' qinga kirgay erdingiz. Rasul alayhis-salom yorliqadi: Agar azob insa Umardin azin kim ersa qurtulmag'ay erdi.

UHUD SANCHISHINING QISSASI

Yana to'rtunchi yil Uhud to'qushi bo'ldi. Makka kofirlari Badr to'qushindin yonmishta Shomdin kelgan arqish molini qamug' cherik silohinga xarj qildilar, molni iyalariga bermadilar, dushmanlar birla sanchishib olduq, tedilar. Kelur yilqa anuqladilar, ulug' cherik yig'dilar, (223r) xotunlarinma chiqardilar. Jabroil keldi, xabar berdi, islom cheriki yigildi, kengashtilar, aydilar: Madinadin chiqaleng, o'tru yuriling, tashqarudin soling, ilguru kirmasunlar, teb, Rasul alayhis-salom tush ko'rmish erdi, yoriq kezib turg'anin aydi. Ta'biri bu turur: Madinada tursa yigrak erdi, Madinani tura qilib tursamiz yaxshiroq tedi. Abdulloh ibn Ubay Rasul so'zunga muvofiq bo'ldi, munda-o'q o'lturaling, kelmishta er-u xotun, o'g'lonlarimiz birla bo'lub sanchishaling, tom uzasindin tosh birla otsunlar. Azin sahobalar Badr to'qushinda yuraklanmish erdilar, chiqaleng tedilar. Qachon Rasul alayhis-salom chiqti ersa aydilar: Yo Rasululloh, sening ko'nglung netak tilasa andog' qilg'il, bizing so'zumizga boqmag'il, tedilar. Rasul alayhis-salom yorliqadi: Yalavochnlarqa yorliqlanmishda kezin sanchishmadin yoriq chiqarmoq ravo bo'lmas. Qamug' Uhudqa chiqtilar, Uhud tog'ing'a orqa berib tura qiling. Aydilar: Uhud tog'ing'a busig'urg'u bir yer bor erdi, ani saqlag'ali Abdulloh ibn Xabirni yetmish otimchilar birla izti, sanchishta ul kimga bo'lg'ay, bu yerdin kirmasunlar, saqlab turung, tedi. Anda kezin zulfiqorni sahobaqa

arza qildi, muni kim tutar? tedi. Abu Bakr ilik sundi, bermadi, yana Umar ilik sundi, bermadi, yana Ali ilik sundi, bermadi, yana Hamza ilik sundi, bormadi. Abu Dahona ura qo'pti, oti Simok ibn Xuzayfa erdi, aydi: Yo Rasululloh, zulfiqorni haqin man tutayin, teb, anga berdi. Haqincha netak tutg'aysan? tedi. Abu Dahona aydi: Kofimi andog' urayinkim, qilichimning uchi bo'lg'anincha. Qamug' xaloyiqlar tongladilar, muncha ezgularga bermadi, anga berdi, teb ko'ngullaringa shirk kirdi. Abu Dahona ilkini etuki qo'njina suqti, qizil isoba chiqardi, olniga bordi, iki cherik orasig'a solinu kirdi. Rasul alayhis-salom aydi: Bu turish ne? Mavlo taolo o'zga erda sig'mas, tedi. Aymishlar, zulfiqorning yuzinda *nasrun mina-llohi va fathun qarib bitiklik erdi*. Taqi bir yuzinda bu bitiklik erdi: *Fil-jarra aarun va fil-iqbali makruma-tun*. Ul kun Makka kofirlari Badr to'qushi o'chi uchun xotunlarin, o'g'lonlarin bila olib chiqtilar. Eranlariga borib tekmasi o'z eranlarin o'ga, adiz yerga og'ib, daflar urub, she'r aytu boshladilar.

Bayt

Nahnu banatu toriqi

Tamshiy alan-namariqi

Val-misku fil-mag'orifi

Firoqu g'ayri vamiqi

Tarjima

Zuhra, qamar shikorimiz,

Qirg'iz, xitoy tavorimiz.

Yugurur kizik yiporimiz,

Yinju gavhar nigorimiz.

(223v) *Sanchishg'aning sevorimiz,*

Qo'ynindaqi qo'norimiz.

Sanchishmag'ang'a orimiz,

Burnindaqi mahorimiz.

Musulmonlar tepundilar ersa kofirlar qochtilar. Biragu aytur, Sufyon evluki Hinduni ko'rdum, yinjuklari yoling, xalxollari to'puqinga to'qinub, Tamsin ur-ribodin yugurub. Kofirlar tug'i tushdi,

islom cheriki ani ko'rub g'animatqa boraling, Badr to'qushindaqi mengizlik qurug' qolmaling, teb g'animatqa borur bo'ldilar. Abdulloh ibn Xabir aydi: Andog' qilmang, o'zungizni saqlang, Rasul alayhis-salom vasiyatini qabul qiling. Unamadilar, bir anchasi bordilar, bir anchasi qoldilar. Xolid ibn Valid, ul kun kofir erdi, yiroqdin ko'rdikim oz er qolmish, ular qoldilar qamug'ini o'ldurdi, anda kezin Rasul singar tepundi, ularni qovdi. Kofirlarda G'ufro otlig' bir tishi bor erdi, kelib kofirlar tug'in ko'turdi ura tegdi, saqlab turur erdi, qachon kofirlar ani ko'rdilar ersa yana yondilar. Rasul alayhis-salomning o'ng tishin sinduru urdilar, sungu birla azoqinga urdilar, ul holda otdin yiqildi, iblis alayhi al-la'na qatig' unun qiyqirdi: *Alla inna Muhammadan qad qutil*. Ya'ni Muhammadni o'ldurdilar tedi, islom cherigi uch bo'lundi, bir bo'luki o'ldilar, bir bo'luki boshlig' bo'ldi, bir bo'luki qochti. Usmon raziyallohu anhu to'rt yig'ochliq yer qochti. Sahobalar birisi aytur: Rasulni ko'rdum, qutlug' og'zindin qon olib, iliklarinda yuzinga surtar erdi, Aydim: Yo Rasululloh, neluk andog' qilding? Aydi: Qo'rqmankim, kerakmazkim bir qatra qon yerga tomsa qiyomatqa tegi yer yuzinda o't unmagay, yana biragu sahoba ul Rasul alayhis-salom ko'rdi, ko'zlari yulduzlardek yashnayur erdi, Rasul alayhis-salom tanudi un qo'pordi: Eymo minlar, Muhammad tirik turur. Rasul alayhis-salom ishorat qildi, tek turg'il, teb. Ul kim ersa Abu Bakr va Umarqa keldi raziyallohu anhumo, ko'rdi qazg'ulug' o'ltururlar, ne bo'ldungiz? teyu so'rdilar ersa, Muhammadni o'lturdilar, bizga emdidin so'ng tiriklik kerakmas. Ul aydi: Rasul o'lmishta kezin sizma o'lsagingiz yigrak, tedi. Yana sir ichinda aydi: Qazg'u yemang, Muhammad tirik turur. Sevinmishta sekrib qo'ptilar, otlarning qo'langlarin berkittilar, Rasul alayhis-salom keldi, oting'a otg'ardilar, kofirlar ko'rdilarkim, Muhammad o'lmamish, yig'ilib qatig' tepundilar. Simok ibn Xuzayfa Rasul alayhis-salomg'a keldilar, yondilar, kofirlarga qilich, uch qurla tepundi, kofirlarni ohintek quvdi. Ul kun zulfiqorni Rasul anga bermishga qazg'urg'anlar aydi: Zulfiqorni ul kun bizga bermish bo'lsa bu ish bizdin kelmas erdi teb. Salmon Forsiy raziallohu anhu Rasul alayhis-salomning ortinda turur erdi, tekma bir o'q kelmishincha o'zini Rasulqa qalqon qilur erdi, menim nafsım yulug' bo'lsun, teyur erdi. **(224r)**

Ali raziyallohu anhu kofirlarqa tepinur erdi. Abbos raziyallohu anhu Rasul alayhis-salom tizginin tutub turur erdi. Jabroil alayhis-salom keldi, aydi: Yo Rasululloh, ortingdaqi kim turur? Aydi: Salmon al-Forsiy turur. Ayli: Ujmoh tekma kunda aytmish, qatla Salmonni o'qug'sayur. Yana bu kofirlar g'a tepung'an kim turur? Aydi: Ali turur, raziyallohu anhu. Jabroil aydi: Mavlo taolo Alini o'ga yorliqar. Anda kezin Rasul birla tog'g'a bordilar Rasul alayhis-salomning oti tog'g'a osha bilmadi, Alining egninga qo'zub, tog'g'a oshib o'lturdi. Sahobalar tegrasida o'lturdilar, o'lgan qarindoshlar taqi oldurg'an ganimatlar uchun qazg'ulug' bo'lub o'ltururda tog' tepasindin Xolid ibn al-Valid kofirlar birla ko'rundi. Rasul ani ko'rub aydi: Yo Rabb, yer yuzinda seni birlagan biragu qolmag'ay. Mavlo taolo Xolid ko'nglina qo'rqunch kemishti, qochtilar, yetmish er tog' tubinga keldilar. Xolid aydi: Muhammad tirikmu turur? Umar aydi: Tirik turur, Xolid aydi: Muhammad o'ldi tegandin so'ng so'zunga ko'nrak inonurmen. Yana aydi: Jabal adiz bo'ldi. Rasul Alayhis-salom Umarqa aydi: Javob bergil, teb. Ayg'il, Alloh taolo adizrak va ulug'roq turur. Yana Xolid aydi, Ul kun sizga bo'ldi, bul kun bizga bo'ldi. Rasul alayhis-salom Umarqa javob ayg'il tedi. Kunumiztek yo'q ersa siz bizing birla ermazsiz, bizing o'lg'anlar ujmohta turur, sizing o'lganlar tamug'da turur. Xolid aydi: Qolg'anin Badri sug'roda ko'rishgaymiz. Rasul alayhis-salom aydi: Andog' qilg'aymiz. Yondi, Rasul alayhis-salom aydi: Kerak mazkim, bular Madinaga borsalar, Valloh, agar Madinaga borsalar bizma borib sanchi shurmiz, boqib turung, teva munsalar Makkaga borurlar. Ko'rdilar, qamug'lari tevaga munub Makkaga o'g'radilar, Rasul ilki birla ishorat qildi, Makka tepa bordilar teb. Anda kezin Rasul alayhis-salom indi o'luklarni ko'rdilar, Hamzani o'lturmishlar.

QISSAYI SHAHODATI

HAMZA RAZIYALLOHU ANHU

Mut'im ibn Abdiyning Vahshiy otlig' quli bor erdi, Abu Sufyon evluki Hindu ani targa tutti. Uhud to'qushinga borg'il, qatig'lang'il, uchaguda birin o'lturgil, seni sotg'un olib ozod qilg'am, bo'ynum,

quloqimdagi oltun, kumush, yinjularni senga bergam, menma sanga bo'lg'am. Muhammadni yo Alini, yo Hamzani birisin o'ldurub, qonin ichib kelgil, tedi. Vahshiy aydi: Muhammadqa kim ilik tegura bilgay, aning soqchisi Tengri turur. *Va-Ilohu ya simuka minan-nas*. Ali kendu arslon turur, anga kuchum yetmagay, ammo Hamza abushqa turur, teb to'qush kuninda busug' urub, saqlab turur erdi. Hamza etib keldi, boshin, azoqi tuzaturda busug' idin chiqib, qo'ltuqindin o'tkuru sanchti, Hamza otdin tushti. Sufyon evluki Hindu kelib qorin yordi, bag'irni olib chaynadi, (224v) tilin kesti, quloqlarin kesti, ernakin kesti, yipga tuzub, bo'ynunga munchuq etti. Vahshiy ma bir ovuch qonin olib ichti. Rasul alayhis salom andog' ko'rdi-telim yig'ladi, sahobalar ma yig'lashtilar. Rasul alayhis-salom kafanlik tiladi, bulmadi, qoplon terisidin yopg'usi bor erdi, anga yo'rgadilar, yetmadi, azoqi ochuq qoldi ersa, er toni kelturub azoqlarig'a o'rttilar. Rasul anga namoz qildi. Yana biraguni kelturdilar, Hamza yonida qo'zdilar. Hamzaqa yetmish namoz bo'ldi. Azin o'luklarni yig'durub bir yo'li namoz qildilar. Anda kezin aydi: Evda qiz uyasi Vasfiya unamag'ay, yo'q ersa Hamzani ko'mmagay erdim, qush qurtlar yegaylar erdi. Qiyomat kun ularning qursog'indin chiqq'ay erdi. Yana Alig'a aydi: Sen Madinaga borg'il, yovuz xabarlar bordi bo'lg'ay. Ali otlanib Madinaga bordi, Fotimani ko'rdi, raziyallohu anho, Madina xotunlari birla chiqib Rasulqa taqi aqin sahobaqa ta'ziyat tutar erdilar, Fotimaning ko'zi Alig'a tushti ersa, raziyallohu anhumo, aydi: Yo Ali, ko'zum yoruqi, ko'nglum oromi tirik bormu? Tirik bor! tedi. Fotima sevunmishta o'gsus bo'lub tushti, yana o'ginga keldi. Uch qurla behush bo'ldi. Tekma bir aqinga kelmishta: Otam tirik bormu? teb so'rar erdi. Ul holda bir xotun tevaga minub keldi. Bir o'lukni ko'rdi, tegrasida kishilar ko'rdi. Yiroq turung ko'rayin, bu o'luk kimlar ermish, tedi. Ko'rguzdilar, otasi ermish. Otamdin menga Rasul yigrak, tedi. Yana inisin ko'rdi. Rasul manga qarindoshimdin yigrak, tedi. Yana o'g'lini ko'rdi, o'lmish. Angama andag'-o'q tedi.

Aymishlar, nazzorag'a chiqq'anlardin yetmish er shahid bo'ldi. Aymishlar, bir xotun eri birla nazzorag'a chiqmish erdi, qachon sahobalarning andog' sanchishib o'lganlarin ko'rdilar ersa, ikagu bo'yun olishib to'qushtilar, shahid bo'ldilar, tuproqlaringa tom

qo'pordilar, anga *Qabr al arusayn* atadilar. Qachon Rasul alayhis-salom Madinaga kirdi ersa Madina xotunlarin ko'rdilar, o'liklarga yig'layurlar, Hamzag'a kim ersa yig'lag'uchi yo'q. Rasul alayhis-salom aydi: Hamzaning kim ersasi bo'lsa angama yig'lag'ay erdilar, teb aydi. Xotunlar ani eshitib o'luklarin qo'zub Hamzaqa yig'ladilar. Ul kundin bu kunga tegi Madinada bu rasm qoldi, kim ersa burun Hamzaqa yig'layurlar, andin o'z o'luklariga yig'layurlar.

QISSAYI BADR AS-SUG'RO

Qachon Rasul alayhis-salom Uhud harbindin yondi ersa ko-firlarga ochliq, (225r) qahatliq duosin qildi, aydi, Iziyo, Yusuf payg'ambar qavmiga berilgan ochliq, qahatliqni bularqa bergil, teb. Ochliq bo'ldi, kuymish so'ngukni yedilar, itni yedilar, qong'a bulg'anmish yungni yedilar. Yemak uchun bir birini o'lturdilar. Sanchish kunlari to'qtushti ersa, kofirlar aydilar: Kerakmaskim, bizning oramizda olaliq bo'lsa, chiqa bilmasamiz, teb. Na'im ibn Mas'ud as-Saqafiyi o'n tevaga tutub aydilar: Borg'il, muham-madiylarni qo'rqutg'il, yurak oldurub ola bo'lsunlar, tedilar. Kel-dilar, un qildi, aydi: Arabda er atog'liq kim ersa qolmadi, qamug' chiqtilar. Siz ularning birla chiqishu bilmagaysiz. Burunqi yil ular kelib bizni o'lturdilar. Bu yil ularqa borsangiz holingiz netak bo'lg'ay, bilmasman, tedi. Ular qo'rqtilar, yurak oldurdilar. Rasul alayhis-salom: Chiqing, otlaning! tedi. Chiqmadilar. Yorlig' keldi: *Fa qotil fi sabili-llahi la tukallafu illa nafsaka va harrizil-mu'mi-ni asa-llohu an yakuffa ba'sal-lazina kafaru*. Rasul alayhis-salom evga kirdi, iki yoriq kizti, yashiq urundi, yolg'uz otlandi. Jabroil keldi, bu oyatni kelturdi: *Harrizil-mu'minin*. Mo'minlarni san-chishga yuraklandurgil. Rasul alayhis-salom yana yondi, shahid darajasin bayon qildi. Aydi: Ko'zumga ko'runu borur shahidlar qiyomat kelgaylar, qilichlar eginlarinda, qonlari oqa turur. Ul kun Ibrohim payg'ambar ularg'a o'tru kelsa yo'ldin sovuvg'ay, kech-gay, ujmohg'a kirgaylar. Yetmish er chiqti, Latima bozoringa kel-dilar, to'rt singardin ul bozorqa sotig' qilur erdilar, anga kirdilar, mollarin g'orat qildilar. Aymishlar, bir oltonqa tegar kolani yorim

oltung'a oldilar. Aymishlar, ikiga oldilar. Kofirlar qo'rqmishta o'tru chiqmadilar, mo'minlar sanchish qilmadin salomat yondilar.

QISSAYI OM AL-XUDAYBIYA VA FATHI MAKKA

Hijratqa olti yil bo'ldi ersa Rasul alayhis-salom haj va umrag'a yarog'landi, yetmish teva qurbonqa anuqladi. Ul kun Makka kofirlari hajdin kim ersa yig'mas erdilar, menima yig'mag'aylar, saqindi. Uch ming er birla otlandilar. Rasul alayhis-salom ularning jafolarin, dushmanliqlarin aytu berur erdi. Shajara otlig' yig'ochning tubinda tushtilar, bay'at qilg'ali. Netakkim, Mavlo taolo yorliqar: *Laqad raziya-llohu anil-mu'minina iz yuba-yi'unaka tahtash-shajarati*. Arab ulug'larinda to'rt yuz er yig'ildi, Rasul alayhis-salom ularin kengash qo'ldi. Abu Bakr raziyallohu anhu ura qo'btu, (225v) aydi: Yo Rasululloh, biz qamug' senga muti'miz, sening amru nahyingqa munkadmiz. Rasul alayhis-salom: Taqi so'zlang, tedi. Umar raziyallohu anhu andag'-o'q tedi. Sa'd ibn Ma'od raziyallohu anhu bildikim, Rasul ahd tilayur ansoriylardin, ura qo'btu, aydi: Yo Rasul, mundin Adanqa borur bo'lsang, sanga muti'miz, tedi. Rasul alayhis-salom ansoriylarqa madh aydi: *Al-ansoru bathiy va ayniy va asabiy*. Ya'ni bu ansoriylar menim qursoqim va iki ko'zum, singirlarim tururlar. Hijrat bo'lmasa bular valisi men erdim. Andin ko'chtilar ersa xabar keldi. Makka xalqi qamug'i chiqib yo'ltutgilar. Rasul alayhis-salom aydi: Bizni azin yo'ldin Makkaga kim boshlag'ay? Biragu tevadin inib: Men boshlag'ayin, tedi. Tevadin inib so'zlaganin, Rasul fol singardin unamadi. Azin kim ersa yo'l bilgan bormu? tedi. Yana biragu teva uzasidin: Men boshlayin, tedi. Rasul alayhis-salom: Boshlag'il, tedi. Berk yo'lg'a tushtilar, og'ishi-inishi telim, Xudaybiyaqa tegdilar. Bu Xudaybiyaqa muharram egdi, Rasul alayhis-salom tevasi anda cho'kti, qo'porg'il tedilar, unamadilar, Muhammad kelib Xudaybiyaqa tushmish, teb taqi kofirlar ko'mak yig'ib keldilar. Mo'minlar muharram uchun siloh olu kelmadilar erdi, tosh birla uru qamug'in Makkaga yondurdilar. Kofirlar kengashtilar. Muhammad ne uchun kelmish, bilaling, tedilar. Mas'ud Saqafiyi

elchi iztilar. Keldi, aydi: Yo Muhammad, ne uchun kelding? Aydi: Haj va umra o'tayin, qardoshlarimni ko'rayin, qurbon qilayin teb keldim. Mas'ud Saqafiy yetib keldi, aydi: Siz Muhammadni yondurmang, o'zi mundog' ezgu ishlarga kelmish, tedi. Menim so'zumga kirmas ersangiz, men borib anga bulushurman, Makkaga kirur, ne tilasa qilar, tedi. Aydlar: Muhammadni qo'zali, kirsun, ezguluk birla chiqsun, bizlarda kim ersani eltmasun, teb Suhayl ibn Umarni Mas'ud Saqafiy birla izdilar. Qachon Rasul alayhis-salom ko'zi Suhaylga tushdi ersa aydi: Suhayl ibn Umar fosiq er turur. Mavlo taolo ishimizni sahl qilg'ay. Anda kezin sahobalar yig'ildilar, saf turub turdilar. Suhayl kelib iki saf yuridi, Rasul alayhis-salom martepasin ko'rub tongladi. Rasulqa yaqin keldilar ersa: Bu ne bo'imachi o'proqlarni yig'ib turursen, tedi. Anda kezin ilkin Rasul alayhis-salom boshinga uzatti. Mug'ira ibn Sha'ba raziyallohu anhu Rasul alayhis-salom o'nginda yoling qilinch olib turur erdi, bo'yinin kesa chopayin teb tepundi. Rasul alayhis-salom (226r) Mug'irani tiydi. Suhayl aydi: Bu kim turur? Aydi: Og'ang qarindoshi Mug'ira turur. Suhayl Mug'irag'a aydi: To'nungni, so'ngukungni yubmu turursen, bu kun menga qilich tortasen. Yana aydi: Ey Muhammad, ne ishga kelding? Rasul alayhis-salom: Mundog' ishlarga kelib tururman, teb aytu berdi. Suhayl aydi: Sen bilmazmusen, Makkada ochliq turur. Sen mundog' qoida birla kirsang Makkada tebragu qolmag'ay, qamug' seni orzular. Bu yil borgil, yana yil kelmishta senga yo'l beraling. Uch kun turgil, ne tilasang qilg'il, tedi. Rasul alayhis-salom: Andog' bo'lsun, tedi. Yana Suhayl aydi: Bir azin so'z bor. Bizdin kim ersa musulmon bulub senga borsa bizga yondurub yuborgil, sendin kim ersa bizga kelsa ani bizdin olmag'il. Rasul alayhis-salom: Andog' bo'lsun, tedi. Rasul alayhis-salom yoronlari ani eshitib o'fkada ernaklarin tishladilar. Suhayl bu so'zga bitik tiladi. Rasul alayhis-salom Aliqa bitik bitigil tedi. Ali bitik bitidikim, *Bismillahir rahmanir rahim*. Suhayl aydi: Rahmon, rahim kim bo'lur, biz bilmazmiz? Rasul alayhis-salom aydi: Rahmon, rahimni buzg'il, netak bitisang sen bitigil, tedi. Suhayl qalam oldi, *bismika-llohumma* bitidi. Yana kog'azni Ali oldi, yana bitidi: *Haza ma solaha Muhammadun rasulu-llohi ibni Abdi-llohi ma'a Suhaylin ibni Amr kaza kaza*.

Ya'ni bu bitik tururkim, Suhayl ibn Umar birla yarashtilar. Suhayl ani ko'rdi ersa aydi: Biz seni rasululloh tedimiz. Ne so'z qoldi, seni rasul temazmiz. Rasul alayhis-salom Aliqa aydi: Rasulullohni buzg'il. Ali raziyallohu anhu rasulullohni buzmoqqa unamadi. Rasul alayhis-salom o'z ernakin tili birla o'litti, ernakin Aliqa sundi, qayu turur, ko'rguzgil, tedi. Ali Rasulning ernakin tutub *Rasululloh* kalimasi uza qo'zti. Rasul alayhis-salom ani yuvidi, aydi: Muhammad ibn Abdulloh bitgil, tedi. Bitik tamom bo'ldi, muhr qildilar. Ul holda Suhaylning o'g'li Abu Handal makkaliklardin qochib Rasulqa keldi. Suhayl ura qo'pti, Abu Handalning yaqosin tutub tortti. Makkaga elatur bo'ldi ersa sahobalar aro kirib olur bo'ldilar. Suhayl aydi. Hali bitiklashtuk, taqi qurimadi, ahdni buza turursiz. Suhayl yaqosin tutub tortar, Abu Handal adiz unun aydur: Meni kofirlar olib tururlar, izmang. Rasul alayhis-salom aydi: Ey Abu Handal, sabr qilg'il, Mavlo taolo senga taqi azin za'iflarga farah va mufarrah bergay. Biz ul qavm birla ahd qildug, ahd buzmoq bizdin loyiq bo'lmag'ay. Sahobalar ani ko'rub sabrlari qolmadi. Umar raziyallohu anhu ul so'zga butmadi, Abu Bakr Siddiqqa keldi. Aydi: Yo Abo Bakr, bu Muhammad rasululloh ermazmu? tedi. (226v) Andog' ersa bu ne xo'rluq turur, biz ko'rarbiz, bu ne emgak turur, biz tortamiz. Bu sulhni, bu shartni neluk qabul qildug. Abu Bakr aydi: Yo Umar, aqruroq tebrangil, bu Muhammad Tengrining yalavochi turur. Izi azza va jalla yorlig'idin tash ish qilumag'ay. Yana aydi: Ulardin musulmon bo'lub bizga kelganni neluk bulurmiz. Abu Bakr raziyallohu aydi: Bizga kelgan haqiqat mo'min ersa ularda turub musulmonliqni aytu bersa bersun, yigrak bo'lg'ay tedi. Umar raziyallohu anhu yana aydi: Bizdin kim ersa ularqa borsa neluk yondurub izmaslar. Abu Bakr aydi: Kim bizdin yuz o'vurub ketti ersa ul bizga kelmasa yaxshiroq. Umar raziyallohu anhu tindi, ulash aydur erdi: Ul kun Abu Bakr so'zi bo'lmasa musulmonliq ishinga ko'nglum inongutek ermas erdi. Tun kun ro'za tutub, sadaqalar berib, qul, kung ozod qilar erdim. Ul kungi so'z qo'rqunchi uchunkim, so'zladim. Anda kezin Rasululloh Madina singar yondi. Makkali Madinali orasinda bu sura nozil bo'ldi: *Innaa fatahna laka fathan mubinan liyag'fira laka-llohu ma taqaddama min zambika va ma ta'axxar*.

Umrat al-qazo

Yetinchi yil Makkaga keldi, Makka xalqi qamug' o'tru chiqtilar. Rasul alayhis-salom Makkaga kirdi, Ka'baqa ziyorat qildi, tavof va umra kelturdi, qurbonlar qildi. Biraguni Rasulg'a muakkil qildilar, uch kun tursun, bir soat ortuq qo'zmag'il, tedilar. Uch kunda kezin Rasul alayhis-salom yondi. Ul kun Rasulqa uch sevunchlar jam' bo'ldi, tedi. Ja'far Tayyor kelmagi, ikinch, fathi Xaybar, uchunch, Rum g'alabasi Forsg'a tegi.

QISSAYI FATHI XAYBAR

Sekizinch yilda Rasul alayhis-salom cherik birla Xaybarqa otlandi. Ular qamug' juhudlar erdilar, o'truda chiqtilar. Iki cherik ko'rushdilar, saf tuzdilar. Juhudlardan muboriz chiqti, kofir musulmonni shahid qildi. Yana biragu chiqti, anima o'lturdilar, mundag'in, taqi musulmonlar o'ldi, mo'minlar ko'ngli sindi. Rasul alayhis-salom aydi: Ali ibn Abu Tolib qani? Ul kun Alining ko'zlari og'riq erdi, Rasulqa keldi. Rasul duo qildi, og'zi suvin olib ko'zinga surtdi ersa ko'zlari xush bo'ldi. Zulfiqor oldi, otlandi, aydong'a kirdi. Biri biring'a: Sen tepung'il, tedilar, she'riar aydilar, juhud Aliga tepundi, Ali otidin sekrib indi, otning qorni ostindin kirib ul yong'a chiqti. Kofirning bir qo'lini kesa chopti. Yana bir juhud kirdi. Ali angama andag'-o'q qildi. Juhudning singar butin kesa chopti. Kofir o'z butin olib Alig'a otti. Uchunchida yana bir juhud kirdi, Ali juhud birla to'qush qildi. Ali juhudni tepasinga urdi, boshi yashiqi birla iki pora bo'ldi. Juhud anglamayin qoldi. Juhud aydi: O'ngulmading. Ali aydi: (227r) Boshingni irg'ag'il. Boshin irg'adi ersa iki azrilib tushti. Juhudlar qochtilar, mo'minlar so'ngincha kirdilar. Juhudlar hisorg'a kirib qamug' berkittilar. Ali kelib qapug'ni tutub, tubindin qo'ng'urub, qirq arshun yer ortg'aru kemishti. Ul holda Ali o'z kuchinga kuvandi. Jabroil o'zin ko'rguzdi, men sening birla erdim, tedi. Yana aydi: Qapug'ni emdi tebratgil, teb. Tebratu bilmadi. Jabroil elga kirdi, mol oldilar, bulun qildilar. Ali raziallohu anhu bir saroy ichinda bir xotun ko'rdi, yavloq ko'rkluk. Bu Rasulqa yarog'liq turur, teb kelturdi. Rasul alayhis-salom aning yuzin ochib

ko'rdi, yangoqi ko'karmish. Aymishlar, oti Safiyya erdi, juhudlar ulug'i Hayyi ibn Axtab qizi erdi. Tunla eri birla yoturda tushinda ko'rdi, oy inib aning qo'yunug'a kirur. Uyg'onib tushni eringa aytu berdi. Eri o'fkalar Oy Muhammad turur, animu orzulayursen, teb bir yangoqladi. Yangoqidaqi ko'kul erdi. Anda kezin Rasul alayhis-salom Safiyyaqa aydi: Yuzundagi ne ko'k turur? Senmu aytursen yo menmu aytayin? tedi. Safiyya aydi: Sen ayg'il, tedi. Rasul alayhis-salom ul tush qissasin aytu berdi, Safiyya musulmon bo'ldi, Rasul alayhis-salom nikohiqa kirdi. Aydi: Yo Rasululloh, sendin bir hojatim bor. Na turur? tesa, menim qarindoshlarimdin jizyani ketargil. Rasul alayhis-salom ulardin jizyani ketardi, bitik berdi, ul bitik bu kun juhudlarda bor. Amir al-mo'minin Ali raziyallohu anhu xati birla ani teparruk uchun tutub mubohot qiturlar. *Va-llahu a'lamu bis savab.*

QISSAYI IJLOYI BANI NAZIR

Ijlo - eldin chiqarmoq bo'lur. Bu ijlo Bani Qurayzani o'lturmishta kezin iki yilda erdi. Rasul alayhis-salom Madinaqa kirdi, Bani Qurayza va nazir birla abd qildilar. Aydilar: Biz sening birla⁶ harb qilmazbiz, senma bizga qatilmag'il, sening ishingda kengash qilaling. Maqsudlari ul erdi, Tavrotda ko'rmish erdilar, oxir uz-zamonda bir yalavoch qo'pg'ay, nusratlig'. Ul nusrat Badr to'qushi erdi. Avval sanchish ul erdi. Ikinchi yil Uhud to'qushi erdi, munhazim bo'ldilar, Juhudlar aydilar: Nusratlari qolmadi. Ani xato aydilar. Tavrotta yo'q erdikim, ulash nusratlig' bo'lg'ay, teb. Yana bir javob ul turur, mo'minlarqa ulash nusrat erdi, ammo kofirlar bilmadilar. Kofirlar sanchmishta kendu nusrat turur. Shahodat bo'lsa nusrat turur, ujmohlik bo'lur. Nechama Tavrotda Muhammad sifatini ko'rdilar ersa imon kelturmadi. Onchada Ka'b birla yetmish er Makkaga keldilar, qamug' qurayshni yig'dilar, Aydi: Men Muhammad birliki ahdni sindurdum, siz mundin otlaning, biz andin kelaling. Muhammadni qo'ldoshlari birla o'ldurali. Ular Ka'bning tutug'lari orasinda o'lturur erdilar. Biragu qo'pti, aydi: Bizing bir anchamiz o'g'ul-qiz munda qo'yub Muhammad birla Madinaga bordi, (227v) bir anchamiz munda

qoldi, o'z ishlarin qilurlar. Qayusi fozilroq turur? Ka'b aydi: Ular anda borib imon kelturdilar, bular ortuqroq turur. Mavlo taolo javob yorliqadi: *Ulaikal-lazina la'annahumu-Ilohu*. Bu so' birla yondilar. Mavlo taolo Jabroilni izti. Muhammad rasulullohga Ka'bning fe'lindin xabar berdi, sahobada biraguni izg'il, Ka'bni o'ltursun. Salkan ibn Al Bashar otlig' muboriz erdi, ani bu ishga izti. Ul aydi: Men borib bu ishni biturayin. Ammo Muhammad ibn Muslima aning sut emmish qarindoshi turur, birla borsun, ani undab evdin chiqarsun. Aydi: Yo Rasululloh, men borg'aymen, ani evdin chiqarg'aymen. So'zlashur holda sening singardin yarog'siz so'z so'zlamakka muhtoj bo'lsa netak qilgayman? Rasul alayhis-salom aydi: So'zlasang ziyon qilmag'ay. Bir qach qo'ldosh olib bordilar. Muhammad ibn Muslima qo'ldoshlarin tom ortinda qo'yub, o'zi kelib qapug' qoqti. Ka'b: Kimsen? teyu so'r'di. Muhammad ibn Muslima aydi: Men emukdoshing Muhammad ibn Muslimaman. Ne ishga kelding? tesa, aydi: Ey Muhammad, bizdin jizya qo'la turursiz, egu ichgu bulmazzimiz, sendin narsa bo'rch qilg'ali keldim tedi. Ka'b aydi: Menga tutug' narsa bermaginchu bermasmen. Muhammad ibn Muslima aydi: Tutug' kelturub tururman, tedi. Ka'b qo'pti, tomidin ingali o'g'radi. Evluki etakin tutti, aydi: Bu un yarog'siz un turur. Men munda qon asari ko'rarman, tedi. Bu tishi folchi erdi. Mundan burun bir sig'un qapug'g'a kelib, mo'ynuzi birla qapug'ni qoqmish erdi. Fol singardin andog' tedilar. Ka'b aydi: Agar qorong'u tun ichinda bir ezgu urug'luq kim ersa meni o'lturgali undasa ijobat qilg'ayman. Bu na fol bo'ldi, teb tomidin indi. Salom qildi, bo'ynun qucha tutti. Ka'b aydi: Sendin totlig'yiz kelur, esruk bo'lg'aymussen? Bo'lg'ayman, tedi. Anda kezin sochini tutti, quzi tortti. Qo'ldoshlarini undadi, tom tubindin sekriyu qo'ptilar, qilich birla urdilar. Avval urmishta bir chaqirdi, evluki tom uzasindin bir chaqirdi. Mundag'in urur, o'lturdilar. Avval qilich birla ururda bir sahobaning azoqiqa qilich tegdi, tushdi, aydi: Meni munda qo'zung, siz qoching. Rasul alayhis-salomqa mendin salom tegurung. Aydilar: Seni netak qo'zaling, olib boraling yo kendu sening uchun munda sanchishaling. Uchalariga ko'tarib qochtilar, juhudlar tuydilar, kelib o'lukni ko'rdilar, silohlarin olib ezardilar, kim ersani bulmadilar. Ul holda Jabroil keldi, aydi: Yo Rasululloh,

ular yig'ilmasdin burun borg'il. Yilqi qoralari (228r) bo'sh, iyasiz qolib turur, tedi. Bordilar, hisorg'a kigurdilar, bulg'anni o'lturdilar, saroylarin buzdilar, tosh birla urdilar, bog'larin, bo'stonlarinqa kirib xurmo yig'ochlarin kestilar. Tekma bir xurmo yig'ochi bir qul baholig' erdi. Aydilar: Siz, fasod ishlarini sevmasmiz teyursiz, yana yig'ochlarni kesarsiz, yovuq qoralar ko'nglinda muni ravo ermas, tegaylar. Ko'rmaslarkim, Izi azza va jalla yorliqar: *Ma qata tum min liynatin av taraktumuha qoimatan ala usulih fa biizni-llahi va liyuxziyal fasiqin*. Juhudlar ojiz bo'ldilar, yolbordilar, omon qo'ldilar. Rasul alayhis-salom omon berdi ul shart uzakim, uch ev xalqi yig'ilib, evdaki qumoshlarin bir tevaga yuklab, yozar-o'q tegmasunlar, tevadin tushgan bizga, orqasinda qolg'an sizga, teb. Rivoyat qilur. Abu Sa'id al-Faryobiy: Qachon tevalarga yuklab tangg'isiz iztilar ersa qamug' idishlar, eski qurimish qoplar tevadin tushub qoldi. Iyar ittilar ersa tevalar urktilar, sekrishtilar, qochtilar. Orqasida yuklari qamug' tushtilar Sahobalar qamug'ini yigib oldilar, ellarin arittilar. *Huval-lazi axrajal-lazina kafaru min ahli-kitabi min diyarihin li avvalil-hashr*. Ya'ni arabni Jazoirdin Adarg'a va Irthoqa, Shomqa tegi ijlo qildilar.

BANU QURAYZANI O'LTURGAN SO'ZLARI

Banu Qurayza Rasul ahinda erdilar, qachon Ommi Ilo xarob bo'ldi ersa yeti turluk cherik keldi, o'n besh ming er erdilar. Banu Salamadin Abu-al-A'do as-Salamiy keldi, Akrama ibn Abi Jahl va Sufyon ibn Har birla Madinani egirdilar. Rasul sahobalar birla kengashti. Salmon aydi: Madina tegrasin qarim qazaling. Qarimni o'z elinda ko'rmish erdi. Qarim qaza boshladilar, ichinda tosh chiqti, metin anga o'tmadi. Rasul alayhis-salomqa xabar qildilar, keldi, ul toshqa suv sochti. Metin olib: *Bismillahir rahmanir rahim*, tedi. Uch qurla metin urdi, to'ng tosh qumtek ushandi. Salmon ayur raziyallohu anhu: Men ul soat qarim boshinda erdim, tekma metin urmishincha nur o'rlayur erdi. Ul nur ichinda shaharlar ko'rurur erdi. Rasulqa xabar berdim ersa Rasul alayhis-salom aydi:

Ul shaharlar tururkim, menim ummatim uchun ochilg'ay, Fors va Rum va Xuroson taqi azin shaharlar. Abdulloh ibn Ubay muni eshitti, aydi: Ul eldagi xaloyiq andog' ermaslarkim, Muhammadni ellaringa (228v) yovutsalar. Bu kun bir qarimdin bir qarish chiqqa bilmazmen, ul ish qachon bo'lg'usi. Salmon raziyallohu anhu bu so'zni Rasulqa eshittirdi. Rasul alayhis-salom ul so'zdin qazg'ulug' bo'ldi. Mavlo taolo bu oyatni izti: *Quli-llahumma malikal-mulki tu'til-mulka man tasha'u*. Jobir aytur raziyallohu anhu: Men qarim boshinda o'lturur erdim, Rasul ko'nglakin etagin ko'turub egninga kemishiti. Etagi ostindin ko'rdum, qorning'a tosh tegmish. Ani ko'rdum ersa egu ichim to'lg'andi. Qo'ptum, evumga bordim, evlukumga aydim: Rasulullohni mundog' ko'rdum. Narsa yegu taom bormu? tedi. Evlukum aydi: Bir sog'u arpa bor, bir echku bor. Un ugitayin, sen echkuni bo'g'uzlag'il. Jobir echkuni bo'g'uzladi, evluki un ugitti. Tanurqa o't kemishiti, oshich osti, Rasul alayhis-salomqa aydi: Bir sog'u arpa bor, bir echku bor. Emgaklik bo'lub bizning taomdin totsangiz bo'lg'aymu, tedi. Rasul alayhis salom yorliqadi: Sen borg'il, xotunungg'a ayg'il, tanur og'zin ochmasun, o'tmaklarin chiqarmasun, men kelgincha, teb. Jobir kelib evlukinga Rasul alayhis-salom so'zun tegurdi. Anda kezin Rasul alayhis-salom sahobalarqa nido qildi, aydi: *Qumu ila bayti Jabirin fa inna Jabiran ittaxaza lana shaviyyan*. Rasul alayhis-salom forsiy tilincha bu bir so'zladi, uch yuz sahoba yig'ildilar. Aymishlar, yetti yuz erdi Jobir eviga bordilar. Jobir yiroqdin bu xaloyiqni ko'rdi ersa kirib evlukinga aydi: Rasul alayhis-salom bu telim xaloyiq birla kelur. Evluki aydi: Bizning taomumuz necha erdukin Rasul alayhis-salomqa aytmadingizmu erdi? Jobir aydi: Aydim. Evluki aydi: Ayding ersa qazg'urmag'il, Mavlo taolo barakot bergay, teb. Onchada Rasul alayhis-salom qavmi birla kirdi, tanur boshinda turuqtillar. Tanur boshin ochti, qutlug' og'zindin urdi, oshich og'zin ochti, anga urdi. Suфра kelturung, tedi. Tanurdin etmak chiqaru boshladi, oshichdin et va osh kelturu boshladilar. Qamug' xalq osh, etmak, et yeb to'ydilar, ul taomlardin taqi boqiy qoldi. Aymishlar, Hayyi ibn Axtab bani Nazirdin Makkaga borib, Muhammad birla sanchishg'ali tahriz qildi. Abu Sufyonqa aydi: Men borib banu Quravzani Muhammadin

yondurayin, tedi. Tun ichinda borib qapug' qoqti. Kimsen? tesa, Hayyi ibn Axtabmen, qapug' oching, tedi. Aydilar: Qapug' ochmazmiz, sen badbaxt shum turusen. Banu Nazir sening shumluqingda halok bo'ldilar, biznima halok qilursen, tedilar. Aydilar: Ey, qavm, men ochib tururmen, manga taom kerak. Qachon taom so'zin eshittilar ersa qapug' yopmoqni or ko'rdilar, qapug' ochtilar. Taom kelturdilar, yeyu boshladi (229r). Aydilar: Sizlarga bir nasihatim bor. Bu cherik tegdi, yonmas Muhammadni o'ldurmagincha, Madinani buzmagincha sizlarni qo'zmaslar. Aning uchun kim Muhammad birla tilliksiz. Ular, netak qilaling? tedilar. Aydi: Men o'gratu berayin, qachon Muhammad sizga kishi izsa menga bo'lushung tesa, siz aytng: Biz ikagu erdam erduk, yolg'uz qolduq, banu Nazir mengizlik biroz (R)um cherik kelturgil, onchada sanga bo'lushg'aymen. Biz sening' birlaki ahdni buzdumiz teb so'zlang. Anda kezin chiqib Abu Sufyondin kishi kelsa anga bo'lushung, teb chiqdi. Abu Sufyonga keldi, aydi: Mundog' tedi, ular Muhammadin o'vruldilar. Abu Sufyon o'l tun ichinda nadimlarin, xoslarin undadi. O'zi chodirda erdi, ular yig'ilib keldilar, aydilar: Sizing orangizda kim ersa yosh bor ersa ikini tutung, tedi. Ul Huzayfa al-Yamaniy Rasulullohdin josus erdi, ul tun ichinda kuffor cherikinga kirdi, so'zlarin eshitti, amallarini angladi. Xalqni Abu Sufyon chodiringa kirurin ko'rdi ersa ularning birla kirdi. Qachon, yot kishi bor ersa tutung teyu, so'z eshitti ersa, aytur: Qo'rqtum, ilkimni azin kim ersa tutmasun, tedi. Oshuqa yana biraguning ilkin tuttum: Kimsen? teb so'rdum, men falonmen, tedi. Qachon bularning ilklarini tutushtilar ersa qaror qildi. Abu Sufyon aydi: Biling, Hayyi ibn Axtab Qurayzag'a borib mundag' ishlar biturdilar, Muhammadin yondilar, bizga bo'ldilar. Ani eshitib qamug' chodirdin chiqib taridilar. Huzayfa aytur: Menne ularning birla chiqtim, bir qo'rug'da o'lturdim, biragu keldi, qilich birla urayin tedi ersa Rasul alayhis-salom vasiyati ko'nglumga tushti: Men sizga kelmagincha yangi ishlar qo'pormang, temish erdi. Ani saqindim, o'lturmadim, anda kezin Rasul alayhis-salomqa keldim. Ko'rimishim, eshitishimni ayta berdim. Umar raziyallohu anhu aydi: Yolg'on aytursen? Huzayfa aydi: Ul kun yolg'on so'zluk sensen, tedi. Umar aydi: Yo Rasululloh, ko'rmazmusen, meni

yolg'onchi teyur, so'ka turur. Rasul alayhis-salom Umarqa aydi: Huzayfa ko'ni so'zlayur, sen uzoqi vaqtlarda butlarni Mavlo taoloqa o'rtoq turur teb telim aytmish erding. Huzayfa ani aytur erdi, tedi. Onchada Na'im ibn Mas'ud as-Saqafiy aydi: Sen munga qazg'urmag'il, men islom kelturdum, o'g'lum, qizim bilmaslar, men borib banu Qurayzani bizing singar o'vurayin, teb bordi. Ularni yig'di, aydi: Men sizni Muhammaddin o'vruldi, Abu Sufyon singar bo'ldi teb eshittim. Ey miskinlar, Abu Sufyon Muhammadni enggaymu sanursiz. Ravo bo'lg'aykim, Muhammad ani yenggay. Ular ketgaylar, sizlar qolg'aysiz, Muhammad ilkinda qamug'unguzni qirg'ay, banu nazirni qirmishtek. (229v) Ular aydilar: Bizga netak qilg'il teyursen? Aydi: Qachon Abu Sufyondin sizga kishi kelsa siz aytng, bizga kelgali abushqalarni izg'il, bizda tutug' tursunlar, ravo bo'lg'ay, sizing cherik sing'ay, bularning ilkinda qolg'aysiz. Agar yo'l sizga bo'lsa ularni og'irlab sizga izg'aymiz, agar Muhammadga bo'lsa bizga orqa bo'lg'aysiz. Ular aydilar: Muni yaxshi ayding. Qo'pti Abu Sufyonqa bordi. Aydi: Men banu Qurayzada erdim, ulardin mundog' so'zlar eshittim, sendin o'n abushqalar tilayurlar ermishlar, Muhammadqa izmoq uchun. Emdin muning tahqiqin bilayin teyur ersang kishi izg'il. Keling, sanchishqa boraling tegil. Yorindasi kun Abu Sufyon kishi izti ersa Na'im o'gratu bergan so'zlarni aytu berdilar. Kelib Abu Sufyong'a ul so'z tegurdi, Abu Sufyon o'fkalab ularni so'kti, juhudlar aydilar: Bu mal'un bizga makr qildi, teb, ul tun ichinda qatig' yel qo'pti, chodirlarin buzdi, yerdin qo'ng'urdi, havoqa ag'durdi, yana yerga chaldi, qamug'ini halok qildi. Yorindasi kun Rasul alayhis-salomning sahobalari sanchishsiz g'animat oldilar. Rasul alayhis-salom manzilga yondilar, sochi, saqoli qarim tuproqdin to'g' bo'lmish erdi, xotunlarinda biri sochi, saqolin yuvg'ali o'g'radi. Jabroil kelib aydi: Yo Muhammad, soching soqolingmu yuvdurusen, biz farishtalar qanitarimiz to'zi tuproqin silkimadin tururmiz, boshingda suv (to'kub). Banu Qurayzaqa otlang'il, tutub bulun qilg'il. Rasul alayhis-salom otlandi, kumrug urdilar. Cherik boshlab banu Qurayzaqa bordilar. Hisorqa kirmish erdi, suvlar oldi, suvsadilar ersa suv idishlarin og'izlariga qo'yub suv ichkali o'g'radilar. Suv bulmadilar. Mavlo taolo qazosindin bir o'q keldi,

Sa'd ibn Maozning ko'zinga tegdi, qatig' og'ridi. Izi azza va jallaqa yalboardi: Ilohiy, banu Qurayzadin o'chumni olmag'uncha jonimni olmag'il, tedi. Qatig' suvsadilar, umasqa tegdilar, omon qo'ldilar. Rasul alayhis-salom aydi: Omon bermazmiz illo Sa'd hukmi birla Abu Labona, Bani Abdulmunzimi izti, so'r'di ersa ilki birla bo'g'zinga ishorat qildi. Aydilar: Munung hukmunga kirmang, o'ldurmakni unayur, tedilar. Abu Labona aytur, taqi azoq yalingmadim erdi, bildimkim, Allohqa taqi Rasulqa hiyonat qildilar. Bu oyat nozil bo'ldikim, Qavlulu taolo. *Ya ayyuhal-lazina amanu la taxunu-Iloha var-rasula*. Chora bulmadilar, kelib Sa'dning azoqinga tushilar. Sa'd aydi: Meni ko'turung, yozig'a chiqaring, chiqardilar, Sa'd aydi: Qachonqa tegi xilofni (230r) saqlayin, hukm qildim, eranlarin o'turung, xotunlarin bulnang, o'g'lonlarin oling. Rasul alayhis-salom: Menme Izi azza va jalla hukmi birla qildim, tedi. O'turu boshladilar, anchada Hayyi ibn Axtabni kelturdilar. Abqori to'nlar kiygizib turur erdi, bildikim o'tururlar. Ilki birla to'nuni yirtti, pora qildi. Yana biraguning Rasul alayhis-salom sahobalarinda do'sti bor erdi. Rasul alayhis-salomdin ani qo'ldi, Rasul alayhis-salom anga bag'ishladi, do'sti aydi: Menseni Rasuldin qo'ldum, tedi. Ul er aydi: Ul falon yog'i qayda turur? Aydi: Ularni o'ldurdilar. Yana so'r'di: Hayyi ibn Axtab qayda turur? Aydilar: Ulma o'ldi. Bu er ura qo'pti. Ularda kezin manga tiriklik kerakmas, menma o'turung, tedi. O'turdilar. Rasul alayhis-salom sahobalar birla ularning xotunlarin, o'g'ul-qizlarin bulun olib keldilar.

G'ULIBAT AR-RUM ALA AHLI FORSIY

Rasul alayhis-salom to'rt bitik qildi, birini Rum maliki Qaysarqa izti, ikinchini Habasha maliki Najoshiyqa izti, uchunchini Misr maliki Maqavqishqa izti, to'rtunchini Fors maliki Kistroqa izti. Ammo Qaysarni aymishlar, islom kelturdi, ba'zi aymishlar, islom kelturgali o'g'radi, ammo o'z mulki zavol bo'imoqdin qo'rtqi, cherikin sinamish bo'lub ko'raga urdi, qamug' cherikin yig'di, qapug' berkittilar, saroy tepasinga og'di. Ey menum qavmum, Muso yalavoch aydi: Menda kezin Iso yalavoch kelur, Iso yalavoch

aydi: Menda kezin Muhammad yalavoch kelur. Emdi Muhammad chiqti, aning dinindin sizni kim yig'ar. Ular aydilar: Onchasi bor, sen cherik yig'ib o'tlanurqa o'g'radig, yo'q ersa senima kes kes qilur erduk. Anda kezin aydi: Men sizni bu dinimiz ichinda-o'q erurlarmu, ermasmu teb sinayur erdim. Alhamdu li-illohi diningiz ichinda ustivor ermishsiz, tedi. Ammo Misr maliki Maqavqish imon kelturmadi, valekin Rasul alayhis-salomga bo'laklarin izti. Aymishlar, bir misriy eshak izti, Yoffur otlig', kunyati Abu Ziyod, yana bir qul o'g'lon izti, Shirin otlig', yana bir qorabosh izti, Moriyat al-Qibtiva otlig', yana bir xatir izti Duldul otlig'. Ammo Habasha maliki Najoshiy imon kelturdi, bitikka javob izti, aydi: Yo Rasululloh, meni kelgil teyur ersang kelayin, kelmagil teyur ersang turayin, qayu musulmon manga kelsa og'irlayin, tedi. Rasul alayhis-salom javob bitidi: Bizga kelmagil, uyungda-o'q turg'il. Ammo Fors maliki Kisro Rasul alayhis-salom bitigin yirtti, Rasul alayhis-salomni ho'rladi, aydi: Elchini o'ldurmak podshohlar to'rasi ermas, yo'q ersa seni o'lturgay erdim, tedi. Elchi keldi, Rasul alayhis-salomga aytu berdi, Rasul alayhis-salom aydi: Mening bitigimni buzdi ersa o'zini buzdi, mening birla (230v) yarashsa mulkima omon qolg'ay erdi. Yana aydi: Kisro o'lsa qamug' xazinalarin Izi azza va jalla yo'linda xarj qilg'aymiz. Kisro ancha birla tab qilmadi, Yaman ulug'i Bozonqa bitik izti, borg'il, Muhammadning bo'ynini bog'lab manga kelturgil. Bozon iki tojikni Rasul alayhis-salomga izti, kelib aydilar: Tengrimiz seni kelgil teyur. Rasul alayhis-salom bularni ko'rdi, saqollari yulimish, miyiqdari bor, neluk mundog' qildingiz? tedi. Aydilar: Tengrimiz Kisro mundog' buyurdi. Rasul alayhis-salom yorliqadi: Bizg'a Tengrimiz miyiqni kesgil, saqolni qo'zg'il teb buyurdi, Rasul alayhis-salom yavloq karim erdi, ularni tushurdi, qo'nuqladi, qachon tunla bo'ldi ersa namozqa turuqti, tong otti ersa Jabroil yetidi. Aydi: Yo Muhammad, Mavlo taolo Kisro o'g'li Sheruyani Kisroqa musallat qildi, o'ldurdilar. Anchada bu iki tojik yana keldilar, aydilar: Yo Muhammad, qo'pg'il, seni Tengrimiz undayur. Rasul alayhis-salom: Boring, menim Tengrim sening Tengrimni o'ldurdi. Tojiklar aydilar: Andog' temagil, ul eshitsa sanga qin uza qin qilgay. Rasul alayhis-salom: Boring, tedi. Bordilar, maliklari Rasul alayhis-salom aymishtek o'ldi. Qachon

tojiklar Rumqa g'alaba qildilar ersa mushriklar sevundilar. Aydilarkim, andog' tojiklar Rumg'a g'alaba qildilar, kitob izalari tururlar, mundag'-o'q, bizma sening uza g'alaba qilg'aymiz, ammo sizlar kitob izalari bo'lg'usisiz. Aymishlar, bu munozara Abu Bakr as-Siddiqqa tushti, Ubay ibn Xalaf al-Jamjij birla Abu Bakr aydi: Ul bizga temak erdi, aning baqosi yo'q, terk ro'zgorda Rum ahli tojiklar uza g'alaba qilg'aylar. Ubay ibn Xalaf al-Jamjij aydi: Hargiz Rum xalqi forsalar uza g'olib bo'lmag'aylar. Bu so'zga o'chashtilar, besh yilda bu ish bo'lmasa Abu Bakr besh teva bermak bo'ldi. Yana aydi: Rasul alayhis-salomqa so'rayin, ya'ni savol qilayin, tedi. Savol qildilar ersa Rasul alayhis-salom aydi: tevani orturg'il, yilni uzatg'il. Abu Bakr keldi, aydi: Muni ortuqroq qilg'il. Yilni yeti qildi, tevani o'n qildilar. Qachon Rasul alayhis-salom hijrat qilur bo'ldi ersa Ubay ibn Xalaf kelib Abu Bakrga, raziyallohu anhu, aydi: Sen borursan, bu o'n tevani kim manga berur? tedi. O'g'li Abdurrahmonni tutug' berdi, qachon Ubay ibn Xalaf Badr to'qushing'a chiqar bo'ldi ersa Abdurrahmon aydi: Menne sendin tutug' qo'larman, sani o'ldursalar teva kim berur? tedi. Qachon Rasul alayhis-salomni ko'rsa erdi, yer ostinda bir ot asrab tururmen, ul otg'a minub hindiy darrasi birla seni o'ldurgum turur, teyur erdi. Rasul alayhis-salom aydur erdi: Yo mal'un, men seni o'ldurgum turur. Qachon Badr to'qushi bo'ldi ersa (231r) ul asramish otina minub keldi. Rasul alayhis-salom biraguga aydi: Sunguni manga bergil. Berdi ersa sunguni olib tepundi. Ani tepasinda erkan, sungu birla bo'g'zinga sanchti. otin yondurub qochti, meni Muhammad o'ldurdi, teyur erdi. Aydilar: Uftanmasusen, muncha sanchqan birla o'lgali. Ul aydi: Bu kun Muhammad og'zindin yel ursa o'larman aning uchunkim, men sani o'ldurgali temish erdim. Anda kezin shishti, uruldi, o'ldi. Abdurrahmon o'g'lini tutdi, so'zlashgan o'n tevani oldi. Aymishlar, Rum ahlining g'alabasi fors tojiklari uza sabab ul erdikim, Kisroning bir cherik begi bor erdi, Shohbazod otlig', davlatlig' er erdi, qayu elga yuz ursa olur erdi. Ulashu Rumqa cherik tortib, olur erdi. Kisro anga hasad qildi, bo'ynag'uluq qilg'ay teb qo'rqi. bitik bitidi, elchilar birla izti, singar etukung kizik ersa singarini kizmadin manga tark kelgil. Bu bitik bermishta kezin soqindi, kerakmaskim kelmasa. So'ngincha yana bitik izti:

Kerakmaskim, seni undagan ishimiz butti, tedi. Shohbazod Kisoning qatinda til olg'uchisi bor erdi, xabar izti: Zinhor kelmagil, kelsang seni o'ldurur, tedi. Burunqi bitik tegdi ersa bitikni yirtti, ikkinchi bitik eti, burunqi bitik eltganga aymish erdi: Ul bitik birla yetsa bu bitikni bermagil, yetmasa bergaysen, temish erdi. Burunqi elchiga aydi: Bu so'zni kim ersaga aymag'il, kizlagil, sanga muncha narsa bergaymen, teb yana aytur. Bildi ersa Rum malikiga bitik izti, men sening yo'lungdin savuldim, sen borg'il, Kisoni o'ldurgil, ul manga yavuz saqindi, kuchluk eranlar manda turur teb, siloqlar menda turur teb. Anda kezin Shohbazod azin elga chiqti, anda o'lturdi, og'ir cherik birla bu cherik Kiroga tegdi, qazg'ulug' bo'ldi, evga kirib o'lturdi. Bir tetik, aqlig' qizi bor erdi, otasinga: Ne bo'ldung? teyu so'rdi. Otasi bu so'zlarni aytu berdi, qizi aydi: Sanga bir narsa o'gratu berayin, bizning elimizda kim ersa tarso bormuyo? tedilar. Tiladilar, bir tarso buldilar. Bitik bitidilar, nima yaxshi ish qilding, al birla ani Rumdin chiqarding, sen andin kelgil, men mundin chiqayin. Shohbazodni oradin ketaraling. Yana aydi: Zinhor Qaysarqa narsa so'zlamang, teb bitikni yaqosinda kizladi. Yana bitidi: Shohbazodning bitikchisi bitigi birla Kiroga: Men al birla qildim, Qaysarni men eldin chiqardim, tarkrak kelgil, o'lturaling, teb bir mug'g'a berdi, jamozaqa minub tebradi. Qachon tarso Qaysar cherikiga yetti ersa adiz unun (231v) aydi: Kiro manga bitik bermadi, menim yoqamda berkitmadi. Ular aydilar: Bu ne so'z bo'lur? Un tinglayur bular muni buldilar, yaqosida bitikni oldilar. Onchada teva minib mug' yetildi, anima tuttilar. Shohbazodin Kiroga bitik bo'ldi, Qaysar o'qidi, butqa topung'anlariqa aydi: Meni o'ldurgali o'g'ramishlar, teb qochti, Rumqa kirdi. Bu xabar Shohbazodqa tegdi, Kiro mundog'lar qildi, teb Qaysarqa bitik bitidi. Tengri tuta ond yod qildi: Bu ishlar Kisoning bitigi turur, manim xabarim yo'q. Yana aydi: Men kim ersaga bo'lushmasman, bilgil, tedi. Cherik oldi, aqu-aqru Kiroga bidurmadin bir yig'ochliq yerga keldi, kecha bo'ldi ersa elga kirdi, xazinasin oldi. Kisoni isig' suvda buldi, chiqardi, o'g'li Sheruyaning bo'qag'usin oldi, otasi azoqinga urdi. Aymishlar, o'g'li Sheruyani otasi Kiro aning uchun buqog'ulamish erdi, Kisoni xazina ichinda zindong'a kemishtilar, tunning avvalinda turg'anlar Kisoning atayurlar erdi,

tunning oxirinda Sheruyaning atayur bo'ldilar. Shoh Bazod bildikim, Sheruyani mamlakatga o'ltursa shahvat birla mashg'ul bo'lg'ay teb, bir qop ichinda og'u to'ldurub, bu doru erlukka yarar teb uzasinga bitib qo'zdi. Tong otdi ersa Sheruya bir erga buyurdi, kirgil, Kisoning boshin kesgil, teb. Ul er kirdi ersa Kiro aydi: Ne ishga kelding? Aydi: Seni o'lturgali keldim. Kiro aydi: Meni o'lturgil, kim otasini o'lturganni bulub o'lturmasa haromzada bo'lur, tedi. Chiqti ersa Sheruya so'rdi: Sanga na so'z so'zladi? teb. Mundog' teb aytu berdi, sen na teding? tesa, seni o'lturmadim ersa haromzada bo'lg'ayman tedim. Anda kezin o'lturdum, tedi. Aymishlar, bir kun Sheruya xazinaqa kirdi, bu qopni ko'rdi, bitiklik, erlik dorusi turur, teb oldi, bir anchasin edi. Ul-o'q soatda o'lmadi, valekin o't andoming'a qurt tushdi, o'lardin bildi ersa, mulki ichinda kim ersa o'rung'a o'lturg'utek bor ersa, qamug'in o'lturdi. Anda kezin o'zi o'ldi, o'lmishta kezin ikaguni yana o'lturdilar. Bo'ron otlig' qizi o'rmung'a o'lturdi.

QISSAYI HAVOZIN

Havozin viloyatidin to'rt ming er otlandi, Rasul alayhis-salomqa o'g'radilar, Rasul alayhis-salomqa xabar bo'ldi, o'n ming er birla qamug' (232r) silohlig'lar otladilar. Rasul alayhis-salomqa yavloq xush keldi, Biragu aydi: Kim ersa bizning birla turushmag'aylar. Rasul alayhis-salom ani eshitib unamadi, bu er menim cherikimni yelga berdi. Yana aydi: Bu dunyo yalavocho birla ko'p to'qushti, Dovud dunyo sevukluki birla muftalo bo'ldi, menma xunin kuninda cherik qavurluqinga xushlanib muftalo bo'ldum, tedi. Qachon sanchishqa turdilar ersa Havozin o'g'li aydi: Sizlarda to'rt ming qilich bor, qilichlarning qinlarisiz urub soling. Anda kezin etaklaringiz berk bog'lang, mundag'in qora tog'g'a o'g'rasangiz tubindin qazg'aysiz, tedi. Andog' qildilar ersa islom cheriki sindi, qochtilar. Izi azza va jalla nusrat uchun farishtalar izti, Qamug' ola otlig'lar ko'rdilar ersa qo'rtular, Muhammad cheriki bizga busug' urub turur, teb qochtilar. Islom cherigi so'nglariga kirdi, farishtalar ilgarudin bo'ldilar, bir anchani o'ldurdilar. Avf

ibn Molik an-Nasriy o'g'lonlarin tutub kelturdilar, aytur: Ola otlig' qayda turur? Rasul alayhis-salom aydi: Sizga uch ish bor, qayusin tilayursiz, sizdin kechuralingmu yo sizni o'lturalingmu, yo islommu kelturursiz? Aydlilar: O'ldursangiz bo'lur, kechursangizma bo'lur, ammo islomni unatmazmiz. Rasul alayhis-salom ulardin kechurdi, ular Rasul alayhis-salom karamin ko'rdilar ersa islom kelturdilar.

TABUK HARBINING QISSASI

Savol: Tabuk ma'nisi ne bo'lur? Javob: Lug'at ichinda eshak arig'sizni yizlab xushlanmishta burnini yuqoru ko'tarmak bo'lur. Bu harbda islom cheriki qatig' suvsadilar, ko'zlari qorarmishda qora uyukni olib, yizlab xushlanmishda, yuzlarini yuqoru ko'turub, ko'kka boqar erdilar. Tabuk harbi andin atandi. Aymishlar, islom cheriki otlandi, Shomqa o'g'radi, Tamuz oyi erdi, qattig' emgan-dilar, kun isiq, ozuqlari oz, suv yo'q. Tevani o'ldurub, ichagusini siqib, suvin icha boshladilar, teva tugandi, yuklarin uchalariga ko'turdilar. Hech vaqtda mundog' emganmishlari yo'q erdi, ko'ngullariga kirdi, bu islom haq ersa bizga bu emgaklar ketur-magay erdi. Izi azza va jalla oyat iztikim: Qavluhu taolo. *Laqad tepa-llohu atan-nabiyi val-muhajirina val-ansor.*

JA'FARI TAYYOR SO'ZLARI RAZIYALLOHU ANHU

Qachon Rasul alayhis-salom (232v) hijrat qilur bo'ldi ersa to'rt singar ellarga kishi izti. Ja'far Tayyormi Habasha maliki Najoshiyqa izti, bir qizi birla, qach qo'ldoshlari birla. Qachon Rasul alayhis-salom hijrat qildi ersa harblar bo'ldi, avval Badr harbi erdi, yetmish kofir o'ldi, yetmish kofir bulun bo'ldi, yetmish kofir boshlig' bo'ldi. Makka ulug'lari, abushqalari yig'ildilar, aydlilar: Bu er birla ne hiyla qilaling? Tekma biri biror so'zladi, oxir so'ngi ittifoq qildilar. Najoshiyqa telim mol izaling, kishi izsun, shafokat qilsun, bizing bulunlarimizni yondurub bersun, teb bitik bitidilar. Aydlilar:

Emdiga tegi biz malikka ezgu soqing'anlarimiz, emdi soqinchimiz ul turur, bizing oramizda bir er chiqti, otalarimiz dinin buzgali o'g'radi. Tengrilarimizni so'kar, otalarimiz qamug' tamugluq teyur, oramizda olaliq kemishti, ro'zgorimiz bulg'andi, biz aning birla turushtumiz, ulma bizga cherik izti. Bir anchamizni o'ldurdi, bir anchamizni bulnadilar. Otasi qarindoshi o'g'lini sanga izti, bizni bulg'amishtek sening mulkungni buzg'utek tururlar. Tilagimiz ul turur, ularni bizga bergil, o'chumizni ulardin olaling, teb bitikni Amr ibn al-Osqa berdilar. Amr tengizga kirib uch oyla Habashqa bordi, ammo Ja'fari Tayyor uch yil qoldi. Amr Najoshiyqa keldi, bitikni berdi, bitikni o'qidular, aydi: Mundog' kishi manga kelmishi yo'q, qachon kelsa ko'rgaymiz, tedi. Ro'zgor kechmishta kezin Ja'far yetib keldi. Amr o'z qo'ldoshlari birla malik qatinda o'lturur erdi. Ja'far saroy qapug'in qoqti, Tengri elchisi dastur tilayur, tedi. Amr ibn al-Os Ja'far unin tanudi, aydi: Ey malik, ul biz ayg'an kishining uni turur, o'zini Tengri elchisi atayur, sanga kirmishta salom bermas, qamug' olamlig'lar sajda qilmishtek sanga sajda qilmas, azinlar qilmishtek kilmas. Najoshiy qapug'chilarqa bo'yurdi: Anga aytling, yana dastur qo'lsun. Tengri cheriki temish uni xush kelmishuchun yana dastur tilatti. Ja'far yana aydi: Tengri azza va jalla cherikinga dastur bormu? Najoshiy aydi: Kirgil, tedi. Tengri azza va jalla imoni birla kirdilar, salom qildilar, ammo sajda qilmadilar. Amr aydi: Ey malik, men aymadimmu, bular senga sajda qilmag'aylar, olamluqlar qilmishtek, teb. Ja'far aydi: Ey malik, (233r) Tengri azza va jalla bizga bir yalavoch Izittikim, olam andog' yalavochni ko'z ko'rmish yo'q, aning sifatini quloqlar eshitmishi yo'q, kim ersaning ko'nglinga kechmish yo'q, Qamug' payg'ambarg'a salom va tahiyvat aytur, qardoshlarni ulamoq buyurur, ota-onani ezgu tutung teyur, Qamug' xayrotlarga yo'l ko'rguzur, sadaqa bering, mol zakotin beriyg' teyur, kofirliq dinni qo'yung, musulmon bo'ling teyur, ammo sajda Tengridin o'zgaga ravo bo'lmas teyur. Yana aydi: Bas, maliklar o'nginda ko'p so'zlamak adab bo'lmas, bularqa ayitqil, ulardin biragu turub, bizdin biragu o'tru turub so'zlashaling. Yana aydi: Bularqa so'rg'il, biz qulmu ozodmubiz? So'rdi ersa: Ozod tururbiz, tedilar. Yana so'rg'il, bizdin narsa olg'ulari bormu? So'rdilar ersa, yo'q tedilar. Najoshiy aydi: Bularda olg'ungiz necha

tog'larcha ersa xazinamdin o'tayin. Aydlar: So'rg'il, biz qullar ermas ermish biz, kim ersani o'turmamish olg'ulari yo'q ermish, bizdin ne tilayurlar? Najoshiy so'rdi: Bulardin ne tilayursiz? teb. Amr ibn al-Os aydi: Ey malik, otalaringiz dinini ortayurlar, oramizda xiloflar ko'rmishtilar, taqi ortuq ishlar qilurlar. Onchada Najoshiy bir bitik chiqardi, ichinda Rasulning na'ti sifati bor. Azin yalavochnalarningma sifati bor. Ja'farqa so'rdi: Siz burun qayu din uza erdingiz? teb. Aydi: Shayton dimi uza erduk, emdi islomqa Tengri diniqa kirdimiz, yerni ko'kni yaratqan Tengriqa topunurbiz. Najoshiy aydi, Kim Tengri dinginga kirsana yana chiqarmu? Chiqmaz tedi. Najoshiy aydi: Islom halovati bu turur. Yana so'rdi: Avval bu dinqa kim kirdi? Aydlar: Avval za'iflar kirdi. Yana Amr bin al-Osqa aydi: Siz manga rishvat berdingiz, hadya kelturmadingiz, men Rishvat olmasman, aning uchunkim manga lzi azza va jalla mulk berdi, rishvatni harom qildi, teb kelturganni yondurub berdi. Yana Ja'farqa aydi: Mavlo azza va jalla Muhammadqa izg'an so'zdin senda narsa bormu, o'qig'il, tedi Ja'far og'oz qildikim, *subhanal-lazi asro biabdihi laylan minal-masjidil haromi*. Ibn Amr al-Os aydi: Sening Tengringni atayu kelgan otini o'qisun. Ja'far qo'ldoshlari aydlar: Ani netak o'qisun? Aydlar: Andog'kim, Jabroil kelturdi, (233v) o'qisun. Ja'far og'oz qildi: *A'uzu bi llahi minash-shaytonir-rajimi Bismi-llahir rahmanir-rahim, Kafhayaaynsod Zikru rahmati rabbika abdahu Zakariyya ilita qavlihi va ma lir-rahmani an yattaxiza valadan*. Qamug'lari un qo'pordilar. Ja'farni urg'ali tegdilar. Najoshiy aydi: Bu kunda kezin kim munga ilik tegursa men hukm qildim, o'n ming qizil oltun bersun. Ja'far o'qimishincha Najoshiy qatig'unun yig'layur erdi, telim yig'ladi. Qavluhu taolo. *Va iza sami'u ma unzila ilar-rasuli taro a'yunahum tafizu minad dam'i mimma arafu minal-haqqi*. Anda kezin buyurdi, Ja'farni qo'ldoshlari birla saroyga tushurdilar. Osh bo'g'uzlarin belgulik qildilar, Amr ibn al-Osni qo'ldoshlari birla saroydin surdilar, chiqardilar. Kelturgan hadyalarin berdilar. Aymishlar, Ja'fari Tayyor ularning birla munozara qilurda so'zda ilindi, Mavlo azza va jalladin Jabroil kelib bitik bitib Ja'farqa o'rgatu berdi. Aymishlar, Najoshiy ularqa ko'p ezgulik qildi, ammo ba'zi zangilar Ja'farqa taqi qo'ldoshlarig'a topug' qilurda ko'zlari ul qizg'a tushti, sekrishu ayalarin chopla boshladilar. Qachon ani ko'rsalar

mundog' qilurlar. Aymishlar, Mavlo taolo o'yun-kulatguni o'n ulush qilu yorliqadi, to'quzini yolg'uz zangilarqa berdi, bir ulushini qamug' olamliqlarqa berdi. Rasul alayhis-salomnang ashobi ul ishga qazg'ulug' erdilar. Bir kun xabar bo'ldi, bir malik Najoshiy birla sanchishqa kelur teb. Qamug' zangilar chiqib sanchishtilar, o'ldilar. Amr ibn al-Os zalil va hayron bo'ldi, qoldi. Bir kun bir qo'ldoshqa aydi: Sen ko'rkluk, jamollig' ersen, bular qamug' qora tururlar, bu Najoshiy saroyi tegrasida tezginsang bo'lg'aykim, xotuning ko'zi sanga tush bo'lg'ay, sening birla so'zlashgay, bizing so'zumizni Najoshiyqa tegurgay, ishimiz butgay, tedi. Andog' qildilar ersa qapug yoruqidin xotun ko'zi anga tush bo'ldi, ul erni o'ziga undadi, anga qovushtilar, bu erga telim ne'matlar beru boshladi. Amr ibn al-Os bir kun bir qo'ldoshqa aydi: Bu muncha mol menim o'gratmagimdin hosil bo'ldi, yorimin manga bergil, tedi. Ul bermadi, Amr ibn al-Os bir yiz kuydurub majmariy atr birla Najoshiyqa olib bordi, muni tanurmusen? tedi. Najoshiy aydi: Bu manim sanduqimda erdi. Amr ibn al-Os (234r) aning so'zin, xotun so'zin aytu berdi. Najoshiy ul erni tutdurub buyurdi, o'ng andomiqa urdilar, el birla to'ldi ersa iki yorildi, o'ldi. Amr ibn al-Os zalil va badbaxt bo'lub keldi, ammo Ja'farni og'irladi, ukush mol berib yondurdi. Qachon Najoshiy o'ldi ersa Jabroil kelib aydi: Yo Muhammad, qarindoshing Najoshiy o'ldi, qo'pqil, janozasinga namoz qilg'il. Anda kezin Jabroil qanot to'qidi, oradaqi tomlar, tog'lar, saroylar, yig'ochlar qamug'i oradin ketti, yozi bo'ldi. Rasul alayhis-salom Najoshiy janozasin yiroqdin ko'rdi, namozqa to'ruqtu. Jabroil ilguru kechti, Rasul alayhis-salom sahobalar birla iqtido qilib namoz o'qidilar, ya'ni o'tadilar. *Va-llohu a'lamu bis savab*.

HADISI IFKI OYISHA RAZIYALLOHU ANHO

Abdulloh ibn Abbos raziyallohu anhumo ayur, Oyishaqa so'rdum: Ifk hadisi netak erdi? teb. Oyisha raziyallohu anho aydi: Qachon Rasul alayhis-salom g'azotqa chiqsa xotunlarda birisin qur'a birla yo navbat birla olu chiqar erdi. Navbat manga bo'ldi ersa uch qatla kumrug urur erdilar. Ilk urmishta, yilqi qora yig'ar

erdilar, ikinchta, yuk yuklayur erdilar, uchunchta, otlanur erdilar. Ilk kumrug urmishta chiqib yoziqa bordim, tahorat qilib yonib keldim. Havdajqa kirib ilkinni bo'ynumqa sundum. Tahorat qilgan yerda bo'ynumdaqi munchuq yo'q, unutmishman. Yana chiqtim, tahorat qilg'anim yerga bordim, buldim, yana yonib yurtqa keldim. Yuk yuklaganlar havdajqa kirganinni ko'rdilar erdi, chiqarimda ko'rmamish erdilar. Men yurtida qoldim. Rasul alayhis-salomning odati ul erdi, tekma tun ichinda havdaj tehrasiga kelib bir yo iki qurla meni so'rar erdi. Ul kecha meni so'rmish bo'lmasa, cherikni tushung temish. Cherik orasida so'z tushmish, tushku vaqt ermas, tushku yer ermas. Tushmishlar. Tong otti ersa Mavlo taolo tayammum oyatini izti. Rasul alayhis-salom cherikinda Safvon ibn Mu'tal otlig' qaviy er bor erdi, jammozaqa minub yuriyur erdi. Qachon cherik qo'ng'an yerdin tebrasa Safvon kun yorug' incha turub yurtni tizginur erdi. Ne narsa unutmish, qolmish bo'lsa ani yig'ar erdi. Kelib meni ko'rdi, men yig'layu turur erdim. (234y) Rasul alayhis-salom xotuni erurmusen? Erurmen, tedim, Tevasin cho'kardi, o'zi indi. Munga mungil, tedi, mundum, burunduq olib yitti, cherikka yettimiz. Abdulloh ibn Ubay ulash cherik qirig'inda tushar erdi, ortuq yarog'siz so'zlasa yoronlar eshitmasun uchun meni yig'layur ko'rdi. Teva uza Safvon burunduq yitib yuriyur. Aydikim, vallohi muni ko'rmishi yo'q, bu ma Safvonni ko'rmishi yo'q. Bu so'z cherik orasida yoyildi. Rasul alayhis-salom xotunlarig'a qamug'din kuninchrak erdi. Madina keldimiz. Yo'l emgaki meni og'rig' qildi. Qachon man og'rig' bo'lsam Rasul meni so'ra kelur, shafqat qilur erdi, bu yerda kelmadi, so'rmadi. Men ani tongladim. Dastur tiladim. Otam-onam evinga borayin, tedim. Murodim ul erdi: Naluk borursen? teb manga so'rg'ay, men ayg'ayman: Sen meni so'rmas uchun, teb. Rasul alayhis-salom dastur berdi, bordim, meni so'rmadi manga kelmadi. Qapug'din o'tar bo'lsa, biringiz netak turur? teb o'tar erdi. Tekmadin menim so'zumni so'rar ermish. Bir kun Zaynabqa so'rmish, Zaynab aymish, Oyishali, menli aro ko'ngul qolig'i bor. Valekin anga so'zlagan bo'htonni men aytu bilmazman. Men kichiklikda, ulug'luqta Oyishadin ko'nilikdin azin narsa ko'rmishim yo'q. Oyisha qiz qarindoshi Hamiyaqa so'rsa: Ne bo'ldi ersa men ne bilayin, temish. Ali raziyallohu anhuqa so'rmish.

Ali aytmish: Yo Rasululloh, ko'ngul unamasa taloq bering, yana bir azinni qo'lg'il. Alili, Oyishali aro adovat bo'imoqinga sabab bu so'z erdi, temishlar. Temishlar, qo'ngshilar so'rsa o'zindin yarog'siz ish ko'rmishimiz yo'q, tedilar. Oyisha raziyallohu anho bir kecha Umami Musattah birla chiqtim, Umami Musattah azoqi surchti, Musattah halok bo'lsun, teb so'kti. Neluk so'karsen? tedim ersa, ko'rmasusen, sanga ne teyurlar: Oyisha Safvon birla so'ng qoldi, aning uchunkim Rasul alayhis-salomdin burun Oyishani Safvon qo'lar erdi, oshiq bo'imish erdi. Oyisha aytur: Qachon bu so'zni eshittim ersa yavloq emgandim, og'rig'im taqi ortti, ega kirdim, (235r) yuzumni o'vurdum. Otam-onamqa aydim: Manga bu so'zni naluk aymadingiz, Rasul alayhis-salomqa borib o'zumni uzr qo'lg'ay erdim. Anchada Rasul alayhis-salomqa xabar bo'ldikim, Oyisha bu so'zni emdi bildi, yuzun urub yig'layur, teb. Rasul alayhis-salom keldi, evga kirdi, o'lturdi, xotunlar yig'lashur erdilar. Rasul alayhis-salom aydi: Ne ersa manga ayg'il, odamiy yozuqsiz bo'lmas. Oyisha aytur: qazg'uda Ya'qub yalavocho otini unutdum, so'zum yo'q, so'zum bu turur, ayturman ul so'znikim Yusufning otasi aydi: Qavlulu taolo. *Fa sabrun jamil*. Abu Bakrning evi xalqi qamug' qazg' ulug' erdilar. Yana aydi: Bir kun Rasul alayhis-salom kelib kirdi, vahy kelturmish, alomatlar yuzinda bilgurmish. Bir soat yetti yana sekriyu qo'pti, sevinch sanga, tedi. Men aydim: Sevinch sandinmu turur yo Izi azza va jalladinmu turur? Rasul alayhis-salom aydi: Izi azza va jalladin turur. Man aydim: *Alhamdu li-llahi la yahmaluk*. Izi azza va jallaga hamd ayturman, sanga yo'q. Uch qurla aydim, yana aydi: Tengri azza va jalladin umidim bor erdi, meni bu qazg' ulug'din qutqarg'ay teb, ammo menim uchun oyat izg'ay teb, umidim yo'q erdi. Mavlo taolo o'n sekiz oyat "Qur'on" ichinda menim arig'liqim uza tanuqluq berur, Jabroyldin izti. *Innal-lazina ja'u bil-ifsiki usbatun minkum ila qavlihi... buhtanun azim*. Bu qamug' dayristonda qamug' muqrlar mahfida, qamug' imomlar mehrobda muni o'qiyurlarkim, *Subhanaka haza buhtanun azim*. Aymishlar, bu qavmlarda so'zlaganlar uch turluk edilar, biri, koziflar, ya'ni yolg'on deganlar; ikinch, hokiylar, ya'ni eshitganni so'zlaganlar; uchunchi, arig'layu so'zlaganlar. Kofirlarg'a uqubat keldi, had urdilar, hokiylarg'a malomat va itob keldi. Eshitingiz

ersa mo'minlar gumon aylamishtek naluk aymadingiz, arig'layu so'zlaganlarga savob daraja berildi. Aymishlar, bu oyat Abu Ayyub Ansoriy taqi evluki Hanna haqinda nozil bo'ldi. Abu Ayyub evga kirdi, qazg'ulug'. Evlugi: Naluk qazg'ulug'san? teyu so'rdi. Abu Ayyub aydi: Netak qazg'urmayin, Oyishani, raziyallohu anho, mundog' teyurlar. Xotuni aydi: Vallohkim, yolg'on ayturlar. Abu Ayyub aydi: Bilurman yolg'on ayturlar, ammo so'zlayurlar. Xotuni yana aydi: Vallohkim, yolg'on turur, va lekin ont ichmak (235v) ko'zumizdin iroq erdi. Xotuni uchunchi yana ichtikim, vallohi yolg'on turur. Agar bilayin teyur ersang eshitgil, ul kun Safvon o'minda sen bo'imish ersang Rasul alayhis-salom hurmatiga bu saqinchni saqing'aymu erding? Yo'q, tedi. Aydi: Oyisha o'minda men bo'lsam, manga mundog' aytisalar butgaymu erding? Yo'q, tedi. Vallohkim Safvon sendin porsoroq, Oyisha mendin porsoroq, mendin, sendin bu ish kelmas. Oyishadin, Safvondin netak kelur. Xokiylarqa malomat keldi, bu ikagu er va xotun saqinmishtek naluk saqinmading, teb Abdullohni, Musattahni, lh'sonni had urdilar. Bu Musattah Oyishaning ammasi o'g'li erdi, Abu Bakr evinda erdi, evindin ketardi, osh, suv bermadi. Rasul alayhis-salomqa kelib Abu Bakr raziyallohu anhudin gila qildi. Bu oyat nozil bo'ldikim, va la ya'tali ulul-fazli minkum... ila qavlihi... alla tuhibbuna an yag'fira-llohu lakum. Rasul alayhis-salom Abu Bakrni undadi. Sanga Izi azza va jalla mag'firati kerakmu? tedi. Kerak, tedi. Aydi: Musattahdin kechuril, tedi, kechurdi.

RASUL ALAYHIS-SALOM VAFOTI SO'ZLARI

Xabarda kelur, kunlarda bir kun Rasul alayhis-salom tong namozini o'tab, minbarg'a og'ib sahobalarqa va'z va nasihat qildi. Anda kezin aydi: Ey mo'minlar, kim ersaning mening uza hech da'vosi va xusumati bormu? Kim ersa javob aymadi. Ikinch so'rdi, kim ersa javob aymadi. Uchunchida Ukosha otlig' sahoba qo'pti, aydi: Yo Rasululloh, mening bir da'vom bor. Aytg'il, tedi. Aydi: Bir kun siz safardin kelurda siz tevaga minub, teva urur bo'lub, ul qish qamchi birla uchamqa urdingiz, yavloq og'ridi. Yo Rasululloh, uch qurla aymasangiz menma aymas erdim, tedi. Rasul alayhis-salom

hujraga kishi izti, qamchi tilagali keldi. Qamchi tiladi. Xotunlar: Ne bo'ldi, ne yerga borur? teb qazg'urdilar. Aydi: Safarg'a bormas, ammo Ukosha qisos tilayur, tedi. Xotunlar yig'lashtilar. Qamchini kelturdi. Rasul ilkinga oldi, Ukoshag'a berdi, men netak urdum ersa sen taqi andag' urg'il, tedi. Ukosha qamchi olib andag' tedi: Bu qasos rost kelmas. Ul kun siz teva munub borur erdingiz, men yerda andog' erdim. Ustundin ingan berga birla bu rost kelurmu? Rasul alayhis-salom minbardin indi, (236r) Ukoshani minbarg'a og'durdi, urg'il, tedi. Sahobalar yig'lashtilar. Ukosha aydi: Yo Rasululloh, ul kun mening egnim yoling erdi, yavloq og'ridi. To'nungni chiqarg'il, qisos rost kelsun, tedi. Yig'i cho'g'i sahobalardin zohir bo'ldi. Rasul alayhis-salom to'nun chiqardi, egnini yoling qildi, sahobalar faryod qo'pordilar. Abu Bakr aydi: Ey Ukosha, ul qamchini mening yuzumga, ko'zumga urg'il, Rasul alayhis-salomning qutlug'taniga tegmasun. Umar va Usmon va Ali raziyallohu anhum ajma'in mundag'-o'q yig'lashib: Meni urg'il, tedilar. Rasul alayhis-salom aydi: Ey yoronlarim, siz kendu shafqat qilursiz. Ammo qisos manga yorg'u bo'lsa sizlardin ravo bo'lmag'ay, tedi. Anda kezin Ukosha raziyallohu anhu egnini yoling ko'rdi ersa, aydi: Yo Rasululloh, mening maqsudum qisos ermas erdi, egningdagi muhri nubuvvatni ko'rsam! Emdi dastur bergil, ul muhr uza qubla berayin, sendin afv qildim, tedi. Rasul alayhis-salom dastur berdi, Ukosha qubla qildi. Sahobalar qamug' sevunchluk bo'ldilar, Ukoshaga ofarin o'qidilar. Aymishlar, qach kunda kezin vido' hajji bo'ldi. Tevaga minub tururda Rasul alayhis-salomda vahy og'rig'ining asari bilgurdi. Muhojir va ansor tegrasinda turub vahy tinglayur erdilar. Rasul alayhis-salom bu oyatni o'qiyur erdi. Qavluhu taolo. *Al-yavma akmaltu lakum dinakum va atmamtu alaykum ni'matiy va raziytu lakum al-istama diman.*

Ba'zi sahobalar muni eshitib, sevunur erdilar, Siddiq raziyallohu anhu yig'layur erdi. Aydlar: Yo Abo Bakr, ne yig'lagu kun turur? Siddiq aydi: Sizga sevungu kun turur, men bildugumni siz bilsa erdingiz, sevunmagay erdingiz. Bilmish bo'lung, Mustofoni bizing oramizdin chiqarg'utek tururlar. Bizni aning firoqi birla muftalo qilg'utek tururlar. Abdulloh ibn Mas'ud aydur: Hijratning so'nggi yili erdikim, Rasul alayhis-salom og'rig' bo'ldi. Jamoat namozig'a

boru bilmadi. Abu Bakrga ijozat berdi: Borg'il, sahobalarg'a imomatlig' qilg'il, teb. Bilol raziyallohu anhu azon qildi, sahobalar yig'lashti, Rasul alayhis-salomning og'rig'i anchada andoq bo'ldi. Fazl ibn Abbosqa aydi: Meni masjidga elting. Bir qo'lini Fazl tutti, bir qo'lini Ali tutti, Masjidga elttilar. Siddiq raziyallohu anhu Rasulni ko'rdi, yong'ug'a o'g'radi. (236v) Rasul aydi: Chiqmag'il, imomatlig' qilg'il. Rasul alayhis-salom Abu Bakrga iqtido qildi, namoz o'tadi, hujraqa yondi. Kun kelu og'rig'i ziyoda bo'ldi. Qizil mengizi sarg'ardi, chechaktek englari so'ldi. Jabroil xoja mengizlik bo'lub ustun turur. Azroil bir badaviy arabtek bo'lub kirib keldi, tizin cho'kub o'lturdi, ozin-ozin Rasulqa yaqinroq keldi, quloqinga so'zladi. Yana ega chiqti. Rasul alayhis-salom holi aynadi, telim oh qildi, yig'ladi. Sahobalar qamug' yig'lashtilar. Aydilar: Yo Rasululloh, bu arab kim erdi, sizga ne tedi? Holingiz aznadi. Aydi: Ey yoronlarim, aziz do'stlarim, ul kelgan Malak ul-mavt qarindoshim Azroil erdi, ush qarindoshim Jabroilma hozir turur, manga so'zlayur: Ummatingga salom tegurgil, bo'g'uz uchun imonni ilikdin chiqarmasunlar, teb. Shaytonni, nafsu havoni izarmasunlar, shak va sharikka insunlar, ko'ni imong'a berk yapushunlar, o'lumni unutmasunlar, hiqd va hasaddin iroq tursunlar, shari'at ahkomini berk tutsunlar, dunyoga ko'ngul bog'lamasunlar, Tengri azza va jalla yorliqin og'irlasunlar, o'g'il-qizqa osh, etmak otasi bo'lmasunlar-dini islom otasi bo'lsunlar, yovuz esh, qo'ldoshdin yig'lsunlar, besh namozni azoqin tutsunlar, qul kungni ezgu tutsunlar, darvishlarga rahm qilsunlar, o'gsuzlarga shafqat qilsunlar, qazg'ulug' munglug'larqa bulushsunlar, o'lumga anuq tursunlar, qiyomat ishin bitursunlar teyu turur, tedi

Sahobalar qatig' yig'lashtilar, Rasul alayhis-salom aydi: Ey sahobalar, men sizga yalavoch erdim. Aydilar: Ey olamlug'lar-ning chirog'i, sen bizga ota-onadin mushfiqroq erding, xaloyiqni shari'atqa da'vat qilding, ummatqa sunnat va farz o'gratting, o'gsuzlarga otaliq qilding, za'iflarqa ektulading, muhojir va ansorlarqa tarbiat qilding, odamiy va parini hazratqa undading, yo'lsuzlarqa yo'l ko'rguzdung, bo'ynag'ularni ko'ndurdung, ko'nilar uza shari'at gavharin isor qilding, shirk va fitna tug'ini yerga chalding, olamni ilm bila yorutding, shaytonni adl birla surdung, mo'jizalar

ko'rguzdung, oyni ernak birla yording, so'klunmish o'g'loqni tarkida so'zlatting, ilkingdagilarni tilga kelturding, qurug' yig'och-ni (237r) yoshartting, yemishsiz yig'ochni duo birla ne'matlig' qilding, ushoq toshni tasbihga kelturdung, tamug'g'a boru turg'anlarni yondurub ujmoh yo'linga boshlading, teyu ingrayu boshladilar. Uch kunda kezin Malak ul-mavt yana keldi. Rasul alayhis-salom Oyi-shag'a tizin yastanub yotur erdi, Fotima, Hasan va Husayn qatinda o'lturur erdilar. Qabiz al-arvoh qapug'qa keldi, hurmat birla aydi: *Assalomu aleykum ya ahla baytin nubuvvati var risolati. Assalumu aleykum ya ahla baytil-mas'alati val-jalalati. Assalomu aleykum ya ahla baytil-muruvvati val-karomati. Assalumu aleykum ya ahla baytil-futuvvati vas-salamati. Assalumu aleykum ya ahla baytil-marhamati vas-sa'dati.*

Dastur bormu, kirsamiz. Oyisha raziyallohu anho aydi: Bu a'robiiyqa ayding, kirgu vaqt ermas, Rasul alayhis-salom emganib turur. Ikinchi izzat va hurmat birla iymanu un qildi. Rasul alayhis-salom Azroil unin tanudi, aydi: Ey Oyisha, so'z birla yonar kishi ermas, ish biturmadin ketmas-A'robiiy ermas, Azroil turur, kirsun, tedi. Kirib salom qildi, Rasul alayhis-salom so'rdi: Ne ishga kelding? Azroil aydi: Hazratdin yorlig' andog' tururkim, Muhammadga borg'il, dastur bersa jonin olg'il. Dastur bermasa ravon yong'il teb. Emdi dastur bersang jon olurman, bermasang yonarman, tedi. Rasul alayhis-salom aydi: Yo Azroil, jon bu kun olmasang kech qolsa oqibat olurmusan? Olurman, tedi. Andog' ersa ishga turg'il, tedi. Azroil jon olmoqg'a o'g'radi. Rasul alayhis-salom sog'din so'lg'a, so'ldin sog'g'a to'lg'anub boshladi, muborak a'zosi kuchsuza bo'ldi, ul qutlug' ko'ngli mungluq bo'ldi, mengizi sarg'ardi, shakkartek tili so'zlamas bo'ldi, ko'rkluk yangoqlaridin qatra-qatra yosh toma boshladi, aqiru-aqiru tilin tebratib: *Ya man lam ya'iam alal-vasiri va lam yalbasil-harira va lam yashba'min xubzish-sha'ir*, teyu erdi. Iziyo, meni dunyodin ko'nilik uza chiqarg'il, to'proqqa ko'nilik uza kigurgil, qiyomat kuni tuproqdin ko'nilik uza qo'porg'il, teyu erdi. Qamug'lari tebrasida yig'lashurlar, Hasan va Husayn raziyallohu anhumo yoling bosh bo'lub ingrashurlar. Fotima raziyallohu anho yig'lab aydur: (237v) Ey yumshoq to'shakda yotmag'an, ey tovar

to'n kizmagan, ey arpa etmagin to'q yemagan, teb yig'layur erdi. Ey mungushidin un keldi: *Va shavqo ala firoqi rasuli-llahi*. Rasul alayhis-salom tekma bir soatda ilkin suvqa tegurub ko'ksunga qo'zur erdi, *Allohumma havvin alayna sakrotil-mavt*. Iziyo, jon bermakni Muhammadga oson qilu bergil, teyur erdi. Qachon joni ko'ksinga yetti ersa aydi: Ey Azroil, bir soat tavaqquf qilg'il, jon bermakni oson qilu bergil, teyur erdi. Ey Azroil, bu kundin qiyomatga tegi mening ummatimqa jon bermak qatiliqi bor ersa ul qatig'liqlarni manga yuklagil, ul qatig'liqlar manga bo'lsun, ummatlaimqa bo'lmasun. Azroil aydi: Yo Rasululloh, men sening yostuqingda o'lturg'andin beru Izi azza va jalladin etmish yo'li farmon etildi, do'stum Muhammad birla rifq(u) mudaro qilg'il, Jonin yuvoshliq, yumshoqliq birla olg'il, azinlardin olmishtek olmag'il, teb. Onchada Oyishayi Siddiqa raziyallohu anho yig'layu Rasul alayhis-salomqa yapushti. Necha ular birla so'zlashursen, bir zamon menim birla so'zlashgil. Yetti yasharda sanga ulashdim taqi yoshim yigirmiga yetmas erkan muborak jamolingdin azrilurman. Ey aziz jonim, sening firoqing achig'i qamug' olam uza necha ersa yolg'uz men za'if uza andin ortuqroq turur. Azinlarning etagi kuyar, menim tanim, jonim kuyar. Ul holda Fotima raziyallohu anho Rasul alayhis-salomning yuzunga boqib: Ey odam quvanchi, ey muhiblar sevunchi, ey mushtoqlar umanchi, ey ummatlar inonchi, ey osiylar tayanchi, ey odamiylar davlati, ey olamluqlar rahmati, ey haqning musulhi, ey xalqning shafi'i, men sansiz mehrob va mibarni netak ko'rayin, teb yig'layurda Ali raziyallohu anhu Fotimani tizar erdi. Rasul alayhis-salom aydi: Yo Ali, Fotimani tizmag'il, mentek otaning firoqinda yig'lasunlar, qizlar yig'isi otalar yastuqi yavloq kuynukluk bo'lur. Ul holda qamug' sahobalardin yig'i va faryod zorliq qo'pti. Rasul alayhis-salomning joni bo'g'zinga keldi ersa ko'zin ochib aydi: Ey Azroil, bir zamon sabr qilg'il, qarindoshim Jabroil kelsun, yana bir qurla so'ng diydorin ko'rayin, teb tavaqquf qildi ersa Jabroil keldi, yetmish ming muqarrab farishtalar birla yig'layu kirdi. Rasul alayhis-salom aydi: Qaydasen, ey qarindoshim Jabroil, qarindoshlar bu kun kerak bo'lur, Jabroil alayhis-salom aydi: Ey olam faxri, yetti ko'k farishtalari senga ta'ziyat tutub tururlar erdi, anda mashg'ul bo'ldum. Rasul alayhis-

salom aydi: Ey Jabroil, (238r) bu soat na futuh kelturdung? Aydi: Ko'klar qapug'i, umohlal qapug'i ochildi, hurlar yuksakka og'ib, niqob yuzlarindin ko'turub, iliklarinda nurdin tepaqlar olib, sening qutlug'joningga nazzora qilaleng teb kuyub tururlar. Rasul alayhis-salom aydi: Ey qarindosh, muni so'rmasman, menda kezin Mavlo taolo menim za'if yozuqluq ummatlarim birla ne muomala qilg'ay, ani so'rarman. Jabroil yana yondi, bir soatda kezin yana keldi ersa aydi: Ey sayyidi Molik al-muluki haq taolo va ta'zzama yorliqlar: Ey menim do'stum, ko'nglungni ummatdin forig' tutg'il. Sening ummatlaringni erin tebratgani birla ul amal qilg'aymankim, Muso tayojq Fir'avn saharasi birla qildi. Bir aso otmoqi birla qamug' kufr va sehr va tug'yon yo'q bo'zun bo'ldi. Bu kun sen bir yerin tebratgan birla qamug' osiy ummatlaringning daftarlarin g'ufiron suvi birla yub yo'q bo'zun qilg'ayman. Ul kun Muso onasiqa ayduq: *Alqihil-yammi va la taxofiy va la tahzaniy innaa radduhu ilayki va ja'iluhu minal-mursalin*. Ya'ni bu kun o'g'lungni tengizga kemishgil, qo'rqmag'il, qazg'urmag'il. *Sallimiy ilayya sabiyyan usallimu ilayki nabiyyan*. Bu kun yosh o'g'lonni bizga bergil, yoshlig' yalavochoq qilib sanga beraleng teduk. Senma bu kun ma'siyatlig' bir ovuch bulg'anuq ummatningni bizga isborlag'il, yorin men qamug'ini yorliqab, arig'lab sanga beraleng, teb. Oyisha raziyallohu anho ayduq: Rasul alayhis-salom azin so'zlamas bo'ldi. Boqtim, og'zinda tili tebranur, quloq tuttum, tingladim, ayduq: *As-salatu va ma malakat aymankum*. Namozni qo'zmang, qul kungni ezgu tutung. Oxir vasiyati bu erdi, dunyodin bordi. Qirq yoshinda vahy keldi, oltmish uch yoshinda rabi' ul-avval oyining o'n uchinda dushanba kun vafoti bo'ldi. Panjshanba kun tuproqqa kirdi. *Innaa li-llahi va innaa ilayhi roji'un*.

Maqsud ul turur. Bu er nechuk kechar dunyoda ul ergakim, Mavlo taolo olamni, odamni aning do'stuqida yarattikim, *lav laaka lama xalaqtul-aflak*, olamluqlar rahmati erdikim, va *ma arsalhaka illa rahmatan lil-aalamin*. Yaratgan Inzining habibi, yozuq elining tabibi erdikim, Arsh aning azoqining avvali, Kavsar aning yuli, rizvon anga qapug'chi, Jabroil anga tapug'uchi, muqarrablar aning xodimi, farshdin Arshqqa tegi yetar odimi, *la amruka tojlig'*, *lav laaka havojlig'*. Odamdin Isog'a tegi qamug' yalavochoqlarning

kelmakinga bashorat bergan, oy yorilmoqiga ernaki birla bashorat qilg'an, sekiz ujmoh xojalari, iki qayni Abu Bakr va Umar alay-humas-salom (238v) beglari, iki kuyogusi Usmon va Haydar, bu foniy dunyo anga vafo qilmadi, aning birla yarashmadi, sening birla yarashg'aymu? Ko'ngul mundin kessil, uqbog'a ulashg'il, kechar dunyodan kechg'il, ujmoh tapa uchg'il, arig' hurlarni quchg'il, Kavсар sharbatin ichgil, ujmoh Buroqin mingil.

She'r

Ushbu dunyo ichra ko'rdum bosh oyoq to'lug' cho'g'i,

Tinglayu turdum tugal yosh un sig'it inchiq yig'i.

Dunyo ermish bir o'lüksak qiymati yo'q hech aning,

Asig'i yo'q, ul og'u yang'lig' ondin ortuq sasig'i.

Bu o'lüksak tegrasida ko'rdum ersa ko'p telim,

Itlar urushib talashurlar bir birga bo'lub yog'i.

Eng so'nggi itlar o'lar qolur arigsiz sasig'et,

Mundin ortuq ermas ermish ushbu dunyo totig'i.

Ne ekan tuproq ostin keng jahong'a sig'magan,

Tor lahad ichra yoturlar yo'rganib atlas, ag'i.

Mustafoqa jofy dunyo qilmadi, ko'rgil vafo,

Tegdi oxir arig'qa bu o'lumning achig'i,

Rabg'uziy Nosir tayanma tunla kunduz ingranib,

Sayrag'il suchuk tilingdin so'z chiqar so'zla (og'i).

VAFOTI ABU BAKR SIDDIQ RAZIYALLOHU ANHU

Aymishlar, Rasul alayhis-salom dunyodan rihlat qildi ersa sahobalar xilofatni Abu Bakrga muqarrar qildilar. Xilofatqa o'turmishta kezin kun kelu za'if bo'ldi. Bir kun Oyisha aydi: Ey ota, ne bo'ldi mundog' za'if bo'ldung? Aydi: Ey Oyisha, Muhammad rasululloh firoqi meni mundog' qildi. Iki yarim yil xalifa erdi, kunda iki yarmoq bayt ul-moldin nafaqasi erdi, ani xarj qilg'ali yig'mish erdi. Og'rig'i ortuqroq bo'ldi ersa Oyishaqa berdi, menda kezin

muni Umarqa bergil, olg'il. Abu Bakr aydi: Bu musulmonlar haqqi turur, ularqa tegurgil. Nechama muhtoj ersam xarj qilmadim. Abu Bakrda kezin ul yarmoqlarni Umarqa kelturdilar. Umar yig'ladi, aydi: Ey Siddiq, berding, og'ir yukni menga yukladingkim, qiyomatqa imon qo'rqinch mundog' kerak, teb aydi. Kezin Oyishaqa vasiyat qildi: Ul kunkim islomqa kirdim, bir kilim ichinda erdim, o'lsam ul kilimdin kafan qiling. Mavlo taolo qo'rqunchida yig'ladim, ko'zum yoshi ul kilimga ko'p oqti. Ey, Oyisha, men Muhammad rasulullohg'a borurman, so'zuing bormu? Oyisha yig'ladi, aydi: Ey ota, menim salomimni Rasulqa tegurgil, aytg'il: Yo Rasulalloh, sensiz yavloq (239r) irilib tururman, qachon qovushg'ayman teb. Yana aydi: Ey Oyisha, qachon jonim azrilisa ayg'il, meni Rasul hazirasing'a eltsunlar. Biragu haziraqa kirsun, salom qilsun, aysun, ul g'ordaqi qo'ldoshingni kelturduk, dastur bormu? teb. Ravza ochilsa meni kigurub anda qo'zsunlar, agar ochilmasa Baqi' go'ristonig'a eltsunlar, g'ariblar orasida qo'zsunlar. Bu vasiyatlarini qildi, kalima aydi, jon berdi. Sahobalar ta'ziyat tuttilar, namoz qildilar. Ravza qapug'i ochildi, ravzadin un keldi: *Adxilul-habiba ilal-habibi fa imnal-habiba ilal-habibi mushtaqun. Munfi'uka bil-babi, habibuka bil-babi, sohibuka bil-babi, shiruka bil-babi, xodimuka bil-babi*, teb Rasul alayhis-salom aydi: Rasul alayhis-salomning to'shi to'shinda o'run bilgurd. Kin yiporlar turur. Abu Bakrmi lahzada qo'ztilar ersa iki ilik ravzadin chiqib uzadi, Abu Bakrmi qucha oldi. Un eshitildi: *Irji'u fa qad vasatal-habibu ilal-habib*. Ya'ni biling, do'st do'stqa qovushti, teb. Kim andog' tirilsa o'lumi andag'-o'q bo'lur. Iziyo, Abu Bakrming sidqi haqqi hurmati, oxir damda imon ro'zi qilu ber! Omin, rabbil olamin.

UMAR RAZIYALLOHU ANHU SHAHODATI SO'ZLARI

Qachon Umar ibn al-Xattob raziyallohu anhu xilofatqa o'lturda ersa Tengri azza va jalla yo'linda ancha tenglik qatig'landikim, islomlug'lar orasi yeti yuz minbar qo'pordi. O'zi tirik borincha qo'yqa qurt tepunmadi. Umar raziyallohu anhu vafoti bo'lmish kun

bir suruk qo'yqa qurt tepundi. Qatig' unun: *Innaa li-llahil va innaa ilayhi roji'un* tedi.

Aydilar: Ne buldug? Aydi: Umar raziyallohu anhu dunyodin bordi. Aydlilar: Nedin bilding? Aydi: Emdiga tegi bo'ri qo'yqa tepunmas erdi, bu kun tepundi, bildimkim Umar dunyodin kechti, bordi. Aymishlar, Umar raziyallohu anhu bozorda yuriyur erdi, Mug'ira ibn Shu'baning Abu Lu'lu' otlig' tarso quli bor erdi, o'tru keldi, aydi: Ey Umar, meni Mug'iradin qurtarg' ilkim, manga yilliq kesik qilib turur. Yana kunda iki kumush mendin olur, teb. Umar so'rdi: Ne sinoat bilursen? Aydi: Temurchiman, naqqoshman, yig'ochchiman. Umar aydi: Bu sinoatlar birla iki kumush bulmaz, taqi men eshiturman, el tegirmoni qurar, teb. Aydi: San manga el tegirmoni qura bergil, teb. Abu Lu'lu' aydi: Men tirik bo'lsam bir el tegirmoni qurg'aymankim, (239v) kun tug'ardin kun botarg'a tegi tonglag'aylar. Umar yondi, aydi: Bu qul meni qo'rqitu so'zladi. Yorindasi kun Ka'b al-Axbor kelib aydi: Ey Umar, sening umring uch kun qoldi. Nedin bilding? tesa, Ka'b al-Axbor aydi: Tavrotda andog' ko'rdum. Umar aydi: Menim otim Tavrotda bormu? Aydi: Oting yo'q, ammo sifating bor. Ikinch kun yana keldi, aydi: Iki kun bordi. Uchunch keldi, aydi: Bir kun qoldi, tong otqincha. Uchunch kun keldi aydi: Tamom bo'ldi. Umar raziyallohu anhu erta qo'pub, tong namoziqa bordi. Masjidga kirmishda Abu Lu'lu' kirdi, ilkinda iki uchlug' xanjar, Umarning kindikidin quziroq sanchdi. Umar yiqildi. Abdurrahmon munda bormu? Bor, tedilar. Aydi: Kechgil, imomatliq qilg'il. Abdurrahmon imomatliq qildi. Anda kezin Umarni evga elattilar. Abdurrahmonqa aydi: Meni kim sanchti, ko'rgil. Abdurrahmon aydi: Seni Abu Lu'lu' sanchti. Umar aydi: *Alhamdu li-llahil-lazi lam yaj'al maytatiy biyadi rajulin sajada li-llahi sajadatan vahidatan*. Ya'ni shukr ul Tengrig'akim, manim o'lumumni musulmonlar ilkinda qilmadi. Anda kezin aydi: Qachon manim ishim tamom bo'lsa, meni Rasul ravzasina elting, ayding: Yo Rasululloh, ul osiy qarini kelturduk, dastur bormu? Dastur bo'lsa kigurung, bo'Imasa Baqi' go'ristoniga elting, teb. Onchada holi aznadi ersa aydi: Men kechsam yuzumni o'rtung, meni bir kafanga yo'rgang, kafanim ichinda g'uli qilmang. Agar Izi azza va jalla mendin xushnud ersa ul kafanda qo'zmag'ay, ujimoh hulalari

kizdugay, xushnud ermasa ul kafanni mendin suchulg'ay, to'nlar kiydugay. Yana aydi: Lahadimni men yotg'uncha qazing. Agar Mavlo taolo mendin xushnud ersa, lahadni kengatu yorliqag'ay, agar mendin xushnud bo'Imasa lahadimni tor qilg'ay, ayagularimga yapushqay, janozamni keturmishda eva oshuqa elting, ezgulardin ersam tarkrak topshurung, agar yovuzlardin ersam tarkrak kemishing, mendin qurtulung. Janozamni avratlar ozormasunlar, yig'lamasunlar, meni o'gmasunlar, teb kechti raziyallohu anhu.

USMON RAZIYALLOHU ANHU SHAHODATI

Usmon xalifa bo'ldi ersa Abdulloh ibn Abi Shurayhni Misrqa voliyizti. Ikiyilda kezin misrlig'lar andin shikoyatda keldilar. Usmon raziyallohu anhu qatig' so'zlar teb izti, Abdulloh ibn Shurayhg'a (240r) yoqmadi? Usmondin kelganlarni urdi. Misrdin yeti yuz er otlandilar, keldilar, masjidga kirdilar. Abdulloh ibn Shurayxdin gila qildilar. Talha Usmonqa kirdi, qatig' so'zlar so'zladi. Ali raziyallohu anhu kirib aydi: Bular azin kim ersani tilayurlar. Yana aydi: Muhammad ibn Abi Bakrni tilayurlar. Ani voliy qildilar, bir ancha muhojir va ansorni birga iztilar, Misrlig' ne teyur ko'runq, teb. Muhammad ibn Abi Bakr uch kunluk yer bordi ersa bir qorovulni ko'rdi, tevaga minub eva bora turur. Surdilar: Qaydin kelding, qayda borursen, kimning qulisen? Aydi: Usmonning qulimen, Misr ulug'ig'a borurmen. tedi. Aydlilar: Misr ulug'ig'i bizing birla turur. Aydi: Men anga kelmadim. Muhammad ibn Abi Bakrga xabar bo'ldi, kishilar izti, kelturdilar, so'rdi: Kimning qulisen? Aydi: Usmonning qulimen. Yana aydi: Yo'q, falonning qulimen. Kimga borursen? tesa, Misr bekiga borurme, tedi. Naluk borursen? tesa, So'z elturman, tedi. Bitik bormu? tesa, Yo'q, tedi. Istadilar, bitik bulmadilar. Ko'ndin suv idishi bor erdi, qurug', ani olib tebratdilar ersa narsa borincha silktilar, chiqmadi, pichoq birla yordilar, bitik chiqtikim, Usmondin Abdulloh ibn Abi Shurayhqa salom, qachon Muhammad ibn Abi Bakr etsa o'ldurgil, bitikni yirtg'il, Misrni sen bilgil, bizdin til bo'lg'uncha taqi dod qo'lg'uchini bizga izmag'il.

Bu bitikni o'qudilar ersa qo'rqtilar, Madinaga yondilar, bitikni Madinaga iztilar. Ali va Talha va Zubayr va Sa'd yig'ilib bitikni, tevani olib bordilar. Usmonqa so'rdilar: Bu qul sening bormu? Yo'q, tedi. Teva sening bormu? Bor, tedi. Bitik sening bormu? Yo'q tedi. Ont ichti: Men bitimadim, kim ersaga bitik bitimadim, bilishimma yo'q, qulni Misrg'a izmishim yo'q, ammo bitiknikim Marvon bitimish. Aydilar: Marvonni bizga bersun, bitik so'zin so'raling, Rasul sahobasin yo'lsuz o'ldurmak ravo bo'lurmu? Usmondin ersa ma'zul qilali, Usmon tilindin ersa yarog'in ko'rali. Marvonni tiladilar, Usmon bermadi, o'lturmasunlar teb. Usmonning saroyini egirdilar, suv bermadilar. Usmon aydi: Bu orada Ali bormu? Yo'q, tedilar. Sa'd bormu? Yo'q, tedilar. Aydi: Biraga Aliqa xabar qiling, bizga suv (240v) berdursun. Aliqa xabar bo'ldi ersa uch to'lum suv izti, bermadilar. Orada telim kishilar boshlig' bo'ldilar. Anda kezin Usmonqa ulandilar. Usmonqa qasd qildilar, teb Aliqa xabar bo'ldi, Hasan va Husayng'a qilichlar berdilar, Usmonning saroyini saqlang, kim ersa kirmasun, tedi. Zabayr va Talha taqi bir ancha sahobalarma o'g'lonlarin iztilar, Marvonni bersun, tedilar. Telim xalq Usmon saroyiqa tepundilar, Muhammad ibn Abi Bakr taqi Misr xalqi qo'rqtilar, Hasan va Husayn orada bo'lsa fitna taqi ortuqroq bo'lg'ay, teb. O'q otilar Marvonqa tengladi Husayn raziyallohu anhu saroy qapug'inda qonlig' bo'ldi, qanbar boshi yorildi. Misrlig' qatig' qo'rqtilar, kengashtilar: Ko'rmas yerdin saroyni tilab kiraling, tedilar. Qamug' xalq saroy uza erdilar, bir ansoriy erdi aning evinga kirib teluk tiladilar. Usmon saroyiqa kirdilar, Usmonni o'lturdilar. Ul kirgan yo'ldin yana qochib chiqtilar. Xotuni qatig' un qildi, kim ersa eshitmadi. Xotun tom uza og'di, Usmon holini aytu bordi. Hasan va Husayn taqi azin sahobalar kirdilar. Usmon raziyallohu anhu ko'rdilar, bo'g'izlanmish yotur, Mushaf o'nginda ochug' yotur. Bir qatra qon bu oyatqa tommishkim, *fa sayakfikahumu-llohu va huvas-sami'ul-alim*. Rivoyat qilurlar, Bu Qalobadin aydur: Shom viloyatinda erdim, un eshittimkim, ya *Avvah an-nar*. Bordim, biraguni ko'rdum, iki qo'li egnidin yo'q, iki azoqi tubindin yo'q, ko'zlari ko'rmas. So'rdum: Kimsen, bu na hol turur? Aydi: Usmonni o'ldurgali kirduq. Men Usmonni tutqali o'g'radim, xotuni faryod qildi, men ani bir yangoqladim, Usmonning ko'zidin yoshi

oqa menga aydi: Naluk mundog' qilursen. Tengri taolo iki ilkingni, iki azoqingni quritsun, ko'zungni ko'rmas qilsun, ulash mangu tamug'da qolsun, teb duo qildi. Ko'nglumga qo'rqunch tushdi, andin qochtim, munda keldim. Bir kim ersa keldi, qo'lum, butumni mundog' qildi. Usmonning duosi mustajob bo'ldi. Emdi ul ulash tamug'da qolsun tegan duosidin qo'rqub munda ingranurman, tedi.

Aymishlar, Usmonni qirq tun-kun, taqi bir qavlda o'n sekiz kun, saroyda egirlab tuttilar. Kasir ibn Salda aydur: Ul holda Usmonqa kirdim, menga aydi: Ey Kasir, men o'larman. Aydim: Nedin bilursen? Bo'lg'aykim, Izi azza va jalla nusrat qilg'ay. (241r) Aydi: Men Rasul alayhis-salomni tushumda ko'rdum, Abu Bakr birla Umar birla manga aydilar, bu kecha ro'za bizda ochg'il, teb. Usmon ro'za erdi, oxshom bo'ldi suv bermadilar, andag'-o'q ro'za og'zin uzidi. Xotuni Noila otlig' erdi, tun ichinda bir ancha suv hosil qildi. Usmonni o'zg'ardi. Suv buldim, og'iz ochg'il, tedi Usmon aydi: Tushumda Rasulni ko'rdum, manga ujmoq zilolidin suv ichurdi, manga dunyo suvi kerakmas, tedi. Yorindasi g'avg'o qildilar ersa, Usmonning qullari qilich olib urushqali kirdilar ersa, Usmon raziyallohu anhu: Sizlarda kim ersa qilichni qinqa suqsa mendin ozod, tedi. Qamug'ini yondurdi. Abu Hurayra raziyallohu anhu aydur: Men aydim, yo Amir-al-mo'minin, mundog'imu o'lumni o'zungga ravo ko'rdung? Aydi: Yo Abo Hurayra, menim uchun azinlar o'lumin tilayurmusen? Anchada kirdilar, saqolin tutub bo'g'uzladilar. Mushaf o'ngunda qo'zub, Qur'on o'qiyur erdi. Pichoq bo'g'zunga tegdi, shahid bo'ldi. Saroyning to'rt bo'lungidin un eshitildi: *Abshir ya Usmanu birabbin g'ayra isayn*. Ikinchi bo'lungidin un keldi: *Abshir ya Usmanu birohatin va rayhan*. Uchunchi bo'lungdin un keldi: *Abshir ya Usmanu bijannatin va bustan*. Rivoyat qilur Hasan Raziyallohu anhu: Rasul alayhis-salomni tushumda ko'rdum, ilkin Arshqa urub turur, Abu Bakrni ko'rdum, ilkin Rasulqa urub turur, Umarni ko'rdum, ilkin Abu Bakrga urub turur. Ularning o'nginda qonlar ko'rdum. Bu ne qonlar turur? teb so'rdum. Aydilar: Usmonning qoni turur, shoshin tilayurlar.

Aymishlar, Usmonning xotuni faryod qilimisha Hasan va Husayn raziyallohu anhumo bir ancha sahobalar birla kirdidar, Usmonni bo'g'uzlanmish ko'rdilar, yig'lashtilar. Azinlarma

kirdilar. Oncha Ali va Talha va Zubayr va Sa'd raziyallohu anhum taqi Madina xalqi kirdilar, ko'rdilar. *Innaa li-llahi va innaa ilayhi roji'un*, teyu chiqtilar. Ali raziyallohu anhu o'g'lonlaring'a aydi: Siz saroy qapug'inda erkan Usmonni netak o'ldurdilar. Hasanni bir yangoqladi, Husaynni ko'ksunda bir yumruqladi. Yo'lsuz, hujjatsiz Rasulning xalifasin netak o'ldurur erdilar. Ali evinga keldi. Sahoba qamug' Alig'a yig'ildilar, aydilar: Yo Amir al-mo'minin, sen ilking bizga bergil, bay'at qilaling. Ali aydi: Bu so'z bizga tegmas. Ahli Badr kimni tilasa xalifa ul turur. Ahli Badr qamug' Aliqa keldilar. (241v) Sendin azin kim ersaga tegarlik yo'q, teb bay'at qildilar. Ali raeiyallohu anhu masjidga kirdi, minbarga og'di, bay'at tamom qildi ersa minbardin indi. Xalqni undadi, qo'rqub qochtilar. Ali Usmon xotuniqa keldi, Usmonni kim o'ldurdi? teb so'rdi. Usmon xotuni aydi: Bilmasman kim erdi, ikagu kirdilar. Muhammad ibn Abi Bakr ularning birla erdi. Ani undadilar, keldi. So'rdilar aydi: Yolg'on aytur, men kirmadim, o'ldurmadi. Xotuni aytur: Rost aytursen, o'zi kirmadi, ularni kigurdi.

Aymishlar, Usmon ul holda xalqqa aydi: Meni ne uchun o'ldurursiz? Rasul yorliqadi: *La yahillu damum ri'in illa min salasin: rajulun qatala amdan fa alayhil-qavadu, av zana ba'da itisonihi fa alayhir-rajmu, av irtadda ba'da islamihi fa alayhil-qatlu. Fa va-llohi ma qatalu nafsan fa aquda va ma zanaytu fil-jahiliyyati va la fil-islami va la irtadtu munzu aslamtu va inniy ashhadu an la ilaha illa-llohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluhu teb kechti.*

AMIR AL-MO'MININ ALI RAZIYALLOHU ANHU SHAHODATI SO'ZLARI

Ali raziyallohu anhu aytur: Bir kun Rasul alayhis-salom aydi: *A tadri man sharrul-avvalina qultu Allohu va rasuluhu a'lamu, qola aaqirun naqati, summa qola ya Ali a tadri man sharrul-aakhirina qultu Allohu va rasuluhu a'lamu qola qotiluka. Ya'ni ey, uzoqilarda yovuzraqi kim erdi bilurmusen?* Aydi: Alloh taolo va Rasuli yigrak bitur. Aydi: Solih yalavoch inganin o'lturgan erdi. Yana aydi:

Bilurmusen so'ngqida yovuzroqi kim turur? Aydim: Alloh taolo va Rasuli bitur. Aydi: Seni o'lturgan turur.

Aymishlar, ingan o'ldurgan murod qabilalig' erdi, oti Qazzor ibn Solif erdi. Alinima o'ldurgan murod qabilalig' erdi. Bu yo'ldin bu yerda yod qilindi. Aymishlar, Abdurrahmon ibn Murodiy taqi Umar ibn Bakr al-Yamaniy taqi Ibn Abdulloh otlig'. Bu uchagu Makkada kengash qildilar, biz uchaguni o'ldurali, bir Ali raziyallohu anhu, bir Mu'oviya taqi bir Umar ibn al-Os. Bu Umar Misrda xalifa erdi, Mu'oviya Shomda erdi, Ali raziyallohu anhu Kufada erdi. Abdurrahmon ibn Muljim aydi: Men Alini o'lturayin. Ibn Abdulloh aydi: Men Mu'oviyani o'lturayin. Umar aydi: Men Umar ibn al-Osni o'lturayin, teb qilichlarin oldilar, qaror berdilar. Tarixqa qirq erkan, ramazon oyining o'n yetinch kechasida biri so'zlashgan yerga borib, bularni o'lturmak bo'ldilar. Ul so'z birla ibn Muljim Kufaga keldi, Alini o'lturgali. Bir xotun ko'rdi, Qitom otlig'. Anga yavloq oshiq bo'ldi. Ul tishining otasin taqi o'z qarindoshin Ali o'lturmish erdi. Ibn Muljim (242r) ko'ngul oldurmish erdi, qo'lg'ali kishi izti. Borg'an kishiga Qitom aydi: Menim ko'nglum tilagan ishni qilsa bo'lurmen, tedi. Ne turur? tesa aydi: Alini o'lturmak. Ibn Muljim aydi: Men kendu bu ishga kelib tururman. Men bu ishni butkarayin, qalingma ul bo'lsun, manga bir qo'ldosh bergil, tedi. Tishi bir Vardon otlig' kishini qo'ldosh qildi, ibn Muljimma bir Shabib otlig' erni qo'ldosh qildi. Bu uchagu qaror berdilar, ramazon oyining o'n yetinch kecha Ali namozqa kirurda Shabib busub ursu, qilich qapug' suyakinga tegdi, Aliqa tegmadi. Shabib, Vardon qochtilar. Biragu bani umayyadin Vardonni o'lturdi, ibn Muljim Alini qilich birla majruh qildi. Xalq yugru chiqtilar, ibn Muljimni tuttilar. Ali namoz qildi, aydi: Ani menga kelturing. Kelturdilar, aydi: Ey Tengrining dushmani, menda ne o'chung bor erdi? Qirq kecha bo'ldi uzog' turub, sahar vaqtida Mavlodin tiladim, menim o'lumum xalqda yovuzroqi ilkinda bo'lsun teb. Shukur Mavlo taoloqakim, Izi azza va jallaqa sajda qilg'an kim ersaning ilkinda bo'lmadim. Aydi: Men o'lsam muni o'lturing, tirik qolsam o'zum bilgayman, teb. Anda kezin Amir al-mo'minin Husaynqa aydi: Muni sen o'lturgaysen, qo'lin, butin kesgaysen. Bu(ni) o'g'lonlarig'a vasiyat qildi Handab ibn Abdulloh aydi: Biz

Husayn birla bay'at qilalingmu? Ali raziyallohu anhu aydi: *La aamurukum va la anhakum antum absaru bihi*. Ma'nisi ul bo'lur: Sizga buyurmasman, siznima tilamasman teb. *La ilaha illa-llohu Muhammadun rasulu-lloh*, teb kechti, rahmatqa ulandi. Hasan va Husayn va Abdulloh ibn Ja'far yuvdilar, uch kafan yo'rgadilar. Hasan raziyallohu anhu namoz qildi. Ibn Mujimni o'lturgali kelturdilar, aydi: Men Tengri azza va jalla birla ahd qilmish erdim, Alini taqi Mu'oviyani o'lturg'ayman, teb. Alini o'lturdum, meni qo'zg'il, Mu'oviyani o'lturayin yana kelib ilkimni sening ilkingga berayin, tedi. Hasan unamadi, o'lturdi. Bo'ryoqa yo'rgab, o'tqa kuydurdilar.

HASAN RAZIYALLOHU ANHU SHAHODATI SO'ZLARI

Aymishlar, Arman shohining qizi amir al-mo'minin Hasan nikohida erdi, yavloq ko'rkluk, jamollig erdi, Yazidning anga rag'bati bo'ldi, kishi izti Ali urug'ining davlati ketti, bu kun davlat bizga bo'ldi, qatlang'il, (242v) Hasanni oradin keturgil, men seni qo'layin. Xotun ul so'ga mag'rur bo'ldi, amir al-mo'minin Hasan raziyallohu anhu ro'za erdi, havo g'oyat isig' erdi, kecha bo'lmishda sharbat anutti, anga og'u qotti. Og'iz ocharda Hasanqa berdi, ichti ersa ko'ngli bulg'andi, bag'ri pora-pora bo'lub bo'g'zindin keldi. Nedin bo'lg'anin bildi. Yig'i sig'it qo'pordilar. Husaynni undatti, Husayn kelib ul hol arz uza ko'rdi ersa yig'ladi, aydi: Ey qarindosh, qamug' emgaklar bizga ermiş, sen borsang men netak qilayin, teb. Hasan aydi: Ey qarindosh, menim holim yovushti, menda kezin o'gsuzlarimni ezgu tutg'il. Husayn aydi: Ey Hasan, manga aytu bergil, sanga bu ishni kim qildi? Hasan aydi raziyallohu anhu: Biz Rasulning urug'i erkan, bu holqa tegmishta manga aytu bergil teb, ayg'oqliqu buyurusen? Mendin loyiq bo'lmag'ay, tedi. Yana aydi: Men borurman, manga buxl qilg'il. Husayn aydi: Ey qarindosh, senma mendin jaddimga, otamizqa, onamizqa ulansang menim salomumni tegurgil. Ayg'il: Ul munglug'yorlig' o'g'lung aytur, qachon qiyomat kuni bo'lsa meni Arasot yerinda Molik

ilkinda ko'rsa manga shafolat qilg'aysiz. Yana aydi: Ey qarindosh, qachon holing yovusa manga xabar bergil. Hasan aydi raziyallohu anhu: Ul holda sanga ayg'u yarog'im bo'lmasa ernakim birla ishorat qilsam quloqingni menim og'zimqa qo'zg'il, eshitganimni sanga aytu berayin, tedi. Bir ancha bo'lmishta ishorat qildi. Husayn aydur: Quloqim tuttum, aydur edilar: Manga qo'rqmag'il, men Tengri sandin xushnudman, teb dunyodin kechti. Yig'lashtilar, yarog'in biturdilar. Husayn taqi Muhammad Hanifa janozasin ko'tardilar. Rasul ravzasig'a eltur bo'ldilar ersa Madina ulug'i izmadi. Husayn raziyallohu anhu un qo'pordi: *Hatu silahiy*. Ya'ni silohimni kelturing, ularning birla sanchishaling, tedi. Abdulloh ibn Mas'ud ilguru kirtdi, aydi: Ey Rasulning qumartg'usi, silohni qo'zg'il, sanchishmag'il. Kerakmazkim bir ofat tegsa sendin yema mahrum qolsamiz, o'zi yorliqanmish turur, qayda qo'zsamiz Mavlo rahmatining asari anga teggay, teb. Baqi' go'ristoniqa olib qo'ztilar. Tishining iddati tamom bo'ldi ersa Yazidga kishi izti: Iddatim tugandi, kelgil, nikoh qilg'il, tedi. Yazid javob aydi: Sen Rasul alayhis-salom o'g'lonlaring'a vafo qilmading, manga ne vafo qilg'aysan, teb unamadi. Ul biliksiz (243r) tishi Hasanning elindin uchg'undi, tilagiga tegmadi. Ul kun Hasanni, raziyallohu anhu, tuproqqa qo'yimishta Rasul alayhis-salom ahli bayti Rasulning ta'ziyatini boshdin tuttilar. Hasanning o'gsuzlari boshlaringa tuproq sochib: Iziyo, jaddimiz haqqi hurmati bizga rahmat qilg'il, teyur erdilar.

HUSAYN RAZIYALLOHU ANHU SHAHODATI SO'ZLARI

Aymishlar, Husayn raziyallohu anhu taqi Yazidli aro iki dushmanliq bor erdi, biri asliy, biri far'iy. Asliy dushmanliq ul erdikim, Rasul alayhis-salomning to'rtunch otasi Abdi Mannofning egiz o'g'li bo'ldi, ikisining orqalari yopishuq. Muni netak qilg'u, teb kengash qildilar. Biragu aydi: Bu birini o'lturub aziraling, birisi tirilsun, tedi. Biragi aydi: Birini yerda ko'maling, yerda chirigay, azrilg'ay, birisi tirilgay. Abdi Mannof yitig qilich oldi, ikisining orasin qilich birla yordi, biri birindin azrildilar, ikalasi tirildilar.

Biriga Hoshim atadilar, biriga Ummyia ot berildi. Ulg'ardilar, Hoshimning o'g'li bo'ldi Abdul Mutallib otlig'. Abdul Mutallibning o'g'li bo'ldi Abu Tolib otlig'. Abu Tolibning o'g'li bo'ldi Ali otlig'. Alining o'g'li bo'ldi Husayn otlig'. Ummyianing o'g'li bo'ldi Hars otlig'. Harsning o'g'li bo'ldi Sufyon otlig'. Sufyonning o'g'li bo'ldi Hars Mu'oviya otlig'. Mu'oviyaning o'g'li bo'ldi Yazid otlig'. Ul kun Abdi Mannof ul iki o'g'lonlar orasiga qilich kigurdi. Tirik borincha Hoshimli Ummyiali aro qilich erdi. Yana Abdul Mutallibi, Harsli aro qilich erdi. Yana Husaynli, Yazidli aro qilich erdi. Asli adovat bu erdi. Ammo far'iy adovat ul erdikim, bir kun Mu'oviya o'g'li Yazidni undadi, aydi: Sening uchun emgandim, qamug' tilagingga tegurdum. Emdima tilaging bor ersa ayg'il. Yazid aydi: Bir tilagim bor. Ne ul? tesa, aydi: Abdulloh Zubayrning Fotima otlig' xotuni bor, yavloq ko'rkluk. Ko'nglum tilayur menga bo'lsa, teb. Mu'oviya aydi: Anima tadbir qilayin. Yorindasi Abdulloh Zubayrni undadi, aydi: San Rasulnug ammining o'g'lisan, ko'nglum tilayur sanga ezguluk qilsam. Sening otang mening haqqimda ezguluklar qilib turur. Menim bir qizim bor, sanga berayin, Mist viloyatin sanga berayin, tedi. Abdulloh Zubayr ul so'zga arsiqib rag'batlig' bo'ldi. Ikinchi kun yana indadi, aydi: Bu so'zni (243v) qizimqa aydim. Aytur: Abdulloh Zubayrning ko'rkluk xotuni bor, mening birla yarashmag'ay, ani taloq qilur ersa meni anga bergil, yo'q ersa bermagil teyur. Abdullohning ko'nglunga Mist viloyatining sevukluki tushmish erdi, evulokin taloq qildi. Yorindasi Abdullohni yana indadi, aydi: Qizim aytur mening ko'rkluk yo'q. Abdulloh ko'rkluk xotunin Mist mulki uchun taloq qildi. Bir kun mulk bizdin ketse, ul menima tutmag'ay teyur, sani unamasmen teyur. Abdulloh qazg'ulug' bo'ldi. Mu'oviya aydi: Sen qazg'urmag'il, men xotunlarni izg'am, ani yo'lga ko'ndurgaylar. Qachon ul xotunning iddati tamom bo'ldi ersa Abu Muso al-Ash'ariy raziyallohu anhu undadi. Uni o'g'li Yazid uchun qo'lg'ali izti. Abu Muso al-Ash'ariy ham olim erdi, ham omil erdi, qo'pti, ul xotunqa bordi. Yo'lda Qosim ibn Abbos yo'luqti. Qayda borursen? teb so'rdi. Aydi: Abdulloh Zubayr qo'yg'an xotunni Yazid uchun qo'lg'ali borurmen, teb aydi. Qosim aydi: Menimma rag'batim bor, so'zumni ayg'aysen, tedi Bu Qosim g'oyat jamollig' erdi. Bir ancha bordi

ersa amir al-mo'minin Husayn ibn Ali yo'luqti, ulma so'rdi: Qayda borursen? teb. Abu Muso al-Ash'ariy Yazid va Qosimning so'zin aydi ersa Husayn aydi: Menimmy so'zumni so'zlagil, tedi. Abu Muso bordi. Yazid so'zin va Qosim so'zin va amir al-mo'minin Husayn so'zin aydi. Menma seni ko'rub ko'ngullandim, qayumizni tilasang sen bilursan, tedi. Ul xotun aydi: Sen bori abushqasen, seni unamasman. Emdi bu uchaguda qayusinqa bo'layin, tedi. Abu Muso aydi: Manga kengashting ersa yarog'lig'ni aytu berayin: el kun, oltun, kumush, tapug'chilar, dunyo hurmati kerak ersa Yazidga bo'lg'il. Ko'rk jamol kerak ersa Qosimqa bo'lg'il. Zuhd va ilm, arig'urug', oxirat izzati kerak ersa Husaynga bo'lg'il. Telim vaqtlarda ko'rdu Mustafo alayhis-salom Hasan va Husaynni raziyallohu anhumo qo'yninga olib: *Sayyidu shababi ahlid jannati*, teb qutlug'og'zin ularning og'zinga qo'zar erdi. Ul xotun aydi: Manga dunyo hurmati kerakmas, ko'rk jamol kerakmas. Ijozat berdim, borg'il meni Husayn birla aqd qilg'il, azinlarning umidi kesilsun, tedi. Abu Muso ani Husayn birla aqd qildi. Bu xabar Mu'oviyaqa tegdi ersa aydi: Ey Abu Muso, (244r) men muncha tenglik makr-u hiyla qildim, sen qamug'ini buzdung, botil qilding, tedi. Bu sababdin Husayn dushmanliqi Mu'oviya birla berkidi, far'iy adovat bu erdi. Qolan nabiy. *Ma taraktu ba'diy fitnatan axara alar rijali minan-risa*. Ya'ni menda kezin eranlarga xotunlardin fitnarak qo'zmadim. Odamdin qiyomatqa anbiyo va asfiyodin telimlar xotun balosig'a ilindilar, Odam va Havvo qissasi ma'ruf. Nuh yalavoch evlugi, Lut yalavoch evlugi so'zlari ma'ruf turur. Ibrohim nabiy birla Sora va Hojar mundag'-o'q, Yusuf Zulayxo birla, Sulaymon Bilqis birla qissasi mashhur turur. Mustafoning Oyisha birla qissasi mashhur turur, Amir al-mo'minin Husayn raziyallohu anhu so'zlari xotuni birla ma'ruf turur.

Aymishlar, Yazid ont ichti, ilkim yetse Husayn o'lturgayman, teb. Ul so'zinga yetti, ammo Mavlo taolo ani ozorladi. Rasul alayhis-salomni, Ali va Fotimani o'zinga xasm qildi. Mu'oviyaning boshi yastuqq'a tegdi ersa Yazidga vasiyat qildi: Husaynni og'irlag'il, sanga kelmishta o'z o'rmungda o'lturg'il, mol qo'lsa bergil, bu qamug' ularning haqqi turur. Yo'lsuz olib tururman, tedi. Yazid aydi: Men Husayn birla andog' ish qilg'aymankim, sen

otasi birla qilding. Mu'oviya aydi: Zinhor fuzulluq qilmagilkim, men Rasuldin eshittim, aydi *Inna liy maqoman yavmal-qiyamati ma'a qotitil-Husayn va vaylan li shufa'aihi va xusama'ih*. Ya'ni ey Yazid, zinhor o'g'lonliq qilmag'il, Husaynni ozorlatmag'il, Rasul xasmlig'i yavloq qatig' turur. Otasi vasiyat qildi: Halolzada ul bo'lurkim, otasi vasiyatini saqlasa. Qachon Mu'oviya o'ldi ersa Yazid Validga kishi izti, ular Madinada erdilar. Aydi: Kim mening birla bay'at qilmasa aning boshini manga izg'il, teb bitik izti. Bitik Validga tegdi ersa Abdulloh taqi Abdulloh Zubayrni, Husaynni raziyallohu anhu undadilar. Yotsig' namozi vaqti erdi, bular uchagu Rasul alayhis-salom ravzasinda erdilar. Husayn kelganlarga aydi: Sen borg'il, biz borg'aymiz, tedi. Ul bordi ersa Husayn aydi: Bilurmusiz, bizni ne uchun undayur. Mu'oviya o'ldi, Yazid o'rung'a o'lturdi. (244v) Validga bitik Izib bay'at tilayur. Nedin bilding tesa, men kecha tush ko'rdum Mu'oviyaning boshi tuban bo'lmish, ul aning o'limi turur. Bir it ko'rdum aning o'rmunda o'lturur - ul Yazid turur. Ular aydilar: Bay'atqa ne teyursan? Aydi: Kim ersakim kecha xamr ichsa, kunduz it birla o'ynasa, musulmonlar harami andin emin bo'lmasa, aning birla netak bay'at qilayin. Siz bormas ersangiz ko'runmang, men yolg'uz borayin, tedi. Husayn bordi, yigirma yeti kishi o'z Mavlolarindin olu bordi, qamug' silohlig'lar. Aydi: Sizlar qapug'da o'lturung, mening unumni eshitsangiz kiring, tedi. Husayn o'zi kirdi. Valid Yazidning bitigin so'zin aytu berdi Husayn aydi: Bu soat tunla turur, yolg'uz javob aysa bo'lmag'ay. Yorin yig'ilib kelaling, javob ayg'ayman, tedi. Qo'pub chiqg'ali o'g'radi ersa Marvon hakim, Validning vaziri erdi, aydi: Husayn ilikka kirdi, qo'zmag'il. Yorin muni kim bulur bo'lmasmiz, Yaziddin qo'rqmazmubiz. Husaynning etagiga yapushti, aydi: *Uskut ya aduvva-llohi*. Mavlolari kirib keldilar, Marvon qochti. Husayn andin chiqti, kizlandi. Makkaga o'g'radi. Yazidga xabar qildilar. Yazid Validga bitik izti. Husaynning boshin bizga izmasang, joningni biz olmasmubiz. Valid qazg'ulug' bo'ldi, aning uchunkim, arig' e'tiqodlig' erdi. Husayn qayda erdukin bilur erkan, azin yerda istar erdi. Husaynqa kishi izti. Ish qatig'roq bo'ldi, qo'pg'il, Makkaga borg'il, inch turur, tedi. Husayn yig'ildi, ezgu duolar qildi. Husayn raziyallohu anhu qardosh urug'inga

xabar qildi, falon kecha chiqaling, teb. Bir ancha birla chiqtilar, bir ancha yarog'siz erdi, qoldilar. Ul kecha Husayn raziyallohu anhu Rasul alayhis-salomning hazirasig'a bordi, Qur'anni xatm qildi. Sahar vaqti bo'ldi ersa yuzini ravzaqa o'vurdi, aydi: *Ya rasula-llohi ji'tuka shakiyan min ummatika*. Yo Rasululloh, sening ummatingdin sanga shikoyat qilu keldim, meni o'ldurgali o'g'radilar, teb anchada uzidi. Tushinda ko'ldi: Rasul alayhis-salom ravzasi ochilmish. Rasul alayhis-salom iki iliklarin ravzadin chiqarmish, Husaynni quchti, og'zinga qubla berdi. Aydi: Ey bag'rim porasi, eva bizga kelgil, otang Ali, onang Fotima, ammung Ja'far Tayyor raziyallohu anhu qamug'lari sanga kuzub tururlar. (245r) Husayn raziyallohu anhu aydi: Yo Rasululloh, bu kun munda-o'q, turayin, Aydi: Ey ko'zum yoruqi, *Inna laka darajatan fil-jannati la tanaluha illa bish-shahadati*. Ya'ni senga ujmoah ichinda daraja bor, shahid bo'lmag'incha ul darajani bulmaysen. Otang Alining azin darajasi bor. Menim saroyim Ibrohim yalavoch saroyi birla teng turur. Ikimizning orasida Ali saroyi turur, bu singar boqsang meni ko'rarsen, ul singar boqsang Ibrohim yalavochni ko'rarsan, tedi. Anchada uzg'andi, qamug' a'zosi terlamish. Rasul alayhis-salom ravzasig'a vido' qildi, yo'lg'a kirdi. Bu oyatni o'qiyu boshladi: *Fa xarajə minha xoifan yatarraqqabu*. Qachon Makkaga yovushti ersa bu oyatni o'qiyu boshladi: *Va lamma tavajjaha tilqoa madyana*. Maliklar qamug' o'tru chiqtilar, sevundilar, o'zundin burunroq Abdulloh ibn Abi Bakr va Abdullah ibn Umar va Abdulloh ibn Zubayr Makkaga kelmish erdilar. Abdulloh ibn Zubayrni og'irlamish erdilar, Husayn keldi ersa imomatliq qildi. Qamug' ishlarda Husaynqa kedilar. Abdulloh ibn Zubayr qazg'ulug' bo'ldi. Qolan-nabiyyu alayhis-salam: *Axiru ma yaxruju min qulubis-siddiqin xubbur-riysati*. *Qola rasulu-llohi salla-llohu alayhi va sallam: Kunu aznaban va la takunu ru'usan*, iza safarta ma yanju raziyallohu anhu olti oy Makkada tinch turdi. Kufaliklarga xabar bo'ldi. Amir al-mo'minin Alining Kufada do'stlari ko'p erdi. Aydilar: Husayn Mustafoning urug'i turur, otasining bizing birla haqlari ko'p turur. Husayn bor erkan o'zga kim ersani netak imom qilaling, teb bitik Izib, Husaynni Kufaqa eltur bo'ldilar. Husayn

Muslim ibn Aqilni Kufaqa izti. Sen borgil, yarog'ni anglab kelgil, teb. Muslim kelib bularni ko'rdi, Husaynqa bitik iztilar. Yigirmi iki ming er bay'at qildilar, teb. Ul kun Kufada Yazidning noyiblari mustaz'if erdilar, bu xabarni bildilar ersa Yazidga bitik iztilar, Yazid qazg'ulug' bo'ldi, kengash tiladi. Aydlar: Shomdin Kufaqa bitik izg'u Basrani, Kufani sanga berdum, teb. Ul kendu bu ishni biturgay, tedilar. Ablulloh Ziyodning otasi qarindoshi o'g'li erdi, bitik anga tegdi ersa cherik yig'ib, Husayndin burunroq Kufaga keldi, boshinga taylason yo'rkanib kirdi. Bu Husayn turur, teyu saqindilar. Cherik telim ko'rdilar ersa Husayn ermasin bilib qo'rqtilar, ukushlari (245v) bay'atdin yondilar. Muslim ibn Aqil bu cherik kelmasdin uza Husaynqa bitik izmish erdi, Kufa xalqi qamug' bay'at qildilar, tark kelgil, teb. Abdulloh ibn Zubayrma Makkada Husaynni tarkrak izg'il teb oshuqturur erdi, o'run, hurmat menga qolg'ay, teb. Husayn yo'lg'a kirdi. Abdulloh Ziyod kelganin bilmadi. Abdulloh Ziyod Kufaga kirdi ersa Muslim ibn Aqilni o'lturdi. Qilich urg'an uilklari quridi. Abdulloh Ziyodni buldungmi? teb so'rdi. Aydi: Qilich ko'turub urmishta havoda Rasul alayhis-salomni ko'rdum. Ermakin qutlug' og'zinga qisib turur, manga qatig'un qildi, qo'rqum, ilkim quridi, yuzum sarg'ardi, tedi. Husayn bu hollarni bilmadi, bilsa kelmagay erdi. Yo'lda kelurda aytur erdi: Bu safarni ko'nglum unamas, borg'il teyur. *Va lakin amru-llohi qadran maqduran.*

Aymishlar, *Iza ja'al-qazo amiyal-basaru*. Husayn raziyallohu anhu Kufaqa besh manzil Tal'at otlig' yerga kelmishda Muslim ibn Aqil xabarni eshitti, yavloq telim yig'ladi. Ul otalarqa ulandi, bizma so'ngincha borurmiz, tedi.

Yana bilmadi, anchada Harr ibn Yazid ar-Rayohiy iki ming er birla Husaynqa yo'luqti. Abdulloh Ziyodning cherikindin erdi. Ulan namozi vaqti erdi, aydi: Ey Husayn, sening birla sanchishmoq tamug' o'ting'a kirmak turur, netak qilayin. Ey Rasulning urug'i, kufaliklar bitigi birla kelding, baloqa ilinding. Muslim ibn Aqil birla naear qildilar, eshittingmu. O'gut olg'il, Makkaga borg'il. Abdulloh Ziyod menga so'zlab turur, Husaynni qayda bo'lsang tutg'il teb. **YO'YSIG'** namozi vaqti erdi, Husayn imomatliq qildi, Harr ibn Yazid iqtido qildi. Namoz ichinda ruku'in, sujudin ko'rub Mustafo alayhis-salomning ruku'i, sujudug'a o'xshayur, teb ko'zlarindin

yosh oqar erdi. Namozdin forig' bo'ldi ersa Husaynga keldi, aydi: Ey Rasulning nabirasi, men ulug' baloqa ilindim. Senga maslahat ul tururkim, cherik etmishda bir qulovuz tilagil, seni Makkaga eltsun. Husayn qo'ldoshlari birla kengashgi, biragu: Men yo'l bilurmen, tedi. Boshladi. Muharram oyining avvali erdi, tun qorong'u erdi, yo'l ozdilar, uzun tun yuridilar. Ertasi Karbaloqa chiqtilar, tuproq qizil ko'rdilar. Husayn raziyallohu anhu bildikim, hol ne turur, Aydi: *Allohuma inniy a'uzu bika minal-karbi val-balai*. Tevadin indi, qizil tuproq ko'rar. *Haza maqomu bukaina va maqatalu rijalina va masfaku (246r) dimaina*, teb yig'ladi. Kufaliklarga bitik izti, biz bay'atqa kirduk, keling, teb aydingiz erdi, yana ahdni buzdunguz. Qachon Abdulloh Ziyodqa xabar bo'ldi ersa Husayn Karbaloqa kelmish. Anchada Umar, Sa'dni yigirmi iki ming er birla yibordi, yetib keldilar. Iki ming otlig' yarog'ni Furotqa izti, suvni saqlang, ularga bermang, tedi. Uch kun suv bermadilar. Rasul alayhis-salomning ahli bayti uch kun tayammum birla namoz qildilar. Husayn raziyallohu anhu qarindoshi Abbos birla, bir qach qo'ldosh birla tunla borib Furotdin ozqina suv olaling tedilar. Bordilar. Ularqa xabar bo'ldi, sanchishtilar. O'tuz erda yigirmi ikisi halok bo'ldi, Abbos majruh bo'ldi. Ul kecha Husaynning qavmi uza otlarin tushda ko'rub: *Ar-rahilu ilayna qarib*, ya'ni bizga qovushmoqliqqa yovushtunguz teyur erdilar, Umar va Sa'd ikagu ul emgaklarin ko'rub: *Ya laytaniy ma kuntu amiran*, teyur erdi. Harr ibn ad-Doj kelib ilkin Husayn raziyallohu anhu boshig'a qo'zub, aydi: Tavba qildim, eng ilki kelgan men erdim, eng ilki sening uchun jon fido qilg'an men bo'layin, teb. Bir tarso bor erdi, Husayn o'nginda musulmon bo'lg'an, ul kun onasi birla Husayn cherikida erdilar. Yazid cheriki birla qatig' sanchishti, telimlarni o'ldurdi. Oxir so'nggi shahid bo'ldi, boshin kesib Husayn cherikiga soldilar. Onasi o'g'li boshin olib aydi: Ey bolam, menglik sening o'zung Rasul xonadoni uchun bosh berding, teb ul bosh birla bir Yazidni urdi, halok qildi. Chodir yigochini ko'turub kirdi, telimlarni halok qildi. Husayn aydi: Ey za'ifa, *Anti va valaduki ma'a rasuli-lahi filjannati*. Ya'ni sen o'g'lung birla ikagu ujmoq ichinda Rasul alayhis-salom birlasiz, tedi. Husayn qarim qazdurdi, o't birla to'ldurdi, bir singardin kirsunlar. Molik ibn Ja'far ani ko'rub

aydi: Ey Husayn, oshuqtung. Oxirat o'ting'a ulanmazdin burun dunyo o'tin yoqting, tedi. Husayn aydi: *Kazibta ya aduvva-llohi inniy qodimun ila rabbin rahim*. Yolg'on aytursan, ey Tengrining dushmani. Men yorliqag'an Izing'a o'g'rab borg'anmen. So'rdi. Munung oti ne turur? teb. Aydilar: Molik ibn Ja'far turur, aydi: *Allohumma jarrahu ilan-nari fal-yazuq harraha*. Iziyo, (246v) Ja'farni dunyo o'tinga cho'mo'rgil, aning isiqin ko'rsun. Husayn bu duoni qildi, Molik ibn Ja'farning oti urkti, yiqildi, azoqi uzanguda qoldi, Suyrayu kelturub o'tqa kemishti, halok qildi. Husayn ani ko'rdi ersa shukr sajdasin kelturdi. Husayn raziyallohu anhu aydi: Bu kun manga zamon bering, yorin yarashaling, tedi. Kim ersa javob aymadi. Biragu aydi: Subhanallohi, qayu turluk kofir zamon qo'lsa berurmiz. Rasul urug'i zamon qo'la turur, bir kecha zamon bersa ne bo'lg'ay. Ul kecha zamon berdilar. Tun ichinda Shimir Ibn Javsh xalq birla Husayn cherikiga keldilar. Biragu aydi: *Nahnu va rabbil-ka'bati minat-tayyibina va antum al-xabisun*. Izi azza va jalla otin tuta ont yod qildi: Biz arig'larmiz, siz arig'sizlarsiz, tedi. Yazid ibn al-Hasr namozda erkan muni eshitti, namozni buzub aydi: Yo fosiq, sizteklar arig' bo'lub Husayn arig'sizmu bo'lur? *A musulika minat-tayyibina val Husaynu minal xabisin*. Yorindasi iki cherik turushilar. Ular yigirmi iki ming er erdilar, bular sekson iki er erdilar. Husayn raziyallohu anhu saqolin elinga qo'zub aydi: Iziyo, sen ko'rarsen, bizga kim ersa ilik tutg'an yo'qmu. Bularni bizdin ketargan yo'qmu. *Ama min rohimin yarhamuna*. Ul holda Harr ibn Al-Rayohiy ulardin kirib keldi, Husaynning o'nginda o'zin tuproqqa kemishti, aydi: Yo Husayn, yoshin avval senga kelgan men erdim, bu kun sening uchun jon fido qilg'an men bo'layin, yorin jadding Mustafo shafa'atidin olush bo'lg'an men bo'layin, teb sanchishg'a kirdi. Bu she'rlarni o'qub, to'qush qildi.

She'r

Inniy anal-hurru va ma ziz-zayfi
Azribu a'naqakum bis-sayfi
Min g'ayri madxali biladil-hayfi
Azribukum fa ma aro min hayfi

Tarjimai

Hur tururmenkim qilurmen jon fido,
Hurluqum emdi yaqin bo'ldi mango.
La'nat ul mal'un Yazidg'akim qilur,
Mustafo o'g'lonlaringa bu jafu.

Telim to'qushti, yetmish kishini o'ldurdi. Otning singirin chop-ti, yadag'in to'qushub, telimni tamug'qa izti. Oxir so'nggi shahid bo'ldi. Husayn kishi izti, ko'turub keldilar. Boshini o'z tizinga qo'zub, yuzin (247r) tuproqdin aritib, aytur erdi. Bayt:

Ya hurru, sirtu hurran fid-darayn.
Hotifdin un berdi:
Lani mal-hurru, hurr-ubnur-riyahi.
Lani mal-xurru fi ta'nir-rimahi.

Anda kezin Yazid al-Xazar kirdi, bayt aytib sanchishti, shahid bo'ldi. Anda kezin Zahr ibn al-Qays chiqib sanchishti. Anda kezin Abdulloh Vahab al-Kalbiy kirdi, juhud arib musulmon bo'lmish erdi, qari otasi bor erdi. O'g'lig'a aydi: Men seni bu kun uchun ektuladim, meni xushnudluqumni tilayur ersang kirib sanchishg'il. Xotunlar iliklarin hino birla bezayurlar, er ul bo'lur, saqolin bag'ir qoni birla bezasa yo kendu iliklarin dushman qoni birla bezasa. Sanchishqa kirdi, qatig' to'qushti, telimlarni tushurdi. Yana yetib keldi: Ey ota, mendin xushnud bo'ldungmu? tedi. Otasi aydi: Anchada xushnud bo'lurman, Husayn raziyallohu anhu o'nginda jon bersang. Yana kirdi, qatig' sanchishti, telimlarni yiqti, so'nginda tutub, Umar va Sa'dqa elatilar, boshin kesib, Husayn raziyallohu anhu cherikiga kemishtilar. Otasi bo'kru kirib, o'g'lining boshin olib, biraguni urdi, o'ldurdi. Yana chodir yig'ochin olib, yog'ig'a o'tru kirib, aydi:

Inniy ajuzun sayyidiy za'ifaton Hafiyatun ariyatun naxifatun Azribukum biz-zarbati-anifati Duna bani Fatimatish-sharifati Husayn raziyallohu anhu aydi: Ey ota, naru yong'il. Qamug' muborizlarni bu kun o'tlug' qilding. Ul yondi, muborizlar kirdilar. Umar ibn Xolid erdi, kirdi. Telim sanchishti, shahid bo'ldi. Anda kezin Umar ibn Abdulloh al-Madhajiy kirdi. Yana Yahyo ibn Salim

al-Moziniy kirdi. Yana Qurrat ibn Abi Zar al-G'afforiy kirdi. Yana Molik ibn Anas kirdi. Yana Masruq ibn al-Hajjoj kirdi. Yana Anis ibn Ma'qal al-Azho kirdi. Yana Sa'id ibn Abdulloh al-Hafifiy kirdi. Yana Rahbar ibn al-... kirdi. Yana Hilol ibn Nofi' kirdi. Yana Janoda kirdi. Mundag'in qamug'lari to'qushilar, shahid bo'ldilar. Amir al-mo'minin Husaynning qarindoshlari taqi Mahhamning o'g'lonlari qoldi. Abdulloh ibn Muslim ibn Aqil ibn Abi Tolib burun kirdi. Sanchishti, shahid bo'ldi. Husayn qatig' unun aydi: Ey mening ahli baytim, sabr qiling. Yana Husayn qarindoshlari kirdilar, aydilar: Avval biz sening o'ngungda shahid bo'laling, tesa Abu Bakr ibn Ali kirdi. (247v) She'r aytu sanchishti, shahid bo'ldi. Yana Umar ibn Ali kirdi, telim sanchishti, shahid bo'ldi. Yana inisi Usmon ibn Ali kirdi, o'gay qarindoshi erdi, kirdi. Yana Ja'far ibn Ali kirdi. Yana Abbos ibn Ali kirdi. Bu qarindoshlari shahid bo'ldilar. Husayn qoldi taqi iki o'g'li: Ali al-Akbar, Ali al-Asg'ar. Ali al-Akbar o'n yoshlig' erdi, Ali Asg'ar yeti yoshlig' erdi. Ali Akbar sanchishqa kirdi, Husayn saqolin iyasig'a qo'zub aydi: Ilohiy sen tanuqsan. Bu yo'lsuzlarqa sanchishqali chiqqan ko'rk ichinda, qiliq ichinda uz so'zluk Rasulqa o'xshayur hech kim ersa yo'q. Iziyo, yuksak ko'k qatarotin, yag'iz yer barakotin bu yo'lsizlardin tuyg'il, bermagil, teb yig'ladi. Ali Akbar qatig' sanchishti, Shom cherikin telimni tamug'qa izti. Yana yonib otasig'a keldi, Yeti tani qamug' qilich birla boshlig' bo'lmish. Aydi: *Ya abati al-atashu qad qatalaniy va siqlul-hadidi qad ajhadaniy fa hal ila shurbatil-ma'i min sabil*. Ya ni: Ey otam, meni suvsaliq o'lturdi, temur yoriq og'iri arg'urdi. Bir ichim suv bo'lg'aymu? Husayn ani, eshitib qatig' unun yig'ladi: Ey ko'zum yoruqi, bag'rim porasi, oz qoldi. Bir zamon qatlan sanchishqa, sabr qilg'il. Tark to'zgorda jadding Mustafoga qovushub, ilkindin ujmoh sharobin ichgaysiz, teb yana sanchishqa kirdi. Aydi. Bayt:

Ana Aliyyu-bnul Husayni-bni Aliyy

Nahnu va bayti-llahi avla bin nabiiyy

Va-llohi la yahkumu fina ibnu mudda'iy

Nahnu bi hukmi-llahi haqqan amna'iy

Azribukum bis-sayfi difa'an an abiy

Zarba g'ulamin hashimiyyin arabiy

Telim sanchishti, oxiri shahid bo'ldi. Aymishlar, ul holda Husayn otdin indi, o'z yuzini aning yuziga sura boshladi. Ali Asg'ar yeti yashar erdi O'tru yuridi, kelib aydi: Ey otam, chodirqa kirgil, kerakmazkim, shahid bo'lsang, Rasul alayhis-salomning urug'i tugansa. Ul so'zga parda ichindagilar qatig' unun yig'lashtilar, faryod qo'pordilar. *Vo Muhammadoh, vo Abal Qosimoh, vo Fotimatoh, vo Hasan*. Husaynning to'quz oyliq yosh o'g'loni bor erdi, Ali otlig', chodir qapug'ing'a kelib ani tiladi, yuzin ko'rib qolayin, tedi. Ilkinga berdilar, yuzin yuzga qo'zub og'zindan o'par erdi, bir o'q kelib o'g'lonning ko'zinga tegdi, halok bo'ldi. Husayn raziyallohu anhu otdin indi, qilichining uchi birla yerni qazdi, namoz (248r) qildi, andag'-o'q qoni birla tuproqg'a o'rnatti. Anda kezin otlandi, o'fkalik arslontek ko'krayu to'rt singar tepundi, bu baytlarni aytu boshladi: Bayt

Kafaral qavmu ma qaddara g'ayran

An savabi-llahi rabbis-saqalayn

Qatalu qad mata Aliyyan vabnuhu

Husaynal-xayra karimal-abavayn

Vabnu Sa'din qad ramaniy g'urratan

Bi junudin kana savqal-hatilayn

Kal osiy kana minniy fa sal za

...tajri bi ziyail-vaqidayn

Bi Aliyyinil-xayri ba'dan nabiiyy

Van-nabiiyyil-qurashiiyyil validayn

Xayyaraqul-lohu fil-xalqi abiy

Summa ummiy fa anabnul-haramayn

Man lahu jaddun kajaddiy fil-varo

Av kashummiy fa ana minal-qamarayn

Fatimatuz-zahrou ummiy va abiy

Qosimul-kufri bi badrin va hunayn.

Anda kezin Husayn raziyallohu anhu qatig' telim sanchishti, tamug'lug'larin tamug'qa izti, suvsaliq namoz qildi, ularqa tepundi, ularma Husaynqa tepundilar. Husayn Furot singarcha qatig'landi, yetamadilar. Ul holda Abu al-Hanuq al-Ja'far bir o'q otti,

Husaynning ilkinga tegdi. Husayn o'qni tortdi ersa qon oqa boshladi. Husayn aydi: *Allohumma qad taro ma ana fihî min ibadika haulail-usatul-utatu*. Ya'ni Iziyo, ko'rsen bu osiy qullaringdin manga ne tega turur, fil-jumla qamug' birikib tepundilar. Zar'a ibn al-Sharik al-Tamimiy Husaynning ilkinga bo'lag'u birla urdi, Amr ibn an-Halifa al-Jahfiy qilich birla egninga urdi, Sinon ibn Anas an-Nahafiy o'q otti, ko'ksinga tegdi, Solih ibn Vahab al-Mariy biqininqa qilich birla sanchti, Husayn otdin yiqildi, yashil ko'k yiqilg'utek bo'ldi, yag'iz yer xaloyiqni yutg'utek bo'ldi. Otdin tushmishta ura qo'pti, o'qni tortti, ko'kus qoni birla iki ovuchin to'ldurdi, boshini, yuzini, saqolini qong'a bulg'adi. Izi hazratig'a mundog' borg'ayman, tedi. Amr Sa'd aydi: Tushung, boshini kesing. Nasr ibn Harsha al-Ziyoniy inib azoqi birla tepti, orqan kemishti, saqolin tutub aydi: Bayt.

Aqtulkal-yavma na vafsiy ta'lamu

Ilman yaqinan laysa fihî min g'ami

Va la muhala fihî va la naktumu

Inna abbaka xayru man tukallimu

Amr va Sa'dning o'fkasi keldi, o'ldurgali oshuqturdilar. Hayala ibn Yazid al-Azho indi, ul qutlug' boshni kesti, otining yuzi ul qong'a bulg'anib chodirqa keldi, munub ko'rdilar, mingan yer (qon), (248v), axta ko'rdilar, ayg'ir ot yo'q, ot ko'rdilar, Husayn yo'q. Anda kezin un qo'pordilar, yig'i boshladilar, faryod qo'pordilar, anchada ular keldilar, chodirg'a o't yoqtilar, Husaynning boshini, raziyallohu anhu, Abdulloh Ziyodqa iztilar. Bisr ibn Molik Husayn boshini Abdulloh Ziyod olinida qo'zdi, aydi:

Amla'u rikabiy zahaban va fizzati

Ama qataltul-malikal muhajjaba

Qataltu xayran-nasi umman va aban

Va xayra man sallal-qiblatayni mansiban

Ma'nisi ul bo'lur manga oltun kumushdin uzangu suyurg'ag'il, qamug' xaloyiqda yigraging o'g'lin o'ldurdum. Abdulloh Ziyod

o'fkalandi, aydi: Andog' ermish arig'larni neluk o'ldurdung, teb. Boshin kesib o'ldurdi, ey azizlar, Rasul xonadoni ta'ziyatini tutmasmiz? Anda kezin er-u xotin, yosh o'g'lonlarni tevag'a mundurub bulunlartek ul shumlar Shomqa eltilar. Yazid ani ko'rub sevundi, tamoshaqa mashg'ul bo'ldi, tun kun xamr ichmak birla, o'yun qo'ltgu birla, raqs va tarab qilu boshladi. Bu shahodatda kezin qirqinch kun erdi, saroy ichinda xamr ichib, esrub raqs qilurda mabraz tapada sekriyu o'ynayu kirdi, azoqi toyib mabraz tepa tuban tushti. Ko'ksinga tegi ko'muldi, kirib chiqarg'incha arig'siz joni sijjinqa ulandi. Bu ishlarni qilib qirq kunda ortiq malik bo'lmadi.

Aymishlar, Husayn raziyallohu anhu boshin Yazidga eltilar ersa soqindi. Muni yaxshi qildimmu, yavuzmu qildim bilayin, teb Mushaf oldi, fol ochti ersa bu oyat chiqtikim, Qavluhu taolo. *Va xoba kullu jabbarin anid*. Ma'nisi ul bo'lur: Tekma kuch qilg'an bo'y nag'u rahmatdin navmid bo'ldi. Ko'nglinga yoqmadi, yana ochti, ul oyat-o'q chiqti, uchunchida ochti ersa o'fkalab ura qo'pti, mushafni yerga chaldi, azoqi ostin bosti, avroqlarin yirtib pora-pora qildi, yelga biroqti, bu she'mi aytu boshladi. She'r.

A tu'idiniy bi jabbarun anidin

Fa ha ana zaka jabbarun anidun

Iza laqiya rabbaka yavma hashrin

Fa qul yarabbi mazzaqaniy Yazidu

Ma'nisi ul bo'lur, sen meni jabborun anid teyu qo'rqutursen, ul jabbori anid menmen. Qachon qiyomat kuni bo'lsa Tengringni ko'rsang ayg'il: Iziyo, Yazid meni mundog' qildi, yirtti teb ayg'il, tedi alayhil-la'na. (249r)

TANBIH VA NASIHAT

Ey musulmonlar, Rasul alayhis-salom uru-i uza bu zulimlar yuridi so'rg'usuz qolg'ay temak ermas. Munda ta'xir bo'lg'ay, taqsir bo'lmag'ay, imhol bo'lg'ay, ihmol kechmagay. Qavluhu taolo. *Va la tahsabanna-lloha g'oflan amma ya'mallu zolimun*.

Alloh taolo yorliqar, bizni zolimlar zulmidin g'ofil teyu bilmang. Ko'z tutg'il, af'olqa sazo, a'molqa jazo kuni kelsun, haybat bisoti yozulsin, avvalin, oxirin xalqi yig'ilsun. Qavluhu taolo. *Yuhsharuz-zolimuna yavmal-qinamati ka amsaliz-zarr*. Ya'ni yorin ulug' kunda kuch tegurgan, mol olg'an, dod bermagan zolimlar qarinchqa mengizlik azoqlar ostinda yanchilgulari, rahmsiz beklarga zaxm tuggusi *Kullu lahmīn nabata bil-haromi fan-naru avla bihi*. Ya'ni harom birla semurgan etlar, so'nguk-lar tamug' o'tig'a yoqulg'usi. Qavluhu taolo. *Innama ya'kuluna fi butunihim naran va sanaslavna sa'iran*. O'ksuzlar molin yegan qorinlarning ko'z quloqlarindin, og'iz burunlarindin o't yolinar chiqg'usi. Mo''minlar haraminga xiyonat ko'zun boqg'an, zino, livotat qilg'anlar azob va uqubat birla fazihat bo'lg'ulari. Za'iflarni urg'anlar, Izi azza va jallani ozorlag'anlar, azoq olg'an, sig'roq tutg'an iliklarni sindurub, ushatub ko'kuzlarindin chiqarg'ulari. Nomahramqa boqg'an ko'zlarni o't birla to'ldurg'ulari. Lahv, g'iybat, lag'v, yolg'on so'zlagan tillarni engsalarindin chiqarg'ulari. O'yun-kulgu, simo', g'azal tinglag'an quloqlarga eritmish qo'rg'ushun quyg'ulari. Shahvat sharobi birla esrub yotg'anlarni qin birla qo'porg'ulari. Abdulloh Ziyod zulm qilg'anlarni so'rg'ulari. Husayn raziyallohu anhuri o'lturgani uchun Yazidni tamug'g'a tabon otib, temur irg'aqlar birla ilib, buza, yirta, cheka, sancha qinag'ulari. Bu ishlar qamug' bo'lg'usi, bo'lg'uni bo'lmish tutg'il, kelg'uri kelmish bilgil. *Kullu ma huva aatin aatin val-hamdu li-llahi rabbil aalamin. Mavlanaal-aalimur-rabbaniy val-habrus samadaniy koshiful-mushkilati miftohul-ajayibati imomul-aimmati nosirush-shari'ati marji'ul-xossi val-aammi va xalli mushkilati halalin va haramin Nosiruddin Rabg'uziy. (249v)*

XOTIMATI QISASI AR-RABG'UZIY

She'r

Ush bitidim bu kitabni ey eranlar ez bo'zi,
 Bir yil ichra kechti aning yoyu qish yozu kuzi.
 Uyuq buzdum, o'zum uzdum, so'zni tuzdum tunla men,
 Erta qo'ptum, xoma urdum, engandim tun kunduzi.
 Bog' qo'pordim tol yig'ochliq yosh yapurg'oq tol chechak,
 Yemishi hikmat, fazoyil oyati axbor yulduzi.
 Qan quritdim, jon qavartim, qon chiqardim tosh qazib,
 Sof qizil oltun sochiqlab bezadim bu yer yuzi.
 Xotirim bikrin ekim parda ichra tugmatek.
 Kizladim men tekmalardin tegmasun teb yot ko'zi.
 Ko'rki orti kunda yeti ko'z quloqqacha quvub,
 To'nadim turluk tavordim Rum, Xitoy atlas, chuzi.
 Mohir eran mehri tushiti mehri bergan telim,
 Mehri birla qoldi solim, yo'q enginda to'g'to'zi.
 Borib iztim Nosiruddin To'qbug'abek tapug'ig'a,
 Tilayurmu tilamasmu belguluk bilsun o'zi.
 Oyati axbor asli aning, o'zining oti Qisas,
 Bosh azoqg'a tegru boqsang tub yalavoqlar so'zlari.
 Bu murassa javhar oxir Mustafo yolg'uz sening,
 Eshlari to'rt, iki o'g'lon, xotun erdi to'quzi.
 Avvali Odam Atomiz, oxiri xotami Rasul,
 Bu tuzuk birla tuzuldi anbiyo mursal to'zi.
 To'rtagu otlig' sahoba, iki sihr, iki xatin,
 So'ngra maqtal zikri birla to'ldi qissa qo'g'uzi.
 O'zgalar ko'p olamunchuq tuzdilar el tizginib,
 Men guhar dur yinju tuzdum kezmadim yobon yozi.
 Yeti yuz o'n erdi yilg'akim bitildi bu kitob,
 Tug'mish erdi ul o'g'urda hut sa'odat yulduzi.
 Kun tug'ardin kun botarg'a koshki tegsa so'zlarim,
 Eshitgandim duo qo'ldum miskin Nosir Rabg'uziy.

Tammam Qisasi al-Rabg'uziy fi yovmis-sabi'i val-ishrina vaqt az-zuha fish-shahri al-muboraki bi tavfiqil-malikil-vahhab ala yadi az-za'ifi an-nahifi ar-rojiiy ila rahmati-llahi ta'ala haji... Muhammad haji vaziri g'afara-llahu ta'ala zunubahum va mavvara quburahum. Allahumma g'fir li katibihi va liman sami'a minhu va liman nazara fih... at-tarix....

LUG'AT VA IZOHLAR

A

- Abdol** — toat-ibodat qiluvchi(lar), darvesh(lar)
Abushqa — qari, keksa, chol, qariya.
Avlo — yaxshiroq, afzalroq
Avon — zamon, vaqt, payt
Avoqibat — oqibatlar, natijalar, yakunlar
Avurta — enaga
Adan — Yamandagi yirik shahar. Janubiy Arabistondagi Adan yarim orolining shimoli-sharqida joylashgan.
Adiz — ulug', buyuk, baland, yuksak.
Adim — teri.
Adoviy — dorilar, dori-darmonlar.
Adoq// atog' — daryoning quyilish joyi.
Ayoq — may idishi.
Ayoqchi — soqiy, may quyuvchi.
Azin — boshqa, o'zga.
Azina — juma, odina.
Azirmoq — ayirmoq, bo'lmoq.
Aznamoq — aynamoq, o'zgarmoq.
Azoq — oyoq.
Azrilmoq — ayrilmoq, bo'linmoq
Azg'oz ahlam — aloq-chaloq tush
Aya — behi.
Ayn — ko'z, ko'z qorachig'i.
Ayroq — yiroq, uzoq.
Al//ol — hiyla, aldov.
Alayhil-la'na — unga la'natlar bo'lsin!
Alayhinna — ularning (ayollarning) oldiga
Alam nashrah — Qur'on, 94-sura

- Alvoh** — lavhlar, (tekis) taxtalar.
Alin — 1-peshona; 2-o'rkach.
Alpog'ut — botir, qahramon, qo'rqmas.
Al-hamdu — Qur'on, 1-sura.
Am(m) — amaki.
Amir al-mo'minin — mo'minlarning (islom diniga e'tiqod qiluvchilar-ning) amiri; bu unvoini ilk marta Umar olgan.
Amoma — salla, dastor.
Amoriy I — tuya, filga ortilgan kajava.
Amoriy II — boshqa, o'zga.
Amrulmoq — tinchlanmoq.
Amud — gurzi
Amul — vazmin, o'zini bosib olgan, bosiq.
Amurd — nok
Anbar — xushbo'y modda, anbar.
Anbiyo — abiyalar, payg'ambarlar.
Angdimoq — eslamoq, yodga olmoq.
Ano — og'ir mehnat, mashaqqat.
Ansor — 1-ko'makchilar, madadkorlar, safdoshlar; 2-662-yili Makkadan Madinaga ko'chib borgan Muhammad va uning safdoshlariga ko'mak bergan va islomni qabul qilgan madinaliklar.
Antokiya — Suriyaning shimolida joylashgan shahar.
Arsiqmoq — aldanmoq, ozmoq (to'g'ri yo'ldan).
Anumak — tayyorlanmoq, aqni peshlamoq
Anutmak — tayyorlamoq, hozirlamoq, yig'moq.
Anuqlamoq — tayyorlamoq, hozirlamoq.
Arasot — qiyomat, qiyomat maydoni.
Aryon — ayron
Aritmoq — tozalamoq, poklamoq
Arig' — sof, toza, pokiza.
Arig'lamoq — tanlamoq, saralamoq.
Arig'siz — nopok, iflos.
Arkon — Islomda bajarilishi majbur hisoblangan 5 rukn, ya'ni asos — tashahhud, namoz, ro'za, zakot va haj.
Artuch — sarv daraxti

Arshun — arshin (o'lchov birligi, 65,2 sm dan 112 sm gacha teng bo'lgan).

Arqish — karvon, savdo karvoni.

Arqish ulug'i — karvonboshi.

Arqish xalqi — savdogarlar.

Arquri — ko'ndalang.

Arg'amchi — arqon.

Arg'urmak — charchatmoq, toliqtirmoq.

Asig' — foyda, naf.

Asig'siz — befoйда, foydasiz

Asmo — ismlar, nomlar; atash. nom qo'yish.

Asmo ilmi — ism qo'yish ilmi.

Aso — hassa, tayoq.

Asramoq — saqlamoq, yashirmoq, ehtiyotlamoq.

Asfiyo — do'st, chin muxlis.

As'hob — subbatdoshlar, hamsubbatlar, ulfatlar, do'stlar.

As'hobi qahf — Daqyonus nomli zolimdan qochib g'orda yashagan olti do'st haqidagi qissa.

Ashob ul-fil — Islomga qadar Habashiston podshosi Abraha jangovar fillar bilan Ka'bani vayron qilish uchun Makkaga hujum qilgan va ular fil qavmi deb qam yuritilgan.

Axohum — ularning birodari, do'sti.

Axsurmoq — aksirmoq, aksa urmoq.

Achig'ma-sasig'ma — achchig'i, sassig'i.

Ashbah — qora, qora rang

Ashnu — avval, ... gacha, qadar.

Ashoq — past.

A'mol — amallar, ishlar, qilmishlar.

A'robiiy — sahroda yashovchi arab ko'chmanchi arab.

Ayagu — qovurg'a.

Aqba — sassiqpopishak (qush).

Aqzon — qozonlar.

Aqiy — saxovat egasi, saxiy.

Aqiq — qizil rangli qimmatbaho tosh.

Aqrin — sekin, asta.

Aqron — sayyora.

Aqrunluq — sekinlik, asta-sekinlik.

Aqtachi — bosh otboqar.

Ag'zurmak — ko'tarmoq, uchirmaq

Ag'i — ipak, mato.

Ag'loq — avloq, pana, yatirits (joy).

Ag'ri — yuk.

Ag'in — yomon.

Ahsava masvoya — (ayolning erkakka murojaati) Meni yaxshi saqladi.

Ahsanti masvoya — (erkak kishining ayolga murojaati) Meni yaxshi saqladi.

Ahsan ul-qisas — qissalarning eng yaxshisi.

B

Bavl — peshob; najas (axlat).

Bavl qilmoq — siymoq, yozilmoq.

Badiz — tasvir.

Badr — Madinaning janubi-g'arbida joylashgan shaharcha.

Badr to'qushi — 624-yili mart oyida Muhammad boshchiligida madinaliklarning Makka qo'shini bilan qilgan jangi.

Badri sug'ro// Badr as-sug'ro — 626-yili makkaliklar va madinaliklar o'rtasida bo'lgan jang.

Bayt al-mol — 1-davlat ixtiyoriga olingan mol-mulk; 2-davlat xazinasi.

Bayt ul-ahzon — g'amxona, kulfatlar maskani

Bayt ul-ma'mur — obod uy (rivoyatlarga ko'ra Ka'baning qarshisida to'rtinchi qat ko'kda osilib turuvchi ibodatxona).

Bayt ul-Muqaddas — Falastindagi mashhur shahar, Urshalim va Quddusi Sharif deb ham atalgan.

Bay' — oldi-sotti, xarid.

Bay'at — oldi-sotti to'g'risidagi kelishuv, bitim.

Bay'i ittifoq — oldi-sotti to'g'risidagi kelishuv, bitim.

Bay' qilmoq — xarid qilmoq.

Bal faolahu — u qildi.

Balig' — balog'at yoshiga yetgan, ulg'aygan.

Balx — Xurosondagi shahar va viloyat.

Bani Isroil — Ya'qub alayhis-salom avlodi, ibriylar.
Bani Nazir — yahudiy qabilasi (Nazir avlodi).
Bani Salama — arab qabilasi (Salama avlodi).
Bani Qurayza — yahudiy qabilasi
Barkimak — quvvatga kirmoq, kuchaymoq
Barq I — bino, imorat
Barq II — mol-dunyo, borliq.
Basra — Xalifaliklar davridagi yirik ma'muriy va savdo markazi.
Bashorat bermoq — xushxabar keltirmoq, bashorat qilmoq.
Ba'dahu — undan so'ng.
Ba'labakka — Shom viloyatidagi shahriston.
Baqir — mis.
Baqila — loviya (dukkakli o'simlik).
Baqilan qo'zi — yosh, semiz qo'zi.
Bag'ir — jigar.
Bag'dod — Iroqning poytaxti.
Bag'irsoq — mehribon, rahmdil, oq ko'ngil.
Bahman — Shamsiya yili hisobidagi oylarning o'n birinchisi (22 yanvar — 21-fevral kunlariga to'g'ri keladi).
Bezarlamaq — yuz o'girmoq.
Berga — xivich, xipchin.
Berun — tashqari.
Beh — yaxshi, afzal.
Bizoat — mol-dunyo, mol va asbob
Bikr — toza, sof, bokira qiz.
Bino qilmoq — yaratmoq, qurmoq, asos solmoq.
Biragu — kimdir, biror kimsa,
Bir yo'li — bir marta, bir karra.
Birlamoq — bitta, yakka deb bilmoq.
Bitik — maktub, noma.
Bitikchi — kotib, mirza; xat yozuvchi.
Bovurchi — saroy oshpazi, bakovul (mavsab nomi).
Bodiya — cho'l, dasht, biyobon, sahro
Bozirgon — savdogar, tojir.
Bolig'a — balog'atga yetgan qiz.
Borlamoq — bor deb bilmoq, borligiga ishonmoq.

Boru — hammasi, barchasi; hamma, barcha.
Botil — buzuruq, buzilgan; nohaq, asossiz.
Bosh I — yara.
Bosh II — boshqoq.
Boshliq — yarador.
Boshmoq — oyoq, kiyim, boshmoq.
Boqiy — barqaror, doimiy.
Bog'dosh — oyoqni chalishtirib o'tirish.
Buz — muz.
Buyraklanmak — yurak oldirib qo'ymoq, qo'rqmoq.
Buldurchin — qush nomi, bedana.
Bulmoq — 1-qidirmoq, istamoq; 2-ega bo'lmoq, qo'lga kiritmoq; 3-yetishmoq.
Bulnamaq — asir qilmoq, qo'lga tushirmoq.
Bulun — asir, tutqun.
Bulung — taraf, tomon.
Buroq — afsonaviy uchar ot, diniy e'tiqodga ko'ra, Muhammad alayhis-salom me'roj tuni unga minib, Makkadan Quddusga va u yerdan Arshga ko'tarilgan.
Burch — qarz
Burhon — dalil, hujjat, guvoh.
Bus — tuman.
Busmoq — pismoq, pistirma qo'ymoq.
Busug' — pistirma.
Butmamak — ishonmaslik.
Butroq to'n — titilib ketgan kiyim, ko'ylak.
Buxl — baxillik, qizg'anchilik.
Buchaq — burchak, taraf.
Bushmoq — achchig'i kelmoq, g'azablanmoq
Bushug' — hirs, shahvoniy tuyg'u.
Bushuqmoq — xafa bo'lmoq.
Bug'ra — erkak tuya.
Bo'z — bo'y, qad.
Bo'zun — xalq.
Bo'ynag'u — ko'zga ko'ringan kishi, nomdor.
Bo'ynag'uluq — maqtanchoqliq; kekkayish.

Bo'lak — tuhfa, tortiq, sovg'a.
Bo'ryo — bo'ya.
Bo'rloq — tokzor, uzumzor.
Bo'qag'u — o'g'rilar bo'yiiga solinadigan sirtmoq, kishan.
Bo'qov — kishan.
Bo'g'uz — don.

V

Vaqf qilmoq — bag'ishlamoq, nazr etmoq.
Vahy — Xudodan payg'ambarlarga yuborilgan xabar va ilhom.
Vildon — xizmatkor, yugurdak.
Viloyat — o'lka, mamlakat.
Vird — 1-namozdan tashqari vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan qisqa duo; 2-shom namozi.
Vojib — farz, bajarilishi majburiy, zaruriy bo'lgan ish.
Vofiy — tugal, to'liq, yetarli, komil.

G

Ganj — boylik, xazina.
Gila — gina, hafagarchilik.
Gilim/kilim — yerga to'shaladigan palos.
Gov — mo'tabar e'tiborli, shon-shuhratli.
D
Dajjol — oxir zamonda paydo bo'luvchi afsonaviy qush.
Dayyon — hisobchi (Xudo sifati); jazolovchi.
Dayyor — istiqomat qiluvchi; monax, uy egasi.
Darxost — talab, iltimos, o'tinch.
Dastur — rasm, odat, yo'sin.
Daf — doira, nog'ora.
Daf' — qaytarish, uzoqlashtirish; haydash, ketkizish.
Da'vi//davo — 1-nohaq talab; 2-gunoh, shahodat.
Der I — uzoq vaqt, muddat.

Der II

Der II — ter.
Digar — o'zga, boshqa, g'ayr.
Dodak — xizmatkor.
Doiy — duogo'y; chaqiruvchi, da'vat ztuvchi.
Doxil — daxldor, tegishli.
Durud — duo, salom, olqish, madh, sano.
Dukmak — urmoq
Dushob — uzum sharbati, shinni.

Y

Yavloq — yomon, yaramas.
Yazoq — piyoda, yayov.
Yalavocho — Xudoning elchisi, payg'ambar.
Yalavoqliq mulki — payg'ambarlik mavqeysi.
Yalqimoq — nafratlanmoq.
Yalchiq — oy.
Yaman — Afrika qitاسidag'i davlat.
Yanasha/yonasha — yonma-yon.
Yanashg'an — yonma-yon yurgan.
Yang — kabi,o'xshash, singari, usul.
Yandoq — yantoq.
Yanut — evaz, badal, javob.
Yanchuk — bo'ksa.
Yar — tupuk.
Yarasiq/yarasig' — ko'rshapalak.
Yarmoq — pul, aqcha.
Yashiq I — quyosh,shams.
Yashiq II — dubulg'a, jez qalpoq.
Yag'an — fil
Yag'iz — qora.
Yeg/yig — yaxshi, ajoyib, afzal
Yekan — qamish.
Yel esandi — yel esdi, shamol turdi.
Yema — va, ham, shuningdek.
Yetagu — yettovlon.

Yetilmak — to'xtamoq, tinmoq.
Yeti yashab — yetti yashar.
Yeturmak — amalga oshirmoq, qilmoq
Yo — yoy, kamon.
Yobon — cho'l, biyobon.
Yovumoq — yaqinlashmoq
Yozi — cho'l, tekislik.
Yozilamoq — yozilmoq, bo'shalmoq.
Yozmas — xato qilmas, nishonga bexato urar.
Yozmoq — gunoh, ayb qilmoq.
Yozug'lug' — gunohkor, aybdor
Yoz — yoz
Yolin — yolqin, alanga; uchqun; cho'g'.
Yonmoq — qaytmoq; voz kechmoq.
Yordi — yortim, yarim.
Yorim — yordamchi, homiy.
Yorin — ertaga, ertangi kun.
Yorindasi kun — ertasiga, ertangi kun.
Yorichi — yordamchi; homiy.
Yoriq — sovut, zirh.
Yorlaqamoq — farmonlamoq, buyurmoq.
Yorig' — farmon, buyruq.
Yorg'uchi I — yoruvchi, ikkiga ajratuvchi;
Yorg'uchi II — qozi, hakam.
Yosmuq — dukkakli o'simlik, yasmiq
Yotsiq, yatsig' namozi — xufton namozi.
Yog'i — dushman, xasm.
Yig// eg — yaxshi.
Yigda — jiyda.
Yigitlig — yoshlik, navqironlik.
Yigrak — yaxshiroq, ma'qulroq.
Yizig' — yomon hid.
Yizig'lig' — sassiq, badbo'y.
Yizlamoq — hidlamoq, hidlab ko'rmoq.
Yizlanmoq — hidlanmoq, sasimoq
Yilqi qora — qoramol.

Yinjuk — suyak
Yinmak — axtarmoq, qidirmoq, istamoq.
Yip/yib — ip, arqon.
Yipor — mushk, anbar.
Yirlanmoq — kuylamoq, so'zlamoq.
Yitik — o'tkir, keskir.
Yiturmak — yo'qotmoq.
Yig'moq — 1-ushlab turmoq; 2-chetlashtirmoq, uzoqlashtirmoq.
Yig'och I — daraxt.
Yig'och II — taxminan 6 km keladigan masofa birligi.
Yul — buloq, jilg'a, ariq.
Yuluk — ajratib olish uchun to'xtaladigan pul, garov.
Yo'maq — yuvish, tozalash, poklash.
Yo'l kesmoq — yo'lto'sarlik qilmoq.
Yo'llug' — omadli, omad kulib boqqan.
Yo'l saqlag'uchi — soqchi, qorovul, kuzatuvchi
Yo'lchilamoq — yo'l ko'rsatmoq.
Yo'qsiz — qashshoq, bechora.
Yo'g'urmoq — qorishtirmoq, aralashtirmoq.
Yukluk — homilador.
Yul' — buloq, jilg'a, ariq.
Yulduz I — sayyora, yulduz.
Yulduz II — ildiz.
Yuldur — ildiz, tomir.
Yulug' — qaytarib ilish uchun to'lanadigan pul, evaz.
Yulg'un — buta.
Yumurtqa — tuxum.
Yumurtqalamoq — tuxum qilmoq.
Yung'aq — yumaloq, dumaloq.
Yungul — yengil.
Yurt — qo'shin qarorgohi.
Yurtug', yurdu — teshik.

J

- Jabal** — 1-tog'; 2-baland, buyuk.
Jabbori anid — Alloh sifatlaridan biri.
Javohi digar — boshqacha javob.
Javiqmoq — shuhrat qozonmoq
Jad(d) — ota yoki onaning otasi, bobo.
Jaza' — betoqatlik, dod-u faryod.
Jamoza//jammoza — chopqir tuva.
Jarab — qipiq
Jarda I — to'riq ot.
Jarda II — sehrgar, jodugar.
Jivor — yaqin yer, yon, atrof.
Jizya — soliqning bir turi.
Jovidona — mudom, doimiy ravishda.
Jofiy — jafq qiluvchi, jafokor
Juvag' — nur.
Juvul — to'ruva, xalta
Juvonmard//javnomard — oliyanob, ochiq qo'lli, saxiy; er yigit.
Junub — iflos, nopok

Z

- Zabih** — qurbonga so'yilgan mol.
Zabur — Islomda Dovud payg'ambarga Alloh tomonidan nozil qilingan kitob deb ta'riflanadi. Aslida bu kitob Bibliyaning "Qadimiy ahd" qismiga kirgan diniy duolar to'plamidir.
Zaif — quvvatsiz, kuchsiz, ojiz.
Zamzam — Makkada Ka'ba yaqinidagi musulmonlar muqaddas hisoblaydigan quduq.
Zambarir — sovuq, qahraton.
Za'if — quvvatsiz, kuchsiz, ojiya.
Za'faron — sarig' tus beruvchi xushbo'y o'simlik (rus. shafran).
Zillat — xorlik, tubanlik, pastlik
Zindiq — xudosiz, Xudoga ishonmovchi.
Zoyil — yo'q o'luvchi, yo'qoluvchi.

Zokir — zikr aytuvchi, ibodatga mashg'ul bo'luvchi, hamdu saro aytuvchi.

Zoniy — zino qiluvchi, gunohkor.
Zohir — oshkor, ravshan, ochiq.

Zulfiqor — Hazrati Aliqa Muhammad payg'ambar tortiq qilgan qilich.
Zumurra//zumra — 1-jamoat, guruh, to'da; 2-xil, jins.
Zuhd — dunyo ishlaridan voz kechib, toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lish.
Zuhra — Cho'pon yulduzi (Venera sayyorasi).

I

Ibriy — yahudiy.
Ibroni — yahudiy.
Ibroni, ibriy tili — qadimgi yahudiy tili.
Ibtilo — muhtalolik; giriftor bo'lish; baloga qolish
Ivuq — kiyik.

Igashmak — o'jarlik qilish, o'jar bo'lish.
Iglanmak — xastalanmoq; joylashmoq.

Iglik — kasalmand, betob.
Igsiz — sog'-salomat.

Ijla — haydash surish, quvish.

Ijobat — qabul qilish, rozi bo'lish, ma'qullash.

Ijtibo — tanlamoq, saylamoq

Izi — Xudo, Tangri, Alloh.

Izi azza va jalla — Allohning qudratli va ulug'.

Izi qazosi — Allohning hukmi; ajal, o'lim.

Izmoq — 1- ozod qilmoq, qo'yib yubormoq; 2-yubormoq, jo'natmoq.

Iznamak — izidan bormoq, qidirmoq.

Iznatmak — bajarmoq, ijro etmoq.

Izurmoq — jo'natmoq, yubormoq.

Iyd — bayram, hayit.

Iydogh — bayram tantanalari o'tkaziladigan joy.

Ikkagu — ikkovlon, ikkalasi.

Ikinduk namozi — peshin namozi.

Ikirar-ikirar — ikkittadan-ikkittadan.

Iqo — 1-uchrashuv, muloqot; 2-pand, nasihat, maslahat.
Ilhon — kuylash; kuy, ovoz.
Imloq — ulugʻ, buyuk.
Imorat — obod qilish, obodonlashtirish.
Imhol — fursat, muhlat bermoq.
Inamak — yurishmoq, buzilmoq.
Ingan — urgʻochi tuya.
Ingirchoq — gʻijirlovchi egar.
Injil — xristianlarning muqaddas kitobi (Yevangeliya).
Inmak — tushmoq, pastga tushmoq.
Inod — oʻjarlik, qasdma-qasdlik.
Inogʻ — maslahatchi, inoq (rutba nomi).
Inch — tinchlik, sokinlik, osoyishtalik.
Inchiq — gʻamgin, gʻam-gʻussali.
Inqiyod — tobe boʻlish, boʻysunish.
Inqiyod qilmoq — rioya qilmoq, amal qilmoq.
Irlatmak — kuylatmoq, ashula aytirmoq.
Irgʻatmoq — irgʻitmoq, otmoq.
Is I — is, hid.
Is II — ish, yumush
Isbarlamak — topshirmoq, bermoq.
Isirkamak// esirkamak — ayamoq, achinmoq, afsuslanmoq.
Isoba — peshonabogʻ.
Isor — inʻom, bagʻishlov, sochish.
Istidroj — asta-sekinlik bilan yaqinlashtirish.
Istinjo — oʻzni najosat va palid narsalardan pok qilish.
Istifo — qamrab olish; batamom olish.
Istoxliq — olijanoblik, saxiylik
Istigʻfor — afv, kechirim soʻrash; tavba qilish.
Isurmak — mast, kayf boʻlmoq.
Itig — oʻtkir, keskir.
Itobligʻ — qahr, gʻazab.
Ixfos surasi — Qurʻon, 112-sura.
Ishorat — 1-koʻrsatma, amr, farmon; 2-imo-ishora, belgi; ramz.
Iya — ega, sohib.

Iqolat — savdodan aynish.
Ihmol — beparvolik, sustkashlik.

K

Kavnayn — ikki dunyo (bu dunyo, u dunyo).
Kavsar — jannatdagi daryo nomi.
Kayd — makt, hiyla, nayrang.
Kaydihim hozo — bu maktlarni.
Kalaz — chumchuq.
Kalim — kiyim, koʻylak.
Kalima — soʻz, gap, jumla.
Kami/kemi — kema, qayiq
Kanisa — yahudiylar ibodatxonasining ichki qismi, maxsus boʻlimi.
Kannoshiik — axlatkashlik.
Kanʻon — 1-Livanning miloddan avvalgi nomi.Yunon adabiyotida Finikiya tarzida yuritilgan; 2-Odam aleyhissalomning toʻrtinchi oʻgʻli; 3-Yaʼqub paygʻambar hukmronlik qilgan mamlakat.
Karbalo — Bagʻdoddan taxminan 100 km masofada joylashgan joy. 680-yilning 10-oktabrida Husayn ibn Ali bu yerda boʻlgan jangda oʻldirilgan.
Karkas — oʻlimtiklar bilan kun kechiruvchi yirtqich qush.
Karomat — muruvvat, saxiylik, oliyihimmatlilik.
Karohiyat — nafrat.
Katton — mato.
Kaʻba — Makka shahridagi musulmonlarning eng muqaddas ibodatxonasi. Bayt ul-Ioh, Bayt ul-harom, Masjid al-harom deb nomlanadi.
Kez — mustahkam, asosli.
Kezik — navbat, ketma-ketlik.
Kezin — keyin, soʻng.
Kemishmak — otmoq, tashlamoq
Kend — shahar, qishloq.
Kend qoʻbormoq — shahar (qishloq) bunyod etmoq.
Kendu/kandu — oʻz, oʻzi (olmosh).
Kertunmak — ishonmoq.

Kesak — parcha, bo'lak.
Kesikli — bo'luvchi, parchalovchi; tugatuvchi.
Kivurmak — kirgizmoq, kiritmoq.
Kigurmak/kgirmak — kirgizmoq; yo'llamoq.
Kiz — mushk saqlanadigan xalta, idish.
Kizlamak — berkitmoq, yashirmoq, yashirib qo'ymoq.
Kizlanchi — berkitilgan, yashirin.
Kizmak — kiymoq.
Kizmoq — kiymoq.
Kigurmak — kirgizmoq, olib kirmoq.
Kim ersa — kimdir, biror kimsa.
Kilim — juldur kiyim, yopinchiq.
Kilim kib — kiyim kiyib.
Kin — mushk, xushbo'y modda.
Kin yipor — mushk, anbar.
Kirish — yoy ipi, girish.
Kirpich — g'isht, kirpich.
Kiru soldi — keyinga qoldirdi.
Kirshani — oppoq, oq.
Kish — qunduzning bir turi.
Kola — mol, mato.
Kolbat — badan, jism, jasad.
Kolobok — parvona.
Kofur — kamfara (oq xushbo'y modda).
Kohil — dangasa, yalqov; sust.
Kohin — avliyo, g'oyibdan xabar beruvchi (islomda kelajak haqida yolg'on so'zlovchilar sifatida talqin qilinadi).
Kub — xum.
Kuvannak — 1-ishonmoq; 2-xursand, shod bo'lmoq.
Ku — kuyov.
Kuzazmak — asramoq, saqlamoq.
Kuzak — kuyov.
Kuzarmoq — 1-yaqinlashmoq (kuz haqida); 2-qutqarmoq asramoq.
Kuymak — kutmoq.
Kumrug/kuvrug — nog'ora.
Kung — joriya, cho'ri.

Kursi — taxt, kursi.
Kurud — Mirrix (Mars).
Kusa(y)mak — sog'inmoq, istamoq, xohlamoq.
Ko'garchin/ko'garchun — kabutar.
Ko'kuz — ko'ks.
Ko'luk — ulov, yuk tashuvchi hayvon.
Ko'moch — yerga ko'mib pishirilgan non.
Ko'nglung emrulgay — ko'ngling taskin topgay.
Ko'ni — to'g'ri, sodiq, rostgo'y.
Ko'nilik — rostgo'ylik, haqiqat.
Ko'nichi — to'g'ri, sadoqatli.
Ko'nunch — rashkli.
Ko'kramak — larzaga kelturmoq.
Ko'rimchi/ko'runchi — avliyo.
Ko'ruk — bel, belkurak.
Ko'ruk munajjim — oldindan bashorat qiluvchi, munajjim.
Ko'rsamak — ko'rishni oru qilmoq, istamoq.
Ko'shish — g'ayrat, tirishish.

L

Lavh ul-mahfuz - peshonada yozilgan narsa, lavh.
La'in - la'nati.
Livotat — jinsiy aloqa.
Lojaram — chorasiz; noiloj; albatta; shuning uchun.
Lukom — tog' nomi.

M

Mabraz — hojatxona, xoli joy.
Mavlo I — 1-Xudo, Alloh; 2-homiy, sohib.
Mavlo II — xizmatkor, g'ulom; navkar.
Madina — Saudiya Arabistonining shimoli-g'arbida joylashgan Hijoz viloyatidagi yirik shahar.
Majmar — mushk-anbar singari xushbo'y narsalarni solib tutatiladigan idish, manqal.
Mazmum — 1-ayblangan, nafratlangan; 2-xato, malomat.

Makka — Hijoz viloyatining ma'muriy markazi.
Malak ul-mavt — ajal farishtasi, Azroil.
Malaula'lo — ulviy (oliy) olam.
Malih — shirin, mazali, lazzatli.
Mamuq — paxta.
Man I — og'irlik birligi.
Man II — ta'qiq.
Mang — qadam.
Manglamoq — qadam tashlamoq, sayr qilmoq.
Manjaniq — tosh otadigan qadimgi urush quroli.
Manzilat — martaba, daraja, tutgan o'rin, maqom.
Mansuh bo'lmoq — bekor bo'lmoq, yo'q qilinmoq.
Maozalloh — Xudo panoh bersin, Xudo saqlasin!
Marv — Xurosonning qadimgi poytaxti. Hozir Bayram Alining shimoliy qismidagi Gyaar qal'a va Sulton qal'a nomli ko'hana shaharlar.
Markab — ulov; ot, tuya, eshak kabi miniladigan hayvonlar.
Masjnd al-haram — Makkadagi Ka'ba ibodatxonasi va u bilan bog'liq kompleks.
Masjidi aqso (Al-masjid al-aqso) — Quddus shahridagi masjid.
Masx — xumuk, qabih suratga kirish, o'zgarish.
Mahdum — janob, ulug' martabali zot.
Maxluqot — yaratilgan jonzorlar, mahluqlar.
Mashriq — kunchiqar, kuntug'ar, sharq.
Mashru' — diniy qonunga muvofiq, shariatga binoan, shar'iy.
Ma'bada — yahudiylar ibodatxonasi.
Ma'zul — ozod, bekor, xoli.
Ma'siyat — shariatga xilof yo'sinda ish tutish, gunoh.
Maqtal — 1-o'ldiradigan joy; dor tegi; 2-o'ldirish, qatl etish.
Maqomi mahmud — maqtanilgan maqom, martaba.
Mag'rib — kunbotar, kunbotish, garb.
Mahobat — 1-haybat, savlat; 2-qo'rqinchli ko'rinish.
Mekoil — farishta.
Meng — xol.
Mengzamoq — o'xshamoq, mos kelmoq.
Mengzatmoq — o'xshatmoq, qiyoslamoq.
Mengiz — yuz, chehra, bet.

Mengizlik — yuzli, chehrali.
Me'roj tuni — Muhammad payg'ambar Arshi a'loga ko'tarilgan tun.
Mini — miya.
Misoq — ahd-u paymon, qasamyod, va'da.
Misqol — og'irlik o'lchovi (taxminan 4,68 gr).
Moida — to'kin dasturxon.
Muabbnr — tush ta'bir qiluvchi.
Muazzin — azon aytuvchi, namozga chaqiruvchi.
Muakkil — vakil qilingan.
Mubattar — yuliq, kesik, dumi yulingan.
Muboriz — qahramon, botir pahlavon.
Muavahhid — yagona Xudoga qilinadigan e'tiqod.
Mujda — suyunchli xabar, xushxabar.
Mujodala — bahs, bahslashuv.
Mujohada — sa'y, g'ayrat.
Muzd — mukofot, haq, to'lov.
Muzmar — pinhon, yashirin, maxfiy.
Muynuz — shox, munguz.
Mukobara — bahslashmoq.
Mulkat — podshohlik, hukmronlik.
Mulotafat — lutf va marhamat, shafqat.
Munajjim — yulduzchi, ilmi nujum bilan shug'ullanuvchi shaxs.
Mungushmak — qayg'urmoq, g'am-alamga botmoq.
Mungush — xoli joy, ichkari.
Munkar va Nakir — rivoyatga ko'ra, o'lik ko'milgandan keyin uning tepasiga kelib, hayotligida qilgan savob va gunoh ishlarni so'roq qiluvchi ikki farishta nomi.
Munkir — inkor qiluvchi.
Munodiy — jarchi, xabarchi, nido qiluvchi.
Munojot — Xudodan najot, madad tilab qilinadigan yashirin ibodat.
Muntahiy — oxirga, nihoyaga yetuvchi, tamomlanuvchi.
Munhazim — buzilgan, tum-taraqay bo'lgan.
Muomalot — muomalalar, bordi-keldilar.
Murassa' — qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan.
Murdor — nopok, harom.
Murtad(d) — dindan qaytgan, dindan ozgan.

Musabbib — 1-sababchi; 2-Allah.
Musallam — tobe bo'lgan, bo'ysungan, taslim bo'lgan.
Musallat — g'olib bo'lgan; nazoratchi.
Musallat qilmoq — jazo berish uchun yubormoq.
Musallo — 1. masjid, namozgoh, namoz o'qiladigan joy; 2. joy namoz.
Musaxxar — bo'ysundirilgan, hukmi ostiga kiritilgan.
Musil/Mo'sil — Shomdagi shahar nomi.
Mustajob — o'tinchi, iltimosi qabul bo'lish.
Mustaz'if — zaif, kuchsiz.
Mustaqim — to'g'ri; pok, halol.
Mushaf — 1-Qur'onning qadimiy qo'lyozma nusxalarining umumiy nomi. 2-Qur'onning 651-yili Xalifa Usmon buyrug'i bilan to'planib, tahrir etilgan nusxasi.
Mutaassib — biror narsaga qattiq beriluvchi, ixlos qo'yuvchi.
Mutazod — bir-biriga qarshi, dushman.
Mutahayyir — hayratda qolgan, hayron bo'lib qolgan.
Mutobi' — tobe, mute', bo'ysungan.
Mutrib — cholg'uchi.
Mutriba — cholg'uchi, sozanda ayol.
Muttaqiy — taqvodor, parhezli.
Mufassir — 1-sharhlovchi, sharh kiluvchi; 2-Qur'oni Karimni sharhlovchi, tafsif qiluvchi.
Mufoxarat — faxrlanmoq, g'ururlanmoq.
Muxannas — xunasa.
Muxlas — ixlosli, ixlosga ega.
Muxotaba — xitob qilish, suhbatlashish.
Mushir — maslahatchi, kengashchi.
Mushohada — ko'zdan kechirish, tamoshga qilish, kuzatish.
Mushrik — ko'p xudoga sajda qiluvchi; butparast.
Mushfiq — shafqatli, marhamatli, mehribon.
Mu'tamad — ishonchli, ixlosmand.
Mu'tafikot — og'ir sharoit.
Muqirr — bo'yniga olgan, iqrar bo'lgan.
Muqri(y) — qiroat qiluvchi, qori.
Muhaqqiq — aniqlovchi, tahqiq qiluvchi.
Muhib — oshiq, do'st.

Muhojir — hijrat qilgan, o'z vatanidan uzoqda yurganlar.
Muhosib — hisobchi.
Muhri nubuvat — payg'ambarlik muhri, belgisi.
Muhtalim — voyaga etish

N

Nabot — g'yoh, o't.
Navkisa — boylikka yangi yetishgan, nokas.
Navmid — umidsiz, noumid
Navha — yig'i-sigi, nola.
Nadam — pushaymonlik, afsuslanish, nadomat.
Najiy — samimiy do'st, hamroz.
Nazir — o'xshash monand.
Nazzora — qarash, nazar solish, tomosha qilish.
Naynavo — joy nomi.
Naluk/netuk — nega, nima uchun.
Namozi digar — bir kunda o'qiladigan besh vaqt namozning uchinchisi, asr namozi.
Namoz qazosi — o'qili shart bo'lgan namozning o'tib ketishi.
Nasb — qo'yish, bunyod etish, tiklash
Nasib — bahra, ulush, hissa.
Nasx — arabcha yozuvning bir turi.
Nauzu billohi — Allah saqlasin
Nafir — karnay.
Nafoz — o'tish, bajarilish, ta'sir.
Naxud — no'xat.
Na'ja — qo'y.
Na'l — kovush, poyafzal.
Naqqosh — naqqosh, suratchi, naqsh qiluvchi.
Nahnu — biz.
Niyoz — iltijo yalimish
Nil — Afrika qit'asidagi eng ulkan daryo.
Ninva — joy nomi
Nisor — sochish, chochtqi.
Novadon — tamov, nov.

Nozir — nazorat qiluvchi, nazoratchi.
Noib — o'rinbosar, noyib.
Nomustaqim — noto'g'ri; nopok, harom.
Nosir — yordam, ko'mak beruvchi.
Nosur — davolab bo'lmaydigan yara kasalligi.
Nofala — avlod.
Nohid — Zuhra yulduzi, Cho'lpon.
Nubuvvat — payg'ambarlik, avliyolik.
Nukta — nozik va teran ma'noli so'z; ibora, hazil.
Nusrat — zafar, g'alaba, yutuq.

O

Obid — toat, ibodat qiluvchi, sig'inuvchi.
Ovuch — hovuch, kaft.
Od — ot, ism, nom.
Odiy I — dushman, yomon kishi.
Odiy II — Od qavmiga mansub kishilar.
Ozig'lik — jasur, mard, botir.
Ozmoq — yanglishmoq, adashmoq, xato qilmoq.
Ozod bitigi/ozodlig' bitigi — qullikdan xalos bo'lganlikni tasdiqlovchi guvohnoma.
OI I — qizil, ol.
OI II — qabila, avlod, sulola, nasl.
Olaliq — pes kasalligi.
Olami sifliy — foniyl dunyo, bu dunyo.
Ol(i) imron — Qur'on, 3-sura.
Ollinda — oldida, huzurida.
Olo// ilo — etson, hadya.
Ortatmoq — 1-halok etmoq; 2-yo'q qilmoq, vayron qilmoq.
Oltinda — ostida, tagida.
Om — omma, xalq, fuqaro.
Ongdimak — eslamok, yodiga tushmoq.
Ongsizin — to'satdan, birdan.
Orzu — Utorid (Merkuriy).
Ormoq — charchamoq.

Osor — "Yodnomalar" (kitob nomi).
Os — aksusar
Oxir uz-zamon — qiyomat, oxir zamon.
Oshich — loydan yasalgan ko'zacha.
Oshliq — oziq-ovqat, egulik; g'alla, don.
Oshchi — oshpaz, oshchi.
Oyat// oya — oyat.
Oyat al-kursi — Qur'on, Baqara surasi, 8-oyat.
Oqar — oq rangli.
Oqsqaollik — izzat-ehtiromli, hurmatli.
Og' — to'r, tuzoq.
Og'i — ipak, mato.
Og'in — soqov, gung.
Og'ir baho — qimmatbaho, narxi baland.
Og'ir baholig' — qimmatbaholi.
Og'rincha — og'irligicha.
Og'irlamoq — mukofotlamoq, baholamoq; hurmat, ehtirom, takalluf ko'rsatmoq.
Og'irliq — hurmat-ehtirom, izzat-ikrom.
Og'ir cherik — og'ir qurollar bilan qurollangan qo'shin.
Og'lag'ü — nozik, yumshoq.
Og'moq — ko'tarilmoq, etmoq.
Og'öz — boshlanish, kirishish.
Og'ri — dirham, aqcha.
Og'ush — nasl, nasab, avlod.
Og'uqmoh — zahartanmoq.

R

Rab(b) — Alloh, Tangri.
Rab — Bilqis istiqomat qilgan shahriston.
Rabbi lotazar — ey Tangrim, yo'q qilgil!
Ravza — muqaddas qabr, aziz-avliyolar qabri.
Rajo — mardlik, jasurlik, eranlik.
Rajuliyat — mardlik, jasurlik, eranlik.
Raziyallohu anho — Xudo undan rozi bo'lsin.

Raziyallohu anhumo — uning ikkalasidan. Alloh rozi bo'lsin.
Raiyat//ra'iyat — fuqaro, xalq, omma.
Rafi' — yuksak, baland, buyuk.
Rahmat bo'lmoq — qazo qilmoq, dunyodan o'tmoq.
Riyosat — buyuklik, ulug'lik.
Rizvon — sakkiz jannatning biri — rozilik va mamnuniyat jannati.
Rizo — rozilik, bo'ysunish, ko'nish.
Rif'at — yuksaklik, baland martabalik.
Rif'atlig' — yuksaklik, baland martabalik.
Rifq — muloyimlik, mehribonlik, yumshoqlik.
Rishvat — pora.
Rihlat — dunyodan o'tish, vafot etish; ko'chish.
Roviy — rivoyat qiluvchi, naql qiluvchi, qissachi.
Ro'iy — rahbar, rahnamo, boshliq.
Rohat — huzur, lazzat, dam.
Ruku' — namozda ikki bukilib turish.
Rum — 1-Kichik Osiyo; 2-Sharqiy Rim imperiyasi.
Rum tengizi — O'ra Yer dengizi.
Rusto//rusta — dehqon, qishloqda yashovchi.
Ruxom — marmar tosh.
Ro'zgor — turmush, hayot, tirikchilik; tole, baxt.
Ro'zi — rizq, nasiba.
Ro'yo — tush, xob.

S

Sabo — 1-Janubiy Arabistondagi shahar; 2-afsonaviy mamlakat.
Sabon — 1-qi'sh bilan yer haydash; 2-omoch.
Savmaa — nasroniylar ibodatxonasi; monastir.
Savob — xayri, yaxshi ish.
Sadaqa//sadaqa — xayr-ehson, qurbon.
Sad(d) — devor.
Sazan — katta, bahaybat, ochko'z.
Sazo — sazovor, munosib.
Sayhat — na'ra, dahshatli faryod, baqiriq.
Sakandir — Zuhul (Saturn).

Salavot — rahmatlar, duolar.
Salot — namoz, ibodat.
Samad — abadiy (Alloh sifatlaridan biri).
Semuzkend//Samuzkend — Samarqand.
Sanduvoch — bulbul.
Sanmoq — hisoblamoq fikrlamoq, o'ylamoq.
Sarandib — Shri-Lanka.
Sarv — 1-tik o'sadigan to'g'riqomat daraxt; 2-qad-qomati kelishgan, go'zal ayol.
Sarzanish — malomat, ozor.
Saro — dunyo, borliq jahon.
Sarpich — yog'ochdan yasalgan chelak.
Sarxayl — sarkarda, lashkarboshi.
Sarh — qasr, ko'shik.
Sarhang — sarkarda, qo'mondon.
Saqit — Zuhra (Venera).
Saqish//soqish — son, sanoq, hisob-kitob.
Saqishsiz — hisobsiz, behisob, sanoqsiz.
Saqlab yotmoq — qo'riqlamoq, ehtiyot qilmoq.
Saqlag'uvchi — soqchi, qorovul, qo'riqchi.
Saqf — 1-shift, tom; 2-osmon-falak.
Saqfni o'rtmoq — tomini, shiftini yopmoq.
Sag'roq//sig'roq — idish.
Sahara(sohir) — jodugar, afsungar.
Sahba — qizil may, oliy sifatli may.
Sahl — yengil, oson, qiyin emas.
Sahobalar — Muhammad payg'ambarning yaqin safdoshlari, yordamchilari.
Sevinchilamak — suyunmoq, xursand bo'lmoq.
Sibt — avlod, bo'g'in, toifa.
Sivamak — silamoq.
Sidra — kedr (diniy e'tiqodga ko'ra yettinchi osmondagi bir daraxt).
Sidrat ul-muntaho — diniy rivoyatga ko'ra jannat va yettinchi qat osmonda o'suvchi daraxt.
Simoq — buzmoq, sindirmoq.
Sizlog' — tish og'rig'i.

Sizmog' — chizmoq yozmoq, bitmoq.
Sikka urmoq — (pul) zarb qilmoq.
Simo' — 1-eshitish, tinglash, quloq solish; 2-xonish, sayrash, kuylash.
Singak — pashsha, chivin.
Singar I — tomon, taraf.
Singar II — yarim, chala.
Singir — tomir, pay.
Sindurmak — rad etmoq, qaytarmoq.
Sinoat — kasb, hunar.
Siro't — 1-ko'prik; 2-do'zaxdagi qil ko'prik.
Sircha — shisha.
Siffiy — past, tuban.
Sicha — qush nomi.
Siqamoq — ishonmoq, inonmoq.
Sichak — chumchuq.
Sig'it — yig'i, yig'i-sig'i.
Sig'un — bug'u.
Sih'r — 1-kuyov; 2-qayni.
Sovchi — elchi, payg'ambar.
Soj'id — sajda qiluvchi, ta'zim qiluvchi.
Soiqa — yashin, chaqmoq.
Solim — 1-omon, sog', salomat; 2-osuda, tinch.
Sotig'chi — sotuvchi, savdogar, tojir.
Sofiy — sof, toza, pok.
Soqinmoq — 1-o'ylamoq, xayol qilmoq; 2-istamoq, xohlamoq, 3-afsus qilmoq.
Soqinch — fikr, o'y, xayol.
Sog'u — tarozi, tarozi pallasi.
Suvsaliq — tashnalik, suvsizlik.
Sujud — sajdalar, sig'inishlar, ibodatlar.
Suyramak — sudramoq, olib qochmoq.
Sulaho — bilimdonlar, o'qimishilar, sog'lom fikrli kishilar (*solih* so'zining ko'pligi); porsolar, pokdillar.
Sungu — nayza.
Sundurna — shahar nomi.
Sundusi rumiy — Yevropa ipak kiyimligi, matosi

Sunnat — 1-ravish, odat; 2-Muhammad payg'ambarning yo'li va qilg'an ishlari.
Sun' — xayrli ish.
Sur — surmay.
Surai fil — Qur'on, 105-sura.
Surat ul-anfol — Qur'on, 8-sura.
Surat ul-an'om — Qur'on, 6-sura.
Surat ul-asr — Qur'on, 103-sura.
Surat ul-baqara — Qur'on, 2-sura.
Surat ul-ixlos — Qur'on, 112-sura.
Surat ul-mu'avvizatayin — Qur'on, 113-114-suralar.
Surat ul-Yusuf — Qur'on, 12-sura.
Sup — bo'z ko'yalak.
Susmak //susumak — tortmoq, o'lchamoq.
Surchmak — toymoq, toyib ketmoq.
Sufra — dasturxon.
Suyurg'amoq — tortiq qilmoq, in'om etmoq.
Suyurg'ol — hukmdorning yaqin kishilariga beradigan tortig'i.
Suhuf — betlar, sahifalar.
So'yymoq — yechmoq.
So'klumoq — qovurmoq.
So'klunmish — qovurilgan, qovurma.
So'kilma — qovurma, qovurdoq.
So'g'almoq — qurimoq, nursizlanmoq.
So'g'an — piyoz.

T

Taammul — 1-sabr bardosh; 2-o'ylab ish qilish, mulohaza bilan ish yuritish.
Taba//tapa — ... ga, tomonga.
Taban bo'lmoq — ostin-ustin bo'lmoq, yakson bo'lmoq.
Tabboh — oshpaz, oshchi.
Tabl — nog'ora.
Tabor — bolta.
Tabuk — Damashqdan Madinaga boradigan yo'l ustidagi shahar.

Tabug'//topug' — 1-xizmat, xizmat qilish; 2-sajda qilish.
Tabug'chi//topug'chi — 1-xizmatkor, joriya; 2-sajda qiluvchi.
Tavaqquf — to'xtash, to'xtab turish, to'xtov.
Tavvon//tavon — toqat, quvvat.
Tavozu' — odoblik, o'zni past tutish, o'zni kichik tutish. kamtarlik.
Taaof — biror narsaning atrofini kezish, aylanish, ziyorat.
Tavoq — taqa.
Tavrot — Yahudiylik dinidagi muqaddas kitob nomi.
Tavrotxon — Tavrotni o'quvchi, Tavrotni muqaddas deb biluvchi.
Tavhid — 1-So'fiylikda Allohni yakka deb bilish, uning yolg'izligiga ishonish; 2-haqiqatga yetishish — kishi ruhining ilohiy ruh bilan qo'shilib ketishi.
Tazarru' — tavba qilish, yalinish, yalborish.
Taylason — ruhoniylar boshi va bo'yniga solib, orqaga tashlab yuradigan rido.
Takbir — ulug'lash, "Allohu akbar" iborasini aytish.
Takya qilmoq — yonboshlamoq, yostiqa suyanmoq.
Talashmoq — teshmoq.
Talbis — aldash; hiyla, nayrang; biror narsani o'zga rangli qi lib ko'rsatish.
Tal'at — Iroqdagi Kufa shahri yaqinidagi joy.
Tamassuk — 1. biror narsani mahkam ushlash, chang solish; 2. hujjat, shahodatnoma.
Tama' — istak, xohish.
Tamor — tomir.
Tamuz — Suryoniy yil hisobi bo'yicha 10-oy nomi, iyul oyiga to'g'ri keladi.
Tamug' — do'zax, jahannam.
Tana'um — ne'matlanish, bahramand bo'lish.
Tangmoq — bog'lamoq, o'ramoq.
Tangsuq — ajoyib, tansiq.
Tanlig' — mavjudot, tirik jon.
Tanur — tandir.
Tanuq — guvoh, belgi, nishona.
Tar I — tor.
Tar II — yollanma mehnat.

Taramoq — sepmoq, tikmoq, ekmoq.
Tarilmoq — qochib ketmoq, tarqalib ketmoq.
Tarig'chilik — dehqonchilik, ziroatchilik.
Tark//terk — tez, jadal.
Tarso — xristian, nasroniy.
Tasarruf — boshqarish, egallik, ixtiyor.
Tasbih — "Subhanalloh" (Allohga madh va sanolar bo'lsin!) deyish.
Tasnif — 1-yozish, asar yaratish; 2-sinf-sinfga ajratish.
Tatru//tetru — to'g'ri.
Tafviz — topshirish, ishni o'zga kishiga yuklash.
Tafsir — 1-sharh, izoh; 2-Qur'oni karim oyatlarini sharhlash, izohlash.
Ta'vil — so'zni o'z ma'nosidan boshqa ma'noga burish, yo'yish, sharhlash.
Ta'vili suhuf — kitoblar sharhi, bayoni.
Taqa — nag'al, etik taqasi.
Taqaddus — muqaddas, sof, pok.
Taqte' — qismlarga, qavatlariga bo'lish.
Tag'ayyur — o'zgarish, boshqa tusga kirish.
Tahiyot — salomlar.
Tahiyat — salom.
Tahlil I — ibodat qilish.
Tahlil II — "la ilaha illa-lloh" (yagona Allohdan o'zga Xudo yo'q) deyish.
Tahriz — ig'vo.
Taqdis — muqaddas deb biligi.
Teba//teva — tuya.
Tebramak — ketmoq, jo'namoq; tashlamoq.
Teva — tuya.
Tevachi — tuyachi, tuyakash.
Tegra — tevarak, atrof.
Tezginmak//tizginmak — aylanmoq, charx urmoq; kezmok, sayr qilmoq.
Tekma — har qaysi, har bir.
Telim — ko'p, ziyod.
Teluk — yemish-ichish.
Temor//timor — g'amxo'rlilik.

Terkrak/tarkrak — tezroq, ildam.
Tepunmak — talpinmoq, jumbushga kelmoq, tashlanmoq, hamla qilmoq.
Tergi — dasturxon, xontaxta (tuzatilgan).
Tering — chuqur, teran.
Tijorat — savdo-sotaq, oldi-sotdi.
Tiz — tizza.
Tizmak — to'xtatmoq, ushlab qolmoq.
Tiyin(g) — olimaxon.
Tikmak — ekmoq, qadamoq.
Tikchi — etikdo'z.
Tilku — tulki.
Til olg'uchi — dushman tomonidan til (asir) olib keluvchi.
Tiltog' — bahona, sabab.
Tirguk — tirgovuch.
Tirilmak — yashamoq, hayot kechirmoq.
Tishi — 1-xotin, ayol; 2-urg'ochi.
Tilg'a — tilanchi, gado.
Tirg'oq — tirnoq; changal, panja.
Tobiz/topiz — topishmoq.
Toj ul-umaro — amirlar, beklar ulug'i.
Tozi — arabiy.
Toif I — 1-ziyoratchi, ziyorat qiluvchi; 2-Ka'ba girdini ziyorat qiluvchi.
Toif II — Makka sharqida joylashgan shahar.
Tong — hayrat, taajjub, ajoyibot, g'aroyibot.
Tonglay — erta bilan, ertalab.
Tonglamak — hayron bo'lmoq, ajablanmoq, hayratlanmoq.
Tong o'rkadi — tong otdi.
Toun — o'lat, vabo.
Tublug — zotli.
Tub tuz — tippa-tik, to'g'ri.
Tub to'z — urug', aymoq, avlod.
Tabo//tuba — jannatda o'suvchi sersoya daraxti; go'yo uning mevasi rang-barang bo'lib, undan xushbo'y hid taralib turar emish.
Tuyluk//tuluk — tukli.
Tuymak — sezmoq.
Tulak — bosiq, kamtar.

Tulanmak — chayqalmoq, tebranmoq.
Tunak — yotoqxon; zindon, qamoqxon.
Tunarmak — zulmatga cho'mmoq, qorong'ulashmoq.
Tungluk — tuynuk.
Tur — Falastindagi tog'.
Tura — qo'rg'oi, qal'a, isteqlom.
Turushmoq — jang qilmoq; qarshi bo'lmoq.
Tus — pat.
Turuqmoq — to'xtatmoq, turmoq.
Tutug' — garov, to'lov.
Tuch — bronza.
Tug' I — bayroq, tug'.
Tug' II — to'siq, g'ov.
Tug'moq — tug'ilmoq, dunyoga kelmoq.
Tug'urmoq — tug'ilmoq, tavallud topmoq.
To'z — asos, o'zak.
To'namak — kiyim tikmoq.
To'ng — ichi to'la.
To'ngluqi tangsuq — matosi ajoyib (borliq ajoyib rangda, demoqchi).
To'puz//to'bus — to'qmoq.
To'ya — qonun-qoida, rasm, odat.
To'ratmoq — yaratmoq, buriyod etmoq.
To'rqa — ipak.
To'qimoq — urmoq, solmoq.
To'qush — jang.
To'g'to'z emrulkak — chang to'zon tinmoq.
To'g'tuproq — chang, to'zon.
To'g'a — kasal, bemor.

U

Uv — uy joy.
Uvut — uyat.
Ugimak — yanchmoq; maydalamoq.
Ugutmak — yenchmoq, maydalamoq.
Ud//uy — sigir.

Ujb — manmanlik mag'rurlanish.
Ujmoh — jannat, firdavs.
Uz I — ishbilarmonlik, omadlilik.
Uz II — dovon.
Uza I — ustiga.
Uza II — ust, tepa.
Uza/o'za — avval, ilgari, oldin.
Uzamak — o'smoq, ko'tarilmoq.
Uzimoq — uxlammoq.
Uzuzluk — beso'naqaylik, qo'pollik.
Uzurmoq — jo'natmoq, yubormoq.
Uyluq — bel, bo'ksa.
Uymoq — 1-kimgadir ergashmoq; 2-kimgadir taqlid qilmoq.
Ukak — buri.
Ukush — ko'p, ziyod.
Ulan namozi — shom namozi.
Ulash — g'amgin, xuftondil.
Ulimak — ho'l bo'lmoq.
Uluv — oliy, buyuk.
Ulviviy — oliy, yuksak, yuqori.
Ulush — har doim, tinmasdan.
Ulg'armoq — ulg'aymoq, balog'atga yetmoq.
Umam — qavm, guruh, ummat.
Umanch — ishonch, umid.
Umas — ishonch.
Ummat — payg'ambar yo'lidan boruvchilar.
Umra — Makka shahriga zulqijja oyining 8-9-,10- kunlaridan boshqa paytlarda qilinadigan kichik haj amali.
Umsunmoq — umid qilmoq.
Umud/amud — ustun, tik tayanch yog'och.
Umur — ishlar, qodisalar, mushkilot.
Ungur I — to'ning etagi.
Ungur II — g'or, ungur.
Unoq — chopqi.
Urag'ut — ayol, xotin.
Urkumak — cho'chimoq, qo'rqib qochmoq, hurkmoq.

Uriamoq — qichqirmoq, na'ra tortmoq.
Urлуq — urug'lik, urug'.
Urf — ta'bir, istiloq.
Urung — oq.
Urunmak — bog'lamoq, o'ramoq.
Urug'lamoq — bolalamoq.
Uruk — mast.
Usurmak — mast bo'lmoq, kayf qilmoq.
Uftanmak — uyalmoq, andisha qilmoq.
Uxruj — tark et (uyni), chiqi.
Uchuz — arzon.
Uchuzliq — arzonchilik.
Ushoq — 1-kichik, mayda-chuyda; 2-kichik, yosh bola.
Ushra — o'ndan bir; yilda bir marta ekinlarga solinadigan soliq.
Ushra — hajning bir qismi.
Uyuk — 1-qum; 2-botqoq.
Uyukmak — botmoq.
Uyumak — uxlammoq.
Uyug' — qorong'ulik, zulmat.
Uya — urug', qarindosh.
Uqalo — aqllilar, oqillar.
Uqbo — oxirat, narigi dunyo.
Ug' — xoda, qo'noq.
Ug'on — Alloh, Tangri, Xudo.
Uhud to'qushi — 625-yilda Uhud tog'i etagida makkalik va madinaliklar o'rtasida kechgan jang.

F

Fazihat — sharmanda, rasvo, beobro'
Falastin — VII-VIII asrlarda viloyat markazi.
Farah — shodlik, ko'ngilxushlik.
Farj — 1-yoriq; 2-ayollar jinsiy a'zosi.
Fariza — bajarilish farp bo'lgan ishlar (masalan, ro'za, namoz va h.k.).
Fasihah — so'zning ochiq, ravshan va qoidaga muvofiq bo'lishi.

Foniy — yo'q bo'luvchi, yo'qoluvchi.
Forig'mish — bo'sh, ozod bo'lish, xalos bo'lish.
Furot — Iroqdagi katta daryo.

X

Xaybar — 628-yilda Muhammad payg'ambar zabt qilgan qal'a.
Xaylu xasham — bola-chaqa va tanish-bilishlar.
Xalifai vofiy — o'z so'zida turuvchi, o'z mavqeyiga muvofiq xalifa.
Xalxol — oyoqqa taqiladigan oltin yoki kumush halqa.
Xamr — may, sharob.
Xarbuz — tarvuz.
Xardala — xardala (gorchitsa).
Xarj — sarf, chiqim.
Xarroj// xiroj — 1-yer solig'i; 2. biror kimsaning tasarrufidagi yirik yerlar.

Xatir — ulug', buzurg, katta.
Xidmat — xizmat, ish, yumush.
Xozin — xazinachi.
Xoliq — yaratuvchi (Allohning sifati).
Xos — maxsus, alohida, yaqin, tegishli.
Xudaybiya — Arabiston yarim orolidagi joy nomi.
Xullat — do'stlik, birodarlik; samimiyat.
Xunin — qonli, dahshatli.
Xo'ros — xo'roz.

Ch

Chaliqliq — bebosh(lik), sho'x(lik).
Chanoq — yog'och idish; tovoq.
Cherik — qo'shin, lashkar.
Chizon — 1-chayon; 2. Chayon burji (22-oktabr — 21-noyabr).
Chichala — jimjiloq.
Chiqir — charx (ip yigiruvchi asbob).
Chig'oy — yo'qsil, qashshoq, kambag'al.
Chov — 1-xabar; 2-shon-shuhrat, dovrug', dong.

Chegurka — chigirtka.
Chuz — alvon rangli xitoy parchasi.
Chug'z — uzun kokil.
Cho'karmak — cho'ktirmoq.
Cho'g'i — qichqirish, qattiq ovoz chiqarish.

Sh

Shak — gumon, shubha.
Shar I — milga teng keluvchi uzunlik o'lchovi.
Shar II — shahar, kent.
Shariston — mustahkam qal'asiga ega katta shahar; shahriston.
Shafi' — vositachi, himoyachi.
Shaqiy — baxtsiz, gunohkor.
Shahodat — din yo'lida halok bo'lish.
Shirk — bir necha xudo bor deb e'tiqod qilish (politeizm).
Shokir — shukr etuvchi, qanoatlanuvchi.
Shom — hozirgi Suriya mamlakatining qadimgi nomi.
Shosh — siydik
Shukur — minnatdorlik, rahmat, tashakkur.
Shug'1 — shug'ullanish, kirishish.

E

Ev — uy.
Evluk — xotin, ayol.
Evurmak — aylantirmoq, teskari qilmoq.
Ev qizisi — uy qizi.
Egin — elka.
Egirmak — qurshab olmoq, o'ramoq.
Ezgu — yaxshi.
Ekindu namozi — asr namozi.
Ektulamak — boqmoq, tarbiyalamoq, voyaga yetkazmoq; oziq-ovqat, yem-xashak bermoq.
Elatmak — olib bormoq, eltmoq.
El kun — xalq.

Emgak — mashaqqat, qiyinchilik, azob.
Emganmak — 1-mashaqqat tortmoq; 2-mehnat qilmoq.
Emgatkak — azobga, mashaqqatga solmoq, qiynamoq.
Endak — tashqi tomon, tash, yuz.
Endurmak/indurmak — tushurmoq, yog'dirmoq.
Engi ko'samak — yuzi, yanog'i sarg'aymoq.
Engsalamak — ensasiga urmoq.
Epchi//ebchi — ayol, xotin.
Eran — kishi, odam.
Erin — lab.
Ernak — barmoq.
Esbarlamoq — iltijo qilmoq.
Esrutmak — mast qilmoq.
Esiz//essiz — yovuz, yomon, be'mani.
Etmak — non.
Etmakchi — novvoy.
Eshkak — eshak.

O'

O'vmak — siqmoq, qismoq.
O'vurmak — o'girmoq.
O'g — aql, fahm, farosat; hush.
O'ga — oqil, bilimdon, dono.
O'gdu — hamd, sano, maqtov.
O'gdumak — maqtamoq, hamd va sano aytmoq.
O'gmak — maqtamoq, hamd, sano aytmoq.
O'gratmak — o'rgatmoq.
O'gsuz//o'gsus I — yetim.
O'gsuz II — behush, hushsiz.
O'zurmak — jo'natmoq, yubormoq.
O'yla — o'shandoq, o'shanday.
O'ksuk — kam, oz.
O'ksukluk — ziyon, zarar, kamchilik, qusur.
O'kuz — buqa, ho'kiz.
O'kcha — tovon, oyoqning tovon qismi.

O'lak — o'lik, murda
O'mgan — bo'g'iz, bo'yin.
O'ng I — old; oldingi, avvalgi.
O'ng II — o'zga, boshqa, tashqari.
O'ngay — Mushtariy (Yupiter).
O'ngalmoq — o'z holiga kelmoq.
O'ngin — begona, boshqa, o'zga.
O'ngmoq — yo'nmoq qazimoq.
O'ng'urqa — pusht.
O'proq — uvada, juldur kiyimbosh.
O'ra — shish, bo'qoq.
O'rkamoq — qolmoq, bo'lmoq, ixtiyor qilmoq.
O'rlamak — ko'tarilmoq; yig'lamoq.
O'rnamak — o'rnamoq, joylashmoq.
O'rtmak — berkitmoq, yashirmoq; to'smoq, yopmoq.
O'rtuglu — berk, yopiq.
O'rtuglug/o'rtukluk — yashirin, sirli, mahfiy, yopiq.
O'rum — yirtiq, juldur kiyim-bosh.
O'sanmak — chetda turmoq, qochmoq.
O'tachi — tabib.
O'tru — qarshisida, yuzma-yuz.
O'fka — g'azab, nafrat, jahl.
O'fkalamok — g'azablanmoq, achchig'i kelmoq, jahli chiq moq.
O'ch — es, hush.
O'chashmoq — dushmanlashmoq,
O'cha — kishmoq.
O'qimoq — chorlamoq, chaqirmoq.
O'qunmoq — atamoq, chaqirmoq.
O'g'lon-ushoq — kichik, yosh bolalar.
O'g'ramoq — 1-yo'l olmoq, jo'namoq; 2-kirishmoq, qo'l urmoq, bi-
 rot ishni mo'ljallamoq.
O'g'ur — vaqt, payt.

Q

- Qabz qilmoq** — jonini olmoq.
Qava//Qova — paqir, chelak.
Qaviy — kuchli.
Qavl — soʻz, gap.
Qavurtluk — toʻplanish, yigʻilish, jam boʻlish.
Qadash — qarindosh.
Qadashligʻ — qarindoshlik, qarindoshga ega.
Qadr tuni — qadr kechasi, laylat ul-qadr (27-ramazon kechasi).
Qazo — 1-taqdir, qismat; 2-oʻlim.
Qazoyi namoz — namoz vaqtining oʻtib ketishi.
Qazqach — ishlab topish.
Qazgʻanch — ish haqi; foyda.
Qazgʻu — qaygʻu, alam, gʻam.
Qazgʻulugʻ — qaygʻuli, alamli, gʻamli.
Qayra — yana, tagʻin, qayta.
Qaling — qalin, sep.
Qallos — kambagʻal, qashshoq.
Qamugʻ — hamma, barcha.
Qangʻli — arava.
Qanit toʻqimoq — qanot qoqmoq.
Qap//qop — qop, qanot, mesh.
Qapugʻ/qabugʻ — eshik, darvoza.
Qaranful — qalampirunchoq.
Qaragʻu — koʻr, soʻqir.
Qari — qoʻl uchidan tirsakkacha boʻlgan oʻlchov birligi.
Qarim — oʻra, chuqurlik.
Qarincha/qarinchgʻa — chumoli.
Qarlugʻoch — qaldirgʻoch.
Qart — qari, keksa.
Qariyat us-saminina — saksonlar qishlogʻi.
Qat — qavat.
Qatarot — koʻz yoshlari.
Qatlanmoq — bardam boʻlmoq, harakat qilmoq, tirishmoq.

- Qatron** — 1-sanavbar daraxtidan muolaja uchun olinadigan qora rangli modda; 2-qora rang.
Qagʻun — qovun.
Qidva — peshvo, rahbar.
Qiyomat — oxirat kuni.
Qizliq — qimmatlilik, ocharchilik, qahatchilik.
Qiz — qirquin-choʻrilar, joriyalar.
Qil — bir turli qush nomi, qil.
Qila — aytilgan, deyilgan.
Qiloda — boʻyinga bogʻlanadigantasma, boʻyimbogʻ.
Qin — qiynoq, azob, jazo.
Qinamoq — qiynamoq, azob bermoq.
Qir — qopqoq.
Qismat — taqdir.
Qisraq — yosh baytal.
Qisas — qissalar.
Qish qamchi — egma qamchi.
Qob qavsayn//Qoba qavsayn — 1-ikki yoy oraligʻi; 2-juda yaqin masofa.
Qobaq — qovaq.
Qob qayosh — qarindosh-urugʻlar.
Qobz — gʻoz.
Qologʻligʻ — sovutli.
Qoni — qanot hosil qilgan.
Qorabosh — qul, xizmatkor.
Qotigʻliq — mashaqqat, qiynchilik.
Qof — afsonaviy togʻ.
Qofila — karvon, safarga chiqqan kishilar toʻdasi.
Qubla — boʻsa.
Qubosh — ekinzorlarda oʻrnatiladigan qoʻriqchi.
Quvarmoq — qurimoq, qurib qolmoq.
Quzi — quyi, past.
Quzuq/quzugʻ//quyuq — quduq.
Quzuruq — quyrugʻ, dum.
Qula — zaʼfaron (rang).
Qulovuz/qulagʻuz — yoʻl koʻrsatuvchi, yoʻlchi.
Qullanmoq — qul boʻlmoq.

Qumartg'u — vasiyat; tuzuk.
Qurbat — yaqinlik, yetishish.
Qurt — bo'ri.
Qurtqa/qurtg'a — kampir.
Qurum — qotib qolmoq.
Qurshannoq — belni bog'lamoq.
Qo'bsamoq — soz chalmoq.
Qo'zmoq I — ijozat etmoq, ruxsat bermoq.
Qo'zmoq II — qo'y moq, joylashtirmoq.
Qo'l — daryoning qurigan o'zani.
Qur'a — shartli belgi, chek, qur'a.
Qur'a solmoq — chek tashlamoq, fol ochmoq.
Qut — yemak, ovqat, oziq.
Qustantiniya — Konstantinopol, Istanbul.
Qutrum — Imloq tomonidan buyod etilgan shahriston.
Qushluq oshi — ertalabki ovqat, kun chiqqandan so'ng yeyiladigan ovqat, nonushta.
Qu'ush — bo'zchi do'konining bir qismi.
Qug'u — oqqush.
Qo'bormoq/qo'pormoq — bunyod etmoq, qurmoq.
Qo'bsamoq — soz chalmoq.
Qo'zmoq I — ijozat etmoq, ruxsat bermoq.
Qo'zmoq II — qo'y moq, joylashtirmoq, o'rnatmoq.
Qo'l — daryoning qurigan o'zani.
Qo'lmoq — iltijo qilmoq, iltimos qilmoq, so'rarmoq.
Qo'mimoq — zerikmoq, charchamoq.
Qo'murmoq — siljitmoq, qo'zg'atmoq.
Qo'ndog'lamoq — yo'rgaklamoq.
Qo'nuqluq — mehmondorchilik.
Qo'ngshi — qo'shni.
Qo'ng'armoq — 1-buzmoq, vayron qilmoq, 2-qo'pormoq, ag'darmoq.
Qo'ch — qo'chqor.

G'

G'ayb — 1-makonzilik; 2-sir
G'ayb ilmi — 1-g'oyibni bilish, ko'rinnagan narsani ko'ra bilish; 2-sir bilish.
G'anim — yov, dushman, raqib.
G'animat — 1-qulay fursat, imkoniyat; 2-boylik, mol-dunyo, o'lja.
G'anin — manqa, manqalab so'zlovchi.
G'ariblik — musofirlik, ilojsizlik.
G'ul — zanjir.

H

Habibulloh — Allohning ipi.
Havdaj — xotinlar tushib yurishi uchun tuya ustiga o'rnatilgan kajava.
Havl — vahima, vahshat.
Hadya — sovg'a, tortiq, in'om.
Haj — islomda besh farzdan biri (Makkaga borib Ka'batulloqni ziyorat qilish).
Xaj o'tamoq — Makkaga borib Ka'batullohni ziyorat qilmoq.
Hazor — ming.
Hazrat — ulug', mo'tabar (zot).
Hay — tiriklik, xavf, viqor.
Hay ato qilmoq — jon ato qilmoq, tiriltirmoq.
Haybat — qo'rqinch, xavf, viqor.
Hamiyatlik — oriyatli, nomusli.
Hamal — 1-quyosh yili hisobida birinchi oy nomi (mart — apre); 2-qo'y.
Hanzala — itqovun.
Haris — tamagit.
Hasad — yomon qarash, ko'ra olmaslik, ichqoralik.
Haq — Xudo, Alloh.
Haq itobi — Allohning qabri, g'azabi.
Hashom — yaqin kishi; qabiladosh.
Hibor — oqil, bilimdon.
Hijob — parda, niqob, yopinchiq.

Hijoz — Arabiston yarim orolidagi Makka va Madina shaharlari joylashgan hudud nomi.

Hilm — yumshoq tabiatlilik; sabr va sabrliklik.

Himoyat — himoya, panoh.

Hiro — Makka yaqinidagi tog'.

Hirfa — kasb, hunar.

Hiqd — gina, nafrat.

Hojib — eshik og'asi, darvozabonlar boshlig'i.

Hotif — g'oyibdan ovoz beruvchi, chaqiruvchi.

Hudhud — sassiqpopishak.

Ho ujraka — ulushingni, hissangni ol.

Huri in(ayn) — oq badanli, shahto ko'zli ayol.

Iydgoh — bayram

MUNDARIJA

Nosiruddin Rabg'uziy va uning "Qisasi Rabg'uziy" asari
(*Ergash Fozilov*)..... 3

Qisasi Rabg'uziy

Muqaddima	7
Val-qavlu fis-samovati val-arzi	10
Sifati as-samovot	11
Qissayi Odami safiy alayhis-salom	14
Qissayi Qobil va Hobil	30
Qissayi Shis alayhis-salom	35
Qissayi Idris alayhis-salom bu turur	38
Qissayi Horut va Morut	40
Qissayi Nuh nabiy alayhis-salom.....	42
Qissayi Avj ibn Unuq	51
Qissayi Hud alayhis-salom	52
Qissayi Solih yalavoch alayhis-salom	56
Qissayi Ibrohim alayhis-salom maa Namrud alayhil-la'na	66
Namrudning ko'kka og'gan so'zlari.....	77
Qissayi Ibrohim alayhis-salom maa Zul-arsh al-Malik	79
Qissayi Ismoil alayhis-salom	83
Qissayi Zabih Ismoil alayhis-salom.....	87
Qissayi binoyi Ka'ba.....	91
Qissayi valodati Is'hoq alayhis-salom	93
Ibrohim ilkinda tirilgan qushlar so'zi	95
Qissayi vafoti Ibrohim va Sora salavotullohi alayhum	98
Qissayi Lut an-nabiy alayhis-salom	99
Qissayi Ya'qub an-nabiy alayhis-salom	107
Qissayi Yusuf siddiq alayhis-salom	114
Odamiyning nafsi qilgan ishni yetmish shayton qilmaslar. Qola ash-shoiru.....	161
Yusuf payg'ambar alayhis-salom Zulayhog'a qovushgan so'zlari	189
Jodularning yolg'on so'zlari	197
Oyisaning qissasi	199

Chegurka qissasi.....	201
Muso alayhis-salom Shomg'a borg'an qissasi.....	205
Odiylar sifati.....	206
Yana yoninda qolg'an qissa.....	208
Tavrotning qissasi.....	209
Muso yalavochmi ozorlag'anlar qissasi.....	210
Muso yalavoch diydor tilagan qissasi.....	211
Qissayi Qorun alayhil-la'na.....	218
222	222
Somiriy qissasi.....	224
Bani Isroil tavnasi sifati.....	225
Sig'ir buzag'u qissasi.....	228
Muso birla Xizrning rif'at darajasi bayoni.....	232
Qissayi Dovud alayhis-salom.....	233
Tobut sifati.....	234
Jolul alayhil-la'na qissasi.....	243
Sulaymon ibn Dovud alayhis-salom qissasi.....	246
Sulaymon qarinchqa bilan so'zlashgani.....	250
Sulaymon kursining sifati.....	269
Bayt ul-muqaddas sifati.....	270
Qissayi Yunus yalavoch alayhis-salom.....	282
Qissayi Ilyos yalavoch alayhis-salom.....	286
Xizr va Ilyos alayhimas-salom so'zlari.....	288
Qissayi Jirjis yalavoch alayhis-salom.....	292
Qissayi Luqmon hakim rahmatullohi.....	295
Qissayi Uzayr yalavoch alayhis-salom.....	297
Zakariyo va Ytaho va Maryam va Iso alayhimus-salom qissasi.....	302
Iso yalavochning valodati so'zlari.....	309
Qissayi Zulqarnayn.....	318
Qissayi as'hob ul-kahf bu turur.....	321
Qissayi as'hob ul-fil.....	323
Qissayi valodati Muhammad rasulullohi sallallohu alayhi va sallam.....	330
Rasul alayhis-salomni Avurtag'a bergan so'zlari.....	333
Rasul alayhis-salom Xadichani qo'lg'an so'zlari.....	347
Muhammad al-mustafo sallallohu alayhi va sallamg'a yalavochliq kelgan so'zlari.....	350
Umar raziyallohu anhu islom kelturgan so'zlari.....	356
Payg'ambar sallallohu alayhi va sallam so'zlari.....	359
Fi fazoyili Umar ibn al-Xattob raziyallohu anhu.....	360
Fi-fazoyili Usmon ibn Affon raziyallohu anhu.....	361
Fi sifati as-sahobati al-arbaati rizvonallohi alayhim ajmain.....	362
Fi fazoyili Abu Bakr as-siddiq raziyallohu anhu.....	363
Fazoyili Ali ibn Abu Tolib raziyallohu anhu.....	365
Muhammad rasululloh arab kofirlarin imonqa da'vat qilg'an so'zlari.....	375
Rasul alayhis-salom ishorati birla oy yorilg'an so'zlari.....	376
Qissayi me'roj an-nabiy sallallohu alayhi va sallam.....	396
Rasul alayhis-salom Makkadin Madinaga hijrat qilg'an so'zlari.....	399
Badr sanchishining qissasi.....	403
Uhud sanchishining qissasi.....	406
Qissayi shahodati Hamza raziyallohu anhu.....	408
Qissayi Badr as-sug'ro.....	409
Qissayi Om al-Xudaybiya va fathi Makka.....	412
Qissayi fathi Xaybar.....	413
Qissayi ijloyi bani Nazir.....	415
Banu Qurayzani o'lturgan so'zlari.....	419
G'ulibat ar-Rum ala ahli forsiy.....	423
Qissayi Havozin.....	424
Tabuk harbining qissasi.....	424
Ja'fari Tavyyor so'zlari raziyallohu anhu.....	427
Hadisi ifki Oyisha raziyallohu anho.....	430
Rasul alayhis-salom vafoti so'zlari.....	436
Vafoti Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhu.....	437
Umar raziyallohu anhu shahodati so'zlari.....	439
Usmon raziyallohu anhu shahodati.....	442
Amir al-mo'minin Ali raziyallohu anhu shahodati so'zlari.....	444
Hasan raziyallohu anhu shahodati so'zlari.....	445
Husayn raziyallohu anhu shahodati so'zlari.....	457
Tanbih va nasihat.....	459
Xotimati qisasi ar-Rabg'uziy.....	460
Lug'at va izohlar.....	460

N 80 Nosiruddin Rabg'uziy [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Hamidulla Dadaboyev. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 504 b.

UO'K 821.512.133-3
KBK 84(50')



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

NOSIRUDDIN BURHONUDDIN RABG'UZIY

5-jild

Adabiy-badiiy nashr

Arab yozuvidan ko'chiruvchilar: *Abdulla Yunusov, Ergash Fozilov,
Hamidulla Dadaboyev*

Mas'ul muharrir: *Vahob Rahmonov*

Muharrir: *Lola Fattoyeva*

Badiiy muharrir: *Shuhrat Mirfayozov*

Dizayner: *Bobur Tuxtarov*

Texnik muharrir: *Yelena Tolochko*

Kichik muharrir: *Zilola Mahkamova*

Musahhah: *Sadoqat Beshimova*

Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,
Islom Azamatov*

Tasdiqnom raqami № 4642. 22.07.2020-y.

Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 ¹/₁₆.
Ofset qog'oz. "PT Astra Serif" gamturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 31,5. Nashriyot-hisob tabog'i 29,55.

Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 73-1/22. Buyurtma raqami № 22-284

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (71) 244-54-58, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.